ISNN: 2161-1695 (ONLINE)

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI
16-B SON

KOKAND UNIVERSITY HERALD

2025
VOLUME №16B

WWW.HERALD.KOKANDUNI.UZ
NSSS: 2161-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

16-B SON

KOKAND UNIVERSITY HERALD

VOLUME 16B

ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТ

ВЫПУСК 16В

16/2025

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

Ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

Zaxidov G‘.E. – I.f.f.d., dots.

Bosh muharrir:

Qobilova Z.B. – F.f.d., prof.

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

Javharova N.O.

Sahifalovchi muharrir:

Umarov T.M.

Texnik muharrir:

Solidjonov D.Z.

Tahririyat hay’ati:

1. G‘ulomov S. S – I.f.d., akademik
2. Sirojiddinov Sh. S – F.f.d., akademik
3. Soultana Tania Kapiki – I.f.d., prof.
4. Mark Rozenbaum – I.f.d., prof.
5. Velikorosov V.V – I.f.d., prof.
6. Maxmudov N. – I.f.d., prof.
7. Qambarov J. – I.f.d., dots.
8. Islamov A. – I.f.n., dots.
9. Xursanaliyev B. – I.f.f.d.
10. Almaz Ulvi – F.f.d., prof.
11. Qosimov A. – F.f.d., prof.
12. Asadov M. – F.f.d., prof.
13. G‘oyipov D. – F.f.d., prof.
14. Rustamov D. – F.f.d., prof.
15. Sabirdinov A. – F.f.d., prof.
16. Usmonova S. - F.f.d., dots.
17. Qurbonova F. – F.f.f.d.
18. Najmiddinov M. – F.f.f.d., dots
19. Kursad Yilmaz – P.f.d., prof.
20. Azimova Z. – P.f.d., prof.
21. Xolmatova Z. – P.f.d., dots.
22. Usmonova O. – P.f.f.d., dots.
23. Tolipova O. – P.f.f.d.
24. Hovik Panosyan – B.f.d., prof.
25. Egamberdiyeva D. – B.f.d., prof.
26. Yingbiao Sun – T.f.d., prof.
27. İsmet Özaydın – T.f.d., prof.
28. Mitupov Z.B. – T.f.d., dots.
29. Ataxojiyev M.S. – T.f.d. dots.
30. To‘ychiyev G‘.O‘. – T.f.d., dots.
31. Yusupov A. A. – I.f.f.d

Qo‘qon universiteti xabarnomasi (“Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald”) ilmiy-elektron jurnali Qo‘qon universiteti Kengashining qarori-ga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O‘zbekiston Respub-likasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi to-monidan №1138 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuning-dek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© **“Kokand University” – 2025**

Tahririyat manzili:

150100, Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turkiston ko‘chasi, 28 a-uy, 1-xonadon

Mundarija:/Outline:

1.	**F. Axmedov**	MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA QAROR QABUL QILISH VA IJRO JARAYONINING INTEGRATSIYALASHGAN BAHOLASH YO‘NALISHLARI	**5-8**
2.	**O‘. Muhammad Sobir**	MANZUM ARBA’INLARDA XALQ OG‘ZAKI IJODI UNSURLARI	**9-11**
3.	**S. Usmonova, Sh. Tojiyeva, D. Sotiboldiyev**	TURKIY SINGARMONIZM MASALASI	**12-15**
4.	**Z. Eraliyeva, M. Behzodova**	RAQAMLI TA’LIM PLATFORMALARI O‘RNIDA CHATGPT KABI SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLARI	**16-19**
5.	**N. Murtozaqulova**	SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIMGA INTEGRATSIYASI VA UNING IMKONIYATLARI	**20-24**
6.	**G. Komilova**	SIYOSIY DISKURSDA LINGVISTIK SHAXS VA UNING EMOTSIONAL-KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI	**25-27**
7.	**У. Каландаров, Н. Анваров**	ОСОБЕННОСТИ ГОСТИНИЧНОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	**28-33**
8.	**M. Mamatqulova**	A COMPARATIVE ANALYSIS OF LINGUOCULTURAL MARKERS IN UZBEK AND ENGLISH MEDIA DISCOURSE: BASED ON NATIONAL CINEMA SAMPLES	**34-37**
9.	**B. Esonboyev**	O‘ZBEKISTON SHAHAR EKOTURIZMIDA RAQAMLI EGIZAK TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SALOHIYATI	**38-40**
10.	**I. Haydarov**	MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	**41-43**
11.	**Sh. Latipov**	PRAGMATIK LAKUNALAR: NUTQ ODATLARI VA ILTIFOT STRATEGIYALARI	**44-46**
12.	**K. Salomova**	BOLALARDA DUDUQLANISHNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA KORREKSION-LOGOPEDIK ISHLAR	**47-49**
13.	**Sh. Bobomurodova**	KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA KOXLEAR IMPLANT PROTSESSORINI SOZLASH VA ESHITISHNI QABUL QILISH	**50-52**
14.	**K. Abdurashidova**	NUTQ BUZILISHLARI TASNIFI	**53-55**
15.	**B. Musayev**	BADIIY TARJIMA NAZARIYASINING ASOSIY KONSEPSIYALARI: EKVIVALENTLIK, FUNKSIONAL YONDASHUVLAR VA MADANIY BURILISH	**56-57**
16.	**A. Ahmadjonov**	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR ENERGETIKASI SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	**58-62**
17.	**D. Karshiyeva**	YOSH AVLOD TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI	**63-65**
18.	**M. Umurova**	XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA OMILLI TAHLILNI QO‘LLASH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI	**66-68**
19.	**M. Abdullayeva**	MATEMATIKA FANIDA ADAPTIV TEST TIZIMLARI	**69-70**
20.	**Z. Qodirov**	SO‘Z – TILNING MARKAZIY BIRLIGI	**71-75**
21.	**Z. Xaqiqatbekov**	TALABALAR SALOMATLIGIDA OILAVIY VA IJTIMOIY FAKTORLARNING AHAMIYATI	**76-78**
22.	**M. Xolboyeva**	THE SIGNIFICANCE OF THE IMAGES OF FLOWERS AND NIGHTINGALES IN THE EPIC POEM “KHAMSA”	**79-80**
23.	**Z. Yuldasheva**	“XOLDORXON” DOSTONIDA LEKSIK-SEMANTIK TAKRORNING LINGVOPOETIK VAZIFALARI	**81-83**
24.	**M. Mardanova**	KOMMUNAL XIZMATLAR BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR	**84-86**
25.	**H.M. Ibrohimova**	SPEECH ETIQUETTE AND ITS RELATION TO HISTORICAL CULTURE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE SYSTEMS	**87-91**
26.	**B. Janzakov**	MILLIY TURISTIK XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGINI STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL USULIDA BAHOLASH	**92-96**
27.	**N. Gafurova**	OTM TALABALARIDA IQTISODIY-HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	**97-101**
28.	**O. Astanakulov, M. Soxibova**	O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISH VA TURIZM RIVOJI: XALQARO TURISTLAR OQIMIGA TA’SIR TAHLILI	**102-108**
29.	**F. Sharipov**	O‘ZBEK MENTALITETIDA ISTAK/XOHISH IFODALARINING LINGVOKULTUROLOGIK O‘RNI	**109-111**
30.	**G. Nasirova**	ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING BOLALAR ERTAK O‘QISH USLUBINI O‘ZGARTIRISHIGA TA’SIRI	**112-114**
31.	**N. Abdullayeva**	A METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE BASED ON THESAURUS TECHNOLOGY	**115-119**
32.	**L.M.Abdunazarov**	DINIY ADABIYOTLARDA EKOLOGIK QADRIYATLAR VA ULARNING EKOLOGIK MADANIYATGA TA’SIRI	**120-122**
33.	**Sh. Rustamova**	TALABALARDA ILMIY IZLANISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	**123-125**
34.	**N. Sharipova**	INSON KAPITALI LOYIHALARINI BOSHQARISHDA DAVLAT SIYOSATINING O‘RNI	**126-128**
35.	**D. Jo‘rayeva**	OLIY TA’LIMDA INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA FILOLOGLARDA TANQIDIY QAROR QABUL QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	**129-131**
36.	**M. Akromova**	SMART-TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURISTIK INFRATUZILMA BOSHQARUVI	**132-134**
37.	**I. Mavlonov**	O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA SHAXS HAYOTINI FAROVONLASHTIRISHGA BO‘LGAN MUNOSABAT	**135-138**

38.	**M. Hojiyeva**	FILOLOG TALABALAR TERMINOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK JIHATLARI	**139-141**
39.	**S. Abdullayeva**	BUXGALTERIYA HISOBI VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK	**142-145**
40.	**Sh. Ruziyev**	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2012–2024 YILLAR DAVOMIDA TURISTIK OQIM DINAMIKASI TAHLILI	**146-149**
41.	**O. Jo‘raboyevich**	O‘ZBEK TILIDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TUSHUNCHALARINI KOGNITIV-ONTOLOGIK ASOSDA TASNIFLASH	**150-152**
42.	**N. Valixanova , M. Akramova**	O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI	**153-156**
43.	**L. Zakirova**	INKLYUZIV TA’LIMNING MUAMMO VA YECHIMLARI	**157-159**
44.	**Z. Kalendarova**	BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	**160-162**
45.	**H. Pozilov, G. Turg‘unova, F. Mulaydinov**	AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI BADIIY-IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI	**163-166**
46.	**Sh. Sadikov**	OTMLARDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATI JARAYONLARINI RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI	**167-170**
47.	**B. Esonboyev**	O‘ZBEKISTON TURIZM SANOATIDAGI MUVAFFAQIYATNI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARINI ISHLAB CHIQISH MEXANIZMLARI	**171-173**
48.	**D. Maxmudova**	MASOFAVIY TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK DIZAYN VA METODIKANING O‘RNI	**174-176**
49.	**O. Sobirova**	MUSIQA TA’LIMIDA INTEGRATSIYA VA INTERFAOL METODLAR	**177-179**

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA QAROR QABUL QILISH VA IJRO JARAYONINING INTEGRATSIYALASHGAN BAHOLASH YO‘NALISHLARI

Axmedov Farxod Raxmonjonovich
Namangan davlat texnika universiteti doktoranti
g.mail: Grettacollin68@gmail.com
tel: +998 93 705 20 30

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 1
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1285

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

mahalliy davlat hokimiyati, qaror qabul qilish, samaradorlik, ijro etish, baholash, boshqaruv jarayoni, natijadorlik, ijro samaradorligi indeksi.

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash va ularning amalda qanday ijro etilayotganini kompleks tarzda tahlil qilish masalasi o‘rganilgan. Qaror qabul qilish samaradorligi nafaqat qarorning tanlanish bosqichida, balki uning amalga oshirilish jarayonida ham to‘liq namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Tadqiqotda qarorlarning bajarilishi, sifati, o‘z vaqtida bajarilishi, aholining fikri va resurslardan foydalanish darajasi kabi omillarni qamrab olgan “Ijro samaradorligi indeksi” (ISI) modeli ishlab chiqilgan. Ushbu model yordamida qarorlar qabul qilish va ijro jarayoni o‘zaro bog‘liq holda baholanadi, bu esa mahalliy hokimiyatlar faoliyatining natijadorligini oshirishga, boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kirish. Qarorlarni qabul qilish va ularni ijro etish samaradorligini oshirishga doir masalalarni hal qilish uchun mahalliy va xorijiy mualliflarning bir qator ilmiy ishlari mavjud bo‘lib, ularda zamonaviy usullar taklif etilgan. Bu borada nazariy-metodologik hamda amaliy yo‘nalishlarda ma’lum darajada ijobiy natijalarga erishilgan.

Zamonaviy boshqaruv jarayonlarida samarali qarorlar qabul qilish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv qarorlarining samaradorligi nafaqat tashkilot yoki davlat boshqaruvi tizimining umumiy natijadorligini belgilaydi, balki resurslardan oqilona foydalanish, sifat va vaqt me’yorlariga rioya qilish hamda jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilinish darajasini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, boshqaruv jarayonida qarorlar qabul qilish va ularning ijrosi samaradorligini baholash masalalari ilg‘or ilmiy tadqiqotlarning markazida turib, turli nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Ushbu tadqiqotda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini baholash bilan birgalikda ushbu qarorlarni ijro etish samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan matematik modellashtirish va multikriterial baholash usullari tahlil qilinadi hamda yangi Ijro samaradorligi indeksi (ISI) modeli ishlab chiqiladi. Bu indeks boshqaruv qarorlarining bajarilishi darajasi, sifat ko‘rsatkichlari, ijro vaqti, jamiyat fikri hamda resurslardan foydalanish samaradorligini hisobga olgan holda qarorlarning ijro jarayonini ko‘p o‘lchovli tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur ishda amaliyotga moslashtirilgan ushbu yondashuv va matematik model yordamida mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarda boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholashning yangi mexanizmi taklif etiladi, bu esa boshqaruv jarayonlarini yanada optimallashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda boshqaruv qarorlarining samaradorligini aniqlash va baholash bo‘yicha ko‘plab metodlar taklif etilgan bo‘lsa-da, amaliyotda ularning kompleks va ko‘p mezonli tahliliga ehtiyoj sezilmoqda. Ayniqsa, qaror qabul qilishning nafaqat tayyorlash va tanlash bosqichlari, balki ijro etish jarayonining o‘zi samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bu esa boshqaruv qarorlarining ijro samaradorligini o‘lchash uchun yangi, integratsiyalashgan yondashuvlarni yaratishni talab qiladi.

L.Oxotnikova[1] fikriga ko‘ra boshqaruv qarorlari samaradorligi – qo‘yilgan maqsadga erishish darajasini tavsiflab, quyidagi mezonlar asosida aniqlanishi mumkin:

- natija va maqsad o‘rtasidagi muvofiqlik;
- natija va unga erishish uchun sarflangan xarajatlar o‘rtasidagi nisbat;
- olingan ijobiy natijalar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy natijalar o‘rtasidagi nisbat;
- amalda erishilgan natija va kutilgan natija o‘rtasidagi farq bilan aniqlash mumkin.

Tadqiqotchi olim V.I.Varfolomeyev[2] o‘zining ilmiy ishlarida boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash yo‘nalishlariga e’tibor qaratib, samaradorlikni baholashni ikki bosqichda amalga oshirish lozimligini asoslagan. Unga ko‘ra boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi;

- apriori (oldindan, nazariy) baholash bosqichi;
- aposteriori (keyinchalik, amalda) baholash bosqichi.

Apriori (nazariy) baholash - qarorni qabul qilishdan oldin, ya’ni uni amalda bajarishdan avval, uning qanday samaradorlik berishini oldindan baholash bo‘lib, bunda intuitsiya (tajriba va sezgi) asosida bo‘lishi yoki matematik modellarga asoslangan optimallashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Aposteriori (amaliy) baholash bu – qaror bajarilgandan keyin, ya’ni uning natijalari ko‘ringach, haqiqiy natijalarga qarab baholash hisoblanadi. Bunda oldindan baholash (aprior) noto‘g‘ri bo‘lsa, noto‘g‘ri qaror tanlanadi hamda keyingi baholash (aposterior) qilinmasa, xatolardan saboq olinmaydi, tajriba to‘plash imkoniyati pasayadi.

Hozirgi vaqtgacha boshqaruv qarorlarining samaradorligi qayerda shakllanishi masalasida tadqiqotchilar o‘rtasida bir fikrga kelinmagan. Ba’zi olimlarning, jumladan, boshqaruv qarorlari sohasidagi taniqli mutaxassis V.B. Remennikov[3]ning fikriga ko‘ra, qarorning samaradorlik darajasi faqatgina uni bajarish bosqichida yuzaga chiqadi, loyiha (tayyorlash) bosqichida esa faqat uning sifat asoslari shakllantiriladi.

Biroq bu yondashuv amaliy tajriba bilan to‘g‘ri kelmaydi. Chunki agar tanlangan qaror varianti noto‘g‘ri bo‘lsa, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida yuqori samaradorlikka erishish deyarli imkonsiz bo‘ladi.

Rahbar faoliyati samaradorligi nuqtayi nazaridan uning bevosita vazifalari va faoliyati boshqaruv jarayonining — ya’ni qabul qilingan va amalga oshirilgan boshqaruv qarorlarining — natijadorligi orqali aniqlanadi.

Boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholashning eng oddiy va qulay shakli — bu xarajatlar va natijalarni taqqoslashdir (1-rasm). Ushbu baholash shakli, iqtisodiy jihatdan eng maqsadga muvofiq variantni tanlashda asosiy mezon hisoblanadi.

[1] Охотникова, Л. Х. "Определение эффективности управленческих решений." *Транспортное дело России* 12-III (2006): 73-76.

[2] Варфоломеев В.И., Воробьев С.Н. Принятие управленческих решений: Учеб. пособие для вузов.- М.: КУДИЦ-ОБРАЗ, 2001. - С.20

[3] Ременников В.Б. Разработка управленческого решения. – М: Юнити-Дана, 2000



1-rasm. Boshqaruv qarorlari samaradorligi[4]

Biroq, bu jarayonda boshqaruv qarorlarining iqtisodiy foydasini baholash bilan birga, sifat ko‘rsatkichlari va mavjud xavflarni ham inobatga olish lozim.

Ko‘plab yetuk iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligining evolyutsiyasi asosan qarorlarni ishlab chiqish va tanlash bosqichlari bilan bevosita bog‘lanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, qaror qabul qilish jarayoni — ya’ni muammoni tahlil qilish, ma’lumotlarni yig‘ish, alternativalarni shakllantirish va optimal variantni tanlash — samaradorlikka zamin yaratadi.

Biroq, bu jarayonning yakuniy samarasi, ya’ni qarorning real natijalari, aynan uning amalga oshirilish bosqichi bilan chambarchas bog‘liq ekanini alohida ta’kidlash zarur. Zero, qaror ijrosining tashkiliy, moliyaviy, institutsional va inson omillariga asoslangan mexanizmlari uning natijaviyligini belgilovchi asosiy determinantlar sirasiga kiradi.

Shunday ekan, qaror qabul qilish samaradorligini kompleks tahlil qilishda nafaqat tanlash bosqichining sifat mezonlari, balki ijro jarayonining samaradorlikka ta’sir etuvchi omillari ham chuqur o‘rganilishi lozim.

Metodlar. Tadqiqot quyidagi asosiy usullarga tayangan holatda amalga oshirildi:

Tizimli tahlil – boshqaruv qarorlari jarayoni (qabul qilish, amalga oshirish va baholash)ning bosqichma-bosqich strukturaviy tahlili.

Ilmiy adabiyotlar sharhi – L. Oxotnikova, V.I. Varfolomeyev, V.B. Remennikov kabi olimlarning qaror samaradorligi haqidagi yondashuvlarini o‘rganish orqali nazariy asoslar shakllantirildi.

Matematik modellashtirish – boshqaruv qarorlari ijrosining murakkab, ko‘p omilli jarayonini raqamli ifodalash uchun ISI formulasi ishlab chiqildi.

Ekspert baholash usuli – ISI formulasi ichidagi og‘irlik koeffitsientlarini (α, β, γ, δ) aniqlash uchun sohaga oid mutaxassislarning ekspert fikrlari asosida koeffitsientlar belgilandi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida boshqaruv qarorlarining ijrosini baholashga mo‘ljallangan Ijro samaradorligi indeksi (ISI) formulasi ishlab chiqildi. Mazkur indeks turli ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda, qarorlarning bajarilish darajasi, sifat omillari, ijro vaqti, jamoatchilik fikri va resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan Ijro samaradorligi indeksi (ISI) modeli davlat boshqaruvi va turli tashkilotlar faoliyatini baholashda ko‘p mezonli yondashuv asosida matematik modellashtirish imkoniyatini yaratadi. Mazkur modelning bosh maqsadi – boshqaruv qarorlarining ijro etilishi davomida yuzaga keladigan turli omillarni yagona, umumlashtirilgan indeks shaklida ifodalash orqali ularning kompleks samaradorligini aniqlashdan iborat.

Taklif etilgan yondashuv zamirida bugungi kunda amaliyotda keng qo‘llanilayotgan ilg‘or ilmiy prinsiplarga – xususan, ko‘rsatkichlar asosida faoliyatni baholash (Performance Evaluation), ko‘p mezonli qaror qabul qilish (Multi-Criteria Decision Making, MCDM), samaradorlik indekslari (Efficiency Index) hamda jamoat sektoridagi faoliyatni baholash (Public Sector Evaluation) metodologiyalariga asoslangan holda yaratilgan bo‘lib, modelning matematik ifodasi quyidagicha taklif etiladi:

$$\text{ISI} = \left(QI^{\alpha} * BI^{\beta} * VT^{\gamma} * AF^{\delta}\right) * \left(1 - \frac{RS}{100}\right)$$

Ushbu ishlab chiqilgan formula orqali mahalliy davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlarining amalga oshirilish darajasi keng qamrovli, ko‘p mezonli yondashuv asosida baholanishi mumkin bo‘ladi. Model qaror ijrosi jarayonining turli jihatlarini bir vaqtning o‘zida tahlil qilishga imkon yaratadi. Jumladan, qarorlarning qanchalik to‘liq amalga oshirilgani, ularning sifat darajasi, belgilangan muddatda bajarilishi, aholining ushbu jarayonga munosabati hamda resurslardan qanchalik samarali foydalanilganligi kabi muhim ko‘rsatkichlar inobatga olinadi.

Formulaga kiritilgan har bir parametr o‘zining vazni – ya’ni og‘irlik koeffitsiyenti (α, β, γ, δ) bilan ifodalanadi. Bu koeffitsiyentlar soha mutaxassislarining ekspert baholari asosida aniqlanadi va turli ko‘rsatkichlarning qaror samaradorligiga ta’sir darajasini ifodalaydi. Modellashtirishda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar va ularning mazmuniy tavsifi quyida, 1-jadvalda taqdim etilgan.

1-jadval

Ko‘rsatkichlar tavsifi[5]

№	Belgilanishi	Tavsifi
1	QI – Qarorlarning bajarilishi	Qarorlarning nechta foizi to‘liq bajarilgan
2	BI – Bajarilish sifati	Sifatli, texnik va normativ talablarga muvofiqlik
3	VT – Vaqtida bajarilish	Reja asosida o‘z vaqtida amalga oshirilganlik foizi
4	AF – Aholi fikri	Qaror ijrosi bo‘yicha ijtimoiy baho (so‘rovlar asosida)
5	RS – Resurs sarfi	Resurslardan foydalanish (kamroq – yaxshi)
6	**α, β, γ, δ**	Ko‘rsatkichlarning og‘irlik koeffitsientlari, ekspert bahosi asosida belgilanadi (masalan, 0,25, 0,3 va h.k. jami 100 foizda bo‘lishi lozim)

[4] Жанузаков, Б. Ш., and Н. А. Турсунбаева. "Оценка эффективности принятия управленческих решений." *кш токтомаматов атындагы эл аралык университеттин*: 15.
[5] Muallif tomonidan tayyorlangan

Taklif etilgan ko‘rsatkichlar majmuasi ko‘p mezonli baholash (multikriterial tahlil) tamoyillariga asoslanadi. Bunday yondashuv qarorlarning faqat yakuniy natijalarini emas, balki ularni amaliyotga tadbiq etish davomida yuzaga keladigan muhim bosqich va jihatlarni ham qamrab olgan holda baholash imkonini yaratadi. Ko‘p mezonli baholashning ilmiy ahamiyati shundaki, u boshqaruv qarorlarining ijro jarayonini ko‘p qirrali va integratsiyalashgan yondashuvda tahlil qilish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Ijro samaradorligi indeksi (ISI) formulasi, aslida, klassik Multi-Criteria Decision Making (MCDM) metodologiyalarining mahalliy davlat boshqaruvi tizimlariga moslashtirilgan, amaliy foydalanishga yo‘naltirilgan modellashtirish variantidir. Bu yondashuv qarorlarning nafaqat yakuniy ko‘rinishini, balki ularni hayotga tatbiq etishdagi har bir muhim bosqichni aniq mezonlar asosida baholash imkoniyatini beradi.

An’anaviy yondashuvlarda qaror ijrosining samaradorligi odatda bitta oddiy ko‘rsatkich – masalan, “ijro foizi” yoki “amalga oshirilgan qarorlar soni” kabi statistikalar orqali ifodalanadi. Biroq bunday usul qarorlar jarayonining muhim tomonlarini inkor etishi mumkin, chunki:

qarorlar son jihatdan bajarilgan bo‘lsa-da, ularning sifati talabga javob bermasligi mumkin;

qarorlar ortiqcha vaqt yoki resurs sarfi bilan kechikkan holda amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin;

qarorlar jamiyat a’zolari tomonidan salbiy baholangan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Shu sababli ko‘p mezonli tahlil yondashuvi – ya’ni multidimensional baholash – boshqaruv qarorlari ijrosining har bir muhim ko‘rsatkichini hisobga olib, ularni tizimli tarzda baholash imkonini taqdim etadi.

Mazkur tamoyillarga tayangan holda, formulani qanday ishlashini amaliy jihatdan namoyish etish maqsadida, quyidagi 2-jadvalda qaror ijrosiga oid shartli qiymatlar keltirilgan.

2-jadval

Qarorlar ijrosining shartli qiymatlari va o‘g‘irliklari[6]

Ko‘rsatkich	Qiymat	Og‘irlik
QI	80	α=0,3
BI	75	β=0,25
VT	60	γ=0,2
AF	90	δ=0,25
RS	30	foizda

Yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan qiymatlar asosida qadamlar orqali amallarni bajaramiz.

1-qadam: Har bir ko‘rsatkichni darajaga ko‘taramiz;

$$QI^{0,3} = 80^{0,3} \approx 4,27$$
$$BI^{0,25} = 75^{0,25} \approx 3,72$$
$$VT^{0,20} = 60^{0,20} \approx 2,47$$
$$AF^{0,25} = 90^{0,25} \approx 3,17$$

2-qadam: Ko‘paytirish (numerator);

4,27·3,72·2,47·3,17≈124,44

3-qadam: Resurs sarfi omilini hisoblaymiz;

$$1 - \frac{30}{100} = 0,7$$

4-qadam: Yakuniy ISI hisoblash;

ISI=124,4·0,70=87,1

Olingan natijani biz taklif etgan ijro samaradorligini baholash shkalasiga qo‘yamiz. 3-jadvalda ilmiy tadqiqotda ishlab chiqilgan ijro samaradorligini baholash shkalasi keltirilgan.

3-jadval

Ijro samaradorligini baholash shkalasi[7]

№	ISI oraliqlari	Baholash darajalari	Tavsif
1	0 – 15	Juda past samaradorlik	Funksional izchillik mavjud emas, qarorlar ijrosiz yoki resurs isrofi haddan tashqari yuqori
2	16 – 40	Past samaradorlik	Ijroda jiddiy tizimli kamchiliklar mavjud, samaradorlik chegaradan past
3	41 – 60	O‘rtacha samaradorlik	Qarorlar asosan bajarilgan, biroq resurslar yoki sifat komponentlarida zaiflik mavjud
4	61 – 80	Qoniqarli samaradorlik	Ijro barqaror, ko‘rsatkichlar o‘rtacha-yaxshi oraliqda, tizim ishlamoqda
5	81 – 100	Yuqori samaradorlik	Qarorlar to‘liq va sifatli bajarilgan, vaqt va resurslar optimal darajada foydalangan

Yuqoridagi ilmiy formula va uni amalga oshirish mexanizmlardan quyidagilarda foydalanish mumkin:

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qaror ijrosini baholash;
- tashkiliy samaradorlik monitoring;
- mahalliy hokimiyatlar faoliyatini reytinglashda.

Muhokama. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan Ijro samaradorligi indeksi (ISI) modeli boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholashda yangi yondashuv sifatida e’tiborga loyiq. An’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, bu model qarorlarning faqat son jihatdan ijro etilganligi bilan cheklanmasdan, balki ularning sifat ko‘rsatkichlari, vaqt me’yorlariga muvofiqlik, ijtimoiy qabul qilinishi va resurslardan foydalanish darajasi kabi omillarni ham kompleks baholashga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshqaruv samaradorligini ko‘p mezonli (multikriterial) baholash usuli orqali aniqlash — amaliyotda mavjud bo‘lgan bir qator kamchiliklarni bartaraf etadi. Jumladan, ISI formulasi asosida baholangan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, qaror ijrosi to‘liq amalga oshirilgan taqdirda ham, agar u sifatsiz bo‘lsa, kechiktirilsa yoki ortiqcha resurslar sarflansa — umumiy samaradorlik sezilarli darajada pasayadi. Bu esa, “natija emas, balki jarayon ham muhim” degan yondashuvning to‘g‘riligini isbotlaydi.

Shuningdek, tajriba asosida hisoblab chiqilgan ISI = 87,1 natijasi bo‘yicha qaror ijrosi yuqori samaradorlik toifasiga kirgani ko‘rindi. Biroq resurs sarfi 30% atrofida bo‘lganligi, ushbu komponentning umumiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu esa, resurs tejamkorligini oshirish orqali modeldagi natijani yanada yuqori bosqichga olib chiqish mumkinligini anglatadi. Bunday tahlil har bir tashkilot uchun optimal strategik qarorlar ishlab chiqish va ichki jarayonlarni takomillashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot L. Oxotnikova, V.I. Varfolomeyev va V.B. Remennikov tomonidan ilgari surilgan nazariyalar asosida mustahkamlangan bo‘lib, ularning qaror samaradorligiga oid mezonlari ISI modelining nazariy bazasini shakllantirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, apriori va aposteriori baholash yondashuvlarini modellashtirishga integratsiya qilish — ISI modelining real sharoitlarda qo‘llanuvchanligini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqotda taklif etilgan og‘irlik koeffitsientlarini ekspert baholari asosida belgilash usuli ISI formulasi moslashuvchanligini ta’minlaydi. Bu esa uni turli hududlar, sohalar va tashkilotlar kontekstida moslashtirish imkonini beradi. Ya’ni, ushbu yondashuv universal tavsifga ega bo‘lib, har qanday boshqaruv tizimiga integratsiyalash mumkin.

[6] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan
[7] Muallif tomonidan iashlab chiqilgan

Biroq, ushbu yondashuvning ba’zi cheklovlari ham mavjud:

- ekspert baholarining subyektivlik darajasi model natijalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

- resurs sarfi komponentini aniq o‘lchash ba’zida murakkab va ziddiyatli bo‘lishi mumkin;

- ijtimoiy fikr komponenti esa doimiy so‘rovlar va monitoringni talab qiladi, bu esa xarajat va vaqt resurslarini oshiradi.

Kelgusida, ISI modelining ilg‘or sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili vositalari bilan integratsiyasi ushbu cheklovlarni minimallashtirishi mumkin. Masalan, real vaqtli monitoring, avtomatlashtirilgan ko‘rsatkichlar yig‘ish tizimlari yoki blokcheyn asosidagi boshqaruv mexanizmlari orqali qaror ijrosi ustidan aniq nazoratni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotda boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholashga kompleks, ko‘p mezonli yondashuv asosida yondashilib, Ijro samaradorligi indeksi (ISI) modeli ishlab chiqildi. Taklif etilgan model boshqaruv qarorlarining nafaqat bajarilish darajasi, balki ularning sifati, o‘z vaqtida amalga oshirilishi, jamoatchilik fikri va resurslardan foydalanish samaradorligini integratsiyalashgan tarzda tahlil qilish imkonini beradi. ISI modeli nazariy asosga ega bo‘lishi bilan birga, amaliyotda qo‘llash uchun mos, moslashuvchan va tizimli baholash vositasi sifatida tavsiflanadi. Bu yondashuv boshqaruv qarorlarining faqat natijalariga emas, balki ularni hayotga tatbiq etish jarayonining barcha muhim jihatlariga ham baho berishga zamin yaratadi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillarni umumlashtirib mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni yanada rivojlantirish quyidagilarni taklif qilamiz:

- raqamlashtirish va avtomatlashtirish asosida real vaqtli ISI monitoring tizimini joriy etish orqali mahalliy davlat boshqaruvi organlarida qaror ijrosini baholash uchun ISI formulasi asosida raqamli monitoring tizimi ishlab chiqilishi va faoliyatga tadbiq etilishi lozim. Bu tizim orqali har bir qarorning ijrosi real vaqt rejimida nazorat qilinadi, bu esa tezkor tahlil va moslashuvchan boshqaruvni ta’minlaydi.

- soha va hududlar kesimida ISI modelini moslashtirish va standartlashtirish bilan har bir sohaning (masalan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, infratuzilma) o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ISI ko‘rsatkichlari og‘irliklarini sektorlar bo‘yicha individual ravishda sozlash mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Bu ISI modelining universalligini saqlab, uni hududiy yoki tarmoqqa xos sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi.

- sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish asosida ekspert baholashlarini avtomatlashtirish, ya’ni og‘irlik koeffitsiyentlari va ijtimoiy fikr komponentlari subyektiv baholarga asoslanganligi sababli, bu yo‘nalishda SI texnologiyalarini jalb qilish, masalan, mashinaviy o‘rganish yordamida tahlillarni avtomatlashtirish orqali aniqlikni oshirish va inson omiliga bog‘liqlikni kamaytirish mumkin.

- mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari ijrosini baholash asosida reyting tizimini takominlashtirish va rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish
ISI modeli asosida mahalliy hokimiyatlar, tashkilotlar yoki mansabdor shaxslar uchun yillik yoki choraklik samaradorlik reytinglarini tuzish mumkin. Bu reytinglar asosida faoliyat samaradorligi yuqori bo‘lgan subyektlarni moddiy yoki nomoddiy rag‘batlantirish mexanizmini yaratish, boshqaruvning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Охотникова, Л. Х. "Определение эффективности управленческих решений." Транспортное дело России 12-III (2006): 73-76.

2. Варфоломеев В.И., Воробьев С.Н. Принятие управленческих решений: Учеб. пособие для вузов.- М.: КУДИЦ-ОБРАЗ, 2001. - С.20

3. Ременников В.Б. Разработка управленческого решения. – М: Юнити-Дана, 2000

4. Жанузаков, Б. Ш., and Н. А. Турсунбаева. "Оценка эффективности принятия управленческих решений." кш токтомаматов атындагы эл аралык университеттин: 15.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

MANZUM ARBA’INLARDA XALQ OG‘ZAKI IJODI UNSURLARI

O‘tkirbek Muhammad Sobir
Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchi
otkirbekmadumarov522@gmail.com
94-253-00-78

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 2
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1287

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

manzum arba’in, xalq og‘zaki ijodi, maqol, hadis, badiiy talqin, islomiy qadriyat.

ANNOTATSIYA

Maqolada manzum arba’inlarda xalq og‘zaki ijodi unsurlarining qo‘llanishi, ularning badiiy-estetik va ma’rifiy funksiyalari tahlil qilinadi. Xalq maqollari, matallar, ertak va qo‘shiqlardagi obrazlar orqali zamonaviy shoirlar hadis mazmunlarini o‘ziga xos badiiy talqinda ifodalaganliklari ko‘rsatilgan. Jumladan, Abdulla Oripov, G‘ayrat Majid, Mansur Jumayev, Nodira Afoqova va Sirojiddin Sayyid ijodidagi manzum hadislar misolida xalq donoligi bilan islomiy g‘oyalar uyg‘unligi yoritilgan. Mualliflar xalq maqollaridan nafaqat estetik go‘zallik, balki falsafiy, axloqiy va ijtimoiy mazmunni boyitish vositasi sifatida foydalanganliklari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada manzum arba’inlarda xalq og‘zaki ijodi unsurlarining diniy-ma’naviy qadriyatlar bilan mushtarakligi ochib beriladi.

Kirish. Xalq og‘zaki ijodi – millatning asrlar davomida to‘plagan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bebaho ma’naviy merosidir. U xalqning dunyoqarashi, ruhiy olami, qadriyatlari va orzu-umidlarini o‘zida mujassam etadi. Shu bois bugungi zamonaviy she’riyatda ham xalq og‘zaki ijodi unsurlari – maqol, matal, ertak, qo‘shiq, afsona va rivoyatlar badiiy asarlarga mazmuniy va ifodaviy boylik baxsh etib kelmoqda.

Shoirlar bu unsurlardan foydalanar ekan, xalqona ruhdagi sodda, ta’sirchan, ammo chuqur ma’noli ifodalarni o‘ziga xos uslubda qayta jonlantiradilar. Natijada, bunday asarlar xalqning ma’naviy ildizlari bilan bog‘lanib, o‘quvchining qalbida tabiiy samimiyat uyg‘otadi. Xalq maqollari she’rga falsafiy mazmun olib kirib, hayotiy tajriba va umuminsoniy g‘oyalarni ifoda etadi; ertak va qo‘shiqlardagi obrazlar esa tasavvur va hissiyot dunyosiga yo‘l ochadi.

Xalq og‘zaki ijodi janrlari zamonaviy adabiyotda nafaqat estetik, balki ma’rifiy va axloqiy vazifani ham bajaradi. Ayniqsa, manzum arba’inlar misolida bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki manzum hadislar orqali shoirlar nafaqat hadis ma’nosini she’riy shaklda ifoda etadilar, balki xalq og‘zaki ijodi orqali uni yanada jonli va xalqchil ruhda talqin etadilar.

Abdulla Oripov, G‘ayrat Majid, Mansur Jumayev, Nodira Afoqova, Sirojiddin Sayyid kabi shoirlar ijodida xalq maqollari va hikmatlarining o‘ziga xos talqinini ko‘rish mumkin. Ularning manzum hadislarida xalq donoligi bilan diniy hikmat uyg‘unlashib, badiiy mazmunni chuqurlashtiradi, milliy ruhni mustahkamlaydi. Shu tariqa xalq og‘zaki ijodi unsurlari manzum arba’inlarning estetik va ma’naviy mazmunini boyituvchi, ularning milliy zaminini mustahkamlovchi asosiy manbaga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Badiiy adabiyotda arba’ainnavislik an’anasi alohida o‘rin tutadi. Bu janr hijriy II asrdan boshlab butun Islom olamida shakllanib, diniy-ma’rifiy mazmunga ega she’riy va nasriy asarlarning rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Arba’in to‘plamlarida Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning muborak hadislaridan tanlab olinib, ular nazm yoki nasr shaklida ifodalangan. Bunday asarlar musulmon jamiyatida axloqiy tarbiya, diniy tushunchalar va ma’rifatni xalq orasida yoyishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

Manzum hadis to‘plamlari bu yo‘nalishda alohida o‘rin tutadi. She’riy shaklda yozilgan bu asarlar nafaqat diniy mazmunni yetkazgan, balki o‘quvchi qalbiga estetik zavq bag‘ishlagan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Muhayyir singari shoirlarning manzum arba’inlari bu an’ananing yuksak namunalaridir. Ularning asarlarida hadis mazmuni xalqona ohang, obraz va tazodlar bilan uyg‘unlashib, diniy g‘oyalar badiiy kuch kasb etgan.

Arba’innavislik yo‘nalishida bir qator ilmiy tadqiqotlar ham olib borilgan. Masalan, Abdulqodir Qoraxonning “Islom turk adabiyotida qir hadis”[1], Nihat O‘ztoprakning “Mumtoz turk adabiyotida manzum yuz hadis” [2] hamda Malohat Po‘latovaning “Sharq mumtoz adabiyotida arba’in yozish an’analari” [3] nomli ishlari bu sohada muhim manba sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Qirq hadis” asarlari diniy va axloqiy g‘oyalarni xalq tilida ifoda etgan holda, ma’naviy tarbiyani yuksaltirishda katta rol o‘ynagan. Ular diniy bilimlarni xalq qalbiga yaqin tilda yetkazish, hadislarning mohiyatini badiiy-estetik vositalar orqali ochib berishda beqiyos ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qiyosiy-tarixiy, lingvistik va analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Tahlil qilingan manzum hadislar xalq og‘zaki ijodi elementlarining zamonaviy adabiy matnlarga uyg‘un va maqsadli ravishda multidissiplinar funksiya bajarayotganini ko‘rsatdi. Ushbu elementlar:

- ma’lumotning ikki karra semantik quvvatini ta’minlaydi: diniy-axloqiy mazmun hamda milliy folklor tajribasini birlashtiradi;
- poetik nutqda omma tiliga xos soddalik va yorqin obrazlar orqali tafakkurga ta’sir qiladi, o‘quvchining intertekstual xotirasini faollashtiradi;
- Ijtimoiy hushyorlik, bag‘rikenglik, sadaqa, axloqiy mas’uliyat kabi konseptlarni hadis va oyatlar bilan parallel talqini orqali tez qabul qilinadigan tarzda yoritadi;
- Natijada, xalq donoligi ham islomiy qadriyatlar poetik matnda o‘zaro interferensiyaga kirib, adabiyotning ma’rifiy-tarbiyaviy salohiyatini kuchaytiradi.

Shu tariqa, manzum hadislarda xalq og‘zaki ijodiga unsurlardan foydalanish hadis mazmunini xalq dunyoqarashi bilan uyg‘unlashtirishda, uning ta’sirchanligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi – asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bebaho ma’naviy boyliklar majmuasidir. Bu boyliklar

[1] Abdülkadir Karahan, İslâm Türk Edebiyatında Kırk Hadis: Toplama, Tercüme ve Şerhleri, İstanbul: Horoz Yayınevi, 1954, s. XVII.
[2] Nihat Öztoprak, “Klasik Türk Edebiyatında Manzûm Yüz Hadisler”, Doktora Tezi, Marmara Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Eski Türk Edebiyatı Bilim Dalı, 1993, XIX +550 s.
[3] Пулатова М.Р. Шарқ мумтоз адабиётида «арбаъин» ёзиш анъаналари (Жомий, Навоий ва Фузулий асарлари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.–2020

xalqning dunyoqarashi, qalb olami, qadriyat va orzu-umidlarini ifodalaydi. Shu bois zamonaviy she'riyatda ham xalq og'zaki ijodi unsurlari – maqol va matal kabilar shoirlar ijodiga mazmun va ifoda jihatdan boylik baxsh etib kelmoqda.

Shoirlar bu unsurlardan foydalanar ekan, omma tiliga xos sodda, xalqona, ta'sirli ifodalarni o'ziga xos badiiy usulda qayta jonlantiradilar. Masalan, xalq maqollari she'rga falsafiy mazmun, hayotiy tajriba va umuminsoniy g'oyalarni olib kirsa, ertak va qo'shiqlar obrazlar orqali tasavvur va hissiyot dunyosiga yo'l ochadi.

Muhokama. Xalq og'zaki ijodi janrlari zamonaviy adabiyotda faqat estetik vazifa o'tamay, balki ma'rifiy va axloqiy g'oyalarni ifodalashda ham muhim vositaga aylangan. Buni manzum hadislar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Masalan, Abdulla Oripovning «Marhumlar sha'ni» asari so'zimiz isboti bo'la oladi. She'r vafot etganlar ortidan ular haqida yomon gap gapirmaslik hadisiga asoslanib yozilgan. Uch bandlik matnning 7–8-misralarida «Ot tepkisini ot ko'tarar, toy tepkisini – toy»[4] maqoli keltiriladi:

Toshqin sel vahmini soy ko'targaydir,
Hayotning zarbasin ko'targay hayot.
Misli toy tepkisin toy ko'targaydir,
Otning tepkisini ko'targanday ot.[5]

Ushbu frazeologik birlikning izohida «Tengqurlar, do'stlar bir-birining qattiq-qurum gaplarini ko'taradilar (yoxud ko'tarishlari kerak)»[6] deyilgan. Muallif ushbu ma'noni yanada boyitib, hamma odamlar o'zaro do'st ekanini misralar mazmuniga singdirgan. Bu esa Qur'oni karimning «**Albatta, mo'minlar *birodardirlar***»[7], degan oyati (Hujurot surasi 10-oyat) va Rasuli Akram alayhissolatu vassalomning «Musulmonlar hammasi bir biri bilan birodardir» hadisining (Termiziy rivoyati) o'ziga xos talqini ham hisoblanadi.

Abdulla Oripovning mazkur she'rida hadis va maqol asosida insonlar o'rtasidagi bag'rikenglik va o'zaro tushunish g'oyasi talqin etilgan bo'lsa, Sirojiddin Sayyidning «Sadaqa» she'ri hayot, inson umri va sadaqaning ruhiy ahamiyati haqida teran falsafiy mulohazalarni aks ettiradi. She'rda hayotning o'tkinchiligi, vaqtning qaytib kelmasligi va insonning moddiy va ma'naviy boyliklarini boshqalar bilan bo'lishish zaruriyati shunday tasvirlangan:

Dunyoning ishlari, o'ylasang agar,
Dilni chulg'ab tashlar ko'hna motamga.
Umring o'tib ketmish suvday, bir kosa
Suv tuta oldingmi chanqoq odamga?[8]

To'rtlikdagi «Umring o'tib ketmish suvday» iborasi xalq og'zaki ijodida keng qo'llaniladigan qiyoslardan biri bo'lib, u vaqtni suv oqishi bilan taqqoslashdan kelib chiqqan. Suvning oqib o'tishi, orqaga qaytmasligi hayot va vaqtning o'tishiga o'xshatilgan. Xalq maqollarida ham bu ma'noni quvvatlaydigan «Umr – oqin suv», «Vaqt ketiga qaytmas, suv ketiga oqmas»[9] kabi jumlalar mavjud.

Nodira Afoqovaning «Gunohdan qaytarmaganlar ham jazoga loyiq» sarlavhali she'rida esa «**O'rmonga o't ketsa, ho'l-u quruq baravar yonadi**»[10] degan maqol to'rtinchi misradagi «o'rmonga o't ketgan kabi» tashbehiga singdirib yuborilgan:

Dedilar: "Kimlardir botsa gunohga
Kimlardir qaytarmay qarab tursa jim,
Barchasi mustahiq bo'lgay jazoga".
O'rmonga o't ketgan kabidur, Rabbim![11]

Ma'lumki, ushbu maqol, umumiy ma'noda, biror bir ofat yoki muammo yuz berganda, aybdor yoki begunoh insonlar ajratilmasdan, hamma jabr ko'rishini ifodalaydi. U ko'pincha ijtimoiy yoki siyosiy voqealarda, jamoaviy muammolarda qo'llaniladi. Biz ko'rayotgan she'rda maqol yordamida ijtimoiy ta'sir taqqoslangan va uning sababini tushuntirishda ishlatilgan. Umumiy mazmun jamiyatda gunohkorlikka chek qo'ymaslikning zarariga ishora qiladi.

G'ayrat Majidning «Vaqt degan to'xtamas...» she'rida esa «Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi?» maqoli baloni, yomon qadarni, bemahal o'limni duo qaytarishi haqidagi hadisga ishora qilib kelganini ko'ramiz:

O'limni qaytarmoq istasang, albat,
Oltin olma, oltin duo ol har dam.
Ezgulik qilmoqni aylasang odat,
Uzoq umr ko'rib yashaysan, odam.[12]

Shoir maqoldagi «duo oltin emasi?» ritorik so'rog'ini «oltin duo» birikmasiga aylantirib, ma'noni bira to'la tasdiq shakliga o'tkazgan. Inson hayotida moddiy boylikdan ko'ra ma'naviy qadriyatlar, xususan, duo va yaxshi tilaklar ko'proq ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan. Zotan, maqolning «Oltin olma olqish ol, olqish oltin emasmi?» variantidagi «olqish» so'zi duo, tilakning sinonimi sifatida ko'riladi.[13]

«Musulmon kishi qo'li va tili bilan hech kimga ozor bermaydi» mazmunidagi hadis deyarli barcha manzum arba'in turkumlarida uchraydi. G'ayrat Majid ham ushbu talqinida uch bandlik she'r tuzgan bo'lib, uning ilk bandiga «Qilich yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi», «Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar»[14] maqollarini lafziy o'zgartirishlar bilan joylagan:

Qilich zarbidanmas, so'zning zarbidan,
Darz ketgan ko'ngilga davo yo'q, davo.
Ilon indan chiqqan shirin so'z bilan,
Kishiga muloyim so'ylamoq ravo.[15]

Odamning ochko'zlik va baxillik kabi salbiy xislatlarini ifoda etuvchi **«O'zi yemas, kishiga bermas»**[16] maqoli insonning na o'zi foydalanadigan, na boshqalarga foydalanishga ruxsat beruvchi injiq va o'ziga to'qlik holatini tasvirlaydi. G'ayrat Majidning «Xudoga ayondir...» she'rida ushbu maqol nafs to'qligi haqidagi hadisning mazmuniga moslab iqtibos qilingan:

Ko'zi och odamning hayot tarzi shu,
O'zim bo'lay deydi, o'zgani demas.
Shayton yuragiga soladi qutqu,
Birovga bermaydi, o'zi ham yemas.

E'tiborlisi, mazkur misralarda «ko'zi och», «o'zim bo'lay» iboralari ham qatnashgan bo'lib, bandning xalqona ohangini yanada boyitgan.

Muallifning «Donishmand xalqimdan...» she'rida savobi ko'p amallar ichida ro'zaning o'rni beqiyos ekani aytiladi. Ushbu ibodatga xaris bo'lish uchun «ming tanga topadigan» ishbilarmondek bo'lish tavsiya etiladi. Ya'ni «Ish bilganga ming tanga» maqoli keltiriladi:

Donishmad xalqimdan ibratli o'git,
Ish bilgan odamga nasib ming tanga.
Bir hikmat aytaman, dilginam, eshit,
Dunyo-yu oxirat g'aznasi sanga.[17]

Ushbu maqol deyarli hamma joyda «Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga» shaklida uchraydi. Lekin ba'zi o'rinlarda, ayniqsa vaqtli matbuotdagi tadbirkorlik bilan bog'liq maqolalarda ish bilgan kishi minga tanga topishi ilgari suriladi.[18] Shoir esa behuda gap, foydasiz

[4] Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: «O'qituvchi», 1984. – B.170
[5] Hoji Abdulla Orif, Haj daftari. Hikmat sadolari (Ellik hadis). – T.: "Sharq», 1992. – B.36
[6] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2018. – B.283
[7] Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi. Mutarjim: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – T.: «Sharq», 2011. – B.516
[8] Sayyid, Sirojiddin So'z yo'li: Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – T.: "Sharq», 2008. – B.253
[9] Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: «O'qituvchi», 1984. – B.71, 217
[10] O'sha asar. B.258
[11] Afoqova, Nodira. Bizning era. – T.: «IJOD-PRESS», 2019. – B.242
[12] https://t.me/gayratmajidijodiykanali/4198
[13] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2018. – B.270
[14] Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: «O'qituvchi», 1984. – B.268, 249
[15] https://t.me/gayratmajidijodiykanali/2
[16] Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: «O'qituvchi», 1984. – B.252
[17] https://t.me/gayratmajidijodiykanali/4329
[18] Masalan, «YAngi O'zbekiston» gazetasining 2023 yil 30 dekabrdagi № 272 (1061) soniga qarang.

amallar o‘rniga bir ish qilginki, savobi ming (ya’ni behisob) bo‘lsin, degan mazmunni berish uchun maqolning «ish bilganga ming tanga» shaklini tanlagan bo‘lishi mumkin.

Hushyorlik haqidagi «Mo‘min kishi bir teshikdan ikki marta chaqilmaydi» hadisi badiiy talqin qilingan she’rda «Ilonning ishi zahar solmoq»[19] maqolini uchratamiz.

Ilonning hunari hammaga ravshan,
Chaqmoqlik va zahar sochmoqdir ishi.
Bu hol, tig‘ urganday yelkangdan dushman,
Xiyonat – chin do‘stning g‘addor qilmishi.[20]

She’rning avvalgi bandida bolarining «kasbi»ga e’tibor qaratilgan va u to‘satdan chaqib olsa ham, tanaga shifo bo‘lishi aytilgan. Buning ziddini esa keltirilgan misralarda ko‘rdik. Shoir mazkur qiyos orqali, hadis mazmunidan kelib chiqib, ogohlik zarurligini uqtirgan va bunda xalq donoligining ifodasi bo‘lgan maqoldan o‘rinli foydalan olgan.

Quyidagi misralarda «Qo‘ldan berganga qush to‘ymas» hamda «Minnatli osh yegandan minnatsiz tosh yegan yaxshi»[21] maqollari o‘rin olgan va «ta’ma faqirlikning belgisi» mazmunidagi hadisning nazmiy sharhiga xizmat qilgan:

Bilsang, qo‘ldan bersa to‘ymaydi qush ham,
Haqdan so‘rash joiz avvali boshdan.
Bir kun minnat qilar berganin odam,
Axir, tosh yaxshidir minnatli oshdan.[22]

Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish Mansur Jumayev arba’inlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning hayo mavzusidagi she’rida «Uyat o‘limdan qattiq»[23] maqoli keltirilgan va to‘rtlikning badiiy qiymatini oshirgan. Maqol hadisi sharif va Islom axloqi bilan uyg‘un holda bayon etilgan. Uyat inson uchun ruhiy o‘limdan ham og‘irroq ekanligi, insonlik sharafini yo‘qotish o‘limdan ko‘ra dahshatliroq bo‘lishi ta’kidlangan:

Rasul hadisini yo qilma, yo qil,
Bandasan har nechuk, Haqdan hayo qil.
Uyat asli qattiq o‘limdan hatto,
Uyalmasang bilgan ishing bajo qil.[24]

Mansur Jumayevning «Yurak bo‘lsa botir...» she’rida Dovud payg‘ambarning Jolut (Goliaf)ni yutish qissasiga ishora qilingan. Dovudning jismoniy kuchidan ko‘ra, uning iymoni va irodasi muhimroq ekani ta’kidlangan.

Yurak bo‘lsa botir mazhar shart emas,
Bekingali ko‘hi Asqar shart emas.
Dovud bo‘l Jolutni o‘ldirmoq uchun,
Uch yuzu o‘n uchta askar shart emas.[25]

To‘rtlikning e’tiborga loyiq jihatlaridan biri kontekstga folkor motivlarining kiritilishadadir. Ma’lumki, o‘zbek xalq dostonlarida tog‘lar bilan bog‘liq miflar ko‘p uchraydi. Ushbu miflar odamlar va tabiat o‘rtasidagi mustahkam bog‘lanishni, tog‘larning muqaddaslik va qudrat bilan bog‘langanini namoyon etadi. Ulardan biri Asqartog‘ mifidir.

Asqar tog‘ obrazining xalq og‘zaki ijodida qo‘llanilishi, odatda, insonning metin irodasi, sabr-toqati va mustahkamligi bilan bog‘lanadi. Tog‘ metaforasi insonning vazmin tabiati, chidamliligi va bardoshini ifodalash uchun ishlatiladi. Tog‘ o‘zining qattiqligi bilan shamol, quyun kabi tabiat hodisalariga qarshilashtiriladi. Bu qarshilik orqali insoniy fazilatlar – hilm, sabr va matonat yuksak qadriyatlar sifatida tasvirlanadi .[26]

Ushbu muallifning yana bir she’rida «Ot o‘rnini toy bosar»[27] va «Otning tuyog‘i tuyanikidek bo‘lsa, tog‘ni ko‘taradi»[28] maqollari to‘rtlikning oxirgi misrasiga singdirib yuborilgan:

Garchi yo‘q bo‘lsa ham baxshish yarog‘i,
Ibn Ubodaning hosildor bog‘i,
Boringni sadqa qil onang nomidan,
Ot qaddin ko‘targay uning tuyog‘i.[29]

Matn insonning amali va imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkinligiga ishora bilan boshlanadi. Biroq mavjud resurslar (moliyaviy, ma’naviy yoki jismoniy) kamligiga qaramay, ko‘ngildan kelib chiqqan harakat muhim ekani ta’kidlanadi. She’r mazmunidan anglashiladiki, onaning nomidan xayrli ish qilish insonning eng oliy qadriyatlariga bo‘lgan hurmatning aksidir. Mazkur fi**kr to‘rtinchi qatordagi r**amzi tasvir orqali yanada jonlanadi. Misradagi **«**ot qaddi» onaga xizmat qilish uchun har qanday og‘irlikka tayyorlik ramzidir.

Xulosa. Xalq og‘zaki ijodi unsurlari zamonaviy manzum arba’inlarda badiiylikning asosiy manbaiga aylangan. Ular orqali shoirlar xalq tafakkuri, donoligi va hayotiy tajribasini she’riy ifoda vositasiga aylantirib, diniy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtira olganlar. Ayniqsa, maqollar hadis mazmunini chuqurroq anglatish, falsafiy ma’no va axloqiy saboq berish uchun muhim badiiy vosita sifatida xizmat qilgan. Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, G‘ayrat Majid, Mansur Jumayev kabi shoirlar ijodida xalq og‘zaki ijodi elementlari diniy mazmun bilan uyg‘unlashib, o‘quvchiga tanish, ta’sirchan va milliy ruhda yetkazilgan. Shunday qilib, manzum arba’inlarda xalq og‘zaki ijodi unsurlari nafaqat estetik vazifa, balki ma’naviy-ma’rifiy yuklama ham kasb etib, diniy va milliy qadriyatlarning uzviy bog‘liqligini ifoda etgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdülkadir Karahan, İslâm Türk Edebiyatında Kırk Hadis: Toplama, Tercüme ve Şerhleri, İstanbul: Horoz Yayınevi, 1954, s. XVII.
2. Afoqova, Nodira. Bizning era. – T.: «IJOD-PRESS», 2019.
3. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1984.
4. Hoji Abdulla Orif, Haj daftari. Hikmat sadolari (Ellik hadis). – T.: “Sharq», 1992.
5. Nihat Öztoprak, “Klasik Türk Edebiyatında Manzûm Yüz Hadisler”, Doktora Tezi, Marmara Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Eski Türk Edebiyatı Bilim Dalı, 1993, XIX +550 s.
6. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi. Mutarjim: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – T.: «Sharq», 2011.
7. Qanotli so‘zlar: Maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar. – T.: Yosh gvardiya, 1986.
8. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar mahzani. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2018.
9. Sayyid, Sirojiddin So‘z yo‘li: Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – T.: “Sharq”, 2008.
10. “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2023-yil 30-dekabrdagi № 272 (1061) soni.
11. Z.Eshanova, F.Qozoqova, Asqartog‘ obrazining mifologik talqiniga doir. «Ilmiy xabarnoma», ADU, №2 2014 yil
12. Пулатова М.Р. Шарқ мумтоз адабиётида «арбаъин» ёзиш анъаналари (Жомий, Навоий ва Фузулий асарлари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.–2020

[19] Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1984. – B.108
[20] https://t.me/gayratmajidijodiykanali/1605
[21] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2018. – B.458, 232
[22] https://t.me/gayratmajidijodiykanali/1615
[23] Qanotli so‘zlar: Maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar. – T.: Yosh gvardiya, 1986. – B.185
[24] https://t.me/Mansur_Jumayev/1113
[25] https://t.me/Mansur_Jumayev/463
[26] Bu haqda qarang: Z.Eshanova, F.Qozoqova, Asqartog‘ obrazining mifologik talqiniga doir. «Ilmiy xabarnoma», ADU, №2 2014 yil B.67
[27] Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1984. – B.170
[28] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar mahzani. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2018. – B.280
[29] https://t.me/Mansur_Jumayev/656

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

TURKIY SINGARMONIZM MASALASI

Usmonova Sofiyaxon Alimovna,
Qo‘qon davlat universiteti,
Fakultetlararo tillar kafedrasi dotsenti
e-mail: sofiya.usmonova.72@gmail.com
+99891 203 82 24
Tojiyeva Shahnoza Zafarjon qizi
Qo‘qon universiteti talabasi
+998903048120
Sotiboldiyev Dilhayot Qobuljon o‘g‘li,
Qo‘qon davlat universiteti talabasi
Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi
dilhayotsotiboldiyev5@gmail.com
+99893 615 18 10

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 3
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1288

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

turkiy tillar, o‘zbek tili, alifbo, til va imlo, singarmonizm, maqolalar, turli xil qarashlar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turkiy, xususan, o‘zbek tilida kuzatiladigan singarmonizm hodisasining tarixiy taraqqiyoti, fonetik tizimdagi o‘zgarishlari va hozirgi davrdagi izlari batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqotda singarmonizmning qadimgi turkiy til davridagi tabiiy fonetik qonun sifatidagi mavqei, zamonaviy o‘zbek tilidagi zaiflashuvi hamda funksional imkoniyatlarining torayishi ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Maqolada, shuningdek, XX asr boshlarida alifbo islohoti, imlo me’yorlari va singarmonizm masalasi yuzasidan olib borilgan ilmiy bahslar, jadid ziyolilari, fonetist olimlar va Turkologiya maktabi vakillarining qarashlari qiyosiy tarzda tahlil etilgan. Shu davrdagi lotin yozuviga o‘tish jarayoni, imlo tamoyillarining shakllanishi va fonetik prinsipga tayanish masalasida bildirilgan turli yondashuvlar o‘zaro solishtiriladi.

Muallif singarmonizmning O‘rta Osiyo turkiy tillaridagi fonologik o‘rni, uning yo‘qolishiga olib kelgan ijtimoiy-lingvistik omillar, shuningdek, bugungi o‘zbek tilida saqlanib qolgan ayrim izlari va dialektal ko‘rinishlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Maqola turkiy tillar fonetikasini o‘rganish, o‘zbek tili tarixini tadqiq etish va fonologik tizimning evolyutsiyasini tushunishga qaratilgan muhim ilmiy izlanish sifatida baholanadi.

KIRISH. XX asrning I choragidagi matbuoti sahifalari ko‘zdan kechirilganda, eng ko‘p bahs va munozaraga sabab bo‘lgan masalalardan biri milliy til, alifbo va imlo masalasidir. Bu davrlarda milliy tilga nisbatan har qanday ijobiy fikr qo‘llab-quvvatlangan, salbiy qarashlar esa millatga, millatning or-nomusiga tahdid, deb qaralgan. Masalan, alifbo, imlo, singarmonizm masalalaridagi bahslar, keskin mazmunli maqolalar davr matbuotida tez-tez bo‘y cho‘zib turgan. Abdurauf Fitratning dalillar va tahlillarga boy qator maqolalari va kitoblarida adib o‘zbek tilining tarixda tutgan o‘rni, qadimiyligi, qudrati, boshqa qardosh tillar o‘rtasidagi o‘rni, ularning shakllanishi va rivojlanishidagi ulkan ulushini butun ko‘lami bilan ochib bergan. U 1921-yilda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Til-imlo konferensiyasida: “Sharq adabiyotining hashamatli, rangli bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o‘tkanda bu kungi ovro‘po adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o‘tadir. Shunga o‘zini majbur ko‘radir. Sharq tarixi, adabiyoti – butun dunyo adabiyoti orasida singirsiz, misli yo‘q bir bog‘chadir. Bu go‘zal bog‘chadagi gullarni saralab ko‘rmakchi bo‘lsak, birinchi sirada, birinchi qatorda arab ham eron gullarini, ikkinchi sirada esa, urdu ham turk chechaklarini ko‘ramiz.

Sharq tarix adabiyotida birinchilik arab-eron adabiyotiga, ikkinchilik esa urdu ham turk adabiyotiga berilgandir. Sharq tarix adabiyotida ikkinchi o‘rin tutqon turk adabiyotining eng muhimi, eng ko‘pi, eng qimmatlisi chig‘atoy shevasidagi adabiyotdir... Unda yuksak, oliy, san’atkor adabiyot bor! Chig‘atoy tarix adabiyotida Boyqaro, Navoiy, Lutfiy, Umarxon, Fazliy kabi san’at dunyosida mo‘jiza ko‘rsatub, to‘ponlar qilg‘on qahramonlarg‘a ko‘b uchraymiz...[1].

Buyuk jadid ajdodlarimiz o‘z tili, tarixi, madaniyati, xalqi va muqaddas Vatanining ulug‘ligini juda yaxshi bilgani, qadrlaganliklari uchun ham mustamlakachilar boshqa qardosh xalqlarga nisbatan o‘zbek alifbosi va tilidagi fonetik qonuniyatlariga qarshi kurashga, tubdan o‘zgartirishga harakat qilgan.

Pyotr I qoldirgan vasiyatnomada Yevropa va Osiyo davlatlarini parchalab tashlashning tadbirlari, ularni Rossiyaga bo‘ysundirishning bosqichlari aniq dalillar bilan bayon qilingani, ayni haqiqatdir. Chorizm ma’murlari milliy tillar, milliy tillarning alifbosi, imlosini o‘zaro yaqin tillardan ajratish, ularga bosqichma-bosqich rus alifbosini joriy etish bo‘yicha faol ish olib borishgan. Masalan, chorizm vaziri Milyutin “qilich bilan boshlangan ishni rus yozuvi yakunlashi kerak, degan qarashni ilgari surganligi, Nikolay I maxfiy komissiya tomonidan polyak tili uchun ishlab chiqilgan rus alifbosi asosidagi loyihada ayrim harflar shaklini shaxsan o‘zi o‘zgartirib, rus yozuvini boshqa xalqlarga ham tatbiq etish fikrini berganligi bunga misol bo‘ladi. XX asrning 20-yillarida Tatariston, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Turkiya, O‘zbekiston kabi turkiy xalqlarning ziyolilari isloh qilingan alifbo tarafdori bo‘ldilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI. J.Xudoyberganov ma’lumotiga ko‘ra: “Bu jarayonlarni rus ma’mur va mutaxassislari sinchkovlik bilan kuzatib borgan. Sobiq sho‘ro hududidagi xalqlar, jumladan, turkiylar alifbolarini rus yozuviga o‘tkazish harakati boshlangan. Shu maqsadda 20-yillarning boshlaridan rus yozuvining afzalliklari, imkoniyatlarini targ‘ib qiluvchi maqolalar e’lon qilishga kirishilgan. Ushbu jarayonlarni nazoratga olish, muvofiqlashtirib turish bo‘yicha maxsus komissiya tuzilgan va ularga maxsus vazifalar belgilab berilgan[2].

Y.Polivanov, K.Yudaxin kabi bir qator rus turkolog olimlari bu jarayonda jonbozlik ko‘rsatganlar. Tizimli targ‘ibotlar mahalliy xalqlar ziyolilari, tilshunoslari munosabatlarini bilish maqsadida e’lon qilinib, bu qarashlar o‘z davridayoq keskin qarshilikka ushragan.

[1] 1921-yil yanvarda bo‘lg‘on birinchi o‘lka o‘zbek Til va imlo qurultoyining chiqarg‘on qarorlari. –Toshkent. 1922. –B. 35-36.

[2] Xudoyberdiyev J. “O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi”. Monografiya. – Toshkent. 2024, 18-b.

O‘zbek adabiy tilidagi alifbo va singarmonizm masalasi ham XX asrning 20-yillari o‘rtalarida ancha qizg‘in kechgan. Bu yillarda til va millat fidoyilarining kuyunchaklik ruhidagi maqolalari bilan birga, ularni chalg‘ituvchi, boshqa o‘zanga solushga qaratilgan g‘ayriilmiy chiqishlarga ham guvoh bo‘lamiz. Chunonchi, Otajon Hoshim “Yangi alifbomizning chiqishi“, “Boku plenumi natijasi”, Fitrat “Imlo kanferensiyasi munosabati bilan”, Singarmo‘nizmchi “Yana til-imlo masalasi ustida”, Botu “Til va imlomiz to‘g‘risida bir necha so‘z”, Y.Polivanov “Невозможно молчать”, M.Ramz “Muhim ilmiy kanfirinsiya oldidan”, Elbek “Til-imlomiz ustida” nomi ostida uchta maqola, Y.Yo‘ldosh “Imlo va yozuvimizni soddalashtirish tevaragida”, Y.Omon “Imloda yengillik uchun. Singarmo‘nizm asosiy qonun bo‘lmasin”, A.Zohiriy “Til va imlo maslasi”, I.Tohiriy “Til, alifbe va yozuv masalalari”, Shokir Rahim “Imlo masalasida bir-ikki so‘z”, I.Tohiriy “O‘zbek adabiy tilining orfografiyasi to‘g‘risida ba’zi bir mulohazalar (mubahasa yo‘li bilan)”, Sh.Rahimiy “Imlo anarxiyasiga xotima berilsin”, T.Ibrohim “O‘zbek tilining birlashkan imlo pro‘ekti to‘g‘risida ba’zi mulohazalar”, O.Hoshimov “O‘zbek yangi adabiy tili va uning imlosi haqida”, U.Tursun “O‘zbek tilining imlosini qulaylashtiruv yo‘lida”[3] kabi maqolalar bunga yorqin misoldir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot turkiy tillardagi singarmonizm hodisasini tarixiy-qiyosiy, struktur-fonologik va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilishga tayanadi. Avvalo, singarmonizmning turkiy tillar taraqqiyotidagi o‘rni, qadimgi yozma yodgorliklarda qanday namoyon bo‘lgani va fonetik tizimning shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri tarixiy manbalar orqali aniqlanadi. Bunda qadimgi turkiy bitiklar, eski o‘zbek tili yodgorliklari hamda umumturkiy fonetik me’yorlarni aks ettiruvchi asarlar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida zamonaviy fonologiya nazariyasi, fonema va allofonlar o‘rtasidagi munosabatlar, fonetik assimilyatsiya jarayonlari asosiy tahlil vositasi sifatida qo‘llanadi. Singarmonizmning bugungi o‘zbek tilidagi saqlangan yoki zaiflashgan ko‘rinishlarini aniqlashda dialektal materiallar, og‘zaki nutq namunalari va zamonaviy o‘zbek adabiy tili fonetik tizimi o‘rganiladi.

Shuningdek, XX asr boshlarida alifbo islohoti, imlo tamoyillari va singarmonizm haqidagi ilmiy bahslarni o‘rganishda tarixiy-lingvistik yondashuv bilan bir qatorda, ilmiy manbalar tahlili, jadid matbuoti, o‘sha davr tilshunoslarining qarashlarini qiyosiy o‘rganish usuli qo‘llanadi. Bunda til islohoti jarayonida fonetik prinsipning o‘rni, imlo me’yorlariga ta’sir etgan siyosiy, madaniy va ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Maqola metodologiyasining yana bir muhim jihati sifatida turkiy tillar o‘rtasidagi qiyosiy fonologik tadqiqotlarga tayanish, qardosh tillarda saqlanib qolgan singarmonizm unsurlarini o‘zbek tili bilan solishtirish, o‘zgarishning umumiy va xususiy sabablarini aniqlash belgilangan. Ushbu yondashuv singarmonizmning turkiy tillar uchun genetik va tipologik ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning barcha xulosalari manbalar tahlili, fonologik kuzatuvlar hamda tarixiy-qiyosiy dalillar asosida shakllantiriladi, bu esa singarmonizm hodisasining o‘zbek tili va boshqa turkiy tillardagi rivojlanish jarayonini yaxlit ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

NATIJALAR. Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida qizg‘in bahs-munozaraga sabab bo‘lgan masalalardan biri turkiy tillardagi singarmonizmdir. 1927-yil iyun oyining 3-7-kunlarida Bokuda o‘tkazilgan Butunittifoq yangi turk alifbosi markaziy qo‘mitasining I plenumida asosan lotin yozuvi asosidagi turkiy alifbolar loyihalarini unifikatsiya qilish, ya’ni birlashtirish masalasi muhokama qilingan. B.Cho‘ponzoda ushbu plenumda ham turkiy tillardagi singarmonizm masalasiga qarshi alohida to‘xtalgan. Dastlab N.To‘raqulov tomonidan singarmonizm tamoyili ilgari surilganligi, shu bois turkiy tillar alifbolaridagi harflar soni, xususan, unli tovushlarni ifodalaydigan 6 ta harfni 3 taga kamaytirish mumkinligi haqida fikr bildirgan. Amalda esa singarmonizm mavjud bo‘lgan tillar alifbolarida unli tovushlarni ifodalaydigan harflar soni ko‘p bo‘lib, qattiq va yumshoq unli tovushlarni yozuvda aks ettirish uchun alohida-alohida harflar olinishi lozim edi. B.Cho‘ponzoda va To‘raqulov muayyan tilda singarmonizm qabul qilinganda unli tovushlarni ifodalaydigan harflar soni alifboda kamayadi, degan g‘ayriilmiy fikrni ilgari surishadi. Otajon Hoshim “Boku plenumi natijasi” nomli maqolasida: “Singarmo‘nizm butun turk tili lahjalariga xosdir. U turk tili asosidir. Singarmo‘nizm turk tilining temir qonunidir. Bunday temir qonun boshqa tillarda yo‘q. Singarmo‘nizm qonuni shundan iboratdirki, turkcha har bir so‘z yo qalin, yo ingishka bo‘ladi. Masalan, **ot-otg‘a, it-itka**. Mana shu qonun o‘zbek lahjasida bo‘lg‘oni kabi boshqa turk lahjalarida ham bor... bu qonung‘a qarshi chiqg‘uchilar bor; o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar orasida bo‘lmasa ham, ozorbayjonli o‘rtoqlar orasida bor. Albatta, singarmo‘nizm qonuniga qarshi chiqish boshqa, to‘g‘ri dalillar bilan bu qonunning yo‘qligini isbot etish boshqa. Qarshi chiqg‘ushilar: til borg‘on sari o‘zgargandek, singarmo‘nizm ham o‘zgaradi va o‘zgargandir; u o‘zgarish shunday natijaga olib keladiki, singarmo‘nizm kuchli qonun bo‘lmay qoladi va undan keyin unga suyanish yaramaydi deydilar. Bu fikr hech bir to‘g‘ri emas, chunki biz alifboni kelgusidagi emas, hozirdagi tilimizga asos qilishimiz kerak. Kelgusida balki iqtisodiy o‘zgarish orqasida til oyirmasi ham bo‘lmas, ya’ni umumiy bir til bo‘lar. Qanday bo‘lmasin, bu tarix ishi. Hozirgi vaqtda tilimizda singarmo‘nizm hukm surar ekan, mushtarak alifboni shunga asos qilish kerak[4].

MUHOKAMA. Turkiy tillardan singarmonizm hodisasini chiqarishga qilingan harakatlar natijasiz yakunlanib, turkiy xalqlar vakillari tomonidan qarshilikka uchragan.

Ushbu yillarda tilga nisbatan e’tiborning kuchayganini ko‘rsatadigan ayrim qarorlar ham chiqarilganligi milliy tilga hurmat va g‘ururning kuchli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Jumladan, 1928-yilga “Davlat idoralarini o‘zbeklashtirish” hamda “O‘zbekiston Respublikasida idora, korxona va tashkilotlari ishchi xodimlarini o‘zbek tiliga majburiy o‘rgatish to‘g‘risida” ikkita tarixiy qaror qabul qilinadi. Ularda davlat idoralarini o‘zbeklashtirish Markaziy Komissiyasiga idoralarda ish yuritish hujjatlarini mahalliy va rus tiliga o‘tkazish, idoralarni asta-sekin ikki tilni biladigan xodimlar bilan to‘ldirish, o‘zbek tilini o‘rganish uchun bir, ikki, uch yillik to‘garaklar tashkil etish vazifasi yuklatilgan edi. Idora va muassasalarga 1929-yil 1-oktabrdan boshlab o‘zbek tilini bilmaydigan xodimlarni ishga olmaslik, o‘zbek tilini mensimagan yoki unga nisbatan g‘ayri munosabatda bo‘ladiganlarni o‘zbek tilini biladigan xodimlar bilan almashtirish huquqi berilgan edi.

1931-yili O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Soveti tomonidan idoralarni o‘zbeklashtirish to‘g‘risida yana bir qaror qabul qilinib, unda 1933-yil 1-aprelgacha butun O‘zbekiston bo‘ylab o‘ta muhim bu ishni tugallash belgilangan edi. Ming afsuski, qisqa muddat ichida ketma-ket qabul qilingan bu qarorlarning birortasi ham hayotga tatbiq etilmasdan qog‘ozlarda qolib ketganligi siyosiy jihatdan til ham mahv etilganligidan darak beradi[5].

A.K.Borovkov “eronlashish” nazariyasining tarafdorlari o‘ylab topilgan sxemalarini tiqishtirgani, hatto, Y.Polivanov tomonidan Toshkent so‘zining “тож(и)кент” tarzda etimologiya qilinishi tarixiy jihatdan ham, lingvistik jihatdan ham mavjud emas, deb bilgan.

Ma’lumotlarda keltirilishicha, 30-yillarning boshlaridan deyarli barcha turkiy

tillarning alifbolari, imlolari singarmonizmga moslab tuzilgan. Keyinchalik davr mafkurasi, siyosiy tazyiqi tufayli bu hodisa o‘zbek adabiy tilidan chiqarilgan.

Singarmonizm, unlilar to‘g‘risidagi bahs-munozaralarga 1934-yil 7-yanvarda Toshkentda otgan Til-imlo konferensiyasi yakun yasagan.

[3] Xudoyberdiyev J. “O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi”. Monografiya. T. 2024. 115-224-b.

[4] Xudoyberdiyev J. “O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi”. Monografiya. – Toshkent. 2024, 18-b.

[5] Yuldasheva D. O‘zbek tilida ish yuritish. – Samarqand. 2021, 8-b.

Anjumanda yangi imlo qoidalari to‘g‘risida yana Otajon Hoshim ma’ruzasi tinglangan. Muzokaralarda Shokirjon Rahimiy, Faxri Kamol, Sobirjon Ibrohim, Avloniy, G‘ozi Olim va boshqalar qatnashgan. Konferensiyada tasdiqlangan yangi imlo qoidalarida unlilar soni 6 ta (a, ə, o, u, i, e) qilib belgilangan, singarmonizm yangi sharoitda yo‘qolib borayotganligi alohida ta’kidlangan. O‘z MIK prezidiumining 1934-yil 13-martdagi qarori bilan tasdiqlangan mazkur imlo qoidalaridan keyin o‘zbek tilining yozuv tizimida singarmonizm aks ettirilmagan, 9 ta unli tovushdan 3 tasi qisqartirilib, 6 ta qilib belgilangan va bu hodisalar o‘zbek adabiy tilining ulkan ijobiy yutug‘i sifatida baholangan[6].

Hujjatlarning “bepoyon yurt”ning barcha nuqtalarida faqat rus tilida yuritilishi, qariyb 130 yil davomida hukm surgan mustamlakachilik munosabatlari va tazyiqlar natijasida o‘zbeklar yurtida asrlar davomida shakllangan ish yuritish va hujjatchilik sohasida uzilish yuz berishiga olib keldi. Ish yuritish borasidagi an’analar davom etmay qoldi. Eng achinarlisi, o‘zbek tili o‘z nomi bilan ataladigan respublikada bir chekkaga surib qo‘yildi. Rus tilini bilish baynalmilallik belgisi qilib qo‘yilgani holda o‘zbek tilini bilish, unda gapirishni talab etish esa millatchilik deb hisoblanadigan darajaga yetdi.

Keyingi yillarda mazkur masalasidagi qarashlar ham turlicha bo‘lib, uning tilimizdagi o‘rni va roli haqidagi munozaralar hozirgacha davom etib kelayotgani bu masalaga hanuzgacha to‘liq yechim topilmaganidan darak beradi.

Ba’zi olimlar singarmonizmni chuqur o‘rganish, undan foydalanish tarafdori bo‘lsalar, ayrimlari bu hodisani keskin rad etadi, uni qayta tiklashga ehtiyoj yo‘qligini isbotlashga harakat qiladi.

Masalan, X.Doniyorov, Q.Mahmudov singari olimlar singarmonizmni joriy qilish tarafdori bo‘lib, bir necha marta maqolalar e’lon qildilar. X.Doniyorov singarmonizm qonuni, uning o‘zbek tili tarixidagi o‘rni, o‘zbek adabiy tilining singarmonistik ukladli tildan singarmonizmsiz tilga qanday qilib aylanib qolgani kabi masalalar o‘zbek tilshinosligida yetarli darajada o‘rganilmaganligini alohida ta’kidlagan. Q.Mahmudov: “Hozirgi o‘zbek adabiy tili mumtoz adabiy tilimizning fonetik qonunlariga rioya qilsa, qardosh turkiy tillarga yanada yaqinlashgan bo‘lamiz”[7] degan qarashni ilgari suradi.

Yuqoridagi mulohazalarga qarshi keskin fikrlarni ham kuzatamiz. Jumladan, S.Otamirzayeva: “O‘zbek adabiy tilida singarmonizmni tiklashning iloji ham, unga ehtiyoj ham yo‘q. Til o‘z mexanizmidan yaroqsiz sifatida chiqargan vositani qabul qilmaydi”[8], “O‘zbek adabiy tilida singarmonizmni tiklashning nazariy tomondan ham, amaliy tomondan ham iloji yo‘q, unga ehtiyoj ham yo‘q” [9] deb yozadi. E.Umarovning qator ishlarida singarmonizm o‘zbek adabiy tiliga sun’iy ravishda kiritilganligi, rus olimlari tomonidan joriy etilganligi, o‘zbek tilidagi unli tovushlar miqdori, ularni tavsiflashdagi noto‘g‘ri talqinlar haqidagi fikrlari mutaxassislar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi. Aksincha, olim qarashlarining to‘g‘ri emasligi bir necha bor aniq dalillar asosida ilmiy jihatdan isbotlab berildi.

O‘zbek dialektologiyasi masalalari bilan shug‘ullanib, qator tadqiqotlar yaratgan, hatto o‘zbek tilidagi singarmonizmning yo‘qolib borishini asoslashga harakat qilgan Sh.Shoabdurahmonovning 1998-yilda e’lon qilgan “O‘zbek tilida singarmonizm” nomli maqolasida qadimgi turk, oltoy, tuva, xakas, to‘falar, ozarbayjon, turkman, tatar, boshqird, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, yoqut va o‘zbek tillaridagi bir qancha so‘zlarni keltirib, ularda singarmonizm saqlangani, turkiy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tilida ham bu hodisa amal qilishini ta’kidlaydi: “O‘zbek tili uch komponentli til bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va shakllanishida shu ush komponent (qarluq, o‘g‘uz va qipchoq lahjalari) barobar ishtirok etgan. O‘zbek tilining qarluq lahjasining o-lovchi shahar shevalarida va bu shevalar tayanch bo‘lgan o‘zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi chegaralangan; ammo o‘g‘uz va qipshoq lahjalarida, shuningdek, qarluq lahjasining a-lovshi shevalarida singarmonizm qonuniga amal qilinadi… Nihoyat shuni aytish kerakki, o‘zbek adabiy tili yozuvida singarmonistik moslashuv ifodalanmasa ham, talaffuzda ma’lum darajada amal qilib turibdi. Bu hol barcha aglyutinativ tillarga xos bo‘lgan, so‘zni tashkil etuvchi va unga o‘ziga xos ohang beruvchi fonetik hodisa-singarmonizm til va uning egalari mavjud ekan, saqlanib qolaveradi.”[10].

O‘zbek tili fonetikasini uzoq yillar davomida o‘rgangan M.Mirtojiyev ham o‘zbek tilining ayrim shahar shevalaridan tashqari barcha shevalarda ushbu qonuniyat mavjudligini e’tirof etgan.

1960-yillardan keyin ham olimlar singarminizm masalasida qarashlarini davr matbuotida berib borilgan. Jumladan, F.Abdullayev “Alisher Navoiy asarlari tilida unli tovushlar uyg‘unligi masalasiga doir”, A.Mahmudov “Tilda singarmonizm, urg‘u va tovush sistemasining o‘zaro munosabati”, I.Qo‘chqortoyev, A.Hojiyev, O.Yoqubov, N. Mahmudov, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, A.Jabborov, A.Rafiyev, A.Madvaliyev. “Tilimiz jozibasining tilsimi” E.Umarov “Kim haq...?”, “Singarmonizm nima?”, Sh.Shoabdurahmonov “O‘zbek tilida singarmonizm”, S.Otamirzayeva ““A” yumshoqmi yo qattiq..? (Umumturkiy bir masala xususida), J.Xudoyberdiyev “Masalaning tarixiga qaraylik”, M.Safarov “Tilshunoslikdagi bir bahsli qarash haqida”, B.Mengliyev,I. Azimov “Jadidlar o‘zbek tilidagi unlilar haqida” kabilar

XULOSA. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, rasmiy ravishda o‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilgani va unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonining to‘qqiztadan oltitaga tushirilganiga salkam yuz yildan oshayotganiga qaramay hozirgi kunda ham bu masala mutaxassislar o‘rtasida qizg‘in munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu masalaga oid qarash hozir ham turlicha ekanligini J.Xudoyberganov tahlilida quyidagicha beradi: “Bu borada mavjud qarashlar umumlashtiriladigan bo‘lsa, asosan ikki xil fikr bildirilganligini kuzatish mumkin:

1. Singarmonizm ko‘pchilik shevalarimizda mavjud, shu bois uni tiklash, unli tovushlarni ifodalash uchun to‘qqizta harfni qabul qilinsin.

2. Singarmonizmni tiklashga, unli tovushlarni ifodalash uchun to‘qqizta harf olishga ehtiyoj yo‘q, bular tildan tabiiy ravishda chiqib ketgan[11].

Har ikki qarash tarafdorlari o‘z fikrlarini asoslashda turli dalillar keltirishgan, maqolalar e’lon qilishgan, anjumanlarda chiqishlar qilishgan. Mustaqillik yillarida M.Qurbonova, Sh.Bobomurodova, T.Tog‘ayev, K.Kadirov, N.Yangiboyev, I.Ermatov tadqiqotlarida 20-yillardagi o‘zbek tili, imlosi, alifbosi masalalariga munosabat, “Chig‘atoy gurungi” faoliyati, uning o‘zbek tili grammatikasini yaratishdagi xizmatlari tahlil qilingan. Ushbu ishlarda singarmonizm hodisasini o‘zbek tilidan chiqarish masalasi o‘rganilmagan. I.Azimovning doktorlik dissertatsiyasida singarmonizm masalasiga to‘xtalingan, o‘rinli fikrlar aytilgan.

O‘zbek shevalari fonetikasi, leksilologiyasi va morfologiyasini singarmonizmsiz o‘rgatish va o‘qitish mumkin emas. Dastlab, bu jarayon haqida M.Qoshg‘ariy turkiy tillarning o‘zak tabiatiga qarab qo‘shimchalarning qattiq, yumshoqlikda farqlanganligini ta’kidlagan. Qipchoq lahjasida til tarixidagi ohangdoshlikning har uch holati mavjud. Tanglay uyg‘unlgida o‘zak va qo‘shimchadagi til oldilik va til orqalik holati nutqda qulaylik bois saqlanib qolgan: тиш+тиң-тишнинг; кол+дың-кулнинг, әкәси, тағасы, ағасы, сынды, тынды, көзум, қолум (қолым, көзим), сөзум (сөзим) төзум, улум (улым) каби.

Qipchoq lahjasida ayrim holatda lab ohangdoshligi buzilishi mumkin, lekin tanglay uyg‘unligi nutqda to‘liq saqlanadi.

[6] Xudoyberdiyev J. “O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi”. Monografiya. – Toshkent. 2024, 18-b.
[7] Маҳмудов Қ. Тил яқинлиги – дил яқинлиги // Фан ва турмуш, 1996, № 4. –Б. 14-15.
[8] Отамирзаева С. Сингармонизмни тиклаш шартми? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1996 йил 19 январь.
[9] Отамирзаева С. “А” юмшоқми ё қаттиқ // Фан ва турмуш, 1998, № 1, –Б. 30-31.
[10] Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилида сингармонизм // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998, № 4. –Б. 23, 25.
[11] Xudoyberdiyev J. “O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi”. Monografiya. – Toshkent. 2024, 18-b.

B.To‘ychiboyev, B.Hasanovlarning fikricha: “Odatda, ohangdoshlik odisasi nutqda qulaylikni ta’minlash, talaffuzda bir me’yorni yuzaga keltirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga talaffuzdagi o‘sha me’yor nutqda ma’lum bir musiqa, ohangni shakllantirishni yuzaga keltirishga yordam beradi.

O‘zbek adabiy tilida ham ohangdoshlik qonuniyati aksariyat amal qiladi“[12].

Biz ham shevashunos sifatida singarmonizm tarafdorimiz. Turkiy xalqlarni birlashtiradigan mazkur hodisa, adabiy tilda saqlanmagan, yo‘qolib ketgan deguvchilarga Sh.Shoabdirahmonov ta’kidlaganidek, bu tilda so‘zlashuvchi xalq bor ekan singarmonizm ham yashayveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mazkur maqolalarning asl namunalari J.Xudoyberdiyevning “O’zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi” monografiyasining ilova qismida berilgan. T. 2024. 115-224-b.
2. Yuldasheva D. O’zbek tilida ish yuritish. – Samarqand. 2021, 8-b.
3. Xudoyberdiyev J. O’zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi. Monografiya. – Toshkent. 2024, 18-b.
4. Маҳмудов Қ. Тил яқинлиги – дил яқинлиги // Фан ва турмуш, 1996, № 4. –Б. 14-15.
5. Отамирзаева С. “А” юмшоқми ё қаттиқ // Фан ва турмуш, 1998, № 1, –Б. 30-31.
6. Отамирзаева С. Сингармонизмни тиклаш шартми? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1996 йил 19 январь.
7. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси дарслиги. – Тошкент. 2004, - Б. 78-79.
8. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилида сингармонизм // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998, № 4. –Б. 23, 25.
9. 1921-yil yanvarda bo‘lg‘on birinchi o‘lka o‘zbek Til va imlo qurultoyining chiqarg‘on qarorlari. –Toshkent. 1922. –B. 35-36.

[12] Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси дарслиги. – Тошкент. 2004, - Б. 78-79.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

RAQAMLI TA’LIM PLATFORMALARI O‘RNIDA CHATGPT KABI SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLARI

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna
Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi
zamirahoneraliyeva22@gmail.com
Behzodova Madinabonu Behzod qizi
“Ta’lim” fakulteti talabasi
Behzodovamadinaxon@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 4
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1289

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Sun’iy intellekt, raqamli platformalar, oliy ta’limda texnologiyalar, adaptiv ta’lim tizimlari, ekspert tizimlar, bilimlarga asoslangan tizimlar, raqamli platformalar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola “Raqamli ta’lim platformalari o‘rnida ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari va cheklovlari” mavzusida zamonaviy ta’lim tizimining muhim jihatlari, o‘rni va samaradorligi tahlil qiladi. Maqolada sun’iy intellekt vositalari - xususan, ChatGPT, Grammarly, Notion AI kabi platformalarning talabalar hayotidagi o‘rni yoritiladi. Ularning dars tayyorlash, insho yozish, tarjima qilish kabi jarayonlardagi roli, qulayliklari hamda ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur bo‘lgan jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada sun’iy intelektning pedagogik faoliyatdagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot berilgan. Oliy ta’limni innovatsion rivojlantirish sharoitida ta’lim jarayonlarini boshqaruvchi intellektual ta’lim tizimlarining imkoniyatlari va xususiyatlari haqida so‘z boradi. Oliy ta’lim muassalarida intellektual tizimlardan foydalanish ta’lim sifatining oshishi, ta’lim jarayonlaridagi shaffoflikni ta’minlashi, talabalar uchun yaratiladigan qulayliklarning tahlili ko‘rildi. Shuningdek, ta’lim sifatini ta’minlashda sun’iy intellekt tizimlarining o‘rni va hozirgi kunda keng tarqalgan ayrim intellektual ta’lim platformalari xususida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada mavjud adabiyotlar tahlil qilinadi, ta’lim sharoitida qo‘llaniladigan sun’iy intellektga asoslangan turli usullar muhokama qilinadi, tadqiqotlar natijalari keltirilgan va sun’iy intellektning pedagogikaga ta’siri haqida tushunchalar berilgan.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar keskin rivojlanib ketdi va bu nafaqat ta’lim tizimiga, balki, an’anaviy usullarga asoslangan darslar o‘rnini raqamli platformalar, jumladan sun’iy intellekt (SI) vositalari, mobil ilovalar va raqamli texnologiyalarga asoslangan interaktiv, moslashuvchan, individual yondashuvlar egallab bormoqda. Sun’iy intellekt so‘nggi yillarda ta’lim sohasida ham keng joriy etilmoqda. SI texnologiyasi rivojlanishda davom etar ekan, SI nima ekanligini, turli SI xizmatlari qanday ishlashini va ularning maqsadlari, ijobiy va salbiy tomonlarini tushunish juda muhimdir. Sun’iy intellekt so‘nggi yillarda ta’lim sohasida ham keng joriy etilmoqda. Talabalar uchun bu texnologiyalar katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Xususan, ChatGPT, Grammarly, QuillBot, Notion AI kabi vositalar talabalarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash jarayonlarini yengillashtiradi.

Mavzuning ahamiyati shundan iboratki, ChatGPT – bu sun’iy intellekt asosida ishlaydigan virtual yordamchi bo‘lib, foydalanuvchining savollariga tushunarli tarzda javob bera oladi. Talabalar undan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda, matnlar tuzishda, mavzularni izohlab berishda foydalanishlari mumkin. Grammarly esa ingliz tilidagi matnlar uchun grammatika, uslub va orfografiyani tekshiradi, bu esa insho yoki referatlar tayyorlashda katta yordamlashadi. QuillBot yordamida esa mavjud matnlarni plagiatsiz shaklda qayta yozish, sinonimlarni tanlash va ifoda uslubini o‘zgartirish mumkin. Notion AI esa ko‘p vazifali vosita bo‘lib, eslatmalar, rejalashtirish, jadval tuzish va yozuvlarni saqlashda qulaylik yaratadi. Bu vositalarning barchasi zamonaviy talabaning samarali o‘qishi uchun mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda sun’iy intellekt vositalarining o‘quv jarayoniga ta’siri ijobiy baholanmoqda. Masalan, “Educational Technology Research and Development” jurnalida chop etilgan maqolalarda ta’kidlanishicha, sun’iy intellektga asoslangan vositalar individual o‘qitish modelini qo‘llab-quvvatlab, har bir talabaning ehtiyojiga qarab yondashish imkonini beradi. Bu esa an’anaviy o‘quv metodlaridan farqli ravishda, talabaning o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Kelajakda bu vositalarning imkoniyatlari yanada kengayib boradi. Masalan, shaxsiy AI tutorlar, ovozli suhbatlar orqali dars o‘tish, vizual tushuntirishlar kabi funksiyalar kundalik o‘quv amaliyotiga kirib keladi. Shu sababli, bugungi kunda talabalar bu texnologiyalarni puxta o‘zlashtirib olishlari, ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni o‘rganishlari kerak.

Shuningdek, mamlakatimizda pandemiya davrlaridan boshlab onlayn ta’limning keng ommalashuvi til o‘rgatish strategiyalarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Raqamli platformalar o‘quvchilarga nafaqat til o‘rganib bilim olish, balki uni real vaqtda amaliyotda qo‘llash, til muhitiga “sho‘ng‘ish” imkonini ham yaratmoqda. Aynan shu omillar ta’sirida bugungi kunda sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish usullariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Nufuzli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim vositalaridan foydalangan holda xorijiy til o‘rganayotgan o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari an’anaviy metodlarga nisbatan 30–40% yuqori bo‘lmoqda. “Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari jahon miqyosida katta o‘zgarishlar yasayotgani, ayniqsa, ta’lim tizimida tub burilishlar qilayotgani hammamizga ayon. 2023-yilda McKinsey kompaniyasining ta’lim texnologiyalariga bag‘ishlangan hisobotida raqamli texnologiyalar asosida til o‘rganuvchilar orasida til o‘zlashtirish tezligi o‘rtacha 40% ga oshgani qayd etilgan hamda 2032-yilga kelib tillarni raqamli ravishda o‘rganish bozori hajmi 101,94 millard dollarga yetishi kutilmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), adaptiv algoritmlar, ovoz tanish tizimlari, chatbotlar va til o‘rganish bo‘yicha mashinaviy o‘rganish modellari xorijiy til o‘rganishni yanada soddalashtirmoqda. Masalan, Duolingo platformasining AI vositalari avval til o‘rganuvchining darajasini aniqlab olib, keyin ularning darajasiga mos keladigan mashqlarni avtomatik tarzda taqdim etadi.

Grammarly platformasi esa yozma nutqdagi turli grammatik xatolarni tuzatish, uslubni takomillashtirish va tarjimani avtomatlashtirish orqali til o‘rganuvchilarning yozma ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, Rosetta Stone kabi ilovalar AI asosida talaffuzni to‘g‘rilash, fonetik tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Endilikda o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangicha o‘qitish va o‘rganish usullari, innovatsion platformalar, individual yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Tadbir davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar aynan shu imkoniyatlardan unumli foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilishga qaratilgan. Siz, hurmatli

pedagoglar, ChatGPT, Canva, Gamma SI, Perplexity kabi ilg‘or vositalarni o‘zlashtirib, ularni darslarda foydali qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilasiz. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli texnologiyalarni til o‘rganish jarayonlariga ham tadbiq qilish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarini to‘g‘ri va samarali qo‘llash orqali har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini qondirish va ularning imkoniyatlarini to‘liq ochib berish mumkin bo‘ladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” tamoyili doirasida maktab va oliy ta’lim bosqichlarida raqamli ta’lim vositalarining bosqichma-bosqich joriy qilinayotgani kuzatilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ – 239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida ingliz tilini o‘qitishning innovatsion metodlari, onlayn platformalari va mobil ilovalari orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘lga qo‘yilgan.

Sun’iy intellekt sohasidagi rivojlanish, insoniyatni yangi unumdorlikka olib chiqmoqda. Bu texnologiya, turli sohalarda o‘zaro aloqani osonlashtirib, ko‘plab vazifalarni avtomatlashtirish, boshqa so‘z bilan aytganda, yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Bir qancha sohalarda, sun’iy intellekt hayotimizni yanada zamonaviy va sodda qilmoqda. Bunday innovatsiyalar hamda yangi imkoniyatlar bilan birga xavfsizlik masalalari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Sun’iy intellektning bugungi kundagi dolzarbligi shundaki u kundalik hayotimizda tobora rivojlanib borayotgan XXI asrda zamonaviy texnologiyalar insonlar hayotida muhim va ajralmas qismga aylanmoqda. Ayniqsa so‘nggi yillarda takomillashgan sun’iy intellekt insonlarning nafaqat bilim olishi, balki kundalik hayotiga ham ta’sir qilmoqda. Biz sun’iy intellektdan muvaffaqqiyatli foydalanishimiz uchun, avvalo, uning rivojlanish tarixini bilishimiz zarur. Sun’iy intellekt atamasi 1955 – yilda Jon Makkarti (John McCarthy) tomonidan kiritilgan. 1956 – yilda Makkarti va boshqalar Sun’iy intellekt bo‘yicha Yozgi Dartmut Tadqiqot Loyihasi konferensiyasini tashkil etishdi. Ushbu tashabbus mashina o‘rganishi, chuqur o‘rganish, bashoratli tahlillar kabi ko‘p ixtirolar qilinishiga olib keldi. Undan tashqari, bu tashabbus yangidan – yangi sohani – ma’lumotshunoslikni (data science) keltirib chiqardi. 1990 – yillarda sun’iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997 – yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo‘yicha jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo‘ldi. Shunday qilib, Sun’iy intellekt – tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo‘llash orqali insonning aql – idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi. Sodda qilib aytganda, sun’iy intellekt kompyuterlarni odam kabi o‘ylash va ulardek yechim topishga yo‘naltiradigan texnologiyadir.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli ta’lim platformalari o‘rnida ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari va cheklovlari” mavzusi bo‘yicha o‘zbek adiblari ko‘plab izlanishlar olib borganlar. Jumladan: Saida Ismailovna Hamrayeva va Mansur Javlonbekovich Samandarov tomonidan yozilgan: “Sun’iy intellekt va uning asosida yaratilgan texnologiyalar tahlili” nomli maqolasida bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) va uning asosida yaratilgan texnologiyalar juda keng ko‘lamda qo‘llanilgan.[1] Ushbu texnologiyalar bir nechta sohalarda shu jumladan tibbiyot, ta’lim, turizm, huquq, tijorat, va boshqa sohalarda ishlatilishi va uning asosida yaratilgan texnologiyalar haqida umumiy tushuncha, ularning ishlash prinsiplari, ularning o‘rni turli sohalarda ko‘rinishi, ularning muammolari va kelajakda ularga oid e’tiroflar haqida batafsil bayon qilingan.

Xudoyorova Ziyoda Maratovna va Erkaboyeva Jasmina Safarali qizining “Sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida til o‘rgatishning innovatsion yondashuvlari” nomli maqolasida xorijiy til o‘rgatish jarayonida sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanishga oid innovatsion yondashuvlar tizimli tahlil qilingan.[2] Maqolada Global va milliy miqyosdagi amaliy tajribalar asosida til o‘rgatishda Natural Language Processing, adaptiv algoritmlar, chatbotlar va ovoz tanish tizimlarining samaradorlik darajasi ochib bergan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar, raqamli ta’lim resurslari va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida sun’iy intellect texnologiyalarining amaliyotga joriy etilishi holati yoritiladi. Maqolada mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, mavjud infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasiva til o‘rgatish jarayonining mahalliy kontekstda moslashtirilmaganligi kabi dolzarb muammolarga ham e’tibor qaratilgan.

Xudayberdiyev Firdavs Qodir o‘g‘lining “Sun’iy intellektning pedagogik faoliyatdagi o‘rni” nomli maqolasida sun’iy intelektning pedagogik faoliyatdagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot berilgan.[3] Maqolada ta’lim sifatini ta’minlashda sun’iy intellekt tizimlarining o‘rni va hozirgi kunda keng tarqalgan ayrim intellektual ta’lim platformalar xususida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada mavjud adabiyotlar tahlil qilingan, ta’lim sharoitida qo‘llaniladigan sun’iy intellektga asoslangan turli usullar muhokama qilingan, tadqiqotlar natijalari keltirilgan va sun’iy intellektning pedagogikaga ta’siri haqida tushunchalar berilgan.

Metodologiya. Ushbu maqolada ChatGPT kabi sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining raqamli ta’lim platformalari o‘rnida qo‘llanilish imkoniyatlari va ularning pedagogik jihatlarini har tomonlama o‘rganish maqsad qilingan. Maqolada zamonaviy raqamli vositalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi, ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi dialogli tizimlar (AI-based conversational systems) orqali ta’lim samaradorligini oshirish jarayonlari ko‘rib chiqildi. Oliy ta’limni innovatsion rivojlantirish sharoitida ta’lim jarayonlarini boshqaruvchi intellektual ta’lim tizimlarining imkoniyatlari va xususiyatlari haqida aytib o‘tildi. Oliy ta’lim muassalarida intellektual tizimlardan foydalanish ta’lim sifatining oshishi, ta’lim jarayonlaridagi shaffoflikni ta’minlashi, talabalar uchun yaratiladigan qulayliklarning tahlili ko‘rib chiqildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli ilmiy izlanish tamoyillariga asoslanib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Nazariy-asoslovchi yondashuv ya’ni **t**adqiqotning boshlang‘ich bosqichida ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalarining ilmiy-nazariy asoslari o‘rganildi. Buning uchun ilg‘or xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, zamonaviy pedagogika va ta’lim texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlar tahlil qilindi. Asosiy e’tibor quyidagi yo‘nalishlarga qaratildi: sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish texnologiyalarining metodologik asoslari, ChatGPT modelining ishlash prinsipi va o‘quv jarayonida undan foydalanish imkoniyatlari, an’anaviy va raqamli ta’lim platformalarining taqqoslamali tahlili, konstruktivistik ta’lim yondashuvi va sun’iy intellekt vositalari uyg‘unligi.

Adabiyotlar tahlili (Content analysis). Maqolani yozishda 2020–2025 yillarda chop etilgan dolzarb ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar, ta’lim va texnologiyalar sohasidagi ilmiy jurnallar materiallari tahlil qilindi. Bunda, ayniqsa, OpenAI tomonidan taqdim etilgan texnik hujjatlar, ChatGPTdan foydalanish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar, UNESCO va OECD kabi tashkilotlarning raqamli ta’lim bo‘yicha tavsiyalari asosiy manba sifatida qaraldi. Adabiyotlar tahlili orqali quyidagilar aniqlashtirildi: ChatGPTning ta’lim sohasidagi qo‘llanilishi bo‘yicha global tendensiyalar; Turli yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashdagi afzalliklar va cheklovlar; Pedagogik vosita sifatida ChatGPTning metodik imkoniyatlari.

Taqqoslov (komparativ) tahlil. **T**adqiqotda ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalari va an’anaviy raqamli ta’lim platformalari (masalan,

[1] S.I. Hamrayeva, M. J. Samandarov “Suniy intellect va uning asosida yaratilgan texnologiyalar tahlili” Academic research in educational sciences March, 2023 2181-1385

[2] Xudoyorova Ziyoda Maratovna va Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi “Sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida til o‘rgatishning innovatsion yondashuvlari” nomli maqolasida International Conference on MODERN EDUCATION AND INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES" 2025-05-21 2025: International Conference on MODERN EDUCATION AND INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES"

[3] Xudoyberdiyev Firdavs Qodir o’g’lining Sun’iy intellektning pedagogik faoliyatdagi o‘rni Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences May, 2024

Moodle, Coursera, Khan Academy va h.k.) o‘rtasidagi o‘zaro farqlar, afzalliklar va cheklovlar tahlil qilindi. Taqqoslov tahlil orqali quyidagilar ko‘rib chiqildi: Interaktivlik darajasi; moslashuvchanlik (adaptive learning); mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish imkoniyati; o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya o‘rnini bosish darajasi; Akademik halollik va mualliflik huquqi bilan bog‘liq muammolardir.

***Konseptual tahlil va gipotetik model qurish*.** Tadqiqot doirasida ChatGPT vositasi pedagogik jarayonda qanday metodik funksiyalarni bajarishi mumkinligi haqida konseptual model ishlab chiqildi. Ya’ni, ChatGPT: o‘quvchi uchun shaxsiy tutor, o‘qituvchi uchun metodik yordamchi, ta’lim resurslarini avtomatlashtirilgan tarzda yaratish vositasi sifatida qaralib, bu rollar alohida baholandi. Shu asosda sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishga doir gipotetik qo‘llanma modeli taklif qilindi.

Holat tahlili (case study). **N**azariy asoslarni hayotiy tajribalar bilan boyitish maqsadida turli o‘quv muassasalarida (xususan, oliy o‘quv yurtlarida) ChatGPTning amaliy qo‘llanilishi bilan bog’liq mavjud holatlar o‘rganildi. Bu holatlar orqali: o‘qituvchilarning ChatGPTdan foydalanishdagi tajribasi; O‘quvchilarning ushbu vositaga bo‘lgan munosabati; O‘quv jarayonidagi samaradorlik dinamikasi kuzatildi va umumlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuv orqali ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalarining ta’limdagi o‘rni nafaqat texnik jihatdan, balki pedagogik, psixologik va etik nuqtai nazardan ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida ushbu texnologiyalarning ta’lim tizimiga integratsiyasi uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu maqolada **r**aqamli ta’lim platformalari o‘rnida ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari va cheklovlariga oid tadqiqotlar, mutaxassislar fikrlari va statistika ma’lumotlari asosida tayyorlandi. Ilmiy izlanishlar zamonaviy pedagogik va texnopedagogik nazariyalar asosida olib borildi. Maqolada sun’iy intelektning pedagogik faoliyatdagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot berilgan. Oliy ta’limni innovatsion rivojlantirish sharoitida ta’lim jarayonlarini boshqaruvchi intellektual ta’lim tizimlaring imkoniyatlari va xususiyatlari haqida aytib o‘tilgan. Oliy ta’lim muassalarida intellektual tizimlardan foydalanish ta’lim sifatining oshishi, ta’lim jarayonlaridagi shaffoflikni ta’minlashi, talabalar uchun yaratiladigan qulayliklarning tahlili ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ta’lim sifatini ta’minlashda sun’iy intellekt tizimlarining o‘rni va hozirgi kunda keng tarqalgan ayrim intellektual ta’lim platformalar xususida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Sun’iy intellektlar, bilimlar bazasi va ma’lumotlar bazalarining intellektual tizimdagi ahamiyati va ularni qo‘llash tavsiya etildi. Bu tizimlarning tadbig‘i, o‘qish sifatining oshishi bilan baholandi.

Natijalar. Bugungi kunda sun’iy intellekt hayotimizning barcha qismlarida, shu jumladan ta’lim tizimida ham jadal rivojlanib inson ongining mahsuli hisoblangan zamonaviy intellektual vositadir. Shuningdek, ChatGPT va shunga o‘xshash sun’iy intellekt vositalari zamonaviy ta’limda yangi metodik yondashuvlar uchun muhim vosita sifatida qaralmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari hozirgi kunda ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlarni olib kelmoqda. Sun’iy intellekt (SI) bu jarayonning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. SI ta’lim jarayonining turli jihatlariga joriy etilishi bilan o‘qituvchilar va o‘quvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Men konseptual tahlilni tadqiqotlarda Qo‘qon universiteti BT 1-24 va 2-24-guruh talabalari o‘rtasida kuzatuv tarzida o‘tkazdim. Kuzatuv natijalariga ko‘ra guruhlarda o‘quvchilar soni 50 tani tashkil qiladigan bo‘lsa ularning 30%i ingliz tilidan Grammarlydan, qolgan 70%i esa deyarli Chat GPTdan foydalanadi. Bu jarayonni Holat tahlili (case study) ga ko‘ra kuzatadigan bo‘lsak, nazariy asoslarni hayotiy tajribalar bilan boyitsak bu holatlar orqali talabalar orasida ChatGPTdan foydalanish bo‘yicha ijobiy fikrlar bildirganlar 85% ni tashkil qildi. Ushbu talabalar ChatGPT ularga mustaqil ta’lim olish, dars materiallarini yanada yaxshiroq tushunish va topshiriqlarni bajarishda muhim ko’makchi vosita sifatida xizmat qilganini ta’kidladilar. Ular asosan ChatGPTning (Esse yozish va matn tahrirlash, ilmiy maqolalar uchun manbalar topish, murakkab mavzularni tushunish, turli xil chet tillarini o’rganish) kabi jihatlarini foydali ekanliklarini ta’kidladilar.



Metodologik taqqoslash diagrammasida keltirilgan ChatGPT, Grammarly, Notion AI ning ko‘rsatgichlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, ChatGPTga qaraganda adabiyotlar tahlilidan foydalanish ko‘rsatgichi juda kam foizni tashkil qiladi. Ya’ni 10-20%ni tashkil qilyapti. Chunki hozirgi kunda ChatGPTdan foydalanishda imkoniyatlar ko‘p. Konseptual tahlilda ChatGPT va Notion AI yuqoriroq, Grammarly esa ancha past. Holatlar tahlilida ChatGPT biroz ustun, Grammarly ham o‘rtacha, lekin Notion AI undan ancha yuqori foizni tashkil etadi. Kuzatish tahlilida Notion AI eng yuqori natijani ko‘rsatgan, ChatGPT ham o‘rtacha, Grammarly esa past. Adabiyotlardan foydalanishda esa ChatGPT juda yuqori, Notion AI undan pastroq, Grammarly esa eng past. Diagrammadan ko‘rinadiki, ChatCHPT ilmiy adabiyotlardan foydalanishda kuchli, Notion AI kuzatish va holat tahlilida yetakchi, Grammarly esa asosan til va grammatikaga yo‘naltirilgan bo‘lgani uchun boshqa metodologik tahlillarda past natija ko‘rsatmoqda.

Muhokama. Tadqiqotda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari va raqamli platformalarning ta’lim tizimida keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu texnologiyalarda, ayniqsa, raqamli ta’lim platformalari o‘rnini to‘liq emas, ammo sezilarli darajada to‘ldiruvchi, ba’zan esa ularni samaradorlik jihatidan ortda qoldiruvchi pedagogik qurol sifatida qaralmoqda. Bunda pedagogik afzalliklar ya’ni ChatGPTning asosiy pedagogik ustuvorliklaridan biri - bu shaxsiylashtirilgan (individual) yondashuvni ta’minlashdir. Bunda o‘quvchining bilim darajasiga mos ravishda javob berilib, murakkab tushunchalarni soddalashtirib tushuntiriladi va o‘quvchining fikrlash darajasiga mos dialog olib boradi. Shu tarzda o‘quvchiga bu mustaqil

o‘rganish yuqori motivatsiya bo‘la oladi. Bundan tashqari, boshqa afzalliklarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak o‘quvchilar undan istalgan vaqtda savollariga javob olish imkoniga ega. Tezkor ma’lumot taqdimoti haqida aytadigan bo‘lsak bunda boshqa manbalarga qaraganda tez va tushunarli javoblar olish mumkin; Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bunda esa o‘quvchilarning savollariga turli xil yo‘nalishlarda javob berish orqali ularda keng fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi; Til o‘rganishda ko‘makchi vosita – Ayniqsa, chet tillarini o‘rganishda ChatGPT samarali hamroh bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, ChatGPTning ta’limda qo‘llanilishi bir qator cheklov va xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bularni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak avvalo, bu haqiqiy inson o‘qituvchisining o‘rnini to‘liq bosolmaydi, negaki unda emotsional va ijtimoiy yondashuv yetishmaydi - sun’iy intellekt o‘quvchining hissiy holatini baholay olmaydi. Qolaversa talabalar ushbu intellektual tizimdan foydalangan holda istalgan mavzuda maqolalar, hikoyalar, esseylar yaratish mumkin. Ular har qanday antiplagiat platformalar xizmati tomonidan tekshirilganda o‘zining takrorlanmas ma’lumotlarini saqlab qoladi, ishonchli, yuqori sifatli ma’lumotlarga asoslanib ish ko‘radi. Bunday holat esa talabalarni dangasalikka, fikrlash va yozish ko‘nikmalarini zaiflashishiga olib keladi. Bunga ko‘ra o‘qituvchilarning roli kamayishi xavfi duch kelinadi va texnologiyaga haddan ziyod o‘rganib qolish ta’lim jarayonida o‘qituvchining didaktik va tarbiyaviy taraflarini cheklashiga olib kelishi mumkin. Buni raqamli platformalar bilan solishtiradigan bo‘lsak Moodle, Google Classroom, Edmodo, yoki Coursera kabi an’anaviy raqamli ta’lim platformalari, asosan, ma’lumot tarqatish, vazifa berish va baholash tizimlariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ChatGPT kabi SI vositalari interaktiv muloqotga asoslangan o‘quv muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu jihatdan ular bir-birini to‘ldirishi mumkin: raqamli platforma – tashkiliy-boshqaruv vositasi bo‘lsa, ChatGPT – o‘quvchiga shaxsiy tutor rolini bajara oladi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda o‘qituvchilarni sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha o‘qitish va metodik qo‘llanmalar yaratish ChatGPTni mustaqil o‘rganish vositasi sifatida, ammo nazorat ostida foydalanishni yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Sun’iy intellekt asosidagi vositalarni o‘quv dasturlariga integratsiya qilishda ehtiyotkorlik bilan, bosqichma-bosqich yondashishimiz, o‘quvchilarni SI vositalaridan foydalanish madaniyatiga o‘rgatish (axloqiy va texnik jihatdan) tavsiyalariga e’tibor qaratishimiz zarur. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ChatGPT va unga o‘xshash sun’iy intellekt vositalari hozirgi vaqtda raqamli ta’limning yangi bosqichini boshlab berdi. Ular an’anaviy platformalarni to‘ldiruvchi, mustaqil o‘rganishga ko‘maklashuvchi va ta’limda shaxsiylashtirish imkonini beruvchi samarali texnologiyadir. Biroq, bu vositalarning pedagogik cheklovlarini e’tiborsiz qoldirish ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ularni oqilona, nazoratli va metodik jihatdan asoslangan tarzda joriy etish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt (AL) - bu, savollarga javob berish, tasvirlar yaratish, matn yozish, ma’lumotlarni qayta ishlsh va ma’lumotlarni tahlil qilish kabi turli vazifalarni bajarishga qodir tizim. ChatGPT va unga o‘xshash sun’iy intellekt vositalari zamonaviy ta’lim jarayonida katta rol o‘ynaydi. Ular yordamida talabalar o‘z bilimlarini chuqurlashtirishi, murakkab mavzularni o‘zlashtirishi va o‘quv topshiriqlarini ancha yengil bajarishi mumkin. Ammo ularni to‘g‘ri, maqsadli va mas’uliyat bilan qo‘llash zarur. Sun’iy intellekt – bu yordamchi, ammo asosiy ijodkor har doim insonning o‘zi bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, sun’iy intellekt vositalari yordamida til o‘rganish jarayoni ham samarali tarzda tashkil etilishi mumkin. Sun’iy intellekt ta’lim jarayoniga to‘g‘ri va maqsadli yo‘naltirilgan holda integratsiyalansa, u zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi va ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. YUNESCO “Artificial Intelligence in Education” https://www.unesco.org/en/digital education/artificial-intelligence

2. D.Qo‘shboqova, D.Boltayeva, Z.Shermamatova (2023) “The role of technology in language learning”, “Journal of language pedagogy and innovative applied linguistics”. 1(4), 181-184.

3. Hansuk Um, Hisam Kim, Dain Choi, Hyungna Oh “An AI-based English education platform during the COVID-19 pandemic”, Universal access in the information society. VL-23. pp. 1233-1248. https://dl.acm.org/doi/10.1007/s10209-023-01046-2

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIMGA INTEGRATSIYASI VA UNING IMKONIYATLARI

Murtozaqulova Nafosatxon Akmaljon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti: rus tili” yo‘nalishi talabasi
E-mail: murtozakulovanafosat@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 5
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1290

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Sun’iy intellekt (SI), ta’lim jarayoni, adaptiv ta’lim, virtual o‘qitish, ma’lumotlarni tahlil qilish, innovatsion texnologiyalar.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga integratsiyasi jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — zamonaviy raqamli vositalar, xususan, sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish, ularning o‘quv jarayoniga integratsiyasi samaradorligini baholash va mavjud metodik-amaliy muammolarni aniqlashdir. Shuningdek, maqolada sun’iy intellektning ta’lim tizimiga kiritilishi bilan bog‘liq innovatsion yondashuvlar, metodologik asoslar va O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida uning amaliy qo‘llanilishi xususiyatlari keltiriladi. Tadqiqotda yuqori ta’limda texnologik integratsiyaning o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi va bu jarayondagi amaliy qiyinchiliklar tahlil qilinadi.

Kirish. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari hayotimizning turli jabhalarida, jumladan ta’lim sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayon nafaqat o‘qitish metodikasini o‘zgartirib, balki ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv shaklga keltirishga yordam bermoqda. Sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayoni shaxsiylashtirilmoqda, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘qitish uslublari ishlab chiqilmoqda.

SI texnologiyalarining ta’limga integratsiyasi o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilish, ularga individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish va o‘qituvchilarga pedagogik jarayonni samarali boshqarishda ko‘maklashish imkonini beradi. Shuningdek, bunday texnologiyalar o‘qituvchilarga har bir o‘quvchini chuqurroq tushunish va ularning qobiliyatlarini aniqlash imkoniyatini taqdim etadi.

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari har yili ta’lim sohasiga chuqurroq kirib bormoqda. O‘z navbatida, Ilon Mask 2025-yil oxiriga kelib sun’iy intellekt modellari har qanday odamdan aqlliroq bo‘lishini bashorat qilmoqda. Uning fikricha, sun’iy intellekt 2030-yilga borib barcha odamlarning aql-zakovatidan oshib ketishi ehtimoli 100% ni tashkil qiladi.

Generativ AIning o‘sishi va ChatGPT kabi yirik til modellarining keng qo‘llanilishi ushbu texnologiyaning roli haqida yangi munozaralar to‘lqinini keltirib chiqarmoqda. Rossiyada AIning ta’lim sohasiga kirib borish darajasi hali ham past. SberUniversity va GeekBrains tahlilchilari “Ta’limdagi o‘zgarishlarni boshqarish: Generativ AI” hisobotida shunday xulosaga kelishmoqda. Tadqiqotga ko‘ra, o‘qituvchilarning 13 foizi va talabalar va tinglovchilarning 10 foizi generativ AI vositalaridan foydalanadi. Bundan tashqari, texnologiyaning ijobiy ta’siriga ishonadigan talabalar ulushi o‘qituvchilar ulushidan yuqori - 77% ga nisbatan 51%.

Ta’lim sohasida AI integratsiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ta’lim jarayonlariga texnologiyalarni joriy etishdan asosiy maqsad iqtisodiy foyda olish emas, balki obyektiv ko‘rsatkichlar tizimi bilan o‘lchash qiyin bo‘lgan ta’lim sifatini oshirishdir. Biroq, McKinsey fikricha, sun’iy intellektning joriy etilishi global ta’lim sanoatining daromadlarini 4 foizgacha oshirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt bilimlarni baholash jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar o‘qituvchilarga o‘quvchilar ishini tezkorlik bilan tekshirish imkonini beradi, talabalar bilan ijodiy va tahliliy ish uchun vaqt ajratadi. Bunday tizimlar nafaqat javoblarning to‘g‘riligini tekshirishi, balki yozma asarlarning grammatik xatolarini, matn tuzilishini, hatto stilistik xususiyatlarini ham tahlil qilishi mumkin. AIning ta’lim olish imkoniyatini yaxshilash imkoniyatlari haqida unutmasligimiz kerak. Virtual yordamchilar va chatbotlar talabalarga kecha yoki kunduzning istalgan vaqtida maslahat va yordam berishlari mumkin. Bu, ayniqsa, o‘qishni ish yoki boshqa mas’uliyat bilan birlashtirgan talabalar uchun, shuningdek, an’anaviy ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniga ega bo‘lmaganlar uchun juda muhimdir.

Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Sun’iy intellekt (SI) oliy ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi natijasida o‘qitish jarayoni yanada interaktiv va moslashuvchan bo‘lib bormoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’limga integratsiyasi, uning ta’lim jarayoniga ta’siri va qo‘llanilishining afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, SI joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularning yechimlari haqida ham fikr yuritiladi. Maqola oliy ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. Sun’iy intellekt odamlarning ichida ishlaydigan raqamli dunyoning har bir jabhasiga kirishi va o‘rganishi mumkin[1].

Oliy ta’limning kelajagi yangi texnologiyalar va aqlli mashinalarning hisoblash imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Sun’iy intellekt sohasidagi yutuqlar oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv, o‘quv jarayonlari va ichki infratuzilmani tubdan o‘zgartirish imkonini beradi. Bu esa o‘qitish va o‘rganishga yangi yondashuvlarni, shuningdek, yangi imkoniyatlar bilan birga muammolarni ham yuzaga chiqaradi.

Shu bilan birga, "sun’iy intellekt nima?" degan savol falsafiy jihatdan ham muhim masala bo‘lib, Aristoteldan beri turli pozitsiyalar orqali bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Yakuniy ta’rif borasida hanuzgacha to‘liq kelishuv mavjud emas. Biroq, shubhasizki, sun’iy intellektning ta’siri bugungi kunda nafaqat texnik, balki ilmiy va falsafiy sohalarda ham chuqur sezilmoqda. U oliy ta’limni yanada samarali, moslashuvchan va raqamli avlodga moslashtirilgan tizimga aylantirishda asosiy vositaga aylanmoqda.

U raqamli muhitda ishlash, axborotni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va shaxsiy ehtiyojlarga moslashish kabi funksiyalarni bajarish orqali inson salohiyatini kengaytirmoqda. Ayniqsa, SI texnologiyalarining operatsion samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda foydalanuvchi tajribasini yaxshilashdagi roli ta’lim sohasida katta qiziqish uyg‘otmoqda (Russell & Norvig, 2010). Oliy ta’lim tizimining kelajagi sun’iy intellekt va boshqa ilg‘or texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq. SI orqali o‘qitish, o‘rganish va boshqaruv jarayonlarini transformatsiya qilish, o‘quv jarayonlarini shaxsiylashtirish, adaptiv baholash tizimlarini joriy etish, ilmiy izlanishlarda tahliliy quvvatni oshirish mumkin bo‘ladi. Bu esa nafaqat ta’lim sifati, balki universitetlar samaradorligini ham oshirishga xizmat qiladi (Holmes et al., 2021).

Sun’iy intellektga oid konseptual yondashuvlar XX asrning o‘rtalaridan boshlab rivojlanib kelmoqda. 1950-yillarda Alan Turing mashina "aqlli" bo‘lishi mumkinmi degan savolni ko‘ndalang qo‘ygan va “Turing testi” orqali bu masalaga nazariy asos yaratgan. 1956 yilda esa

[1] Mikalef P, Gupta M. Artificial intelligence capability: conceptualization, measurement calibration, and empirical study on its impact on organizational creativity and firm performance. Inf Manag. 2021;58(3): 103434.

Jon Makkarti sun’iy intellektni "har qanday aqliy faoliyatni mashinada simulyatsiya qilish mumkinligi haqidagi taxmin" asosida ta’riflab bergan. Bugungi kunga kelib, SI kontseptsiyasi hali ham falsafiy, ilmiy va texnologik jihatdan keng muhokama qilinmoqda (Bayne, 2015; Botrel et al., 2015).

Zamonaviy tadqiqotlar SI texnologiyalarining oliy ta’limdagi o‘rnini tobora kengaytirayotganini ta’kidlamoqda. Afrika oliy ta’lim tizimida olib borilgan adabiy manbalar tahliliga ko‘ra, SI quyidagi yo‘nalishlarda muhim ahamiyatga ega: shaxsiylashtirilgan ta’lim, adaptiv baholash, akademik tahlillar, ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtirish, o‘qitish va ilmiy kontentni yaratish (Adebayo & Olatunji, 2023). Biroq, bu jarayonlar bilan birga etik, texnologik va metodik muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Fanlararo tafovutlar, texnologiyaga bo‘lgan tengsizlik va foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi bu texnologiyalarni samarali tatbiq etishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi (Nkambou et al., 2022).

Shuningdek, ayrim olimlar sun’iy intellekt yutuqlari natijasida o‘qituvchining roli qayta ko‘rib chiqilishini, hatto ayrim hollarda sun’iy “o‘qituvchi robotlar” bilan almashtirilishini taxmin qilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonining insoniy omildan qisman chetlashishiga olib kelishi mumkin (Bayne, 2015).

UNESCO (2021) hisoboti ham global miqyosda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimida qo‘llanilishi ortib borayotganini va bu texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar ish yukini kamaytirish, moslashtirilgan o‘qitish strategiyalarini joriy qilish hamda ilg‘or baholash usullarini ishlab chiqish mumkinligini ta’kidlagan. Shu bilan birga, hisobotda ta’limda SI-dan foydalanishda axloqiy me’yorlar, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi va teng imkoniyatlar masalalari dolzarb muammo sifatida ko‘rsatilgan (UNESCO, 2021).

Ushbu tushunchalarni inobatga olgan holda, sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’limga samarali integratsiya qilish ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar sun’iy intellekt vositalarining o‘quv jarayoniga ta’sirini chuqur o‘rganishga, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni aniqlashga hamda axborot xavfsizligi, etik me’yorlar va raqamli tenglik masalalarini kompleks yoritishga qaratilishi lozim.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasini o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlar qo‘llanildi. Avvalo, mavjud adabiyotlar va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, sun’iy intellektning ta’limdagi roli va afzalliklari haqida mavjud bilimlar yig‘ildi. Bu jarayon induktiv va deduktiv yondashuvlar yordamida amalga oshirildi. Induktiv yondashuv orqali individual tadqiqotlardan umumiy prinsiplar va tendensiyalar chiqarildi, deduktiv yondashuv esa ilmiy nazariyalar va fikrlarni amaliy misollar bilan tasdiqlashga xizmat qildi. Tadqiqotda, shuningdek, gipotetik metoddan foydalanildi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri haqida ilgari surilgan ilmiy taxminlar amaliy misollar asosida sinovdan o‘tkazildi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishdagi muammolar va ularning yechimlari tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida tarixiy metod ham qo‘llanilib, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib borish jarayoni va bu jarayondagi yutuqlar o‘rganildi. Bunday metod o‘quv tizimlarida ilgari qo‘llanilgan texnologiyalarning ta’sirini tahlil qilishga yordam berdi. Shuningdek, ikkilamchi tahlil metodidan foydalanildi. Bu metod yordamida, mavjud ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, ularning asosida sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi samaradorligi haqida aniq xulosalar chiqarildi. Ma’lumotlar va kuzatuvlar tavsiflash metodi yordamida tizimli tarzda bayon etildi Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga integratsiyasi nafaqat o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarga individual yondashuvni joriy etish imkonini yaratadi. Biroq, bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, pedagogik yondashuvlarni yangilash va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish zarur. Tadqiqotning yakuniy xulosalari, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga integratsiya qilishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish va ularni amaliy yondashuvlar orqali bartaraf etishning muhimligini ta’kidlaydi.

Natijalar. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’limga integratsiyasi borasida bir nechta muhim holatlar aniqlangani kuzatildi. Xususan, so‘nggi yillarda ta’limda AI texnologiyalarining jadal sur’atda rivojlanayotgani, ayniqsa, oliy ta’limda ularning qo‘llanilish darajasi ortib borayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy tajribalarda, jumladan AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda sun’iy intellekt texnologiyalari dars jarayonlarini shaxsiylashtirish, talabalarni baholash, o‘quv resurslarini avtomatlashtirish va virtual yordamchilar orqali bilim berish sohalarida keng qo‘llanilmoqda (1-rasm). Masalan, AQShdagi Arizona universiteti 2023-yilda AI asosida ishlovchi chatbot tizimlari orqali 36% gacha darsdan tashqari maslahat berish samaradorligini oshirganini e’lon qilgan.

Tadqiqot davomida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining oliy ta’lim tizimiga integratsiyasi borasida bir qator dolzarb holatlar aniqlanib, ularning ilmiy-tahliliy asoslari o‘rganildi. Jumladan, global miqyosda sun’iy intellekt vositalaridan ta’lim sohasida foydalanish darajasi yildan-yilga ortib borayotgani kuzatildi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan so‘rovlar natijasiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha oliy o‘quv yurtlarining 96% i sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’limda qo‘llash muhimligini tan olgan bo‘lsa, talabalarning 82% i bu texnologiyalar o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini bildirgan.(1-rasm)



1-rasm. Sun’iy intellekt qo‘llanilishi bo‘yicha global statistikalar (2024)

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi kontekstida olib borilgan tahlillar esa sun’iy intellektning integratsiyasi hali boshlang‘ich bosqichda ekanini ko‘rsatmoqda. Ta’lim jarayonining raqamlashtirilayotgani, ayrim universitetlarda AI asosida test sinovlari, onlayn monitoring tizimlari, masofaviy ta’lim platformalari joriy etilayotgan bo‘lsa-da, bu sohadagi texnologik infratuzilma va kadrlar salohiyati hali yetarli emas.



2-rasm. AI texnologiyalarining oliy ta’limga integratsiya darajasi

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, AQSh, Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda sun’iy intellekt texnologiyalari keng ko‘lamda oliy ta’lim tizimiga integratsiyalangan. AQShda integratsiya darajasi 90% atrofida baholansa, Xitoyda bu ko‘rsatkich 85%, Janubiy Koreyada esa 80% ni tashkil qilmoqda. Bu mamlakatlarda AI yordamida darslarni moslashtirish, talabalarning bilim darajasini individual baholash va interaktiv o‘quv platformalarini yaratish keng ommalashgan.

Boshqa tomondan, O‘zbekiston va Qozog‘iston kabi Markaziy Osiyo mamlakatlarida bu daraja nisbatan past bo‘lib, mos ravishda 40% va 50% ni tashkil etmoqda. Bu esa sun’iy intellekt texnologiyalarining to‘liq joriy qilinmaganini yoki rivojlanish bosqichida ekanligini anglatadi.

Markaziy Osiyo davlatlari sun’iy intellektni (AI) davlat siyosatida birinchi o‘ringa qo‘yib, uning mintaqaviy rivojlanish uchun strategik ahamiyatini ko‘rsatmoqda. “News Central Asia” nashri xabariga ko‘ra, har bir davlat o‘ziga xos ustuvorlik va vazifalarni belgilab qo‘ygan, biroq ularning barchasi yagona maqsad – sun’iy intellekt infratuzilmasini rivojlantirish, mutaxassislar tayyorlash va innovatsiyalarni rag‘batlantirish yo‘lida harakat qilmoqda.

Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston sun’iy intellektga asoslangan tashabbuslarga faol sarmoya kiritmoqda. Ularning sa’y-harakatlari orasida tadqiqot markazlarini qurish, ta’lim dasturlarini takomillashtirish va startaplar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kiradi**.**

O‘zbekiston sun’iy intellekt (AI) rivojlanishini tezlashtirmoqda, turli sohalarda 20 dan ortiq sun’iy intellektga asoslangan loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakat sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha bo‘lgan strategiyani qabul qilib, hukumat tomonidan sun’iy intellektni rivojlantirishga tayyor bo‘lgan dunyodagi eng yaxshi 50 davlat qatoriga kirishni maqsad qilgan. Ushbu strategiya doirasida O‘zbekiston sun’iy intellekt asosidagi dasturiy ta’minot va xizmatlarga 1,5 milliard dollar sarmoya kiritishni rejalashtirmoqda. Tashabbus AIga yo‘naltirilgan 10 ta ixtisoslashtirilgan tadqiqot laboratoriyalarini tashkil etish va katta ma’lumotlarni qayta ishlash uchun yuqori samarali server infratuzilmasini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonning sun’iy intellekt strategiyasining asosiy tarkibiy qismi bu ishchi kuchini rivojlantirishdir. BAA bilan hamkorlikda mamlakat 1 million sun’iy intellekt bo‘yicha dasturchilarni tayyorlash bo‘yicha ulkan dasturni boshladi. Ushbu keng ko‘lamli tashabbus mamlakatning sun’iy intellektga asoslangan o‘zgarishini qo‘llab-quvvatlash uchun kuchli iste’dodlar quvurini qurishga qaratilgan.

Sun’iy intellektga asoslangan tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston 2025-yildan boshlab AI innovatsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimlarini ishga tushiradi. Akseleratsiya dasturlari va venchur investitsiya tashabbuslari AI startaplari uchun mablag‘ va resurslar bilan ta’minlaydi, dinamik texnologik ekotizimni rivojlantiradi.

Hukumat tomonidan ilgari surilgan strategik yo‘nalishlar, jumladan, 1 million AI dasturchini tayyorlash dasturi, yuqori samarali server infratuzilmasi va ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar tashkil etilishi bilan birga oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlari ham bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

Quyidagi 1-jadval O‘zbekistonda AI texnologiyalarining oliy ta’lim tizimida qanday yo‘nalishlarda va qay darajada qo‘llanilayotganini aniq ko‘rsatib beradi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hozirda AI eng ko‘p masofaviy ta’lim platformalari va onlayn test tizimlarida qo‘llanilmoqda. Bu esa pandemiyadan keyingi davrda raqamli ta’limga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortganini va AI texnologiyalari bu ehtiyojni samarali qondira olayotganini anglatadi. Shu bilan birga, personalizatsiya, AI yordamchilar va raqamli identifikatsiya kabi innovatsion yondashuvlar ham bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

Bu ko‘rsatkichlar oliy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining izchil joriy qilinayotganini va yaqin yillarda bu ko‘lam yanada kengayishini anglatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda oliy ta’limda AI texnologiyalarining qo‘llanilayotgan yo‘nalishlari (2024-yil holatiga ko‘ra)

Yo‘nalish	Qo‘llanilish holati (%)	Izoh
Masofaviy ta’lim platformalari	65%	Moodle, ZiyoNET, EduMarket kabi tizimlar keng foydalanilmoqda
Test tizimlari va onlayn baholash	55%	Yagona test tizimi, AI asosli testlar sinov tariqasida joriy qilinmoqda
Raqamli identifikatsiya tizimlari	40%	Face ID, MyID – ba’zi universitetlarda pilot tarzda ishlatilmoqda
AI yordamchilar (chatbotlar)	25%	Darsdan tashqari maslahatlarda foydalanilmoqda
Personalizatsiya (individual o‘qitish)	15%	Hali keng ommalashmagan, ayrim startaplar tajriba o‘tkazmoqda

Bu ko‘rsatkichlar oliy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining izchil joriy qilinayotganini va yaqin yillarda bu ko‘lam yanada kengayishini anglatadi



3-rasm. Talabalar sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha fikr-mulohazalari (so‘rovnoma asosida)

So‘rovnoma natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’limda ijobiy qabul qilinayotganini ko‘rsatdi. Talabalar AI texnologiyalarining o‘qishni yengillashtirish (72%) va individual ta’limni qo‘llab-quvvatlashdagi (68%) imkoniyatlarini yuqori baholagan. AI orqali adolatli baholash imkoniyati 64% tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa, chatbotlar foydaliligini tan olganlar soni 58%ni tashkil etdi, biroq ularning funksional cheklanganligi qayd etilgan. Faqat 19% respondent AI’ni murakkab va qiziq emas deb hisoblagan. Ushbu natijalar AI’ning ta’limdagi integratsiyasi ijobiy qabul qilinayotganini, ammo samarali joriy etish uchun texnologik va pedagogik takomillashtirish zarurligini anglatadi**.**

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’lim tizimiga integratsiyasi orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Shaxsiylashtirilgan yondashuv, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va virtual yordamchilardan foydalanish, o‘quvchilar va talabalar ehtiyojiga mos o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam bermoqda. Xususan, xorijiy tajribalar tahlili (masalan, AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya) sun’iy intellekt vositalarining real ta’lim muhitida muvaffaqiyatli tatbiq etilayotganini tasdiqlaydi.

Biroq, AI texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi faqat texnologik yechimlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon pedagogik yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirishni va ta’lim muassasalarining texnik infratuzilmasini rivojlantirishni ham talab etadi. O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa, hududlar bo‘yicha raqamli tengsizlik muammosi, o‘qituvchilar tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalariga nisbatan ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bilan qaralishi bu yo‘nalishda hali bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalarning mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolardan biri — sun’iy intellekt vositalarining ta’lim tizimiga joriy etilishida axloqiy va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi masalasi bo‘lib, bu o‘z navbatida AI platformalaridan foydalanishda ishtirokchilarning ehtiyotkorligini kuchaytiradi. UNESCO tomonidan ilgari surilgan tavsiyalar, AI vositalarini joriy etishda inson huquqlari, axloqiy mezonlar va teng imkoniyatlar prinsiplariga rioya etilishi zarurligini ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi o‘qituvchining o‘rnini to‘liq bosmaydi, balki uni kuchaytiradi. Ya’ni, bu texnologiyalar yordamchi vosita sifatida faoliyat yuritib, o‘qituvchining vaqtini tejaydi va ijodiy, analitik faoliyatga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalangan holda hibrid yondashuvni yo‘lga qo‘yish eng maqbul variant sifatida qaralmoqda.

Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga chuqurroq integratsiyalashuvi o‘qitish jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishda tizimli yondashuv, metodik asoslar va pedagogik tayyorgarlik yetarli darajada bo‘lishi zarur.

Xulosa va takliflar. Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, o‘qituvchilar faoliyatini yengillashtirish va talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali individual yondashuv asosida ta’lim olish, avtomatlashtirilgan baholash va adaptiv o‘quv platformalari orqali bilimlarni samarali egallash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa dunyoning yetakchi ta’lim tizimlarida SI texnologiyalarining afzalliklarini tasdiqlaydi. Biroq, texnologik yutuqlar bilan bir qatorda, ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, sun’iy intellektdan foydalanishdagi axloqiy va ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar bu jarayonning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’lim tizimiga samarali integratsiyalash uchun quyidagi yo‘nalishlarda tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, professor-o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, ta’lim dasturlarini sun’iy intellektga moslashtirish, zamonaviy o‘quv resurslarini yaratish va infratuzilmani rivojlantirish zarur. Shuningdek, talabalar orasida texnologik madaniyatni shakllantirish, ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt asosidagi vositalarni integratsiyalash va bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash ham dolzarb hisoblanadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish hamda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Texnik infratuzilmani yaxshilash: Oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar va internet bilan ta’minlash orqali SI vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim;
2. AI asosidagi o‘quv resurslarini yaratish: Mahalliy ta’lim standartlariga moslashtirilgan sun’iy intellektga asoslangan elektron platforma va ilovalarni ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiqdir;
3. O‘qituvchilarning raqamli va sun’iy intellekt bo‘yicha malakasini oshirish – maxsus seminar, trening va kurslar orqali ularning yangi texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlash;
4. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash – sun’iy intellekt sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish hamda talabalarning innovatsion loyihalariga grant ajratish;
5. Tashqi hamkorlikni rivojlantirish – xalqaro tajriba almashuvi, xorijiy universitetlar bilan qo‘shma loyihalar orqali ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’limga integratsiyasi nafaqat ta’lim jarayonini soddalashtiradi, balki talabalarning chuqur bilim olish, tahliliy va tanqidiy fikrlash, hamda global raqobatbardosh kadrlar bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi esa O‘zbekiston ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasiga va xalqaro reytinglardagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mikalef P, Gupta M. Artificial intelligence capability: conceptualization, measurement calibration, and empirical study on its impact on organizational creativity and firm performance. Inf Manag. 2021;58(3): 103434.
2. Zirar A, Ali SI, Islam N. Worker and workplace artificial intelligence (AI) coexistence: emerging themes and research agenda. Technovation. 2023;124: 102747.
3. UNESCO. (2021). AI and Education: Guidance for Policy-makers. https://unesdoc.unesco.org
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.
5. Bayne, S. (2015). Teacherbot: interventions in automated teaching. Teaching in Higher Education.
6. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education.
7. Marengo, A., et al. (2024). Promises and Pitfalls of Artificial Intelligence in Higher Education: A Systematic Review. Emerald Insight. https://www.emerald.com
8. Stead, W. W., Searle, J. R., Fessler, H. E., Smith, J. W. & Shortliffe, E. H. Biomedical informatics: changing what physicians need to know and how they learn. Acad. Med. 86, 429–434 (2011).
9. Zhang, J., Fenton, S.H. Preparing healthcare education for an AI-augmented future. npj Health Syst. 1, 4 (2024). https://doi.org/10.1038/s44401-024-00006-z
10. Nicolajsen, S.M., Nielsen, S., Carlsen, L.M. et al. Programming education across disciplines: a nationwide study of Danish higher education. High Educ (2024). https://doi.org/10.1007/s10734-024-01345-4

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

SIYOSIY DISKURSDA LINGVISTIK SHAXS VA UNING EMOTSIONAL-KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI

Gulbahor Komilova
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
gulbahorkomilova97@gmail.com
Telefon raqam:+998911520197

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 6
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1291

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

lingvistik shaxs, siyosiy diskurs, emotsional baho, ishontirish, kommunikativ strategiya, metafora, intonatsiya, paralingvistika, auditoriya, lingvokulturologiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada siyosiy diskursda lingvistik shaxs fenomeni va uning emotsional-kommunikativ strategiyalarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy izlanish natijalari keltiriladi. Lingvistik shaxsning nutqdagi pozitsiyasi, emotsional baholash vositalari, ijtimoiy-psixologik ta’sir mexanizmlari va u orqali ishontirish jarayonining kommunikativ asoslari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda siyosiy shaxslarning nutqi tahlil qilinib, ularning hissiy ohangi, metaforik tasvirlari, baholovchi birliklari va paralingvistik signallarining auditoriyaga ta’siri o‘rganilgan. O‘zbek va G‘arb siyosiy diskursi misolida lingvistik shaxsning emotsional profili hamda u orqali yaratiladigan ijtimoiy ishonch, birdamlik va ma’naviy rezonans mexanizmlari ochib beriladi. Maqolada diskursiv, pragmatik va lingvokulturologik yondashuvlar asosida shaxsning nutqiy identifikatsiyasi hamda siyosiy tilning emotsional resurslari yoritiladi.

Kirish. Tilshunoslikda “lingvistik shaxs” tushunchasi oxirgi o‘n yilliklarda siyosiy kommunikatsiya tadqiqotlarida markaziy o‘rin egalladi. V.A. Karasik (2020), Yu.N. Karaulov (2019), A. Issers (2021), T.A. van Dijk (2018) va boshqa olimlar lingvistik shaxsni faqat nutq egasi sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy ongni so‘z orqali namoyon etuvchi subyekt deb talqin etadilar. Siyosiy diskursda esa lingvistik shaxsning asosiy vazifasi — nutq orqali ishonch, birdamlik va harakatni shakllantirishdir.[1]

O‘zbekiston mustaqillikdan keyingi siyosiy kommunikatsiya modelida ham lingvistik shaxsning roli beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning chiqishlari o‘zida axloqiy ta’sir, emotsional rezonans va psixologik yaqinlik unsurlarini mujassamlashtiradi. G‘arbdagi siyosiy yetakchilar — Barack Obama, Winston Churchill yoki Emmanuel Macron nutqlarida esa shaxsning emotsional energiyasi motivatsion va harakatga yo‘naltiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot siyosiy diskursdagi lingvistik shaxsni emotsional-kommunikativ tizim sifatida tahlil qiladi, uning baholovchi, metaforik va paralingvistik vositalar orqali qanday tarzda ijtimoiy ishonch hosil qilinishini o‘rganadi.

Adabiyotlar tahlili. Siyosiy diskursdagi lingvistik shaxs masalasi hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida keng o‘rganilmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar tilning nafaqat kommunikativ, balki **sotsial, madaniy va psixologik** mohiyatini ochib beradi. Lingvistik shaxs tushunchasi til orqali insonning tafakkuri, qadriyatlari, hissiyati va jamiyat bilan o‘zaro aloqasini ifodalovchi konsept sifatida qaraladi.

V.A. Karasik (2020) o‘zining “Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs” asarida lingvistik shaxsni “madaniy kodni tashuvchi subyekt” sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har bir shaxs til orqali o‘zining ijtimoiy maqomi, ideologik pozitsiyasi va kommunikativ madaniyatini ifodalaydi. Shu bois siyosiy diskursda yetakchining nutqi xalqning madaniy identitetini ifodalovchi o‘ziga xos til maydoniga aylanadi.

Yu.N. Karaulov (2019) esa “Rus tili va lingvistik shaxs” asarida shaxsning nutqiy faoliyatini uch darajada – verbal-semantik, kognitiv va pragmatik bosqichlarda ko‘rsatadi. Bu yondashuv siyosiy yetakchi nutqini tahlil qilishda ham muhimdir, chunki har bir siyosiy shaxs o‘z nutqida til birliklarini tanlash orqali milliy ongdagi qadriyatlarni faollashtiradi.

A. Issers (2021) esa kommunikativ strategiyalar va taktikalarning tahlilida lingvistik shaxsning o‘zaro ta’sir jarayonidagi maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatini o‘rganadi. U siyosiy shaxs nutqini “strategik konstruksiya” deb ataydi, ya’ni siyosiy maqsadga erishish uchun til vositalarining emotsional va pragmatik tarzda tanlanishini tahlil qiladi.

J.Charteris-Black (2019) esa siyosiy nutqdagi metafora va hissiy til vositalarini “ishontirishning kognitiv quroli” sifatida ko‘radi. U siyosiy ritorikada metafora nafaqat bezak, balki auditoriyaning hissiy tasavvurini boshqaruvchi kognitiv mexanizm ekanini ta’kidlaydi.[2]

N.D. Arutyunova (2020) hamda A.A. Bragina (2021) ishlarida tilning subyektiv va affektiv tabiati o‘rganilib, emotsional ifoda vositalari insonning ichki kechinmalarini semantik darajada kodlashini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalishdagi izlanishlar keyingi yillarda rivoj topmoqda. X. Mamatqulov (2022) o‘zining “Siyosiy diskurs va lingvistik shaxs” asarida o‘zbek siyosiy nutqining lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilib, undagi emotsional ta’sir vositalarini milliy madaniyat kontekstida izohlaydi. [3] Uning fikricha, o‘zbek yetakchilarining nutqi xalq ruhiyatiga xos sokin emotsional ohang, axloqiy qadriyatlarga urg‘u va madaniy metaforalarning ustunligi bilan ajralib turadi.

A. Wierzbicka (2018) va G. Hofstede (2020) nazariyalarida esa madaniy kontekstda emotsiyalarni ifodalashning universal va o‘ziga xos (spetsifik) jihatlari tahlil qilingan. Wierzbickaning “madaniy skriptlar” nazariyasi siyosiy nutqda baholovchi birliklarning milliy dunyoqarash bilan qanday bog‘lanishini tushuntiradi,[4] Hofstede esa kollektivizm va individualizm o‘rtasidagi farqni tahlil qiladi.

Mazkur nazariy manbalar asosida quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin:

- Lingvistik shaxs — bu nafaqat til foydalanuvchisi, balki madaniy kod tashuvchisi;
- Siyosiy diskurs — bu emotsional va aksiologik qiymatlarning til orqali ifodalangan shakli;
- Emotsional-kommunikativ strategiyalar siyosiy muloqotda ishontirish, birdamlik va ishonchni shakllantiruvchi asosiy mexanizmdir.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu maqola mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi va lingvistik shaxs fenomenining siyosiy diskursdagi o‘rni, ayniqsa o‘zbek tilida, hali to‘liq ochilmaganligini ko‘rsatadi. Shu bois maqola yangi bosqichda bu masalani psixolingvistik, aksiologik va pragmatik asoslarda kengaytirilgan tahlilga yo‘naltiriladi.

[1] van Dijk, T. A. (2018). *Discourse and Power: Contributions to Critical Discourse Studies*. Palgrave.
[2] Charteris-Black, J. (2019). *Analysing Political Speeches: Rhetoric, Discourse*
[3] Mamatqulov, X. (2022). *Siyosiy diskurs va lingvistik shaxs: kommunikativ yondashuvlar*. Toshkent: Fan.
[4] Wierzbicka, A. (2018). *Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals*. Cambridge University Press.

Metodologiya. Tadqiqot diskursiv-pragmatik va lingvokulturologik yondashuv asosida olib borildi.

Asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1. Diskurs tahlili – siyosiy nutqning maqsadi, konteksti va ijtimoiy vazifasini aniqlash;
2. Pragmatik tahlil – shaxsning nutqiy niyatini, auditoriya bilan emotsional aloqani o‘rganish;
3. Leksik-semantik tahlil – baholovchi birliklar va metaforalarning emotsional yuklamasini belgilash;
4. Paralingvistik tahlil – intonatsiya, pauza, tembr, gesture va mimika vositalarining hissiy ta’sirini o‘rganish.

Material sifatida quyidagilar tanlandi:

- Shavkat Mirziyoyevning 2017–2024-yillar oralig‘idagi 10 ta chiqishi;
- Barack Obama va Winston Churchillning 8 ta mashhur siyosiy nutqi;
- OAV orqali transkripsiya qilingan tahliliy chiqishlar (O‘zbekiston 24, BBC News, CNN).

Tadqiqotning nazariy asosini V. Karasikning “Diskurs va shaxs” (2020), T.A. van Dijkning “Discourse and Power” (2018), A. Issersning “Kommunikativ strategiyalar va taktika” (2021) asarlari tashkil etdi.

Natijalar

Lingvistik shaxsning emotsional profili

Tahlil natijasida siyosiy shaxsning emotsional portreti uchta qatlamda shakllanishi aniqlangan:

Qatlam	Mazmuni	Misol
Leksik-semantik	Baholovchi so‘zlar, metaforalar, sinonim juftliklar orqali his ifodasi	“Xalqimiz bilan birgamiz”, “Kelajak – bizniki”
Sintaktik	Parallel tuzilmalar, takror va ritm orqali ta’sir	“Biz quramiz, biz rivojlanamiz, biz g‘alaba qozonamiz”
Paralingvistik	Ohang, pauza, tembr, qarash orqali hissiy aloqa	Nutqda tinch, ishonchli, yumshoq intonatsiya

Bu modelda **“biz” shakli** emotsional birlikni bildiruvchi asosiy indeks sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, Mirziyoyev nutqidagi *“Biz xalqimiz bilan birgamiz”* [5] formulasi *“men”dan “biz”ga o‘tish* orqali shaxsiydan ijtimoiy emotsiyaga o‘tish mexanizmini yaratadi.

Ishontirish strategiyalarining emotsional komponentlari

Siyosiy shaxs auditoriyani ishontirish uchun hissiyot, baho va dalilning uyg‘unligidan foydalanadi. Ushbu uchlik Aristotelning *logos – pathos – ethos* modeliga asoslanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek va g‘arb siyosiy shaxslarida quyidagi strategiyalar kuzatildi:

Strategiya turi	O‘zbek diskursida	G‘arb diskursida
Empatik strategiya	“Xalq dardi – bizning dardimiz”	“I feel your pain.” (Clinton)
Motivatsion strategiya	“Har bir fuqaro – islohotlarning hamkori”	“Yes, we can.” (Obama)
Aksiologik strategiya	“Halollik – xalq ishonchining garovi”	“Truth and freedom shall prevail.” (Churchill)

Bu strategiyalar hissiyot orqali auditoriyada axloqiy ishonch (trust), ruhiy birdamlik (solidarity) va faoliyat motivatsiyasi (engagement)ni hosil qiladi.

Metafora va baholash vositalarining o‘zaro ta’siri

Siyosiy diskursda lingvistik shaxs hissiyotlarni bevosita ifodalamasdan, metaforalar orqali baholaydi. Masalan:

“Adolat nuri zulmatni yoritadi.”

“Yangi O‘zbekiston sari yo‘l – bu islohotlar yo‘lidir.”[6]

Bu misollarda “nur–zulmat”, “yo‘l–kelajak” oppozitsiyalari emotsional baholovchi metaforalardir. Ular orqali shaxs yaxshi–yomon, ilgarilash–turg‘unlik, umid–qo‘rquv dualizmini ifodalaydi.

Shunday qilib, metafora siyosiy shaxsning emotsional manbai bo‘lib, semantik baholashni kuchaytiradi.

Paralingvistik signallar va intonatsiya

Siyosiy nutqda emotsional ta’sir so‘zlar bilan cheklanmaydi — intonatsion struktura va tana tili orqali kuchaytiriladi. Masalan, Shavkat Mirziyoyevning chiqishlarida ohang yumshoq, ammo qat’iy, pauzalar aniq, ko‘z aloqasi esa uzoq saqlanadi. Bu ishonchlilik effektini kuchaytiradi. Churchill esa teskari ohangdan foydalangan — dramatik pauzalar, baland tembr va urg‘u orqali “ruhiy mobilizatsiya” yaratgan.[7]

Siyosiy diskursda lingvistik shaxsning tahlili uning nutqiy faoliyatini faqat informatsion yoki ritorik jarayon sifatida emas, balki ko‘p qatlamli ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bu shaxs o‘z nutqi orqali nafaqat g‘oya bildiradi, balki ijtimoiy identitet, hissiy holat va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi.

Lingvistik shaxsning ichki modeli

V.A. Karasik (2020) va Yu.N. Karaulov (2019) ta’kidlaganidek, lingvistik shaxs uch bosqichli tuzilmaga ega:

1. Verbal-semantik daraja – so‘z boyligi, til birliklarining tanlovi;
2. Kognitiv daraja – dunyoqarash, bilimlar tizimi;
3. Pagmatik daraja – maqsad, niyat, ijtimoiy strategiya.

Siyosiy yetakchining nutqida ushbu uch qatlam uyg‘un holda faoliyat yuritadi. Masalan, Sh. Mirziyoyevning nutqlarida leksik darajada “xalq”, “bunyodkorlik”, “adolat” so‘zlari ustun bo‘lib, ular kognitiv darajada xalqparvarlik va ishonchlilik konseptlarini faollashtiradi. Pragmatik darajada esa bu birliklar auditoriyani ruhlantirish va birdamlikni mustahkamlash maqsadiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, siyosiy diskursdagi lingvistik shaxs — bu muloqotdagi ijtimoiy-ruhiy faol subyekt, u til orqali xalq ongida o‘zining axloqiy va emotsional obrazini shakllantiradi.

Baholovchi birliklar va metaforik strukturalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, siyosiy shaxs nutqining emotsional kuchi ko‘p hollarda baholovchi so‘zlar va metaforalarga tayanadi. Masalan, “adolat”, “nur”, “yo‘l”, “kelajak”, “taraqqiyot” kabi so‘zlar aksiologik markazlar sifatida xizmat qiladi.

Metaforik tizimda esa quyidagi asosiy modellardan foydalaniladi:

- **“Yo‘l” metaforasi** – islohotlar va taraqqiyot jarayonini ifodalaydi;
- **“Nur” metaforasi** – ezgulik, umid, ruhiy uyg‘onish ramzi;
- **“Daraxt” metaforasi** – barqarorlik va o‘sish belgisi;
- **“Uy” metaforasi** – davlat va xalq birligi timsoli.

Ushbu metaforalar kognitiv jihatdan xalq tafakkuridagi barqaror obrazlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali siyosiy shaxs auditoriyada ruhiy yaqinlik va ishonch hosil qiladi.

Pragmatik darajada shaxsning roli

Siyosiy shaxs nutqida logos (dalil), etos (axloqiy ishonchlilik), patos (hissiyot) muvozanati muhim ahamiyatga ega. Masalan, Mirziyoyevning nutqida patos ohangi (hissiyot) doim etos (axloqiy pozitsiya) bilan muvofiqlashtiriladi. Natijada nutq agressiv emas, balki xotirjam, ishonchli va samimiy ta’sir uyg‘otadi. G‘arb siyosatchilarida esa, ayniqsa

[5] Mirziyoyev, Sh. (2023). *Tanlangan nutqlar to‘plami*. Toshkent: O‘zbekiston.

[6] Mirziyoyev, Sh. (2023). *Tanlangan nutqlar to‘plami*. Toshkent: O‘zbekiston.

[7] Churchill, W. (1940). *Never Surrender: Selected War Speeches*. London: Cassell.

Obama va Churchillda, patos komponenti ustun bo‘lib, auditoriyani emotsional jihatdan “mobilizatsiya qilish”ga xizmat qiladi.

Lingvistik shaxsning aksiologik xaritasi

Tadqiqot asosida siyosiy diskursda lingvistik shaxsning quyidagi **aksiologik (qadriyatlar) modeli** shakllantirildi:

Qadriyat yo‘nalishi	Nutqiy ifodasi	Funksiyasi
Axloqiy qadriyatlar	“Halollik”, “sadoqat”, “sabr”	Ishonchni oshiradi
Ma’naviy qadriyatlar	“Vijdon”, “rahm-shafqat”, “or-nomus”	Ruhiy birlikni mustahkamlaydi
Ijtimoiy qadriyatlar	“Xalq”, “birlik”, “hamkorlik”	Birdamlikni ta’minlaydi
Innovatsion qadriyatlar	“Yangi O‘zbekiston”, “taraqqiyot yo‘li”	Kelajak tasavvurini yaratadi

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, siyosiy diskursda lingvistik shaxsning muvaffaqiyati uning emotsional muvozanatni saqlash qobiliyatiga bog‘liq.

O‘zbek modelida emotsiya axloqiy xotirjamlik va ruhiy ishonchni ifodalaydi; g‘arb modelida esa motivatsion energiya va o‘zgarishga chaqiriq sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu farq madaniy-kognitiv asosga ega:

- Sharq (o‘zbek) shaxsi → *barqarorlik, sadoqat, hamjihatlik*;
- G‘arb shaxsi → *erkinlik, ishtiyoq, yangilanish*.

Ammo har ikkala modelda umumiy nuqta — hissiyot orqali ishonchni shakllantirishdir. Bu esa siyosiy yetakchining nutqini nafaqat axborot vositasi, balki psixolingvistik ta’sir mexanizmiga aylantiradi.

Siyosiy diskursda lingvistik shaxsning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu fenomenni faqat til hodisasi sifatida emas, balki sotsiolingvistik, psixolingvistik va lingvokulturologik o‘zaro ta’sir maydoni sifatida ko‘rish lozim.

1. Lingvistik shaxs va ijtimoiy ong o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Siyosiy shaxs o‘z nutqi orqali jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyatni shakllantiradi. Shu jarayonda u “xalq ovozi”ni ifodalaydi, lekin ayni paytda “xalq fikrini yo‘naltiruvchi” rolni ham bajaradi. Bu ikki yo‘nalish o‘rtasidagi muvozanat siyosiy yetakchining emotsional-intellektual karizmasini belgilaydi.

Siyosiy shaxsning muvaffaqiyati, avvalo, uning hissiy aql (emotional intelligence) darajasiga bog‘liq:

- auditoriyaning ruhiy holatini sezish;
- emotsional signallar orqali javob uyg‘otish;
- nutqning ohangini vaziyatga moslashtirish.

Shu sababli, siyosiy diskursdagi lingvistik shaxs nafaqat tilshunoslik kategoriyasi, balki psixologik tip sifatida ham tadqiq etilishi lozim.

2. Emotsional rezonans va ishonch mexanizmlari

Emotsional rezonans — bu auditoriya va siyosiy shaxs o‘rtasidagi hissiy hamohanglik holatidir.

Bunday rezonans quyidagi bosqichlarda yuzaga keladi:

1. Hissiy uyg‘unlik – shaxs auditoriyaning hissiy holatini sezadi;
2. Baholovchi identifikatsiya – “biz” konsepti orqali birlashuv hissi;
3. Kognitiv moslashuv – umumiy qadriyatlar asosida tushunish;
4. Axloqiy ishonch – rahbarning samimiyligiga ishonish.

Masalan, “Biz xalqimiz bilan birgamiz” degan ibora semantik jihatdan oddiy bo‘lsa-da, emotsional rezonansni yuzaga keltiruvchi kuchli ijtimoiy signaldir.

3. Lingvokulturologik kontekst

O‘zbek siyosiy diskursi Sharqona nutq madaniyatining ko‘p asrlik an’analariga tayanadi. U yerda nutqning emotsional kuchi baland ohang yoki keskin ritorikada emas, balki muloyimlik, hurmat va barqarorlikda namoyon bo‘ladi.

G‘arb diskursida esa aksincha — dinamika, urg‘u, intonatsion kuch orqali ta’sir kuchaytiriladi.

Bu ikki modelning farqi Hofstede (2020) ta’riflagan individualistik va kollektivistik madaniyatlarning lingvistik ko‘rinishidir. O‘zbek yetakchisi nutqida “biz” markazida “xalq” konsepti tursa, g‘arb yetakchisida “men” markazida “tashabbus” konsepti turadi.

4. Baholovchi metaforalar va diskursiv qarama-qarshiliklar

Baholovchi metaforalar siyosiy diskursning emotsional semantikasini shakllantiruvchi asosiy vositadir. Masalan, “nur–zulmat”, “yo‘l–to‘siq”, “kelajak–xavf” oppozitsiyalari orqali shaxs auditoriyada ma’naviy dichotomiyalarni faollashtiradi. Bu usul diskursda “yaxshi va yomon”, “to‘g‘ri va noto‘g‘ri” kabi axloqiy chegaralarni belgilab beradi.

5. Siyosiy nutqda etos, logos va patos muvozanati

Aristotel ta’limotiga ko‘ra, ishonchli nutq etos (axloq), logos (mantiq) va patos (hissiyot) muvozanatiga tayanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek siyosiy shaxslarining nutqida etos va logos ustun, patos esa me’yoriy darajada saqlanadi. Bu model emotsional xotirjamlikni yaratadi va auditoriyada “oqilona ishonch” uyg‘otadi. G‘arb siyosiy diskursida esa patos kuchli – auditoriyani ruhlantirish, g‘ayratlantirish asosiy vazifaga aylanadi.

6. Diskursiv shaxsning kommunikativ pozitsiyasi

Siyosiy shaxsning nutqdagi pozitsiyasi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

- ✓ Identification – Linguocultural markers were identified in the corpus using discourse analysis techniques, focusing on idioms, metaphors, proverbs, and culture-specific vocabulary.
- ✓ Categorization – Markers were grouped into conceptual domains (e.g., kinship, spirituality, land, struggle, ambition, modernity).
- ✓ Interpretation – Each marker was analyzed in terms of its cultural meaning, function, and communicative role within the narrative.

The comparative aspect involved juxtaposing Uzbek and English markers to reveal shared patterns and distinct cultural differences.

Validity and Reliability

To ensure validity, the analysis was guided by established frameworks (CMT and Cultural Linguistics) and verified through triangulation with previous scholarship[16]. Reliability was enhanced by coding the data twice over a three-month interval to check consistency of

Results. The analysis of the selected Uzbek and English films revealed a series of recurring linguocultural markers that can be grouped into six major categories:

- ✓ Kinship and Family Relations
- ✓ Spirituality and Religion
- ✓ Land and Homeland
- ✓ Struggle and Conflict
- ✓ Ambition and Achievement
- ✓ Modernity and Technology

Table 1. Frequency of Linguocultural Marker Categories in Uzbek and English Films (2000–2020).

Category	Uzbek Films (n=100 markers)	English Films (n=100 markers)
Kinship & Family	32	12
Spirituality & Religion	24	8
Land & Homeland	18	6
Struggle & Conflict	10	28

[9] Musolff, A. (2016). Political Metaphor Analysis: Discourse and Scenarios. Bloomsbury.

[10] Anderson, B. (1991). Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism (2nd ed.). Verso.

[11] Smith, J. (2015). National identity and metaphor in British cinema. Journal of Media Linguistics, 12(2), 101–118

[12] Musajonov, A. (2018). Linguocultural aspects of metaphor in Uzbek discourse. Philological Issues, 3(1), 45–53.

[13] Karimova, N. (2019). Folklore and cultural values in Uzbek cinema. Central Asian Journal of Cultural Studies, 4(2), 75–88. Khaydarova, Ch. (2022). Translation of proverbs and sayings from english into russian, and its peculiarities. Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19), 1(02), 164–166.

[14] Charteris-Black, J. (2004). Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. Palgrave Macmillan. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford University Press.

[15] Axmedov Ikboljon. (2025). A SPEECH ACT ANALYSIS OF PROVERBS:EXPLORING THE ILLOCUTIONARY FORCE OF TRADITIONAL WISDOM. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 5(1), 96–105. https://doi.org/10.1075/jhp.6.2.03arc

[16] Charteris-Black, J. (2004). Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. Palgrave Macmillan. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford University Press.

Ambition & Achievement	9	30
Modernity & Technology	7	16

✓ Uzbek Cinema → Kinship, spirituality, and homeland metaphors dominate. Dialogues often emphasize family obligations, respect for elders, and moral-spiritual duties.

✓ English Cinema → Struggle and ambition metaphors are most frequent. Dialogues foreground self-expression, resilience, and achievement as key cultural narratives.

Shared Features → Both traditions use metaphors of journey and conflict, but their cultural framing differs (collective survival in Uzbek vs. personal success in English).[17]

Discussion. The analysis of linguocultural markers in comparison with Uzbek and English national cinema, they have highlighted fundamental cultural orientations embedded within film discourse. These findings align with broader theories of collectivism and individualism (Hofstede, 2001), as well as with previous research on metaphor and cultural conceptualizations [18].

Collectivism in Uzbek Film Discourse

Uzbek films strongly foreground kinship, spirituality, and homeland metaphors, which reflects the collectivist orientation of Uzbek society. Terms such as ota (father), ona (mother), aka/uka (elder/younger brother), and metaphors like Vatan onadir ("The homeland is a mother") position family and community as central cultural concepts. These markers are not only linguistic elements but also narrative strategies that reinforce traditional values of respect, and moral obligation.

Religious references and spiritual idioms, such as blessings (duo) or references to divine will (taqdir), further illustrate the cultural importance of faith in Uzbek discourse. The recurrence of these markers suggests that Uzbek cinema constructs national identity through moral and spiritual collectivism, portraying the individual as part of a larger family, community, and nation.

Individualism in English Film Discourse

Comparing with Uzbek films, English films are dominated by ambition and struggle metaphors, which align with Western individualist values. Expressions such as "climbing the ladder of success" or "fighting one's own battles" reflect a worldview where personal growth, resilience, and achievement are central. Even when family themes are present, they are often framed as backdrops for personal development rather than collective responsibility.

Films such as The Pursuit of Happyness and Billy Elliot exemplify this narrative: the protagonists' struggles are depicted not as communal but as individual journeys of self-realization. This suggests that in English cinematic discourse, the individual is positioned as an autonomous agent responsible for shaping their own destiny, resonating with broader neoliberal cultural narratives.

Shared but Differently Framed Metaphors

Interestingly, both Uzbek and English films employ journey metaphors to depict personal and social transformation. However, their cultural framing differs significantly:

✓ In Uzbek films, the journey often symbolizes spiritual growth or collective endurance.

✓ In English films, the journey metaphor underscores personal ambition and self-discovery.

Similarly, metaphors of struggle appear in both traditions but with divergent emphases. Uzbek discourse frames struggle as a communal duty (e.g., defending family honor), while English discourse portrays struggle as an individual battle for survival or success.

Media Discourse as a Cultural Mirror

These differences highlight cinema's role as both a mirror of culture and a constructor of identity. By encoding national values into cinematic dialogue, films shape how audiences perceive themselves and their society. Uzbek films reinforce interdependence, spirituality, and tradition, whereas English films promote autonomy, ambition, and modernity[19].

Implications for Linguistic and Cultural Studies

The results demonstrate that linguocultural markers in film discourse are not merely stylistic but carry deep ideological weight. They structure audience perception, reinforce cultural continuity, and contribute to national identity formation. For scholars of linguistics and media studies, this underlines the importance of examining cinematic dialogue as a site of cultural encoding.

Additionally, the comparative framework used in this study offers a model for analyzing other cross-cultural contexts. It illustrates how discourse analysis can reveal the interplay of global and local narratives in media texts, providing insights into both cultural preservation and transformation in the age of globalization.

Conclusion. This investigation has studied the interrelation of language and culture through a comparative analysis of linguocultural markers in Uzbek and English national cinema (2000–2020). By examining film dialogues, the research has shown how cinema functions as both a linguistic and cultural text, embedding national identity within metaphors, idioms, kinship terms, and culturally loaded expressions.

The results reveal a clear cultural divide:

✓ Uzbek film discourse is dominated by markers of kinship, spirituality, and homeland, emphasizing collectivist values, moral obligations, and the centrality of family and tradition.

✓ English film discourse, in contrast, foregrounds ambition, struggle, and modernity, highlighting individualist values such as personal success, resilience, and autonomy.

Inspite of these differences, both traditions share common metaphorical patterns such as journey and struggle, although their framing differs: in Uzbek films they signify collective endurance and moral growth, whereas in English films they symbolize self-discovery and personal triumph[20].

Contributions of the Study

The research enhances cultural linguistics by demonstrating how linguocultural markers operate within film discourse as vehicles of cultural meaning.

It contributes to media discourse analysis by showing how cinematic dialogue constructs and transmits national identity. It provides a comparative perspective that highlights the cultural distinctiveness of Uzbek and English media traditions while also identifying points of convergence.

Ultimately, this study underscores the vital role of linguocultural markers in cinema as tools of cultural continuity and transformation. By comparing Uzbek and English film discourse, it becomes evident that while language reflects distinct cultural worldviews, cinema as a global medium simultaneously creates spaces for dialogue, negotiation, and the reimagining of identity in a rapidly changing world.

References

1. Axmedov Ikboljon. (2025). A SPEECH ACT ANALYSIS OF PROVERBS:EXPLORING THE ILLOCUTIONARY FORCE OF TRADITIONAL WISDOM. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 5(1), 96–105. https://doi.org/10.1075/jhp.6.2.03arc

2. Anderson, B. (1991). Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism (2nd ed.). Verso.

3. Charteris-Black, J. (2004). Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. Palgrave Macmillan.

4. Dilobarkhon Azimova. (2022). THE AMALGAMATION OF ENGLISH LANGUAGE FOR CE STUDENTS THROUGH NEEDS ANALYSIS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(01), 120–126.

[17] Ernazarova, M. (2025). PRAGMALINGVISTIK VA MADANIY INTERFERENSIYA (MASALAN: MUROJAAT SHAKLLARI, XUSHMUOMALALIK FORMASI). *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *4*(30), 7–10. https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/60097;

[18] Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford University Press. Sharifian, F. (2017). Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language. John Benjamins.

[19] Dilobarkhon Azimova. (2022). THE AMALGAMATION OF ENGLISH LANGUAGE FOR CE STUDENTS THROUGH NEEDS ANALYSIS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(01), 120–126.

[20] Elvina Rustemovna Sherefetdinova. (2024). IN INTERCULTURAL CONTEXTS, SOCIAL NORMS, BELIEFS, AND VALUES PLAY A SIGNIFICANT ROLE IN SHAPING INTERPRETATIONS AND INTERACTIONS. Kokand University Research Base, 112–123.

5. Elvina Rustemovna Sherefetdinova. (2024). IN INTERCULTURAL CONTEXTS, SOCIAL NORMS, BELIEFS, AND VALUES PLAY A SIGNIFICANT ROLE IN SHAPING INTERPRETATIONS AND INTERACTIONS. Kokand University Research Base, 112–123.

6. Ernazarova, M. (2025). PRAGMALINGVISTIK VA MADANIY INTERFERENSIYA (MASALAN: MUROJAAT SHAKLLARI, XUSHMUOMALALIK FORMASI). *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *4*(30), 7–10. https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/60097

7. Khaydarova, Ch. (2022). Translation of proverbs and sayings from english into russian, and its peculiarities. Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19), 1(02), 164–166.

8. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford University Press.

9. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.

10. Musajonov, A. (2018). Linguocultural aspects of metaphor in Uzbek discourse. Philological Issues, 3(1), 45–53.

11. Musolff, A. (2016). Political Metaphor Analysis: Discourse and Scenarios. Bloomsbury.

12. Sharifian, F. (2017). Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language. John Benjamins.

13. Smith, J. (2015). National identity and metaphor in British cinema. Journal of Media Linguistics, 12(2), 101–118.

14. Karimova, N. (2019). Folklore and cultural values in Uzbek cinema. Central Asian Journal of Cultural Studies, 4(2), 75–88.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

O‘ZBEKISTON SHAHAR EKOTURIZMIDA RAQAMLI EGIZAK TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SALOHIYATI

Esonboyev Baxodir Bakir o‘g‘li
O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik akademiyasi,
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: bakhodiresonboyev2909@gmail.com
ORCID: 0009-0001-8988-9808

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 9
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1294

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

raqamli egizak, ekoturizm, raqamli texnologiyalar, virtual modellashtirish, iqtisodiy samaradorlik, O‘zbekiston shaharlari, raqamli transformatsiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston shaharlari ekoturizmida raqamli egizak (digital twin) texnologiyalarning iqtisodiy imkoniyatlari yoritilgan. Turizm infratuzilmasini virtual muhitda modellashtirish orqali ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Ayniqsa, turistik obyektlar va hududlar uchun raqamli nusxalar yaratish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash, xarajatlarni optimallashtirish va sayyohlar tajribasini shaxsiylashtirish imkoniyati mavjudligi ta’kidlangan. Shuningdek, ushbu texnologiyaning ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, real vaqtli monitoring va prognozlash imkoniyatlari orqali ekoturizmda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kirish. So‘nggi yillarda global miqyosda turizm sohasida ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan ekoturizm yo‘nalishi alohida e’tibor markaziga aylandi. BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, ekoturizm atrof-muhitni asrash, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beruvchi muhim vositaga aylangan. Xususan, shaharlarda aholi sonining ortishi, infratuzilmaning zichlashuvi va ekologik yuklama kuchayishi fonida shahar ekoturizmi degan alohida yo‘nalish shakllanmoqda. Ushbu model orqali urban hududlarda joylashgan yashil hududlar, tarixiy-arxitektura obidalari va madaniy meros obyektlari ekoturizmning asosiy resurslariga aylanmoqda.

Ayni paytda, shahar ekoturizmiga zamonaviy texnologiyalarni, xususan raqamli egizak texnologiyalarni (Digital Twin Technology) integratsiya qilish orqali bu jarayonning samaradorligini keskin oshirish mumkin. Raqamli egizak – bu jismoniy obyekt yoki jarayonning real vaqtli, interaktiv va tahliliy imkoniyatlarga ega raqamli nusxasi bo‘lib, u dastlab sanoat va muhandislik sohalarida qo‘llanilgan. Biroq hozirgi bosqichda bu texnologiya turizm, ayniqsa ekoturizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, sayyohlik tajribasini individuallashtirish, ekologik monitoringni yo‘lga qo‘yish va boshqaruvni raqamlashtirish kabi yo‘nalishlarda faol qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston shaharlarida ekoturizm infratuzilmasini zamonaviylashtirish va global talablarga moslashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Bu borada raqamli egizak texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ekologik samaradorlikni oshiradi, balki iqtisodiy jihatdan ham investitsion jozibadorlik, xizmat ko‘rsatish sifati va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada O‘zbekiston shaharlari misolida raqamli egizak texnologiyalarining ekoturizm sohasidagi iqtisodiy potensiali tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar asosida mahalliy sharoitga mos strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli egizak (digital twin) texnologiyalar dastlab aerokosmik muhandislik va ishlab chiqarish sanoatida qo‘llanila boshlangan. Xususan, NASA tomonidan ishlab chiqilgan ilk raqamli egizak modellari koinot qurilmalari va dvigatellar holatini masofadan turib real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish maqsadida qo‘llanilgan[1]. Keyinchalik bu texnologiya avtomobilsozlik, energetika, sog‘liqni saqlash, transport va shaharsozlik sohalarida ham keng joriy etildi. Hozirgi kunda raqamli egizak texnologiyalar urban infratuzilmani boshqarish, resurslarni optimallashtirish, xavfsizlikni ta’minlash va ekologik monitoringni amalga oshirishda muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda[2].

Turizm sohasi, ayniqsa ekoturizm, raqamli egizak texnologiyalarni qabul qilayotgan yangi yo‘nalishlardan biridir. Ekoturizmda bu texnologiyalardan foydalanish ekologik yuklamani baholash, sayyohlik oqimini prognozlash, turistik obyektlar holatini monitoring qilish va virtual turlar orqali xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Masalan, raqamli egizaklar yordamida sayyohlar safar oldidan obyektlar haqidagi ma’lumotlarni immersiv tarzda o‘rganishlari, real vaqtli navigatsiya orqali joylashuvni aniqlashlari va individual marshrutlar tuzishlari mumkin bo‘ladi[3].

Xalqaro miqyosda bu texnologiyadan foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribalar mavjud. Masalan:

- **Singapur** shahrida “Virtual Singapore” loyihasi doirasida butun shahar raqamli egizakka aylantirilgan bo‘lib, unda turizm, transport, ekologiya va shaharsozlik tizimlari integratsiyalashgan[4].
- **Niderlandiya**da raqamli egizaklar orqali madaniy meros obidalarining saqlanish holati monitoring qilinib, ularning interaktiv vizualizatsiyasi orqali sayyohlik xizmatlari taklif etiladi[5].
- **Yaponiyada**, xususan Kioto shahrida, tarixiy hududlarda raqamli egizaklar asosida sayyohlik oqimi va infratuzilma yuklamasi boshqariladi, bu esa ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi[6].

O‘zbekistonda raqamli egizak texnologiyalarning turizm sohasida qo‘llanilishi hozircha keng ommalashmagan bo‘lsa-da, bu borada texnologik va institutsional salohiyat mavjud. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Biroq, aynan ekoturizm kontekstida raqamli egizaklarning qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalar soni cheklangan. Shu bois bu yo‘nalishda xorijiy tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi[7].

Ushbu adabiyotlar sharhidan ko‘rinib turibdiki, raqamli egizak texnologiyalarning ekoturizmga integratsiyasi nafaqat texnologik yangilik, balki strategik boshqaruv va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi kuchli vosita sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston sharoitida esa bu texnologiyani joriy etish orqali turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin.

[1] Gaur, L., Abhinav, K., & Sood, S. K. (2022). Digital twin technology for smart tourism destination management. *Tourism Management Perspectives*, 42.
[2] Kitchin, R. (2021). Urban Digital Twins: Potential and Challenges. *Journal of Urban Technology*, 28(1–2), 3–21.
[3] Xalilov, S. (2023). O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga integratsiyasi. *Turizm va Innovatsiya*, 4(2), 77–85.
[4] United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2020). *Tourism and Technology: Navigating the New Normal*. UNWTO Report.
[5] Batty, M. (2018). Digital twins. *Environment and Planning B: Urban Analytics and City Science*, 45(5), 817–820.
[6] Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: Foundations and developments. *Electronic Markets*, 25(3), 179–188.
[7] Li, Y., Wang, Y., & Yu, C. (2021). Application of Digital Twin in Cultural and Ecotourism: A case study in China. *Journal of Tourism Technology*, 12(1), 58–75.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston shaharlari ekoturizmida raqamli egizak texnologiyalarning iqtisodiy potensialini baholash va tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy-metodik yondashuvlar kompleks tarzda qo‘llanildi. Har bir metod o‘z vazifasiga muvofiq ravishda tanlab olindi va umumiy tadqiqot maqsadiga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Ushbu metod orqali ekoturizm va raqamli egizak texnologiyalarning nazariy va kontseptual asoslari o‘rganildi. So‘nggi yillarda e’lon qilingan xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar, monografiyalar, hukumat qarorlari va turizm bo‘yicha strategik hujjatlar tahlil qilinib, ushbu texnologiyaning turizm tizimiga integratsiyalashuvi bo‘yicha ilmiy asoslar ishlab chiqildi. Shuningdek, ekoturizm infratuzilmasining raqamli transformatsiyaga tayyorlik darajasi ham tahlil etildi. Bu bosqichda ilmiy adabiyotlar bazasi asosida texnologiyalarning iqtisodiy va ekologik ahamiyati asoslab berildi. Mazkur metod yordamida O‘zbekiston holati xalqaro amaliy tajribalar bilan qiyoslandi[8]. Jumladan, Singapur, Yaponiya va Niderlandiya kabi davlatlarda raqamli egizak texnologiyalarning shahar ekoturizmidagi qo‘llanilishi o‘rganilib, ularning afzalliklari, qo‘llanilish doiralari va iqtisodiy natijalari O‘zbekiston sharoitlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv orqali texnologiyaning mahalliy sharoitga moslashuv imkoniyatlari, mavjud muammolar va rivojlanish yo‘nalishlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda sohaga oid amaliy ma’lumotlar va subyektiv fikrlarni olish maqsadida sayyohlik agentliklari rahbarlari, shaharsozlik va IT mutaxassislari, hamda ekologiya sohasi olimlari bilan chuqurlashtirilgan intervyular o‘tkazildi. Ekspertlar orqali raqamli egizak texnologiyalarning mahalliy turizm tizimiga joriy etilishi bo‘yicha to‘siqlar, ehtiyojlar, kutilayotgan iqtisodiy natijalar va boshqaruv mexanizmlari yuzasidan muhim amaliy fikrlar olindi. Ushbu intervyular tadqiqotda nazariy xulosalarni amaliy dalillar bilan boyitish imkonini berdi.

Tadqiqot yakunida raqamli egizak texnologiyalarning O‘zbekiston shahar ekoturizmidagi joriy etilishi bo‘yicha kuchli va zaif jihatlar, imkoniyatlar hamda ehtimoliy tahdidlar baholandi. SWOT tahlil texnologiyaning strategik nuqtai nazardan qanday istiqbollarga ega ekanini aniqlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi. Kuchli jihatlar sifatida real vaqtli monitoring, xarajatlarni optimallashtirish va xizmat sifatining oshishi qayd etilgan bo‘lsa, zaif tomonlar sifatida texnologik tayyorgarlik, infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligi aniqlangan. Imkoniyatlar qatorida esa turizmda investitsion jozibadorlikning oshishi, tahdidlar esa raqamli xavfsizlik va infratuzilmaviy nomutanosibliklar bilan bog‘liq deb topildi[9].

Umuman olganda, mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar bir-birini to‘ldiruvchi va mantiqiy bog‘langan tizimni hosil qilib, raqamli egizak texnologiyalarning shahar ekoturizmi sohasidagi iqtisodiy samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. O‘zbekiston shaharlari turizm salohiyatini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan, xususan raqamli egizak (Digital Twin) tizimidan foydalanish ekoturizmni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratadi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu texnologiya shahar ekoturizmining ko‘plab muhim jihatlarini takomillashtiradi.

Quyida asosiy natijalar izchil tarzda yoritib beriladi:

Raqamli egizak texnologiyalarning eng muhim afzalliklaridan biri — turistik xizmatlar sifati sezilarli darajada oshishidir. Virtual real vaqtli xaritalar, kengaytirilgan haqiqat (AR – Augmented Reality) texnologiyalari asosida yaratilgan raqamli yo‘riqnomalar va audio-vizual ko‘rsatmalar sayyohlarning obyektlar haqidagi bilimlarini oshirib, ularning turistik tajribasini chuqurlashtiradi. Shu tariqa, raqamli xizmatlar orqali har bir sayyoh uchun individuallashtirilgan va interaktiv yo‘nalishlar tashkil etilishi mumkin bo‘ladi[10].

Muhokama. Raqamli egizaklar orqali turistik obyektlar va infratuzilmalarni virtual muhitda modellashtirish resurslardan foydalanishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Elektr ta’minoti, suv iste’moli va transport oqimlarini monitoring qilish orqali ortiqcha xarajatlar aniqlanadi va ularni qisqartirish choralarini ko‘rish mumkin. Bu esa nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytiradi, balki xizmat narxlarini ham raqobatbardosh holga keltiradi.

Shaffof boshqaruv, real vaqtli monitoring va texnologik infratuzilmaning mavjudligi xorijiy va mahalliy investorlar uchun muhim omildir. Raqamli egizaklar yordamida shahar ekoturizm obyektlarining mavjud holati, prognozlari va rivojlanish yo‘nalishlari aniq ko‘rinishda aks ettiriladi. Bu esa investitsiya qilish xavfini kamaytiradi va ekoturizmga yo‘naltirilgan sarmoya hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli egizak texnologiyasi atrof-muhitning holatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini yaratadi. Natijada ekoturizm faoliyatining ekologik izlari (carbon footprint) nazoratga olinadi, chiqindilarni boshqarish tizimi takomillashtiriladi va tabiiy resurslardan oqilona foydalaniladi. Bu esa BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) mos holda ekologik turizm rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ushbu natijalarni tasdiqlash va an’anaviy ekoturizm bilan raqamli egizak texnologiyalar asosidagi ekoturizm o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish maqsadida quyidagi jadval shakllantirildi:

1-jadval

Raqamli egizak texnologiyalarning ekoturizmga ta’siri

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy ekoturizm	Raqamli egizak asosidagi ekoturizm
Xizmat sifati	O‘rtacha	Yuqori
Resurslardan foydalanish	Samarali emas	Optimallashtirilgan
Ekologik monitoring	Cheklangan	Real vaqtli, doimiy
Sayyohlar tajribasi	Standart	Shaxsiylashtirilgan
Qaror qabul qilish	Subyektiv	Ma’lumotlarga asoslangan

Mazkur tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli egizak texnologiyalarni ekoturizm tizimiga integratsiya qilish O‘zbekiston shaharlarining raqobatbardoshligini oshirish, turistik xizmatlar sifatini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim strategik vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston shaharlarida ekoturizmni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning, xususan raqamli egizak tizimining joriy etilishi ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni muvozanatli ta’minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli egizaklar orqali turistik obyektlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, xizmatlar sifatini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va sayyohlar uchun innovatsion tajribalar yaratish imkoniyati mavjud. Ushbu yondashuv nafaqat shahar ekoturizmining raqobatbardoshligini oshiradi, balki investorlar uchun ham ishonchli va shaffof muhit yaratadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Ekoturizm obyektlari uchun raqamli egizaklar yaratish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish. Hukumat tomonidan shahar ekoturizmiga ixtisoslashgan hududlar uchun raqamli egizak texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni qo‘llab-quvvatlaydigan maxsus milliy strategiya va normativ-huquqiy baza yaratilishi lozim. Bu,

[8] Badr, N. G., & Elsayed, A. A. (2022). Leveraging digital twin technology for sustainable urban tourism planning. *Sustainable Cities and Society*, 81, 103801.

[9] Komilova, D. & Rasulov, A. (2023). Ekoturizmni rivojlantirishda raqamli transformatsiyaning o‘rni: O‘zbekiston tajribasi. *O‘zbekiston Iqtisodiyoti*, 6(1), 45–53.

[10] Zhang, J., & Wang, Q. (2023). Digital twin applications in sustainable urban tourism: A review and future perspectives. *Sustainable Tourism Review*, 18(2), 120–135.

ayniqsa, ekologik sezgir hududlarda turistik faollikni ekologik me'yorlar asosida boshqarishga yordam beradi.

2. Turizm sohasida raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlash. Ekoturizmda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun malakali kadrlar zarur. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari va kasbiy ta'lim tizimida raqamli egizak, AR/VR texnologiyalari va ma'lumotlar tahlili yo'nalishida maxsus o'quv kurslarini joriy etish tavsiya etiladi. Shuningdek, amaliyotga yo'naltirilgan trening va stajirovkalar tashkil etilishi zarur.

3. Mahalliy startaplar va IT kompaniyalar bilan hamkorlikda AR/VR texnologiyalarni turizm sohasiga integratsiya qilish. Raqamli egizaklar AR (kengaytirilgan haqiqat) va VR (virtual haqiqat) texnologiyalar bilan birgalikda ishlaganda yanada samarali bo'ladi. Shu bois, mahalliy IT kompaniyalar va turizm agentliklari o'rtasida innovatsion hamkorlik loyihalari yo'lga qo'yilishi kerak. Bu orqali sayyohlarga interaktiv ekskursiyalar, virtual gidlar va immersiv tajribalar taqdim etish mumkin bo'ladi.

4. Turistik zonalarning raqamli xaritalarini yaratish va ularni onlayn platformalarga integratsiya qilish. Har bir turistik obyekt yoki zona uchun raqamli xaritalar yaratilib, ularni internet orqali ochiq foydalanishga taqdim etish zarur. Bu xaritalar navigatsiya, infratuzilma holati, ekologik ko'rsatkichlar va tavsiya etilgan marshrutlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Bu kabi xaritalar sayyohlar uchun qulaylik yaratibgina qolmay, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ekoturizmning kelajagi innovatsiyalarga bog'liq. Raqamli egizak texnologiyasining shahar turizmi bilan uyg'unlashuvi nafaqat turizm infratuzilmasining raqamli transformatsiyasiga, balki mamlakatning ekologik xavfsizligi va iqtisodiy barqarorligiga ham sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gaur, L., Abhinav, K., & Sood, S. K. (2022). Digital twin technology for smart tourism destination management. *Tourism Management Perspectives*, 42, 100944. https://doi.org/10.1016/j.tmp.2022.100944
2. Kitchin, R. (2021). Urban Digital Twins: Potential and Challenges. *Journal of Urban Technology*, 28(1–2), 3–21. https://doi.org/10.1080/10630732.2020.1861144
3. Xalilov, S. (2023). O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga integratsiyasi. *Turizm va Innovatsiya*, 4(2), 77–85.
4. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2020). *Tourism and Technology: Navigating the New Normal*. UNWTO Report.
5. Batty, M. (2018). Digital twins. *Environment and Planning B: Urban Analytics and City Science*, 45(5), 817–820. https://doi.org/10.1177/2399808318796416
6. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: Foundations and developments. *Electronic Markets*, 25(3), 179–188. https://doi.org/10.1007/s12525-015-0196-8
7. Li, Y., Wang, Y., & Yu, C. (2021). Application of Digital Twin in Cultural and Ecotourism: A case study in China. *Journal of Tourism Technology*, 12(1), 58–75. https://doi.org/10.1108/JTT-11-2020-0201
8. Badr, N. G., & Elsayed, A. A. (2022). Leveraging digital twin technology for sustainable urban tourism planning. *Sustainable Cities and Society*, 81, 103801. https://doi.org/10.1016/j.scs.2022.103801
9. Komilova, D. & Rasulov, A. (2023). Ekoturizmni rivojlantirishda raqamli transformatsiyaning o'rni: O'zbekiston tajribasi. *O'zbekiston Iqtisodiyoti*, 6(1), 45–53.
10. Zhang, J., & Wang, Q. (2023). Digital twin applications in sustainable urban tourism: A review and future perspectives. *Sustainable Tourism Review*, 18(2), 120–135. https://doi.org/10.1016/j.sustour.2023.04.002

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Haydarov Islomjon Hatamjon o‘g‘li,
Qo‘qon davlat universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
haydarovislomjon359@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 10
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1295

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

funksional rivojlanish, organizm, ko‘rgazmali harakatli, obrazli fikrlash, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur, o‘yin, sensor tizim.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlari, maktabgacha tarbiya yoshida ta’lim-tarbiya samarali tashkil etilishi orqali bolalar ko‘rish, eshitish, hid bilish kabi idrok etish usullari, ko‘rgazmali, harakatli va obrazli fikrlash, irodaviy, hissiy jarayonlarini shakllantirish, bilishni rivojlantirish jarayonida ko‘rgazmali-obrazli tafakkurdan nutqiy tafakkurga o‘tilishi, bolalarning tahlil etish va umumlashtirish ko‘nikmalari haqida yozilgan. Maqola eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Natijalar eshitishi cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning to‘laqonli psixik va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda tizimli yondashuv muhimligini ko‘rsatadi.

Kirish. Bola rivojlanishining ijtimoiy holati u oila doirasidan chiqib, kattalar dunyosiga kirib borishida namoyon bo‘ladi. Umumiy o‘sish va tana og‘irligining o‘sishi bilan bir vaqtda bolaning barcha asosiy to‘qimalari va organlari anatomik o‘zgarishlari va funksional rivojlanishi ro‘y beradi. Asta-sekin skelet qotib boradi, muskullar hajmi oshadi, bola organizmining ishlash qobiliyati kuchayadi. Bolaning yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashish kabi asosiy harakatlari rivojlanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida ta’lim-tarbiyaning samarali tashkil etilishi natijasida bolalar ko‘rish, eshitish, hid bilish kabi idrok etish usullari, ko‘rgazmali, harakatli va obrazli fikrlash, irodaviy, hissiy jarayonlari shakllanadi. Bilishni rivojlantirish jarayonida ko‘rgazmali-obrazli tafakkurdan nutqiy tafakkurga o‘tiladi, bolalar tahlil etish va umumlashtirish, tasniflashga o‘rganadilar, atrofdagi buyum va hodisalar to‘g‘risida mulohaza bildira boshlaydilar, sinchkov va qiziquvchan bo‘ladilar. (V.I.Loginova, P.G.Samorukova, P.Yusupova). Amaliy tadqiqot faoliyatlarida mo‘ljal olishning sodda (sinab ko‘rish) usullaridan murakkabroq, maqsadli ko‘rib, chamalash, keyinchalik xayolan mo‘ljal olishga o‘tiladi.

Adabiyotlar tahlili. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarnining ruhiy xususiyatlari XIX asr o‘rtalaridanoq pedagog va vrach-psixologlar e’tiborini o‘ziga jalb etib kelgan. V.I.Fleri, F.A.Ostrogradskiy, I.M.Logovskiy, F.A.Rau kabi olimlarning pedagogik faoliyati va tadqiqotlari surdopsixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ularning ilmiy ishlarida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruhiy xususiyatlarini kuzatish va aniqlashga doir fikrlar beriladi. Xususan, V.I.Fleri eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar harakat ko‘nikmalar xususiyatlari haqida ta’riflab, noto‘g‘ri koordinatsiya, harakatlarning ishonchsizligi kuzatilishini ta’kidlab o‘tadilar[1].

N.M.Logovskiy eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirish mumkinligini e’tirof etadi. Ushbu olim tomonidan karlikda ruhiy rivojlanish buzilishini kompensatsiyasida ko‘ruv idrokining o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

XX asrning 20-yillariga kelib L.S.Vigotskiy boshchiligida maxsus psixologiyaning dolzarb muammolarini tizimli tadqiq etish jarayoni amalga oshirildi. Olim o‘z ilmiy foliyatida turli nuqsonlari mavjud kar, ko‘r, aqli zaif bolalar hamda ularning ta’limi muammolarini o‘rganadi. 1924-1926-yillarda bu muammolarga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy ishlar chop etila boshlaydi.

L.S.Vigotskiy genetik tamoyillar tahlili asosida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ruhiyatining xususiyatlarini yoritib beradi. Kar bolaning rivojlanishi, ijtimoiy sharoiti, psixologik yangi holatlar kuzatilishini asoslaydi va e’tirof etadi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining tarkib topishi uning fe’l-atvori shakllanishida ham o‘z ifodasini topadi.

Bola shaxsiy xulq-atvorini ijtimoiy xulq-atvor talablariga bo‘ysundiradi, kattalar talablariga asosan, o‘zi va boshqalarning xulqini tanqidiy baholaydi. U hamma narsaga ham qodir emasligini hamda o‘zining shaxsiy sifatlarini anglaydi. O‘yin va mashg‘ulotlarda bolada fe’l-atvorning irodaviy sifatlari paydo bo‘ladi, ma’naviy ongni shakllantirish burch, adolat, qadr-qimmat va boshqa ijtimoiy tuyg‘ularning paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi.

O‘yin faoliyati. Ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi bo‘ladigan o‘yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Pedagoglar rahbarligidagi o‘yinlar chog‘ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to‘g‘risida bilimlarni o‘zlashtiradilar. Bolalar vaqt, makon munosabatlarini anglab yetadilar. Harakatli o‘yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo‘l-yo‘riq topishga yordam beradi. (L.A.Golovchis, U.Fayzieva, I.Kislisina)

Shuningdek, syujetli-rolli o‘yinlar metodidan ham foydalanildi. Unda bolalarning har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi, ular odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o‘zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. O‘yin xayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to‘g‘risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o‘z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo‘ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Ayrim ota-onalar bolalar bilan bo‘lgan muloqotlarida aksariyat hollarda yetarli ahamiyat bermaydi. Ba’zilar tamoman imo-ishoraga o‘tib olishadi, ayrimlar esa bolani erkalash maqsadida so‘zlarni buzib “bola tilida” muloqot qilishga harakat qiladilar. Maktabgacha davrda kar bolalarning sensor va aqliy rivojlanishi kar bolalarning maktabgacha yoshida sensor va aqliy rivojlanishida sezilarli siljishlar ro‘y beradi. Binobarin, bu paytga kelib, bolalarning predmetli tafakkuri, predmetli harakatlari muayyan darajaga yetadi. Zotan, bu paytda bolalarning predmetlardan qanday foydalanishni bilishlaridan tashqari, ularda ro‘zg‘orda foydalanish yo‘l yo‘riqlarini ham o‘rganib olgan davr bo‘ladi. Barcha aqliy rivojlanishi me’yorda bo‘lgan kar bolalar, maktabgacha tarbiya yoshining o‘rta va katta davrlarida qoshiqdan qanday foydalanishni, o‘z-o‘ziga xizmat qilishni boshqalardan o‘rganib olgan bo‘ladilar.

Predmetdan maqsadli foydalanish. Predmetdan maqsadli foydalanish ularning o‘yinchoqlar bilan munosabatida ham aks etiladi. Taqlidchanlikning rivojlanishi shunga olib keladiki, bolalar kattalarga

[1] https://www.scribd.com/document/851499550/Daktilologiya

[2] “OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2024-yil, 5-son, 140-b.

taqlid qilibgina emas, mustaqil ravishda predmetlarni qismlarga bo‘lish, yig‘ishni ham o‘rganib oladilar. Bolalar kattalarga taqlid qilish jarayonida predmetning hajmi, rangi, shakli, sig‘imi va boshqa sifat va xossalarini ajrata oladilar, solishtiradilar. 4 yoshdan kichik bolalar bu jarayonlarni taqlid asosida ham hali uddalay olmaydilar. 4 yoshdan kattaroq bolalar bu xatti-harakatlarni bajarganda predmetlar soni yoki turi 3-5 turdan oshmasligi kerak. Predmetlar sonining o‘sib borishi bolalarni chalkashuviga olib kelishi mumkin. Masalan, bolaga 3 rangdagi qizilni qizil, ko‘kni ko‘k, sariqni sariq kubiklarga ajratib qo‘yishi mumkin. Kubiklar rangini 6 taga yetkazilsa bolalar chalkashishlari mumkin. Maktabgacha yoshi ulg‘aygan sari bolalarda elementlar soni, rangini belgilash, qiyoslash, farqlash jadal tarzda rivojlanadi. Shu yoshda bolalarning tayyor namunalar asosida ish yurita olish qobiliyati takomillashadi. Bola ma’lum rang, shakl, hajmni tanlab, shuningdek, buyumlarni ikki belgisi asosida tanlab olishi mumkin. Bolada ko‘p nusxalardan bir nusxasini tanlab olish qobiliyati shakllanadi.

Kar bolalarning mo‘ljal olish qobiliyati rivojlanishida quyidagi bosqichlar mavjud:

A) Faqatgina ko‘zlangan natijaga mo‘ljal olish: bola ko‘zlagan maqsadga erishish uchun amaliy sinab ko‘rish yo‘li bilan, predmetlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan jismoniy kuch ishlata olish yo‘li bilan ham harakat qilishi mumkin.

B) Tashqaridan mo‘ljal olish xatti-harakatlari: bola yo mo‘ljal olishga harakat qilib ko‘radi yoki tusmollab chamalab ko‘radi chunki, bola hali predmetning rangi, hajmi, o‘lchamini aniqlab ola olmagan bo‘ladi.

V) Obyektni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turib mo‘ljallash, peresepsiya harakati bilan birga qo‘shib olib borishi: bola bunday holda predmetning xususiyatiga tayanib ish ko‘radi, ko‘z bilan chamalab ko‘radi, murakkab bo‘lib qolganda mo‘ljal olib sinab ko‘rishga harakat qiladi.

G) To‘laligicha xayolda mo‘ljallash: ko‘rinishidan faqat muqarrar natijalarga erishish uchun bexato ijrochilik xatti-harakatini namoyon qiladi.

Muloqot qilish ko‘nikmalarining shakllanishi. Sensor va aqliy taraqqiy etishi bilan kar bolalarning atrofdagilar bilan muloqot qilish vositalari kengayadi. Bolalarda ko‘rsatish ishorasi ajraladi. Ko‘rsatish ishorasi, L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, insoniyatda til rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rsatish ishorasining qo‘llanish doirasi takomillashadi, agar avval bolalar biror narsani olish maqsadida uni qo‘llagan bo‘lsa, endi rang, shakl, hajm, fazoviy joylashuvni farqlashda ham ko‘rsatmali ishoralardan keng foydalanadi. Bolalarda e’tiroz bildirish, voz kechish, iltimos qilish, xayrlashish, ma’qullash kabi imo-ishoralar ham shakllana boradi. Ayrim bolalarda tasvirlash imo-ishoralari taraqqiy etadi, karlar oilasida tug‘ilgan bolalarda bunday ishoralar ertaroq rivojlanadi va ular bo‘lishi mumkin[3].

Natijalar. Natijalarga ko‘ra, shu ma’lum bo‘ldiki, tug‘ma kar bolalarning jismoniy rivojlanishi eshitadigan bolalar rivojlanishidan orqada qoladilar. Bolalarning 70% bosh tutishni kechroq o‘rganadi, ularning 25% bu malakalar eshituvchi tengdoshlariga nisbatan 2 oy kechikib rivojlanadi. Bunday orqada qolish o‘tirish, turish, yurishida ham namoyon bo‘ladi. Yurishdagi kechikish muddatlari kamroq farq qiladi, boshni to‘g‘ri ushlab turishda orqada qolish muddatlarida kattaroq tafovut kuzatiladi. Ma’lumotlarga qaraganda mustaqil tarzda yurib ketishning kechikishi kar bolalarning 50% da kuzatiladi. Nuqsonning o‘rnini qoplash(kompensatsiyalash) shunday darajada bo‘ladiki, ilk yoshdagi kar bolalar tashqi ko‘rinishidan benuqsonga o‘xshaydilar. Biroq xatti-harakatlardagi beqarorlik, qat’iyatsizlik, harakatlarni yetarli boshqara olmaslik, muvozanatni saqlashdagi qiyinchiliklar aksariyat bolalarda butun maktabgacha tarbiya davrda yo‘qolmaydi. Sakrash paytida aksariyat bolalar sakrab poldan o‘z oyoqlarini baravariga ajrata olmaydilar. Koptokni irg‘itishda muvozanatni yo‘qotish va yiqilib ketish hollari ro‘y beradi. Ko‘pgina kar bolalarda mayda qo‘l motorikasi rivojlanishida orqada qolish kuzatiladi, barmoqlar hamda artikulyasiya a’zolarining harakatlarida aniqlik yetishmaydi. Aktikulyatsiya a’zolarning harakatlariga taqlid qilishda bolalar uzoq vaqt katta qiyinchiliklarga duch keladi.

Muhokama. Ta’lim muassasalarida olib boriladigan mashg‘ulotlar tizimi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta’lim-tarbiya mazmuni maxsus ta’lim dasturlarida aks ettirilgan bo‘lib, maktabgacha muassasa pedagoglar oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

1. Bolaning umumiy rivojlanishini boyitish;
2. Rivojlanishdagi mavjud kamchiliklarni korreksiyalash;
3. Maktab ta’limiga tayyorlash.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshidagi bolalar bilan tashkil etiladigan umum rivojlantiruvchi va korreksion ishlar. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshidagi bolalar bilan tashkil etiladigan umumrivojlantiruvchi va korreksion ishlar bolani ijtimoiy faollashuviga, L.S.Vigotskiy so‘zi bilan aytganda “sivilizatsiyaga uyg‘unlashuvi”ga, ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratiladi. Eshituvchi hamda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarini hisobga olgan holda ularning to‘laqonli psixik rivojlanishi, shaxs madaniyatining shakllanishi ya’ni, narsalar, ijtimoiy hodisalar, tabiat hodisalari, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yaxshi bilib tushunib olishlarini ta’minlanib borish zarur.

Mashg‘ulotlar jadval asosida ertalabki va kechki soatlarda olib boriladi. Ertalabki soatlarda surdopedagog va tarbiyachi 2 ta mashg‘ulot o‘tkazadi. Umumiy yalpi mashg‘ulotlardan so‘ng surdopedagog eshitish qobiliyatni rivojlantirish va talaffuzni o‘rgatish bo‘yicha kamida 6 ta alohida yakkama-yakka mashg‘ulotlar olib boradi.

Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi o‘z mashg‘ulotlarini barcha guruh bolalari bilan o‘tkazadi. O‘qituvchi-defektolog(surdopedagog) nutq o‘stirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish mashg‘ulotlarini olib boradi. Tarbiyachining zimmasiga bolalarning kun tartibini tashkil etish, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat, o‘yin, mehnat, tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini tashkil etish, musiqa mashg‘ulotlarida qatnashish yuklatiladi.

Bolalar bog‘chasining kun tartibida maxsus tashkil etilgan yalpi mashg‘ulotlarga ta’limning 1-2 yillarida haftasiga 24 soat, 3-4-5- yillarda -30 soat ajratiladi. Alohida-alohida mashg‘ulotlarga dastur bo‘yicha har kuni 2 soatdan ajratiladi, shunda o‘rta hisobda har bir bolaga kuniga 15-25 daqiqadan sarflanadi. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida tashkil etilgan ta’limning asosiy vazifalari bolalarning bilish faoliyatini maqsadli yo‘naltirish, dastur talablariga muvofiq bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda so‘zli nutqni o‘stirishdan iborat.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi sog‘lom tengdoshlarinikidan sezilarli farq qiladi. Eshitish analizatori faoliyatining buzilishi bolaning atrof-muhit haqidagi axborotni qabul qilish jarayonini cheklaydi, bu esa nutq, tafakkur, xotira, diqqat va hissiy sohaning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, to‘g‘ri tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlar orqali bunday bolalarda kompensator imkoniyatlar rivojlantirilishi, muloqot va ijtimoiy moslashuv darajasi oshirilishi mumkin.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruhiy rivojlanishida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi: idrokning ko‘proq ko‘rish, harakat va teginish sezgilari orqali rivojlanishi; nutqning kechikib shakllanishi; hissiy holatlarda barqarorlikning yetishmasligi; muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar. Shu sababli ular bilan ishlashda individual yondashuv, maxsus ta’lim metodlari va psixologik yordam muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bunday bolalarning to‘laqonli rivojlanishini ta’minlash uchun ota-ona, tarbiyachi, defektolog, va psixologlarning hamkorlikdagi sa’y-harakatlari zarur. Erta tashxis va tizimli korreksion ishlar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruhiy, nutqiy hamda ijtimoiy rivojlanishida ijobiy natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alien, T. E. Academic Integration of Hearing-Impaired students: Demographic, Handicapping and Achievement factors / T. E. Alien, Г. Osborn // American Annals of the Deaf. April. 1984. — P. 100—113.

[3] Muzaffarova X., Aminjonova G., “JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS” MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN KORREKSION ISHDA O`YINLARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. 2_October-2024

2. Berdiyev.G., “Boshlang‘ich sinflarda shaxslararo munosabatdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish.

3. Лубовский, В. И. Методологические проблемы специальной психо-логии / В. И. Лубовский // Специальная педагогика и специальная психология: современные методологические подходы. — М., 2013. — С. 9—36.

4. L.R.Mo‘minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova. Maxsus psixologiya, T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2013.

5. Mo‘minova L, Amirsaidova Sh, Djalolova Z, Hamidova M., Maxsus psixologiya, T.: “Noshir”, 2021.

6. M.Vohidov., Bolalar psixologiyasi. T.: “O‘qituvchi”, 1982.

7. Sodiqova G.A., Nurkeldiyeva D.A., Islombekova Z.I., Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi. T.:Nisim, 2008.

8. Shoumarov.G‘.B., Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. T.: “O‘qituvchi”- 1993.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

PRAGMATIK LAKUNALAR: NUTQ ODATLARI VA ILTIFOT STRATEGIYALARI

Latipov Sherzod Foziljon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
werrzodd@gmail.com +998996062806
ORCID ID 0009-0004-5012-3866

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 11
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1296

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

pragmatik lakuna, iltifot strategiyalari, nutq aktlari, kross-madaniy pragmatika, madaniy skriptlar, relevans nazariyasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada pragmatik lakunalar nutq odatlari, illokutiv kuch va iltifot me’yorlari darajasidagi nomuvofiqliklar sifatida talqin etiladi. Tadqiqot Grice kooperativ prinsipi va implikatura nazariyasi, Brown va Levinsonning iltifot modeli, CCSARP loyihasi doirasidagi kross-madaniy pragmatika ishlari hamda Sperber va Wilsonning relevans nazariyasiga tayangan holda o‘zbek–turk va ingliz tillaridagi muloqot ssenariylarini qiyoslaydi. Uzoq salomlashuv, takroriy takliflar, “Qayerga?” kabi savollar, shuningdek, ingliz tilidagi yumshatilgan buyruqlar (“You might want to…”) turli madaniy skriptlar doirasida turlicha talqin qilinishi ko‘rsatiladi. Metodologik jihatdan maqola adabiyotlar tahlili, nutq aktlari bo‘yicha kross-kultural tadqiqotlar ma’lumotlari va o‘zbek nutqiy amaliyotini madaniy skriptlar tilida qayta konseptualizatsiya qilishga tayanadi. Xulosa sifatida pragmatik lakunalar leksik mos kelmaslikdan ko‘ra chuqurroq – qadriyatlar ierarxiyasi, “yuz” (face) tushunchasi va shaxsiy hududga aralashish chegaralaridagi farqlar bilan bog‘liq ekani isbotlanadi.

Kirish. Pragmatik lakunalar tushunchasi tilshunoslikda nisbatan yangi, ammo kross-madaniy muloqotdagi ko‘plab “tushunmovchiliklar”ni izohlashga imkon beruvchi kategoriya sifatida ahamiyat kasb etadi. Leksik lakunadan farqli ravishda pragmatik lakuna so‘zlar yoki grammatik modellarning mavjud-yo‘qligiga emas, balki ularning qaysi vaziyatda, qanday illokutiv kuch bilan, qanday ijtimoiy oqibatlar bilan qo‘llanishiga taalluqlidir. Grice kooperativ prinsipi muloqot ishtirokchilari ma’no yaratishda ostki qatlam – implikaturalar, taxminlar va kontekstual xulosalarga tayanishlarini ko‘rsatadi; u suhbatni boshqaruvchi umumiy tamoyil sifatida “suhbatga maqsadga muvofiq, yetarli, aniq va tartibli hissa qo‘shish”ni talqin etadi[1]. Grice modeliga tayangan holda keyingi pragmatik tadqiqotlar ma’no ko‘pincha “aytilmagan, ammo anglashilishi kutiladigan” tarkibda yashirinishini ta’kidlaydi; aynan shu yashirin qatlamlar boshqa madaniyat vakillari uchun “pragmatik bo‘shliq” hosil qiladi.

Brown va Levinsonning iltifot nazariyasi esa pragmatik lakunalarni “face” tushunchasi bilan bog‘laydi. Ular “face”ni har bir individning ijtimoiy obro‘si, o‘zini ijtimoiy maydonda qanday ko‘rishni istashi haqidagi kutishlar majmui sifatida sharhlab, ijobiy (positive) va salbiy (negative) face o‘rtasidagi farqlarni tahlil qiladi [2]. Ijobiy iltifot strategiyalari yaqinlik, birdamlik va umumiylikni kuchaytirishga, salbiy iltifot strategiyalari esa boshqa shaxsning avtonomiyasi va “bezovta qilinmaslik huquqi”ni himoya qilishga qaratilgan. Turli madaniyatlarda aynan qaysi strategiya markaziy o‘ringa chiqishi ham pragmatik lakunalarning manbaiga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kross-madaniy pragmatika doirasida nutq aktlarining kultural variativligi eng avvalo CCSARP loyihasi doirasida tizimli tadqiq qilingan. Blum-Kulka va Olshtain turli tillarda so‘rov va uzr nutq aktlarining realizatsiya shakllarini solishtirgan holda, ikkinchi til o‘rganuvchilari grammatik va leksik kompetensiyani egallagan bo‘lsalar ham, pragmatik darajada muvaffaqiyatsizlikka uchrashlari mumkinligini ko‘rsatadi[3]. Maqolaning metodologik asosini tashkil etgan diskursni to‘ldirish testi (discourse completion test, DCT) mazkur nutq aktlarini turli sotsial parametrlar – masofa, maqom va boshqalar – bo‘yicha qiyoslash imkonini beradi[4].

Blum-Kulka, House va Kasper tomonidan tahrir qilingan “Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies” to‘plamida DCT natijalari asosida so‘rovlar direkteklik darajasi, ichki va tashqi yumshatish vositalari, vaziyatga ko‘ra strategiya tanlash kabi parametrlarda turli lingvokulturalar kesimida tizimli tafovutlar borligi ko‘rsatiladi (Blum-Kulka, House, and Kasper). Masalan, Faerch va Kasper interlanguage so‘rovlarida ichki (leksik-grammatik) va tashqi (preparator, sabab keltirish, iltimos oldidan kechirim so‘rash va hokazo) modifikatorlarning qo‘llanishiga alohida e’tibor qaratadi[5]. Rintell va Mitchell esa ayni CCSARP ma’lumotlaridan foydalanib, DCTning afzalliklari bilan bir qatorda, uning cheklovlarini ham tahlil qiladi va natijalarni tabiiy korpuslar bilan solishtirish zarurligini qayd etadi[6].

Sperber va Wilson ilgari surgan relevans nazariyasi pragmatik lakunalarning kognitiv mexanizmini izohlashga xizmat qiladi. Ularning fikricha, inson aqli tabiatan “relevant” (kutilayotgan kognitiv foyda yuqori va uni qayta ishlash xarajati past bo‘lgan) ma’lumotga yo‘naltirilgan bo‘lib, kommunikatsiyaning o‘zi suhbatdosh e’tiborini o‘ziga qaratish va shu orqali “mening aytayotganim senga yetarlicha foydali bo‘ladi” degan da’vodir[7]. Turli madaniyatlarda “kutilayotgan relevans” darajasi va uni ta’minlash uchun talab qilinadigan eksplicitlik bosqichi turlicha bo‘lgani bois, bir tilda “yetarlicha ravshan” bo‘lgan ishora boshqa tilda haddan tashqari noaniq yoki, aksincha, ortiqcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

Wierzbicka madaniy skriptlar va NSM (Natural Semantic Metalanguage) yondashuvi doirasida “til – madaniyat – qadriyatlar” uchligini tahlil qilib, turli jamiyatlardagi nutq odatlari tagida yotgan yashirin qoidalarni elementar semantik birliklar yordamida qayta ifodalaydi[8]. Unga ko‘ra, har bir lingvokultura o‘ziga xos “odatiy gapirish usuli”ga ega va bu usul, masalan, “xalq boshqalar bilan gaplashayotganda qanday his qilishi kerak”, “kim kimga qachon va qanday gapirishi mumkin” kabi skriptlar orqali tasvirlanishi mumkin. Shunday skriptlar mos kelmagan joyda pragmatik lakunalar paydo bo‘ladi.

Zamonaviy kross-madaniy pragmatika ushbu yondashuvlarni integratsiya qilishga intiladi. House va Kádár kross-madaniy pragmatika “turli lingvokulturalarda tilning qo‘llanishini qiyosiy o‘rganish”dan iborat ekani, unda nutq aktlari, marosimiy ifodalar va diskurs darajasidagi birliklar birgalikda ko‘rilishi zarurligini ta’kidlaydi[9]. Ularning multimetod yondashuvi DCT, ro‘l o‘ynash, tabiiy korpuslar, introspektiv

[1] Grice, H. Paul. “Logic and Conversation.” Syntax and Semantics: Speech Acts, vol. 3, edited by Peter Cole and Jerry L. Morgan, Academic Press, 1975, pp. 41–58.
[2] Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. “Universals in Language Usage: Politeness Phenomena.” Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction, edited by Esther N. Goody, Cambridge UP, 1978, pp. 56–310.
[3] Blum-Kulka, Shoshana, and Elite Olshtain. “Requests and Apologies: A Cross-Cultural Study of Speech Act Realization Patterns (CCSARP).” Applied Linguistics, vol. 5, no. 3, 1984, pp. 196–213.
[4] Blum-Kulka, Shoshana, and Elite Olshtain. “Requests and Apologies: A Cross-Cultural Study of Speech Act Realization Patterns (CCSARP).” Applied Linguistics, vol. 5, no. 3, 1984, pp. 196–200.
[5] Faerch, Claus, and Gabriele Kasper. “Internal and External Modification in Interlanguage Request Realization.” Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies, edited by Shoshana Blum-Kulka, Juliane House, and Gabriele Kasper, Ablex, 1989, pp. 221–247.
[6] Rintell, Ellen M., and Catherine J. Mitchell. “Studying Requests and Apologies: An Inquiry into Method.” Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies, edited by Shoshana Blum-Kulka, Juliane House, and Gabriele Kasper, Ablex, 1989, pp. 248–272.
[7] Sperber, Dan, and Deirdre Wilson. Relevance: Communication and Cognition. 2nd ed., Blackwell, 1995, pp. 1–326.
[8] Wierzbicka, Anna. “‘Cultural Scripts’: A Semantic Approach to Cultural Analysis and Cross-Cultural Communication.” Pragmatics and Language Learning, Monograph Series, vol. 5, edited by Lawrence Bouton and Yamuna Kachru, University of Illinois, 1994, pp. 1–24.
[9] House, Juliane, and Dániel Z. Kádár. Cross-Cultural Pragmatics. Cambridge UP, 2021, pp. 1–3.

intervyularni birlashtirish orqali “formulalar” va ularning illokutiv kuchi o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni qayta qurishga urinadi[10].

Ushbu maqola metodologik jihatdan, bir tomondan, yuqoridagi nazariy va empirik ishlar tahliliga, ikkinchi tomondan esa o‘zbek nutqiy tajribasi asosida konstruktiv-analitik tasvirga tayanadi. Maqsad aniq statistik natija berish emas, balki mavjud kross-kultural tadqiqotlar fonida o‘zbek (va qisman turk) muloqot amaliyotida kuzatiladigan nutq odatlarini konseptual rekonstruksiya qilishdir. Shuning uchun maqolada misollar sifatida keltirilgan vaziyatlar ideal tiplar sifatida, madaniy skriptlar esa Wierzbicka tavsiya qilganidek soddalashtirilgan, ammo empirik kuzatishlar bilan mos keluvchi model sifatida talqin etiladi[11].

Natija. O‘zbek va turk tilida muloqot odatda pozitif iltifot strategiyalariga suyanadi: uzoq salomlashuv, hol-ahvolni bir necha bosqichda so‘rash, kamtarlikni ta’kidlovchi iboralar, mehmonni takror-takror taklif qilish, suhbatdoshni “yolg‘iz qoldirmaslik” kabi xatti-harakatlar ijtimoiy jihatdan maqbul va kutilgan hisoblanadi. Bunday muhitda “ortiqcha sukut” yoki “tez mavzuga o‘tish” ko‘pincha sovuqqonlik, e’tiborsizlik yoki “hurmatsizlik” sifatida qabul qilinadi. Ingliz tilida esa qisqa salomlashuv (“Hi”, “How are you?”) va tezkor ravishda asosiy mavzuga o‘tish ko‘pincha samaradorlik va shaxsiy hududga hurmat belgisi bo‘lib, Brown va Levinson ta’kidlagan salbiy face – ya’ni “aralashuvdan xoli bo‘lish huquqi”ni muhofaza qilish bilan uyg‘unlashadi[12].

Shu bois bir xil lingvistik forma turli madaniyatlarda turlicha illokutiv kuchga ega bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi “You might want to…” konstruktsiyasi formal jihatdan maslahatga o‘xshasa-da, relevans nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda bu konstruktsiya ko‘pincha kuchli direktiv signal – mas’ul shaxsning yumshatilgan, biroq aniq topshirig‘i sifatida talqin qilinadi[13] . O‘zbek yoki turk so‘zlovchisi esa bu iborani ko‘pincha “umumiy tavsiya, xohlasang bajar, xohlamasang yo‘q” tarzida qabul qilishi, natijada institutsional vaziyatda (masalan, rahbar–xodim muloqotida) kutilgan harakatni bajarmasligi mumkin. Bu yerda pragmatik lakuna aynan illokutiv kuchni kodlash va dekodlashdagi sistematik tafovutdan kelib chiqadi.

O‘zbek muloqotidagi “jamoaviy nazorat” skriptlari ham pragmatik lakunaning yorqin ifodasidir. Ko‘chada tanish uchraganda “Qayerga?” savolini berish mahalliy skriptlarda: “men sening hayotingga befarq emasman”, “sening ishlaring meni qiziqtiradi”, “agar yordam kerak bo‘lsa, ayta olasan” degan implicaturalarga tayanadi. Grice mezonlari bo‘yicha bu savol nafaqat ma’lumot so‘rashi, balki ijtimoiy yaqinlik va birdamlikni signal qilishi bilan ham relevant hisoblanadi[14]. Ingliz tilidagi muloqotda esa shaxsiy marshrutni, xususan, “where are you going?” tarzida bevosita surishtirish ko‘pincha haddan tashqari aralashuv, “private space”ni buzish sifatida qabul qilinishi mumkin; bu yerda negative face ustuvorligi ustida qurilgan skriptlar faol. Natijada bir xil savolning inglizcha ekvivalenti illokutiv kuch jihatidan keskin farq qiladi va pragmatik lakuna paydo bo‘ladi.

Blum-Kulka va Olshtain ko‘rsatganidek, so‘rov va uzr nutq aktlari bo‘yicha ham madaniyatlar o‘rtasida muntazam farqlar bor: ayrim tillar direkteklikni, boshqalari esa bilvosita strategiyalarni afzal ko‘radi[15]. O‘zbek tilidagi “bir piyola choy ichib keting”, “uyga kirib o‘ting” kabi takliflar ko‘pincha ritual formula bo‘lib, har doim ham real institutsional taklifni anglatmaydi; shu bilan birga ma’lum vaziyatlarda bu taklifni rad etish qo‘pol yoki “ko‘ngilni xira qiluvchi” harakat sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilidagi “You must come for dinner sometime” kabi formulalar ham ko‘p holatlarda ritual xarakterga ega bo‘lsa-da, ularning qabul qilinishi va bajarilishi bo‘yicha kutilmalar boshqa: takrorlanmagan, konkretlashtirilmagan taklifni rad etish odatda ijtimoiy muammo tug‘dirmaydi. Demak, iltifot formulasining o‘zi emas, balki bu formula bilan bog‘langan madaniy skriptlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik pragmatik lakunani yuzaga keltiradi[16].

Pragmatik lakunalar tarjima amaliyotida ham keskin seziladi. Masalan, o‘zbek tilida hurmat ifodasi sifatida ko‘p qo‘llanadigan “Domla, bir savol bilan chalg‘itib qo‘ymadimmi?” kabi kirish gaplari ko‘pincha ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri semantik ekvivalent (“Am I not disturbing you with a question?”) orqali ifodalanganda haddan tashqari apologetik, o‘ziga ishonchsiz ohang sifatida qabul qilinishi mumkin. Inglizcha akademik muhitda esa “Sorry to bother you, I have a quick question about…” kabi formulalar ma’lum darajada normativ bo‘lsa-da, ular Grice kooperativ prinsipi nuqtai nazaridan “ortiqcha” emas, balki relevansni oshiruvchi ijtimoiy signal sifatida talqin etiladi[17].

Muhokama. Wierzbicka madaniy skriptlar yondashuvi o‘zbek nutq odatlaridagi pragmatik lakunalarni konseptual aniqlashtirishga yordam beradi. Masalan, o‘zbek tilida salomlashuv va hol-ahvol so‘rash skriptini shartli ravishda quyidagicha qayta qurish mumkin: “odamlar bir-birini ko‘rganda shunday o‘ylaydi: men bu odamga yaxshi munosabatda ekanimni ko‘rsatishim kerak; men undan u va uning oilasi haqida so‘rashim kerak; men unga yaxshi tilaklarimni aytishim kerak; agar men buni qilmasam, u meni sovuqqon deb o‘ylashi mumkin”. Inglizcha skript esa, soddalashtirilgan holda, “men bu odamga qisqa salom berishim kerak; men uning shaxsiy hayotiga chuqur kirmasligim kerak; agar u ko‘proq gaplashishni xohlasa, o‘zi mavzuni kengaytiradi” tarzida bo‘lishi mumkin[18]. Shu tarzda qayta qurilgan skriptlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik salomlashuvning uzunligi, savollar soni va ularning mazmuni bo‘yicha pragmatik lakunalarni tushuntiradi.

House va Kádár ta’kidlagan multimodallik tamoyili nuqtai nazaridan qaralganda, pragmatik lakunalarni o‘rganishda faqat diskurs namunalarini tahlil qilish emas, balki ishtirokchilarning metapragmatik mulohazalari – ya’ni “bu ibora siz uchun qanday ohangda eshitiladi?”, “bu savol sizga yoqimli yoki noqulaymi?” kabi savollar orqali ularning o‘zlari tuzayotgan skriptlarni ham fosh etish zarur[19]. Masalan, o‘zbek ishtirokchilari “Qayerga?” savolini ko‘pincha “mehribonlik” va “hamdardlik” bilan bog‘lasa, ingliz ishtirokchilari bunday to‘g‘ridan-to‘g‘ri savolni “privacy”ga tajovuz sifatida baholashi mumkin. Bu esa konseptual emas, aynan pragmatik lakunaga misol bo‘ladi: leksik darajada savol oddiy lokatsiya so‘rovini ifodalaydi, illokutiv darajada esa turli madaniy qiymatlarga ulanadi.

Xulosa. O‘rganilgan nazariy manbalar va kross-madaniy pragmatika tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, pragmatik lakunalar tilga oid “bo‘shliq” emas, balki turli lingvokulturalarda nutq aktlarining qanday va qachon qo‘llanishi, qaysi formula qaysi illokutiv kuchga ega ekani haqidagi skriptlarning nomuvofiqligi bilan bog‘liq. Grice kooperativ prinsipi va implikatura nazariyasi, Brown va Levinsonning iltifot modeli, Blum-Kulka va hamkorlarining CCSARP loyihasi hamda Sperber va Wilsonning relevans nazariyasi bu nomuvofiqliklarning kognitiv va sotsial mexanizmlarini tushuntirishga imkon beradi. Wierzbicka ishlab chiqqan madaniy skriptlar yondashuvi esa o‘zbekcha nutq odatlarini – uzoq salomlashuv, jamoaviy nazorat, takroriy takliflar va hokazolarni – eksplitsit semantik formulalar shaklida qayta ifodalashga, shu orqali pragmatik lakunalarni aniqroq ko‘rishga yordam beradi.

Amaliy nuqtai nazardan pragmatik lakunalarni anglash tarjima, chet tili o‘qitish va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhimdir. Lingvodidaktik jarayonda nafaqat leksik va grammatik kompetensiya, balki iltifot strategiyalari, nutq odatlari va ijtimoiy maqbullik chegaralari ham maxsus o‘rgatilishi, DCT, ro‘l o‘ynash va metapragmatik muhokamalar yordamida talabalarning “ikkinchi madaniyat skriptlari”ni ongli ravishda shakllantirish zarur. Aks holda, til o‘rganuvchilar grammatik jihatdan to‘g‘ri, ammo pragmatik jihatdan nomaqbul utteranslar ishlab chiqarib, “pragmatik failure” holatiga tushib qolishlari mumkin.

Shunday qilib, pragmatik lakunalar bu – muloqot ishtirokchilarining yashirin kutilmalari, “yuz”ni himoya qilish usullari va relevans haqidagi tasavvurlari mos kelmagan nuqtada paydo bo‘ladigan bo‘shliqlardir. Ularni aniqlash va tahlil qilish, bir tomondan, tilshunoslik uchun nazariy ahamiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ko‘p madaniyatli jamiyatlarda kundalik muloqotning muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

[10] House, Juliane, and Dániel Z. Kádár. Cross-Cultural Pragmatics. Cambridge UP, 2021, pp. 3–5.
[11] Wierzbicka, Anna. “‘Cultural Scripts’: A Semantic Approach to Cultural Analysis and Cross-Cultural Communication.” Pragmatics and Language Learning, Monograph Series, vol. 5, edited by Lawrence Bouton and Yamuna Kachru, University of Illinois, 1994, pp. 10–20.
[12] O‘sha manbaa
[13] O‘sha manbaa
[14] Grice, H. Paul. “Logic and Conversation.” Syntax and Semantics: Speech Acts, vol. 3, edited by Peter Cole and Jerry L. Morgan, Academic Press, 1975, pp. 50–55.
[15] O‘sha manbaa
[16] O‘sha manbaa
[17] Grice, H. Paul. “Logic and Conversation.” Syntax and Semantics: Speech Acts, vol. 3, edited by Peter Cole and Jerry L. Morgan, Academic Press, 1975, pp. 52–55.
[18] Wierzbicka, Anna. “‘Cultural Scripts’: A Semantic Approach to Cultural Analysis and Cross-Cultural Communication.” Pragmatics and Language Learning, Monograph Series, vol. 5, edited by Lawrence Bouton and Yamuna Kachru, University of Illinois, 1994, pp. 5–15.
[19] O‘sha manbaa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Blum-Kulka, Shoshana, and Juliane House. “Cross-Cultural and Situational Variation in Requesting Behavior.” Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies, edited by Shoshana Blum-Kulka, Juliane House, and Gabriele Kasper, Ablex, 1989, pp. 123–154.
2. Blum-Kulka, Shoshana, and Elite Olshtain. “Requests and Apologies: A Cross-Cultural Study of Speech Act Realization Patterns (CCSARP).” Applied Linguistics, vol. 5, no. 3, 1984, pp. 196–213.
3. Blum-Kulka, Shoshana, Juliane House, and Gabriele Kasper, editors. Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies. Ablex, 1989, 300 pp.
4. Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. “Universals in Language Usage: Politeness Phenomena.” Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction, edited by Esther N. Goody, Cambridge UP, 1978, pp. 56–310.
5. Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge UP, 1987, 345 pp.
6. Faerch, Claus, and Gabriele Kasper. “Internal and External Modification in Interlanguage Request Realization.” Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies, edited by Shoshana Blum-Kulka, Juliane House, and Gabriele Kasper, Ablex, 1989, pp. 221–247.
7. Grice, H. Paul. “Logic and Conversation.” Syntax and Semantics: Speech Acts, vol. 3, edited by Peter Cole and Jerry L. Morgan, Academic Press, 1975, pp. 41–58.
8. House, Juliane, and Dániel Z. Kádár. Cross-Cultural Pragmatics. Cambridge UP, 2021, xvi + 286 pp.
9. Rintell, Ellen M., and Catherine J. Mitchell. “Studying Requests and Apologies: An Inquiry into Method.” Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies, edited by Shoshana Blum-Kulka, Juliane House, and Gabriele Kasper, Ablex, 1989, pp. 248–272.
10. Sperber, Dan, and Deirdre Wilson. Relevance: Communication and Cognition. 2nd ed., Blackwell, 1995, viii + 326 pp.
11. Wierzbicka, Anna. “‘Cultural Scripts’: A Semantic Approach to Cultural Analysis and Cross-Cultural Communication.” Pragmatics and Language Learning, Monograph Series, vol. 5, edited by Lawrence Bouton and Yamuna Kachru, University of Illinois, 1994, pp. 1–24.
12. Wierzbicka, Anna. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. 2nd ed., Mouton de Gruyter, 2003, xxxvii + 502 pp.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

BOLALARDA DUDUQLANISHNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA KORREKSION-LOGOPEDIK ISHLAR

Salomova Komola Raxmatjon qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Logopediya yo‘nalishi magistranti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 12
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1297

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

duduqlanish, etiologiya, anatomo-fiziologik omillar, sotsial-ruhiy sabablar, irsiyat, psixik travma, nerv tizimi, motorika buzilishlari, logopedik ritmika, korreksion-pedagogik ish, musiqiy-harakat mashqlari, iteratsiya, nutqiy rivojlanish, kinestetik funksiyalar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada duduqlanishning kelib chiqish omillari, uning anatomo-fiziologik hamda sotsial-ruhiy sabablariga oid ilmiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilingan. Duduqlanishning paydo bo‘lishida irsiyat, markaziy nerv sistemasining funksional yetilmaganligi, infeksion va somatik kasalliklar, psixik travmalar, oiladagi noqulay sharoit va noto‘g‘ri nutqiy tarbiya kabi omillarning o‘rni yoritilgan. Tadqiqotlarda “zamin” va “zarba” omillarining farqlanishi, ularning duduqlanishni yuzaga keltirishga bo‘lgan bevosita hamda bilvosita ta’siri ilmiy asosda ochilgan, olingan xulosalarda foydalanilgan. Duduqlanuvchi bolalarda umumiy va artikulyatsion motorika buzilishlari, harakatlarning muvofiqlashtirilmaganligi, muskullar tonusi o‘zgarishlari va kinestetik funksiyalar zaifligi haqida mutaxassislar fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, logopedik ritmikaning duduqlanishni korreksiyalashdagi ahamiyati, nutqiy va musiqiy-harakat mashqlari orqali nafas, motorika, muvozanat, irodaviy boshqaruv kabi funksiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari ko‘rsatib berilgan. Diqqatni faollashtiruvchi mashqlar, musiqaning ritmik va emotsional ta’siri hamda o‘yin elementlaridan foydalanish duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida ta’riflanadi.

Kirish. Har bir nutq kamchiligining sababi ikki turli bo‘ladi. Birinchi anatomo-fiziologik va ikkinchisi sotsial-ruhiy sababdir. Anatomo-fiziologik sabablarga ko‘ra duduqlanish turli xil infeksion somatik kasalliklar – qizamiq, meningitlar natijasida kelib chiqishi mumkin. Irsiyatga moyillik ham anatomo-fiziologik sabablarga kiradi. Irsiyat 30% duduqlanuvchilarda hal qiluvchi ahamiyatga kasb etgani chex olimi Zeeman tadqiqotlarida ko‘rsatilgan. Oilada bolaga noto‘g‘ri tarbiya berilishi, notinchlilik, bolaga noto‘g‘ri nutqiy tarbiya, ikki tillilik, nagruzkani bolani samatik ahvolini hisobga olmasdan oshirib yuborish kabilardir. Nerv sistemasi, organizm sust, zaif bo‘lsa yuqoridagi faktorlarning ta’siri katta va kuchli bo‘ladi. Iteratsiya –unli tovushlarni ko‘shib gapirish, tez-tez gapirish. Keyinchalik bu patologik stereotip duduqlanishga o‘tadi. Taqlid qilish orqali ham duduqlanish kelib chiqadi. Oiladagi notinchlik, er-xotin janjali, bolaning nerv sistemasiga qattiq zarba berib ta’sir qiladi. Urush-janjal natijasida qattiq nutq buzilishi kuchayadi. Duduqlanish paydo bo‘lishi uchun bitta asosiy sabab bo‘lishi kerak. Nerv sistemasi zaif bo‘lishi kerak, moyillik bo‘lishi kerak. Agar mana shu asosiy sabab bo‘lsa yuqoridagi anatomo-fiziologik va sotsial-ruhiy sabablar ta’sirida albatta duduqlanish kelib chiqadi[1].

Adabiyotlar tahlili. Nutqning ritmik-intonatsion tashkil topishi, uning psixofiziologik asoslari hamda nutq buzilishlari, xususan, duduqlanish mexanizmlarini o‘rganish logopediya va neyropsixologiya yo‘nalishida ko‘plab ilmiy izlanishlarga sabab bo‘lgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, duduqlanish ko‘p omilli, murakkab psixofiziologik hodisa sifatida talqin qilinadi va turli tadqiqotchilar uni turlicha yondashuvlar asosida izohlaydilar.

Klassik logopedik adabiyotlarda (L.S.Vygotskiy, R.E.Levina, V.A.Kallistratova) duduqlanishning kelib chiqishida markaziy nerv sistemasining yetarli darajada pishmaganligi, oliy nerv faoliyatidagi nomutanosibliklar va nutq motorikasining rivojlanmaganligi asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi. Zamonaviy neyrolingvistik tadqiqotlar (A.Guitar, B.Conture) esa duduqlanishni neyron tarmoqlar faoliyatidagi uzilishlar, harakatni rejalashtirish va ijro funksiyasidagi kechikishlar bilan bog‘laydi[2].

Mahalliy olimlar, jumladan, M. Asqarova, S. Mavlonova va N. Raxmonqulova tadqiqotlarida duduqlanuvchi bolalarda psixomotor jarayonlarning nomutanosibligi, umumiy va mayda motorikaning sust rivojlanganligi, artikulyatsiya apparatining yetarlicha takomillashmaganligi alohida ta’kidlanadi[3].

Duduqlanish etiologiyasida “zamin” (biologik) va “zarba” (psixogen) omillar tasnifi ko‘plab logopedlar tomonidan qo‘llanilgan: N.S. Samoylenko, B. Kazakov, A. Yarotskiy. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

zamin omillar: irsiy moyillik, homila davridagi patologiyalar, tug‘ruqdagi jarohatlar, somatik kasalliklar;

zarba omillar: kuchli qo‘rquv, psixik travma, oiladagi ziddiyatlar, noto‘g‘ri nutqiy tarbiya, ikki tillilik.

Bu tasnif zamonaviy logopediya amaliyotida duduqlanish profilaktikasi va korreksiyasi strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy metodologik tamoyil sifatida qaraladi.

Duduqlanuvchi bolalarda harakat muvofiqligi, mushak tonusi, nafas va artikulyatsiya harakatlaridagi nomutanosibliklar haqida N.S.Samoylenko, A.M.Shklovskiy, Y.Sobibor tadqiqotlari alohida diqqatga sazovor. Samoylenko bolalarni motor rivojlanishiga ko‘ra to‘rt tipga ajratib, har bir tip uchun nutq ritmikasi va motor buzilishlarining o‘ziga xos ko‘rinishlarini tavsiflaydi[4].

Bu ilmiy yondashuv duduqlanishni nafaqat nutq organlari faoliyati, balki butun psixomotor tizimning buzilishi sifatida talqin etish imkonini beradi.

Logopedik ritmika bo‘yicha D.M.Shmatko, V.G.Aseyev, G.A.Volkova tadqiqotlarida musiqiy-ritmik harakatlar orqali nutq jarayonini me’yorlashtirishning psixofiziologik mexanizmlari yoritilgan[5]. Ushbu manbalarda:

musiqaning ritmik tuzilishi;
harakatlarning uyg‘unlashuvi;
nutqiy nafasni boshqarish;
emotsional barqarorlikni ta’minlash

duduqlanishni bartaraf etishda muhim rol o‘ynashi ilmiy asoslanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda (Z.Buriyeva, N.Axunova) musiqiy-harakat mashqlari bolaning psixomotor rivojlanishini faollashtirishi, nutq ritmini tiklashi va qo‘rquvni kamaytirishi qayd etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi paytda sabablarning ikkita guruhini ajratish mumkin: zaminini va zarbalarni. Bunda ba’zi bir etiologik faktorlar duduqlanishni rivojlanishiga ta’sir qilishlari va bevosita uni chaqirishlari, keltirilib chiqishlari mumkin. Zamin deb hisoblanmish sabablarga quyidagilar kiritiladi.

Ota-onalarning asabiyligi, infeksion va somatik kasalliklari, markaziy nerv sistemasining sustlashgan yoki tez tashkiliy funksiyalari.

Duduqlanuvchining nevrotik xususiyatlari, kechqurungi qo‘rqish, enurez yuqori qo‘zg‘aluvchanlik, emotsionallik.

[1] Миронова С. «Планирование логопедической работы с заикающимися детьми». – Москва,1999 . – 45 с.
[2] Самойленко Н. С. Заикание у детей: диагностика и коррекция. – Москва: Владос, 2012. – 256 с.
[3] Пўлатова Х.М. Логопедик ритмика. – Тошкент, 2014. – Б. 123.
[4] Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013. – 91 с.
[5] Пўлатова Х.М. Логопедик ритмика. – Тошкент, 2014. – Б. 23.

Konstitutsional moyillik – vegetativ nerv sistemasining kasalligi, oliy nerv faoliyatining yuqori darajadagi buzilishlari, psixik travmalarga moyilik.

Irsiylik. Duduqlanish nutq apparatining tug‘ma zaifligi zaminida rivojlanadi, qaysiki u retsessiv belgi sifatida irsiyat orqali o‘tishi mumkin.

Bosh miyaning jarohatlanishi homiladorlik paytidagi va tug‘ish paytidagi travmalar, asfiksiyalar, turli xil kasalliklarda, infeksion, travmatik va moddalar almashinuvi buzilishi.

Yuqorida ko‘rsatilgan sabablar somatik va ruhiy sohalarda patologik qo‘zg‘alishlarni chaqirib, nutqiy rivojlanishni kechikishiga nutq buzilishlariga olib keladi va duduqlanishni rivojlanishiga imkon yaratadi. Yaxshi bo‘lmagan sharoitga quyidagilar kiradi:

- bolaning jismonan sustligi;

- miya faoliyatining yosh xususiyatlari;

Bosh miyaning katta yarim sharlari asosan bola hayotining 5-yiliga kelib shakllanadi. U yoshda bosh miya faoliyatidagi funksional assimetriya tashkil qilinadi. Nutqiy faoliyat ontogenetik jihatdan birmuncha differensiallashgan va kech yetiladigan, ayniqsa tez zararlanadigandir [6] . Ayniqsa qizlarga nisbatan o‘g‘il bolalarda kech yetilishi ularni nerv sistemalarini turg‘un emasligini keltirib chiqaradi. Nutqning tezlashgan rivoji (3-4 yosh). Kattalar bilan muloqotning ta’sirida nutqning komunikativ bilish va boshqaruvchi faoliyatlari tez rivojlanadi. Ko‘p bolalarda fiziologik xarakterni kasb etgan bo‘g‘in va so‘zlarni qaytarishi (iteratsiya) kuzatiladi. Bolaning ruhiy yashirin cheklanganligini atrofdagilar bilan normal bo‘lmagan munosabatlar zaminidagi yuqori reaktivlik atrofdagilar talabi va uni anglashni darajasi o‘rtasi konflikt:

- kattalar va bolalar orasidagi ijobiy emotsional kontaktlarning yetishmasligi: motorikani, ritmni sezish, mimika-artikuyator harakatlarni rivojlantirishni yetishmasligi.

Yuqorida sanab o‘tilgan yaxshi bo‘lmagan sharoitlarni u yoki bunisini mavjudligida ruhiy buzilish yoki duduqlanishni keltirib chiqarish uchun o‘zining kuchi bo‘yicha favqulotda bo‘lgan u yoki bu qo‘zg‘atgichni bo‘lishi yetarlidir. Zarba hisoblanmish sabablar guruhiga anatomo-fiziologik hamda psixik va sotsial faktorlar kiritiladi.

Anatomo-fiziologik sabablar: ensefalit natijasidagi faktorlar jismoniy kasalliklar; jarohatlar – tug‘ruq vaqtidagi asfiksiyalar, miyaning organik buzilishi natijasidagi harakatlarni boshqaruvchi po‘stloq osti mexanizmlari jarohatlanishi mumkin, miyaning chayqalishi, nutq markaziy apparatlarining sustlashtiruvchi, turli xil intoksikatsiya va boshqa kasalliklar natijasida nerv sistemasining, charchash nagruzkani haddan tashqari oshishi, kasalliklar bilan kasallanish – tif, qizamiq, raxit; ichki sekresiya kasalliklari; burun, halqum kasalliklari; dislaliya, dizartriya va nutqiy rivojlanishni sustlashganligi hollarda artikulyatsion apparatning takomillashmaganligi.

Ruhiy va sotsial sabablar: qisqa muddatli bir daqiqali – psixik travmalar (qo‘rquv, vahima); uzoq ta’sir etuvchi ruhiy travmalar (oiladagi noto‘g‘ri tarbiya, erkalanish, surunkali, konfliktli iztiroblar, uzoq muddatli salbiy emotsiyalar, bolaga haddan tashqari e’tibor berish); o‘tkir og‘ir ruhiy travma: qattiq tasodifdan vujudga keluvchi iztiroblar, qaysiki ular o‘tkir affektiv reaksiyani ketirib chiqaradi, ular: vahima holi, haddan tashqari xursand bo‘lish; bolalikdagi davrda nutqning noto‘g‘ri shakllanishi, nafas olayotganda gapirish, tez gapirish, tovushlar talaffuzidagi buzilishlar, ota-onalarning tezlashgan, asabiylashgan nutqlari, kichik bog‘cha yoshda bolalarni haddan ziyod nutqiy materiallar bilan qurollantirish, yoshiga va tafakkuriga mos bo‘lmagan holda nutqiy materialni murakkablashtirish, bog‘cha yoshida bir vaqtning o‘zida bir qancha tillarni egallash, o‘zlashtirishi, odatda qaysidir tilda duduqlanishni keltirib chiqaradi; duduqlanuvchilarga taqlid qilish.

Bunday ruhiy induksiyaning ikkita shaklini ajratadilar:

Passiv – bola duduqlanuvchi nutqini eshitib, beixtiyor duduqlana boshlaydi.

Aktiv – bola duduqlanuvchi nutqidan nusxa olib unga taqlid qiladi[7].

Chapaqaylikni bartaraf qilish doimiy eslatishlar, talablar, bolaning oliy nerv faoliyatini dizarganizatsiya qiladi va bolani nevrotik va psixopatik holgacha to duduqlanishni vujudga kelishigacha olib kelishi mumkin; o‘qituvchining bolaga noto‘g‘ri munosabati haddan tashqari talabchanlik – duduqlanishni vujudga kelish uchun zarba bo‘lib xizmat qiladi.

Nutqida buzilishi bo‘lgan kishilarda sog‘lomlashtiruvchi vazifani hal qilish natijasida suyak-muskul apparatlari mustahkamlanadi, nafas olish, motor, sensor funksiyalar rivojlanadi, muvozanat tuyg‘usi, to‘g‘ri qad-qomat, qadam tashlash, chiroyli harakat tarbiyalanadi. Tadqiqotchilar duduqlanishda umumiy motorika bilan nutqning aloqasi holatiga alohida e’tibor qaratganlar.

Tadqiqot natijalari. Umumiy motor qobiliyatida duduqlanadigan bolalardagi mimikali motrikadagi kamchilik bilinib qoladi. V.M.Aristovning fikricha, u nutq bilan har doim bog‘liq bo‘lmaydi va “kichik organik simptomlarga” qarashli bo‘lishi mumkin, negaki duduqlanishning ba’zi shakllari asosida “bosh miyadagi kinestik nutq hujayralari afferent tizimining shikastlanishi” yotadi. Bu nutq organlarining statikasi va dinamikasining buzilishiga olib keladi. Motor funksiyasining organik buzilishi shunday ko‘rinadi:

- to‘kilish simptomlari – oddiy mashqlarni ishlab chiqarishning mumkin emasligi;

- tilning giperkinez, tremor, fibriollyar va fassikulyar qisqarishi;

- ataktik tartibsizliklar – u yoki bu harakatni birdaniga bajarishning mumkin emasligi (bajarish faqat ko‘rish nazoratida bo‘lishi mumkin);

- apraksis tartibsizliklar (yakka hollarda).

Agar duduqlanuvchining yuz muskullarida ba’zi holsizlik bo‘lsa, unda davolovchi gimnastika zarur.

N.S.Samoylenko, duduqlanadigan bolalarda motorikaning rivojlanishi nutqiy rivojlanishdan ilgari yurishi yoki nutqdan orqada qolishi mumkin va alohida motor qobiliyatli duduqlanadigan bolalar ham uchrashi mumkin deb hisoblaydi. N.S.Samoylenko motorikasining holatiga qarab duduqlanadigan maktabgacha yoshdagi bolalalarni to‘rtta guruhga ajratadi[8].

Birinchisi – tempida, ritmida, muskullar tonusida, mo‘ljal olish va jamoaviy o‘zaro munosabatlarda buzilishi bor bolalar. Bunda diqqat va faollik buzilmagan. Motorikadagi nuqsonlarga tez barham beriladi.

Ikkinchisi – motor munosabatida bo‘sh qobiliyatli bolalar, harakatlarida chaqqonlik, tezlik, aniqlik yo‘q. Tempi susaytirilgan, lanj e’tiborli, faollik sekin-asta uyg‘onadi, hech qanday tashabbus yo‘q. Vazifani o‘zlashtirishni o‘rganish uzoq vaqtni talab qiladi. Muskullar tarangligini tormozlantirish va harakatlarni muvofiqlashtirishni yaxshilash ustidagi ish yaxshi natijalar bermaydi. Yengil motor qoloqligi hollari ham bo‘lishi mumkin.

Uchinchisi – muskullari kuchli tormozlangan bolalar. Qo‘llarning holati tayoqqa o‘xshab cho‘zilgan, barmoqlar musht qilib siqilgan yoki kerilgan, qo‘llarni harakat paytida bukilmasligi va yurganda oyoqlarning juda kam bukilishi. Qadam tashlaganda qo‘llarni tebratmaslik, bir qo‘lni tebratish yoki cho‘zilgan qo‘llarni oldinga itarib notabiiy tebratish va oyoqlarning harakati bilan muvofiqlashmaslik. Bo‘yin va yelkaning kuchli tormozlanishi. Bunday bolalar bilan ham jamoaviy, ham yakka tartib katta ish olib borish talab etiladi. Bolalar ko‘pincha jamoaviy o‘yinlardan bosh tortadilar, jiddiy yuz bilan, hech qanda hayajonlarini bildirmasdan yakka holda o‘ynashni afzal ko‘radilar, faol rollardan bosh tortadilar. Ular bilan ishlash uzoq muddat davom etadi.

To‘rtinchisi – tez tempda ishlab chiqiladigan bemaqsad serob harakatlar bilan motorli tez ta’sirlanadigan bolalar. Bunday bolalar kamdan kam uchraydi. Ular uchun osoyishta holatda bo‘lish bajarib bo‘lmaydigan darajada qiyindir. Jamoaviy o‘yinda o‘z navbatlarini kutib turmaydilar, tanaffussiz harakatlarga intiladilar. Muskullar tonusi bir qancha tarang, o‘yinga yuqor hayajonli munosabat kuzatiladi. Chopish va sakrash ularni kuchli ta’sirlantiradi. Faollik haddan tashqari yuqori: boshqalar uchun ham bajarishga tayyorlar, begona o‘yinga aralashib ketadilar, tajovuzkor harakatlar ko‘rsatadilar, rahbarlik rolini olishga intiladilar. Bunday bolalar bilan ishlash uzoq davom etadi, natijasi har doim ijobiy emas.

Muhokama. Duduqlanadigan bolalarning harakatlantiruvchi tormozlanishi shularda ko‘rinadiki, ular oson hayajonlanadilar, o‘yin paytida behuda ovora bo‘ladilar, sakraydilar, cho‘kka tushadilar, qo‘llarini silkitadilar, shular bilan o‘z hayajonlarini ifoda etadilar. Harakatlari keskin, yetarlicha maqsadga qaratilmagan, muvofiqlashtirilmagan, nozik erkin harakatlantiruvchi aktlar to‘xtalib shakllanadi, harakatlar ko‘lami kengayadi.

Duduqlanish nutq nuqsonni bilan logopedik korreksion ish olib borishda logopedik ritmika logopedik ishning muhim bo‘limi hisoblanadi. Bu nutqiy tuzatish tarbiyasi maqsadlarida amalga oshiriladigan musiqali harakat, nutqiy xarakat, musiqali nutq

[6] Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013. – 91 с.

[7] Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013. – 58 с.

[8] Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013. – 91 с.

topshiriqlari va mashqlari sistemasini o‘zida aks ettiradi. Har qanday nutq nuqsonnini korreksiyalashda logopedik ishlar bilan bog‘langan holda logoritmikada mashq va o‘yinlardan foydalaniladi. Buning uchun logoritmikani maqsadi, vazifalari va vositalarini logoped yaxshi bilishi kerak[9]. Harakat tizimining turli tuman buzilishlarini musiqa va so‘z bilan uyg‘unlashtirishda kishilarda sog‘lomlashtiruvchi vazifani hal qilish natijasida tayanch harakat apparatlari mustahkamlanadi, nafas olish, motor, sensor funksiyalar rivojlanadi, muvozanat tuyg‘usi, to‘g‘ri qad – qomat, qadam tashlash, chiroyli harakat tarbiyalanadi. Duduqlanuvchi bolalarning umumiy va mayda qo‘l motorikalarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi logopedik-korreksion ish usullari samarali usullardan hisoblanadi:

Diqqat – e’tiborni faollashtiruvchi mashqlar.

Diqqatni shakllantirishda so‘z, musiqa va salohiyat asosiy omillar bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Musiqiy ruhiyatning, ohang parchalari, ritmlari, registrlar yorqinligi, xarakteri hamda tovush kuchi va ijro etish shaklining almashinuvi mashqlarni tashkil etuvchi harakatlar almashinuvini boshqarishga imkon beradi, shuningdek, shug‘ullanuvchilar e’tiborini musiqani o‘zgartirishga, demak harakatni ham o‘zgartirishga jalb etadilar.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlillar duduqlanishning kelib chiqishida anatomo-fiziologik va sotsial-ruhiy omillarning murakkab o‘zaro ta’siri mavjudligini ko‘rsatadi. Markaziy nerv sistemasining funksional zaifligi, irsiy moyillik, somatik kasalliklar, homila va tug‘ruq davridagi jarohatlar duduqlanish uchun zamin yaratadigan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu zamin mavjud bo‘lgan sharoitda qo‘rquv, psixik travma, oilaviy muhitdagi notinchlik, noto‘g‘ri nutqiy tarbiya, ikki tillilik va haddan tashqari nutqiy yuklama kabi “zarba” omillar duduqlanishning shakllanishi va kuchayishiga sabab bo‘ladi. Tadqiqot natijalari umumiy motorika, artikulyatsion apparat faoliyati, harakat muvofiqligi va muskullar tonusi kabi psixomotor ko‘rsatkichlarning duduqlanish rivojlanishida bevosita rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Duduqlanuvchi bolalarda motor buzilishlari darajasiga ko‘ra farqlanishi, nutq ritmining izdan chiqishi va psixomotor jarayonlarning nomutanosibligi alohida e’tibor talab qiladi. Logopedik ritmika, musiqiy-harakat mashqlari, nafas va motor mashqlari, ritmik nutqiy topshiriqlar nutqni me’yorlashtirish, psixomotor faoliyatni uyg‘unlashtirish va emotsional barqarorlikni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekani bilan ajralib turadi. Shu bois duduqlanishni bartaraf etishda kompleks yondashuv psixologik qo‘llab-quvvatlash, logopedik mashg‘ulotlar, motor va nafas tizimini rivojlantiruvchi mashqlar uyg‘unligida olib borilgan korreksion ish eng optimal natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Миронова С. Планирование логопедической работы с заикающимися детьми. – Москва. 1999 . – 45 с.
2. Пўлатова Х.М. Логопедик ритмика. – Тошкент, 2014.
3. Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013.
4. Самойленко Н. С. Заикание у детей: диагностика и коррекция. – Москва: Владос, 2012. – 256 с.
5. Гитар Б. Заикание: этиология и лечение. – Санкт-Петербург: Речь, 2007. – 432 с.
6. Волкова Г. А. Логопедия: нарушения речи у детей. – Москва: Академия, 2019. – 368 с.
7. Шматко Д. М. Логоритмика в системе коррекции речи. – Москва: Владос, 2015. – 192 с.

[9] Пўлатова Х.М. Логопедик ритмика. – Тошкент, 2014. – Б. 123.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA KOXLEAR IMPLANT PROTSESSORINI SOZLASH VA ESHITISHNI QABUL QILISH

Bobomurodova Shahnoza
Samarqand Kimyo xalqaro universiteti
Logopediya yo‘nalishi magistranti.

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 13
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1298

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

koxlear implant, eshituv reabilitatsiyasi, protsessorni sozlash, shartli refleks, eshituv qobiliyati, audiologik diagnostika, tovush differensatsiyasi, bolalar audiologiyasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik yoshdagi, erta va kech kar bo‘lgan bolalarda koxlear implant protsessorini sozlash jarayonining audiologik va pedagogik xususiyatlari tahlil qilindi. Sozlashning dastlabki bosqichlarida bolalarning eshituv tajribasi yetarli bo‘lmagani va o‘z hissiyotlarini ifoda eta olmasligi sababli yuzaga keladigan qiyinchiliklar yoritildi. Shartli va shartsiz reflektor reaksiyalar yordamida minimal va maksimal qulay stimulyatsiya darajalarini aniqlash usullari tavsiflandi. Maqolada tovushlarni bor-yo‘qligi bo‘yicha farqlash, tovush balandligini ajratish, so‘z, gap va nonutqiy tovushlarni tanish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyillari ochib berildi. Audiolog, ota-ona va pedagog o‘rtasidagi hamkorlikning koxlear implantni optimal sozlash hamda eshituv qabulini shakllantirishdagi hal qiluvchi o‘rni ta’kidlandi.

Kirish. Kichik yoshdagi kar bolalarda koxlear implant orqali eshituvni tiklash jarayoni ko‘p bosqichli, murakkab va individual yondashuvni talab qiluvchi klinik-pedagogik jarayondir. Bolalar o‘z hissiyotlari va eshituv tajribasi haqida yetarli darajada ma’lumot bera olmasliklari sababli, implant protsessorini dastlabki sozlash bosqichlari ayniqsa murakkab kechadi. Shuning uchun jarayon audiolog, pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi.

Koxlear implant texnologiyasi tug‘ma yoki erta yoshda orttirilgan og‘ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar uchun eshitish qobiliyatini tiklashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik yoshda o‘tkazilgan implantatsiya bolaning nutq rivoji, ijtimoiy moslashuvi va kognitiv o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Biroq operatsiya muvaffaqiyatli o‘tishi jarayonning faqat boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, eng muhim qadamlardan biri — **implant tashqi protsessorini to‘g‘ri sozlash (mapping)** va bola tomonidan eshitish signallarini to‘g‘ri qabul qilish jarayonini shakllantirishdir.

Kichik yoshdagi bolalarda protsessor sozlamalarini aniqlash kattalarga nisbatan murakkabroq kechadi, chunki ular eshitish sezgilari haqidagi subyektiv fikrni aniq ifodalay olmaydilar. Shu sababli mutaxassislar obyektiv audiologik testlar, xulq-atvor kuzatuvlari hamda ota-onalar bilan yaqindan hamkorlikni talab qiladigan maxsus yondashuvlardan foydalanadilar. Mazkur maqolada kichik yoshdagi bolalarda koxlear implant protsessorini sozlashning asosiy tamoyillari, eshitishni qabul qilish jarayonining bosqichlari hamda amaliy jihatlari yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. A.V.Nikolayev koxlear implantatsiya jarayoni va eshituv reabilitatsiyasining zamonaviy yondashuvlarini tahlil qiladi. Muallif ta’kidlaydiki, protsessorni sozlashning boshlang‘ich bosqichida bolalarning eshituv tajribasi yetarli bo‘lmagani sababli shartsiz-reflektor reaksiyalarga tayanish zarurati mavjud. Shu bilan birga, audiolog, ota-ona va pedagog o‘rtasidagi samarali hamkorlik reabilitatsiya jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[1].

L.Belekhova va L.Tsvetkova o‘quv qo‘llanmasi kichik yoshdagi bolalarda eshituv qobiliyatini tiklash va rivojlantirish metodlarini batafsil yoritadi. Mualliflar sozlash jarayonida shartli-refleks mashqlarni qo‘llash, “past–baland–juda baland” tizimi va tovushlarni ajratish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni keltiradilar. Shuningdek, qo‘llanma koxlear implantli bolalarda audiologik nazorat va mashg‘ulotlar samaradorligini baholash mezonlarini ham tavsiflaydi[2].

N.Shmatok surdopedagogika va eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodikasini o‘rganadi. Muallif bolalarda eshituv qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlarni ketma-ketlik bilan tashkil etish, shuningdek audiolog va surdopedagogning faol hamkorligi zarurligini ta’kidlaydi[3].

G.Clark xalqaro tajriba asosida koxlear implantning tarixi, rivojlanishi va texnologik xususiyatlarini yoritadi. Muallif elektrodlar orqali stimulyatsiyani optimallashtirish va bolalarda maksimal qulay stimulyatsiya darajasini aniqlash metodlarini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, turli yoshdagi bemorlarning eshituv malakasini oshirishda individual yondashuv zarurligi ko‘rsatilgan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Kichik yoshdagi bolalarda koxlear implant protsessorini sozlash jarayoni ancha qiyin, chunki ular eshitish tajribasiga ega bo‘lgan bo‘lsalar ham, o‘zlarining hislariga hisobot bera olmaydilar. Bu jarayonni yengillashtirish uchun ota-onalarga operatsiyadan so‘ng bolalarida eshitish apparati orqali ovozni qabul qilishlari uchun ovozlarga shartli-refleksli reaksiyalarini ishlab chiqarish vazifasi beriladi. Agar bola eshitish apparatidan foydalanmasa, u holda bu vazifalarni nog‘ora (baroban) orqali bajarish mumkin. Shuningdek, imkon qadar bolada ko‘ruv mustahkamlashdan foydalanib (masalan, kichik va katta nog‘ora tasvirlangan rasm), “past-baland” tovushlarni farqlashga o‘rgatiladi.

Birinchi sozlash odatda 20-25 daqiqadan ko‘p vaqtni olmaydi, bu jarayonda bola diqqatini muolajaga qaratib turish imkoniyati cheklanganligi aniqlanadi. Qoidaga muvofiq, sozlashni o‘tkazuvchi audiolog faqatgina shartsiz-reflektor (qotib qolish/havotirlanish reaksiyasi, stimullangan quloq tomonga ko‘zni burish va b.q.) va/yoki shartli-reflektorlarga axloqiy reaksiyalarni chaqiruvchi minimal tok darajasini aniqlaydi. Eshitish malakalariga ega bo‘lmagan bolalarda bu daraja - ovoz balandligining qulay darajasiga yaqinlashadi.

Tadqiqot natijalari. Maksimal qulay daraja ehtiyotkorlik bilan bolaning reaksiyasini ko‘rish asosida o‘rnatiladi, chunki bu baland tovushlardan bolada yoqimsiz hislar paydo bo‘lishi va bu orqali bolani qo‘rqitib yuborishni oldini olish uchun muhimdir. Koxlear implant

[1] Nikolayev, A. V. Koxlear implantatsiya va eshituvni reabilitatsiya qilishning zamonaviy yondashuvlari. – Moskva : Meditsina, 2018. – 256 b.
[2] Shmatok, N. V. Surdopedagogika : eshituvida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlari. – Kiev : Logos, 2017. – 224 b.
[3] Shmatok, N. V. Surdopedagogika : eshituvida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlari. – Kiev : Logos, 2017. – 224 b.
[4] Clark, G. M. The Multi-Channel Cochlear Implant: Past, Present and Future. – New York : Springer, 2015. – 502 p.

mikrofonini yoqqandan so‘ng bolada ovozlarga salbiy reaksiyalar bo‘lmasligining nazorati uchun, bolaga qandaydir baland ovozlar masalan, nog‘oraning ovozi, tugmacha solingan temir idishning ovozi eshittiriladi. Agar bolada ovozlarga salbiy reaksiyalar paydo bo‘lsa (qo‘rquv va koxlear implantni yechib tashlash istagi) u holda kamroq kuchni chiqarish kerak.

Birinchi sozlashda dinamik diapazon tanlangan maksimal qulay daraja asosida o‘rnatiladi va aksariyat hollarda 6 dB dan oshmaydi. Agar bolada oldindan ovozlarga shartli-reflektor harakat reaksiyalari (masalan, aylanalarni piramidaga kiydirish yoki korobkaga tugmachani solish) va ovoz balandligi haqida tasavvurlari shakllangan bo‘lsa koxlear implant protsessorini sozlash ancha yengillashadi.

Protsessorni sozlash korreksiyasi 2-3 hafta davomida haftasiga 2-5 marta o‘tkaziladi. Bunda sozlash jarayonidagi bolaning elektr stimulyatsiyalarga reaksiyalari, mashg‘ulot va kun davomidagi past va baland, yuqori va quyi chastotali nonutqiy va nutqiy tovushlarga bolaning reaksiyalari haqida pedagog va ota-onalarning ma’lumotlari hisobga olinadi.

Ko‘pgina, hattoki kech kar bo‘lgan bolalar koxlear implant protsessorini sozlashda, ular signal bor yoki yo‘qligiga shubha qilganlarida juda sust elektr signallariga ta’sir ko‘rsatmaydilar. Ular faqat bir muncha kuchli stimullarga ta’sir ko‘rsatadilar. Bola qabul qiluvchi impulslarning ma’lum adekvat porogli darajalarini tezlashtirish uchun koxlear implant protsessorini yoqqandan so‘ng ota-onalar va surdopedagoglar bolani nafaqat o‘rta va yuqori tovushlar balandligiga balki, past tovushlarga ham ta’sir ko‘rsatishini o‘rgatishlari zarur. Buning uchun shartli-reflektor reaksiyalaridan foydalaniladi. Bu muolaja vaqtida bola past ovozlarni tinglashga va past bo‘lsa ham tovush borligi haqida qaror qabul qilishga o‘rganadi.

Kichik yoshdagi bolalarda koxlear implant protsessorini sozlashda maksimal qulay darajani aniqlash qiyindir. Buni bajarish uchun surdopedagog va ota-onalar yordam berishlari kerak. Ular koxlear implant protsessorini yoqqandan so‘ng bolalarni 2, agar uddalay olsa 3 gradatsiya balandligi (“past-baland-juda baland” mos keluvchi rasmlar bilan) bo‘yicha tovushlarni ajrata olishga o‘rgatishlari kerak. Bunda “baland” – “yaxshi” tushunchalari - audiolog oldidagi sozlashda maksimal qulay darajadagi stimullarga mos keladi. “Juda baland” – “o‘ta baland, og‘riyapdi, yoqimsiz” tushunchalari - audiolog oldidagi sozlashda qisman qulay darajadagi stimullarga mos keladi[5].

Bolalarda koxlear implant protsessorini sozlashning maksimal qulay darajasini aniqlash uchun muhim ahamiyatni elektr stimullarga stapedial reflekslar registratsiyasining ma’lumotlari egallaydi. Agar bu refleks registratsiyalashgan bo‘lsa, u holda poroglar bo‘yicha bemorda uning paydo bo‘lishida koxlear implantning har bir elektrodida maksimal qulay daraja o‘rnatiladi. Bu atrofdagi tovushlarga nisbatan bolada hech qanday reaksiyalarni ko‘rmasak ham eshituv markazlariga barcha tovushlar o‘tishini bildiradi. Mashg‘ulot jarayonida hamda atrofdagi tovushlar va nutqni kun mobaynida eshitish malakasini to‘plash jarayonida bola turli tovushlar va nutqga ta’sir ko‘rsatishni boshlaydi[6].

Muhokama. Reabilitatsiyaning birinchi oylari mobaynida eshituv malakalariga ega bo‘lmagan va bolalarda uzoq davrli yangi hislarga adaptatsiyasi kichik yoshdagi bolalarda sozlash jarayonida hislarni baholashning qiyinchiliklari tufayli koxlear implantni sozlashda optimal darajaga har doim ham yetkazila olinmaydi. Sozlashning optimal darajasiga yanada tezroq erishish uchun sozlash jarayoni vaqtidagi kabi, koxlear implant bilan eshituv reaksiyalarini rivojlantirish dinamikasini baholashda ham audiolog va pedagogning o‘zaro harakati muhimdir.

Erta kar bo‘lgan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda koxlear implant protsessorini sozlash. Bu toifadagi bolalarda koxlear implant protsessorini sozlash yoshga bog‘liq holda kichik yoshdagi yoki kech kar bo‘lgan bolalar muolajasiga o‘xshashroq bo‘ladi. Ularda diqqat, hissiy-irodaviy soha, kommunikativ malakalar yaxshiroq shakllanganligi sababli u unchalik qiyin emas. Sozlash oldindan ishlab chiqarilgan ovozlarga shartli-reflektor reaksiyalaridan foydalanib o‘tkaziladi. Bolada maksimal qulay darajani aniqlash uchun mashg‘ulotlarda va uyda “past, baland, juda baland” tovushlarni farqlash malakasi, past tovushlarni tinglash malakasi (shu qatorda, atrofdagi narsalarning tovushlari – qog‘oz shitirlashi, oqayotgan suv va b.q.), ovoz juda past bo‘lsa ham ularning borligi haqida qaror qabul qilish shakllantiriladi. Bu jarayonni bolani koxlear implant protsessorini sozlashga tayyorlashda ishlatiladigan mashqlar yordamida bajarish mumkin. Faqatgina koxlear implant orqali bola yanada pastroq tovushlarni eshitishi mumkin[7].

Koxlear implant orqali eshitishni qabul qilish mashqlarining tamoyillari:

Tamoyil 1. Koxlear implant yordamida eshituv qabul qilishni tiklash/rivojlantirishni osondan qiyinroq vazifalarga ketma-ketlikda o‘tishdan boshlash kerak.

Birinchi va eng oson vazifa – bu tovush bor yoki yo‘qligini aniqlash. Bu vazifada bemorga turli nonutqiy va nutqiy tovushlar (turli masofadan, turli balandlikda) taqdim etiladi. Ular bu tovushni eshitayotgani yoki eshitmayotganini aytishi kerak. Bemor diqqatini aynan tovush bor yoki yo‘qligiga jamlashi kerak. Bu qanday tovush ekanligini bilish undan talab etilmaydi.

Ikkinchi vazifa murakkabligi bo‘yicha – ikkita tovushni farqlash mahorati. Buning uchun bemorga ikki dona so‘z taklif etiladi (yoki ikkita nonutqiy tovushlar, ikkita fonema, ikkita gap). O‘qitilayotgan bola qanday so‘z (tovush) eshitganligini aytishi kerak. O‘qitilayotgan bola faqat bir so‘zni eshitsa ham bu vazifani bajarishi mumkin. Masalan, “uy” va “mashina” so‘zlari taqdim etilganda, o‘qitilayotgan bola “mashina” so‘zini yaxshi taniydi. “Uy” so‘zi taqdim etilganda esa, u so‘zni aniq eshitmaydi, lekin u “mashina” so‘zi emasligini aniq eshitadi va to‘g‘ri javob beradi.

Uchinchi vazifa murakkabligi bo‘yicha – bu yopiq tanlov holatlarida (cheklangan) tovushlarni (nonutqiy va nutqiy) tanish malakasi. Bu holatda o‘qitilayotgan bola aynan qanday signallar (so‘zlar, jumlalar, gaplar, fonemalar, nonutqiy tovushlar) unga taklif etilishini biladi. Bunda mazkur signallarning ro‘yxati (yoki kartochkalar to‘plami) bemor oldidagi stolda turadi. O‘qitilayotgan bola javob berayotganda eshitgan so‘zlarini (tovush, gap va b.q.) oldida turgan ro‘yxatdan ko‘rsatadi yoki uni qaytaradi. O‘qitilayotgan bola bunday vazifalarni bajarish vaqtida so‘zlarni aniq eshitmasa ham, eshitayotganiga o‘xshash bo‘lmaganlarini hayolan ajratib, uni tanishi mumkin. Bunda bola eshitgan so‘zini oldida turgan ro‘yxatdan o‘xshashini topishga urinishi kerak. Bu vazifada taqdim etilgan signallarning minimal soni – 3 ta bo‘lishi kerak. Signallarning ko‘paytirilgan soni vazifani murakkablashtiradi. Bu vazifada signallar sifatida gaplarni taqdim etish mumkin. Ajratilgan so‘zlar bo‘yicha taqqoslash bu vazifani yanada murakkablashtiradi, chunki koxlear implantli bemorlar boshlang‘ich bosqichda nutqni juda sekin tahlil qiladilar va uyg‘unlashgan nutqdagi so‘zlarni tanishga ulgurmaydilar. So‘nggi bosqichlarda u koxlear implantli bemorlar uchun yanada yengil bo‘lishi mumkin, masalan: agar bola birinchi so‘zni tanisa, ikkinchi so‘zni payqab olishi mumkin.

To‘rtinchi eng murakkab vazifa – ochiq tanlovda signallarni tanish (tovushlar, so‘zlar, gaplar va h.z.). Shuning uchun u faqat shaxsiy eshitish malakasiga tayanishi mumkin. Vazifalar koxlear implantli o‘qitilayotgan bola 10-12 ta so‘zdan iborat yopiq tanlovda so‘zlar/jumlalarni yaxshi taniganda o‘tkaziladi. Bu vazifa avvaliga faqatgina mashq vaqtida tanishga o‘rgangan nutqiy materiallar yordamida bajariladi.

[5] Королева И.В. , Статья: Логопедическая реабилитатsiя детей с кохлеарными имплантантами. Россия, Санкт-Петербург, 2015

[6] Королева И.В. , Статья: Логопедическая реабилитатsiя детей с кохлеарными имплантантами. Россия, Санкт-Петербург, 2015

[7] Nikolayev, A. V. Koxlear implantatsiya va eshituvni reabilitatsiya qilishning zamonaviy yondashuvlari. – Moskva : Meditsina, 2018. – 256 b.

Tamoyil 2. Mashq uchun u yoki bu mashg‘ulotlarni tanlash vaqtida, pedagog/ota-ona vazifaning murakkablik darajasini to‘g‘ri tanlashi kerak. Bu daraja ayni paytda koxlear implantli o‘qitilayotgan bolalarning imkoniyatlari darajasidan sal yuqori bo‘lishi kerak. Agar daraja o‘ta oson yoki qiyin bo‘lsa, u holda mashq malakani rivojlantirishga olib kelmaydi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, agar vazifa o‘ta qiyin bo‘lsa, unda bemor qo‘lidan hech narsa kelmayotgani uchun xafa bo‘ladi va bu bolada ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tamoyil 3. Har bir tovushni (yoki so‘z, gap va b.q.) taklif etishdan oldin bemor diqqatini quloqni ko‘rsatib eshitish jarayoniga jalb qilish zarur. Agar bemor eshitishga diqqatini jamlamasa, atrofdagi shovqin fonida uni yomon ajratganligi tufayli tovushni tushirib qoldirishi mumkin. Bu koxlear implantdan foydalanishning ilk davrlarida ayniqsa muhimdir.

Tamoyil 4. Bemor tovushlarni eslab qolish va tahlil qilishga ulgurishi uchun ularni bir necha marotaba eshitishi kerak, shuning uchun pedagog har bir tovushni bir necha marotaba sekin tempda qaytarishi kerak. Boshlang‘ich bosqichda va yangi nutqiy materialni taqdim etish vaqtida pedagog uni aniq artikulyatsiya bilan ozgina sekinroq tempda talaffuz qiladi. Bu holatda turli nutq tovushlari uchun xarakterli artikulyatsion belgilar aniq bayon etilgan va bemorga ularni ajratishga o‘rganish engilroqdir. Nutqiy material birinchi eshituv-ko‘ruv orqali taklif etiladi. Undan so‘ng faqat eshituvga, bunda pedagog yuzini ekran bilan yopadi, lekin mazkur vazifa o‘qitilayotgan bola qanday signal/so‘z aytilayotganini aniq bilgan holdagina o‘tkaziladi (masalan, pedagog bemorning oldida turgan qog‘oz varoqdagi ro‘yxatdan aytilayotgan signalni ko‘rsatadi). Bunday holatda bemor diqqatini eshituvga jamlaydi va eshituv siymosini yaxshiroq eslab qoladi. Faqat shundan so‘ng signallar tasodifiy tartibda eshitishga taqdim etiladi. Nutqni qabul qilish qobiliyatini tiklash me’yori bo‘yicha talaffuz qilish tempi yanada tez bo‘la boshlaydi va oldindan eshituv-ko‘ruv orqali taqdim etishga zarurat bo‘lmaydi.

Ekran sifatida tovushni yaxshi o‘tkazadigan yumshoq, yupqa turdagi junli gardishga tortilgan matodan foydalanish qulaydir. Bu maqsad uchun qog‘oz varoqdan foydalanish mumkin emas, chunki unda tovush yaxshi aks etadi, bu esa nutqni noaniqligiga olib keladi va koxlear implantli bemorlar uni qabul qilishga qiynaladilar.

Tamoyil 5. Bir necha marotaba taqdim etilgan tovushni diqqat bilan eshitib, bemorning o‘zi qaytarishi kerak (so‘zlar, jumlalar, fonemalar/harflarni bir necha marotaba qaytarishi, o‘chirgichni yoqishi/o‘chirishi, suvni ochish/yopish va b.q.). Bu miya markazida shu tovushlar bilan moslikda eshitish va mator timsollari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tiklashni ta’minlaydi.

Tamoyil 6. Mashg‘ulotlar doimo bemor endilikda yaxshi bajaradigan vazifalar bo‘yicha tugatilishi kerak. Bu bemorda ijobiy yo‘nalganlik va muvaffaqiyatga umidni ushlab turishi kerak.

Birinchi va keyingi mashg‘ulotlarda biz bemorlarga juftlikda taqqoslash va yopiq tanlovda tanishni, keyinroq esa ochiq tanlovda 4 turdagi tovushli signallarda aniqlash va farqlashga o‘rgatamiz:

- Uy jihozlarining tovushlari;
- So‘zlar;
- Gaplar;
- Fonemalar (ajratilgan va so‘z tarkibida).

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari koxlear implant protsessorini sozlash murakkab, ko‘p bosqichli va individual yondashuvni talab qiluvchi jarayon ekanini ko‘rsatdi. Kichik yoshdagi bolalarda tovushlarni qabul qilish bo‘yicha subyektiv ma’lumotning yetishmasligi sozlashni obyektiv reaksiyalar (shartsiz reflektorlar, stapedial refleks) orqali amalga oshirish zarurligini tasdiqlaydi. Shartli-reflektor mashqlar yordamida “past–baland–juda baland” tizimi, tovush bor-yo‘qligini aniqlash va yopiq tanlov asosidagi mashg‘ulotlar eshituv qabulini shakllantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Erta va kech kar bo‘lgan bolalarda eshituv tajribasi, diqqat va kommunikativ qobiliyatlarning yuqoriligi sozlash jarayonini yengillashtiradi va tovush differensatsiyasini tezlashtiradi. Audiolog, surdopedagog va ota-onalarning o‘zaro hamkorligi eshituv reabilitatsiyasining muvaffaqiyatli kechishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Optimal sozlash darajasiga erishish esa kichik yoshdagi bolalarda ham qisqa muddatda barqaror eshituv ko‘nikmalarining shakllanishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Содержание психолого-педагогической помощи детям после кохлеарной имплантации и их семьям [Текст]: сборник материалов и методических рекомендатсій / сост.: О. Л. Беляева, Л. В. Скакун. - Красноярск: КГПУ им. В. П. Астафьева, 2017. - 134 с.
2. Королева И.В. , Статья: Логопедическая реабилитатсія детей с кохлеарными инплантантами. Россия, Санкт-Петербург, 2015
3. Королева И.В. Кохлеарная имплантатсія и дети. Все самое важное для родителей. – Санкт-Петербург: «Умная Маша», 2010.
4. Nikolayev, A. V. Koxlear implantatsiya va eshituvni reabilitatsiya qilishning zamonaviy yondashuvlari. – Moskva : Meditsina, 2018. – 256 b.
5. Belekhova, L. V., & Tsvetkova, L. S. Audiologiya asoslari : o‘quv qo‘llanma. – Sankt-Peterburg : Piter, 2016. – 312 b.
6. Shmatok, N. V. Surdopedagogika : eshituvida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlari. – Kiev : Logos, 2017. – 224 b.
7. Clark, G. M. The Multi-Channel Cochlear Implant: Past, Present and Future. – New York : Springer, 2015. – 502 p.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

NUTQ BUZILISHLARI TASNIFI

Abdurashidova Komila Salixdjanovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Logopediya yo‘nalishi magistranti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 14
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1299

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

nutq buzilishlari, og‘zaki nutq, yozma nutq, disfoniya, dizartriya, alaliya, afaziya, disleksiya, disgrafiya, logopedik korreksiya.

ANNOTATSIYA

Maqola nutq buzilishlarining shakl va turlari, ularni aniqlash mezonlari hamda nutq buzilishlarining zamonaviy tasnifi, ularning lingvistik, psixologik va nevrologik omillar bilan bog‘liqligi hamda bolalar va kattalar nutq rivojlanishiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Nutq buzilishlarini tasniflashning ilmiy asoslari, tibbiy-pedagogik va psixolog-pedagogik yondashuvlar, og‘zaki va yozma nutq buzilishlari, shuningdek, ularning fonatsion va semantik-strukturaviy xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada og‘zaki nutq buzilishlari: disfoniya (afoniya), bradilaliya, taxilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya, alaliya, afaziya; yozma nutq buzilishlari: disleksiya va disgrafiya shakllari tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda logopedik korreksiya ishlari va samarali pedagogik shartlar ta’kidlangan.

Kirish. Nutq buzilishlarining shakl va turlari haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurlar shu buzilishlarni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish uchun dastlabki shart hisoblanadi. Hozirgi davrda ham tasniflash muammosi nafaqat logopediyaning, balki nutqiy faoliyat buzilishlarini o‘rganadigan boshqa ilmiy fanlarning ham muhim muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday fanlarga quyidagilarni kiritish mumkin: neyrofiziologiya, tibbiyot, patopsixologiya va neyropsixologiya, maxsus psixologiya va pedagogikaning tarmoqlari: oligofrenopedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika. Nutq buzilishlarini tasniflashning murakkabligi ayrim sabablar bilan bog‘langandir, ular orasida nutq mexanizmining o‘zi yetarlicha o‘rganilmaganligi, shuningdek tadqiqotchilarning tamoyillar masalasidagi nuqtai nazarlarining mos kelmasligi yetakchi o‘rinni egallaydi, tasniflash esa yuqoridagi tamoyillar asosiga qurilishi lozim.

Hozirgi davr logopediyasida nutq buzilishlarining ikkita tasnifi o‘rin olgan; bittasi-tibbiy pedagogik, ikkinchisi psixolog-pedagogik yoki pedagogik (R.E.Levina bo‘yicha).

Tibbiy pedagogik tasnif logopediya fani uchun an’anaviy bo‘lgan tibbiyot bilan hamkorlikka tayanadi, lekin tibbiy tasnifdan farqli o‘laroq, unda ajraladigan nutq buzilishlarining turlari kasallik shakllariga bog‘lanmaydi.bU asosan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga, ularni bartaraf etishga alohida-alohida yondoshuvni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan hamda nutq buzilishlarining shakl va turlarini batafsil tekshirishga qaratilgan. Shu sababli u umumiydan xususiyga bo‘lgan yondoshuvga asoslanadi.

Bunda nutq buzilishlarining material negizi bilan bog‘lovchi sistemalararo munosabatlar hisobga olinadi. U qandaydir bir mezonga emas, balki psixologik-lingvistik va tibbiy (etnopatogenetik mezon bilan birlikda) mezonlarning majmuiga asoslanadi[1].

Adabiyotlar tahlili. Logopedik ta’sir etish talablaridan kelib chiqib, nutqda nima buzilganligini tasavvur etishga va shu asosda bir nutq buzilishini ikkinchisidan cheklanish belgilariga qarab ajratishga imkon beruvchi quyidagi mezonlar aniqlanadi[2]: 1) nutq shakllarining (og‘zaki yoki yozma) buzilishi; 2) buzilgan nutq faoliyati turini shakllardan har biriga qo‘llangan holda; og‘zaki nutq uchun so‘zlash yoki eshitishdagi buzilish, yozma nutq uchun yozish yoki o‘qish buzilishi; 3) nutq paydo bo‘lishi yoki uni idrok etishning buzilgan bosqichi (bo‘g‘ini)ning buzilishi; nutqiy faoliyatning (og‘zaki va yozma) unumli turlariga tatbiqan buzilishlarning fikr aytishni ichki va tashqi jihatdan ta’minlash bosqichlari bilan bog‘liq holda chegaralanishi alohida ahamiyatli sanaladi; nutqiy faoliyatning (tinglash yoki o‘qish) retseptiv turlariga muvofiq buzilishlarning sensor yoki retseptiv bosqichiga kiradigan chegaralanishlari muhim sanaladi; 4) nutqning paydo bo‘lishi yoki uni idrok etishning u yoki bu bosqichida fikrni amalga oshiruvchi operatsiyalarning buzilishi; 5) fikr bildirishni tayyorlash vositalarining buzilishi: bunda nutq aytish va til birliklarining chegarlanishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki nutqning paydo bo‘lishi yoki idrok etilishidagi har bosqichiga o‘z birlik yig‘indisi ahamiyatlidir, saralash va quramalash vazifasi ularga nisbatan amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Psixologik-lingvistik mezonlar asosida ajralgan, logopedik ta’sir etishning pedagogik jarayoniga yo‘naltirilgan buzilishning u yoki bu ko‘rinishini to‘ldirganda, ular nuqsonlarning tashqi ko‘rinishdagi o‘xshashliklarini quyidagilar asosida navbatdagi tasniflashni amalga oshirish uchun imkon beradi: 1) nutqning buzilishi qaysi omillar (ijtimoiy yoki biologik) bilan bog‘langani; 2) u qanday ko‘rinishda rivojlanmoqda (organik yoki funksional); 3) nutqiy funksional tizimining qaysi bo‘g‘inida to‘xtab qolmoqda (markaziy yoki tashqi); 4) markaziy yoki pereferik nutq apparatining buzilishi darajasi qandayligi; 5) uning boshlanish vaqti[3].

Bunday mezonlar asosida olingan ma’lumotlar logoped uchun muhimdir, chunki ular e’tiborni tuzatilishi lozim bo‘lgan anatomik-fiziologik mexanizm (buzilish negizi)ga yo‘naltiradi va shu bilan birga logopedik ta’sir etishning muddati va uning ehtimol tutilgan natijalarini oldindan aniqlash uchun zamin yaratadi. Bu ma’lumotlar logopedga, shuningdek logopedik ta’sir qaysi hollarda nutq buzilishlarini bartaraf etishi uchun yetarliligini, qaysi hollarda esa atroflicha tibbiy-pedagogik ta’sir etishni tashkil qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari. Buzilishlarning yuqoridagi tasniflashda ko‘rib chiqilayotgan barcha turlarini psixolo-lingvistik mezonlar asosida nutqning qaysi turi buzilganiga qarab ikkita guruhga bo‘lish mumkin: og‘zaki va yozma.

Og‘zaki nutqning buzilishi, o‘z navbatida ikkita turga bo‘linishi mumkin: 1) bayon qilishning fonatsion (tashqi) ta’minlanishi, ular nutqning talaffuz tomonining buzilishi deb ataladi va 2) bayon qilishning semantiq-struktura (ichki) jihatdan ta’minlanishi, ular logopediyada nutqning uzluksiz yoki ko‘p tovushli buzilishi, deb ataladi.

Bayon qilishdagi fonatsion ta’minlashning zaiflashuvi buzilgan bo‘g‘inga bog‘liq holda tabaqalanishi mumkin: a) tovush shakllanishi, b) bayon qilishning sur’at-ohang jihatdan tashkil etilishi, v) intonatsion melodik, g) tovush chiqarishning namoyon bo‘lishi. Bu zaiflashuvlar turli jarayonlarda mavhum holida kuzatilishi mumkin, logopediyada ularga bog‘liq bo‘lgan buzilishning quyidagi turlari ajratiladi (ularni belgilash uchun an’anaviy bo‘lib qolgan atamalar mavjud)[4]:

Disfoniya (afoniya)-tovush apparatining patologik o‘zgarishlari oqibatida fanatsiyaning yo‘q bo‘lishi yoki zaiflashuvi. Ma’nodoshlari: tovushning buzilishi, fonatsiyaning buzilishi, fonotor buzilishlar, vakal buzilishlar.

Tovush yuqoriligi va yo‘g‘on-ingichkaligi (disfoniya) goho fonatsiya (afoniya) ning yo‘q bo‘lishida, goho quvvatning buzilishida namoyon bo‘ladi. U markaziy yoki sirtqi to‘xtalish tovush chiqarish mexanizmining organik yoki funksional zaiflashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi va bola rivojlanishining har qanday bosqichida yuzaga chiqishi mumkin.

[1] Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 25 б.
[2] Shomahmudova R. To‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutq o‘stirish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. – 130 b.
[3] Краузе Е.Н. Логопедия. – Санкт-Петербург: Корона, 2003. – 288 с.
[4] Филичёва Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. – Москва: [б. и.], 2000. – 224 с.

U alohida bo‘ladi yoki nutq buzilishlarining qator boshqa turlari tarkibiga kiradi.

Bradilaliya-nutqning patologik sekinlashgan sur’ati. Artikulyar nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladi, markaziy bog‘langan va o‘z tabiatiga ko‘ra organik yoki funksional bo‘lishi mumkin.

Taxilaliya-nutqning patologik tezlashgan sur’ati. Artikulyar nutq dasturining tezlashgan holda amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi, o‘z tabiatiga ko‘ra, markaziy bog‘langan, organik yoki funksional hisoblanadi.

Sekinlashgan sur’atdagi nutq cho‘ziq tortilgan, bir ohangda bo‘ladi. Tezlashgan sur’atda-shoshilinch, intiluvchan, shiddatli ekanligi ko‘zga tashlanadi. Nutqning tezlashuvi agromatizmlar bilan birga sodir bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar ayrim paytlarda battarizm, parafraziya atamalari bilan ataluvchi mustaqil buzilishlar sifatida ajratiladi. Patologik tezlashgan nutqning asoslanmagan bo‘linishlar, tutilish, to‘xtab qolishlar bilan uchraydigan hollarda u poltern atamasi bilan ataladi. Bradilaliya va taxilaliya-nutq sur’atining buzilishi-nutq jarayonining ravonligi, nutqning ohang va melodik-intonatsion ifodaliligining buzilishi oqibati hisoblanadi.

Duduqlanish-nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur’at-ohangning buzilishidir.

Markaziy bog‘langan bo‘ladi, funksional yoki organik ko‘rinishga ega, ko‘proq bola nutqining rivojlanishida paydo bo‘ladi.

Dislaliya-tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi. Nutqning noto‘g‘ri tovushli (fonemali) turlanishida: tovushlarni buzib talaffuz qilishda, tovushlarning almashinuvi yoki ularning yo‘qligida namoyon bo‘ladi. Nuqson shuning bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinki, bunday paytda bolada artikulyar baza shakllanmaydi (artikulyar tomonning tovush talaffuz etish uchun zarur bo‘lgan barcha jihatlari o‘zlashtirilmaydi) yoki artikulyar tomon noto‘g‘ri shakllanadi. Buning oqibatida nomuvofiq tovushlar hosil bo‘ladi. Artikulyatsion apparatning anatomik nuqsonlari bilan bog‘langan buzilishlar alohida guruhni tashkil etadi. Talaffuzning buzilishi psixolingvistik jihatdan yo fonemalarni ajratish va anglash operatsiyalarining shakllanmaganligi oqibati (ya’ni idrok etishdagi nuqsonlar) yoki saralash va ishlab chiqarish (shuningdek, unumlilik nuqsoni) vazifasini shakllanmaganligi, yohud tovushlarni ishlab chiqarish shartlarining buzilganligi, deb qaraladi.

Anatomik nuqsonlarda buzilishlar organik xususiyatga, ularning ishtirokisiz esa funksional xususiyatga ega bo‘ladi.

Buzilishlar odatda bola nutqining rivojlanish jarayonida; pereferik apparatning jihozlanish hollarida u har qanday yoshda paydo bo‘lishi mumkin.

Tavsif qilingan nuqsonlar saylanma hisoblanadi va ularning har biri mustaqil notekislik maqomiga egadir. Ammo shundaylari ham uchraydiki, ularda tovushni bayon qilishning fonatsion turlanishlari murakkab mexanizmidagi bir necha bo‘g‘inlarning bir paytning o‘zida xastalashuvi kuzatiladi. Bundaylarga rinolaliya va dizartriya kiradi.

Rinolaliya- tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzilishdir. Tovush tembrining patologik o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Bu holat chiqarilayotgan nafas oqimining barcha nutq so‘zlarini talaffuz qilish paytida burun bo‘shlig‘iga o‘tishi va unda aks-sado berishi oqibatidir. Rinolaliya paytida bundan tashqari barcha nutq tovushlarining (dislaliya holatidagi kabi alohida tovushlarni emas), buzib talaffuz etilishi kuzatiladi. Bunday nuqsonda prosodik buzilishlar ham tez-tez uchrab turadi, rinolaliya paytidagi nutq kam tushunarsiz, (noaniq), bir ohangli bo‘ladi. Mamlakat logopediyasida tanglayning tug‘ma yoriqligi, shuningdek, artikulyar apparatning qo‘pol anatomik buzilishlarini rinolaliyaga kiritish qabul qilingan. Bunday buzilishlar chet ellardagi qator ilmiy ishlarda «palatolaliya» (lotincha palatum-tanglay) atamasi bilan ataladi. Qolgan barcha hollardagi tovushlarning turli lokalizatsiyalarning funksional yoki organik buzilishlari bilan bog‘liq noto‘kis talaffuzi bunday ishlarda rinolaliya deb ataladi. Vatanimizda so‘ngi yillarda olib borilgan ilmiy ishlarda qo‘pol artikulyatsion buzilishlari bo‘lmagan noto‘kis talaffuzlarning ko‘rinishlari rinofoniyaga kiritilmoqda

Logopediya amaliyotida rinolaliyani yaqin vaqtlargacha mexanik dislaliyaning bir shakli deb qaralar edi. Buzilishning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olib, rinolaliyani alohida nutq buzilishi sifatida ajratish lozim.

Dizartriya-nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog‘liq holdagi buzilishidir[5]. Bunda fonatsion turlanishdagi bayonning murakkab mexanizmlari barcha bo‘g‘inlarning shakllanmagani kuzatiladi. Buning natijasida tovush nuqsonlari, prosodik va artikulyatsion-fonetik nuqsonlari paydo bo‘ladi. Tovushli nutqni ishlab chiqishning imkoni bo‘lmagan paytda paydo bo‘ladigan anartriya dizartriyaning og‘ir darajasi hisoblanadi. Yengil dizartriya paytida, qachonki nuqson ko‘proq artikulyar, fonetik buzilishlarda namoyon bo‘lganida, uning uncha bilinmaydigan shakli haqida so‘z yuritiladi. Bunday holatlarni dislaliyadan ajratish lozimdir.

Dizartriya markaziy harakterdagi organik buzilishlarning oqibati hisoblanadi. Markaziy asab tizimi buzilishini lokalizatsiyalashda dizartriyaning turli shakllari ajratib ko‘rsatiladi. Buzilishning og‘irligiga qarab esa, dizartriyaning paydo bo‘lish darajalari farq qilinadi.

Dizartriya ko‘pincha bosh miyaning erta falajlanishi natijasida paydo bo‘ladi, lekin u bola rivojlanishning har qanday bosqichda neyroinfeksiya va miyaning boshqa kasalliklari oqibatida paydo bo‘lishi ham mumkin.

Bayon qilishning strukturali-simantiq (ichki) turlanishidagi buzilishi ikki tur: alaliya va afaziya bilan ko‘rsatiladi.

Alaliya-bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo‘q bo‘lishi yoki rivojlanmay qolishi. Ma’nodoshlari: disfaziya, erta yoshda paydo bo‘ladigan bolalar afaziyasi, rivojlanish afaziyasi, gunglik (eskirgan).

Nutqning eng murakkab nuqsonlaridan biri, bunda nuqtiy bayonning paydo bo‘lishi va uni qabul qilishning barcha bosqichlaridagi tanlash va rejalashtirish operatsiyalari buzilgan bo‘ladi. Uning natijasida bolaning nutqiy faoliyati rivojlanmay qoladi. Til vositalari tizimi (fonetik, grammatik, leksik) shakllanmaydi, nutq paydo bo‘lishining harakat-qo‘zg‘atuvchanlik darajasi xastalashadi. Qo‘pol semantiq nuqsonlar kuzatiladi. Nutq harakatlarini boshqarish buziladi, bu tovush chiqarish va so‘zning bo‘g‘in tarkibiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Qanday nutq mexanizmlari shakllanmagani va ularning qaysi bosqichlari (darajalari) ko‘proq xastalanganiga bog‘liq ravishda alaliyaning bir necha turlari uchraydi.

Afaziya - bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog‘liq holda nutqning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi[6]. Ma’nodoshlari: nutqning buzilishi, yo‘qolishi.

Bola nutqining bosh miya jarohatlanishi, neyroinfeksiya yoki miya shishi natijasida yo‘qolishi nutqning shakllanib bo‘lganidan so‘ng sodir bo‘lsa, unda bolalar afaziyasi deb nomlanadi. Agar buzulish kattaroq yoshda yuz bergan bo‘lsa, unda afaziya haqida fikr yuritiladi.

Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruhga ajratiladi. Mahsuldor tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, retseptli yozma faoliyat buzilganida-o‘qishning zaiflashuvi qayt qilinadi.

Disleksiya - o‘qish jarayonining qisman o‘ziga xos buzilishi.

Harflarni idrok etish va tanishdagi qiyinchiliklarda; harflarni bo‘g‘inlarga qo‘shish va bo‘g‘inlardan so‘z tuzish borasidagi tutilishlarda (bu so‘z shakllarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi); agrammatizmda va o‘qiganlarini buzib tushunishda namoyon bo‘ladi.

Disgrafiya - yozish jarayonining qisman o‘ziga xos ravishda buzilishi[7].

Harfning optik-fazoviy obrazining turg‘un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida, so‘zning so‘z-bo‘g‘in tarkibini bayon qilish va gap qurilishida namoyon bo‘ladi. O‘qitish davomida yozish jarayoni shakllanmagan hollarida agrafiya haqida fikr yuritiladi.

Bolalardagi yozish va o‘qishning buzilishi bu jarayonlarni to‘liq holda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar orqali yuzaga keladi. Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, bu qiyinchiliklar og‘zaki nutqdagi nuqsonlar (optik shakllardan tashqari), tovush tahlili ishining shakllanmagani va ixtiyoriy diqqatning beqarorligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bolalardagi yozish va o‘qishning buzilishini yozish, o‘qishdagi bilim va ko‘nikmalarning yo‘qolishidan, shuningdek afaziya paytida yuzaga keladigan disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya)dan ajrata bilmoq lozim.

[5] Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 56 б.

[6] Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 95 б.

[7] Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 126 б.

Shunday qilib, logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli ajratiladi, ulardan 9 tasi og‘zaki nutq natijasi va ishlab chiqarishning turli jarayonlardagi buzilishlarini tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog‘liq holda ajratiladigan buzilishlarni o‘z ichiga oladi. Og‘zaki nutqning buzilishlari orasida disfoniya (afoniya), taxilaliya, brodilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya (anartriya), alaliya, afaziya ajratiladi; yozma nutqning buzilishlari orasida disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) ajratiladi.

Keltirilgan tasniflarga nutq buzilishlarining faqat shunday shakllari kiritilganki, ular logopedik adabiyotda ko‘rsatilgandir va ularga tadbiqan metodikalar ishlab chiqilgan. Har bir nutq buzilishlari shakllari ichida turlar va turchalar ajratiladiki, ular navbatdagi boblarda aks ettirilgan. Shu munosabat bilan shuni aytib o‘tish kerakki, qator hollarda bir shaklga taalluqli nutq buzilishlari varianti emas, balki alohida buzilishni o‘zida namoyon qiladi. Masalan, dislaliyaga, bir tomondan, artikulyar-fonetik buzilishlar, ya’ni nutqning nutq normasi darajasiga taalluqli xususiy ovoz ishlab chiqarishdagi nuqsonlar, boshqa tomondan esa-operatsiyalarning shakllanmagani bilan bog‘liq holdagi tovushlar tanlovini amalga oshiradigan va bayon qilishning (tilli) turlanish darajasiga taalluqli fonetik buzilishlar kiradi.

Keltirilgan tasnifning izchil emasligi nutq (psixologik va fiziolgik) mexanizmlari haqidagi bilimlar va logopediyadagi yangi tadqiqodlarning o‘sishi bilan bog‘liq holda fanning zamonaviy taraqqiyoti davrida ayniqsa sezilarli tus oldi. Fan taraqqiyotidagi har bir yangi bilimlar avvalgi tasavvurga o‘zgartirishlar kiritilishini talab etadi. Shuning uchun nutq buzilishlarini masalalarini bundan keyingi ishlab chiqarish logopediyasining dolzarb vazifasi bo‘lib qoladi.

Nutq tizimining tuzilish komponenti (tovush tomoni, gramatik tuzilishi, lug‘at zonasi), nutqning funksional jihatlari, nutqiy faoliyat turlarining (og‘zaki va yozma) o‘zaro aloqadorligi hisobga olinadi.

Keltirilgan tasnifda nutq buzilishlari ikki guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruh-muomala vositalarining (nutqning fonetik va fonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetik va fonematik rivojlanmay qolishi-bolalarda ona tilini talaffuz qilish tizimi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha nutq zaiflashuvlari bilan bog‘liq ravishda buzilishlaridir.

2. Nutqning to‘liq rivojlanmay qolishi-turli xil murakkab nutqiy kamchilikdir, bunda nutq tizimining tovush chiqarish va ma’noli tomonlariga taalluqli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan bo‘ladi.

Umumiy alomatlari sifatida quyidagilar qayd qilinadi: nutq rivojlanishining kech boshlanishi, lug‘at boyligining kamligi, agrammatizm, talaffuzdagi nuqsonlar, fonemalar tuzilishdagi nuqsonlar.

Maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik ishlarn olib borishda quyidagi shartlarga amal qilgan holda olib borilganidagina bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga hizmat qiladi:

- bola tomonidan maqsadni tushunilishi. Bunda bolaning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda, vazifalar aniq belgilanishi, bajarilish usullari aniq ko‘rsatilishi bilan bog‘liq;
- sistemalilik, ya’ni ko‘p marotabadan taqrorlash (logopedik mashg‘ulotlarda, mashg‘ulotlardan tashqari, darsda, turli xil muloqot shakllarida);
- bolaning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksiyalash ishlarini murakkablashtirib borish;
- amaliy va nutqiy harakatlarni tushunib bajarish;
- korreksiyalash ishlarining oxirgi bosqichida mustaqil bajariladigan harakatlar (avval logoped yordamida, mexanik vositalar yordamida va h.k.).
- bajarilgan topshiriqlarni differensial tahlil qilish va baholash.

Xulosa va takliflar. Nutq buzilishlarining shakl va turlarini aniqlash, ularning etiologiyasi va mexanizmlari haqidagi ilmiy tasavvurlar logopedik va psixologik-pedagogik ishlarda samarali korreksiya usullarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Og‘zaki va yozma nutq buzilishlari turli patologik va funksional o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning har bir shakli logopedik yondashuv va mashg‘ulotlar orqali bartaraf etilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq nuqsonlarini tuzatish jarayonida individual-psixologik xususiyatlarni hisobga olish, topshiriqlarni tizimli ravishda takrorlash va mustaqil bajarish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, logopedik korreksiya jarayonida nutqning fonetik, fonematik, grammatika va lug‘at komponentlari bilan birgalikda rivojlantirilishi samarali natijaga erishishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 256 б.
2. Волкова Л.С. Логопедия. – Москва: Владос, 2003. – 312 с.
3. Краузе Е.Н. Логопедия. – Санкт-Петербург: Корона, 2003. – 288 с.
4. Филичёва Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. – Москва: [б. и.], 2000. – 224 с.
5. Shomahmudova R. To‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutq o‘stirish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. – 130 b.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

BADIIY TARJIMA NAZARIYASINING ASOSIY KONSEPSIYALARI: EKVIVALENTLIK, FUNKSIONAL YONDASHUVLAR VA MADANIY BURILISH

Musayev Boburbek Mirzaakbarovich
Farg‘ona davlat universiteti, Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
Bobking2204@gmail.com +998905662204

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 15
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1300

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

badiiy tarjima, leksik-grammatik moslik, ekvivalentlik, funksional yondashuv, madaniy burilish, tarjima nazariyasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada badiiy tarjima nazariyasining uch asosiy yo‘nalishi qisqacha tahlil qilinadi: ekvivalentlikka asoslangan lingvistik yondashuvlar, funksional va skoposga yo‘naltirilgan konsepsiyalar hamda “madaniy burilish” doirasidagi qarashlar. A.V. Fyodorov, L.S. Barkhudarov, V.N. Komissarov, Roman Jakobson, Eugene Nida, Itamar Even-Zohar, Gideon Toury, Hans J. Vermeer, Susan Bassnett, Andre Lefevere, Lawrence Venuti va George Steiner ishlari asosida badiiy tarjimaning mazmun, forma va madaniy kontekst o‘rtasidagi muvozanat masalasi yoritiladi. Adabiyotlar tahlili lingvistik modeldan funksional va madaniy paradigma sari bosqichma-bosqich siljishni ko‘rsatadi; maqolada konseptual-analitik va qiyosiy yondashuvlar qo‘llanadi. Natijada badiiy tarjimani ko‘p qirrali semiotik-madaniy hodisa sifatida talqin qiluvchi qisqa integrativ konseptual model taklif etiladi.

Kirish. Badiiy tarjima nazariyasi XX asr mobaynida tilshunoslik va adabiyotshunoslik chegarasidan chiqib, madaniyatshunoslik va semiotika bilan uyg‘unlashgan mustaqil ilmiy yo‘nalishga aylandi. Dastlab e’tibor asosan leksik-grammatik moslik va “to‘g‘ri” tarjima masalalariga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik funksional va madaniy omillar, ideologik kontekst, o‘quvchi va buyurtmachi talablari ham nazariy muhokama markaziga ko‘tarildi.

Globallashuv jarayonida tillararo va madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi badiiy tarjima nazariyasini zamonaviy filologiyaning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Tarjima amaliyoti insoniyat tarixining qadimiy qatlamlariga borib taqalsa-da, bugungi kunda uning nazariy asoslarini qayta ko‘rib chiqish, yangi metodologiyalarni ishlab chiqish va turli yondashuvlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni aniqlashtirish dolzarb masalalardan biridir. Xususan, badiiy tarjima jarayonida ekvivalentlik tushunchasi, funksional yondashuvlar va madaniy burilish paradigmasi tarjimashunoslikning konseptual asoslarini belgilab beruvchi muhim nazariy yo‘nalishlar sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Ushbu mavzuning dolzarbligi badiiy tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik, stilistik va madaniy muammolarni chuqur tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Turli nazariy konsepsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash orqali tarjima jarayonining ko‘p qatlamli tabiati ochib beriladi, tarjimonning ijodiy tanlovlari, madaniy kontekstni qayta talqin qilish jarayonlari va maqsadli auditoriyaga ta’sirchan badiiy mazmun yetkazish mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Shu orqali zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik, funksional yondashuvlar va madaniy burilishning bir-birini to‘ldiruvchi, integrativ konsepsiyalar sifatidagi o‘rni aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tarjimashunoslik adabiyoti shuni ko‘rsatadiki, badiiy tarjima nazariyasi kamida uch yirik yo‘nalish doirasida shakllangan. Birinchi yo‘nalish – ekvivalentlikka tayanuvchi lingvistik model bo‘lib, u rus tarjimashunoslik maktabida A.V. Fyodorov, L.S. Barkhudarov va V.N. Komissarov tomonidan izchil ishlab chiqilgan. Fyodorov tarjimani bir tildagi nutqiy asarni boshqa til vositalari bilan mazmunan va usluban imkon qadar to‘liq ifodalash deb belgilaydi (Фёдоров). Barkhudarov esa tarjimaning predmetini til tizimlaridan ko‘ra konkret matnlar tashkil etishini ta’kidlaydi[1]. Komissarov ushbu pozitsiyani kengaytirib, ekvivalentlikning darajalari va tipologiyasini ishlab chiqadi[2].

Ikkinchi yo‘nalish – funksional-pragmatik va skoposga asoslangan yondashuvlar bo‘lib, ular G‘arb tarjimashunosligida Roman Jakobson, Eugene Nida, Mona Baker va Hans J. Vermeer ishlari bilan bog‘liq. Jakobson tarjimaning til ichidagi, tillararo va intersemiotik turlarini farqlab, “to‘liq ekvivalentlik”ning prinsipial ravishda cheklanganligini ko‘rsatadi[3]. Nida formal va dinamik ekvivalentlikni farqlab, dinamik ekvivalentlik orqali qabul qiluvchi auditoriya reaksiyasini manba auditoriyasiga imkon qadar yaqinlashtirishga intiladi[4]. Baker ekvivalentlikni so‘z, grammatik, matn va pragmatik darajalarda o‘rganib, uni doimiy “moslik” emas, balki kontekstga bog‘liq optimal yechim sifatida talqin qiladi[5]. Vermeer esa skopos nazariyasida tarjimani maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat sifatida tushuntiradi; tarjima strategiyasi skoposdan kelib chiqib belgilanadi[6].

Uchinchi yo‘nalish – polisistema va madaniy burilishga asoslangan deskriptiv paradigmadir. Madaniy burilish doirasida André Lefevere tarjimani ideologik, poetik va institutsional cheklovlar ostida amalga oshadigan “qayta yozish” shakli sifatida tushuntiradi[7]. Lawrence Venuti esa domestikatsiya va xorijlashtirish strategiyalarini qarama-qarshi qo‘yib, tarjimonning “ko‘rinmasligi”ni tanqid qiladi[8].

Susan Bassnett tarjimani markazida til turgan, ammo aslida madaniy va semiotik tizimlararo o‘zaro ta’sir bilan bog‘liq jarayon sifatida tasvirlaydi[9].

George Steiner esa “After Babel” asarida har qanday muloqotni talqin va ma’no ko‘chishi sifatida tushuntirib, tarjimani insoniy kommunikatsiyaning universal modeli deb ko‘rsatadi[10]. Bu fikr badiiy tarjimaga ayniqsa mos keladi: badiiy matnda obraz, ritm, uslub, intertekst va madaniy konnotatsiyalar bir butun bo‘lib, ularni boshqa til tizimi va adabiy an’anaga ko‘chirib o‘tish murakkab interpretativ harakatni talab qiladi. Ushbu maqola hajman qisqartirilgan shaklda bo‘lsa-da, aynan shu jarayonni tushuntirib beruvchi uch asosiy nazariy blokni – ekvivalentlik, funksional yondashuvlar va madaniy burilishni – ixcham tahlil qiladi.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqot badiiy tarjima nazariyasidagi ekvivalentlik, funksional yondashuvlar va madaniy burilish konsepsiyalarining ilmiy asoslarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u bir nechta metodologik yondashuvlar integratsiyasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning asosini tarjimashunoslik bo‘yicha klassik va zamonaviy nazariyalar, jumladan, A.V. Fyodorov, L.S. Barkhudarov, V.N. Komissarov, Roman Jakobson, Eugene Nida, Itamar Even-Zohar, Gideon Toury, Hans J. Vermeer, Susan Bassnett, Andre Lefevere, Lawrence Venuti va George Steinerlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Bu yondashuv ekvivalentlik konsepsiyasining tarixiy evolyutsiyasini, funksional

[1] Бархударов, Л. С. *Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода*. Москва, Международные отношения, 1975, 240 с.
[2] Комиссаров, В. Н. *Теория перевода (лингвистические аспекты)*. Москва, Высшая школа, 1990, 253 с.
[3] Jakobson, Roman. “On Linguistic Aspects of Translation.” *On Translation*, edited by Reuben A. Brower, Harvard University Press, 1959, pp. 232–39.
[4] Nida, Eugene A. *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. E. J. Brill, 1964, 331 pp.
[5] Baker, Mona. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. 2nd ed., Routledge, 2011, 352 pp.
[6] Vermeer, Hans J. “Skopos and Commission in Translational Action.” *The Translation Studies Reader*, edited by Lawrence Venuti, 3rd ed., Routledge, 2012, pp. 191–202.
[7] Lefevere, André. *Translation, Rewriting and the Manipulation of Literary Fame*. Routledge, 1992, 176 pp.
[8] Venuti, Lawrence. *The Translator’s Invisibility: A History of Translation*. 2nd ed., Routledge, 2008, 336 pp.
[9] Bassnett, Susan. *Translation Studies*. 4th ed., Routledge, 2014, 208 pp.
[10] Steiner, George. *After Babel: Aspects of Language and Translation*. 3rd ed., Oxford University Press, 1998, 538 pp.

yondashuvlarning shakllanish mexanizmlarini, madaniy burilishni tarjima jarayoniga ta'sir etuvchi yangi paradigma sifatida talqin etish imkonini berdi. Nazariy manbalar matnlararo taqqoslash va konseptual tahlil asosida o'rganildi.

Shuningdek, ingliz, rus va o'zbek tillaridan tanlangan bir qator badiiy matnlar hamda ularning tarjimalari qiyosiy-deskriptiv yondashuv asosida tahlil qilindi.
Bu metod yordamida semantik ekvivalentlikning turli darajalari, funksional o'xshashlik va transformatsiyalar, madaniy elementlarning tarjimada qanday aks etishi aniqlandi. Qiyosiy tahlil orqali nazariy konsepsiyalarning amaliy ko'rinishlari aniqlab borildi.

Madaniy burilish konsepsiyasini yoritishda tarjima jarayonining diskursiv tabiatiga e'tibor qaratildi. Diskursiv tahlil quyidagilarni o'rganishga xizmat qildi:

- tarjimonning subyektiv tanlovlari,
- ijtimoiy-madaniy kontekstning tarjimaga ta'siri,
- maqsadli auditoriya ehtiyojlarining tarjima strategiyalarini belgilashi.

NATIJA. Natijada badiiy tarjima nazariyasining uch asosiy konseptual yadrosi aniqlanadi. Birinchidan, ekvivalentlik konsepsiyasi lingvistik maktab uchun markaziy kategoriya bo'lib qoladi. Fyodorov va Barkhudarov uchun ekvivalentlik, avvalo, mazmun va ifodaning maksimal to'liq va sodiq ko'chirilishidir; bu yondashuv badiiy matn uslubiy yaxlitligini saqlash zaruratiga e'tibor qaratadi. Nida va Baker ekvivalentlikni funksional va pragmatik o'lchovlar bilan boyitib, badiiy tarjimada "eng yaqin tabiiy ekvivalent"ni topish g'oyasini ilgari suradilar.

Ikkinchidan, funksional va skoposga asoslangan konsepsiyalar tarjimaning maqsad va auditoriyaga bog'liqligini ko'rsatadi. Vermeer nazariyasiga ko'ra, bitta manba matn turli skoposga ega bo'lgan bir necha tarjima modelini vujudga keltirishi mumkin: sahna uchun adaptatsiya, ilmiy-kritik nashr, talabalarga mo'ljallangan soddalashtirilgan variant va hokazo. Jakobson va Nida ishlarida ham o'quvchi va kommunikativ vaziyatga yo'naltirilgan qarorlar muhim o'rin egallaydi (Jakobson; Nida).

Uchinchidan, polisistema va madaniy burilish paradigmalari badiiy tarjimani keng madaniy va ideologik kontekstga joylashtiradi. Lefevere va Venuti tarjimani kanon, ideologiya, nashriyot siyosati va o'quvchi kutilmalari bilan bog'laydi; domestikatsiya va xorijlashtirish strategiyalari orqali tarjimonning madaniy siyosatdagi rolini ochib beradi. Shu tariqa, badiiy tarjima nazariyasining asosiy konsepsiyalari til darajasidagi ekvivalentlikdan tortib, tizimiy va madaniy omillargacha bo'lgan butun spektrni qamrab olishi aniqlanadi.

MUHOKAMA. Ekvivalentlik konsepsiyasi badiiy tarjima amaliyotida zarur, biroq mutlaq emas. Jakobson ta'kidlaganidek, ayniqsa poetik matnlar tarjimasida to'liq ekvivalentlik emas, balki ijodiy transpozitsiya haqida gapirish maqsadga muvofiq. Nida va Baker konsepsiyalarida bu holat dinamik va pragmatik ekvivalentlik tushunchalari orqali izohlanadi: ma'no, ta'sir va uslub o'rtasida muvozanat izlanadi. Shunday ekan, badiiy tarjima jarayonida ekvivalentlik qat'iy me'yor emas, balki turli darajalarda amalga oshadigan moslashuvlar majmuasi sifatida ko'riladi.

Funksional va skopos yondashuvlari tarjimonni faol qaror qabul qiluvchi agent sifatida ko'rsatadi. Biroq skoposga haddan tashqari tayanish matnning estetik murakkabligi va intertekstual qatlamlarini soddalashtirish xavfini tug'dirishi mumkin. Steinerning hermenevtik modeli bu yerda muhim: tarjima harakati faqat maqsadga emas, balki manba matnning badiiy individualligiga ishonch va hurmatni ham nazarda tutishi kerak [11] . Shunday qilib, funksional nuqtai nazar ekvivalentlik konsepsiyasini inkor etmay, balki uni maqsad, auditoriya va janr bilan bog'lab qayta talqin qiladi.

Polisistema va madaniy burilish nazariyalari badiiy tarjimani milliy adabiy taraqqiyot va madaniy siyosat bilan bog'lab o'rganishga imkon beradi. Venuti va Lefevere bu tasviriy paradigmaga tanqidiy o'lchov qo'shib, tarjimani ideologik filtrlash va kanonni shakllantirish vositasi sifatida talqin qiladi.

O'zbek tarjimashunosligi uchun bu nazariy yondashuvlarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki integrativ tarzda qo'llash maqsadga muvofiq. Rus maktabining lingvistik an'analari, Nida va Bakerning funksional konsepsiyalari hamda Venuti va Lefeverening madaniy-ideologik qarashlari birgalikda qo'llansa, o'zbek tiliga badiiy tarjimalarni tahlil qilish va baholash uchun yanada mukammal metodologik model vujudga keladi.

XULOSA. Qisqartirilgan ushbu maqola badiiy tarjima nazariyasining asosiy konsepsiyalarini – ekvivalentlik, funksional yondashuvlar va madaniy burilishni – ixcham, ammo konseptual yaxlit ko'rinishda taqdim etdi. Ekvivalentlik til darajasidagi moslikdan tashqari, funksional va madaniy o'lchovlar bilan boyitilgan murakkab kategoriya ekanligi ko'rsatildi. Funksional va skopos nazariyalari tarjimani maqsad, auditoriya va janr bilan bog'lagan holda tarjimonning professional erkinligi va mas'uliyatini yoritadi. Polisistema, deskriptiv tarjimashunoslik va madaniy burilish esa tarjimani adabiy tizim, kanon va ideologik siyosat kontekstida tushuntirishga imkon beradi.

O'zbek ilmiy muhitida bu konsepsiyalarni o'zlashtirish, bir tomondan, badiiy tarjima amaliyotini chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi, ikkinchi tomondan esa, tarjimonlar tayyorlash va tarjima tanqidi uchun nazariy asos yaratadi. Kelgusida o'zbek tiliga tarjima qilingan muhim badiiy asarlar materiali asosida ekvivalentlik darajalari, skopos, normlar, domestikatsiya va xorijlashtirish strategiyalarini deskriptiv tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Baker, Mona. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. 2nd ed., Routledge, 2011.
2. Бархударов, Лев Соломонович. *Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода*. Москва, Международные отношения, 1975.
3. Bassnett, Susan. *Translation Studies*. 4th ed., Routledge, 2014.
4. Фёдоров, Андрей Викторович. *Основы общей теории перевода*. 4-е изд., Москва, Высшая школа, 1983.
5. Jakobson, Roman. "On Linguistic Aspects of Translation." *On Translation*, edited by Reuben A. Brower, Harvard University Press, 1959, pp. 232–239.
6. Комиссаров, Виллен Наумович. *Теория перевода (лингвистические аспекты)*. Москва, Высшая школа, 1990.
7. Lefevere, André. *Translation, Rewriting and the Manipulation of Literary Fame*. Routledge, 1992.
8. Nida, Eugene A. *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. E. J. Brill, 1964.
9. Nida, Eugene A., and Charles R. Taber. *The Theory and Practice of Translation*. E. J. Brill, 1969.
10. Steiner, George. *After Babel: Aspects of Language and Translation*. 3rd ed., Oxford University Press, 1998.
11. Venuti, Lawrence. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. 2nd ed., Routledge, 2008.
12. Vermeer, Hans J. "Skopos and Commission in Translational Action." *The Translation Studies Reader*, edited by Lawrence Venuti, 3rd ed., Routledge, 2012, pp. 191–202.

[11] Steiner, George. *After Babel: Aspects of Language and Translation*. 3rd ed., Oxford University Press, 1998, 538 pp.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКАСИ СОҲАСИНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аҳмаджонов Азимжон Каримжон ўғли,
Тошкент Кимё халқаро университети
мустақил изланувчиси, PhD
akhmadjonov@tpp.uz

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 16
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1301

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

электр энергетикаси, қайта тикланувчи энергия манбалари, энергия хавфсизлиги, иссиқлик электр станциялари, энергия самарадорлиги, ёқилғи-энергетика комплекси

ANNOTATSIYA

Мақолада Ўзбекистон Республикаси электр энергетикаси соҳасининг ҳозирги ҳолати ва ривожланиш истиқболлари таҳлил қилиниб, мустақиллик йилларидан буён энергетика соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар ва эришилган ютуқлар ёритилган. Хусусан, 2024 йилда мамлакатда 81,29 млрд кВт/соат электр энергияси ишлаб чиқарилиб, қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш ва янги технологияларни жорий этиш бўйича қатор ишлар амалга оширилганлиги кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, мақолада энергетика тизимининг таркибий элементлари, уни бошқариш тизими ва келгусидаги ривожланиш йўналишлари атрофлича ўрганилган.

Кириш

Ўзбекистон энергетика тизимининг ривожланиш тарихи 1926 йилда Бўзсув каналида қуввати 2 МВт бўлган гидроэлектр станциясининг қурилиши ва фойдаланишга топширилиши билан бошланди. Чирчиқ-Бўзсув трактидаги гидроэлектр станцияларининг қурилиши ривожланишнинг илк босқичи учун замин яратди. Кейинчалик, республикада кўмир конлари ва айниқса, табиий газни ўзлаштириш орқали қуввати 1 млн кВт дан ортиқ бўлган йирик иссиқлик электр станциялари қурилиб, ишга туширилди.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб, Ўзбекистоннинг энергетика сиёсати мамлакатнинг энергетик хавфсизлигини таъминлаш ва ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилиш учун миллий энергетика тармоғи имкониятларидан фойдаланишга йўналтирилди. Янги иқтисодий алоқаларни шакллантириш учун давлат асосий тармоқларни, жумладан, ёқилғи-энергетика комплекси корхоналарини қўллаб-қувватлай бошлади.

Энергетика соҳасининг стратегик ривожланиш йўналишлари нефть ва газ конденсати ишлаб чиқаришни кўпайтириш орқали ёқилғи мустақиллигини таъминлаш, энергетика саноати учун ишончли ресурс базасини яратиш, аҳолининг табиий ва суюлтирилган газ, электр энергияси ва замонавий ёқилғидан фойдаланиш имкониятларини максимал даражада кенгайтириш каби вазифаларни ўз ичига олади. Шунингдек, энергетика соҳасининг молиявий барқарорлигини сақлаш ва соҳага қўшимча инвестицияларни жалб қилиш, меъёрий-ҳуқуқий базани ишлаб чиқиш, энергетика сектори ва турдош тармоқлар ўртасидаги нархлар ва алоқаларнинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда молия ва солиқ тизимини такомиллаштириш каби масалалар ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Кузатувларга кўра, Ўзбекистон МДҲ давлатлари орасида электр энергияси ишлаб чиқариш ҳажми бўйича Россия, Украина ва Қозоғистондан кейин тўртинчи ўринни эгаллайди. У ўз энергия ресурслари ҳисобига ички эҳтиёжларини тўла қондира оладиган мамлакатлардан бири сифатида Марказий Осиёда ўзаро боғлиқ энергия тизимининг ўрнатилган қувватининг тахминан 50% ига эгалик қилади.

Адабиётлар шарҳи

Тадқиқот давомида Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари, Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлигининг расмий ҳисоботлари ва “Иссиқлик электр станциялари” акциядорлик жамияти фаолияти кўрсаткичлари таҳлил қилинди. “Иссиқлик электр станциялари” акциядорлик жамияти Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 мартдаги “Ўзбекистон Республикасида электр энергетика тармоғини янада ривожлантириш ва ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПҚ-4249-сон қарорига асосан ташкил этилган бўлиб, электр энергияси ишлаб чиқариш вазифасини амалга оширади ҳамда республика иқтисодиёти ва аҳолиси эҳтиёжларининг қаноатлантирилишини таъминлаш мақсадида белгиланган миқдорда электр ва иссиқлик энергиясининг ҳосил қилинишини таъминлайди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил
28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси”да белгиланган энергетика соҳасини ривожлантириш юзасидан вазифалар ва 2017 йил 26 майдаги ПҚ-3012-сон қарори[1]да кўзда тутилган чора-тадбирлар таҳлил қилинди, “Ўзбекгидроэнерго” АЖ каби йирик энергетика корхоналарининг фаолияти натижалари ва гидроэнергетика соҳасидаги ютуқлар ўрганилди.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотда кўп қиррали методологик ёндашув қўлланилди. Жумладан, назарий таҳлил усули орқали молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС)га оид илмий адабиётлар, қонунчилик ҳужжатлари ва меъёрий актлар ўрганилди.

Қиёсий таҳлил усули ёрдамида миллий ва халқаро стандартларнинг ўзаро боғлиқлиги, уларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатлари аниқланди.

Тизимли ёндашув асосида Ўзбекистон Республикасида МҲХСни жорий этишнинг барча босқичлари ва омиллари комплекс тарзда таҳлил қилинди. Амалий тадқиқот учун кейс-стади усули қўлланилиб, “Иссиқлик электр станциялари” АЖнинг молиявий ҳисоботлари батафсил ўрганилди. Бунда ташкилотнинг миллий стандартлардан халқаро стандартларга ўтиш жараёнидаги амалий муаммолари ва уларни ҳал этиш йўллари аниқланди.

Эмпирик тадқиқот усули сифатида сурвей методи қўлланилди. Бунда бухгалтерия соҳаси мутахассислари, аудиторлар ва молиявий менежерлар ўртасида сўровномалар ўтказилди. Статистик таҳлил усули ёрдамида олинган маълумотлар қайта ишланиб, натижалар интерпретация қилинди.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда қайта тикланувчи энергетикани янада ривожлантириш, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги Қарори (26.05.2017)

Индуктив ва дедуктив фикрлаш усуллари орқали умумий қонуниятлардан хусусий ҳолатларга ва аксинча, хусусий фактлардан умумий хулосаларга ўтиш амалга оширилди.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси

2024 йилда Ўзбекистон энергетика соҳаси ривожланишида муҳим ютуқларга эришилди. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг маълумотларига кўра, 2024 йилда мамлакатда электр энергияси ишлаб чиқариш умумий ҳажми 81,29 млрд кВт/соатни ташкил этди, бу 2023 йилга нисбатан 4,65% ўсишни кўрсатади. Йирик корхоналар томонидан ишлаб чиқарилган электр энергияси ҳажми 70,78 млрд кВт/соатни ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан 8,1% камайган. Лекин кичик бизнес сезиларли даражада ривожланиб, ишлаб чиқариш ҳажми 2023 йилдаги 625,4 млн кВт/соатдан 2024 йилда 10,51 млрд кВт/соатгача ошди.

Шу кунга қадар, энергетика соҳасини ривожлантириш ва истеъмолчи ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мақсадида соҳага оид 65 та ҳужжат, хусусан, 2 та Қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2 та Фармони ва 27 та қарори, Вазирлар Маҳкамасининг 18 та қарори ва 16 та фармойиши қабул қилинди.

2024 йилда умумий қуввати 2787,9 МВт бўлган электр станциялари ишга туширилиб, бунда қуёш электр станциялари 1000 МВт, шамол электр станциялари 800 МВт, иссиқлик электр станциялари 965,2 МВт ва гидроэлектр станциялари эса 22,7 МВт қувватни ташкил этди.

Соҳада биринчи марта энергия сақлаш тизимлари қўлланилди: Фарғона ва Андижон вилоятларида ҳар бири 150 МВтдан иборат 2 та тизим ишга туширилиб, жами 300 МВт қувват қўшилди. Бу энергетика соҳасидаги технологик янгиликнинг муҳим кўрсаткичи ҳисобланади.

“Яшил” энергия натижаларини алоҳида қайд этиш муҳим. Қуёш ва шамол электр станциялари орқали 2024 йилда 4,9 млрд кВт/соат электр энергияси ишлаб чиқарилди. Бунинг натижасида 1,47 млрд куб/метр табиий газ тежалди ва атмосферага 2,04 млн тонна зарарли газ чиқишининг олди олинди.

“Қуёшли хонадон” дастури доирасида 10826 нафар фуқаронинг уйларига қуёш панели ўрнатилиб, давлатга электр энергияси сотилди. Уларга давлат томонидан ҳар бир кВт/соат учун 1000 сўм тўлов қилиниб, жами 12 млрд сўмдан зиёд субсидия тўланди.

Умумий ишлаб чиқариш кўрсаткичлари бўйича 2024 йилда ишлаб чиқарилган электр энергияси деярли 81,5 млрд кВт/соатни ташкил этиб, бу кўрсаткич 2016 йилга нисбатан қўшимча 38% ни ташкил этади. Шундан истеъмолчиларга 67,5 млрд кВт/соат етказиб берилди, бу эса 2016 йилга нисбатан 48% га кўпдир.

Инфратузилмани янгилаш борасида ҳам сезиларли ишлар амалга оширилди. Электр таъминотини яхшилаш учун 29495 км тақсимловчи тармоқлар ва 10221 та трансформатор пункти таъмирланди. Бундан ташқари, 2896 км электр узатиш линиялари ва 649 та трансформатор пункти янгидан қурилди. Газ тармоқларида эса, 168,2 км узунликдаги тармоқлар ва 455 та газ тақсимлаш пункти модернизация қилинди.

Ҳозирги вақтда республиканинг мавжуд ишлаб чиқариш қуввати
25,6 ГВтни ташкил этади. Ушбу қувватнинг тақсимоти қуйидагича: иссиқлик электр станциялари 18,8 минг МВт ёки 73,4%, гидроэлектр станциялари 2,5 минг МВт ёки 9,8%, қайта тикланувчи электр энергетика манбалари 4,3 МВт дан ортиқ ёки 16,8% ни ташкил этади (1-расм).



1-расм. Электр энергияси генерацияси тузилиши.

Республика электр энергияси тизими шартли равишда бешта ҳудудий энергия узелига бўлинган. Шимоли-ғарбий узелга Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилояти; Жанубий-ғарбий узелга Қашқадарё, Самарқанд, Бухоро ва Навоий вилоятлари; Жанубий узелга Сурхондарё вилояти; Шарқий узелга Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятлари; Марказий узелга эса Жиззах, Сирдарё, Тошкент вилоятлари ва Тошкент шаҳри киради.

Энергия ресурсларига бўлган ички талаб иқтисодий ривожланишнинг кутилаётган динамикаси, иқтисодиёт тузилишининг ўзгариши ва унинг ўзига хос энергия интенсивлиги даражаси билан белгиланади. Иқтисодиётнинг энергия сарфи ҳажмини камайтириш электр энергетика сиёсатининг асосий вазифаси бўлиб, мазкур вазифанинг бажарилмаслиги энергетика соҳасининг мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишига муқаррар равишда тўсқинлик қилишига олиб келади.

“Ўзбекгидроэнерго” АЖ ташкил топганидан буён, гидроэнергетика соҳасига қарийб 1 млрд доллар инвестиция жалб қилинди. 2024 йил якунлариига кўра, жамиятнинг умумий активлари қиймати тарихда биринчи марта 1,2 млрд долларга етди, бу 2017 йилга нисбатан тўрт баробар ўсишни англатади. Жамият тасарруфидаги ГЭСлар сони 77 тага етиб, умумий ўрнатилган қуввати 2,256 ГВтни ташкил этмоқда. 2024 йилда жамият корхоналари томонидан 8,2 млрд кВт/соат электр энергияси ишлаб чиқарилди. Бу 2023 йилга нисбатан 20% кўп бўлиб, гидроэнергетика тарихидаги энг юқори рекорд кўрсаткичдир. Бунда қувватлардан фойдаланиш коэффициенти 41% ни ташкил этди.

Жамият ташкил топганидан буён, 55 та ГЭС фойдаланишга топширилди. Шулардан 42 таси янги қурилган бўлиб, 13 таси эса тўлиқ модернизация қилинди. Умумий қуввати 430 МВтни ташкил қилган ушбу объектлар замонавий технологияларга асосланган. Тармоққа узатилган электр энергиясини сотишдан олинган тушум эса 4,053 трлн сўмни ташкил қилиб, жамият йирик солиқ тўловчи сифатида 2024 йилда давлат бюджетига қарийб 1 трлн сўм солиқ ва бошқа тўловларни амалга оширди.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, электр энергетикасининг ривожланиши қуйидаги йўналишларда амалга оширилиши лозим (1-жадвал):

1-жадвал.

Электр энергетикаси ривожланишининг йўналишлари

	Ривожланиш йўналишлари	Компонентлар
1.	Электр энергиясини ишлаб чиқариш ва йиғиш	янада самарали энергия блокларини лойиҳалаштириш, қуриш, ўрнатиш ва ишга тушириш (иссиқлик, гидравлик блоклар)
		қайта тикланувчи энергия манбалари (қуёш, шамол) ускуналарини ўрнатиш ва ишга тушириш
		атом энергияси блокларини лойиҳалаштириш, қуриш, ўрнатиш ва ишга тушириш
		самарадорликни ошириш учун мавжуд энергия блокларини реконструкция ва модернизация қилиш
2.	Энергияни етказиб бериш	200 кВт ва 500 кВт кучланишга эга янги қувватларни лойиҳалаштириш ва ўрнатиш
		стандарт йўқотишларни камайтириш ва самарадорликни оширишни ҳисобга олган ҳолда электр энергиясини тақсимловчи тармоқларни модернизация қилиш
		юқори ва ўрта кучланишли подстанцияларда лойиҳалаштириш, янги ускуналарни ўрнатиш ва ишлатилган ускуналарни модернизация қилиш
		етказиб бериладиган электр энергияси кўрсаткичларини кузатиш учун АСКУЭ ва SMART Grid (“ақлли тармоқлар”) автоматлаштирилган бухгалтерия тизимларини жорий этиш
		электр энергияси экспортини кўпайтириш мақсадида яқин қўшни давлатлар учун электр энергияси узатиш линияларини лойиҳалаштириш
3.	Электр энергиясини сотиш	паст кучланишли станциялар ва трансформатор станцияларини замонавий талабларга мувофиқ янгилаш ва модернизация қилиш
		АСКУЭ ҳисоблагичларини ўрнатишни давом эттириш
		электр энергиясига ўсиб бораётган талабни ҳисобга олган ҳолда паст кучланишли электр энергияси узатиш линияларини янгилаш
		автоматлаштирилган ва самарали бошқарув тизимларини жорий этиш орқали электр энергияси йўқотишларини камайтириш
		электр энергиясидан фойдаланишнинг энг тиғиз вақтларини ҳисобга олган ҳолда истеъмол учун тарифлар тизимига босқичма-босқич ўтишни ривожлантириш
4.	Электр ускуналари ва электр техникалари ишлаб чиқариш бўйича янги қувватларни ишга тушириш	замонавий талабларни ҳисобга олган ҳолда электр энергияси ҳисоблагичлари ишлаб чиқаришни кўпайтириш
		маҳаллийлаштириш орқали энергетика соҳаси учун тегишли компонентлар ва эҳтиёт қисмлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш
		илмий тадқиқотлар ўтказиш, қайта тикланувчи энергия манбаларини қуриш ва ишга тушириш

Биринчи йўналиш электр энергиясини ишлаб чиқариш ва йиғишни ўз ичига олади. Бу йўналиш янада самарали энергия блокларини лойиҳалаштириш, қуриш, ўрнатиш ва ишга тушириш, қайта тикланувчи энергия манбалари ускуналарини ўрнатиш ва ишга тушириш, атом энергияси блокларини лойиҳалаштириш, қуриш, ўрнатиш ва ишга тушириш, шунингдек самарадорликни ошириш учун мавжуд энергия блокларини реконструкция ва модернизация қилиш каби компонентларни ўз ичига олади.

Иккинчи йўналиш энергияни етказиб бериш билан боғлиқ бўлиб, 200 кВт ва 500 кВт кучланишга эга янги қувватларни лойиҳалаштириш ва ўрнатиш, стандарт йўқотишларни камайтириш ва самарадорликни оширишни ҳисобга олган ҳолда электр энергиясини тақсимловчи тармоқларни модернизация қилиш, юқори ва ўрта кучланишли подстанцияларда лойиҳалаштириш, янги ускуналарни ўрнатиш ва ишлатилган ускуналарни модернизация қилиш каби масалаларни ўз ичига олади.

Учинчи йўналиш электр энергиясини сотиш билан боғлиқ. Бу йўналишда паст кучланишли станциялар ва трансформатор станцияларини замонавий талабларга мувофиқ янгилаш ва модернизация қилиш, АСКУЭ ҳисоблагичларини ўрнатишни давом эттириш, электр энергиясига ўсиб бораётган талабни ҳисобга олган ҳолда паст кучланишли электр энергияси узатиш линияларини янгилаш каби чора-тадбирлар амалга оширилади.

Тўртинчи йўналиш электр ускуналари ва электр техникалари ишлаб чиқариш бўйича янги қувватларни ишга тушириш билан боғлиқ. Бу йўналишда замонавий талабларни ҳисобга олган ҳолда электр энергияси ҳисоблагичлари ишлаб чиқаришни кўпайтириш, маҳаллийлаштириш орқали энергетика соҳаси учун тегишли компонентлар ва эҳтиёт қисмлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш каби масалалар ҳал қилинади.

Ишлаб чиқарувчи корхоналарнинг ҳар бири электр энергиясини ишлаб чиқариш учун ўзига хос технологик хусусиятга эга бўлиб, бу ўз навбатида, бухгалтерия ҳисоби тизимида акс этади. Ишлаб чиқарувчи корхоналарнинг хусусиятларини қуйидаги тартибда ифодалаш мумкин (2-жадвал):

2-жадвал.

Ишлаб чиқарувчи корхоналарнинг хусусиятлари ва уларнинг бухгалтерия тизимига таъсири

№	Ишлаб чиқарувчи компания турлари	Фаолият хусусиятлари	Бухгалтерия ҳисоби хусусиятлари
1.	Иссиқлик электр марказлари (ИЭМ) ва Иссиқлик электр станциялари (ИЭС)	Асосий ишлаб чиқарилувчи маҳсулот: электр энергияси; иссиқлик ва буғ.	Бухгалтерияда қуйидагича акс эттирилади: 9011 – Электр энергиясини сотишдан тушган даромад 9012 – Иссиқлик ва буғни сотишдан тушган даромад
		Электр энергиясини ишлаб чиқариш жараёни ёқилғидан фойдаланишни талаб қилади, булар:	Ҳар бир станцияда ишлатиладиган ёқилғи турига қараб, тегишли инфратузилма таъминланади, шу жумладан, ёқилғини етказиб бериш ва ташиш учун ускуналар, яъни: 0123 – Кўмир етказиб бериш учун

		табиий газ; кўмир; мазут.	0124 – Табиий газ ва мазут етказиб бериш учун
		Электр энергиясини ишлаб чиқариш технологик жараённинг тўхтовсиз ишлашини талаб қилади. Шу сабабли, қуйидаги таркибий элементларни тўғри ташкил этиш зарур: ишчиларни станцияларда сменали ишлаб чиқариш жараёнига жалб қилиш; энергия блокларини таъмирлаш тасдиқланган жадвал асосида амалга оширилиши; электр блокларининг узлуксиз ишлаши учун ёқилғи захиралари мавжуд бўлиши.	1. Электр энергиясини ишлаб чиқариш билан шуғулланадиган ходимлар сменада ишлашади, шу сабабли, тунги сменада ишлайдиган ходимларнинг иш ҳақи тунги ставка бўйича тўланиши шарт, бу эса, ўз навбатида, электр энергиясининг нархида акс этади. 2. Қувват блокларини таъмирлаш унинг ишлашини тўхтатиш йўли билан амалга оширилади. Ушбу давр учун асосий воситаларнинг амортизацияси тўхтатилади. 3. Электр станцияларини ёқилғи билан таъминлаш узлуксиз бўлиши зарур. Шу сабабли, ҳар бир иссиқлик станцияси ёнилғи сақлаш жойлари ва танк вагонлари билан таъминланган бўлиши лозим. Ҳисоб сиёсатига қараб, ёқилғини сақлаш бухгалтерия ҳисобида қуйидагича акс эттирилиши мумкин. 2520 – Ёқилғини сақлаш харажатлари ёки 2320 – Ёқилғини сақлаш.
		Ҳар бир станция учун ишлаб чиқарилган электр энергиясининг асосий қиймати энергия блокларининг ҳолати ва самарадорлигидан ҳисобланади, бунда, 1кВт учун ялпи фойда фарқ қилиши мумкин. Шунинг учун, ҳар бир станция ўз тарифларини Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигида алоҳида тасдиқлайди.	Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигида тарифларни тасдиқлаш ҳар бир алоҳида электр станцияси учун асосий тартиб ҳисобланади. Электр энергиясини ишлаб чиқариш учун ҳақиқий харажатларнинг ўсишини ҳисобга олган ҳолда, электр энергиясини сотиш тарифларини қайта кўриб чиқиш керак. Ушбу вақт сарфини ҳисобга олган ҳолда, молиявий натижалар кўриб чиқилаётган даврда тасдиқланган тарифлар билан бир хил тарзда ифодаланиши шарт.

Энергетика соҳасининг ҳар бир таркибий элементи бир неча турдаги корхоналарга бўлинади, хусусан, электр энергиясини ишлаб чиқариш иккита асосий тур ташкилотлар орқали амалга оширилади:

1) Иссиқлик электр маркази нафақат электр энергиясини ишлаб чиқарадиган, балки буғ ва иссиқ сув кўринишидаги марказлаштирилган иссиқлик таъминоти тизимларидир, уларга турар-жой ва саноат объектларини иситиш, иссиқ сув таъминоти ҳам киради.

2) Иссиқлик электр станцияси ёқилғини ёқиш орқали кимёвий жараёнда ҳосил бўлган энергияни электр энергиясига айлантириб берадиган махсус станциядир. Бунда ёқилғи манбалари сифатида кўмир, табиий газ ва мазут хизмат қилади.

Энергетика соҳасининг технологик хусусиятлари бухгалтерия ҳисоби тизимида алоҳида акс эттирилади. Электр энергиясини ишлаб чиқариш ёқилғидан (табиий газ, кўмир ва мазут) фойдаланиш ва технологик жараённинг тўхтовсиз ишлашини талаб этади, шунинг учун ишчиларни станцияларда сменали ишлаб чиқариш жараёнига жалб қилиш, энергия блокларини таъмирлашни тасдиқланган жадвал асосида амалга ошириш ва электр блокларининг узлуксиз ишлаши учун ёқилғи захираларини яратиш долзарб вазифалар ҳисобланади.

“Иссиқлик электр станциялари” АЖда 2019-2025 йилларда импортни қисқартириш ва кооперация борасида сезиларли натижаларга эришилди. Компания 2025 йилнинг биринчи ярми якунлари бўйича маҳаллий ечимлар ва саноат кооперациясини ривожлантириш ҳисобига импорт харажатларини 11,9 млн АҚШ долларига камайтирди. 2024 йилда режали таъмирлаш ва модернизация ишлари туфайли, мавжуд ускуналар қуввати 281 МВт гача оширилди.

Электр станцияларида амалга оширилган ва давом этаётган йирик лойиҳалар орасида Тўрақўрғон ИЭС алоҳида ўрин эгаллайди. 900 МВт қувватли замонавий буғ-газ станцияси 2019-2020 йилларда босқичма-босқич ишга туширилди. Сирдарё Ширин СГТЭС 1500 МВт ACWA Power лойиҳаси доирасида 2024 йил март ойига келиб 1000 МВт қувват ишга туширилди. 2024 йил май ойида расмий очилиш маросими ўтказилиб, 2024 йил охири - 2025 йил бошига 1500 МВт қувват билан тўлиқ ишга туширилишига эришилди. Толимаржон ИЭС қувватини 900 МВт га кенгайтириш бўйича EPC шартномалари имзоланган ва қурилиш ишлари давом этмоқда.

2025 йилда асосий мақсад сифатида электр энергияси ишлаб чиқаришда ўтган йилга нисбатан 10% ўсишга эришиш, умумий қиймати 3,3 млрд долларга тенг 14 та лойиҳани амалга ошириш ва умумий қуввати 222 МВт бўлган 38 та лойиҳани фойдаланишга топшириш режалаштирилган. Бунда янги объектларнинг йиллик ишлаб чиқариш салоҳияти 1 млрд кВт/соатни ташкил этиши назарда тутилган.

Истиқболда муқобил энергия манбалари борасида биринчи босқич (2019-2025 йиллар)да 1250 МВт қувватга эга қуёш фотоэлектр станциялари ва 402 МВт қувватга эга шамол электр станцияларини қуриш бўйича ишларни кучайтириш зарур. Бунда фотовольтаик ва шамол электр станцияларини тўлиқ миқёсда жорий этиш дастлабки босқичда 30-100 МВт гача ишлаб чиқариладиган пилот лойиҳаларни ишга тушириш билан босқичма-босқич амалга оширилиши мақсадга мувофиқ. Бунинг учун, электр энергетикасини ривожлантиришга қаратилган умумий давлат дастури доирасида ишлаб чиқариш қувватларини ривожлантиришнинг алоҳида дастури тасдиқланиши зарур.

Ушбу чора-тадбирларнинг муваффақиятли амалга оширилиши натижасида, 2030 йилга келиб умумий қуввати 24000 МВт бўлган ва аҳоли эҳтиёжларини тўлиқ қаноатлантирадиган натижага эришиш режалаштирилган. Шу билан бирга, иссиқлик электр энергияси улушини 89% дан 76% га, табиий газ улушини 89% дан 64% га камайтириш, қайта тикланувчи ва муқобил энергия улушини эса 23% гача ошириш кўзда тутилган. Бунда гидроэнергетика 10,3%, ядро энергетикаси 10%, қуёш ва шамол энергетикаси 3,2% ни ташкил қилиши режалаштирилган.

2019-2024 йилларда электр энергияси ишлаб чиқаришда йилига ўртача 5,1% миқдорида ўсиш кузатилди. Бу даврда электр энергияси ишлаб чиқариш ҳажми 63,6 млрд кВт/соатдан 81,5 млрд кВт/соатгача кўтарилиб, умумий ўсиш 17,9 млрд кВт соатни ёки 28,1% ни ташкил этди.

Прогноз кўрсаткичлари бўйича, 2030 йилгача бўлган даврда республикада электр энергиясига бўлган талабнинг йиллик ўсиши 6-7% га тенг бўлиши кўзда тутилмоқда. Шунингдек, 2030 йилга келиб республика истеъмоли 120,8 млрд кВт/соат, аҳолининг электр энергиясига бўлган талаби 21,9 млрд кВт/соат, иқтисодий секторнинг электр энергиясига бўлган талаби эса 85,0 млрд кВт/соат бўлиши кутилмоқда.

Электр станцияларининг қурилиш вақтини ҳисобга олган ҳолда, мавжуд станцияларни янгилаш ва қувватини оширишни давом эттириш, жумладан, қайта тикланувчи ва муқобил энергия манбаларидан гидроэнергетика, қуёш, шамол ва бошқалардан фойдаланадиган эски станцияларни, шунингдек, кўмир ёқадиган энергия блокларини модернизация қилиш орқали замонавий энергия тежайдиган блокларни қуриш зарур.

Электр ва иссиқлик энергиясини ишлаб чиқаришда мавжуд қайта тикланувчи энергия манбалари қуёш, шамол ва биогаз, кичик табиий ва сунъий сув оқимларининг гидроэнергиясидан деярли фойдаланилмай келинмоқда. Бугунги кунда республикада гидроэлектр станцияларининг имкониятлари деярли тугаган. Қурилаётган ва режалаштирилаётган кичик гидроэлектр станциялари эса ҳозирги вазиятни сезиларли даражада ўзгартира олмайди.

Ҳозирги кунда саноатнинг мақсадли таркиби олтита асосий компонентни ўз ичига олади, булар: ишлаб чиқарувчи компаниялар акциядорлик жамиятлари; етказиб бериш компаниялари; сотиш компаниялари акциядорлик жамиятлари; хизмат кўрсатувчи компаниялар давлат ва акциядорлик жамиятлари; илмий ва лойиҳалаштириш мажмуалари, шу жумладан, давлат ва акциядорлик жамиятлари ташкилотлари; инфратузилмавий ташкилотлар турларидан иборат.

Хулоса ва таклифлар

Ўзбекистон Республикасида электр энергетикаси соҳаси мустақиллик йилларида жиддий ислоҳотлардан ўтиб, бугунги кундаги сезиларли ютуқларга эришди. 1926 йилда 2 МВт қувватли Бўзсув гидроэлектр станциясидан бошланган энергетика тизими бугунги кунда 25,6 ГВт умумий қувватга эга бўлган замонавий тармоққа айланди.

2024 йилда мамлакатда 81,29 млрд кВт/соат электр энергиясининг ишлаб чиқарилиши ва янги қуввати 2787,9 МВт бўлган электр станцияларининг ишга туширилиши ушбу соҳанинг барқарор ривожланаётганини кўрсатмоқда. Жумладан, қуёш электр станциялари 1000 МВт, шамол электр станциялари 800 МВт қувват билан ишга туширилгани қайта тикланувчи энергия манбаларининг жадал ривожланишидан далолат беради.

Энергия сақлаш тизимларининг биринчи марта жорий этилиши ва “яшил” энергетиканинг кенгайиши мамлакатнинг экологик барқарорлик йўлидаги муҳим қадамларидир. 2024 йилда қайта тикланувчи энергия манбалари орқали 4,9 млрд кВт/соат электр энергияси ишлаб чиқарилиши, бунинг натижасида 1,47 млрд куб/метр табиий газ тежалиши ва атмосферага 2,04 млн тонна зарарли газ чиқишининг олди олинганлиги ҳам муҳим экологик натижалардан ҳисобланади.

“Ўзбекгидроэнерго” АЖ томонидан соҳага 1 млрд долларлик инвестициянинг жалб қилиниши ва жамиятнинг умумий активлари қиймати 1,2 млрд долларга етганлиги гидроэнергетика соҳасидаги барқарор ривожланишни кўрсатади. 77 та ГЭС орқали 8,2 млрд кВт/соат электр энергияси ишлаб чиқарилиши ва бу кўрсаткичнинг 2023 йилга нисбатан 20% ошганлиги гидроэнергетика тарихидаги энг юқори рекорд ҳисобланади.

2030 йилга қадар, қайта тикланувчи энергия манбалари улушини 25% га етказиш, электр энергияси ишлаб чиқариш кўрсаткичини 100 млрд кВт/соатга етказиш ва иқтисодиётнинг энергия самарадорлигини 20% га ошириш мақсадлари энергетика тизимининг модернизациясида муҳим ўрин тутади.

Келгусида энергетика соҳасини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари энергия самарадорлигини ошириш, замонавий технологияларни жорий этиш, халқаро стандартларга мувофиқлаштириш, атом энергетикасини ривожлантириш ва экологик талабларни қондиришдан иборат. Париж битимига мувофиқ, карбонат ангидрид чиқиндиларини камайтириш мажбуриятлари ҳам энергетика соҳасининг келгуси ривожланишида муҳим омиллигича қолади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. https://lex.uz/docs/5841063
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 майдаги “2017-2021 йилларда қайта тикланувчи энергетикани янада ривожлантириш, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги ПҚ-3012-сон қарори. https://lex.uz/docs/3221894
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 мартдаги “Ўзбекистон Республикасида электр энергетика тармоғини янада ривожлантириш ва ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПҚ-4249-сон қарори. https://lex.uz/docs/4257083
4. 2020-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасини электр энергияси билан таъминлаш концепцияси. https://minenergy.uz
5. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. 2024 йил электр энергияси ишлаб чиқариш кўрсаткичлари. www.uzdaily.uz
6. Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги. 2024 йилда энергетика соҳаси ривожланиши ҳақида маълумот. https://gov.uz/uz/minenergy
7. “Ўзбекгидроэнерго” АЖ. 2024 йил фаолият натижалари ва 2025 йил режалари. www.uzdaily.uz
8. Ушаков В.Я. Современные проблемы электроэнергетики: учебное пособие. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2014.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

YOSH AVLOD TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Karshiyeva Dilbar Eshpulatovna
CHDPU Pedagogika fakulteti
“Umumiy pedagogika” kafedrasi v.b dotsenti (PhD).

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 17
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1302

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Urf-odat, ma’naviy boylik, aqlli, iymon-e’tiqodli, ro‘za, poklik, fidoyi, ishchan, milliy, kamolot.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid dalillar va ularning nazariy asoslarini keltirgan. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda muhim ekanligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqola yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda milliy qadriyatlarning shakllanishi, ularning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’siri, shuningdek, tarbiyaviy jarayonda qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ota-ona, ta’lim muassasalari va jamoat institutlari orqali yosh avlodda milliy madaniyat, urf-odatlar va axloqiy me’yorlarni singdirishning samarali usullari yoritilgan. Shu bilan birga, maqola yoshlar orasida milliy qadriyatlarni mustahkamlash, ularni zamonaviy jamiyat talablari bilan uyg‘unlashtirish va ma’naviy barqaror shaxslar shakllantirish masalalarini muhokama qiladi. Tadqiqot natijalari milliy tarbiya strategiyalarini rivojlantirish va ta’lim tizimida samarali dasturlarni ishlab chiqish uchun amaliy tavsiyalar sifatida foydalanishga imkon beradi.

Kirish. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o‘tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday ijtimoiy, moddiy, ma’naviy narsa yoki hodisa o‘tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo‘lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlar jamiyat va ma’naviy taraqqiyotning zaruriy mahsulidir. Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari majmuidir [1]. Qadriyatlar axloqiy qoida va me’yorlar, g‘oyalar va maqsadlardagi baholash mezoni hamda usullarini o‘zida aks ettiradi: Ular halollik, poklik, o‘zaro yordam va adolatliligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar: burch, vijdon, or-nomus, mas’uliyat kabi ahloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo‘ladi. Qadriyat-boshqa bir ta’rifda esa atrof muhitdagi narsalarni, hodisalarni ularning inson va jamiyat uchun ahamiyatga qarab, ijobiy yoki salbiy deb, asosiy yoki ikkinchi darajali deb belgilash natijasida vujudga keladigan tushuncha yoki nuqtai nazarlarda aks etuvchi obyektlardir, deb belgilangan.

Qadriyat–bu tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma’naviy boyliklar bo‘lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyat kashf etib, ular manfaati va ehtiyojini qondirish: takomillashuvi, kelajak avlodning ijodiy o‘sishini rag‘batlantirish omilidir.

Yosh avlod tarbiyasi har bir jamiyatning barqarorligi va kelajagi uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, global jarayonlar, madaniy integratsiya va zamonaviy axborot texnologiyalarining tez sur’at bilan rivojlanishi sharoitida yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar – bu bir xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, axloqiy me’yorlari va madaniy merosini o‘zida mujassam etgan ijtimoiy-me’naviy tamoyillardir. Ular yoshlar ongini shakllantirish, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va ma’naviy barqaror shaxslar sifatida yetishtirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda milliy qadriyatlar tarbiyaning markaziy komponenti sifatida yosh avlodda axloqiy-ijtimoiy me’yorlarni singdirish, milliy madaniyatni qadrlash va milliy o‘zlikni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari, oilaviy tarbiya va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarda milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, ularni zamonaviy hayot talablariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi milliy qadriyatlarni yosh avlod tarbiyasiga integratsiyalash orqali ma’naviy va madaniy barqarorlikni ta’minlash zaruratidan kelib chiqadi. Maqola milliy qadriyatlarning pedagogik ahamiyatini tahlil qilish, ularni tarbiyaviy jarayonda samarali qo‘llash strategiyalarini aniqlash va yoshlar ongida milliy o‘zlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot bo‘yicha Pedagogika fani sohasida M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.Ortiqov, Q.Qurbonboyev, J.Toshmatova, Sh.Olimov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e’tiborga loyiqdir. Ular o‘z ilmiy izlanishlarida yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha qator yutuqlarni qo‘lga kiritganlar.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an’ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo‘ygan. Bu borada O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy yondashuvlarning uyg‘unligi asosiy metodologik prinsip sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik sohasidagi ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Bu manbalarni o‘rganish orqali milliy qadriyatlarning shakllanishi, ularning tarbiyaviy jarayonga ta’siri va yoshlar ongida ijtimoiy va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash mexanizmlari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda kontekstual yondashuv qo‘llanilib, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning hududiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlari hisobga olindi. Bu yondashuv yoshlar ongida milliy o‘zlikni shakllantirish va ularning madaniy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot natijalari sifatli va miqdoriy ma’lumotlarni integratsiyalash orqali shakllantirildi, bu esa milliy qadriyatlarni yosh avlod tarbiyasiga samarali integratsiyalash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida markaziy rol o‘ynaydi. Shaxslar ongida milliy o‘zlikni shakllantirish, axloqiy va madaniy me’yorlarni singdirish, shuningdek, ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida milliy qadriyatlarning ahamiyati yuqori ekanligi aniqlangan.

[1] Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G‘G‘ O’zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2. – B. 32.

Yoshlar orasida milliy qadriyatlarni qadrlash darajasi ularning oilaviy tarbiyasi, ta'lim muassasalari faoliyati va jamoat institutlarining ta'siri bilan bog'liq. Pedagogik jarayonda milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirilgan holda qo'llash yoshlarning ma'naviy barqarorligi va madaniy ongini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonda zamonaviy jamiyat talablariga moslashtirish zaruratini ko'rsatdi. Bu esa yoshlar orasida milliy madaniyatni qadrlash va ijtimoiy moslashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida milliy qadriyatlarni yosh avlod tarbiyasiga integratsiyalash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni ta'lim dasturlariga samarali kiritish imkoniyati mavjudligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, oilaviy, ta'limiy va jamoat institutlarida milliy qadriyatlar bilan bog'liq faoliyatlarni rivojlantirish yoshlar ongida milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir[2]. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, an'analarimiz va o'zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni –millat sifatida birlashtiradi [3] . Zero, o'z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Muhokama. Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta'limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchidan, millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borish ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi[4]. Umuman olganda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarning qudratli manbai va azaliy urf-odatlarimizdan biri-oila va qarindoshlik munosabatlar odobidir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Uchinchidan, "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama- qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf- xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda.[5]" 1998-yil 2-fevralda Respublika xotin qizlar qo'mitasi xuzurida "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi oilaga taalluqli milliy an'analarni, umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida katta qadam qo'yildi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni ijtimoylashtirish, uni har tomonlama shakllantirish, komolga etkazish, rivojlantirish eng muhim vazifa sifatida insonni tarbiyalash, unga ta'lim berish, yuksak qadratli, dunyoqarashi keng qamrovli chuqur, bilimdon hamda sog'lom yosh avlodni tarbiyalash ayniqsa, dolzarbdir.

Inson-eng oliy qadriyat, Shu bois, millatimizga xos bo'lgan qadriyatlardan yana biri-bolajonlik, Oilada ko'p farzandlarni dunyoga keltirish va ularni kamolga etkazish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida "Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar" 4-deyiladi[6]. Shunisi quvonarli-ki, biror-bir xorijiy davlatning Konstitutsiyasida bu kabi modda uchramaydi.

Aytish lozimki, bizning Konstitutsiyamiz nafaqat demokratik tamoyillar, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhi bilan sug'orilgan. Oila qanchalik qudratga ega bo'lmasin, u farzand tarbiyasida qo'ni-qo'shnilardan iborat bo'lgan mahalla va tarbiya maskanlarining ko'magisiz yuqori natijalarga erisha olishi mushkul. Milliy qadriyatlarimizning asosiy xazinaboni - oila deb oladigan bo'lsak, bu xazinani asl san'at asari darajasiga ko'taruvchi naqqoshlar mahalla va maktabdir. Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi beqiyosdir. "Mahalla-ham ota, ham ona" degan hikmatli naql haqiqat, bejiz aytilmagan[7]. Chunki, mahalla haqida gapirganda, ko'pchilik ana shunday chuqur ma'noli so'zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy.

Biz ming yillar davomida shakllangan, odamlarning hayoti ichki dunyosidagi mustahkam o'rin olgan, unga barcha amal qiladigan, insonlarning qon-qoniga singib ketgan an'analarimizni, ota-bobolarimiz bizga qoldirgan olijanob qadriyatlarni, g'ururimizni ko'taradigan, xalqimizni obro'siga obro' qo'shadigan insoniy odat va fazilatlarni saqlash, asrab-avaylash va eng katta boylik sifatida yangi kelajak avlodlarga etkazish zarur.

Xulosa va takliflar. Bugun yurtimizda qadriyatlarimizni qadrlaydigan, ezgu an'analarga o'z hayotiy mo'ljalida muhim omil sifatida munosabatda bo'ladigan yoshlar ko'p. Lekin hayoti va istiqbolida milliy qadriyatlarning o'rnini biroz to'g'ri tushunmaydigan yoki o'zini undan xoli holda ko'rib milliy madaniyatimizga e'tiborsizroq bo'lgan yoshlarimiz borligini ham hozircha inkor etolmaymiz.

Barchamiz guvohmiz-bugun dunyo misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ijobiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Ijtimoiy hayotni jamiyat tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlarsiz tasavvur qilish mushkul, ularsiz yashab bo'lmaydi.

Tadqiqotimizning natijalaridan kelib chiqqan holda yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash borasida quydagilarni taklif qilish mumkin:

1. "Shaxs erkinligi" ga qarshi oila va jamiyat oldidagi yuksak ma'suliyatni shakllantirish;
2. Jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san'atkor, huquqshunos, ta'lim va fan arboblari, mehnat faxriylari, sog'liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish.

Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar markaziy o'rin tutadi va ularning shakllanishi shaxsning ma'naviy, axloqiy va madaniy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar yoshlar ongida milliy o'zlikni rivojlantirish, jamiyatning ijtimoiy me'yorlariga moslashuvchan shaxslar shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga integratsiyalash jarayonida ota-ona tarbiyasi, ta'lim muassasalari va jamoat institutlarining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni zamonaviy jamiyat talablariga moslashtirish va pedagogik jarayonda uyg'un qo'llash yoshlar orasida madaniy ongni rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash imkonini beradi.

[2] A.Allayarov, G,,.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. – B. 64.
[3] Maxmudov, Y. F., & Xudoyqulov, X. J. (2011). Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni. T, Dizayn-Press 2011. – B. 34.
[4] Xudoyqulov X.J. Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – b. 28.
[5] Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: "Ma'naviyat", 2003. – b. 32
[6] Abdullayeva, G. A. (2020). THE IMPORTANCE OF MORAL NEEDS IN THE UPBRINGING OF THE INDIVIDUAL. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 463-469.
[7] Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G‘G‘ O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
2. A.Allayarov, G„.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.
3. Maxmudov, Y. F., & Xudoyqulov, X. J. (2011). Milliy g’urur-ma’naviy komillik mezoni. T, Dizayn-Press 2011.327 b.
4. Xudoyqulov X.J. Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. - 308 b.
5. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: “Ma’naviyat”, 2003.
6. Abdullayeva, G. A. (2020). THE IMPORTANCE OF MORAL NEEDS IN THE UPBRINGING OF THE INDIVIDUAL. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 463-469.
7. Aliqulov X. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA OMILLI TAHLILNI QO‘LLASH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Umurova Mohira Asqarboy qizi
SamISI tayanch doktoranti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 18
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1303

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Omilli tahlil, nisbiy miqdor, mutlaq miqdor, muvozanat usuli, an’anaviy usullar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muhim iqtisodiy tarmoqlardan biri bo‘lgan xizmatlar sohasini rivojlantirishda, xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini oshirishda qo‘llaniladigan tahlil jarayonlaridan bir bo‘lgan omilli tahlil usulini qo‘llash hamda bu usul orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini tahlil qilishda qo‘llaniladigan taqqoslama va omilli tahlil usullarining nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Avvalo, xizmatlar hajmi va moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘tgan davrlarga nisbatan o‘zgarishini baholashga qaratilgan taqqoslama tahlilning ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shundan so‘ng natijaning dinamik o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash imkonini beruvchi omilli tahlilning mohiyati ochib beriladi. Maqolada iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar – solishtirish, mutloq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar hamda muvozanat usulining xizmat ko‘rsatish korxonalarida qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, qayta hisoblash usulining ikki omilli modellarda (asosiy kapital va uning samaradorligi) xizmat hajmiga ta’sirini aniqlashdagi qo‘llanilishi misollar orqali asoslab beriladi. Xizmat ko‘rsatish sohasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ichki imkoniyatlarni aniqlash, resurslardan foydalanishni optimallashtirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishda omilli tahlilning o‘rni beqiyos ekani ta’kidlanadi. Yakunda iqtisodiy tahlilsiz korxona faoliyatiga chuqur baho berish va kelgusiga mo‘ljallangan strategik qarorlarni qabul qilish imkoniyati cheklanishi qayd etilgan.

Kirish. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va raqobatbardoshlikni ta’minlovchi muhim tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Aholining iste’mol talabi kengayib borayotgani, xizmat turlarining ko‘payishi, raqamlashtirish jarayonlari jadallashgani xizmat ko‘rsatish korxonalaridan yuqori samaradorlikni talab qilmoqda. Bunday sharoitda korxonalar faoliyatini chuqur tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish va samaradorlikni oshirishning ilmiy asoslangan yo‘llarini aniqlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy natijalari ko‘plab omillar ta’siri ostida shakllanadi. Shuning uchun omilli tahlil (faktorial tahlil)dan foydalanish korxona faoliyatida samaraga bevosita ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, ularning ta’sir kuchi va o‘zaro bog‘liqlik darajasini belgilash imkonini beradi. Omilli tahlilning afzalligi shundaki, u korxona rentabelligi, mahsuldorlik darajasi, xizmat sifati va xarajatlar tuzilmasiga ta’sir qiluvchi omillarni kompleks baholash hamda boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasini hamda xizmat ko‘rsatish korxonalarining faoliyat natijalari tahlili qilinganda albatta dastlab taqqoslama tahlil amalga oshiriladi. Ya’ni umumiy xizmatlar hajmi yoki xizmat ko‘rsatish korxonasining alohida bir moliyaviy ko‘rsatkichi aniqlanganda uni o‘tgan davrlarga nisbatan o‘zgarishi tahlil qilinadi. O‘tgan davrga nisbatan o‘zgarish darajasi aniqlangandan keyingi bosqich sifatida esa muhim tahlil turi omilli tahlilga zarurat tug‘iladi. Chunki natijaning dinamik o‘zgarishiga omillarning ta’sirini baholamasdan ushbu xizmat ko‘rsatish korxonasining qaysi iqtisodiy yoki tashkiliy instrumentlarini tartibga olish kerakligi aniqlanmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Xizmat ko‘rsatish sohasini tahlil qilishda adabiyotlarda ikki asosiy yo‘nalish – taqqoslama tahlil va omilli tahlil – keng yoritilgan. M.Muhammedov xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslarini batafsil tahlil qilgan bo‘lsa, M.Pardayev va I.Ochilov xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirishning amaliy yo‘llarini ko‘rsatadi[1]. Ushbu manbalar korxonalarda ko‘rsatkichlar o‘tgan davrlarga nisbatan qanday o‘zgarishini aniqlash va o‘zgarishlarni boshqarish mexanizmlarini shakllantirish zaruriyatini ta’kidlaydi.

Omilli tahlilning mohiyati va metodologiyasi ko‘plab manbalarda keng yoritilgan. X.Abulqosimov va boshqalar erkin iqtisodiyot sharoitida korxonalarning ichki resurslari va tashqi sharoitlarni tahlil qilishning ahamiyatini ko‘rsatadi[2]. Shu bilan birga, F.Kotler marketing asoslarini o‘rganish orqali xizmatlar bozoridagi raqobat sharoitini va xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligiga ta’sir qiluvchi tashqi omillarni tahlil qilish imkoniyatini beradi[3].

Omilli tahlilning metodologik jihatlari A.Volgin va I.Ochilov ishlarida batafsil yoritilgan [4]. Ular korxonalarda natijaviy ko‘rsatkichlarga omillar ta’sirini aniqlash uchun an’anaviy iqtisodiy tahlil usullaridan, jumladan mutloq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlardan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, qayta hisoblash usuli va muvozanat metodini qo‘llash orqali natijaga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, xizmat ko‘rsatish hajmi va korxona resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Q.Mirzayev va boshqalar xizmatlar sohasi iqtisodiyoti bo‘yicha ishlarida amaliy misollar va modellarga tayanib, mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlarni qo‘llash, o‘rtacha miqdorlarni aniqlash va omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olish orqali korxona faoliyatini samarali boshqarishning zarurligini ta’kidlaydi[5]. Shu bilan birga, adabiyotlar xizmat ko‘rsatish sohasida tahlil qilishda nazariy asoslar bilan birga amaliy metodik yo‘llar – solishtirish, muvozanat, qayta hisoblash va halqasimon tahlil metodlarini qo‘llashning samaradorligini ham ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini baholashda mutloq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar, shuningdek, omilli tahlilning an’anaviy iqtisodiy usullarini qo‘llashning zarurligini tasdiqlaydi. Bu esa korxonalarda ichki resurslarni aniqlash, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va xizmat hajmini oshirishga yordam beradi. Shu tariqa, adabiyotlar tahlili omilli tahlilning korxona iqtisodiyotida nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham isbotlaydi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda xizmat ko‘rsatish korxonalarining moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida taqqoslama tahlil va omilli tahlil asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Taqqoslama tahlil – korxona ko‘rsatkichlarining o‘tgan davrlar bilan solishtirilishi va o‘zgarish darajalarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu bosqichda xizmat hajmi, daromad, xarajatlar kabi mutloq

[1] Muhammedov M.M. Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. – Samarqand, 2007.; Pardayev M.Q. Ochilov I.S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 172 b.; Ochilov I.S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. Iqtis. fan. nomz. … diss. aftoref. – SamISI, 2010.
[2] Abulqosimov X. va boshqalar. Erkin iqtisodiyot tamoyillari. – Toshkent: Akademiya, 2005. – 52 b.
[3] Котлер Ф. Основы маркетинга. – Москва: Прогресс, 1993.
[4] Волгин А.П. Управление персоналом. Теория и практика. – Москва. Проспект, 2011. – 688 с.; Ochilov.I.S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. Iqtis. fan. nomz. … diss. aftoref. – SamISI, 2010.
[5] Mirzayev Q.J., Sharipov T.S., Sultonov Sh.A., Mustafoyev G‘.S., Fayziyev E.S. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. – Toshkent, 2022.

ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Mutloq miqdorlar orqali iqtisodiy jarayonlarning boshlang‘ich holati va hajmi aniqlanadi, shuningdek, ular tahlilning dastlabki ma’lumotlari sifatida xizmat qiladi. Omilli tahlil – natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning o‘zgarish darajasini hisoblashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. An’anaviy iqtisodiy tahlil usullari – solishtirish, farqlash, bo‘lish, ko‘paytirish amallari orqali ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Bu usullar xizmat ko‘rsatish korxonalarida natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlashda, resurslarni samarali safarbar qilish va xizmat hajmini oshirishda amaliy ahamiyatga ega. Adabiyotlar va empirik ma’lumotlar tahlili – tadqiqotda soha bo‘yicha ilmiy manbalar, korxona hisobotlari, statistik ma’lumotlar va amaliy misollar asos sifatida qo‘llanildi. Shu orqali metodologiya nafaqat nazariy, balki amaliy tahlilga ham asos bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari. Omilli tahlil natija ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash yo‘li bilan shu tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichni yaxshilashni, ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlash va uni kelgusi davr uchun safarbar qilish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan moliyalashtirish asosan barham topgan bir paytda, ichki imkoniyatlarni axtarib topish va uni xo‘jalik faoliyatiga safarbar qilish tahlil orqali amalga oshiriladi.

Omilli tahlil – bu natijaviy ko‘rsatkichlar darajasiga omillar ta’sirini kompleks hamda tizimli tadqiq qilish jarayonidir[6].



a-rasm.Omilli tahlil turlari

Omilli tahlilini amalga oshirish jarayonida har bir omilning natijaga ta’sirini baholashda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullardan foydalaniladi (-rasm).

Ushbu an’anaviy usullarning har birining o‘z xususiyati bilan birga xizmat ko‘rsatish korxonalarida qo‘llanilishi bo‘yicha ham alohida xususiyatlari mavjud.

b-rasm. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida solishtirish usulini qo‘llash bilan tahlil boshlanadi. Shu usul orqali tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichning farqi aniqlanadi[7]. Qolgan barcha usullar solishtirish natijasida aniqlangan farqni isbotlashga, aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Solishtirishda asos qilib miqdorlar olinadi. Miqdor ko‘rsatkichlari asosan buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z ifodasini topadi, chunki sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar birinchi galda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va hisobotida jamlanadi. Tahlil qilish uchun miqdor ko‘rsatkichlarining barcha turlari : mutloq miqdor, nisbiy miqdor, o‘rtacha miqdor kabilar qo‘llaniladi.

Mutloq miqdor har qanday miqdorning asosi, iqtisodiy jarayonlarni sanaydigan va o‘lchaydigan boshlang‘ich raqamdir. Masalan, xizmat ko‘rsatish korxonalari soni, korxonada ishlaydigan xodimlar soni, korxonadagi jihozlar soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni kabilarni sanash yo‘li bilan aniqlasa, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, tovar mahsuloti, Ko‘rsatilgan xizmat hajmikabilar bevosita o‘lchash yo‘li bilan aniqlanadi. Bunday mutloq miqdorlar hajm ko‘rsatkichlari deb ataladi. Mutloq miqdordan tahlilda foydalanishda asosan qo‘shish va ayirish amallari ishlatiladi. Mutloq miqdorlar o‘lchov birligiga qarab nutura, shartli natura, pul va kompleks turlarga bo‘linadi. Rejali iqtisodiyot sharoitida ko‘rsatkichlar asosan pul birligida ifodalanar edi. Endilikda pulning qadrsizlanish jarayoni davom etib turgan paytda va ko‘p mulkchilik shaklidagi iqtisodiyotning vujudga kelishi tahlil qilishda natura, shartli natura va kompleks ko‘rsatkichlardan keng foydalanish zaruratini tug‘dirdi.

Shu bilan birgalikda faqat mutloq miqdor orqali xo‘jalik faoliyati haqida chuqur va batafsil xulosa qilish ham mumkin emas. Shu tufayli tahlil uchun mutloq miqdor bilan birgalikda nisbiy miqdorlardan ham

[6] Котлер Ф. Основы маркетинга. – Москва: Прогресс, 1993.

[7] Pardayev M.Q. Ochilov I.S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 172 b.;

keng foydalaniladi.

Muhokama. Nisbiy miqdorlar tahlil qilishda dastlabki va eng muhim xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Nisbiy miqdorlardan tahlilda foydalanishda asosan bo'lish va ko'paytirish usullari ishlatiladi. Bularning hajmini solishtirish va farqini aniqlash uchun ayirish amalidan foydalaniladi.

Nisbiy miqdor tahlil jarayonida asosan mutloq miqdorlarni bir-biriga bo'lish natijasida vujudga keladi va iqtisodiy jarayonlar haqida aniq ma'lumotlarni beradi. Masalan, biror ko'rsatkich bo'yicha rejaning bajarilishi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, me'yorga nisbatan erishilganlik darajasi kabilar[8].

Tahlil jarayonida nisbiy miqdorning nimani ifodalash mohiyatiga qarab, birqancha turlari qo'llaniladi:

- reja topshirig'i va bajarilishini ifodalovchi nisbiy miqdor;
- o'zgarish sur'atini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- tarkibni ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- me'yorga (standartga, o'rtachaga) nisbatan erishilgan darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- intensivlik darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor va h. k.

Mana shu keltirilgan har bir ko'rsatkich tahlil qiluvchi uchun ma'lum xulosaga kelishda real asos bo'lib xizmat qiladi. Tahlil jarayonida mutloq va nisbiy miqdorlar bilan birgalikda o'rtacha miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

O'rtacha miqdorlar tahlilda iqtisodiy xodisa va jarayonlardagi ma'lum qonuniyatlarni va umumiy yo'nalish tendensiyalarini aniqlashda qo'llaniladi. Bu miqdorni qo'llashning zarurligi shundaki iqtisodiy jarayonlar alohida ob'ektlar bo'yicha o'rganilganda vaqtinchalik tasoddiflar ta'sirida bo'lishi mumkin. Masalan, korxona chet mamalakat xom ashyosi asosida ishlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasida muvozanat usuli buxgalteriya hisobi, statistika, rejalashtirish kabi iqtisodiy ishlarda keng qo'llaniladi. Bu usul omillar bilan natija o'rtasida funksional bog'lanish bo'lganda omillar ta'sirini hisoblashda, xo'jalik faoliyatidagi muvozanatni saqlashda qo'llaniladi.

Qayta hisoblash usuli xizmat ko'rsatish korxonalari omilli tahlilida keng qo'llaniladi. Bu usul natijaga bitta yoki ikkita omil ta'sir qilgan paytlarda qo'llanilishi qulay. Uning mohiyati rejadagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinishidan iboratdir. Masalan, ko'rsatilgan xizmat hajmi(T) asosiy kapitalning o'rtacha qiymati (Ak) va shu kapitalning samaradorligi bilan funksional bog'liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$T = Ak * Ks$$

Bunda: Ks- Asosiy kapitalning samaradorligi.

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, natijaga ikkita omil ta'sir qiladi. Har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olinadi. Bu birinchi omilning haqiqiy miqdorini (Ak1) ikkinchi omilning rejadagi miqdori bilan ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi(Kso), ya'ni:

$$Tkx = Ak_1 * Ks_o$$

Omillarning Ko'rsatilgan xizmat hajmiga ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

1. Ko'rsatilgan xizmat hajmining asosiy kapitalining o'zgarishi evaziga o'zgarganligini (ΔTak) topish uchun ko'rsatilgan xizmat hajmining qayta hisoblangan miqdoridan (Tkx) uning rejadagi hajmini ayirish kifoya (To) :

$$\Delta Tak = Tkx - T_o = (Ak_1 * Ks_o) - (Ak_o * Ks_o)$$

2. Ko'rsatilgan xizmat hajmi o'zgarishiga asosiy kapital samaradorligining ta'sirini (Δ Tks) aniqlash uchun Ko'rsatilgan xizmat hajmining haqiqiy so'mmasidan (T1) uning qayta hisoblangan miqdorini (Tkx) ayirish kifoya :

$$\Delta Tks = T_1 * Tkx = (Ak_1 * Ks_1) - (Ak_1 * Ks_o)$$

Ikki omilning ta'siri ko'rsatilgan xizmat hajmi farqining umumiy so'mmasiga teng bo'lishi kerak :

$$\Delta T = \Delta Tak \pm \Delta Tks$$

Farqli usuli natijaga ta'sir etuvchi omillar soni uchta va undan ortiq bo'lgan taqdirda ham, agar ular o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalansa, qo'llanilishi mumkin. U holda natijaga birinchi omilning ta'sirini topish uchun uning farqini qolgan ikki omilning rejadagi miqdoriga ko'paytiriladi. Chiqqan natija birinchi omil ta'siri bo'lib hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda iqtisodiy jarayonlar ayniqsa ularni ma'lum raqamlarda ifodalash shunchalik murakkabki unda faqat bir xil o'lchovga ega bo'lgan ko'rsatkich bilan cheklanib bo'lmaydi. Shu tufayli uni tahlil qilishda bir qancha ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bularsiz tahlil qilish, umuman ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga baho berish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish qiyin. Iqtsidoy tahlillar korxonadagi mavjud resurlardan samarali foydalanish hamda raqobatbardoshlik darajasini oshirishda, umuman olganda korxona faoliyatini kelajakda yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri baholash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda taqqoslama tahlil hamda omilli tahlilning o'rni beqiyosdir. Taqqoslama tahlil yordamida asosiy ko'rsatkichlarning o'tgan davrlarga nisbatan o'zgarishi aniqlanadi, omilli tahlil esa ushbu o'zgarishlarning sabablarini omillar kesimida chuqur o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida ayniqsa mutloq, nisbiy, o'rtacha miqdorlar va muvozanat usuli kabi an'anaviy iqtisodiy tahlil usullarini qo'llash korxonalarning ichki imkoniyatlarini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish va xizmat hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qayta hisoblash usuli ikki omilli modellarda ko'rsatilgan xizmat hajmine ta'sir etuvchi omillar (asosiy kapital va uning samaradorligi) bo'yicha aniq xulosa chiqarish imkonini beradi. Umuman olganda, omilli tahlil korxonalar faoliyatini tizimli baholash, iqtisodiy jarayonlar murakkabligini tushunish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda asosiy analitik vositalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muhammedov M.M. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. – Samarqand, 2007.
2. Pardayev M.Q. Ochilov I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 172 b.
3. Abulqosimov X. va boshqalar. Erkin iqtisodiyot tamoyillari. – Toshkent: Akademiya, 2005. – 52 b.
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. – Москва: Прогресс, 1993.
5. Волгин А.П. Управление персоналом. Теория и практика. – Москва. Проспект, 2011. – 688 с.
6. Ochilov I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Iqtis. fan. nomz. … diss. aftoref. – SamISI, 2010.
7. Mirzayev Q.J., Sharipov T.S., Sultonov Sh.A., Mustafoyev G'.S., Fayziyev E.S. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. – Toshkent, 2022.

[8] Волгин А.П. Управление персоналом. Теория и практика. – Москва. Проспект, 2011. – 688 с.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

MATEMATIKA FANIDA ADAPTIV TEST TIZIMLARI

Ma’rifatxon Abdullayeva
Qo‘qon davlat universiteti
Aniq fanlar va muhandislik fakulteti o‘qituvchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 19
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1304

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Xalqaro baholash, PIZA, SAT, adaptive test, matematikada baholash tizimlari.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida matematikadan xalqaro baholash tizimlari fanini chuqur o‘rganish va amaliy ahamiyatini keng miqyosda joriy etish maqsadida tahlil qilingan. Ushbu maqolada matematika ta’limida adaptiv test tizimlarining nazariy asoslari, tuzilishi va amaliy ahamiyati yoritiladi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga chuqur kirib borishi natijasida o‘quvchilarning bilim darajasini aniq, tez va individual baholashga bo‘lgan ehtiyoj kuchaymoqda. An’anaviy testlar ko‘pincha baholashning ishonchliligini ta’minlay olmasa, adaptiv testlar o‘quvchining javobiga qarab topshiriq murakkabligini avtomatik ravishda moslashtiradi va shu orqali bilim darajasini aniq o‘lchash imkonini beradi. Maqolada Item Response Theory (IRT), Computerized Adaptive Testing (CAT) algoritmlari hamda ular klassik test nazariyasi (CTT) bilan taqqoslanadi. Shuningdek, F. Lord, G. Rasch, Wainer, Mislevy, van der Linden kabi xorijiy olimlar hamda B.S. Blum, S. Deakin, R.K. Woodlardlarning matematik adaptiv baholash bo‘yicha ilmiy ishlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston tajribasi, xususan Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Milliy baholash markazi tashabbuslari ham yoritiladi. Tadqiqotda matematika fanida adaptiv testlardan foydalanishning afzalliklari – diagnostik aniqlikning oshishi, topshiriqlarni moslashtirish orqali o‘quvchining ortiqcha ruhiy yuklanishini kamaytirish, baholash vaqtining optimallashuvi hamda o‘quvchilarning qobiliyat darajalarini farqlash imkoniyati – asoslab beriladi. Adaptiv test topshiriqlarini tuzish prinsiplari, murakkablik darajalari bo‘yicha tasniflash va algoritmlarning ishlash jarayoni batafsil tushuntiriladi.

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgani sababli baholash tizimlarining samaradorligini oshirish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. An’anaviy testlar o‘quvchilar bilimini to‘liq va aniq baholashga doimo imkon bermaydi. Shu bois adaptiv test tizimlari (Adaptive Testing Systems) jahon miqyosida keng tadqiq qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Adaptiv testlar o‘quvchining bilim darajasiga mos ravishda savollar murakkabligini avtomatik ravishda belgilash imkonini beradi. Matematika fani murakkablik darajalari aniq tasniflangan, bosqichma-bosqich fikrlashni talab qiladigan bo‘lgani uchun adaptiv test texnologiyalari aynan ushbu fan uchun juda qulaydir.

Adabiyotlar tahlili. Adaptiv test tizimlari bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlar XX asrning o‘rtalaridan boshlab rivojlanib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlarda, avvalo, baholashning an’anaviy yondashuvlari bilan adaptiv tizimlar orasidagi farqlar, o‘lchashning matematik asoslari va algoritmlari chuqur tahlil qilingan. Adaptiv test texnologiyalarining shakllanishi, birinchi navbatda, Frederic Lord, Georg Rasch singari olimlar tomonidan yaratilgan IRT nazariyasiga tayangan. F. Lord o‘quvchining yashirin (latent) mahorati va savol murakkabligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni matematik modellar yordamida aniqlash bo‘yicha yirik ilmiy maktab yaratgan[1]. G. Raschning logistik modeli test topshiriqlarining diskriminativ imkoniyatini matematik jihatdan baholashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar adaptiv testlar uchun mustahkam nazariy asos yaratib, kompyuterlashtirilgan baholash tizimlarining shakllanishiga turtki bo‘lgan. XX asrning 80–90-yillaridan boshlab Wainer, Mislevy, van der Linden va ETS (Educational Testing Service) olimlari CAT algoritmlarini amaliy qo‘llashni kengaytirdi. Ular adaptiv testning asosiy jarayonlarini – boshlang‘ich savol tanlash, keyingi savollarni moslashtirish, testni tugatish shartlari hamda aniqlik ko‘rsatkichlarini – optimallashtirish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib bordilar. GRE, TOEFL kabi yirik xalqaro imtihonlarning adaptiv formatga o‘tishi aynan shu olimlar ishlari natijasidir. 1960-yillarda matematika ta’limini baholashga algoritmik yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha B.S. Blum, S. Deakin va R.K. Vudlard tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda baholashning aniqligini oshirish, savollarni qat’iy mezonlar asosida murakkablashtirish hamda o‘quvchi individual imkoniyatini hisobga olish kabi masalalar ilgari surilgan. R.K. Vudlardning “Algorithms and Mathematics” asari mazkur yo‘nalishda dastlabki konseptual asoslaridan biri sifatida tan olingan. So‘nggi o‘n yilliklarda chop etilgan ilmiy maqolalar va monografiyalarda adaptiv testlarning afzalliklari keng yoritilgan. Jumladan, xorijiy tadqiqotchilar (Pearson, College Board) matematika faniga xos bo‘lgan ko‘p bosqichli fikrlash, mantiqiy tahlil va grafik asosli topshiriqlarga moslashtirilgan adaptiv modullarni ishlab chiqqan[2]. Ularning ishlarida savollar informativligi, diskriminativ ko‘rsatkichlari va test samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. O‘zbekiston olimlari tomonidan ham adaptiv baholash bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. M.B.Kamoliddinov matematika bo‘yicha adaptiv metodikalar ishlab chiqish, ularni elektron platformalarda qo‘llash va IRT parametrlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. A.A.Ismailov, N.A.Karimovlar xalqaro baholash tizimlari (PISA, TIMSS) talablari asosida o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash usullarini tadqiq etgan[3]. Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Milliy baholash markazi adaptiv elementlarga ega test formatlarini yaratish bo‘yicha amaliy loyihalarni boshlagan. Shu jarayonda mahalliy ilmiy adabiyotlarda test topshiriqlarining parametrik bankini yaratish, elektron platformalarni ishlab chiqish va algoritmlarini milliy sharoitga moslashtirish masalalari yoritilmoqda.

Metodologiya. Matematika bo‘yicha xalqaro baholash (PISA, TIMSS) talablarining oshishi natijasida baholashning aniq, tezkor va individual yondashuvga ega shakllarga ehtiyoj kuchaydi. Raqamli ta’lim platformalari (Moodle, Coursera, Khan Academy va boshqalar) adaptiv test modullarini joriy qilayotgani jarayonni zamonaviylashtirishni talab qilmoqda. O‘quvchi bilimini differensial baholash — O‘zbekiston ta’lim tizimi takomillashtirish strategiyasida muhim yo‘nalishlardan biridir.

Tadqiqot natijalari. Matematika fanida o‘quvchilar bilim darajasi keskin farq qilgani uchun individual tezlikda baholovchi tizimlar ta’lim sifatini oshiradi. Shu sababli matematika fanida adaptiv test tizimlarini qo‘llash bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham juda dolzarbdir.

Adaptiv test tizimlari asosini quyidagi metodlar tashkil etadi:

1. Item Response Theory (IRT). IRT modeli o‘quvchi mahorati va test topshirig‘ining murakkabligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni matematik formula orqali ifodalaydi. Ushbu model yordamida:savollarning qiyinlik darajasi aniqlanadi, o‘quvchi javoblari asosida avtomatik ravishda navbatdagi savol tanlanadi.

[1] Steiner R. Spiritual guidance of man and humanity: Spiritual and scientific consideration of the development of humanity / R. Steiner. - Kaluga: Spiritual knowledge, 1992. - 72 p.
[2] Shute, V.,J. Rahimi, S. (2017). The Power of Adaptive Learning in Mathematics. Educational Psychology Rewiew, 29(3), 447-476.
[3] Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo‘lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o‘qitish nazariyasi. Xalq ta’limi. 2021, №5, 75-81 b.

2. Kompyuterlashtirilgan adaptiv test (CAT). CAT algoritmlari quyidagi bosqichlarda ishlaydi:

1. Boshlang‘ich savol – o‘rtacha murakkablikdagi savol beriladi.

2. Talaba javobiga qarab keyingi savol murakkab yoki yengil tanlanadi.

3. Test davomida o‘quvchi mahorati aniq chegaraga yaqinlashadi.

4. Test belgilangan aniqlik darajasiga yetganda tugaydi.

3. Klassik testlar nazariyasi (CTT) bilan solishtirish. An’anaviy testda barcha o‘quvchilarga bir xil savollar beriladi. Adaptiv testda esa: vaqt tejaladi, stress kamayadi, baholash aniqligi oshadi, o‘quvchi individual imkoniyati inobatga olinadi.

Bu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlar va tashkilotlar jahon tajribasiga nazar solsak:

FREDERIC LORD	**IRT METODINING ASOSCHILARIDAN BIRI.**
GEORG RASCH	Rasch modeli bilan adaptiv testlarning matematik bazasini yaratgan.
WAINER, MISLEVY, VAN DER LINDEN	CAT algoritmlarining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan. ETS (Educational Testing Service) GRE, TOEFL kabi yirik adaptiv imtihonlarni yaratgan.
PEARSON, COLLEGE BOARD	matematika faniga moslashtirilgan adaptiv baholash tizimlarini qo‘llagan.

Muhokama. Matematika bo'yicha xalqaro baholashning dastlabki algoritmlari ustida izlanish olib borgan olimlar B. S.Blum,S. Deakinva R. K. Vudlard hisoblanadi. Bu olimlar 1960-yillarda matematika ta'limini baholash va o'qitishni yaxshilash uchun dastlabki algoritmik yondashuvlarni ishlab chiqqanlar [4]. Ularning ishlari keyingi xalqaro baholash tizimlarining rivojlanishiga zamin yaratdi.

B.S.Blum: Matematika ta'limini algoritmik baholash bo'yicha dastlabki yirik tadqiqotchilardan biri. U o'quvchilarni baholashda aniq va o'lchash vositalaridan foydalanish g'oyasini ilgari surgan.

R. K. Vudlard: Xalqaro miqyosda matematika ta'limini baholash uchun algoritmik tizimlar yaratishda uning ishlari muhim ahamiyat kasb etgan. U o'quvchilarni baholash uchun dastlabki dasturiy ta'minot va usullarni ishlab chiqqanlar.

R.K.Vudlard o'zining “ Algoritmlar va matematika”(Algorithms and Mathematics) kabi asarlarida matematika ta'limini baholashda algoritmlarni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rgangan.

O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimidagi elektron baholash loyihalari – Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zMU, TATU olimlari tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Matematika bo‘yicha adaptiv baholashning dastlabki algoritmlari ustida bir qator magistr va PhD tadqiqotlari olib borilgan. Jumladan: M.B. Kamoliddinov Adaptiv matematika metodikalari xaqida o‘z maqolalarida batafsil yoritgan bo‘lsa, A.A Ismailov, N.A.Karimovlar Xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash bo‘yicha izlanish olib borganlar.

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Milliy baholash markazi PISA va TIMSS doirasida adaptiv elementlarga ega testlarni joriy etish bo‘yicha izlanish olib bormoqda[5].

O‘quvchi bilim darajasini aniq aniqlaydi. Kuchsiz o‘quvchi ortiqcha murakkab savollardan qiynalib qolmaydi. Kuchli o‘quvchi uchun keraksiz yengil savollar berilib vaqt sarflanmaydi. Murakkablik spektri bo‘yicha optimallashtirilgan baho shakllanadi. Psixologik bosim pasayadi. O‘qituvchi uchun diagnostika jarayoni osonlashadi.

Savollarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish. Har bir savol uchun IRT parametrlari (b - murakkablik, a - diskriminatsiya, c - taxmin qilish ehtimoli)ni belgilash. Har bir bo‘lim (algebra, geometriya, analiz, ehtimollar nazariyasi) uchun adaptiv modul yaratish. Formulaga asoslangan, aqliy operatsiyani talab qiladigan savollarni informativeness yuqori bo‘lgan variantlar sifatida tanlash.

Adaptiv testda matematika topshiriqlari turlari.

Oddiy hisoblash savollari – yengil daraja.

Mantiqiy bog‘lanishga ega topshiriqlar – o‘rta daraja.

Noto‘g‘ri yechimni aniqlash (error detection) – murakkab daraja.

Model yaratish talab qiladigan masalalar – yuqori murakkablik.Grafik, funksiyalar tahlili – informativeness yuqori bo‘lgan topshiriqlar.

Matematik adaptiv testlar algoritmi misoli

1. Dastlabki savol — algebra bo‘yicha o‘rtacha murakkablikdagi topshiriq.

2. To‘g‘ri javob → dastur murakkablikni +1 darajaga oshiradi.

3. Noto‘g‘ri javob → yengilroq savol tanlanadi.

4. Har bir javobdan so‘ng o‘quvchi bilim darajasi θ qayta hisoblanadi.

5. O‘zgarish stabil bo‘lganda test tugaydi.

6. Yakuniy baho 1–100 shkala asosida hisoblanadi.

Test markazlari uchun yagona elektron platforma yaratish. Matematika bo‘yicha 10 000+ parametrik savollar banki shakllantirish. O‘quvchilar uchun mobil ilova ko‘rinishida adaptiv testlar yaratish. O‘qituvchilar uchun analitik hisobotlar tizimini yo‘lga qo‘yish. Dasturiy yechimlarni Python, R, Java yordamida ishlab chiqish.

Xulosa va tavsiyalar. Matematika fanida adaptiv test tizimlarini yaratish va joriy etish ta’lim jarayonini sifatli, adolatli va individual yondashuvga asoslangan shaklga o‘tkazadi. IRT va CAT asosida tuzilgan adaptiv testlar qisqa vaqt ichida maksimal diagnostik natija beradi. Ushbu texnologiya:o‘quvchi bilimini aniq baholaydi, vaqtni tejaydi, zamonaviy raqamli ta’lim talablariga javob beradi, o‘qituvchi ishini yengillashtiradi, xalqaro baholash mezonlari bilan mos keladi.

Shu bois matematika ta’limi bo‘yicha adaptiv test tizimlarini ishlab chiqish O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo‘lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o‘qitish nazariyasi. Xalq ta’limi. 2021, №5, 75-81 b.

2. Steiner R. Spiritual guidance of man and humanity: Spiritual and scientific consideration of the development of humanity / R. Steiner. - Kaluga: Spiritual knowledge, 1992. - 72 p.

3. Kulikovich, J.M., Young, M.F. (2019). Adaptiv Learning in mathematics Education.

4. Shute, V,J. Rahimi, S. (2017). The Power of Adaptive Learning in Mathematics. Educational Psychology Rewiew, 29(3), 447-476.

[4] Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo‘lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o‘qitish nazariyasi. Xalq ta’limi. 2021, №5, 75-81 b.

[5] Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo‘lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o‘qitish nazariyasi. Xalq ta’limi. 2021, №5, 75-81 b.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

SO‘Z – TILNING MARKAZIY BIRLIGI

Qodirov Ziyoidin Mamadaliyevich
Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: z.qodirov1961@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 20
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1304

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

semasiologiya, onomasiologiya, denotat, konnotat, pragmatizm, dublet, enantiosemiya, yaxlit birlik, chegara sema.

ANNOTATSIYA

Maqolada tilning eng markaziy va irratsional birligi hisoblangan so‘z, so‘zning semantik strukturasi o‘rganilgan. So‘zning til-invariant va nutq-variant hodisasi sifatida lingvopoetik, lingvokulturologik, lingvopragmatik, lingvopsixik aspektlarda diaxron, sinxron reallashuvi ko‘rib chiqilgan. So‘zning shakl, ma’no va funksiya xususiyati, ularning o‘zaro teng qimmat asosida bir-birini taqozo va inkor qilishi, so‘zning markaziy va periferik ma’nolari tavtologik tahlil qilingan. Shuningdek, so‘zning til tizimidagi markaziy o‘rni, uning mazmuniy va struktur xususiyatlari lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. So‘zning tilning asosiy birliklari — fonema, morfema, gap va matn bilan o‘zaro munosabati ochib berilib, uning nomlash, ifodalash va kommunikativ vazifalari ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada turli lingvistik maktablarning so‘z tabiatiga oid qarashlari tahlil qilinib, til tizimida so‘zning markaziy birlik sifatida shakllanishi va til taraqqiyotidagi o‘rni bo‘yicha xulosalar ishlab chiqiladi.

Kirish. “Tilshunoslik fani fan sifatida qachon paydo bo‘lgan?” degan savolga aniq javob berish qiyin bo‘lsa-da, mutaxassislar tilshunoslikning dastlabki ildizlari to‘rt ming yillar oldin paydo bo‘lgani haqida umumiy fikrdalar. Tilshunoslik fanining mustaqil fan sifatidagi shakllanishi masalasiga kelsak. Ma’lumki, eng qadimgi yozma manbalar eramizdan avvalgi X asrlardan boshlab uchraydi va bu manbalarning asosi unga hind tilshunosi Panini tomonidan V–IV asrlarda qo‘yilgan tamal toshi – “Panini grammatikasi” ekanligi hech kimga sir emas. Tilshunoslikning ibtidosidan to hozirigacha so‘z tilning eng qadimiy va markaziy, eng munozarali va ratsional masalasi bo‘lib, ayni paytda so‘z ham til birligi, ham nutq birligi ekanligi uning boshqa til birliklariga nisbatan mohiyat-mundarijasining kengligi bilan izohlanadi. So‘z, so‘zning mazmuniy mohiyati, mazmuniy mundarijasini ochish Aristotel “Poetika”sidan boshlab hozirgi zamon tilshunoslarining qarashlarida ham bardavom bo‘lmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida so‘z ma’nosi va uning tadqiqi qadimiy davrlardan buyon – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamahshariy, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizning diqqat markazida bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili. XX asrning boshlariga kelib qator fanlarda – matematika, fizika, kimyo, biologiya, psixologiya va tilshunoslikda muayyan fan strukturasi (tuzilishi)ni va ushbu strukturani tashkil qilgan elementlarni o‘rganish boshlandi. Struktura o‘zaro bog‘langan va o‘zaro bir-birini taqozo va inkor qiluvchi birliklar majmuyidir. Aniq fanlardagi bu yo‘nalish tilshunoslikda sistem-struktur tilshunoslik nomini oldii. Bu yo‘nalish jahonning qator mamlakatlarida o‘zining iste’dodli vakillarini yetishtirdi: Shveytsariyada Ferdinand de Sossyur, Chexiya (Praga)da rus olimi N.S.Trubetskoy, Kopengagenda Lui Yelmslev, AQShda E.Sepir, L.Blumfild, keyinroq S.Xarris va boshqalar[1]. Sistem-struktur tilshunoslik o‘zbek tilshunosligining tarkibiy qismi va mustaqil bir yo‘nalishi sifatida XX asr o‘rtalarida shakllandi[2].

Metodologiya. Obyektiv olam elementlari shakl va ma’no yaxlitligidan iborat bo‘lib, ularning so‘z vositasida inson ongiga ko‘chishi induksiya metodi asosidagi empirik tahlil, kuzatish va eksperementga tayanadi va shu asosdagi sababiyat va natija qonunlariga bo‘yinsunadi. Mazkur maqolada tilning(ayni paytda, nutqning) markazi birligi bo‘lgan so‘zning shakl va ma’no munosabati simmetriyasi va asimmetriyasi tahlilga tortildi. So‘zning shakl va ma’no dialektik birligi so‘zning funksional xususiyatini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari. So‘z o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, obyektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma’no va funksiyalarda qo‘llanadigan eng kichik asosiy til (nutq) birligi hisoblanadi. So‘z tovush tomoni bilan fonetikaning, leksik birlik (leksema) sifatida leksikologiyaning, turli grammatik ma’nolarni ifodalashi va shu ma’nolarni ifodalovchi formalarga egaligi bilan morfologiyaning, so‘z birikmasi va gap qurilishiga material-asos bo‘lib xizmat qilishi bilan sintaksisning o‘rganish obyekti bo‘la oladi. “Leksik so‘z, semantik so‘z, morfologik so‘z”[3].

So‘z va leksema atamalari ko‘p hollarda aralash holda qo‘llanadi. Lekin ular o‘zaro bir-biridan farq qiladi. Leksema semema va nomemalarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanalib, ularning mazmuniy mundarijasi atash, ifoda va vazifaviy sememalar munosabatidan iborat bo‘ladi. Har qanday leksemada bu semalardan “atash” semasi, albatta, ishtirok etadi. Shuning uchun bu sema leksemaning markaziy semasi, qolgan semalar esa chegara semalar hisoblanadi.

So‘z atamasi leksemalardan boshqa birliklarni ham, ya’ni atash semasiga ega bo‘lmagan birliklarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, *ammo, uchun, kabi, bilan* va boshqalar so‘z, biroq ular leksema emas. Chunki ular faqat grammatik ma’noga ega, ularda atash semasi mavjud emas. Demak, so‘z grammatik ma’noga ega bo‘lgan leksemalarni va yordamchi, undov, modal nomlari bilan yuritiluvchi birliklarni o‘z ichiga oladi[4].

Muhokama. Obyektiv borliqdagi mavjud, nomavjud narsa, voqea, hodisa, mohiyat ifodasi asosiga qurilgan, ular haqidagi mavhum tushunchani ifodalovchi tovush yoki tovushlar majmui – fonetik butunlik so‘z deyiladi.

So‘z obyektiv borliqdagi narsa, voqeani atash ifodasiga ko‘ra leksik sath birligi, obyektiv borliqdagi narsa, voqeaning grammatik ma’no ifodasiga ko‘ra morfologik yoki sintaktik sath birligi hisoblanadi. Masalan, *kitob* so‘zining o‘quv қуроли эканлиги, o‘qiladigan нарсани ифодалаши uning leksik sath birligi эканлигини ko‘rsatadi, uning ot, sodda, birlik, bosh kelishik ekanligi, ya’ni grammatik (morfologik) ma’no ifodalashi morfologik sath birligi эканлигини кўрсатади, gapda biror gap bo‘lagi vazifasini bajarishiga ko‘ra sintaktik sath birligi ekanligidan dalolat beradi.

So‘zdagi grammatik ma’no shakliy ko‘rsatkichlar yordamida ifodalanadi. Leksik ma’no (narsa, voqea) inson ongidagi bevosita yoki bilvosita in’ikos hisoblanib, insonning umumiy bilim fondi, biluv imkoniyati, mentaliteti, madaniyati, tafakkur ko‘lami bilan bog‘liq bo‘ladi. Shakliy jihatdan ham, moddiy jihatdan ham so‘zning umumiy ma’nosi shaxsiy tafakkur mahsuli bo‘lib, haqiqatan, tilda mavjud bo‘lishi mumkin emas[5]. “So‘zning umumiy ma’nosi” masalasi juda ko‘p tortishuv va munozaralarga sabab bo‘ldi va bo‘lmoqda. So‘zning umumiy ma’nosi denotativ, konnotativ va pragmativ ma’noga bo‘linadi. Denotativ ma’no obyektiv borliqning inson ongidagi bevosita va birlamchi in’ikosi hisoblanadi.

[1] Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – б. 5.
[2] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик, 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – б. 142.
[3] Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – б. 81.
[4] Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – б. 66.
[5] Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. В 4 т. Т. I–II. – Москва: Просвещение, 1958. – с. 43.





Obyektiv borliq (insonni qurshab turgan olam) muayyan belgilar (so‘zlar) yordamida inson ongida in’ikos etadi. Agar inson ongida shu belgining izi (kodi) bo‘lmasa, u in’ikos etolmaydi. Masalan, so‘zlovchi *mo‘miq* deb aytsa, akustik obraz orqali (talaffuz) tinglovchi ongiga (signifikat) yetib bordi, lekin tinglovchi ongida *mo‘miq* haqida tasavvur yo‘q, shuning uchun uni predmetga – obyektiv borliqqa qaytara olmaydi, chunki uning ongida “mo‘miq” belgisining izi (kodi) yo‘q (aslida, *mo‘miq* don mahsulotlarini yanchish uchun qilingan xirmonning o‘rtasiga qoqiladigan katta qoziq bo‘lib, unga ot, eshak, ho‘kiz bog‘langan, ularni mo‘miq atrofida doira shaklida aylantirib, donni yanchib, poyasidan ajratganlar). Shuning uchun ham A.Potebnya aytadiki, so‘zlovchi tinglovchida o‘zining (so‘zlovchining) fikrini emas, tinglovchining ongida mavjud o‘z fikrini uyg‘otadi. Ya’ni, so‘zlovchi “lola” desa, tinglovchi so‘zlovchining lolasini emas, o‘zining lolasini tushunadi. Albatta, millat tafakkuriga xos umumiylik mavjud bo‘ladi, so‘zlovchi va tinglovchi bir millatga mansub bo‘lsa, bir millat (masalan, o‘zbek) tafakkuridagi lola tushuniladi. O‘zbek taqakkuridagi o‘zbek “shayton”i rus tafakkuridagi rus “shayton”i (dyavol)dan farq qiladi.

Denotativ ma’no har qanday emotsional-ekspressivlikdan, ijobiy va salbiylikdan, so‘zlovchining subyektiv munosabatidan holi, mo‘tadil munosabatni ifodalavdi.

Konnotativ ma’no esa “ustama” ma’no bo‘lib, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘ladi, emotsional-ekspressiv bo‘yoq ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Konnotativ ma’no denotativ ma’noning ustiga qo‘yiladi, so‘zlovchining o‘zi bildirayotgan fikriga subyektiv munosabatini ifodalab, uning keyingi bosqichi hisoblanadi.

Qosh, ko‘z, burun, og‘iz joylashgan tanamiz qismining nomi yoki boshning oldi qismi yohud o‘ng quloqdan chap quloqqacha, soch chiqqan joydan iyakkacha bo‘lgan joyning nomi *yuz* deyiladi – bu ma’no denotat, mazkur denotatning sinonimik shakllari – *chehra, jamol, oraz*... yoki *turq, bashara, shixt*... kabi shakllar konnotat shakllar hisoblanadi, so‘zlovchi muayyan nutqiy vaziyat uchun munosibini tanlaydi. *Yuz* so‘zi sinonimik paradigmaning denotat ma’nosi hisoblanadi, u emotsional-ekspressivlikdan butunlay xoli bo‘ladi. Konnotativ ma’noni ifodalovchi so‘zlarda ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdorlik mavjud bo‘ladi.

Pragmat ma’no ijtimoiy, amaliy ma’no hisoblanib, asrlar davomida qo‘llanib kelinayotgan denotat yoki konnotat to‘ldira olmayotgan bo‘sh o‘rinlarni, o‘zi qoniqmayotgan jihatlarni qondirish uchun millat tomonidan o‘ylab topilgan amaliy ma’no bo‘lib, shu millatning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, geografik-areal, diniy-etnografik, tarixiy-adabiy, psixologik-ruhiy va boshqa jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Yuz belgisining *istara, farishta(li), azroil (tuki bor), zaxil* shakllari yuzning pragmat ma’nosi hisoblanadi. Muayyan bir belgining bir millatdagi pragmatik shakli boshqa millatda bo‘lmasligi yoki boshqa muqobil variantda qabul qilingan bo‘lishi mumkin. Pragmat ma’noni ifodalovchi shakllar tildan tilga tarjima qilinmaydi, millatning o‘zigagina xos, denotat va konnotat ma’nosi topilgan davrdan keyingi davr amaliy ma’nosi hisoblanadi.

Masalan, Sibir xalqlarining *qor* bilan bog‘liq bo‘lgan pragmatik tushunchasi arab xalqlarida, arab xalqlarining *tuya* yoki sahroliklar bilan bog‘liq pragmatik tushunchasi Sibir xalqlarida, yapon, xitoy xalqlarining ilon, ajdarho (suv hayvonlari) bilan bog‘liq pragmatik tushunchasi, bizning “paxta – milliy iftixorimiz” pragmatik tushunchasi boshqa millatlarda bo‘lmasligi mumkin. Demak, pragmatik ma’no muayyan bir tilda mavjud barcha so‘zlarda ham bo‘lmasligi mumkin.

Professor N.Mahmudov “til insonga odamni, olamni, Allohni anglash uchun Alloh tomonidan berilgan”ini dadil aytadi. Til so‘z vositasida namoyon bo‘ladi. Insonning so‘zni egallashi, undan foydalanishi uning o‘zini qurshab turgan olamni, o‘zi mansub jamiyatni bilish imkoniyatini ta’minlaydi. Insoniyat hayot tarzining soddadan murakkablashuvi, dastlabki sodda hayot tarzi (narsa-buyumlarning ozligi)ning rivojlanishi, hech shubhasiz, yangi so‘zlar bilan xulosalanadi. So‘zlarning paydo bo‘lishi esa shakl va ma’no dialektikasining yaxlitligidan iborat bo‘ladi. Shaklsiz ma’no bo‘lmaganidek, ma’nosiz shaklning bo‘lmasligi tabiiy. Shakl va ma’noning dialektik yaxlitligi muayyan funksiya – nominativ, kommunikativ yoki ekspressivlikga xoslanadi. Ushbu uch birlikning muayyan nutqiy vaziyat taqozosidagi muhim va nomuhimlik darajasi (gradatsiyasi) turlicha bo‘lishi mumkin. Bir nutqiy vaziyatda ma’no birlamchi, shakl va funksiya ikkilamchi, bir nutqiy vaziyatda funksiya birlamchi, ma’no va shakl ikkilamchi yoki aksincha bo‘lishi mumkin. *Yangi* so‘zining sutga nisbatan semantik valentligida *vaqt* (sutning sog‘ilgan payti) ma’nosi, ya’ni ijtimoiy ma’no – funksiya birlamchi, *yangi ko‘ylak* (*yangi ko‘ylagim bor*) valentligida kiyilmaganlik (ishlanmaganlik) ma’nosi birlamchi, *yaxshi gap, yaxshi gapirdi* valentligida shakl birlamchi, *yaxshi* (*yaxshi gap*) – sifat, oddiy daraja, aniqlovchi, sifatlovchi, bitishuv, yaxshi (*yaxshi gapirdi*) – ravish, hol, tarz, bitishuv. *Anvar ariqdan sakradi – Anvar quvurdan sakradi*, qayerdan sakradi, nimadan sakradi? Qayerdan sakradi – hol, nimadan sakradi – to‘ldiruvchi. *Ariq* so‘zida makon ma’nosi kuchli (qayer), *quvur* so‘zida narsalik ma’nosi kuchli (nima). *Qarg‘a devorda turibdi* – qarg‘a qayerda turibdi

Shakl + ma’no= q funksiya

1-ko‘rgazma *2-ko‘rgazma* *3-ko‘rgazma*

Bir shakl bir ma’noni taqozo qiladi, albatta, bu aksariyat hollarda insoniyat hayotining sodda turmush tarzi davriga ko‘proq mos keladi va bu masala tilshunoslik tarixida juda ko‘p tortishuv va bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan[6].

Dunyo tamaddunining rivojlanishi tilning barcha sath birliklarida, jumladan, leksik sathida ham emotsional o‘zgarishlarni taqozo qildi. Qadimgi yunon va Rim tilshunosligidagi so‘zning dastlabki shakl va ma’no dialektik yaxlitligining asimmetriyasi buzilishi – sh(shakl) + m(ma’no); sh + m; sh < m; sh > m; sh ≠ sh; m ± m – jarayoni qadim davrlandan boshlab tilshunoslar diqqat markazida bo‘lgan va har bir davr ushbu til hodisasiga o‘z munosabatini bildirgan

O‘zbek tilshunosligida so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rganishda Y.D.Pinxasov, F.Kamol, A.Hojiyev, M.Mirtojiyev, B.Isabekov, E.Begmatov, Sh.Rahmatullayev, R.Shukurov, H.Ne’matov, R.Safarova va boshqa qator tilshunoslar jiddiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Leksik ma’noning birlamchi tomoni mazmuniy aspekt, ikkinchi tomoni struktur-funksional aspekt sanaladi. Leksik ma’noning birlamchi tomoni mazmuniy aspekt, ikkinchi tomoni struktur-funksional aspekt sanaladi. Mazmuniy aspekt olamni aks ettirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi aspekt leksemaning sistema ichidagi munosabatini o‘z ichiga oladi. Ayrim mualliflar leksemadagi shakl va mazmun birligini e’tiborga olgan holda shakl tomoni uchun nomema, mazmun tomoni uchun semema atamalarini qo‘llaydilar[7].

O.Yespersen “So‘zning mazmuniy mundarijasi” tahlilida shakl birlamchi aspekt qilib olinishi onomosiologik metod, ma’no birlamchi qilib olinishi semasiologik metod ekanligini, onomosiologik metod *sh – m* ga, semasiologik metod *m – sh* ga borishini ta’kidlaydi[8].

Tildagi so‘zlar shakl va ma’no dialektikasiga ko‘ra sinonimlar, omonimlar, antonimlar, paronimlar, variant, dublet so‘zlarga ajraladi.

O‘zbek tili sinonimlari haqidagi qarashlar o‘ziga xos tarix va tadrijga ega. Mazkur soha mutaxassislarining fikrlarini umumlashtirib, quyidagi fikrga kelish mumkin: bir umumiy ma’noga birlashuvchi, ma’no nozikligi bilan farqlanuvchi so‘zlar sinonimlar deyiladi.

Kulmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq, iljaymoq, tirjaymoq – xursandchilikni ifodalovchi bir umumiy ma’no ostida hamda *yig‘lamoq, ingramoq, sixtamoq, bo‘kirmoq, dodlamoq* – xafachilikni ifodalovchi bir umumiy ma’no ostida birlashuvchi ma’nodosh so‘zlar guruhi bo‘lib, o‘zaro ma’no nozikligi, ma’no jilosi bilan farqlanadi. Guruhning markaziy elementi bosh so‘z – dominant bo‘lib, u emotsional-ekspressiv bo‘yoqdan xoli, neytral yoki mo‘tadil so‘z hisoblanadi.



Sinonimik guruhdagi so‘z emotsional-ekspressiv belgisiga ko‘ra ikkiga – ijobiy va salbiy emotsional-ekspressiv qatorga bo‘linadi.

Nutqiy vaziyat egalari – so‘zlovchi va tinglovchi, asosan, so‘zlovchi tomonidan nutqiy vaziyat maqsadi uchun mos emotsional-ekspressivligi ijobiy yoki salbiy bo‘lgan so‘z tanlanadi va nutqiy maqsad amalga oshiriladi.

So‘zning emotsional-ekspressivlik darajasi so‘zlovchining layoqatiga bog‘liq bo‘ladi. Emotsional-ekspressivlikni, asosan, sinonimlar, ma’nodoshlar (polisemiya), variantlar, dubletlar ishtirokida fonetik (tovushlarning cho‘zilishi, qisqarishi, juftlashishi, almashinuvi), leksik (so‘z tanlash), morfemik (qo‘shimcha variantlarini, qo‘shimchalar bilan yordamchi so‘zlarni almashtirish), sintaktik (gap bo‘laklarining o‘rnini almashtirish) usullarda amalga oshiriladi.

Emotsional-ekspressiv sinonimlar, asl mohiyatan, leksik sinonimlar, grammatik (morfologik, sintaktik) va situatsion (muayyan nutqiy vaziyatdagi) sinonimlar yordamida amalga oshiriladi. Leksik sinonimlar: *yuz, bet, aft, bashara yoki chol, qariya, keksa, oqsoqol;* fonetik sinonimlar: *dedi – deydi (ye-yei), tamosho – tomosha (o-a), ikki – ekki (i-e);* morfemik sinonimlar: *beaql – noaql (be-, no-), beaql – aqlsiz (be-, -siz), puldor – serpul (-dor, -ser)* va boshqalar.

Ekspressiv javoblar, birinchi navbatda, mimik ifodalar yordamida muayyan maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Mimik ifoda vositalari biologik (lab burish, qosh uchirish) yoki individual (muayyan individ odati) turlicha bo‘lishi mumkin. Mimikalar yordamida emotsiyaning ifodalanishi biologik jarayon hisoblanib, so‘zlovchining yoki tinglovchining xarakterini, ifodalanayotgan fikrga u yoki bu jihatdan munosabati (g‘azab, nafrat, qo‘rquv, shodlik, hayrat va h.)ni ifodalaydi. Muayyan millatning mentaliteti, urf-odatlari, rasm-rusumlari, milliy madaniyatini ifodalovchi tabu va evfemizmlarda ham so‘zlovchining o‘zi ifodalayotgan fikrga emotsional-ekspressiv munosabati ifodalanadi. Masalan, *o‘ldi, yer tishladi, uxlab qoldi, qazo qildi, bandachilik qildi, bo‘lmay qoldi, uchib qoldi*.

Morfologik sinonimlar – ko‘makchilar bilan kelishiklar sinonimiyasi: *qalam bilan yozdi, qalamda yozdi; ukasiga oldi, ukasi uchun oldi* va boshqalar. Sintaktik sinonimlar – *kattalarning bittasi, kattalardan bittasi; bo‘sh vaqtlar kitob o‘qirdi, bo‘sh vaqtlarda kitob o‘qirdi; mehmonlar keldi, mehmonlar kelyapti, bu, shubhasiz, (so‘zsiz, tabiiy) bizning yutug‘umiz yoki gap paradigmasi* va boshqalar[9].

Semantik sinonimlar – tasdiq-inkor, ijobiy-salbiy kabi ma’nolarning ifodalanishi: 1. *Handalagi tushmagur - handalagi tushgur. Bo‘yi yetgan qizlar bor demaysizmi? - Bo‘yi yetgan qizlar bor deb aytmaysizmi?* 2. *Yaxshi gapirdi* (yomon, salbiy gapirdi ma’nosida) – *yomon gapirdi* (yaxshi, ijobiy gapirdi ma’nosida), *Dahshat gapirdi (yaxshi gapirdi ma’nosida) – yaxshigina gapirdi (salbiy gapirdi ma’nosida); hazillashyapsiz*! – *Hazillashyapsizmi?(o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon)* va boshqalar. YAxshi gapirdi (yaxshi gapirdi ma’nosida) – yomon gapirdi (yaxshi gapirdi ma’nosida) – dahshat gapirdi (judayam yaxshi gapirdi ma’nosida) shakllari sinonimik qatorni hosil qiladi. Omonimiya hodisasi tilda tasodifan yoki favqulodda ikki so‘z (birlik)ning bir shaklga kelib, o‘xshab qolishidan yuzaga keladi, ikki so‘zda o‘zaro hech qanday aloqadorlik mavjud bo‘lmaydi. Avra – *ko‘rpaning ichki tamoni,* avra – aldamoq, gipnoz qilmoq.

Omonim so‘zlar bir tilga mansub bo‘ladi, bir omonim so‘z o‘zbek tiliga, ikkinchi omonimik jufti rus tiliga (boshqa tilga) mansub bo‘lmaydi, omonimik juftlik bir so‘z turkumiga (ot so‘z turkumiga mansub: ot – *hayvon,* ot – *so‘z turkumi*, ot – *ism*) yoki ikki so‘z turkumiga (o‘t – *inson tana a’zosi, ot so‘z turkumi,* o‘t – *o‘tmoq, harakat, fe’l so‘z turkumi*) mansub bo‘lishi mumkin.

[6] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик, 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – б. 11.
[7] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – б. 154.
[8] Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – б. 11.; Есперсен О. Философия грамматики / Пер. с англ. В.В.Пассека и С.П.Сафроновой. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1958. – с. 55.
[9] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – б. 290.

Omonimik juftlik fonetik (grafik, bo‘lmoq – *ikkiga bo‘lmoq,* bo‘lmoq – *yakunlamoq*), leksik (so‘z, chal – *soz chalmoq*, chal – *yiqitmoq)*, grammatik (qo‘shimcha, qaynatma, -ma *fe’lning bo‘lishsiz shakli*, -ma – *sifat yasovchi qo‘shimcha,* -siz – *sifat yasovchi*, siz – *kishilik olmoshi*) ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Omonimik juftlikning yana ikki turi mavjud bo‘lib, akustik juftlik – omofon (*bob – kitob bobi*, *bop – loyiq, mos, muvofiq*), grafik juftlik (tom – *kitob jildi*, tom – *uyning tomi*)ka bo‘linadi. Mazkur juftliklar noto‘liq omonimik juftlik hisoblanib, turli so‘z o‘yinlarida, tuyuqlarda, badiiy tasvir vositalarida foydalaniladi.

Antonimiya hodisasi deganda, tilda qarama-qarshi, zid ma’no va tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan so‘zlar tushuniladi. Yaxshi-yomon, past-baland, qalin-siyrak va h. Antonim so‘zlar tilda zid ma’no va tushunchalarni muayyan bir belgi asosida qarshilantiradi. Bu belgi o‘lchov, miqdor, hajm, jins, xususiyat va boshqalar bo‘lishi mumkin, bir belgi asosida qarshilantirilish antonimiyani yuzaga keltiradi. Masalan, unli-undosh, jarangli-jarangsiz, ota-ona, aka-uka, opa-aka, yoz-qish. Antonimiya hodisasi fonetik (tovush) antonimiya (ota- ona, aka-uka), leksik (so‘z) antonimiya yaxshi-yomon, o‘ng-chap), grammatik (affiksatsiya, kategoriya) antonimiya (beaql – boaql, birlik-ko‘plik, o‘tgan zamon – kelasi zamon, juda-sal)ga bo‘linadi. Antonimiya hodisasi juftlik, ikkita qarama-qarshi ma’noli so‘zdan iborat bo‘lish bilan birga bir so‘zning o‘zida ikkita qarama-qarshi ma’noni ifodalash orqali ham yuzaga chiqishi mumkin, bunday hodisa enantiosemiya deyiladi. *Ko‘rmoq* so‘zining o‘zida *ko‘rmaslik, zahar* so‘zining o‘zida *dori* (davo), *chiqish* so‘zida *kirish* (xonadan chiqish – karidorga kirish), *yomon* so‘zida *yaxshi* ma’nosi (*yomon gapirdi*), *kir yuvmoq*, *kir yoymoq* (*yuvgandan keyin ham kir*). Enantiosemiya (ichki antonimiya) nutqiy hodisa hisoblanib, muayyan nutqiy vaziyatlar uchun xosdir.

Fonetik strukturasi o‘zaro yaqin, bir xil o‘zakdan tashkil topgan so‘zlar paranomiya hodisasini vujudga keltiradi. *Bo‘shliq* **(***ma’lum chegara bilan o‘ralgan bo‘sh joy***)** – *bo‘shlik (lapashang, pishiq-puxta emas); tuzliq (tuzdon, tuz saqlanadigan idish***)** – *tuzlik* **(***tuzlangan); otaliq (otaliqqa olmoq, moddiy, ma’naviy va boshqa yordam) – otalik (otalik burchi); otliq (ot mingan, suvoriy) – otlik (ismlik***)**; *diplomat (chemodan, portfel) – diplomant (diplom ishi himoya qiluvchi).* Umumta’lim maktabi darsliklarida, oliy va o‘rta maxsus ta’lim darsliklarida ham paronomiya hodisasiga qo‘yilgan definitsiyalarda xilmaxilliklar mavjud. Mazkur *darsliklarda fakt – pakt, devon – davon, asil – asl, asir – asr* kabi boshqa tillarda kirib kelgan o‘zagi bir xil so‘zlarni misol qilib keltirib xato qilingan. Bunday so‘zlarning o‘zagi o‘z tili uchun bir xil, o‘zbek tili uchun xos emas. *Axborot* so‘zi arab tilida yasama so‘z, o‘zbek tilida yasama emas, *samolyot* so‘zi rus tilida qo‘shma so‘z, o‘zbek tilida qo‘shma so‘z emas.

Bir tilga mansub bo‘lgan, bir tushunchani ifodalovchi, uslubiy ma’no jilosi bilan farqlanuvchi ikki so‘z variant (variant so‘z) deyiladi. Masalan, *kabutar – kaptar, nabira – nevara, gadoy – gado, podshoh – podsho va h.* Variant so‘zlar qaysi uslubga xosligi, ijobiy yoki salbiy ma’no bildirishidan qat’i nazar, adabiy til me’yoriga mos hisoblanadi. Variantlarning til birliklari varianti, morfemaning varianti (allomorfi: -dek, -da; -gi, -ki, -qi), o‘zakning varianti va boshqa ko‘rinishlari mavjud.

Dublet so‘zlar teng semantik strukturaga ega bo‘lgan so‘zlardir. Ikki tilga mansub bir tushunchani ifodalovchi ikki so‘z dublet deyiladi. *Student – talaba, tilchi – lingvist, tilchi – tilshunos, universitet – dorilfunun.* Dublet so‘zlar o‘zaro iste’mol doirasiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Yangilik, ilmiylik, xoslanganlik belgisiga ko‘ra farqlanadi va so‘zlovchining individual munosabatini – bahosini ifodalashi mumkin[10].

E’tiqod (diniy), qarindosh-urug‘chilik (tog‘a, xola, qaynog‘a), hurmat (muhtaram, aziz, qadrdon), istak-tilak (baxt, omad), g‘alaba-yutuq (g‘olib, muzaffar), tuyg‘u (surur, shukuh), rag‘bat (barakalla, tasanno) unvon (general, professor), kasbiy (o‘qituvchi, vrach), sevgi-muhabbat (sevgilim, yolg‘izim), ijtimoiy-siyosiy (hayot, turmush), vatan (mamlakat, el-yurt), xoslik (mening, bizning) kabi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarda ijobiy emotsional-ekspressivlik, dard-kasallik (sil, rak), yomonlik (g‘iybat, tuhmat), notanishlik (begona, yot), jinoyat (poraxo‘rlik, kamomad), jazo (darra, qamoq), so‘kish-qarg‘ish (la’nat, yashamagur) kabi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarda salbiy emotsional-ekspressivlik so‘zlar denotativ ma’nosida ifodalanadi.

Til leksik sath birliklarining ichida yirik birliklardan biri frazema (ibora) hisoblanadi. Frazemalar shaklan gapga (tepa sochi tikka bo‘ldi) yaqin kelsa-da, ma’no jihatdan (achchiqlandi) so‘zga to‘g‘ri keladi, frazema ushbu jihati bilan ko‘p tortishuv va munozaralarga sabab bo‘lmoqda, hatto ba’zi bir tilshunosliklar (masalan, ingliz tilshunosligida) frazemani konstruksiya hisoblab, alohida sath birligi sifatida ajratadilar. Barcha til birliklarining (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) ma’no tomoni (ayniqsa, leksik sathning) birlamchi bo‘lganligi uchun frazemalarning leksik sathda, bir bo‘lim sifatida o‘rganilishi mutlaqo to‘g‘ri.

Ikki yoki undan ortiq so‘zlarning ma’no va grammatik jihatdan birikib, yaxlit bir ko‘chma ma’no anglatishi frazema (ibora) deyiladi. Frazemalarning ko‘chma ma’no ifodalashi ular uchun bosh mezon hisoblanadi. Masalan, *tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, cholni ko‘rib buva demoq, sichqonning inini ijaraga olmoq.* Frazemalar til hodisasi hisoblanadi, ularning yasalishi individual xususiyat kasb etadi, tildan tilga tarjima qilinmaydi, boshqa tildagi muqobil varianti tanlanadi, ular vaqt o‘tishi bilan sayqallanib, siqiq holga keladi, ulardan bir so‘zni olib ham, bir so‘zni qo‘shib ham bo‘lmaydi. *Ketmoni uchmoq, arini o‘ldirmoq, paypoqqa nag‘al qoqmoq, maykaga galstuk taqmoq* (kinofilmdan), *qariganda xo‘rozqand yegisi kelibdi, mayiz yemagan xotin* (A.Qahhor) kabi iboralar individual yasaladi va keyinchalik ommalashadi. Frazema tarkibidagi so‘zlarning hammasi yoki qisman (ba’zisi) ko‘chma ma’noda kelishiga qarab frazeologik butunlik (ko‘kka ko‘tarmoq), frazeologik chatishma (sichqonning inini ijaraga olmoq), frazeologik qo‘shilma (*hordiq chiqarmoq*)ga bo‘linadi. Frazemalar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra frazeologik sinonimlar (*tosh mehr – bag‘ri tosh*), frazeologik omonimlar (*boshiga ko‘tarmoq* – hurmat qilmoq, *boshiga ko‘tarmoq* – to‘polon qilmoq), frazeologik antonimlar (*ko‘kka ko‘tarmoq* – maqtamoq, *yerga urmoq* – obro‘sizlantirmoq)ga bo‘linadi. Frazema tarkibidagi so‘zlar boshqa tildan kirgan bo‘lishi mumkin (*gapning indallosini aytmoq*). Gap tarkibidagi frazema qismlari siqiq (kompakt) holda bo‘ladi, ularning orasiga boshqa so‘zlar kiritilmaydi, nechta so‘zdan iborat bo‘lishidan qat’i nazar, frazemalar bir gap bo‘lagi vazifasida keladi.

Xulosa va takliflar. Obyektiv olam elementlari shakl va ma’no yaxlitligidan iborat bo‘lib, ularning so‘z vositasida inson ongiga ko‘chishi induksiya metodi asosidagi empirik tahlil, kuzatish va eksperementga tayanadi va shu asosdagi sababiyat va natija qonunlariga bo‘yinsunadi.

Tildagi mavjud so‘zlar yig‘indisi shu tilning lug‘at fondini (leksik sathini) tashkil qiladi, o‘zidan oldingi avloddan meros hisoblanadi, iste’mol talabiga binoan iste’molga qo‘yiladi, shunga ko‘ra tarixiy va hozirgi qatlamga ajraladi. Yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi muayyan davrning ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, bilingvistik omillari va zamonaviylik talablari asosida vujudga keladi.

Mazkur maqolada tilning(ayni paytda, nutqning) markazi birligi bo‘lgan so‘zning shakl va ma’no munosabati simmetriyasi va asimmetriyasi tahlilga tortildi. So‘zning shakl va ma’no dialektik birligi so‘zning funksional xususiyatini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirov Z. O'zbek tilining dialektologik ustqurmasi. https://www.ajhuman.uz/article/476572319202/abstract.
2. *Ахманова О.* Словарь лингвистических терминов. – Москва: Издательство Советская энциклопедия, 1966. – 606 с.
3. *Березин Ф.М.* История лингвистических учений. – Москва: Высшая школа, 1984. – 319 с.
4. Есперсен О. Философия грамматики / Пер. с англ. В.В.Пассека и С.П.Сафроновой. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1958. – 404 с.
5. *Кондрашов Н.А*. История лингвистических учении. – Москва: Просвещение, 1979. – 224 с.
6. *Қодиров З.* Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 102 б.

[10] Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – б. 34.

7. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
8. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. III жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 416 б.
9. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. III жилдлик, 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 448 б.
10. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. III жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 376 б.
11. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 176 б.
12. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. В 4 т. Т. I–II. – Москва: Просвещение, 1958. – 536 с.
13. *Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М*. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 266 б.
14. *Усмонов С.* Умумий тилшунослик. – Тошкент, Ўқитувчи, 1972. – 208 б.
15. *Ҳожиев А*. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.
16. https://www.researchgate.net/publication/395734115_Hozirgi_ozbek_adabiy_tili_Darslik_-_Toshkent_METODIST_NASHRIYOTI_2025_-_336_b.
17. https://utppublishing.com/journal/ijsll.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

TALABALAR SALOMATLIGIDA OILAVIY VA IJTIMOIY FAKTORLARNING AHAMIYATI

Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 21
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1306

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Talabalar salomatligi, oilaviy faktorlar, ijtimoiy muhit, psixologik qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom turmush tarzi, oliy ta’lim, ijtimoiy aloqalar, oila muhiti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligiga ta’sir etuvchi oilaviy va ijtimoiy omillarni tizimli tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida oilaviy muhit, ota-ona bilan munosabatlar, oila ichidagi qo‘llab-quvvatlash tizimi, shuningdek, talabalar orasidagi ijtimoiy aloqalar, do‘stlik muhitining salomatlikka ta’siri chuqur tahlil qilindi. Maqolada mavjud ilmiy adabiyotlar asosida talabalar salomatligi bilan bog‘liq psixologik va ijtimoiy mexanizmlar, ularni qo‘llab-quvvatlash metodlari, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yo‘llari muhokama qilindi. Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalari salomatligiga ta’sir etuvchi oilaviy va ijtimoiy omillar tizimli va kompleks tarzda o‘rganilgan. Talabalarning psixofiziologik xususiyatlari, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy aloqalar, universitet muhiti va ularning salomatlik holati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar psixologik, sotsiologik hamda pedagogik metodlar integratsiyasi asosida tahlil qilingan. So‘rovnoma, intervyu, fokus-guruhlar, korrelyatsion tahlil hamda strukturaviy model (SEM) metodlari yordamida olingan natijalar oilaviy qo‘llab-quvvatlashning stress darajasini pasaytirishi, emotsional barqarorlik va motivatsiyani oshirishi, ijtimoiy aloqa va tengdoshlar bilan muloqotning esa sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Chet el olimlari tadqiqotlarining tahlili ushbu omillarning murakkab o‘zaro ta’sirini asoslab berdi. Maqola oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ruhiy va jismoniy salomatligini qo‘llab-quvvatlash uchun samarali pedagogik va ijtimoiy strategiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Kirish: Oliy ta’lim muassasalari zamonaviy jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi, bu esa talabalar salomatligi masalalarini dolzarb va strategik jihatdan muhim qilmoqda. Talabalar yoshining psixofiziologik xususiyatlari, akademik majburiyatlar, shuningdek, oilaviy va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri ularning umumiy salomatligi va psixologik barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, talaba yoshidagi sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni saqlash, nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy va davlat siyosati nuqtai nazaridan ham muhim masala hisoblanadi [1]. Oilaviy muhit talabalar salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oila ichidagi psixologik qo‘llab-quvvatlash, ota-ona bilan ijobiy munosabatlar, oilaviy iqlimning barqarorligi va kommunikativ madaniyatning rivojlanishi talabalarda stress darajasini pasaytiradi, emotsional va ruhiy barqarorlikni oshiradi[2]. Shuningdek, oilaviy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi yoki oilada mavjud konfliktlar talabalar orasida psixosomatik kasalliklar, uyqusizlik, konsentratsiya va akademik natijalarning pasayishi kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy faktorlar ham talabalar salomatligida muhim rol o‘ynaydi. Ular orasida tengdoshlar bilan ijtimoiy aloqalar, do‘stlik va qo‘llab-quvvatlash tizimlari, jamiyatdagi ijtimoiy qabul qilish, universitet ichidagi kommunikativ muhit va guruh psixologiyasi mavjud. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy aloqalarning yetarli darajada rivojlanishi talabalarda o‘zini ijtimoiy jihatdan qabul qilingan his qilish, stressga chidamlilikni oshirish va umumiy ruhiy holatni yaxshilashga yordam beradi [3]. Shu bilan birga, ijtimoiy izolyatsiya, yolg‘izlik, kam qo‘llab-quvvatlash holatlari talabalarda depressiya, xavotirlik va turli xil psixologik muammolarni kuchaytiradi. Talabalar salomatligini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash masalasi faqat psixologik yoki tibbiy nuqtai nazardan emas, balki pedagogik va ijtimoiy pedagogik yondashuvlar bilan ham tahlil qilinishi zarur. Mazkur yondashuvlar talabalarning psixofiziologik rivojlanishini, akademik faolligini va ijtimoiy moslashuvini birgalikda nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, stressni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va oilaviy-iijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarda salomatlikni saqlash va rivojlantirish masalalarini o‘rganishda multidisipliner yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, tibbiyot va ijtimoiy ish sohasi tadqiqotchilari o‘rtasida integratsiyalashgan yondashuv talabalarning oilaviy va ijtimoiy faktorlar bilan bog‘liq ehtiyojlarini kompleks tarzda aniqlashga imkon beradi. Bu esa oliy ta’lim tizimida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligi masalalariga e’tibor qaratishda, ularning oilaviy va ijtimoiy sharoitini aniqlash, mavjud ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini tahlil qilish va samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ushbu maqola talabalarning oilaviy va ijtimoiy omillari salomatligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash, mavjud muammolarni tizimli tarzda tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan[4]. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u talabalar salomatligi va uning shakllanishida oilaviy va ijtimoiy faktorlarning kompleks o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi va oliy ta’lim muassasalari sharoitida amaliy pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu ish zamonaviy pedagogika va psixologiya yondashuvlari, shuningdek, oliy ta’lim tizimida salomatlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Natijada, talabalarning oilaviy-iijtimoiy muhitining salomatlikka ta’sirini o‘rganish oliy ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini shakllantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligini saqlash va rivojlantirish bo‘yicha strategik yondashuvlarni ishlab chiqishda ilmiy va amaliy asos yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalar salomatligiga oilaviy va ijtimoiy faktorlarning ta’siri masalasida chet el olimlarining ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Ushbu bo‘limda ikki muhim tadqiqotni – bir tomondan spiyoniy olimlar tomonidan olib borilgan “Lifestyles of University Students” maqolasi, ikkinchi tomondan esa xitoylik tadqiqotchilar Su va boshqalar (Zhuo Su va jamoadoshlar) tomonidan olib borilgan “Structural Assessment of Family and Educational Influences on Student Health Behaviours” ishlari – uzviy bog‘lab tahlil qilinadi [5]. Birinchi olimlar – PubMed’da chop etilgan va BMC Public Health jurnalida e’lon qilingan tadqiqotda mualliflar universitet talabalarining

[1] Xabibullayevna Y. D. Oiladagi barqaror ijtimoiy muhit shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 37. – C. 60-65.
[2] Turg‘unboyev K., Tolipov M., Oxunov I. Ijtimoiy pedagogika asoslari //O ‘quv qo ‘llanma. Toshkent “Fan va texnologiya. – 2008.
[3] Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika //Maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi talabalari uchun o ‘quv qo ‘llanma. – 2023.
[4] Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika //Maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi talabalari uchun o ‘quv qo ‘llanma. – 2023.
[5] Abdullajonov A. Axborotlashgan jamiyatda bo ‘lajak o ‘qituvchining kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammolari //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.

turmush tarzini (lifestyle) o‘rganib, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy dinamikaning salomatlikka ijobiy ta’siri borligini aniqlaganlar. Ularning ma’lumotlariga ko‘ra, oilaviy dinamika (ya’ni oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar, muloqot, qo‘llab-quvvatlash) va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu omillar yosh talabalar orasida sog‘lom hayot kechirish odatlarini shakllantirishda “himoya qiluvchi” vosita sifatida namoyon bo‘ladi[6]. Ushbu tadqiqotda 530 dan ortiq universitet talabalarida oilaviy va ijtimoiy omillar bilan sog‘lom turmush tarzi o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar o‘rganilgan; olingan natijalar oilaviy dinamika uchun r = 0.28, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun r = 0.32 koeffitsiyentlarini ko‘rsatgan. Bu natijalar, olimlar fikricha, oliy ta’lim muassasalarida salomatlik siyosatini ishlab chiqishda oilaviy tizimni mustahkamlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Ikkinchi olimlar guruhi – Zhuo Su, Daifeng Yang va boshqalar, “Structural Assessment of Family and Educational Influences on Student Health Behaviours” nomli maqolalarida talabalarning salomatlik xulq-atvori (masalan, jismoniy faollik, ovqatlanish odatlari) ustida oilaviy qo‘llab-quvvatlash va ta’lim muhiti strukturaviy ta’sirini o‘rganishgan[7]. Ularning modellari shuni ko‘rsatadiki, oila qo‘llab-quvvatlashi nafaqat psixologik farovonlikni mustahkamlaydi, balki moti-vatsiyani oshirish orqali bevosita jismoniy faollik va sog‘lom ovqatlanish xulq-atvoriga olib keladi. Shuningdek, Su va jamoadoshlar o‘z tadqiqotlarida o‘quv muhitining (univer-sitet muhiti) vositachi roli borligini ta’kidlaydilar: oilaviy resurslar va qo‘llab-quvvatlash o‘z ta’sirini ta’lim muhitidagi strukturaviy omillar orqali kuchaytirishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, talabalar salomatligi bo‘yicha strategiya faqat oilaga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar bilan cheklanmasligi kerak, balki ta’lim muassasalarida ham sog‘lom turmush uslubini qo‘llab-quvvatlovchi siyosat va intervensiyalarni joriy etishni nazarda tutishi zarur[8]. Bu ikki olim guruhi (Spanyoniy va Xitoy olimlari) bir-birini ilmiy nuqtai nazardan to‘ldiradi: Birinchilari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy dinamikaning talabalar turmush tarzi va sog‘lom odatlariga bevosita bog‘liqligini ko‘rsa, ikkinchilari bu ta’sir mexanizmini strukturaviy modelda, ya’ni oilaviy qo‘llab-quvvatlash → psixologik motivatsiya / farovonlik → xulq-atvor tarzida izohlaydi. Ularning natijalari biri-birini tasdiqlovchi va mustahkamlaydigan ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi va talabalarning salomatligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks, sistematik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, chet el olimlarining ushbu ishlari talaba salomatligi sohasida oilaviy va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlarni ilmiy jihatdan tasdiqlaydi va bizning tadqiqot mavzumizga — talabalar salomatligida oilaviy va ijtimoiy faktorlarning ahamiyatini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga — mustahkam teorik va 77mpiric zamin yaratadi.

Metodologiya. Ushbu maqolada talabalar salomatligida oilaviy va ijtimoiy faktorlarning ta’sirini o‘rganish uchun ko‘p darajali metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot asosida psixologik, sotsiologik va pedagogik usullar integratsiyalashgan tarzda ishlatildi. Birinchi navbatda, so‘rovnoma va anketalar orqali talabalarning oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi, ota-ona bilan munosabatlari, oilaviy konfliktlar va ijtimoiy aloqalari aniqlanib, ularning salomatlik holatiga ta’siri kvantitativ tahlil usullari yordamida baholandi. Shu bilan birga, strukturaviy model tahlili (structural equation modeling, SEM) usuli talabalarning oilaviy va ijtimoiy faktorlar bilan bog‘liq sog‘lom turmush tarzi va xulq-atvorini aniqlash uchun qo‘llanildi, bu metod tadqiqot natijalarini murakkab tizim sifatida ko‘rsatishga imkon berdi. Tadqiqot jarayonida intervyu va fokus-guruhlar metodlari orqali sifatli ma’lumotlar to‘plandi; talabalar oilaviy qo‘llab-quvvatlash, do‘stlar va tengdoshlar bilan ijtimoiy aloqalar, shuningdek, akademik va psixologik stress holatlari haqida o‘z fikrlarini bayon etdilar. Shu tarzda, tadqiqot kvantitativ va sifatli metodlarning kombinatsiyasiga asoslangan bo‘lib, talabalar salomatligi ustida oilaviy va ijtimoiy faktorlarning kompleks ta’sirini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, tadqiqotda korrelyatsion va regressiya tahlillari metodlari ishlatildi, ular oilaviy va ijtimoiy omillar bilan talabalarning ruhiy va jismoniy salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, komparativ tahlil yordamida turli oilaviy sharoit va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasiga ega talabalar guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga erishildi. Umuman olganda, maqolada qo‘llanilgan metodlar tizimli va integratsiyalashgan yondashuvni tashkil etib, talabalarning oilaviy-iijtimoiy muhitining salomatlikka ta’sirini aniq va ishonchli tarzda baholash imkonini berdi, natijada oliy ta’lim muassasalarida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning oilaviy va ijtimoiy muhitiga bog‘liq omillar ularning salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi; oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan talabalar orasida stress darajasi pasaygan, emotsional barqarorlik va ruhiy farovonlik darajasi yuqori bo‘lib, akademik natijalar yaxshilanganligi kuzatildi, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tengdoshlar bilan samarali aloqalar talabalarda sog‘lom turmush tarzi odatlarini shakllantirishga yordam berib, uyqusizlik, charchoq va psixosomatik belgilarni kamaytirishga xizmat qilishi aniqlangan; korrelyatsion va regressiya tahlillari natijalari oilaviy va ijtimoiy faktorlar bilan salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistika jihatdan ishonchli darajada ko‘rsatgan, bu esa oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligini qo‘llab-quvvatlash va pedagogik intervensiyalarni samarali amalga oshirish uchun asos yaratadi.

Muhokama. Talabalar salomatligida oilaviy va ijtimoiy faktorlarning ahamiyati masalasida ilmiy munozaralar keng shakllangan. Spanyoniy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda universitet talabalarining sog‘lom turmush tarzi va ruhiy farovonligi asosan oilaviy dinamika va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlariga bog‘liqligi ta’kidlangan[9]. Ularning fikricha, oila ichidagi ijobiy munosabatlar va ota-onalarning psixologik qo‘llab-quvvatlashi talabalarda stressga chidamlilikni oshiradi, depressiya va uyqusizlik holatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, ular ijtimoiy aloqalarning, xususan tengdoshlar bilan o‘zaro faoliyat va do‘stlik tarmoqlarining salomatlikni mustahkamlashdagi roli muhimligini qayd etadilar. Boshqa tomondan, xitoylik olimlar Su va jamoadoshlari oilaviy va ijtimoiy omillarni strukturaviy nuqtai nazardan tahlil qilib, bu omillar talabalarning sog‘lom xulq-atvori va jismoniy faolligiga qanday ta’sir qilishini model asosida ko‘rsatganlar[10]. Ularning tadqiqoti shuni namoyon qiladiki, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy aloqalar faqat psixologik farovonlikni oshirish bilan cheklanmay, motivatsiya va salomatlik bilan bog‘liq xulq-atvorni shakllantirish orqali bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ular Spanyoniy olimlarning fikrlarini qisman qo‘llab-quvvatlasa-da, ijtimoiy va oilaviy faktorlarning ta’siri mexanizmini yanada chuqurlashtirilgan strukturaviy modelda ko‘rsatadi. Bu ikki nuqtai nazar o‘rtasida ilmiy munozara mavjud: Spanyoniy tadqiqotchilar ijtimoiy va oilaviy omillarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi bevosita rolini urg‘ulasa, xitoylik olimlar bu omillar ta’sirining vositachilik mexanizmi va model asosida tizimlashtirilganligini ta’kidlaydilar[10]. Munozaralar natijasida aniqlanadiki, talabalar salomatligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha strategiyalar faqat oilaga yoki ijtimoiy muhitga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar bilan cheklanmasligi, balki ular o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni hisobga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Shuningdek, bu polemikalar talabalarning oilaviy-iijtimoiy muhitini yaxshilash orqali stressni kamaytirish, psixologik farovonlikni oshirish va sog‘lom xulq-atvorini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini ilmiy asosda ko‘rsatadi. Shu tarzda, ikki olimning tadqiqotlari bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi xulosalarni beradi, bu esa oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligiga ta’sir etuvchi oilaviy va ijtimoiy faktorlar tizimli tarzda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ota-ona bilan sog‘lom munosabatlar, oilaviy iqlim va konfliktlarning mavjudligi talabalarning stress darajasi, emotsional barqarorligi va ruhiy farovonligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar va universitet ichidagi ijtimoiy aloqalar talabalar salomatligi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar natijasida aniqlanishicha, talabalarning oilaviy va ijtimoiy muhitidagi omillar nafaqat psixologik farovonlikni oshirishga, balki akademik faoliyatini va xulq-atvorini mustahkamlashga

[6] Xakimov X., Farmonova M. Pedagogika universitetining nomutaxassislik ta’lim yo’nalishi talabalarida kasbiy mahoratni shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 206-212.

[7] Griffiths, “Behavioral Addiction in Students: Psychological and Environmental Determinants”, Routledge, London, 2021, 348 p.

[8] Stallman, “University Student Wellbeing: A Systems-Based Approach to Academic Stress and Mental Health”, Springer, Berlin, 2022, 412 p.

[9] Pirimovna T. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari //Modern education and development. – 2025. – T. 20. – №. 1. – C. 155-160.

[10] Xamidova M. U. Maxsus pedagogika //T-2013 “Fan va texnologiyalar nashiryoti. – 2018.

ham xizmat qiladi. Natijalar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida salomatlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha pedagogik intervensiyalarni ishlab chiqishda, oilaviy-ijtimoiy muhitni yaxshilash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, talabalarning salomatligini saqlash va rivojlantirishda oilaviy va ijtimoiy faktorlar kompleks o‘zaro ta’sirga ega bo‘lib, ularni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan strategiyalar oliy ta’lim tizimida talabalar farovonligini oshirish va sog‘lom avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot nafaqat nazariy asoslarni mustahkamlaydi, balki oliy ta’lim muassasalarida amaliy pedagogik chora-tadbirlarni samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Xabibullayevna Y. D. Oiladagi barqaror ijtimoiy muhit shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 37. – C. 60-65.
2. Turg‘unboyev K., Tolipov M., Oxunov I. Ijtimoiy pedagogika asoslari //O ‘quv qo ‘llanma. Toshkent “Fan va texnologiya. – 2008.
3. Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika //Maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi talabalari uchun o ‘quv qo ‘llanma. – 2023.
4. Abdullajonov A. Axborotlashgan jamiyatda bo ‘lajak o ‘qituvchining kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammolari //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.
5. Xakimov X., Farmonova M. Pedagogika universitetining nomutaxassislik ta’lim yo’nalishi talabalarida kasbiy mahoratni shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 206-212.
6. Griffiths, “Behavioral Addiction in Students: Psychological and Environmental Determinants”, Routledge, London, 2021, 348 p.
7. Stallman, “University Student Wellbeing: A Systems-Based Approach to Academic Stress and Mental Health”, Springer, Berlin, 2022, 412 p.
8. Pirimovna T. C. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari //Modern education and development. – 2025. – T. 20. – №. 1. – C. 155-160.
9. Xamidova M. U. Maxsus pedagogika //T-2013 “Fan va texnologiyalar nashiryoti. – 2018.
10. Abdullajonov A. Axborotlashgan jamiyatda bo ‘lajak o ‘qituvchining kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammolari //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

THE SIGNIFICANCE OF THE IMAGES OF FLOWERS AND NIGHTINGALES IN THE EPIC POEM “KHAMSA”

Xolboyeva Muslima Usmonjon qizi
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
E-mail: muslimaxon7368@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 22
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1308

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

“Khamsa”, images, “Hayrat ul-abror”, love, “Farhod and Shirin”, “Layli and Majnun”, “Sab'ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”, spring, flowers and nightingales, mother.

ANNOTATION

This article examines the artistic expressive potential of the images of flowers and nightingales in Alisher Navoi's epic poem “Khamsa”. The themes covered by the images of flowers and nightingales in the epic poem are analyzed. In particular, the poet's socio-philosophical, moral-enlightenment thoughts are revealed through these images. This article examines the symbolic functions and semantic diversity of the images of the flower and the nightingale in Alisher Navoi’s “Khamsa”. Recognized as the pinnacle of Navoi’s artistic heritage, the “Khamsa” reflects the poet’s philosophical worldview, moral teachings, and spiritual perceptions through a rich system of traditional, mythological, prophetic, and historical images. Among the traditional symbols, the flower and the nightingale occupy a central place due to their polysemantic nature and their ability to convey subtle emotional, philosophical, and didactic meanings. The study analyzes the use of these images in each of the five epics of the “Khamsa”. In “Hayrat ul-abror”, the flower and the nightingale primarily express Sufi-philosophical ideas and moral reflections. In “Farhod and Shirin”, they illuminate the emotional states of the characters and help reveal the depth of Farhod’s love. In “Layli and Majnun”, the imagery is closely linked to natural and seasonal motifs, emphasizing the emotional landscapes of the lovers. “Sab’ai Sayyor” employs these images more frequently, especially in the characterization of Dilorom. In “Saddi Iskandariy”, the flower and nightingale acquire new meanings, symbolizing enlightenment, love, and human virtues. Methodologically, the research draws on comparative-historical, descriptive, classificatory, statistical, and systemic approaches to explore the role of floral and nightingale imagery throughout the “Khamsa”. The findings demonstrate that these symbols serve not only aesthetic and emotional purposes but also contribute to the expression of social, ethical, and philosophical themes. The article concludes that Navoi’s skillful use of these images enhances the artistic value of the “Khamsa” and deepens its ideological content, making them essential components of his poetic world.

Introduction. “Khamsa” is considered the crown jewel of the works of Nizamiddin Mir Alisher Navoi, in which the diversity of images, the height of the theme and essence, the diversity of meaning and content, and the richness of didactic ideas are observed. Navoi reflected his beliefs, desires, life experiences, advice and teachings in these five works, and artistic images play a significant role in their manifestation. The images included in this collection can be classified as follows:

a) “images of historical figures;
b) images of prophets;
c) mythological images;
d) traditional images (symbols related to love, generosity, justice, etc.)”[1].

Literature analysis. The flower and the nightingale are included in the traditional images, but their meanings are diverse. Because this image is included in the polysemantic images. When talking about them, each epic in the "Khamsa" should be analyzed separately. In the epic "Hayrat ul-abror", Navoi reflected Sufi views and didactic-pragmatic ideas through the flower and the nightingale, while in the epics "Leyli and Majnun", "Farhod and Shirin", "Sab'ai sayyor" love is revived, and in the epic "Saddi Iskandariy" the concepts of advice, education, example, love, motherland are manifested. The image of the flower and the nightingale is used in the titles and lyrical fragments of the epics. “The thoughts, feelings and emotions of the lyrical hero are expressed with the help of images of nature”[2].

The titles of "Khamsa" are prose fragments with a unique artistic quality, demonstrating new aspects of the author's artistry, and fulfill a certain ideological and aesthetic function. First of all, they are aimed at explaining the main content of each chapter of the epic, and therefore this is the defining feature of the poetics of the titles of "Khamsa". For example, Navoi gives the following title to the XIII chapter of "Farhod and Shirin": “Shahzoda Farhodqa “Al-asmou tanzilu min as-samo” hukmi bila ishq sipehri avjidin nomdorliq nasib bo‘lmoq va shavq gulshanida g‘uncha erkonda guldek ko‘nglaki chok, bulbuldek ko‘ngli g‘amnok bo‘lmoq va dard muallimi maktabida ishq kutubin lafz balafz, balki muhabbat avroqin harf-baharf o‘qumoq va dilovarliq maydonida shijoat varzishini qilichdek tez etib, o‘qdek tuzatmak va zamon kinavarlaridin xuddek saromad va nayzadek sarafroz bo‘lmoq”[3]- That is, Prince Farhad was blessed with fame and popularity from the height of the sky of love by the saying "Names come from the sky" (Arabic), and when he was a bud (i.e., a baby) in the flower of love, his shirt was as white as a flower, but his heart was as sad as a nightingale, and in the school of sorrow, he read the books of love word by word, the pages of love letter by letter, in the field of heroism (heroism, wrestling), he sharpened his courage like a sword and straightened it like an arrow, and he rose like a khud (a long, award-winning iron headdress) from the avengers of the time and rose like a spear.

It is clear that Navoi used images related to nature, such as "gulshan", "guncha", "gul", "bulbul". The poet briefly explains in the title that Farhod has been suffering from love since childhood.

Research methodology. In this study, several scientific and methodological approaches were used in a comprehensive manner to analyze the digital images of flowers and nightingales in the epic poem "Khamsa". Each method was selected in accordance with its task and served the general research goal. Comparative-historical, classification, descriptive, statistical and systematic methods of approach were used to illuminate the research topic.

Research results. The epic poem “Hayrat ul-abror” consists of 63 chapters: 21 chapters of the introduction, 20 articles, 20 stories and a total of 3988 verses. The epic uses 331 words of flowers and their derivatives, 10 words of nightingales and one word of nightingale. Since the main idea of the epic is admonition, the image of flowers and

[1] T.Xo’jayev. Navoiy “Xamsa”si: obraz, badiiyat va mohiyat.-Toshkent: Zilol buloq nashriyoti,2023. -234 B.
[2] Навоийга армуғон. Иккинчи китоб. Ҳ.Ҳомидов, С.Аширбоев, Б.Тўхлиев,И.Йўдошев.-Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. –Б 110.
[3] Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик, 1-жилд / Азиз Қаюмов: Нодир Саҳифалар; Суйима Ғаниева: Навоий насри нафосати; Навоий ёдга олган асарлар; нашрга тайёрловчилар: О.Давлатов, Д.Юсупова; Алишер Навоий номидаги халқаро жамоат фонди. –Тамаддун: 2022. -311 б.

nightingales served to convey philosophical thoughts. “Social existence and divinity, man and his identity, religion, mysticism and other issues constitute the main issues of Navoi’s philosophical views.” For example, in the epic, he likens "a person to a flower garden, and the soul that enters his body to the wind that blows through this flower garden. However, the main goal of introducing the soul into the body's flower garden was not any flower, but the heart"[4] because "to be amazed by the world, its beauty, its secrets and mysteries is the work of the heart, that is, the soul, Navoi puts forward the idea that man is, first of all, a soul, the perfection of man”[5]:

Royixai jannati a’lo ham ul,
Partavi misbohi tajallo ham ul.
Solik ani Arshi muallo dedi,
So‘fi ani olami kubro dedi.

Or in the epic poem "Farhod and Shirin", the images of flowers and nightingales served to brighten the mood of the characters. The love for the main character Farhod made him so sad that the khagan was ready to do anything for him. To cheer up his beloved, he built a palace in accordance with the four seasons and held parties in them. According to Navoi, "The flame of love burning in Farhod's heart is likened to a fire burning in a house.

In the epic poem "Layli and Majnun", the meeting of lovers and lovers is mainly reflected in landscape scenes. Most of these images are related to the garden, the flower garden, the flower season, and spring. For example, in the epic poem "Layli and Majnun", Majnun first meets Layli in the garden in spring. He goes to the garden with his schoolmates. The reason he did not meet Layli at school before that was because she was sick. But that day, Layli recovered during a walk in the garden, and he also visited the garden:

Sayr ichra etishti mohi dilxoh,
Bir gul chamani ichiga nogoh.
Gulbun bila rust to‘rt yoni,
Kirsa kishi kimsa toimay oni.

In the epic poem "Sab'ai Sayyor", the image of a flower and a nightingale is used more widely than in other epic poems. In Chapter XIV, when talking about Dilorom's playing of the dust, Navoi likens Dilorom to a flower and her voice to a sweet-voiced nightingale:

Garchi tovusdek jamoli aning,
Bulbul alhon ila maqoli aning.

The use of the image of a flower and a nightingale in the epic poem "Saddi Iskandari" is different from other epic poems. The author likens human youth to spring. Describing spring as a time of play, he interprets the flowers in the garden as the beauties of Chin. The flower arrangement “in addition to serving to glorify nature and love, also emphasizes that Iskandar, despite being a dwarf, can enjoy and love nature”[6].

Discussion. Although the poet does not speak openly about the concept of love, he describes it through the images of a flower and a nightingale. Seeing a red flower that radiates like fire, the nightingale burns with love for it like a salamander. In fact, it is not the red flower that burns, but the fire of love that has entered the soul of the nightingale. “The nightingale’s love for the flower is so strong that it constantly strives for the flower and, walking in the grass that the flower spreads, reminds it of the samandar living in the grass.” This quatrain, depicted in the art of Ruju, served to convey the figurative image of love. Because at the end of the story, it is said that Iskandar, who was burning in the flower pilgrimage, went to the flower to seek his beloved. The epic poem "Saddi Iskandariy" does not only cover the campaigns of Iskandar, but also captures all the problems of that time, along with their solutions. The image of the flower and the nightingale is reflected in the depiction of enlightenment, love, images of nature, and family relationships.

Conclusion and suggestions. 1. In his epic poem "Khamsa", Alisher Navoi addressed various social, political, moral, cultural, and educational issues through the images of flowers and nightingales. In the epic "Hayrat ul-Abror", the moral and philosophical views of the poet, in particular, the creation of love and its essence, were revealed through the images of flowers and nightingales. In the epic, the flower represents enlightenment, and the nightingale symbolizes the tax collector who steps on it.

2. In the epic "Farhod and Shirin" he expressed the meanings of love, teacher-discipleship through the images of a flower and a nightingale. In the epic, Farhad's inner mental state is also indicated through the image of a flower. Shirin flower, to the petal; Gulgun horse to flower; Armenian country to gulsiton; the comparison of the castles to the threshing floor proves the important place of the flower symbol in the epic.

3. In verses of a romantic nature, the experiences of the lyrical hero are vividly expressed through the images of flowers and nightingales. In the epic "Layli and Majnun" Majnunn is compared to a nightingale as a real lover - a tax collector. The allusion to Majnun Hazordostan and his father Gulistan in the epic is a proof of the artist's high artistic skills.

4. In the epic poem "Saba'i Sayyor", the flower and the nightingale are represented as Dilorom. Also, the epic poem "Saddy Iskandariy" stands out from other epic poems in that it highlights social issues through the images of the flower and the nightingale, the artistic expression of the nightingale's love for the flower in the "nightingale story", and the emergence of jealousy and estrangement typical of women. In the epic, y is alluded to the garden.

REFERENCES

1. T.Xo‘jayev. Navoiy “Xamsa”si: obraz, badiiyat va mohiyat.-Toshkent: Zilol buloq nashriyoti,2023. – 234 B.
2. Navoiyga armug‘on. Ikkinchi kitob. H.Homidov, S.Ashirboyev, B.To‘xliyev,I.Yo‘doshev.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. –B. 110.
3. Istiqlol davri o’zbek navoiyshunosligi. 30 jildlik, 1-jild / Aziz Qayumov: Nodir Sahifalar; Suyima G‘aniyeva: Navoiy nasri nafosati; Navoiy yodga olgan asarlar; nashrga tayyorlovchilar: O.Davlatov, D.Yusupova; Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi. – Tamaddun: 2022. – 311 b.
4. Erkinov A. Navoiy –peyzaj ustasi. -Toshkent: Fan, 1988.
5. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/sultonmurod-olim-kongi.html

[4] https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/sultonmurod-olim-kongi.html
[5] Навоийга армуғон. Иккиинчи китоб. Ҳ.Ҳомидов, С.Аширбоев, Б.Тўхлиев,И.Йўдошев.-Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. –Б 110.
[6] Эркинов А.Навоий –пейзаж устаси.-Тошкент: Фан,1988.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

“XOLDORXON” DOSTONIDA LEKSIK-SEMANTIK TAKRORNING LINGVOPOETIK VAZIFALARI

Zuhra Yuldasheva
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 23
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1309

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

doston, “Xoldorxon” dostoni, takror, lingvopoetika, leksik takror.

ANNOTATSIYA

Maqolada leksik takrorning “Xoldorxon” dostonidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Ushbu maqolada Go‘ro‘g‘li turkumiga mansub “Xoldorxon” dostonidagi leksik-semantik takroriy shakllarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida epanalepsis, sinonimik va antonimik takror, halqasimon takror kabi birliklarning badiiy matndagi funksional o‘rni o‘rganildi. Takror san’ati doston nutqining musiqiyligi, ritmik uyg‘unligi va emotsional ta’sirchanligini ta’minlashda muhim vosita ekanligi asoslab berildi. Takror tushunchasi tilda ma’noni kuchaytirish, ta’kidlash, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ba’zi so‘z va unsurlarning qayta qo‘llanishiga nisbatan ishlatiladi. Takror va takroriylik adabiy matn tashqarisida, bizni qurshab turgan olamdagi jismlararo munosabatlarda ham mavjud. Hatto hayotimizning har qirrasida muntazamlikni ta’minlovchi, murakkablikni bartaraf qiluvchi beminnat vosita sifatida duch kelamiz. Takror keng ma’noda odam va olam bilan bog‘liq tushuncha va mavjudlikning nomi hisoblanadi. Dostondagi takrorlar orqali qahramonlar xarakteri, yaxshilik va yomonlik qarama-qarshiligi, jang manzaralarining dinamikasi kuchaytiriladi. “Xoldorxon” dostonining nasriy va she’riy qismlarida takrorlar o‘ziga xos stilistik yukni bajarib, epik nutqning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, leksik-semantik takroriy birliklar doston kompozitsiyasining uzviy qismi bo‘lib, folklor nutqining ritmik-intonatsion yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kirish. Go‘ro‘g‘li turkumiga kiruvchi “Xoldorxon” dostoni faqat voqealar zanjirining betakrorligi bilan emas, balki uning lisoniy tuzilishidagi o‘ziga xos poetik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, asarda qo‘llanilgan leksik-semantik takroriy shakllar doston tilining badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Takror san’ati folklor tilida asosiy poetik vosita bo‘lib, u so‘zlar va so‘z birikmalarini qayta-qayta ishlatish orqali ma’noni kuchaytiradi, obrazni yorqinlashtiradi va nutqqa musiqa baxsh etadi.

Adabiyotlar tahlili. “Xoldorxon” dostonidagi leksik-semantik takroriy shakllarning lingvopoetik tabiati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mavjud folklorshunoslik va lingvopoetika bo‘yicha ilmiy adabiyotlarla uyg‘un holda izohlanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, takror san’ati xalq og‘zaki ijodida doimo asosiy poetik vositalardan biri sifatida baholanib kelgan. M.Yo‘ldoshev va Q.Yadgarovlarning badiiy matnning lisoniy tahliliga bag‘ishlangan asarlarida takrorning mazmuniy va ekspressiv vazifalari alohida ta’kidlanadi [1]. Ularning fikriga ko‘ra, badiiy matndan takrorni olib tashlash nutqning emotsional kuchini pasaytiradi, obrazli fikrlashga putur yetkazadi. Adabiyotshunoslik lug‘atida ta’kidlanganidek, takrorning epanalepsis, anafora, epifora, halqasimon takror kabi ko‘rinishlari matn ritmini, mazmuniy qatlamini va sintaktik uyg‘unlikni yaratishda muhim vositadir. Ushbu nazariy qarashlar doston matnidagi dasta-dasta, to‘p-to‘p, o‘g‘ri-o‘g‘ri, el-el kabi epanaleptik birliklarning poetik funksiyasini sharhlashga asos bo‘ladi. M.Abdupattoyevning poetik sintaksisga oid tadqiqotida takrorning sintaktik struktura yaratishdagi ahamiyati ko‘rsatiladi [2]. “Xoldorxon” dostonida takror vositasi aynan sintaktik butunlik va ritmning barqaror saqlanishiga xizmat qilishi M.Abdupattoyevning ilmiy qarashlari bilan to‘liq mos keladi. B.To‘ychiboyev va X.Toshmatovlarning xalq dostonlaridagi metafora, tasviriy vositalar va xalq tili xususiyatlariga oid ishlarida folklor nutqining asosiy quroli sifatida takror va parallel konstruksiyalar doimo faoliyat qilishi qayd etiladi[3]. Doston qahramonlarining fe’l-atvori, jang manzaralari, xalqning ijtimoiy-estetik qarashlari takrorlar orqali kuchliroq ifodalanishi aynan ushbu nazariy qarashlarni amalda tasdiqlaydi. Sh.Shoabdurahmonovning “Ravshan” dostoni tiliga bag‘ishlangan ishlari esa baxshichilik an’analaridagi ritmik tuzilish, evfoniya va takror vositasining roli haqida muhim xulosalar beradi[4]. Unga ko‘ra, baxshi ijrosida matnning xushohang bo‘lishi tinglovchini ruhlantirish va voqealarni yaxlit qabul qilish uchun ahamiyatlidir. “Xoldorxon” dostoni misolida ham aynan shu jihat fonetik moslik, ritmik uyg‘unlik va emotsional kuch takrorlar orqali ta’minlangan. D.O‘rinboyeva tadqiqotlarida folklor matnlarida frazeologizmlar va matnni to‘ldirish koeffitsienti o‘rganilgan bo‘lib, u takroriy birliklarning kompozitsion-ritmik tizimdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi[5]. Doston matnida takrorlarning kompozitsiya va mazmunni to‘ldirishdagi roli aynan ushbu ilmiy qarashlar asosida tahlil qilinmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Xoldorxon” dostonidagi takroriy birliklar xalq eposi nutqi tabiatiga xos bo‘lgan lingvopoetik qonuniyatlar asosida shakllanadi. Ularning fonetik, leksik va semantik darajadagi vosita sifatida ko‘p jihatli funksiyasi ilmiy manbalarda qayd etilgan nazariy mulohazalar bilan to‘liq uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi.

Metodologiya. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va lingvopoetik tahlil usullari qo‘llanildi. Asosiy manba sifatida “Xoldorxon” dostoni matni hamda o‘zbek xalq eposiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Leksik va semantik takrorning turlari — epanalepsis, sinonimik va antonimik takror, halqasimon takror shakllari lingvistik jihatdan tahlil etildi.

Tadqiqot natijalari. Go‘ro‘g‘li turkumiga kiruvchi “Xoldorxon” dostoni voqealar silsilasining betakrorligi bilangina emas, lisoniy tashakkulining o‘ziga xosligi bilan ham alohida ajralib turadi. Ayniqsa, dostonda qo‘llangan leksik-semantik takroriy shakllarning badiiy-estetik ko‘rinishlari ham diqqatga sazovordir.

Badiiy matnda ayrim leksik birliklarni takrorlash yordamida nutqning ta’sirchanligi ortadi. Badiiy matnda takrorning bir necha ko‘rinishlari mavjud. Bularning ichida leksik-semantik takrorning alohida o‘rni bor. Leksik-semantik takror deganda, so‘zlarning aynan yoki ma’no takrori nazarda tutiladi.

Takroriy birliklar mohiyati bilan bog‘liq tadqiqotlarda “**epanalepsis**” deb ataluvchi hodisa haqida so‘z yuritiladi. Bir so‘zning ketma-ket juft holda qo‘llanishi mazkur termin ostida o‘rganiladi. Bunday takror badiiy matnda ekspressivlikni ta’minlashga xizmat qiladi: *Oyisining tag‘in bir ermak iborasi bor: “Senlarni o‘ylay-o‘ylay adangning sochlari oqarib ketdi, men bu dardi bedavoga yo‘liqdim”* (E.A’zam)[6]. Mana shu o‘rinda yozuvchi *o‘ylay-o‘ylay* takror birligi o‘rnida *o‘ylayverib* ravishdoshini qo‘llashi mumkin edi va ayni ma’no aniq

[1] Yo‘ldoshev, M., Yadgarov, Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2007.
[2] Abdupattoev, M.T. O‘zbek tilining poetik sintaksisi: Filol. fan. dokt. (DSc) … diss. – Farg‘ona, 2021. – 162 b.
[3] Toshmatov, X.Q. Xalq dostonlarida metafora // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – № 4. – B. 56–60.; To‘ychiboyev, B. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. – 160 b.
[4] Shoabduraxmonov, Sh. O poeticheskix osobennostyax uzbekskogo eposa «Ravshan» Ergasha Djumanbulbul ogly // Obщestvennye nauki v Uzbekistane. – Tashkent, 1970. – № 10. – S. 24–27.; Shoabdurahmonov, Sh. Ergash Jumanbulbul dostonlarida ifoda va tasviriylik // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1970. – № 5. – B. 43–50.; Shoabdurahmonov, Sh. “Ravshan” dostonining tili haqida // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni to‘plami. – Toshkent, 1971. – 2-kitob. – B. 146–172.
[5] O‘rinboyeva, D. Dostonlar tilida frazeologik birliklar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2007. – № 6. – B. 87–90.; O‘rinboyeva, D. Folklor asarlari tilida matnni to‘ldirish koeffitsientini aniqlash // Stilistika va pragmatika. – 1-qism. – Samarqand, 2010. – B. 158–160. adabiyotlar tahlili va annotatasiya
[6] Йўлдошев М., Ядгаров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007.

ifodalangan bo‘lar edi. Biroq bir so‘zni aynan takrorlash orqali ma’no kuchaytirilgan va *o‘ylamoq* fe’lining ma’no doirasi nihoyatda kengaygan. Natijada kuchli ekspressiya hosil qilingan.

“Xoldorxon” dostonida ham **epanalepsis** hodisasi ko‘p kuzatiladi. Mazkur hodisa dostonning evfonik tizimini shakllantiradi va nutq tovushlari takroriga asoslangan xushohanglilikni ham yuzaga chiqaradi. Ma’lumki, “evfoniya, asosan, fonetik vositalar yordamida yuzaga keladi, nutqning xushohangligi ko‘p jihatdan uning fonetik shakllanishiga bog‘liqdir. Evfoniya she’riy nutqda, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadiki, shuning uchun she’rning fonetik tashkillanishiga alohida e’tibor beriladi. She’riy nutqning ritmlar tartibi, sintaktik tuzilishi va u bilan bog‘liq intonatsiya elementlariga ko‘ra tartibga solinishi she’rning intonatsion-sintaktik tuzilishini tashkil etadi. She’rning bunday tuzilishi badiiy nutqning emotsional ta’sirchanligini yanada oshiradi, xitob-undov va so‘roq mazmunini ifodalovchi intonatsion-sintaktik gap qurilishlaridan maqsadga muvofiq foydalanishga imkon beradi. Shuning uchun bunday nutq emotsional-ritorik intonatsiyali nutq hisoblanadi hamda badiiy tasvirda ifodalilik hosil qiladi va ma’lum stilistik vazifani bajaradi”[7].

Bu esa tinglovchi uchun doston tilining musiqiyligidan zavq olinishini ta’minlaydi:

*Xoldorxon lashkarini **dasta-dasta, to‘da-to‘da, to‘p-to‘p, bayroq-bayroq, tug‘-tug‘** qilib jo‘nataberdi. Lashkarning oldi kelib, Go‘ro‘g‘libek lashkarining oldini olib tushaberdi. (...) Xoldorxonning jonsiparlari, nonxo‘rlari saf tortib, safda turib, ichi qizib, Go‘ro‘g‘libekning qo‘shiniga ko‘zi ola-bo‘la berdi, **o‘g‘ri-o‘g‘ri** qaray berdi. (...) Ana endi Go‘ro‘g‘libekning lashkari, katakonlari **bitta-bitta, o‘nta-o‘nta, to‘p-to‘p, el-el,** har qaysisi japsi bilan **guruh-guruh, to‘da-to‘da** bo‘lib qutli bo‘lsinga kela berdi, muborakbodlik qila berdi; bari shodmon, xandon kulib-o‘ynab, yashil kiyib jaynab borish-kelish qilayotir Hasan ko‘lbar kelganlarga ziyofat ustiga ziyofat [berayotir]; (...) Ana odamlar **giras-giras, to‘da-to‘da, bo‘lak-bo‘lak, aymoq-aymoq, el-el, o‘rda-o‘rda** kelayotir, kelgani joy olib sarositasini olayotir, qancha bakovullar, arboblar, oqsoqol bari joy boplab kelgan-ketganni o‘xshatib, bajarib yuribdi.*

Keltirilgan parchadagi epanalepsis hosil qiluvchi takroriy juft so‘zlar lashkarning beadad ko‘pligini shu bois ularni guruhlab, har bir guruhni alohida bayroq va tug‘ bilan ta’minlash amaliyotining bir necha bor takrorlanganligiga ishora qilinadi. Natijada juda ta’sirchan, xushohang jumla hosil bo‘lgan. *Dasta-dasta, to‘p-to‘p, to‘da-to‘da* takrorlari mazmunan “guruhlarga ajratib” ma’nosiga teng keladi. *Bayroq-bayroq, tug‘-tug‘* takrorlari ham “bir bayroq, bir tug‘ ostida birlashtirib” degan ma’noni ifodalaydi. Agar takror o‘rnida “lashkarni guruhlarga ajratib, bir bayroq ostida birlashtirib jo‘nataverdi” tarzida ifodalanganida ta’sirchanlik, emotsional-ekspressivlik, mazmuniy qamrovdorlik bu qadar aniq namoyon bo‘lmas edi. *O‘g‘ri-o‘g‘ri* takrorida esa “o‘g‘rincha”, “o‘g‘rilardek” ma’nosi ta’sirchan ifodalangan. Keyingi jumladagi son takrorida alohidalik (*bitta-bitta*), ko‘plik (*o‘nta-o‘nta*) ma’nolari reallashgan bo‘lsa, *el-el* takrorida esa “urug‘-aymoq va ulus birligi” ma’nosi ta’kid olgan.

Misollardagi *giras-giras* takrori “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *guras-guras* shaklida izohlangan va u “to‘da-to‘da bo‘lib, to‘p-to‘p” degan ma’nolarni ifodalashi qayd qilingan[8].

Mazkur misoldagi o‘rda-o‘rda epanalepsisi qadimgi turkiy so‘z bo‘lib, “qo‘shin, harbiy tuzilma” ma’nosini ifodalaydi. Va askarlarning qo‘shinlar holida harakatlanayotganligini ixcham tarzda ifodalagan.

Dostonning nasriy qismida bunday poetik figuralardan keng foydalanilganligi kuzatiladi. Buning sababi esa takrorga asoslangan xushohanglikni yuzaga chiqarishdan iborat. She’riy qismda musiqiylik boshqa hodisalar hisobiga ham oson hosil qilinaveradi. Nasrda esa bu holat nisbatan cheklangan.

Dostonda leksik-semantik takrorlar ham asar badiiyatini oshirishda keng qo‘llangan. Bunday birliklarni qo‘llashda ham usta baxshi o‘z mahoratini namoyish qilgan. Shulardan biri takrorlanuvchi birliklarning halqa shaklida tizilishidir. Bunda birinchi satrda qo‘llangan dominant so‘z ikkinchi satrda ham aynan yoki uning sinonimi orqali takrorlanadi. Shu tarzda birinchi va ikkinchi satr bir butunlik kasb etadi. Dostonda jang epizodi tasvirida ana shunday o‘ziga xos halqa shaklda takrorlanuvchi birliklarni kuzatish mumkin:

***Dovshi** baland chiqar Yovmit bolasin,*
*Qizilboshning **dovshin** bosib ketadi.*
*Shunday bo‘lib **savash** bo‘ldi Qrimda,*
*Har yerda botirlar **savash** etadi.*
***Savash** degan botirniki, yoronlar,*
*Qo‘rqoq **urush** bo‘lmay qochib ketadi.*
*O‘choqning boshida ko‘r-da **qo‘rqoq**ni,*
***Qo‘rqoq** botirlikni uyda etadi. (124-bet)*

Keltirilgan parchada *dovush*, *savash* va *qo‘rqoq* so‘zlari halqa shaklida takror qo‘llangan. *Savash* so‘zi o‘g‘iz lahjasiga oid so‘z bo‘lgani bois qipchoq va qorluq lahjasida so‘zlashuvchilarga ham tushunarli bo‘lishi uchun mazkur so‘zning sinonimi (*urush*)ni ham qo‘llab boradi. Ayrim o‘rinlarda *urush* so‘ziga sinonim sifatida *qirish*, *o‘ldirish, girish* so‘zlarini ham keltiradi:

***Urush** bo‘ldi, **urush** bo‘ldi,*
*Ayamasi **qirish** bo‘ldi.*
*Hunari **o‘ldirish** bo‘ldi,*
*Varqiragan **girish** bo‘ldi. (124-bet)*

Yana quyidagi misolda ham sinonimik takror kuzatiladi:

*Men endi **shohlik**ni qo‘ydim,*
***Qalandar** bo‘p kuloh kiydim.*
***Podsholik**ni taloq qildim,*
*Endi **gadoy**likni suydim. (182-bet)*

Mazkur parchada *shohlik* va *podsholik*, *qalandar* va *gadoy* sinonimik takrorlari ayni matnda antitezani ham hosil qilgan.

Dostonda antonimiyaga asoslangan tasvirlar ham uchraydi. Bunday vositalar asosida shakllangan matnda kontrastlik kuchli ifodalangan bo‘ladi. Antiteza bu borada eng qulay tasviriy vostita hisoblanadi. Ma’lumki, antiteza mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasidir.

Badiiy nutqda antitezadan alohida tasviriy vosita sifatida foydalaniladi. Qiyos orqali aytilayotgan fikr kengroq anglanadi. “Xoldorxon” dostonida yaxshi va yomon fe’l-atvor, tushuncha va qahramon antiteza asosida o‘zaro qiyoslanadi. Badiiy nutqda antiteza tilning barcha – fonetik, leksik, morfologik va grammatik sathlarida ham kuzatiladi. Leksik sathda o‘zaro zidlanayotgan so‘zlar kontrast tushunchalarni ifodalaydi va ularning uslubiy bo‘yoqdorlik belgisini kuchaytiradi. Zero, “Antiteza badiiy nutqda konflikt yaratish vositasi sifatida ham baholanadi. U ziddiyat mohiyatini ochib bera oluvchi, ziddiyatni yuksak badiiy ifodasini yarata oluvchi figura hamdir” [9]. “Xoldorxon” dostonida yaxshi va yomon inson, yaxshilik va yomonlik, yaxshi nom qoldirish va yomon nom qoldirish tushunchalari bir nutq parchasida qiyoslanadi:

Ana endi yaxshi so‘z hammaga yaxshi. “Yaxshi so‘z bilan ilon indan chiqar, yomon so‘z bilan odam dindan chiqar”. Yaxshi ot ko‘targan kishilar o‘rniga yaxshiligini qo‘yib ketibdi. O‘zi ketsa ham, so‘zi to‘g‘ri, yaxshi ishi to‘g‘ri. Ana endi shu yaxshi otning yaxshi so‘zini bu vaqtdagi odamlar eshitib, ko‘rmasa ham yaxshi ko‘radi. Yaxshi deb yaxshilab gapiradi. Shu yaxshi oti, so‘zi shu odamni doim yaxshi qilib turibdi. Jami odam uni yaxshi, deb yaxshilab, yaxshiligiga ko‘ra hamma yaxshi dedi. Ko‘rmasa, bilmasa ham shul sababdan yaxshi ot odamga juda darkor. U yoqda ham yaxshilik ko‘p yaraydi, albatta. Yomonlik bir yomon kasalday bachchag‘ar-da. Hamma yomon kasaldan menga yuqmasin, deb jirkanadi, hamma bezor, tura qochadi, hech kim yoqtirmaydi. Meni shunday hech kim suymasa, bundan yomon narsa nima?! Ana endi yomon ot shunday. Yomon ot qolsa, ortida qolgan kishilar ko‘rmasa ham, ortidan yomon, deb jirkanib, yomon yodlab, g‘oyibonasiga la’nat o‘qib, hamma so‘kadi, bu qanday gap?! (436-bet)

Matnni kattaroq olishimizdan maqsad baxshi dostonidagi zidlanishga asoslangan tafakkur tarzini yaxlit berish hamda qarshilantirilayotgan tushunchalarni bir butun holda tasavvur qilish imkonini yaratishdan iborat. Ko‘rinadiki, baxshi asosan *yaxshi* so‘zi orqali ijobiy fe’l-atvorga ega insonni tasvirlaydi. Uning har bir holini yaxshi va yaxshilik deb ataydi. Hatto yaxshilikning bu dunyo bilan chegaralanib qolmy, u dunyoda ham davom etishiga ishonchi komilligini ta’kidlaydi. Keltirilgan parchada *yaxshi* va u asosida hosil qilingan so‘zlar 18 marta, *yomon* va ular asosida hosil qilingan so‘zlar esa 9 marta qo‘llangan. Ya’ni ijodkor yaxshining yomonga nisbatan ko‘p bo‘lishini istaydi va yaxshilikni olqishlaydi. Yomonlikni esa *yomon*

[7] Куронов Д, Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.355.
[8] O‘zbek tilining izohli lug‘ati, J.II. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – Б.266.
[9] *Bu haqda qarang*: Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. докт. (DSc) … дисс. – Фарғона, 2021. – 162-б.

*kasal*ga o‘xshatadi. *Bachchag‘ar* deya, jonlantiradi. Hamma undan jirkanishini, unga la’nat o‘qib, ortidan so‘kishini aytadi.

Quyidagi parchada ham antitezaga asoslangan takrorning go‘zal namunasini ko‘rish mumkin:

Bol Avazning qo‘li qizib tobora Qaysar shohga g‘olib kelayotir. ***Avval-avval*** *barobar bo‘lib yurib edi.* ***So‘ng-so‘ng*** *mazasi ketaberdi.*

Yoki:

... o‘zidan-o‘zi o‘tirgan yerida: “Ol, yigitlar, ana Go‘ro‘g‘li bek keldi, ana qirq yigit keldi”, – deb barining yuragini yora berdi. ***Avval-avval*** *yigitlari: “Sardor bir gapni biladi”, – deb qo‘rqdi. So‘ng qarasa, Go‘ro‘g‘li ham yo‘q, qirq yigit ham yo‘q.* ***So‘ng-so‘ng*** *beklar: “Bu qo‘rqqanidan tentak bo‘layotir”, – deb bilib qoldi. Bo‘lmasa, avval-avval Ahmad sardor tura solib qochsa, yigitlari ham qochdi.*

Dostonda bunday o‘ziga xos takroriy shakllar ko‘p qo‘llangan. Takroriy birliklar baxshilar uchun voqealar tizimini shakllantirishda qulay omil bo‘lish barobarida tinglovchilar uchun voqeani yaxlit holda tasavvur qilishini osonlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari takrorlar matnning intonatsion butunligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega birlik sanaladi. Shuning uchun ham dostonlarda qo‘llangan takroriy birliklar filologik aspektda keng tadqiq etilishi zarur.

Muhokama. Dostonda yepanalepsis – ya’ni bir so‘zning ketma-ket ikki marta takrorlanishi ko‘p uchraydi:

“...dasta-dasta, to‘p-to‘p, to‘da-to‘da, bayroq-bayroq, tug‘-tug‘...”

Bu holat badiiy matnda evfoniyani ta’minlaydi, nutqqa xushohanglik baxsh etadi va o‘quvchi/tinglovchida musiqiy hisni uyg‘otadi.

Boshqa bir misolda “o‘ylay-o‘ylay” takrori orqali ma’no kuchaygan va fe’lning ma’no doirasi kengaygan. Bu kabi takrorlar asarda kuchli ekspressiv ta’sir yaratadi.

Shuningdek, dostonda sinonimik takrorlar (“shohlik – podsholik”, “qalandar – gadoy”) antipod ma’nolar bilan uyg‘un holda qo‘llanilib, antiteza orqali fikrning ziddiyatliligini ifoda etadi. Antonimlarga asoslangan bunday takrorlar badiiy nutqda kontrastlik va dinamik harakatni ta’minlaydi.

Dostonning she’riy qismida ham takrorlar orqali halqasimon kompozitsiya yaratilgan:

“*Dovshi baland chiqar Yovmit bolasin,*

Qizilboshning dovshin bosib ketadi.”

Bu yerda “dovsh”, “savash”, “qo‘rqoq” so‘zlari halqa shaklida takrorlanib, ma’no birligi va ritmik uyg‘unlikni ta’minlaydi.

Takror – doston tilida nafaqat fonetik musiqa, balki ma’no va qahramon xarakterini ochishda ham muhim stilistik vazifani bajaradi. “Xoldorxon” dostonida takrorlar orqali yaxshilik va yomonlik, qahramonlik va qo‘rqoqlik tushunchalari qarama-qarshi qo‘yiladi. Bu antitezalar orqali ijodkor yaxshilik g‘oyasini olqishlaydi, uning ma’naviy ustuvorligini yorqin ko‘rsatadi. Bunday poetik figuralar dostonning nasriy qismida ko‘proq qo‘llanilishi orqali rivoyat nutqidagi xushohanglikni ta’minlaydi. Takror vositasi syujet tizimini yaxlitlashda, intonatsiyaviy butunlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa va tavsiyalar. “Xoldorxon” dostonidagi leksik-semantik takrorlar eposning badiiy qimmatini belgilaydigan asosiy lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Ular orqali epik nutqning musiqiyligi, ekspressivligi va emotsional ta’sirchanligi ta’minlanadi. Shu sababli, folklorshunoslikda dostonlardagi takrorlarni lingvopoetik jihatdan chuqur tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev, M., Yadgarov, Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2007.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy tarjimada lisoniy transformatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari. Vol. 6 No. 2 (2025): Educational Yield Insights & Breakthroughs.
3. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 355.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J. II. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 266.
5. Abdupattoev, M.T. O‘zbek tilining poetik sintaksisi: Filol. fan. dokt. (DSc) … diss. – Farg‘ona, 2021. – 162 b.
6. Solijonov, Y., Mo‘minov, S. Badiiy asarlarda ismning ayrim funksiyalari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1984. – № 2. – B. 44–49.
7. Toshmatov, X.Q. Xalq dostonlarida metafora // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – № 4. – B. 56–60.
8. To‘ychiboyev, B. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. – 160 b.
9. Usmonova, Sh. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda o‘xshatishlarning o‘rni // Sharqshunoslik / Vostokovedenie / Oriental Studies. – Toshkent, 2015. – № 1. – B. 76–81.
10. Shoabduraxmonov, Sh. O poeticheskix osobennostyax yazыka poemы «Ravshan» Ergasha Djumanbulbul oglы // Obщestvennыe nauki v Uzbekistane. – Tashkent, 1970. – № 10. – S. 24–27.
11. Shoabdurahmonov, Sh. Ergash Jumanbulbul dostonlarida ifoda va tasviriylik // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1970. – № 5. – B. 43–50.
12. Shoabdurahmonov, Sh. “Ravshan” dostonining tili haqida // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni to‘plami. – Toshkent, 1971. – 2-kitob. – B. 146–172.
13. O‘rinboyeva, D. Dostonlar tilida frazeologik birliklar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2007. – № 6. – B. 87–90.
14. O‘rinboyeva, D. Folklor asarlari tilida matnni to‘ldirish koeffitsientini aniqlash // Stilistika va pragmatika. – 1-qism. – Samarqand, 2010. – B. 158–160.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

KOMMUNAL XIZMATLAR BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Mardanova Mohidil Otabek qizi
Samarqand Arxetektura va qurilish universitet, tayanch doktoranti. mohidil@2024mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 24
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1310

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Kommunal xizmatlar, kommunal xizmatlar boshqaruvi, kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi subyektlar, boshqaruv samaradorligi, SWOT tahlili.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Respublikada kommunal xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarda boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek ishda kommunal xizmat ko‘rsatishda boshqaruv tuzilmalari, boshqaruv samaradorligini oshirishga tasir etuvchi omillar asoslanilgan. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida uy-joy kommunal xizmatlari tizimini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari o‘rganilgan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar, xususan, elektr energiyasi ta’minotini oshirish, ko‘p qavatli uylarning energiya samaradorligini baholash tizimini joriy etish kabi maqsadlar kommunal xizmatlar boshqaruvini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda ekspert baholash, solishtirish, tizimli tahlil, SWOT tahlili kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Samarqand viloyati misolida kommunal xizmat ko‘rsatish subyektlari boshqaruvining amaldagi holati tahlil qilinib, boshqaruvning uch pog‘onali tizimi mavjud muammolarni chuqurlashtirayotgani aniqlangan. Taklif etilayotgan ikki pog‘onali boshqaruv modeli boshqaruv jarayonini soddalashtirishi, ortiqcha bo‘g‘inlarni qisqartirishi hamda aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Tadqiqot davomida kommunal xizmatlar boshqaruviga ta’sir etuvchi bevosita va bilvosita omillar aniqlanib, soha bo‘yicha SWOT tahlili ishlab chiqildi. Maqola yakunida sohaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish, raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish va malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish. Respublikamiz iqtisodiyotini jadal taraqqiy ettirishning muhim asoslaridan biri bu - aholi turmush darajasini oshirish va shu asosida kommunal xizmat ko‘rsatishni yaxshilash ustuvor vazifalardan hisoblanadi, ayniqsa bu borada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida alohida maqsadlar belgilanib soha samaradorligini oshirish vazifasi belgilangan. Ta’kidlash joizki “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mazkur soha taraqqiyoti bo‘yicha “Iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan elektr energiya miqdorini 120 mlrd kVtga yetkazish”. Shu bilan birga “Ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligini (Energo Audit)ni baholash tizimini joriy etish”[1] kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirish kommunal xizmatlarni rivojlantirish va uning boshqaruv samaradorligini oshirishni tizimli amalga oshirishni talab etadi.

Shunday ekan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki kommunal xizmatlar boshqaruvi samaradorligini oshirishda unga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Maskur tadqiqot jarayoni yani kommunal xizmatlar samaradorligini oshirish va uni boshqaruviga ta’sir etishni o‘rganish uchun bir qator olimlarning, soha mutaxasislarning ilmiy qarashlarini tadqiq etdik.

Jumladan respublikamiz olimlaridan Q.J. Mirzayev, M.Q.Pardayevlar e’tirof etishiga ko‘ra, “ Kommunal xizmat deyilganda, mahalliy hudud hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan uy-joy, transport, elektr ta’minoti, gaz, suv kabi aholining yashashini yaxshilash bilan bog‘liq xizmatlar bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar tushuniladi”[2]degan fikrni bergan.

Boshqa bir iqtisodchi olim S.B. Boboqulovga ko‘ra “Uy-joy kommunal xizmat- bu jamiyat a’zolarining turmush kechirishi uchun zarur moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi hamda ular farovonligining oshirish imkoniyatini yaratuvchi xizmat ko‘rsatish” [3] faoliyatidir. Shuningdek Respublikamizning boshqa olimlaridan kommunal xizmat va kommunal xo‘jalik kategoriyalari bo‘yicha olimlardan V.Y.Yodgorov va D.Y.Butunovlar “Uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimi – bu murakkab iqtisodiy tizim bo‘lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida iqtisodiyotning turli taqmoqlariga tegishli bo‘lgan korxona va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo‘lgan resurslar yetkazib berish bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o‘rinlari bilan ta’minlaydi”[4] degan fikrni o‘rtaga tashlaydi.

Ayniqsa Respublikamizda bugungi innovatsion iqtisodiyot sharoitida uy-joy kommunal xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish va uni boshqarish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan qator me’yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan ular quyidagilardan iborat.

2017-yil 18-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” [5] gi qarori qabul qilindi. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida 2019-yil 6-avgustda “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risidagi” [6] gi qonun qabul qilindi. Bundan tashqari mamlakatimizda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida ko‘plab dasturlar qabul qilinib islohatlar olib borilmoqda.

Metodologiya. Ushbu maqolani bajarish davomida ilmiy bilishning bir qator usullaridan jumladan ekspert baholash solishtirish, tizimli tahlil, analiz va sintez, SWOT tahlili kabi usullardan foydalanilgan. Ushbu usullardan foydalanish mazkur maqolani chuqur tahlil etish va zaruriy ilmiy xulosal::ar chiqarish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida Samarqand viloyatidagi kommunal xizmat ko‘rsatish va kommunal xizmat subyektlarini boshqaruv jarayonini tahlil etish amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki kommunal xizmatlar ko‘rsatish subyektlarini boshqarish zaruriyati quyidagilardan iborat

1. Aholining o‘sib borayotgan uy-joy kommunal xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish.
2. Respublika va uning alohida olingan hududlarida samarali kommunal xizmat boshqaruvini shakllantirish.
3. Kommunal xizmat ko‘rsatishda adolatlilik va korrupsiyaga qarshi tizimli boshqaruv jarayonini shakllantirish.
4. Respublika va uning hududlarida samarali kommunal xizmatlari ko‘rsatish asosida aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy samaradorlikka erishishdan iborat.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-apreldagi “O’zbekiston-2030”strategiyasi to’g’risida Farmoni
[2] Q.J.Mirzayev, M.Q.Pardayev Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O’quv qo’llanma. T.: <<ITISOD-MOLIYA>>, 2014.
[3] S.B.Boboqulov Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish samaradorligini oshirish (Samarqand viloyati misolida) [Matn]: Monografiya/ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti-Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025-218bet.
[4] V.U.Yodgorov,D.Ya.Butunov Uy-joy kommunal xo’jaligi iqtisodiyoti va boshqaruv. Darslik.-Toshkent. 2012-B.38
[5] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risidagi ” gi qarori 2017-yil 18-aprel.
[6] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Ko’p kvartirali uylarni boshqarish to’g’risidagi”gi qarori 2019-yil 6-avgust.



1-rasm Uy-joy kommunal xo'jaligi boshqaruv tuzilmasi (3-pog'onali)

Olib borilgan iqtisodiy tahlil natijalariga ko'ra kommunal xizmat ko'rsatishda samarali va optimal boshqaruv soha samaradorligini oshirish yuqori iqtisodiy natijalarni beradi.

Bizga ma'lumki boshqaruv amalyoti shuni ko'rsatadiki bugungi kunda kommunal xizmatlarni amalga oshiruvchi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatuvchi subyektlar (uy-joy mulkdorlar xo'jaligi) boshqarish bir qator tizimli shakllarda amalga oshiriladi bular bizning nazarimizda quyidagilardan iborat:

"Uch pog'onali boshqaruv'' bunda uy-joy kommunal xo'jaligi subyektlari quyidagi tartibda boshqariladi. Bunda

Hokimiyat organlari - birinchi pog'ona

Uy-joy mulkdorlari uyushmasi-ikkinchi pog'ona

Uy-joy mulkdorlari ijrochilari- uchinchi pog'ona

Shuningdek bugungi kunda ushbu tizim boshqaruv jarayonida juda katta qiyinchiliklarga va iqtisodiy juhatdan past samaradorlikka sabab bo'lmoqda. Shu sababdan biz tadqiqot jarayonida ikki pog'onali boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ikki pog'onali boshqaruvda esa boshqaruv jarayoni ancha soddalashib boshqaruvning ortiqcha bir bo'g'inidan vos kechiladi va bunda mijoz to'g'ridan to'g'ri uy-joy mulkdorlarining ixtiyoriy uyushmasi boshqaruvidan foydalanish imkoniyatidan ega bo'ladi. Shunday ekan biz tadqiqot natijalariga ko'ra ikki pog'onali boshqaruvni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. U bizning nazarimizga ko'ra quyidagi ko'rinishga ega. (2-rasm)



2-rasm Uy-joy kommunal xo'jaligi 2 pog'onali boshqaruvi

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz uy-joy mulkdorlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qildik. Bizning fikrimizcha uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarni ikki turga bevosita va bilvosita omillarga bo'lishimiz mumkun. Uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi bevosita omillar quyidagilardan iborat.



3-rasm. Uy-joy kommunal xo'jalik boshqaruviga ta'sir etuvchi omillar

Muhokama. Shu bilan birga biz tadqiqot ishida uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruv samaradorligiga tasir etuvchi omillarni SWOT tahlil usulidan foydalanib ham aniqladik bular quyidagilardan iborat.

Tadqiqot natijasiga ko'ra uy-joy kommunal xo'jaligi boshqaruv samaradorligi SWOT tahlil usulida aniqlanib mazkur SWOT tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi

Kuchli tomonlari

1. Respublika qonunlari asosida uy-joy kommunal xizmatlarini faoliyatini muhofaza qilingani.
2. Ushbu yo'nalishga davlatning doimo etibor qaratishi.
3. Uy-joy kommunal xizmatlariga bo'lgan aholi ehtiyojini yuqoriligi.
4. Uy-joy kommunal xo'jaligi faoliyatining boshqarishning mavjudligi.

5. Mazkur uy-joy kommunal xo‘jaligi faoliyatini tashkil etish uchun. mezonlar va standartlarning mavjudligi.

Zaif tomonlari

1. Uy-joy kommunal xizmatlari faoliyati uchun moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi.
2. Soha rivoji uchun malakali kadrlarning yetishmasligi.
3. Uy-joy kommunal xizmatlari bo‘yicha muommoning ko‘pligi.
4. Uy-joy kommunal xizmatlari bo‘yicha boshqaruv samaradorligini pastligi.
5. Uy-joy kommunal xizmatlari bo‘yicha xalqaro tajribaga mos boshqaruv amalyotining yetarli emasligi.

Imkoniyatlar

1. Kommunal xizmatlarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash mavjudligi.
2. Mazkur soha bo‘yicha rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar va strategiyaning mavjudligi.
3. Uy-joy kommunal xizmatlarida juda katta ichki va tashqi resurslarning mavjudligi.
4. Uy-joy kommunal xizmatlari bo‘yicha raqamli texnalogiyalarni qo‘llash imkoniyatlari mavjudligi.
5. Uy-joy kommunal xizmatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy davlat tizimi asosida alohida Respublika tajribasining shakllanganligi.

Tahdidlar

1. Uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruvida yangi boshqaruv zamonaviy usulining yo‘qligi
2. Uy-joy kommunal xizmatlari shirkatlari ishtirokchilarning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklanganligi
3. Uy-joy kommunal xizmatlari bo‘yicha iqtisodiy resurslarning yetishmasligi
4. Uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruvida tamirlash va modernizatsiya qilish uchun alohida har bir shirkat va subyektlar uchunrivojlanish dasturlarni qabul qilinmaganligi
5. Sohani raqamlashtirish pastligi uy joy kommunal xizmatida ishlovchi xodimlarning ish haqlarning past darajadaligi

Xulosa va takliflar

Respublikamizda kommunal xizmatlar boshqaruvi samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlili natijasida hamda tasir etuvchi omillar tadqiq etilib quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Respublika va alohida olingan hududlarida, shuningdek alohida olingan kichik hududlarida soha boshqaruv samaradorligi xarajatlarni kamaytirish va shirkat a’zolaridan olinadigan to;lovlarni oshirish hisobiga sohani daromadli tarmoqqa aylantirish;
2. Kommunal xizmatlari samaradorligini va boshqaruv samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi bevosita va bilvosita omillardan samarali foydalanish;
3. Respublika va uning alohida olingan hududlarida uy-joy kommunal xo‘jaligini boshqaruv samaradorlini taminlovchi jahon andozasiga mos boshqaruv tuzilmalaridan keng foydalanish;
4. Kommunal xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar (shirkatlar boshqaruvini raqamlashtirishni tezlashtirish);
5. Kommunal xizmatlari samaradorligini oshirish va boshqaruv samaradorligiga erishishda turli ko‘z bo‘yamachilik korrupsiya va noqonuniy holatlarni oldini olish
6. Sohada zamonaviy mutaxassis kadrlar hisobiga mehnat unumdorligini oshirishga erishishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, PF-158-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni, PF-60-son.
3. K.J.Mirzayev, S.B.Boboqulov, B.Q.Janzakov Raqamli iqtisodiyot [Matn]: Darslik/ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti- Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025-488 bet.
4. Q.J.Mirzayev, G‘.S.Mustafoyev, B.K.Janzakov Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti [Matn]: O‘quv qo‘llanma/ Samarqand iqtisodiyot va servis institute- Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023-418bet.
5. Q.J.Mirzayev, E.SH.Shavqiyev, B.K. Janzakov. Innovatsion iqtisodiyot. (O‘quv qo‘llanma)-T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi” 2020-298 bet.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

SPEECH ETIQUETTE AND ITS RELATION TO HISTORICAL CULTURE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE SYSTEMS

H.M.Ibrohimova
Master's student of Foreign Language Teaching Methodology at Kokand State University
hadichammuxtorova08@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 25
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1311

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Speech etiquette, politeness strategies, sociolinguistics, psycholinguistics, cross-cultural communication, English–Uzbek comparative linguistics, historical-cultural values, forms of address.

ANNOTATION

This dissertation investigates the linguistic and sociocultural nature of speech etiquette in English and Uzbek, examining how communicative norms, historical traditions, and cultural values shape the structure and function of polite interaction in both languages. Speech etiquette is conceptualized as a system of conventionalized linguistic formulas and behavioral strategies that regulate interpersonal communication, ensure social harmony, and reflect collective worldviews. Although universal in its communicative purpose, speech etiquette manifests differently across languages due to variations in cultural heritage, religious beliefs, social hierarchy, and communicative expectations. The study also considers the impact of globalization, digital communication, and intercultural contact on the transformation of etiquette systems. While English elements are increasingly integrated into modern Uzbek discourse, nationally embedded forms of politeness continue to serve as essential markers of cultural identity. Overall, the dissertation argues that speech etiquette represents a dynamic intersection of language, culture, and social structure. The comparative insights obtained contribute to linguistic pragmatics, intercultural communication studies, and the broader understanding of cultural identity in a globalizing world.

Introduction. Language is one of the most important elements of human culture. It serves not only as a means of communication but also reflects the social, psychological, and cultural experiences of a society. The speech etiquette system of every nation is closely connected with its historical development, traditions, religious views, social hierarchy, and cultural values.

Speech etiquette refers to the observance of certain cultural and social rules in the process of communication, ensuring mutual respect, sincerity, and social harmony through the use of specific speech formulas and communicative norms.

Although the system of speech etiquette exists in all languages, its modes of expression reveal significant differences across cultures. For example, speech etiquette in English is expressed mainly through linguistic devices that emphasize formality, diplomacy, and politeness. In Uzbek, it manifests itself in harmony with national values, Eastern moral norms, and traditions of respect and reverence. Therefore, the comparative study of speech etiquette systems in English and Uzbek is an important scientific task not only for linguistics but also for sociology, psychology, and cultural studies.

The purpose of this article is to highlight the linguistic and sociolinguistic features of the speech etiquette systems in English and Uzbek, to analyze their historical and cultural roots, and to identify their similarities and differences through comparison. The article sets out the following objectives:

1. To analyze the theoretical foundations of the concept of speech etiquette and the approaches to it in scientific research.
2. To conduct a comparative study of speech etiquette means in English and Uzbek.
3. To show the interrelation between the speech etiquette system and the cultural-historical values of the people.
4. To evaluate the changes taking place in speech etiquette systems under the conditions of globalization.

This article is developed within the framework of psycholinguistics, sociolinguistics, and cultural studies, presenting a comprehensive analysis based on scientifically grounded conclusions.

Literature review and analysis. The study of speech etiquette has been the focus of many scholars across linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, and cultural studies. The works included in this article’s bibliography provide both theoretical foundations and practical insights into the phenomenon.

Brown and Levinson[1] laid the groundwork for modern politeness research through their Politeness Theory, introducing the concepts of positive face and negative face. Their theory remains one of the most influential frameworks for analyzing speech etiquette in both English and other languages. The distinction they make between respect for the interlocutor’s freedom (negative face) and the need for approval (positive face) is particularly relevant in comparing English and Uzbek politeness norms.

Goffman[2] emphasized the importance of face and interaction rituals in social communication. His work shows that speech etiquette cannot be reduced merely to linguistic formulas but must be understood as part of broader social behavior, ritual, and symbolic interaction. This perspective aligns with Uzbek traditions, where greetings and blessings are considered essential components of social conduct.

Leech[3] contributed significantly to the pragmatics of politeness by providing a set of maxims — such as tact, generosity, modesty, and agreement — that help explain how politeness strategies operate across cultures. His framework clarifies why English often favors indirectness and mitigation, while Uzbek politeness leans toward explicit expressions of respect and sincerity.

Halliday[4] approached language from a functional perspective, emphasizing its role in shaping social relations and cultural contexts. His systemic functional linguistics provides useful tools for understanding how speech etiquette contributes to maintaining harmony and order in both English and Uzbek societies.

From the perspective of Uzbek scholarship, Madrahimov[5] and Safarov[6] highlight the importance of speech culture and linguistic etiquette in the Uzbek language. Their works stress that Uzbek speech etiquette is deeply intertwined with cultural values, social norms, and Islamic traditions. Similarly, Doniyorov[7] analyzes the forms of address and politeness in Uzbek, showing how they reflect the hierarchical and collectivist nature of society.

In the field of English linguistics, Crystal provides a broad overview of the English language, including insights into how politeness and speech etiquette have evolved historically. His encyclopedic approach

[1] Brown, P. & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
[2] Goffman, E. (1967). Interaction Ritual. New York: Anchor Books.
[3] Leech, G. (2014). The Pragmatics of Politeness. Oxford University Press.
[4] Halliday, M.A.K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. Edward Arnold.
[5] Madrahimov, A. (2005). Nutq madaniyati. Toshkent: Fan.
[6] Safarov, B. (2012). Pragmatika va Nutq Madaniyati. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
[7] Doniyorov, B. (2018). O‘zbek tilida murojaat shakllari va ularning pragmatik xususiyatlari. Toshkent: O‘zMU.

helps to place English politeness within the larger framework of cultural and linguistic development.

Fraser (1990) discusses multiple perspectives on politeness, arguing that politeness should be seen not as a single principle but as a collection of strategies and conventions that vary across languages and societies. This pluralistic view is essential for cross-cultural comparison, particularly between English and Uzbek.

Finally, Uzbek proverbs and oral traditions (1980 collection) serve as invaluable cultural sources, reflecting the historical depth of speech etiquette norms. Proverbs such as "A kind word is food for the soul"[8] demonstrate that politeness in Uzbek culture is not only a linguistic phenomenon but also a moral and ethical value transmitted through generations.

In summary, the reviewed literature demonstrates that speech etiquette is a multidimensional phenomenon situated at the crossroads of linguistics, sociology, psychology, and culture.

Theoretical models developed in Western linguistics complement the rich empirical and cultural analyses provided by Uzbek scholars. Together, they form a solid foundation for comparative studies of politeness in English and Uzbek, highlighting both universal tendencies and culture-specific features.

The Concept and Essence of Speech Etiquette. The concept of speech etiquette is considered a relatively new research direction in linguistics. It has emerged at the intersection of linguistic pragmatics, sociolinguistics, and communicative linguistics. Speech etiquette mainly encompasses linguistic units, speech formulas, strategies, and styles used in human interaction.

The speech etiquette system performs two main functions:

Communicative function — it ensures communication between interlocutors, defining social distance and closeness.

Social function — it reflects the hierarchical structure of society, social status, and cultural values.

In this sense, speech etiquette is regarded not only as a linguistic phenomenon but also as a social one. For example, in English, communication may begin with simple phrases such as "Hello" or "Good morning," whereas in Uzbek, the phrase "Assalomu alaykum" is not only a greeting but also an embodiment of religious and moral values.

Psycholinguistic and Sociolinguistic Approaches. Psycholinguistics studies speech etiquette in relation to human speech activity and mental processes. From this perspective, speech etiquette is seen primarily as a tool for creating psychological comfort, trust, and mutual respect between interlocutors.

Sociolinguistics, on the other hand, examines speech etiquette in connection with social groups, classes, gender, age, profession, and nationality.

For instance, in Uzbek society, the pronoun "siz" is used when addressing elders as a sign of respect, while in English no such distinction exists (the pronoun "you" is used in both cases). These sociolinguistic differences show how strongly national values influence speech etiquette systems.

Brown and Levinson's Politeness Theory explains speech etiquette in terms of the concepts of "positive face" and "negative face."[9] Positive face involves satisfying the interlocutor's need for respect and friendliness, while negative face involves avoiding interference with their freedom and independence. In Uzbek culture, greater emphasis is placed on the positive face, whereas in English culture, maintaining the negative face is considered more important.

The Historical Formation of Speech Etiquette. The system of speech etiquette has been shaped over a long historical process. It is closely linked with social norms, religious traditions, family relations, and systems of governance that arose in the early stages of human society.

In Uzbek culture, speech etiquette is directly associated with Islamic values. Expressions such as "Assalomu alaykum", "Xudo xohlasa" (God willing), and "Insha'Allah" reflect the deep integration of religious beliefs into linguistic culture. In English, expressions related to Christian traditions — such as "God bless you", "Merry Christmas" — historically held great significance, but in modern times they are used more as cultural symbols than religious markers.

Speech etiquette has also historically been linked to social stratification. In Uzbek society, titles such as amir, bek, ustoz (master), domla (teacher) were used with great respect. In English society, titles like Sir, Madam, Lord, and Lady played an important role in defining social status. Today, such elements are preserved mostly in formal speech.

Greeting and Parting Formulas. Greeting and parting are among the most important components of speech etiquette. They signal mutual respect between interlocutors at the beginning and end of communication.

In English, greeting formulas are usually short, simple, and often expressed in a neutral tone: Hello, Hi, Good morning, Good evening, How are you? Many of these can be either formal or informal depending on the context. For example, Hi is used mainly in informal situations, whereas Good morning is appropriate in formal settings.

In Uzbek, greetings are more closely tied to social status and religious values. The most widespread form is "Assalomu alaykum" (peace be upon you), which has a religious origin and conveys the meaning "I wish you peace." The response is equally specific: "Va alaykum assalom." Moreover, in Uzbek, greeting is considered a duty of the younger towards the elder, reflecting social hierarchy.

Parting formulas also differ. In English, they are often neutral and concise: Goodbye, See you later, Take care, Have a nice day. In Uzbek, however, farewells often include wishes for blessings, health, and well-being: "Xayr, omon bo'ling" (goodbye, stay safe), "Yaxshi qoling" (farewell, remain well), "Salomat bo'ling" (stay healthy). Thus, Uzbek parting formulas are warmer and more heartfelt.

Expressions of Respect and Forms of Address. One of the primary indicators of speech etiquette is the system of address.

In English, the second-person pronoun you is universally used regardless of age, status, or social rank. Respect and social distinctions are conveyed instead through titles and honorifics such as Mr., Mrs., Miss, Sir, Madam, Doctor, Professor. For example: Professor Smith or Dr. Johnson. In formal contexts, the title is combined with the surname, while in informal contexts first names are used: Hi, John or Hello, Mary.

In Uzbek, the system of address is more complex and hierarchical. The distinction between sen (informal "you") and siz (formal "you") is of great importance. Sen is used for close friends, peers, or younger people, while siz conveys respect, distance, and higher social status. In addition, Uzbek employs numerous honorifics and kinship terms such as aka (elder brother), opa (elder sister), ota (father), ona (mother), ustoz (teacher), domla (scholar), do'st (friend). For example: Ali aka, Dilnoza opa, Ustoz Karimov. These forms of address are not merely linguistic units but also symbols of social relationships.

Taboo and Euphemism. Every language has taboo words — expressions considered inappropriate in direct usage. These are replaced with euphemisms.

In English, euphemisms are highly developed. For instance, instead of to die one says to pass away; instead of old, senior or elderly; instead of prison, correctional facility. This phenomenon is often linked to "political correctness," serving the purpose of equality and human rights sensitivity.

In Uzbek, euphemisms are also widely used, but they are more deeply rooted in religious and cultural values. For example, instead of o'ldi (died), one says vafot etdi (passed away), olamdan o'tdi (left this world). Referring to an elderly person as qarib qolgan (aged, decrepit) is considered disrespectful; instead, expressions such as yoshi katta (elderly), ulug' (great), muborak yoshda (at a blessed age) are preferred. This reflects the Uzbek tradition of showing reverence toward elders.

National Characteristics of Speech Etiquette in English and Uzbek Traditions. The national character of speech etiquette is directly tied to the historical and cultural traditions of a people.

In English, the main principle is indirectness. The English often avoid blunt speech, favoring softer and indirect expressions. For example, instead of "Close the window!" one would say "Could you please close the window?" This is a central element of English politeness.

In Uzbek, the main principle is respect and reverence. In conversation, special deference is shown to elders, teachers, and guests. For example, offering food to the eldest at the table, giving

[8] Uzbek Proverbs Collection (1980). O'zbek xalq maqollari. Toshkent: G'afur G'ulom.

[9] Brown, P. & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.

them the floor in conversation, and avoiding loud speech in their presence are all reflections of cultural norms that shape Uzbek speech etiquette.

Moreover, in English, small talk (short conversations about weather, sports, daily events) is an essential part of communication, while in Uzbek conversations, initial exchanges usually center on warmth and family matters: “Yaxshi yuribsizmi?” (Are you doing well?), “Oiladagilar tinchmi?” (Is your family at peace?). These serve as natural openings to dialogue.

Traditional Values of the Uzbek People and Speech Etiquette. The speech etiquette system of the Uzbek people has been shaped over centuries, relying on a rich cultural heritage. Eastern morality, the Qur’an and Hadith, national customs, and family values have served as the main factors that determined the norms of speech culture.

In Uzbek society, speech etiquette is primarily based on the principle of respect for elders and attention toward the younger. The greeting “Assalomu alaykum” has a religious origin, but at the same time, it has developed into a speech formula that symbolizes national unity. Moreover, welcoming a guest with kind words, offering prayers and blessings, and concluding a conversation with positive wishes are inseparable elements of Uzbek speech etiquette.

Speech etiquette also holds a special place in Uzbek folklore. For example, proverbs such as “A kind word is food for the soul”, “Silence is golden”, and “A beautiful word is a remedy for the heart”[10] reflect the ancient roots of speech etiquette.

Historical and Cultural Values of English Society and Speech Etiquette. In English society, the system of speech etiquette was largely shaped by feudal traditions and Christian values. Forms of address such as Sir, Madam, Lord, Lady reflected feudal hierarchy, yet they have been preserved in modern times as part of formal communication.

Expressions influenced by Christianity also hold an important place in English speech etiquette. For example, phrases such as “God bless you”, “Merry Christmas”, “Peace be with you” historically carried religious connotations. However, as English society gradually became more secular, these expressions came to be used mainly as cultural symbols.

Another influential tradition in English society is that of gentlemanliness. Gentlemanliness is not only a matter of dress and behavior but is also reflected in speech culture. A well-mannered Englishman avoids giving direct and harsh orders, instead expressing himself through requests, politeness, and indirect formulations.

Changes and Convergence of Speech Etiquette Systems in the Context of Globalization. In today’s world, the process of globalization has had a significant impact on speech etiquette systems across languages. With the expansion of the Internet, social networks, and international communication, languages and cultures are becoming increasingly interconnected.

Since English has become a global lingua franca, elements of English speech etiquette are entering other languages, including Uzbek. For instance, short English greetings such as “Hi”, “Bye”, and “Okay” are widely used among Uzbek youth. This process is contributing to the formation of a new layer within Uzbek speech etiquette.

At the same time, forms of speech etiquette rooted in national values have not lost their significance. On the contrary, in the era of globalization, their role in preserving national identity has increased. For example, the greeting “Assalomu alaykum” is recognized not only locally but also internationally as a symbolic greeting of the Uzbek people.

Thus, although English and Uzbek speech etiquette systems differ significantly, globalization is fostering their interaction and giving rise to new forms of convergence.

Methods and research. The methodological framework of this study is based on an interdisciplinary approach combining linguistics, sociolinguistics, pragmatics, psycholinguistics, cultural anthropology, and comparative historical analysis. Since speech etiquette is a multifaceted phenomenon shaped by linguistic structures, social norms, cultural values, and historical traditions, the research design integrates both qualitative and comparative analytical methods. These methods allow for a comprehensive understanding of how English and Uzbek speech etiquette systems have developed, how they function in contemporary communication, and how they interact in the context of globalization.

1. Comparative Linguistic Method The principal method used in this study is the comparative linguistic method, which makes it possible to examine similarities and differences in the etiquette systems of English and Uzbek. This method includes a systematic comparison of:

a) Greeting and parting formulas
b) Forms of address and honorifics
c) Politeness strategies
d) Use of pronouns (you vs. sen/siz)
e) Euphemisms and taboo avoidance
f) Communication rituals and culturally embedded idioms

The comparison is carried out at the levels of lexis, pragmatics, and discourse, enabling the study to identify not only formal linguistic differences but also deeper cultural patterns encoded in speech behavior. This method is essential because speech etiquette cannot be understood in isolation; it must be analyzed through direct linguistic parallels between the two languages.

2. Sociolinguistic Observation and Contextual Analysis

To study speech etiquette within its social environment, the research employs sociolinguistic observation and contextual analysis. These methods involve examining how speech etiquette operates in real-life social situations, such as:

a) Family communication
b) Educational settings
c) Public interactions
d) Cross-generational conversations
e) Professional and institutional discourse

Data for this analysis was drawn from examples of authentic dialogues, Uzbek and English conversational norms, traditional etiquette books, modern communication guides, and observed speech practices. These sociolinguistic methods help reveal how age, status, gender, and social hierarchy influence the choice of polite expressions, particularly in Uzbek society where the siz/sen distinction and kinship terms carry strong socio-cultural meaning.

3. Pragmatic and Discourse Analysis

Speech etiquette is inseparably connected with the pragmatics of communication. Therefore, the study employs pragmatic analysis, drawing on theories such as:

a) Brown and Levinson’s Politeness Theory
b) Goffman’s concept of face and interaction rituals
c) Leech’s Politeness Maxims
d) Halliday’s systemic functional linguistics

Using these frameworks, the study examines how speakers manage face needs (positive and negative), mitigate threats, express respect, and maintain social harmony. Pragmatic analysis is especially important for understanding why English speech etiquette tends to value indirectness and personal autonomy, whereas Uzbek etiquette emphasizes respect, sincerity, and social cohesion.

The article also uses discourse analysis to study speech etiquette in natural communication settings, including informal conversations, greetings in public places, workplace communication, and digital interactions (e.g., social media, messaging). This allows the research to show how etiquette strategies shift depending on context.

4. Historical-Cultural Method

To explore the historical roots of speech etiquette in both languages, the historical-cultural method is applied. This involves analyzing:

a) Traditional social structures
b) Religious influences (Islam in Uzbek culture; Christianity in English culture)
c) Feudal and tribal systems
d) Customs, rituals, and cultural ceremonies
e) Proverbs, oral literature, and classical texts

This method provides insight into how past social orders shaped modern communication norms and why certain etiquette formulas (such as Assalomu alaykum or Sir/Madam) have retained symbolic value over centuries.

5. Literature Review and Theoretical Synthesis

The research also relies heavily on a comprehensive literature review, synthesizing the works of Western pragmatists and Uzbek linguists. This method ensures that the analysis is grounded in established theories while also incorporating local scholarly perspectives relevant to Uzbek linguistic culture.

[10] Uzbek Proverbs Collection (1980). O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: G‘afur G‘ulom.

6. Elements of Corpus-Based and Textual Analysis

Although the research is primarily qualitative, elements of corpus-based analysis are used to examine frequency patterns of greetings, forms of address, politeness markers, and euphemisms in modern English and Uzbek texts. Dictionaries, corpora, media texts, and social network discourse were consulted to illustrate real usage patterns.

Results. The comparative analysis of English and Uzbek speech etiquette conducted in this study reveals several significant findings related to the linguistic, sociolinguistic, and cultural foundations of polite communication in both language systems. The results demonstrate that although speech etiquette universally serves to maintain social harmony and facilitate respectful interaction, its expression is deeply shaped by the historical, cultural, and religious values of each society. The findings obtained provide insights into the nature of communicative norms, the structure of polite expressions, and the impact of modern globalization on both languages.

1. Structural and Linguistic Differences.The research shows that English and Uzbek employ distinct linguistic mechanisms to encode politeness. English relies primarily on indirectness, modal verbs, softening strategies, and neutral pronouns to express politeness. Formulas such as "Could you…", "Would you mind…", and "Please" illustrate an approach centered on personal autonomy and non-imposition. In contrast, Uzbek politeness is encoded through honorifics, hierarchical address forms, respectful pronouns, and positive face–oriented expressions. The sen/siz distinction emerged as one of the most significant markers of social distance, age, and respect. The results clearly demonstrate that Uzbek speech etiquette is more hierarchical in its linguistic structure, while English relies more heavily on universal forms and context-dependent politeness strategies.

2. Cultural Foundations and Value Systems. The findings strongly confirm that speech etiquette in both languages is inseparable from their cultural and historical backgrounds. In Uzbek culture, politeness is closely linked with the principles of respect for elders, hospitality, and community values. The widespread use of religiously influenced greetings (Assalomu alaykum), blessings, and moral expressions reflects the deep impact of Islamic tradition. In English, historical Christian expressions (God bless you, Peace be with you) have transitioned into cultural symbols rather than strictly religious formulas. Furthermore, the tradition of gentlemanliness continues to influence modern English politeness norms, reinforcing the values of restraint, courtesy, and indirect expression.

These findings prove that speech etiquette functions as a mirror of collective cultural identity, with Uzbek norms emphasizing connectedness and reverence, and English norms emphasizing personal space and balanced social interaction.

3. Sociolinguistic Behavior and Interactional Patterns. The study shows that speech etiquette governs social behavior differently in the two societies. English communication favors neutrality, egalitarianism, and minimal hierarchy, which is reflected in the universal use of "you" and the culturally significant practice of small talk. Small talk emerged as an essential sociolinguistic tool used to reduce awkwardness, establish rapport, and manage social space. In Uzbek society, sociolinguistic behavior is more collectivist and hierarchical. Greetings and inquiries about family or well-being ("Oiladagilar yaxshimi?") serve as genuine expressions of care and as culturally expected discourse rituals. The results highlight that Uzbek communicative norms are more relational, emotionally expressive, and community-oriented.

4. Historical Continuity in Etiquette Systems. Historical research findings show that both English and Uzbek speech etiquette systems have undergone gradual transformation while preserving key cultural elements. Feudal systems, titles, and forms of address such as Sir, Madam, Lord, Lady in English have weakened but survive in institutional contexts. In Uzbek, honorifics and kinship-based address forms (aka, opa, ustoz) remain highly active and socially significant. The endurance of these elements illustrates that speech etiquette not only reflects history but also preserves it.

5. Globalization and Its Effects. One of the most important results is the identification of convergence and divergence patterns under globalization. English expressions such as Hi, Bye, Okay, and informal communication styles have spread widely among Uzbek youth, indicating the influence of English as a global lingua franca. However, the research strongly shows that traditional Uzbek etiquette formulas have not weakened; instead, they are used more consciously as symbols of cultural identity. This indicates a dual process: adaptation to global norms and reinforcement of national traditions.

6. Universalities and Culture-Specific Features. Finally, the results confirm the coexistence of universal and culture-specific aspects of politeness. Both languages share the core function of maintaining social harmony, yet the strategies used to achieve it differ significantly. Universal elements include greeting routines, euphemisms, respectful address, and mitigation strategies. Culture-specific elements include Uzbek hierarchical pronoun use, religiously rooted greetings, and culturally meaningful blessings, compared to English small talk, indirect requests, and emphasis on individual autonomy.

Discussion. The findings of this research highlight the complex, culturally embedded nature of speech etiquette in English and Uzbek, demonstrating that polite communication is not merely a system of linguistic rules but a deeply rooted cultural phenomenon shaped by social structure, historical development, and worldview. This section interprets the results, examines their broader implications, and situates them within sociolinguistic and pragmatic theories.

1. Cultural Logic Behind Etiquette Systems. The comparison between English and Uzbek speech etiquette reveals two fundamentally different cultural logics. English politeness largely follows the principles of individualism, egalitarianism, and non-imposition, which are central values in Anglo-Saxon culture. This aligns with Brown and Levinson's concept of negative politeness, where speakers attempt to avoid intruding on the listener's personal autonomy. The frequent use of modal verbs and indirect requests in English confirms this orientation.

In contrast, Uzbek politeness is closely tied to collectivist values, hierarchical order, and social reciprocity. These findings parallel Goffman's idea [11] of "interaction ritual," where maintaining social harmony requires clear recognition of age, status, and kinship roles. The sen/siz distinction exemplifies the Uzbek cultural expectation of respect as a social obligation rather than a communicative choice.

The discussion thus supports the argument that cultural values fundamentally shape the linguistic tools through which politeness is expressed.

2. Historical Continuity and Cultural Memory. The preservation of certain forms of address—such as Sir, Madam, ustoz, aka, opa—reveals the strong influence of historical structures on contemporary etiquette. Although English society has become less hierarchical over time, the historical residues of class-based communication remain visible in formal contexts. The findings correspond with sociolinguistic theories that historical institutions leave long-lasting traces in linguistic practice.

Likewise, Uzbek etiquette retains strong connections to traditional social systems and Islamic values. Greetings such as "Assalomu alaykum" carry layered meanings of respect, blessing, and cultural identity. This demonstrates that speech etiquette acts as a carrier of cultural memory, preserving spiritual and social traditions even as communication practices evolve.

3. Pragmatic Flexibility and Contextual Variation. The research shows that English and Uzbek speakers adapt their etiquette strategies according to context, speaker identity, and situational expectations. This supports Halliday's view[12] that language varies according to field, tenor, and mode of communication. Uzbek speakers use more elaborate politeness formulas with elders, guests, and respected figures, whereas communication among peers is more relaxed and less formal. English speakers similarly adjust politeness levels, yet their strategies rely more on indirectness than on linguistic hierarchy.

The discussion suggests that while the form of etiquette differs, the pragmatic function—balancing social distance and solidarity—is universal.

4. Globalization and Linguistic Change. A key interpretation of the results is that globalization influences speech etiquette in both languages in asymmetrical ways. English norms are spreading rapidly through media, education, and digital communication, especially among young people in Uzbekistan. This has led to increased use of English informal greetings and softer forms of request. However, the persistence of traditional Uzbek norms indicates an active cultural resistance to homogenization.

The findings support the global sociolinguistic theory that languages under strong cultural identity tend not to lose core etiquette

[11] Goffman, E. (1967). Interaction Ritual. New York: Anchor Books.

[12] Halliday, M.A.K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. Edward Arnold.

structures even when foreign influence increases. This dual process—borrowing global forms while preserving local values—reflects a hybrid communicative identity among modern Uzbek speakers.

5. Universal Pragmatic Needs and Culture-Specific Solutions. The discussion also identifies universal motivations behind politeness, such as maintaining social harmony, showing respect, and reducing conversational conflict. However, the ways these needs are met differ sharply between English and Uzbek. This supports cross-cultural pragmatics research by Blum-Kulka[13] and Wierzbicka[14], who argue that politeness strategies are culturally conceptualized rather than universally uniform. For example:

a) English uses indirectness to mitigate imposition.

b) Uzbek uses honorifics and respectful address to reinforce relational harmony.

Thus, the study reaffirms that universal communicative goals are realized through culture-specific linguistic mechanisms.

6. Implications for Intercultural Communication. The differences revealed in this study suggest potential areas of misunderstanding in cross-cultural interactions. Uzbek communicators may perceive English directness as coldness or lack of respect, while English speakers may interpret Uzbek expressive politeness as excessive or intrusive. Understanding these contrasts is essential for effective international communication, language teaching, and translation studies.

Conclusion. The above analyses show that speech etiquette should be regarded not only as a linguistic phenomenon but also as a broad social and cultural phenomenon. A comparative study of speech etiquette systems in English and Uzbek reveals both similarities and differences, which can be summarized as follows:

Similarities. In both languages, speech etiquette is closely connected with the social structure and cultural values of society.

Greeting and parting formulas, forms of address, and euphemisms exist in both languages.

Speech etiquette ensures respect, sincerity, and social balance between interlocutors.

Differences. In English, speech etiquette relies more on formality, diplomacy, and indirect expression, whereas in Uzbek it is linked to sincerity, respect, and religious-cultural values.

English has a single pronoun you for the second person, while Uzbek distinguishes between sen and siz.

In English, small talk plays a central role, while in Uzbek conversation typically begins with questions about family, health, and kinship relations.

Historical and Cultural Factors. Uzbek speech etiquette is rooted in Eastern traditions, Islam, and family and community institutions.

English speech etiquette developed on the basis of feudal hierarchy, Christian values, and the tradition of gentlemanliness.

Modern Processes. As a result of globalization, elements of English speech etiquette are entering the Uzbek language. At the same time, nationally rooted forms of speech etiquette are strengthening as a means of expressing cultural identity. Thus, although the systems of speech etiquette in English and Uzbek differ from one another, they function as mutually enriching and influential factors that play an important role in the development of society.

References

1. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (Eds.). (1989). Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies (Advances in Discourse Processes, Vol. 31). Norwood, NJ: Ablex.
2. Brown, P. & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
3. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
4. Doniyorov, B. (2018). O‘zbek tilida murojaat shakllari va ularning pragmatik xususiyatlari. Toshkent: O‘zMU.
5. Fraser, B. (1990). Perspectives on Politeness. Journal of Pragmatics, 14(2), 219–236.
6. Goffman, E. (1967). Interaction Ritual. New York: Anchor Books.
7. Halliday, M.A.K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. Edward Arnold.
8. Leech, G. (2014). The Pragmatics of Politeness. Oxford University Press.
9. Madrahimov, A. (2005). Nutq madaniyati. Toshkent: Fan.
10. Safarov, B. (2012). Pragmatika va Nutq Madaniyati. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
11. Uzbek Proverbs Collection (1980). O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: G‘afur G‘ulom.
12. Wierzbicka, A. (1991). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. Berlin: Mouton de Gruyter.

[13] Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (Eds.). (1989). Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies (Advances in Discourse Processes, Vol. 31). Norwood, NJ: Ablex.

[14] Wierzbicka, A. (1991). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. Berlin: Mouton de Gruyter.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

MILLIY TURISTIK XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGINI STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL USULIDA BAHOLASH

Janzakov Bekzot Kulmamat o‘g‘li
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitet dotsenti, PhD.
b.janzakov@univ-silkroad.uz
https://orcid.org/0000-0002-7069-5309

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 26
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1312

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Stoxastik chegaravi tahlil, kiruvchi o‘zgaruvchi, chiquvchi o‘zgaruvchi, turizm bozori, texnik samaradorlik.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi milliy turizm bozori miqyosida kiruvchi o‘zgaruvchilar: xonalar soni, xizmat ko‘rsatuvchilar soni va turistik transport vositalari soni asosida turistik xizmatlar eksporti natijaviy o‘zgaruvchi sifatida 2016-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda texnik samaradorlik ko‘rsatkichlari stoxastik chegaraviy tahlil usuli asosida hisoblandi va shu asosda samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu maqolada O‘zbekiston turizm sanoatida texnik samaradorlikni baholash uchun stoxastik chegara tahlili (SCHT) metodologiyasi qo‘llanilgan. Kobb–Duglas turidagi ishlab chiqarish funksiyasi asosida 2016–2024 yillar kesimida turizm eksporti, xonalar soni, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar soni va transport imkoniyatlari o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlik empirik tahlil qilingan. Natijalar transport omilining statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatmasligini, binobarin, sektor samaradorligiga bevosita hissa qo‘shmasligini ko‘rsatdi. Model diagnostikasi samaradorliksiz komponentning yuqori ulushga egaligini tasdiqlab, ishlab chiqarish parametrlaridagi tafovutlarning deyarli to‘liq ichki samarasizlik omillari bilan izohlanishini aniqladi. Texnik samaradorlik indekslari pandemiya yillarida keskin pasayib, keyingi davrda tiklanish tendensiyasini namoyon etdi. Tadqiqot natijalari turizm infratuzilmasi rivoji, boshqaruv sifatini oshirish va resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha siyosiy qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega.

Kirish. Iqtisodiy samaradorlik an’anaviy ravishda haqiqiy ishlab chiqarish hajmining potensial ishlab chiqarish hajmiga nisbatida ifodalanadi. Bu cheklangan resurslarning tovar va xizmatlarga qay darajada samarali aylantirilayotganini bildiradi[1]. Koopmans[2] (1951) va Farrell[3] (1957) tomonidan berilgan asosiy hissa samaradorlikni tahlil qilish uchun matematik asoslar yaratishga bag‘ishlangan bo‘lib, qaror qabul qiluvchi birliklar (DMU) faoliyatini solishtirishda chegara (frontier) baholash yondashuviga urg‘u qaratilgan. Ushbu paradigmada ikki asosiy metodologiya shakllangan: Ma’lumotlarni qamrab olish tahlili va Stoxastik chegara tahlili. Ushbu yondashuvlar samaradorlik tadqiqotlarida dinamik modellashtirish asosini tashkil etadi[4].

Mamlakat ishlab chiqarish ko‘rsatkichi umumiy omillar samaradorligidagi vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni baholashda keng qo‘llaniladi[5]. U faoliyatdagi o‘zgarishlarni samaradorlik o‘zgarishi va texnologik o‘zgarish kabi tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qiladi. Luenberger indikatori esa manfiy yoki salbiy natijabiy mahsulotlarni ham hisobga olish imkonini beradi, bu esa uni ekologik samaradorlikni baholashida ayniqsa dolzarb qiladi[6].

Adabiyotlar tahlili. Kapelko va boshqalar[7] (2023) ko‘p yo‘nalishli dinamik samarasizlik tahlili (Multidirectional Dynamic Inefficiency Analysis – MEA) modelini ishlab chiqdilar. Bu model MQT asosida qurilgan bo‘lib, vaqt davomida korxona darajasidagi faoliyatni baholash uchun korporativ ijtimoiy mas’uliyat ko‘rsatkichlarini integratsiya qiladi. Ushbu yondashuv dinamik past samaradorlikning asosiy omili sifatida investitsion samarasizlikni ta’kidlaydi va iqtisodiy bo‘lmagan maqsadlarning ortib borayotgan ahamiyatini aks ettiradi.

Jradi va Ruggiero (2023) MQT modeliga stoxastik elementlarni kiritib, o‘lchashdagi xatoliklar va tasodifiy shovqinlarni hisobga oldilar. Ushbu yondashuv samaradorlikni ehtimollik asosida baholash imkonini beradi va ko‘pincha uzun muddatli (longitudinal) ma’lumotlar to‘plamlariga xos bo‘lgan to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar sharoitida ishonchlilikni oshiradi[8].

SCHT (Stoxastik chegara tahlili) samaradorlik chegarasini tahlil qilishni kengaytirib, samarasizlikni stokastik xato elementi sifatida modellashtiradi va shovqinni samarasizlikdan ajratib ko‘rsatadi[9]. So‘nggi yutuqlar qatorida meta-chegaralarni baholashga imkon beruvchi iyerarxik panel ma’lumotlar asosidagi SCHT modellari mavjud bo‘lib, ular guruh darajasidagi texnologiyalarni solishtiradi, texnologik tafovutlar va sohaviy geterogenlikni aniqlaydi[10].

Parmeter va Kumbhakar [11] (2023) parametrik taxminlarni yumshatish uchun yadroviy tekislash usulidan foydalangan holda noparametrik va yarim parametrik SCHT texnikalarini taklif qildilar. Bu yondashuv dinamik muhitlarda moslashuvchanlikni oshiradi. Stead va hammualliflar[12] (2023) og‘ir dumli xato taqsimotlarini kiritish orqali robust SCHT (ishonchli stoxastik chegara tahlili) usulini rivojlantirdilar, bu esa chiqarib tashlanadigan nuqtalarga nisbatan bardoshliligini oshiradi.

Macedo va hammualliflar [13] (2023) Maksimal Entropiyaga asoslangan SCHT usulini taklif qildilar. Ushbu yondashuv kichik hajmdagi tanlanmalar muammosini hal qilish va ekologik samaradorlikni baholashni yaxshilash uchun entropiyaga asoslangan baholashdan foydalanadi hamda dinamik qo‘llanmalarda barqaror statistik xususiyatlarni ta’minlaydi.

[1] Debreu, G. (1983a). *Mathematical economics: Twenty papers of Gerard Debreu*. Cambridge University Press.
[2] Koopmans, T. C. (1951). *Activity analysis of production and allocation*. Wiley.
[3] Farrell, M. J. (1957). The measurement of productive efficiency. *Journal of the Royal Statistical Society: Series A (General), 120*(3), 253–290.
[4] Macedo, P., Madaleno, M., & Moutinho, V. (2023). Stochastic frontier analysis with maximum entropy estimation. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 251–270). Springer.
[5] Caves, D. W., Christensen, L. R., & Diewert, W. E. (1982). The economic theory of index numbers and the measurement of input, output, and productivity. *Econometrica, 50*(6), 1393–1414
[6] Chambers, R. G., Chung, Y., & Färe, R. (1996). Benefit and distance functions. *Journal of Economic Theory, 70*(2), 407–419
[7] Kapelko, M., Oude Lansink, A., & Stefanou, S. E. (2023). Multidirectional dynamic inefficiency analysis: An extension to include corporate social responsibility. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 113–130). Springer.
[8] Jradi, S., & Ruggiero, J. (2023). Stochastic MQT. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 131–142). Springer.
[9] Aigner, D., Lovell, C. A. K., & Schmidt, P. (1977). Formulation and estimation of stochastic frontier production function models. Journal of Econometrics, 6(1), 21–37.
[10] Amsler, C., Chen, Y. Y., Schmidt, P., & Wang, H. J. (2023). A hierarchical panel data model for the estimation of stochastic metafrontiers: Computational issues and an empirical application. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 183–196). Springer.
[11] Parmeter, C. F., & Kumbhakar, S. C. (2023). Recent advances in the construction of nonparametric stochastic frontier models. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 165–182). Springer.
[12] Stead, A. D., Wheat, P., & Greene, W. H. (2023). Robustness in stochastic frontier analysis. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 197–228). Springer.
[13] Macedo, P., Madaleno, M., & Moutinho, V. (2023). Stochastic frontier analysis with maximum entropy estimation. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 251–270). Springer.

Bosetti va hammualliflar[14] (2007) turizmni boshqarishda MQT orqali taqqoslash (benchmarking) yondashuvining ahamiyatini ta'kidlab, resurslarni taqsimlashdagi hududiy farqlarni baholashda uning foydasini namoyish etdilar.

1-jadval

MQT va SCHT usullarining qiyosiy jadvali

Xususiyat	MQT	SCHT
Farazlar	Noparametrik, qism chiziqli chegara (piecewise linear frontier)	Parametrik, ma'lum funksional shaklni belgilashni talab qiladi
Shovqin (xatolik) bilan ishlash	Deterministik samaradorlikni faraz qiladi, ya'ni shovqinni hisobga olmaydi	Samarasizlikni tasodifiy shovqindan ajratadi
Dinamik kengaytmalar	Malmkvist indeksi, Luenberger ko'rsatkichi, Stoxastik MQ, Ko'p yo'nalishli dinamik tahlil	Panel ma'lumotlarga asoslangan SCHT, meta-chegaralar, maksimal entropiya modellari
Eng to'g'ri qo'llanish sohasi	Taqqoslash (benchmarking), bir nechta kirish va chiqish ko'rsatkichlari bilan ishlash	Gipotezani tekshirish, noaniqlik sharoitida xulosa chiqarish

MQT va SCHT usullarining bir-birini to'ldirishi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda, siyosatni baholashda gibrid modellardan foydalanish esa kengayib bormoqda.

Iqtisodiy samaradorlikni o'lchash uchun qo'llaniladigan dinamik modellar sezilarli darajada rivojlandi: statik samaradorlik chegaralaridan vaqt bo'yicha o'zgarishlar, noaniqlik va barqarorlik o'lchovlarini hisobga oluvchi mukammal MQT va SCHT yondashuvlarigacha. Ushbu modellar ishlab chiqarish samaradorligini baholash, investitsiyalarni yo'naltirish hamda iqtisodiy natijalarni ekologik va ijtimoiy omillar bilan muvozanatlash uchun mustahkam tahliliy asos yaratadi. Turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida, o'ziga xoslik va dinamiklik yuqori bo'lgan sharoitda, ushbu vositalar dalillarga asoslangan siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda ajralmas ahamiyat kasb etmoqda.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruvi samaradorligini baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, mavjud adabiyotlar bo'yicha tahlil olib borilib, sohada faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan berilgan nazariy qarashlar solishtirma yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning amaliy qismi uchun ekspert baholash usuli qo'llanib, soha mutaxassislari fikrlari asosida boshqaruvdagi mavjud muammolar va ustuvor yo'nalishlar aniqlab olindi.

Kommunal xizmatlar faoliyatini tizimli o'rganish uchun tizimli tahlil, tarmoqlararo bog'liqlikni aniqlashda esa analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Shu bilan birga, boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur baholash maqsadida SWOT tahlili amalga oshirilib, sohaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlari aniqlab berildi. Taqqoslama tahlil orqali uch pog'onali va ikki pog'onali boshqaruv modellarining afzallik va kamchiliklari solishtirildi. Mazkur usullar kompleks qo'llanilgani tadqiqot natijalarining ilmiy asoslangan bo'lishiga va aniq xulosalar shakllantirilishiga imkon yaratdi.

Natija. Fikrimizcha, tahlil qilinayotgan dinamik modelning matematik ko'rinishi quyidagicha:

$$\ln(Y_t) = \beta_0 + \sum_{j=1}^{k} \beta_j \ln(X_{jt}) + \beta_{k+1} t + v_t - u_t$$

Bu yerda:

$Y_t - t$ yildagi natijaviy ko'rsatkich (turizm eksporti, ming AQSH dollarida)

$X_{jt} - t$ yildagi kiruvchi o'zgaruvchilar (xonalar soni, transport sig'imi, korxonalar soni va boshqalar)

$t -$ texnologik va tarkibiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi vaqt trendi

$\beta_0, \beta_j -$ baholanadigan parametrlar

$v_t -$ o'lchov xatoligi va boshqa xatoliklarni birlashtiruvchi miqdor

$u_t -$ samarasizlikni ifodalovchi miqdor.

v_t ning modelga kiritilishi modelga ishlab chiqarish chegarasidan turli xatoliklar tufayli chetlanganligini tushuntirishga imkon beradi. u_t esa maksimal ishlab chiqarish hajmiga erisholmaslikda samarasizlikni o'lchash imkonini beradi. Bunda har ikkala miqdor normal taqsimlangan deb qabul qilinadi va ularni baholashda amalda standard chetlanishlari nisbatlari qo'llaniladi.

Masalan, $\lambda = \frac{\sigma_u}{\sigma_v}$ samarasizlik dispersiyasining shovqin dispersiyasiga nisbati. λ katta bo'lsa, demak, modeldagi asosiy tafovutlar samarasizlik tufayli yuzaga kelgan. Yana bir ko'rsatkich $\gamma = \frac{\sigma_u^2}{\sigma_u^2+\sigma_v^2}$ umumiy tafovutning (dispersiyaning) qanchasi samarasizlikka to'g'ri kelishini bildiradi. γ ≈ 1 bo'lsa, demak **deyarli barcha og'ishlar samarasizlik bilan bog'liq ekanligini anglatadi**.

Yuqorida keltirilgan $\beta_0, \beta_j, \sigma_u, \sigma_v$ parametrlarni maksimal ehtimollik usulida baholadik. Maksimal ehtimollik usulida har bir kuzatuv alohida ehtimollik funksiyasiga ega:

$$\ln L_t = \ln\left(\frac{2}{\sigma}\right) - \frac{1}{2}\left(\frac{\epsilon_t^2}{\sigma^2}\right) + ln\left[\Phi(-\lambda\frac{\epsilon_t}{\sigma}\right]$$

$$\sigma^2 = \sigma_u^2 + \sigma_v^2, \quad \epsilon_t = y_t - X_t\beta$$

Umumiy ehtimollik funksiyasi esa barcha yillar bo'yicha yig'indidan iborat:

$$f(\beta, \sigma_u^2, \sigma_v^2) = \sum_{t=1}^{T} \ln L_t$$

Parametrlar aniqlangach, har bir yil uchun **shartli samarasizlik o'rtachasi** quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$E[u_t|\,\epsilon_t] = \mu_t + \sigma_t \frac{\varphi(\frac{\mu_t}{\sigma_t})}{1 - \Phi(\frac{\mu_t}{\sigma_t})}$$

Bu yerda $\mu_t = -\epsilon_t \cdot \frac{\sigma_u^2}{\sigma_v^2}, \sigma_t = \frac{\sigma_u \sigma_v}{\sigma}$

t yildagi texnik samaradorlik esa o'z navbatida o'rtacha samarasizlik eksponentasi sifatida olinadi:

$$TE_t = e^{-E[u_t|\,\epsilon_t]}$$

Bu ifoda **korxona yoki sektorning samaradorlik darajasini 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda** o'lchaydi: $TE = 1$ bo'lsa, korxona **eng yuqori samaradorlikda**, $TE < 1$ bo'lsa, u ishlab chiqarish **chegarasidan pastda** ishlayotganini bildiradi.

Mazkur model O'zbekiston turizm sektorida vaqt o'tishi bilan samaradorlik darajasining o'zgarishini o'lchashga, har bir kiruvchi omilning (infratuzilma, xizmat ko'rsatuvchilar, transport) eksport hajmiga ta'sirini baholashga va ishlab chiqarish chegarasiga nisbatan haqiqiy natijalar qanchalik yaqinligini aniqlashga imkon beradi.

[14] Bosetti, V., Cassinelli, M., & Lanza, A. (2007). Benchmarking in tourism destinations; Keeping in mind the sustainable paradigm. In Á. Matias, P. Nijkamp, & P. Neto (Eds.), Advances in modern tourism research: Economic perspectives (pp. 165–179). Springer

2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi turizm eksporti, xonalar soni, turistik subyektlar soni va turistik transportlar soni dinamikasi

Yillar	Turizm eksporti (ming AQSH dollar)	Xonalar soni	Xizmat ko‘rsatuvchilar soni	Turistik transportlar soni
2016	430746.18	16445.0	484.0	240.0
2017	531022.41	18588.0	749.0	381.0
2018	1041088.6	24646.0	1579.0	668.0
2019	1313032.3	33388.0	2254.0	1476.0
2020	260987.39	37455.0	2162.0	1988.0
2021	422069.7	47619.0	3883.0	2223.0
2022	1610099.72	59736.0	4147.0	2235.0
2023	2143519.9	63486.0	5276.0	3249.0
2024	3100184.08	69788.0	6830.0	1054.0

3-jadval

Maksimal ehtimollik baholari

Parametr	Baho	Standard xatolik	z	p-qiymat
Intercept	-1.45	0.99	-1.458	0.1447
ln(xonalar)	1.011	0.71	1.415	0.157
ln(xiz_korx)	1.075	0.86	1.251	0.211
ln(transport)	-0.37	0.88	-0.424	0.6714
Trend	-0.195	0.19	-1.012	0.3117
$\log(\sigma_u^2)$	-0.72	1.00	-0.72	0.4717
$\log(\sigma_v^2)$	-20.42	1.0	-20.423	0.0

4-jadval

Dispersiya komponentlari va diagnostikasi

Statistika	qiymat
σ_u^2	0.486
σ_v^2	0.0
σ	0.69
$\lambda = \frac{\sigma_u}{\sigma_v}$	18994.35
$\gamma = \frac{\sigma_u^2}{\sigma_u^2 + \sigma_v^2}$	1.0
Logarifmik ehtimollik	-3.32
AIC	20.65
BIC	22.03
N (yillar)	9
K (parametrlar)	7

Dispersiya parametrlariga ko‘ra, samarasizlik tasodifiy shovqindan ustun turadi. Samaradorliksizlik dispersiyasi (σ_u^2 = 0,49) statistik shovqin dispersiyasidan ($\sigma_v^2 \approx 0$) ancha katta bo‘lib, $\lambda \approx 18\,994$ va $\gamma \approx 1{,}0$ qiymatlariga ega. Bu chegara chizig‘idan chetlanishlarning deyarli barchasi tasodifiy tebranishlardan emas, balki samarasizlikdan kelib chiqishini anglatadi. Log-ehtimollik (-3,32), AIC (20,65) va BIC (22,03) kabi ko‘rsatkichlar bunday kichik tanlama uchun modelning maqbul moslashganini tasdiqlaydi.

Muhokama. Parametrlar baholari shuni ko‘rsatadiki, ham mehmonxona quvvatlari, ham turizm xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlar soni turizm daromadining kuchli bashoratchilari hisoblanadi. Xonalar elastikligi (1.01) mehmonxona xonalari soni 1% ga oshganda turizm eksporti taxminan 1% ga oshishini ko‘rsatadi, xizmat ko‘rsatuvchilar elastikligi esa shunga yaqin (1.08) bo‘lib, rivojlangan xizmat ko‘rsatish sektorining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Transport koeffitsienti manfiy (-0.37), biroq statistik ahamiyatga ega emas, bu esa multikolinearlik va kichik tanlama hajmi bilan izohlanadi; bu natija transport sifati yoki qulayligi kabi omillarni oddiy transport vositalari soni bilan o‘lchash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Vaqt trendi koeffitsienti (-0.20) esa kiritilgan resurslarni hisobga olgan holda chegara o‘sishi sust yoki manfiy bo‘lganini, COVID-19 pandemiyasi kabi buzilishlar ta’sirini aks ettiradi.

Hech bir koeffitsient an’anaviy darajada statistik ahamiyatga ega emas ($p > 0.1$), ammo bu atigi to‘qqizta kuzatuv mavjudligi tufayli kutilgan holatdir. Shunga qaramay, koeffitsientlarning miqdorlari kirish-chiqish o‘rtasidagi bog‘liqliklar haqida muhim tushunchalar beradi.

5-jadval.

Texnik samaradorlik yillar bo‘yicha

Yillar	Texnik samaradorlik (TE)	Baholangan samarasizlik	Real eksport miqdori (ming AQSH dollar)	Mumkin bo‘lgan maksimal eksport (ming AQSH dollar)	Qoldiqlar logarifmi
2016	0.9951	0.0049	430746.18	432883.27	-0.0049
2017	0.9781	0.0221	531022.41	542889.96	-0.0221
2018	0.9681	0.0324	1041088.6	1075400.84	-0.0324
2019	0.9997	0.0003	1313032.3	1313224.37	-0.0001
2020	0.2513	1.3811	260987.39	1038537.42	-1.3811

2021	0.2152	1.5363	422069.7	1961559.0	-1.5363
2022	0.7407	0.3002	1610099.72	2173757.93	-0.3002
2023	0.9997	0.0003	2143519.89	2143837.0	-0.0001
2024	0.7962	0.2279	3100184.09	3893675.04	-0.2279



1-rasm. Texnik samaradorlikning o‘zgarish dinamikasi (2016-2024)

Texnik samaradorlik (TS) ko‘rsatkichlari tadqiqot davrida turizm biznesining rivojlanish dinamikasini aks ettiradi. 2016–2019-yillarda samaradorlik maksimal chegara darajasiga yaqin bo‘lgan, 2019-yilda esa maksimal (1.00) darajaga yetgan. 2020–2021-yillarda TS keskin pasaygan (2020-yilda 0.25 va 2021-yilda 0.22), bu esa COVID-19 pandemiyasining xalqaro turizmga bo‘lgan jiddiy ta’sirini ko‘rsatadi. 2022-yilda tiklanish boshlangan (TS = 0.74) va 2023-yilda tezlashgan (≈1.00), bu infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar va cheklovlarning yumshatilishi bilan qo‘llab-quvvatlangan kuchli tiklanishni anglatadi. 2024-yildagi biroz pasayish (TS ≈ 0.80) esa sohadagi beqarorlikning davom etayotganini, ehtimol tashqi bozor bosimlari yoki bizneslarning tashqi talabga to‘liq moslashmaganligi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Ushbu tahlil orqali turizm sohasining rivojlanishini barqarorlashtirish uchun mehmonxona quvvatlarini va turistik xizmat ko‘rsatuvchilar sonini ko‘paytirishning strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Transport vositalari sonining ahamiyatsizligi kelgusida sifat ko‘rsatkichlarini (aviaqatnovlarning ulanish darajasi, yo‘llar holati) ham kiritish zarurligini ko‘rsatadi. Samarsizlikning shovqinga nisbatan ustunligi maqsadli boshqaruv va siyosiy choralar natijasida resurslar hajmini mutanosib oshirmasdan ham ishlab chiqarishni sezilarli darajada ko‘paytirish mumkinligini bildiradi. Tiklanish jarayonlari tashqi zarbalarga bardoshlilikni oshirish zaruratini ta’kidlaydi, shuningdek, manbaviy bozorlarni diversifikatsiya qilish va raqamli infratuzilmani (Wi-Fi, yo‘l-yo‘riq belgilarini) rivojlantirish orqali sayyohlar tajribasini yaxshilash muhimligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2016–2024-yillar oralig‘idagi yillik ma’lumotlar asosida O‘zbekiston turizm sektorining ishlab chiqarish samaradorligi Kobb–Duglas tipidagi stoxastik chegara modeli (Stochastic Frontier Analysis, SFA) yordamida baholandi. Modelda yarim normal taqsimotga ega samarasizlik komponenti qabul qilinib, turizm eksporti hajmi (ming AQSh dollarida) natijaviy o‘zgaruvchi sifatida olindi. Kiruvchi o‘zgaruvchilar sifatida esa turizm infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari — mehmonxona xonalari soni, turizm xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar soni hamda transport vositalari parki hajmi tanlandi. Shuningdek, vaqt trendi parametr sifatida kiritilib, u sektor ichidagi texnologik, institutsional va tarkibiy o‘zgarishlarning ta’sirini aks ettirish imkonini berdi.

Model logarifmik shaklda baholanib, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi elastiklikni to‘g‘ridan to‘g‘ri talqin qilish imkonini berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mehmonxona quvvatining elastikligi ($\beta_1 \approx 1.01$) va turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchilar sonining elastikligi ($\beta_2 \approx 1.08$) deyarli birga teng bo‘lib, bu kiruvchi resurslarning turizm eksporti hajmiga to‘liq proporsional ta’sirini bildiradi.

Boshqacha qilib aytganda, xonalar soni yoki xizmat ko‘rsatuvchilar hajmi 1 foizga oshirilganda, eksport hajmi ham o‘rtacha 1 foiz atrofida ortadi. Bu esa turizm infratuzilmasining yetarli rivojlanishi mamlakat eksport salohiyatini mustahkamlashdagi hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi. Transport koeffitsienti manfiy (-0.37) bo‘lsada, statistik ahamiyatga ega emasligi tanlama hajmining kichikligi va multikolinearlik bilan izohlanadi. Bu holat transport tizimining faqat son jihatidan emas, balki sifat jihatdan — masalan, yo‘l holati, aviareyslar soni, qulaylik darajasi kabi ko‘rsatkichlar orqali ham baholanishi zarurligini anglatadi.

Vaqt trendining manfiy qiymati (-0.20) esa 2020–2021-yillardagi pandemiya davrida yuzaga kelgan iqtisodiy pasayishlarni va turizm oqimining keskin kamayganini ifodalaydi. Texnik samaradorlik (TS) ko‘rsatkichlari ham bu tendensiyani yaqqol aks ettirdi: 2019-yilgacha samaradorlik 1 ga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda u 0.25 gacha, 2021-yilda esa 0.22 gacha tushib ketgan.

Bu COVID-19 pandemiyasining xalqaro turizm oqimiga va xizmatlar eksportiga bo‘lgan keskin ta’sirini aniq ifodalaydi. Biroq, 2022–2023-yillarda Respublika turizm sohasida sezilarli tiklanish kuzatildi: Texnik samaradorlik 2022-yilda 0.74, 2023-yilda esa deyarli 1.00 ga tenglashdi. Bu holat sohada amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari, xalqaro marketing strategiyalari va cheklovlarning bosqichma-bosqich yumshatilishi bilan izohlanadi. 2024-yilda esa samaradorlik biroz pasayib (0.80), sektorning hali ham tashqi omillarga nisbatan to‘liq barqarorlashmaganligini ko‘rsatdi.

Modelning dispersiya parametrlariga ko‘ra, samarasizlik dispersiyasi ($\sigma_u^2 = 0.49$) tasodifiy shovqin dispersiyasidan ($\sigma_v^2 \approx 0$) ancha katta bo‘lgan, bu esa sohadagi tafovutlarning aksariyati ichki samaradorlik muammolari bilan izohlanishini ko‘rsatadi. $\lambda \approx 18\,994$ va $\gamma \approx 1.0$ qiymatlari shuni anglatadiki, turizm eksportidagi o‘zgarishlarning deyarli barchasi samarasizlik tufayli yuzaga kelgan, tasodifiy omillar esa juda kichik rol o‘ynagan. Bu natijalar boshqaruv qarorlarini yanada aniqroq yo‘naltirish uchun qulay imkoniyat yaratadi: to‘g‘ri siyosat va boshqaruv choralari orqali kiritilgan resurslarni mutanosib oshirmasdan ham natijalarni keskin yaxshilash mumkin.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekiston turizm sektorining dinamik samaradorlik tahlili iqtisodiy va institutsional jihatdan muhim xulosalar beradi. Birinchidan, mehmonxona va xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmani kengaytirish mamlakatning eksport hajmini oshirishda eng muhim omil bo‘lib qolmoqda. Ikkinchidan, transport tizimining faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatdan rivojlantirilishi ham zarur. Uchinchidan, samarasizlikning shovqinga(boshqa inobatga olinmagan

xatoliklar) nisbatan ustunligi soha ichida boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozimligini ko‘rsatadi. Nihoyat, pandemiyadan keyingi yillarda kuzatilgan tez tiklanish turizm sohasining bardoshliligini oshirish, manba bozorlarni diversifikatsiya qilish va raqamli infratuzilmani (Wi-Fi, onlayn bron tizimlari) rivojlantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu jihatdan, tahlil natijalari O‘zbekistonning turizm siyosatini barqaror o‘sish, innovatsiya va raqobatbardoshlikka yo‘naltirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Debreu, G. (1983a). *Mathematical economics: Twenty papers of Gerard Debreu*. Cambridge University Press.
2. Koopmans, T. C. (1951). *Activity analysis of production and allocation*. Wiley.
3. Farrell, M. J. (1957). The measurement of productive efficiency. *Journal of the Royal Statistical Society: Series A (General), 120*(3), 253–290.
4. Macedo, P., Madaleno, M., & Moutinho, V. (2023). Stochastic frontier analysis with maximum entropy estimation. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 251–270). Springer.
5. Caves, D. W., Christensen, L. R., & Diewert, W. E. (1982). The economic theory of index numbers and the measurement of input, output, and productivity. *Econometrica, 50*(6), 1393–1414
6. Chambers, R. G., Chung, Y., & Färe, R. (1996). Benefit and distance functions. *Journal of Economic Theory, 70*(2), 407–419
7. Kapelko, M., Oude Lansink, A., & Stefanou, S. E. (2023). Multidirectional dynamic inefficiency analysis: An extension to include corporate social responsibility. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 113–130). Springer.
8. Jradi, S., & Ruggiero, J. (2023). Stochastic MQT. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 131–142). Springer.
9. Aigner, D., Lovell, C. A. K., & Schmidt, P. (1977). Formulation and estimation of stochastic frontier production function models. Journal of Econometrics, 6(1), 21–37.
10. Amsler, C., Chen, Y. Y., Schmidt, P., & Wang, H. J. (2023). A hierarchical panel data model for the estimation of stochastic metafrontiers: Computational issues and an empirical application. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 183–196). Springer.
11. Parmeter, C. F., & Kumbhakar, S. C. (2023). Recent advances in the construction of nonparametric stochastic frontier models. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 165–182). Springer.
12. Stead, A. D., Wheat, P., & Greene, W. H. (2023). Robustness in stochastic frontier analysis. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 197–228). Springer.
13. Macedo, P., Madaleno, M., & Moutinho, V. (2023). Stochastic frontier analysis with maximum entropy estimation. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications (pp. 251–270). Springer.
14. Bosetti, V., Cassinelli, M., & Lanza, A. (2007). Benchmarking in tourism destinations; Keeping in mind the sustainable paradigm. In Á. Matias, P. Nijkamp, & P. Neto (Eds.), Advances in modern tourism research: Economic perspectives (pp. 165–179). Springer
15. Mirzaev, K., & Janzakov, B. (2020). The determinants of international tourism (in the example of CIS countries). *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, *7*(2), 2020.
16. Djanzakovich, M. (2022). Ogli JBK The analysis of impact of factors influencing leadership abilities. *湖南大学学报 (自然科学版), 49*(09).
17. Mirzaev, K. (2011). Approaches and issues for developing livestock services in Uzbekistan. *Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB*, *8*(2), 23-25.
18. Safarov, B., Mirzaev, K., Janzakov, B., & Ruzibayev, O. (2022). A Study on the Impact of Distance and Income on Potential Gastrotourists' Decision-Making Process. *African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure*, *11*(6), 2052-2062.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

OTM TALABALARIDA IQTISODIY-HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Gafurova Nigora Ilxomovna
Qo‘qon davlat universiteti stajyor o‘qituvchi, tayanch doktorant
gafurovanigora22@gmail.com
+998916865885
ORCID ID: 0009-0009-7450-2699

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 27
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1313

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

iqtisodiy-huquqiy madaniyat, Oliy ta’lim muassasalari, me’yoriy-huquqiy asoslar, talabalar, pedagogik shart-sharoitlar, huquqiy savodxonlik, moliyaviy savodxonlik, xalqaro standartlar, kompetensiya, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM).

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalari talabalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlar, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, elektron tijorat, mehnat munosabatlari va kiberxavfsizlikka doir hujjatlarning talabalarda iqtisodiy va huquqiy savodxonlikni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Mazkur me’yoriy-huquqiy baza talabalarda iqtisodiy-huquqiy ong va mas’uliyatni shakllantirish uchun muhim asos yaratishi ko‘rsatilgan.

Shuningdek, maqolada BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari kabi xalqaro yondashuvlar tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashuvi ochib beriladi. Tadqiqotda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar — fanlararo integratsiya, konstruktivistik metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, huquqiy treninglar hamda raqamli ta’lim resurslarining o‘rni alohida ta’kidlanadi. Xulosalar talabalarda iqtisodiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligi, me’yoriy-huquqiy asoslarning uzviyligi va tizimliligi bilan bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Kirish. Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalari talabalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish jamiyatning barqaror rivoji va fuqarolarning mas’uliyatli iqtisodiy hamda huquqiy xatti-harakatlarini ta’minlash nuqtai nazaridan ayni dolzarb masalaga aylangan. Global raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va huquqiy davlat tamoyillari sharoitida talabalar nafaqat o‘z moliyaviy va huquqiy bilimlarini kengaytirishi, balki huquqiy ong, mas’uliyat, korrupsiyaga qarshi madaniyat va ijtimoiy faoliyat ko‘nikmalarini ham egallashi lozim.

OTMlarda bu jarayonni ta’minlashda Konstitutsiya, [1] “Ta’lim to‘g‘risida”gi,[2] “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi[3] Qonunlar va “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[4] Prezident Farmonlari, hamda korrupsiyaga qarshi kurash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, moliyaviy va huquqiy xavfsizlikni tartibga soluvchi normativ hujjatlar muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari[5] talabalar iqtisodiy-huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xalqaro yondashuvlarni tatbiq etish imkonini beradi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida talabalarda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish zarurati tug‘ilmoqda. Bu jarayonni amalga oshirishda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi me’yoriy-huquqiy asoslarni o‘rganish va ulardan oqilona foydalanish muxim hayotiy ehtiyojlarimizdan biridir.

OTM talabalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishning ahamiyati: shaxsiy moliyaviy va huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy ong va iqtisodiy faoliyatda huquqiy mas’uliyat, korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish, xalqaro me’yor va standartlarga moslashishdan iborat. Shuningdek OTM talabalari iqtisodiy-huquqiy madaniyatga ega bo‘lsa, ular nafaqat shaxsiy moliyaviy va huquqiy barqarorlikka erishadi, balki jamiyatda qonuniylik, mas’uliyat va samarali iqtisodiy faoliyatni targ‘ib qiluvchi faol fuqaro bo‘lib yetishadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”[6] nomli nutqida jamiyat taraqqiyoti, inson manfaatlarini ta’minlash, shaffoflik va adolat tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirish zarurligi alohida ta’kidlanadi. Ushbu yondashuv yoshlarning huquqiy ongini oshirish, iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish va mas’uliyatli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni beqiyos ekanini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, oliy ta’lim muassasalarida talabalarda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatida belgilangan ustuvor maqsadlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, demokratik jamiyat qurishning muhim sharti sifatida talqin etiladi.

“Iqtisodiy madaniyat - bu insonning iqtisodiy bilim, tafakkur va ongini rivojlantirib, iqtisodiy xulq-atvor va savodxonlikni oshirishga qaratilgan jarayon” deb hisoblasak, “Huquqiy madaniyat - bu shaxsning huquqiy bilim, tafakkur va ongini rivojlantirib, jamiyatda huquqiy tarbiya va savodxonlikni oshirishga qaratilgan kompleks jarayondir” deya olamiz. Bu ikki madaniyatning integratsion jarayonini “iqtisodiy-huquqiy madaniyat” deb atab, unga quyidagicha: “Iqtisodiy-huquqiy madaniyat — bu shaxsning iqtisodiy va huquqiy bilimlarini shakllantirib, ongli ravishda amaliyotga tadbiq etishni ta’minlovchi, hamda qonuniylik, adolat va mas’uliyat tamoyillariga asoslangan faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etuvchi integrativ sifatdir” ta’rif beramiz.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘R-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni,[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, [8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, [9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning

[1] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel) // https://lex.uz/docs/6445145.
[2] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 24-sentabr) // https://lex.uz/docs/5013007.
[3] O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/3026246?ONDATE=26.01.2022.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 8-oktabr) Farmoni // https://lex.uz/docs/4545884
[5] O‘zbekiston Respublikasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 841-son (2018-yil 20-oktyabr) Qarori //LexUZ.
[6] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zR Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
[7] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 24-sentabr) // https://lex.uz/docs/5013007.
[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g’risida”gi PF-5618-sonli Farmoni.
[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 8-oktabr) Farmoni // https://lex.uz/docs/4545884.

taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, [10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”[11] Farmonlari hamda 2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-son “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [12] Qarorlari hamda 2018-yil 20-oktyabrda O‘zbekiston Hukumatining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [13] qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Maqolada OTM talabalari iqtisodiy-huquqiy madaniyatining asosiy komponentlari — bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar, shuningdek pedagogik shart-sharoitlar (fanlararo integratsiya, konstruktivistik metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va raqamli ta’lim resurslari) tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishga doir nazariy yondashuvlar, ta’lim jarayonida huquqiy ong va iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik konsepsiyalar hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va huquq sohasidagi amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-huquqiy madaniyatning mazmuni, tuzilishi va shakllanish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanilib, mavjud qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda taqqoslama-huquqiy tahlil usuli orqali OTM talabalari iqtisodiy-huquqiy madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalar solishtirildi. Normativ-huquqiy tahlil metodi yordamida ta’lim tizimi, iqtisodiy faoliyat, fuqarolik pozitsiyasi va huquqiy ongni shakllantirishga oid asosiy qonun va qarorlarning mazmuni o‘rganildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi omillar, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sir mexanizmlari aniqlab berildi.

Natija. O‘zbekiston ta’lim tizimi kontekstida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi tarkibiy tuzilma — bu huquqiy va iqtisodiy bilimlarni bosqichma-bosqich, izchil va tizimli tarzda o‘rgatuvchi davlat siyosati, ta’lim dasturlari, institutlar va ijtimoiy muhitni qamrab oluvchi ko‘p pog‘onali tuzilmadir. Quyida ushbu tarkibiy tuzilmaning asosiy bo‘g‘inlaridan biri - Davlat siyosati va normativ-huquqiy asoslardir. Ular quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – ta’lim olish, huquqiy himoya, iqtisodiy erkinlik va faoliyat, xususiy mulk, huquqiy tenglik kafolatlari.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun – demokratik qadriyatlar asosida har bir fuqaroga iqtisodiy-huquqiy bilim olish huquqini belgilaydi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘grisida”gi Qonun [14] – o‘quv jarayonida iqtisodiy-huquqiy faoliyatni ongli tahlil qilish asosida korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantiradi.

“Yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” (2019) [15] – yoshlar ongida huquqiy tushunchalar va iqtisodiy mas’uliyatni shakllantirish strategiyasi.

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” [16] – iqtisodiy bilimlarni innovatsion yondashuv bilan singdirishga urg‘u beradi.

Iqtisodiy-huquqiy madaniyatga ega talaba bilishi kerak bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi[17]
2. Mehnat kodeksi (2023)[18]
3. “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun[19]
4. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun
5. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun
6. Kiberxavfsizlik strategiyasi
7. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun
8. “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun

Ushbu me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida talabada shakllanadigan kompetensiyalar va ularni iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli quyidagilardan iborat (1-jadval).

1-jadval.

Me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida talabada shakllanadigan kompetensiyalar va ularni iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli

Me’yoriy huquqiy hujjat	Shakllanadigan kompetensiyalar	Iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli
1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi	soliq qonunchiligini tushunish; va moliya va soliq majburiyatlarini bilish	Talabalar o‘z iqtisodiy faoliyatida soliq majburiyatlarini to‘g‘ri bajarish, qonuniy iqtisodiy faoliyatni yuritish ko‘nikmalarini egallaydi.
2. Mehnat kodeksi (2023)	mehnat huquqlari va majburiyatlarini bilish; mehnat shartnomalarini tushunish	Talabalar ishbilarmonlik va professional muhitda o‘z huquqlarini himoya qilish, mehnat munosabatlarini qonuniy asosda tartibga solish qobiliyatini rivojlantiradi.
3. “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun	iste’molchi huquqlari va javobgarligini tushunish; oqilona iqtisodiy qaror qabul qilish	Talabalar iste’molchi sifatida huquqlarini bilib, iqtisodiy faoliyatda ongli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
4. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun	bank xizmatlarini tushunish; moliyaviy operatsiyalarni yuritish	Moliyaviy savodxonlik va bank xizmatlaridan qonuniy foydalana olishni ta’minlaydi.
5. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun	Onlayn savdo va shartnoma huquqini tushunish; raqamli iqtisodiyotda qonuniy faoliyat yuritish	Talabalar elektron tijoratning huquqiy asoslarini bilib, raqamli iqtisodiy muhitda o‘z faoliyatini samarali tashkil etadi.
6. Kiberxavfsizlik strategiyasi	Axborot xavfsizligi va kiberhujumlardan himoyalanish; raqamli texnologiyalardan xavfsiz foydalanish	Talabalar raqamli iqtisodiyot va elektron xizmatlardan xavfsiz foydalana olishadi, shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlarni himoya qilishga o‘rgatiladi.
7. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun	axborot tizimlari va ma’lumotlarni boshqarish; ma’lumotlarni qonuniy ishlatish	Talabalar axborot resurslarini qonuniy va samarali ishlatish orqali iqtisodiy va huquqiy qarorlarni asosli qabul qilishga o‘rgatiladi.
8. “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun	shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlarni himoya qilish; maxfiylikni ta’minlash	Talabalar shaxsiy va iqtisodiy axborotlarni himoya qilish orqali huquqiy ongini oshiradi.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-yanvar) Farmoni // https://lex.uz/docs/5841063.

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi (2024-yil 21-fevral) PF-37-sonli Farmoni.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2025-yil 14-fevral) PQ-61-sonli Qarorlari

[13] O‘zbekiston Respublikasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 841-son (2018-yil 20-oktyabr) Qarori //LexUZ.

[14] O‘zbekiston Respublikasining (2017-yil 3-yanvar) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli Farmoni.

[16] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-yanvar) Farmoni // https://lex.uz/docs/5841063.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 2020-yil 1-yanvar. https://lex.uz/docs/-4674902

[18] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 2023-yil 30-aprel. https://lex.uz/ru/docs/-6257288?ONDATE=30.04.2023

[19] O‘zbekiston Respublikasining (1996-yil 26-aprel) “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 221-I-sonli Qonuni

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi bugungi kunda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni rivojlantirishning global metodologik asosiga aylanib bormoqda. BMT tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini uyg‘unlashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiy adolat va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashga qaratilgan universal normativ-huquqiy yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu maqsadlar ta’lim sohasida ham fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish, iqtisodiy va huquqiy savodxonlikni oshirish, shaffof institutlar va samarali boshqaruvni shakllantirish kabi vazifalarni ilgari suradi. Ayniqsa, SDG-4 (Sifatli ta’lim), SDG-8 (Munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish) hamda SDG-16 (Tinchlik, adolat va kuchli institutlar) talabalarda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida konseptual ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro maqsadlarni milliy sharoitga moslashtirgan holda “Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030”[20] milliy dasturini ishlab chiqdi va strategik rivojlanish hujjatlariga integratsiya qildi. Ushbu milliy maqsadlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish, iqtisodiy savodxonlikni oshirish hamda shaffoflik, adolat va mas’uliyat tamoyillariga asoslangan fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishni davlat siyosati darajasida belgilab beradi. BRM–2030 doirasida belgilangan vazifalar oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlarning yangilanishiga, ta’lim mazmunining zamonaviy xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashuviga xizmat qiladi.

Shu bois, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va ularning O‘zbekistondagi milliylashtirilgan ko‘rinishi — BRM–2030 dasturi — talabalarda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishning dolzarb va metodologik jihatdan mustahkam normativ-huquqiy asoslari sifatida e’tirof etiladi. Ular iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish, huquqiy ongni mustahkamlash, global va milliy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini anglashga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining konseptual tarkibiy qismi hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida davlatning o‘rni, davlat moliyasi, soliq tizimini belgilash tartibi haqidagi qonunlarga o‘z fikrini bildirgan. Alisher Navoiy «moliyaviy ibodat» tushunchasini muhim deb bilgan. “Moliyaviy ibodat” deb u zakot, sadaqa va vaqfni keltiradi.[21]

Xususan, uning “Vaqfiya” asarida vaqf masalalari keng yoritilgan.

“Vaqf” orqali davlat va jamiyat infratuzilmasini qo‘llab-quvvatlash, xayriya va ma’rifiy inshootlar (masjid, madrasalar va hokazo)ni moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash tarafdori bo‘lgan.

Buyuk Olim Abu Ali Ibn Sino o‘zining dono fikrlari bilan barcha boyliklar halol mehnat bilan ortirilishi, ota-onalar o‘z farzandlarini kasb-hunarga o‘rgatishi va undan olingan daromad orqali halol yashash kerakligini, iqtisodiy faoliyatsiz, iqtisodiy savodxonliksiz muvaffaqiyatga erishish mumkin emasligini ta’kidlaydi. Sohibqiron Amir Temur davrida esa xiroj yig‘ish va soliq olishda adolatli qonun-qoidalariga to‘liq amal qilingan. O‘sha davrda hosil pishib etilmasdan ilgari raiyatdan mol-xiroj olish man etilgan. Agar raiyat soliq yig‘uvchi bormasdan oldin soliqni o‘zi keltirib bersa, soliqchi yuborilmagan. Agar soliq yig‘uvchini yuborishga majbur bo‘lishsa, u holda soliqlarni buyruq berish yoki yaxshi so‘zlab olishlik, odamlarni kaltak, arqon bilan urib, so‘kmaslik zarurligi uqtirilgan. Soliq to‘lamaganlarni bandi etib, zanjir bilan kishanlashlik taqiqlangan.

Iqtisodiy-huquqiy madaniyatni kompetensiyaviy shakllantirish konstruktizmi shaxsning iqtisodiy va huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan xolda aytishimiz mumkinki har ikkala yondashuvlar iqtisodiy-huquqiy sohalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va shaxsga iqtisodiy-huquqiy muhitda muvaffaqiyatli va samarali faoliyat yuritish uchun zarur kompetensiyalarni berishga xizmat qiladi

Pedagogika tarixida iqtisodiy-huquqiy madaniyat haqida fikr yuritgan bir necha olimlar mavjud. Ularning ishlari, iqtisodiy va huquqiy ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Amerikalik faylasuf va psixolog Jon Dewey: Ta’lim jarayonida amaliy tajribaning ahamiyatini ta’kidlagan. U iqtisodiy va huquqiy madaniyatni jamoatchilik bilan aloqada shakllantirishni maqsad qildi. Vladimir Lenin: Iqtisodiy va huquqiy bilimlarni ta'lim jarayoniga kiritishning zarurligini ko‘rsatgan. U nazariy va amaliy muvozanatni muhokama qildi. Paulo Freire: Ta'limni ijtimoiy adolat va tenglik bilan bog‘lagan. Iqtisodiy huquqiy madaniyatni shakllantirishda interaktiv metodlarni qo‘llagan. Ivan Illich: Ta’lim tizimini tanqid qilib, mustaqil fikrlash va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlagan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida talabalarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari Konstitutsiya, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini yanada rivojlantirish”ga oid qaror va farmonlar bilan kafolatlangan. Xususan, talabaning iqtisodiy huquqlari: ta’lim uchun mablag‘ ajratish va imtiyozlardan foydalanish (davlat granti, kontrakt asosida o‘qish, ijtimoiy yordam, stipendiya olish); stipendiya olish huquqi (davlat grantida o‘qiyotgan va yuqori ko‘rsatkichlarga ega talabalar stipendiya olishadi); talaba sifatida ishlash va qo‘shimcha daromad topish huquqi (qonunchilik doirasida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish); ijara va yotoqxona huquqi (davlat talabalarga yotoqxona va yashash sharoitlari yaratib berishga majbur) dan iborat. Ijtimoiy huquqlari esa, bepul tibbiy yordam huquqi (davlat talabalarga asosiy tibbiy xizmatlarni ta’minlashi kerak), dam olish va madaniy tadbirlarda ishtirok etish huquqi (talabalarga sport, madaniyat va san’at tadbirlarida qatnashish imkoniyati beriladi), xalqaro almashinuv va stajirovkalarda qatnashish huquqi (davlat grantlari va shartnomalar asosida xorijiy ta’lim olish imkoniyati), ijtimoiy himoya huquqi (kam ta’minlangan, nogironligi bo‘lgan yoki ijtimoiy ehtiyojli talabalar uchun maxsus imtiyozlar va yordam) ni tashkil etadi. (2.1-jadval).

2.1-jadval

Talabalarning iqtisodiy va huquqiy vakolatlari

Iqtisodiy vakolatlar	Huquqiy vakolatlar
Davlat granti yoki kontrakt asosida ta’lim olish, stipendiya olish huquqi	Ta’lim muassasasidan o‘qishni boshqa oliy ta’lim muassasasiga ko‘chirish (transfer) huquqi
Talabalarga yotoqxona bilan ta’minlanish huquqi	O‘qishga qaytish (tiklanish) huquqi
Ta’lim davrida muddatli harbiy xizmatni kechiktirish huquqi	O‘quv jarayonida ishtirok etish va sifatli ta’lim olish huquqi
Akademik ta’til olish (sog‘liq, homiladorlik, oilaviy sharoit sababli)	O‘z huquqlarini sud orqali himoya qilish huquqi
O‘qish davrida qonun doirasida ishlash imkoniyati	Talaba shaxsiy fikri va tashabbusini bildirish, talabalar o‘zini-o‘zi boshqarish organida ishtirok etish huquqi

O‘zbekiston Respublikasida talabalarning mehnat huquqlari Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun bilan muhofaza qilinadi. Ular o‘qish davrida qonun asosida ishlash, amaliyotdan o‘tish, adolatli ish haqi olish va xavfsiz mehnat sharoitida faoliyat yuritish huquqiga ega. Quyida talabalarning mehnat huquqlari va ularni muhofaza qiluvchi asosiy huquqiy me’yorlar jadval ko‘rinishida keltirilgan (2.2-jadval).

[20] O‘zbekiston Respublikasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 841-son (2018-yil 20-oktyabr) Qarori //LexUZ.

[21] Hurriyat. (2021, 20-iyul). Behzod. Navoiyning moliyaviy ibodati.

2.2-jadval

Talabaning qonun bilan muhofaza qilingan mehnat huquqlari

Talabaning mehnat huquqlari	Huquqiy asos (normative hujjat va moddalar)
Ta’lim olish bilan bir vaqtda ishlash huquqi	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (46-modda), Mehnat kodeksi (77-modda)
Adolatli mehnat sharoitida ishlash huquqi (mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik)	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (37-modda), Mehnat kodeksi (215–modda)
O‘qish davrida qisqartirilgan ish vaqti (o‘qishni davom ettirayotgan talabalar uchun)	O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (115-modda)
Ish joyida kamsitilmaslik va teng mehnat uchun teng haq olish huquqi	Konstitutsiya (18, 37-moddalar), Mehnat kodeksi (6, 77-moddalar)
Tatil va dam olish huquqi (o‘qishni davom ettiruvchi talaba uchun yillik ta’til berilishi)	Mehnat kodeksi (242-modda)
Mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilishda erkinlik	Mehnat kodeksi (77, 81-moddalar)
Kasaba uyushmalariga a’zo bo‘lish va mehnat huquqlarini himoya qildirish	Konstitutsiya (34-modda), Mehnat kodeksi (27-moddasi)
Mehnat nizolarini hal qilish uchun sudga yoki tegishli organlarga murojaat qilish	Konstitutsiya (44-modda), Mehnat kodeksi (269-moddasi)

Muhokama. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning iqtisodiy va huquqiy ongini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun hamda “O‘zbekiston–2030” strategiyasida yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, huquqiy savodxonlikni kuchaytirish va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish muhim maqsad sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda oliy ta’lim tizimi markaziy o‘rin tutadi. Chunki aynan oliy ta’lim jarayonida talabalar iqtisodiy-huquqiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirib, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya tashabbusi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan. Mazkur taklif xalqaro miqyosda, xususan, ko‘plab mamlakatlar hamda turli yoshlar guruhlari orasida keng qiziqish uyg‘otgan. Ma’lumki, BMT doirasida yirik konvensiyani ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli va uzoq muddatli faoliyatni talab etadi. Shunga qaramay, BMT vakillari ushbu tashabbusni yuqori baholashib, uni BMT Bosh kotibining yoshlar masalalariga oid strategik yo‘nalishlari bilan uyg‘un deb e’tirof etganlar. BMT vakilining ta’kidlashicha, konvensiyani tayyorlash jarayonida dunyo mamlakatlarining yoshlari faol ishtirok etib, o‘z taklif va mulohazalarini bildirishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, UNICEF tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan “U-Report” loyihasi doirasida 10 mingdan ortiq yosh respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari yoshlar uchun eng dolzarb ehtiyojlar ta’lim olish imkoniyatlari, mehnat faoliyatiga jalb etilish hamda inson huquqlarining kafolatlanishiga oid masalalar ekanini ko‘rsatgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlar ijtimoiy tengsizlik, kamsitish va diskriminatsiyaning har qanday ko‘rinishiga qat’iy qarshi ekanliklarini, o‘z navbatida, yigitlar va qizlar teng huquqli bo‘lishini istashlarini bildirganlar. Samarqand yoshlar forumi doirasida esa ishtirokchilar mavjud 26 moddadan iborat konvensiya loyihasiga qo‘shimcha ravishda 14 ta yangi modda kiritish zarurligi haqida takliflar ilgari surishgan. BMT vakili ta’kidlaganidek, bu takliflar global miqyosda yoshlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan hujjatni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.[22]

Iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish kompetensiyalari: huquqiy ong va madaniyati, iqtisodiy tafakkur va moliyaviy savodxonlik, tanqidiy va tahliliy fikrlash, mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy-adolatli qaror qabul qilish va huquqiy-iqtisodiy axborotni tahlil qilishdan iborat. Mazkur kompetensiyalar iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishning yadro (asosiy) elementi hisoblanadi va ular ta’sirida talaba quyidagi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi: huquqiy hujjatlar bilan ishlash, qonunlarni tahlil qilish, moliyaviy reja tuzish, xarajatlarni boshqarish, faktlar asosida xulosa chiqarish, muammolarni tahlil qilish, saylovda ishtirok, volontyorlik, jamoatchilik tashabbuslari, huquqiy me’yorlarga asoslangan halollik, adolat, tenglik, qonunlar bazasidan foydalanish, statistika tahlili.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish bugungi globallashuv, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va huquqiy davlat tamoyillarining mustahkamlanishi sharoitida nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. Talabalarning iqtisodiy va huquqiy savodxonligini oshirish ularning shaxsiy moliyaviy barqarorligi, huquqiy ongining yuksalishi, jamiyatdagi mas’uliyatli xatti-harakatlari va korrupsiyaga qarshi immunitetini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Konstitutsiya, “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, elektron tijorat, iste’molchilar huquqlari, mehnat munosabatlari, korrupsiyaga qarshi kurash va kiberxavfsizlikka doir normativ-huquqiy hujjatlar talabalarda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni rivojlantirishning mustahkam me’yoriy asosini yaratadi. Xalqaro yondashuvlar — BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari mazkur jarayonga global talab va kompetensiyalar integratsiyasini ta’minlaydi. Tadqiqotdan kelib chiqqan holda, iqtisodiy-huquqiy madaniyatni samarali rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar: fanlararo integratsiya, konstruktivistik metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, huquqiy treninglar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish zarur. Ushbu yondashuvlar talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki real hayotda qo‘llay oladigan amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, OTM talabalari iqtisodiy-huquqiy madaniyatining rivojlanishi jamiyatning barqaror taraqqiyoti, huquqiy madaniyatning yuksalishi va iqtisodiy faol fuqarolarning shakllanishida muhim omil bo‘lib, mazkur sohada ilmiy izlanishlarning davom ettirilishi zarur va dolzarbdir.

[22] BMT vakili: “Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar huquqlari konvensiyasini ishlab chiqish taklifi dunyo davlatlarida qiziqish uyg‘otmoqda” 2020-yil 18-avgust. https://kun.uz/news/2020/08/18/bmt-vakili-shavkat-mirziyoyevning-yoshlar-huquqlari-konvensiyasini-ishlab-chiqish-taklifi-dunyo-davlatlarida-qiziqish-uygotmoqda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2020%2F08%2F18%2Fbmt-vakili-shavkat-mirziyoyevning-yoshlar-huquqlari-konvensiyasini-ishlab-chiqish-taklifi-dunyo-davlatlarida-qiziqish-uygotmoqda#!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel) // https://lex.uz/docs/6445145.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/3026246?ONDATE=26.01.2022.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/3026246?ONDATE=26.01.2022.
4. O‘zbekiston Respublikasining (2017-yil 3-yanvar) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasining (1996-yil 26-aprel) “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 221-I-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-4704?ONDATE2=29.08.2023&action=compare
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 8-oktabr) Farmoni // https://lex.uz/docs/4545884.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi (2017-yil 20-aprel) Qarori // http://www.lex.uz/docs/3171590.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-yanvar) Farmoni // https://lex.uz/docs/5841063.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zR Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 841-son (2018-yil 20-oktyabr) Qarori //LexUZ.
11. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 2020-yil 1-yanvar. https://lex.uz/docs/-4674902
12. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 2023-yil 30-aprel. https://lex.uz/ru/docs/-6257288?ONDATE=30.04.2023
13. BMT vakili: “Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar huquqlari konvensiyasini ishlab chiqish taklifi dunyo davlatlarida qiziqish uyg‘otmoqda” 2020-yil 18-avgust. https://kun.uz/news/2020/08/18/
14. Hurriyat. (2021, 20-iyul). Behzod. Navoiyning moliyaviy ibodati.
15. Gafurova N.I. Bo‘lajak mutaxassislarning iqtisodiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi va ahamiyati // Qo‘qon DPI xabarlari. – Qo‘qon davlat universiteti ilmiy jurnali. – Qo‘qon. 2023. №2. – B.206-209. (13.00.00; OAK rayosatining 2021-yil 31-martdagi 295/6-son qarori)
16. Gafurova N.I. The concept of economic and legal culture and its interpretation // Science and innovation international scientific journal. Volume 4, Issue 4, April-2025. – P.78-87.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISH VA TURIZM RIVOJI: XALQARO TURISTLAR OQIMIGA TA’SIR TAHLILI

Astanakulov Olim Tashtemirovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha prorektori, DSc, prof.
E-mail: astanakulov@gmail.com
Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mail: zaynutdinovamuslimakhon@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 28
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1314

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

iqtisodiy o‘sish, xalqaro turistlar oqimi, turizm infratuzilmasi, investitsiya, davlat islohotlari, globallashuv, pandemiya ta’siri, barqaror turizm rivoji.

ANNOTATSIYA

Globallashuv sharoitida iqtisodiy o‘sish jarayonlari turizm industriyasida chuqur strukturaviy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishining asosiy ko‘rsatkichlari bilan xalqaro turistlar oqimi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimli tahlil qilindi. Tadqiqotda 2016-2024 yillar davomida xalqaro sayyohlar soni dinamikasi, turizm infratuzilmasining kengayishi, investitsion oqimlar, hududiy rivojlanish jarayonlari hamda xizmatlar sifati bo‘yicha statistik ma’lumotlar qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, iqtisodiy o‘sishning turizm talabiga ta’siri, davlat siyosati va islohotlarning sektorga qo‘shimcha impulsi, pandemiya davri va undan keyingi tiklanish tendensiyalari ilmiy asosda baholandi. Tadqiqot natijalari xalqaro turistlar oqimini ko‘paytirish, eksportga yo‘naltirilgan xizmatlar ulushini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kirish. Turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi uzviy va ikki tomonlama bog‘liqlik zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi. Turizm nafaqat davlatlar uchun daromad va ish o‘rinlari manbai bo‘lib xizmat qiladi, balki iqtisodiy rivojlanishni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Turizm ixtisoslashuvi ayniqsa turizm rivoji past bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[1]. Shuningdek, turizmdan olingan daromad va YaIM o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘p mamlakatlarda turlicha natijalarni ko‘rsatgan: Hindistonda turizm daromadi YaIMning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa[2], Marokashda xalqaro turistlar oqimi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida uzoq muddatli ijobiy bog‘liqlik aniqlangan[3]. Taylandda ham xalqaro turistlar oqimi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi va iqtisodiyotning boshqa sohalarini ham rivojlantirishi aniqlangan[4].

Iqtisodiy o‘sishning turizmga ta’siri ham alohida ahamiyatga ega. Milliy daromadning o‘sishi va eksport hajmining ko‘payishi turizmga talabni oshiradi, bu esa xorijiy turistlarni jalb qilish imkonini beradi[5]. O‘zbekiston misolida bu bog‘liqlik ancha sezilarli. Misol uchun, 2000–2024 yillarda O‘zbekistonda YAIMning har 1%lik o‘sishi xalqaro turistlar sonini taxminan 1,43%ga oshirishini ko‘rsatadi[6]. Shu davrda mamlakatda turizm sohasi sezilarli rivojlanib, 2023-yilda O‘zbekiston 8,5 milliondan ortiq xalqaro turistni qabul qilgan, bu esa turizmning milliy iqtisodiy o‘sishdagi muhim rolini ko‘rsatadi[7].

Shu bilan birga, O‘zbekistonda turizm rivoji va YAIM o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish orqali mamlakatning turizm siyosati samaradorligini baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish turizm talabini rag‘batlantirsa, turizm rivojlanishi ham mehnat bozori va ichki mahsulotga hissa qo‘shadi. O‘zbekistonda turizm sektoriga investitsiyalar ortishi, infratuzilmaviy loyihalar va madaniy merosni himoya qilish davlatning turizm rivojiga qaratilgan strategik chora-tadbirlari samaradorligini oshiradi. Shuningdek, turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik mintaqaviy xususiyatlar va makroiqtisodiy sharoitlar bilan ham moderatsiyalanadi[8].

O‘zbekistonda YAIM va turizm rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish nafaqat akademik ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham davlat turizm siyosati va iqtisodiy strategiyalarni takomillashtirishda muhimdir. Shuning uchun ushbu maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va xalqaro turistlar oqimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni panel ma’lumotlar va ekonometrik modellar orqali aniqlashga urg‘u beriladi. Bu tadqiqot natijalari davlat rahbarligi va turizm sohasi uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan va uning tabiati ko‘pqirrali va bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Xalqaro tadqiqotlarda bu bog‘liqlik ikki tomonlama bo‘lishi mumkinligi va turizm iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi bilan bir qatorda, iqtisodiy o‘sish ham turizm rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Ikki tomonlama bog‘liqlik tushunchasi asosan ikki gipoteza atrofida shakllanadi: Tourism-Led Economic Growth (TLEG) va Economic-Driven Tourism Growth (EDTG)[9]. Bu gipotezalarga ko‘ra, turizm iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin, shu bilan birga mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ham turizm sektoriga talabni oshiradi. Xalqaro tadqiqotlarda, shu jumladan 143 ta davlat, yetti Yevropa mamlakati va 11 ta ASEAN mamlakatlari misollarida, bu ikki tomonlama bog‘liqlik aniqlangan[10].

Mintaqaviy va davriy o‘zgarishlar ham bu bog‘liqlikka ta’sir ko‘rsatadi. Yevropa davlatlarida 2008 yilgi moliyaviy inqiroz va Yevrozona qarz inqirozi turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni sezilarli darajada o‘zgartirgan[11]. Yansze delta (Yangtze River Delta) regionida esa turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik vaqtincha

[1] Chang, C. L., Khamkaew, T., & McAleer, M. (2012). IV estimation of a panel threshold model of tourism specialization and economic development. *Tourism Economics*, *18*(1), 5-41.
[2] Sharma, N., & Punjab, J. (2018). Tourism led growth hypothesis: Empirical evidence from India. *African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure*, *7*(2), 1-11.
[3] El Menyari, Y. (2021). Effect of tourism FDI and international tourism to the economic growth in Morocco: Evidence from ARDL bound testing approach. *Journal of Policy Research in Tourism, Leisure and Events*, *13*(2), 222-242.
[4] Nonthapot, S. (2013). Tourism and economic growth of Thailand testing: New evidence from ARDL and rolling window approaches. *International Journal of Applied business and economic research*, *11*(2), 251-260.
[5] Liu, S., Islam, H., Ghosh, T., & Afrin, K. H. (2025). Exploring the nexus between economic growth and tourism demand: the role of sustainable development goals. *Humanities and Social Sciences Communications*, *12*(1), 1-14.
[6] Erejepova, J. L., Sherjonov, S., Egamov, S., Matkarimov, F., & Murodov, S. (2024). Investigating the Relationship Between Tourism, Economic Growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 574, p. 04007). EDP Sciences.
[7] Erejepova, J. L., Sherjonov, S., Egamov, S., Matkarimov, F., & Murodov, S. (2024). Investigating the Relationship Between Tourism, Economic Growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 574, p. 04007). EDP Sciences.
[8] Nakimu, R. K., Mayanja, J. B., & Nanyiti, A. (2025). A moderation analysis of the effect of international tourism on economic growth in Sub-Saharan Africa. *Cogent Economics & Finance*, *13*(1), 2559043.
[9] Pulido-Fernández, J. I., & Cárdenas-García, P. J. (2021). Analyzing the bidirectional relationship between tourism growth and economic development. *Journal of Travel Research*, *60*(3), 583-602.; Dogru, T., & Bulut, U. (2018). Is tourism an engine for economic recovery? Theory and empirical evidence. *Tourism Management*, *67*, 425-434. Fan, F., & Ha, V. T. (2025). Tourism-led growth or economy-driven tourism growth in Southeast Asian countries. *Humanities and Social Sciences Communications*, *12*(1), 1-17.
[10] Pulido-Fernández, J. I., & Cárdenas-García, P. J. (2021). Analyzing the bidirectional relationship between tourism growth and economic development. *Journal of Travel Research*, *60*(3), 583-602.; Dogru, T., & Bulut, U. (2018). Is tourism an engine for economic recovery? Theory and empirical evidence. *Tourism Management*, *67*, 425-434. Fan, F., & Ha, V. T. (2025). Tourism-led growth or economy-driven tourism growth in Southeast Asian countries. *Humanities and Social Sciences Communications*, *12*(1), 1-17.
[11] Chirilă, V., Butnaru, G. I., & Chirilă, C. (2020). Spillover index approach in investigating the linkage between international tourism and economic growth in central and eastern European countries. *Sustainability*, *12*(18), 7604.; Antonakakis, N., Dragouni, M., & Filis, G. (2015). How strong is the linkage between tourism and economic growth in Europe?. *Economic Modelling*, *44*, 142-155.

zaif bo‘lgan, keyin esa iqtisodiyot va turizm o‘rtasida muvofiqlashtirilgan rivojlanish kuzatilgan[12].

Mamlakatlar bo‘yicha tahlillar ham qiziqarli natijalarni taqdim etadi. Lotin Amerikasidagi Kolumbiya, Ekvador, Gvatemala, Meksika va Peruda turizm rivoji va YaIM o‘rtasida kointegratsiya aloqasi mavjudligi aniqlangan[13]. Fransiya, Meksika, Ispaniya va Italiya kabi asosiy turizm davlatlarida bog‘liqlik nonilayner shaklda namoyon bo‘lib, iqtisodiy o‘sishning turli kvantillarida turlicha ta’sir ko‘rsatadi[14]. AQSH, Fransiya, Ispaniya, Xitoy, Italiya, Turkiya va Germaniyada esa bog‘liqlik turlicha bo‘lib, ba’zi davlatlarda ikkala tomonlama kauzallik, boshqalarida esa bir tomonlama kauzallik kuzatilgan[15].

Turizmning iqtisodiy ahamiyati ham alohida tahlil qilingan. Turizm YAIMni oshirish, ish o‘rinlari yaratish va xorijiy investitsiyalar kiritish orqali iqtisodiy o‘sishga salmoqli hissa qo‘shadi[16]. Shu bilan birga, turizm rivoji atrof-muhitga salbiy ta’sir ham ko‘rsatishi mumkin: CO_2 chiqindilarining oshishi va havo sifatidagi o‘zgarishlar misol bo‘ladi[17]. Shuning uchun turizmni barqaror rivojlantirish amaliyotlari iqtisodiy foyda bilan atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg‘unlashtirishda muhim hisoblanadi[18].

Siyosiy va amaliy tavsiyalar ham diqqatga sazovor. Turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi ijobiy ta’sirni maksimal darajada oshirish va salbiy ta’sirlarni minimallashtirish uchun muvofiqlashtirilgan davlat siyosati zarur[19]. Masalan, Ispaniyada barqaror turizm strategiyalari iqtisodiy o‘sishni ta’minlagan holda atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qilgan[20]. Shuningdek, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va barqaror turizmni ta’minlash uchun integratsiyalangan siyosatlar muhim ahamiyatga ega[21].

O‘zbekistonda esa bizning fikrimizcha, iqtisodiy o‘sish va turizm rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlik xalqaro tajribadan farqli, chunki mamlakatda turizm sektori jadal rivojlanayotgan va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Erejepova va hamkasblari tadqiqotlarida O‘zbekistonda YAIMning 1%lik o‘sishi xalqaro turistlar sonini taxminan 1,43%ga oshiradi, bu esa iqtisodiy o‘sish va turizm talabining ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatadi[22]. Bizning fikrimizcha, ushbu natija O‘zbekistonning turizm siyosati va investitsiya strategiyalarini shakllantirishda ilmiy asos sifatida qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqarorlik masalalari ham davlatning turizm rivojlanish strategiyasida inobatga olinishi kerak.

Shu tariqa, xalqaro tadqiqotlar va O‘zbekiston misoli shuni ko‘rsatadiki, turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikga bog‘liq va dinamik xususiyatga ega, shuningdek, iqtisodiy va atrof-muhit omillari bilan moderatsiyalanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu bog‘liqlikni aniqlash va uning O‘zbekistondagi xususiyatlarini tahlil qilish davlat turizm siyosati va iqtisodiy strategiyalarini samarali shakllantirish uchun muhimdir.

Quyidagi jadvalda turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikning turli mintaqalar va davlatlardagi xususiyatlari tizimlashtirilgan holatda taqdim qilingan. Jadval xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslanib tuzilgan bo‘lib, har bir mintaqa yoki mamlakatdagi bog‘liqlik turi va asosiy topilmalarni ko‘rsatadi.

1-jadval

Turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mintaqaviy bog‘liqlik[23]

Mintaqa/Davlat	Bog‘liqlik turi	Asosiy topilmalar
Jahon (143 mamlakat)	Ikki tomonlama (Bidirectional)	Muvofiqlashtirilgan siyosatlar iqtisodiy rivojlanishni oshiradi[24]
Lotin Amerikasi (5 mamlakat)	Kointegratsiya (Cointegration)	Turizm va YaIM o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik[25]
Yevropa (7 mamlakat)	Ikki tomonlama (Bidirectional)	Turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik[26]
Asosiy turizm manzillari (Fransiya, Meksika, Ispaniya, Italiya)	Nonilayner (Nonlinear)	Iqtisodiy o‘sish kvantillariga qarab ta’sir turlicha[27]
ASEAN (11 mamlakat)	Aralash (Mixed)	Rivojlangan mamlakatlarda sezilarli, rivojlanuvchi davlatlarda kamroq[28]
Yansze delta mintaqasi	Rivojlanuvchi (Evolving)	Zaif iqtisodiyotdan muvofiqlashtirilgan o‘sishga[29]
Pokiston	Ijobiy ta’sir (Positive Impact)	YaIM va ish o‘rinlarini oshiradi[30]

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik juda ko‘pqirrali. Har bir mintaqa va davlatda bog‘liqlik turi va ta’sir darajasi turlicha. Shu bilan birga, barqaror turizm amaliyotlari va muvofiqlashtirilgan davlat siyosatlari turizmning iqtisodiy rivojlanishga

[12] Ma, X. B., Zhang, J. H., & Zhou, L. Y. (2023). Spatial and temporal identification and mechanism analysis of the allometric relationship between regional economy and tourism scale in Yangtze River Delta. *Geographical Research*, *42*(11), 2984-3002.

[13] Munévar, W.G.D. (2023). Tourism and economic growth through panel data cointegration for Latin American countries.

[14] Benkraiem, R., Lahiani, A., Miloudi, A., & Shahbaz, M. (2021). A new look at the tourism development and economic growth nexus: International evidence. *Tourism Economics*, *27*(8), 1707-1735.

[15] Isik, C., Dogru, T., & Turk, E. S. (2018). A nexus of linear and non-linear relationships between tourism demand, renewable energy consumption, and economic growth: Theory and evidence. *International Journal of Tourism Research*, *20*(1), 38-49.

[16] Khan, A., Bibi, S., Lorenzo, A., Lyu, J., & Babar, Z. U. (2020). Tourism and development in developing economies: A policy implication perspective. *Sustainability*, *12*(4), 1618.; Manzoor, F., Wei, L., Asif, M., Haq, M. Z. U., & Rehman, H. U. (2019). The contribution of sustainable tourism to economic growth and employment in Pakistan. *International journal of environmental research and public health*, *16*(19), 3785.

[17] Khan, A., Bibi, S., Ardito, L., Lyu, J., Hayat, H., & Arif, A. M. (2020). Revisiting the dynamics of tourism, economic growth, and environmental pollutants in the emerging economies—sustainable tourism policy implications. *Sustainability*, *12*(6), 2533.; Ahmad, N. A., Zamzamir, Z., & Othman, N. H. (2025). Impact of Tourism and Economic Growth on Air Pollution in Developing Countries. *Institutions and Economies*, 107-129.; Teng, Y., Cox, A., & Chatziantoniou, I. (2021). Environmental degradation, economic growth and tourism development in Chinese regions. *Environmental Science and Pollution Research*, *28*(26), 33781-33793.

[18] Baena, V., & Cerviño, J. (2024, October). The Role of Sustainability in Shaping International Tourism: A Comprehensive Case Study of Spain. In *International Conference on Tourism, Technology and Systems* (pp. 351-359). Singapore: Springer Nature Singapore.; Li, J., Yang, Y., & Ye, Y. (2025). Rural Tourism, Economic Growth, and Environmental Sustainability: Empirical Evidence Based on County-Level Data in China. *Sustainability*, *17*(20), 9215.

[19] Pulido-Fernández, J. I., & Cárdenas-García, P. J. (2021). Analyzing the bidirectional relationship between tourism growth and economic development. *Journal of Travel Research*, *60*(3), 583-602.; Benkraiem, R., Lahiani, A., Miloudi, A., & Shahbaz, M. (2021). A new look at the tourism development and economic growth nexus: International evidence. *Tourism Economics*, *27*(8), 1707-1735.

[20] Baena, V., & Cerviño, J. (2024, October). The Role of Sustainability in Shaping International Tourism: A Comprehensive Case Study of Spain. In *International Conference on Tourism, Technology and Systems* (pp. 351-359). Singapore: Springer Nature Singapore.

[21] Khan, A., Bibi, S., Lorenzo, A., Lyu, J., & Babar, Z. U. (2020). Tourism and development in developing economies: A policy implication perspective. *Sustainability*, *12*(4), 1618.; Khan, A., Bibi, S., Ardito, L., Lyu, J., Hayat, H., & Arif, A. M. (2020). Revisiting the dynamics of tourism, economic growth, and environmental pollutants in the emerging economies—sustainable tourism policy implications. *Sustainability*, *12*(6), 2533.; Purnomo, E. P., & Khairunnisa, T. (2024). Green Economy: Increasing Economic Growth to Support Sustainable Tourism in Super Priority Destinations. *International Journal of Sustainable Development & Planning*, *19*(10).

[22] Erejepova, J. L., Sherjonov, S., Egamov, S., Matkarimov, F., & Murodov, S. (2024). Investigating the Relationship Between Tourism, Economic Growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 574, p. 04007). EDP Sciences.

[23] Муаллиф ишланмаси

[24] Pulido-Fernández, J. I., & Cárdenas-García, P. J. (2021). Analyzing the bidirectional relationship between tourism growth and economic development. *Journal of Travel Research*, *60*(3), 583-602.

[25] Munévar, W. G. D. (2023). Tourism and economic growth through panel data cointegration for Latin American countries.

[26] Dogru, T., & Bulut, U. (2018). Is tourism an engine for economic recovery? Theory and empirical evidence. *Tourism Management*, *67*, 425-434.

[27] Benkraiem, R., Lahiani, A., Miloudi, A., & Shahbaz, M. (2021). A new look at the tourism development and economic growth nexus: International evidence. *Tourism Economics*, *27*(8), 1707-1735.

[28] Fan, F., & Ha, V. T. (2025). Tourism-led growth or economy-driven tourism growth in Southeast Asian countries. *Humanities and Social Sciences Communications*, *12*(1), 1-17.

[29] Ma, X. B., Zhang, J. H., & Zhou, L. Y. (2023). Spatial and temporal identification and mechanism analysis of the allometric relationship between regional economy and tourism scale in Yangtze River Delta. *Geographical Research*, *42*(11), 2984-3002.

[30] Manzoor, F., Wei, L., Asif, M., Haq, M. Z. U., & Rehman, H. U. (2019). The contribution of sustainable tourism to economic growth and employment in Pakistan. *International journal of environmental research and public health*, *16*(19), 3785.

hissasini oshirish va ekologik ta’sirlarni minimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning xalqaro turistlar oqimiga ta’sirini tahlil qilish va 1% YaIM o‘sishi natijasida turistlar soniga ko‘rsatadigan ta’sirni aniqlashdan iborat. Shu maqsadga erishish uchun tadqiqotda panel ma’lumotlar tahlili va regressiya modellari qo‘llanildi.

Panel ma’lumotlar (panel data) iqtisodiy va turizm ko‘rsatkichlari bo‘yicha uzluksiz va dinamik tahlil olib borish imkonini beradi. Bu turdagi ma’lumotlar ham vaqt (2000–2024 yillar) va ham mintaqaviy yoki sektor ko‘rsatkichlar bo‘yicha ko‘pqirrali ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Panel ma’lumotlardan foydalanish iqtisodiy o‘sish va turizm rivoji o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash, vaqt va makroiqtisodiy shartlarni hisobga olish hamda o‘zgaruvchilarning dinamikasini tahlil qilishda samarali usul hisoblanadi (Baltagi, 2021).

Tadqiqotda asosiy iqtisodiy model sifatida quyidagi regressiya formuli qo‘llanildi:

$$Tourists_t = \alpha + \beta \log(GDP_t) + \gamma X_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

– $Tourists_t$ – xalqaro turistlar soni (2000–2024 yillar davomida);

– GDP_t – O‘zbekistondagi umumiy ichki mahsulot (YAIM) ko‘rsatkichi;

– X_t – turizmga ta’sir qiluvchi boshqa kontrol o‘zgaruvchilar (inflyatsiya, valyuta kursi, investitsiyalar, transport infratuzilmasi ko‘rsatkichlari);

– α – modelning kesilish nuqtasi;

– β , γ – har bir o‘zgaruvchining ta’sir koeffitsiyentlari;

– ε_t – xato tarkibi (residuals).

Regressiya tahlilida Fisherni F-testi yordamida regressiya tenglamasining statistic ahamiyatliligi hamda Styudentning t-testi yordamnida parametrlarning ishonchliligi tekshirildi. Bundan tashqari qoldiqda avtokorreliyatsiya muammosi mavjud emasligi Durbin-Vatson statistikasi hamda Korrelliogramma grafigi bilan tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari. 2016–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston iqtisodiyoti uzluksiz o‘sishni ko‘rsatdi. YAIM 2016 yilda 255,4 trln. so‘mdan 2024 yilda 1,454 trln. so‘mgacha o‘sdi, bu mamlakatning iqtisodiy salohiyatining barqaror rivojlanishidan dalolat beradi. Shu davrda xorijiy turistlar oqimi YAIM o‘sishi bilan bog‘liq dinamikani ko‘rsatdi: 2016 yilda 2,03 mln. kishi bo‘lgan sayohatchilar soni COVID-19 ta’siriga qaramay, 2023 yilda 10,06 mln. kishiga yetdi. Ichki turistlar soni ham barqaror o‘sishda bo‘lib, 2024 yilda 22,7 mln. kishini tashkil qildi. Bu ko‘rsatkichlar turizm sektori va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Turizm xizmatlari eksporti ham shunga muvofiq o‘sishni ko‘rsatdi: 2016 yilda 1,25 mlrd. AQSH dollaridan 2024 yilda 3,39 mlrd. dollarga yetdi. Bu, ayniqsa, xalqaro turistlar oqimi va ichki iqtisodiyotning o‘sish sur’ati bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. 2020 yilda COVID-19 ta’siri oqibatida turistlar va turizm eksportida keskin tushish kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda tezkor tiklanish kuzatildi.

Inflyatsiya darajasi 2018 yilda 17,52% ga yetganidan keyin barqarorlashib, 2024 yilda 9,63%ga tushdi. Bu O‘zbekistonda iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy siyosatning samaradorligini ko‘rsatadi.

Valyuta kursi ham 2016 yilda 3,224 UZS/USDdan 2024 yilda 12,896 UZS/USDga yetdi. Bu holat xalqaro turistlar uchun xarajatlarning raqobatbardoshligini saqlash va turizm sektorini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Regressiya tahlili O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning xalqaro turistlar oqimiga ta’sirini empirik jihatdan baholash imkonini beradi. Asosiy ko‘rsatkichlar (YAIM, turistlar soni, turizm xizmatlari eksporti, inflyatsiya va valyuta kursi) O‘zbekistondagi iqtisodiy va turizm sektori dinamikasini ko‘rsatdi. Ushbu o‘zgaruvchilarning xalqaro turistlar oqimiga qanday ta’sir ko‘rsatishini regressiya modellari orqali aniqlashga e’tibor qaratamiz. Bu tahlil YAIMning 1%ga o‘sishi turistlar soniga qancha ta’sir qilishini, shuningdek, boshqa o‘zgaruvchilarning turizmga ta’sirini empirik ravishda ko‘rsatish imkonini beradi.

2-jadval

2016-2024-yillar kesimida O‘zbekistondagi asosiy ko‘rsatkichlar[31]

Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Yaim	*mlrd. so‘m*	255421,9	356453,8	473652,8	594659,6	668038,0	820536,6	995573,1	1192162,5	1454000,0
Xorijiy sayyohlar	*mln. kishi*	2,03	2,69	5,35	6,75	1,5	5,23	6,63	10,06	5,23
Ichki sayyohlar	*mln. kishi*	8,9	10,6	12,4	14,7	3,5	5,8	11,4	20,6	22,7
Turizm xizmatlari eksporti	*mln. AQSh dollari*	1252,5	546,9	1041,1	1313	255,8	422,1	1609,8	2143,1	3395,2
Inflyatsiya darajasi[32]	*%*	8,13	13,88	17,52	14,53	12,87	10,85	11,45	9,96	9,63
Valyuta kursi[33]	*AQSh dollari*	3224	8092	8328	9429	10478	10786	11252	12340	12896

Shu maqsadda eng kichik kvadratlar usuli yordamida regressiya tenglamasining parametrlari baholanadi, bu esa o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning tahliliy va empirik jihatdan aniqlanishiga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2016–2024 yillar kesimida turistlar oqimi (TOURIST) va YAIM (GDP) ko‘rsatkichlari o‘rtacha o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, ularning tarkalishi yuqori dispersiya bilan tavsiflanadi. Barcha o‘zgaruvchilar uchun Skewness qiymatlarining 1 dan kichikligi ma’lumotlar nisbatan simmetrik taqsimlanganini anglatadi. Kurtosis qiymatlarining 2–3 orasida bo‘lishi esa ko‘rsatkichlar normal taqsimotga yaqinligini ko‘rsatadi. Jarque–Bera testining yuqori p-qiymatlari (p > 0.34) barcha qategoriyalar bo‘yicha ma’lumotlar statistik jihatdan normal taqsimotga mos keladi degan xulosaga olib keladi.

[31] Ўзбекистон Республикаси Миллий Статистика Қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди
[32] https://www.macrotrends.net/datasets/global-metrics/countries/uzb/uzbekistan/inflation-rate-cpi
[33] https://www.focus-economics.com/country-indicator/uzbekistan/exchange-rate/

Shu bilan birga, X1, X2, X3 va X4 o‘zgaruvchilarida ham baland standart og‘ishlar kuzatilishi ularning yillar davomida sezilarli o‘zgaruvchanlikka egaligini ko‘rsatadi. Bu esa turizmga ta’sir etuvchi omillar dinamik va tashqi omillarga sezgir ekanligidan dalolat beradi. Umuman olganda, ma’lumotlar to‘plami regressiya va iqtisodiy modellashtirish uchun munosib va normal taqsimotga yaqin ekanligi tasdiqlanadi.

3-jadval

Turizm sohasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha deskriptiv statistik natijalar[34]

	TOURIST	GDP	X1	X2	X3	X4
Mean	5.052222	756722.0	12.28889	1331.056	12.09111	9647.222
Median	5.230000	668038.0	11.40000	1252.500	11.45000	10478.00
Maximum	10.06000	1454000.	22.70000	3395.200	17.52000	12896.00
Minimum	1.500000	255421.9	3.500000	255.8000	8.130000	3224.000
Std. Dev.	2.691044	397287.8	6.302469	980.1564	2.904055	2911.881
Skewness	0.332239	0.460332	0.381331	0.964560	0.496932	-1.133466
Kurtosis	2.459476	2.097592	2.177783	3.199469	2.413492	3.684810
Jarque-Bera	0.275136	0.623236	0.471635	1.410485	0.499409	2.102979
Probability	0.871475	0.732261	0.789925	0.493989	0.779031	0.349417
Sum	45.47000	6810498.	110.6000	11979.50	108.8200	86825.00
Sum Sq. Dev.	57.93376	1.26E+12	317.7689	7685653.	67.46829	67832396
Observations	9	9	9	9	9	9

Yuqorida keltirilgan deskriptiv statistika natijalarini yanada vizual ravishda tahlil qilish maqsadida 2016–2024 yillar davomidagi turizm sohasiga oid asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi chiziqli grafiklar orqali tasvirlandi. Ushbu grafiklar har bir indikatorning yillar kesimidagi o‘zgarish sur’ati, o‘sish yoki pasayish tendensiyalarini aniq namoyon qilib, turizm rivojiga ta’sir etuvchi omillarning qanday dinamik yondashuvda harakat qilayotganini ko‘rsatib beradi.



1-rasm. O‘zbekistonda turizm omillari va YaIMning 9 yillik o‘zgarish grafigi[35]

Iqtisodiy hisob-kitoblar va statistik baholash ishlarini amalga oshirish uchun EViews 12 dasturiy paketi qo‘llaniladi. Mazkur dastur orqali ma’lumotlar bazasi yuklanib, deskriptiv statistika jadvali shakllantirildi va har bir o‘zgaruvchi bo‘yicha asosiy statistik ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirildi.

Grafiklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlar bir-biridan farqli dinamikaga ega bo‘lsa-da, umumiy tendensiya ijobiy yo‘nalishda shakllangan. Jumladan, turistlar oqimi bir necha yillik tabiiy o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lsa ham, umumiy holda o‘sish qayd etilgan. YAIM dinamikasi barqaror va uzluksiz o‘sish trayektoriyasini namoyon qilmoqda, bu esa mamlakat iqtisodiy quvvatining ortayotganini tasdiqlaydi. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq X1 va X2 ko‘rsatkichlari pandemiya yillarida qisqa muddatli pasayishni ko‘rsatsa-da, keyingi yillarda tiklanish va o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shuningdek, X3 va X4 indikatorlari turli davrlarda tebranishlarga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, umumiy holda barqarorlikka intilish va o‘sish sur’atlari mavjud.

Umuman olganda, grafiklar turizm sohasi va uning iqtisodiy asoslaridagi dinamika barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini, turizmga ta’sir etuvchi omillarda esa pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi[36]. Bu esa keyingi iqtisodiy-empirik tahlillar uchun mustahkam asos yaratadi.

[34] Муаллиф ишланмаси
[35] Муаллиф ишланмаси
[36] Astanakulov, O., BALBA, M. E., Khushvakt, K., & Muslimakhon, S. (2025). IoT Innovations for Transforming the Future of Tourism Industry: Towards Smart Tourism Systems. *Journal of Intelligent Systems & Internet of Things*, *14*(2).

4-jadval

O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya matritsasi [37]

	TOURIST	GDP	X1	X2	X3	X4
TOURIST	1	0.59732574...	0.66695191...	0.49779332...	-0.0256835...	0.57696170...
GDP	0.59732574...	1	0.64819663...	0.74956412...	-0.3908779...	0.87212844...
X1	0.66695191...	0.64819663...	1	0.90763202...	-0.1684919...	0.43460653...
X2	0.49779332...	0.74956412...	0.90763202...	1	-0.4131719...	0.41703621...
X3	-0.0256835...	-0.3908779...	-0.1684919...	-0.4131719...	1	-0.0083144...
X4	0.57696170...	0.87212844...	0.43460653...	0.41703621...	-0.0083144...	1

Mazkur tadqiqotda xalqaro turistlar soniga (TOURIST) ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ichki turistlar soni (X1) hamda yalpi ichki mahsulotning logarifmi (LOG(GDP)) tanlanib, OLS (Eng kichik kvadratlar) usuli orqali baholash amalga oshirildi. Modellash natijalari 9 ta kuzatuv asosida shakllantirilgan regressiya tenglamasi quyidagicha ko‘rinishga ega:

$$Tourits_t = -12.9676 + 0.969 \cdot log(Gdp_t) + 0.379 \cdot X_1 + \varepsilon_t$$

5-jadval

Regressiya natijalari tahlili[38]

Dependent Variable: TOURIST
Method: Least Squares
Date: 11/14/25 Time: 15:45
Sample: 1 9
Included observations: 9

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-12.96761	10.46217	-1.239475	0.2614
X1	0.379216	0.073492	5.159985	0.0021
LOG(GDP)	0.969048	0.813787	1.190788	0.2787

R-squared	0.889082	Mean dependent var	4.680000
Adjusted R-squared	0.852109	S.D. dependent var	2.887867
S.E. of regression	1.110576	Akaike info criterion	3.308836
Sum squared resid	7.400275	Schwarz criterion	3.374578
Log likelihood	-11.88976	Hannan-Quinn criter.	3.166966
F-statistic	24.04692	Durbin-Watson stat	2.293222
Prob(F-statistic)	0.001365		

Regressiya tahlili natijalari YaIMning o‘sishi va ichki turistlar sonining ortishi xalqaro turistlar oqimini ko‘paytirishda asosiy omillar ekanini ko‘rsatdi. YaIMning 1%ga o‘sishi turistlar sonining taxminan 0.969%ga ortishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy rivojlanishning turizmga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ichki turizm infratuzilmasining rivojlanishi va ichki turistlar sonining ortishi ham xalqaro turistlar oqimiga sezilarli ijobiy ta'sir ko‘rsatadi (koeffisent = 0.379, p = 0.0021).

Modelning yuqori R^2 ko‘rsatkichi (0.889) va F-statistikasi (F = 24.0469, p = 0.001365) tanlangan o‘zgaruvchilarning turistlar sonini izohlashda ishonchli va statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Durbin–Watson statistikasi (DW = 2.293) avtokorrelyasiyaning yo‘qligini tasdiqlab, modelning konstruksiyasi va natijalari ishonchliligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, olingan natijalar turizm sohasida strategik qarorlar qabul qilishda iqtisodiy o‘sish va ichki turizm infratuzilmasiga investisiyalar xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu natijalar O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishni taqsimlash siyosati uchun asosiy ilmiy va amaliyotga yo‘naltirilgan asos sifatida xizmat qiladi.

6-jadval

Avtokorrelyatsiya va qisman korrelyatsiya jadvali natijalari[39]

Date: 11/14/25 Time: 15:51
Sample: 1 9
Included observations: 9

Autocorrelation	Partial Correlation		AC	PAC	Q-Stat	Prob
		1	-0.190	-0.190	0.4471	0.504
		2	-0.074	-0.114	0.5250	0.769
		3	-0.161	-0.208	0.9510	0.813

Avtokorrelyatsiya va qisman avtokorrelyatsiya funksiyalari, shuningdek, Lyung–Boks statistikasi natijalari tahlil qilinganda, barcha kechikishlar uchun Prob qiymatlari 0.05dan yuqori ekanligi (0.504; 0.769; 0.813) kuzatildi. Bu holat nol gipotezani rad etish zarurligini bildirmaydi. Demak, tanlangan model qoldiqlarida statistik ahamiyatli avtokorrelyatsiya mavjud emas. Qoldiqlarning tasodifiy va mustaqil tarzda shakllangani modelning dinamik tuzilishi to‘g‘ri belgilanganini hamda uning prognostik barqarorligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi model qoldiqlarining vaqt bo‘yicha barqaror ekanligini ko‘rsatsa-da, ularning dispersiyasi doimiyligini alohida tekshirish talab etiladi. Chunki geteroskedastiklikning mavjud bo‘lishi parametrlarning baholarini samarasiz hamda statistik xulosalarni ishonchsiz qilib qo‘yishi mumkin. Shu bois, model aniqligini yanada yuqori baholash maqsadida keyingi bosqichda Breusch–Pagan–Godfrey testidan foydalanib, qoldiqlar dispersiyasining bir xilligi (gomoskedastiklik) tekshirildi.

[37] Муаллиф ишланмаси
[38] Муаллиф ишланмаси
[39] Муаллиф ишланмаси

7-jadval

Breusch–Pagan–Godfrey test natijalari[40]

Heteroskedasticity Test: Breusch-Pagan-Godfrey
Null hypothesis: Homoskedasticity

F-statistic	1.845181	Prob. F(2,6)	0.2374
Obs*R-squared	3.427453	Prob. Chi-Square(2)	0.1802
Scaled explained SS	0.978963	Prob. Chi-Square(2)	0.6129

Breusch–Pagan–Godfrey geteroskedastiklik testining natijalari model qoldiqlari dispersiyasining barqarorligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Jadvalda keltirilgan F-statistic uchun Prob(F) = 0.2374, Obs*R-squared uchun Prob(Chi-Square) = 0.1802 hamda Scaled explained SS uchun Prob(Chi-Square) = 0.6129 qiymatlari 0.05 darajadan katta bo‘lgani sababli nol gipoteza – gomoskedastiklikni rad etish uchun asos mavjud emas. Bu esa modelda geteroskedastiklikning statistik jihatdan ahamiyatli belgilari kuzatilmaganini anglatadi. Shu tariqa, baholangan regressiya modelida qoldiqlar dispersiyasining bir xilligi ta’minlangan bo‘lib, parametrlar baholari ishonchli va samarali ekanligi tasdiqlanadi.

Jarque–Bera testining qiymati 0.484399 bo‘lib, unga mos keluvchi ehtimollik qiymati (Probability = 0.784900) 0.05dan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat nol gipotezani rad etish uchun asos mavjud emasligini bildiradi. Demak, model qoldiqlari normal taqsimotdan statistik jihatdan farq qilmaydi. Qoldiqlar bo‘yicha asimmetriya (Skewness = –0.441856) va kurtoz (Kurtosis = 2.285308) ko‘rsatkichlari ham normal taqsimotga yaqin ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, qoldiqlar gistogrammasi ham ularning simmetrik va barqaror tarzda taqsimlanganini vizual ravishda namoyon qiladi.



2-расм. Jarque-Bera testi[41]

Shu tariqa, Jarque–Bera test natijalari regressiya modelining normallik sharti bajarilganini va qoldiqni oq shovqin deb qarash mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Tadqiqot doirasida qo‘llanilgan ekonometrik model turistlar oqimi va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda ishonchli va metodologik jihatdan to‘g‘ri tanlanganligi bilan ajralib turdi. Baholash jarayonida klassik OLS modelining asosiy shartlari – avtokorrelyasiyaning yo‘qligi, geteroskedastiklikning mavjud emasligi va multikollinearlikning past darajada ekanligi tekshirildi. Jarque–Bera testining natijalari qoldiqlarning normal taqsimotga mos kelishini tasdiqlab, model parametrlarining statistik barqaror va ishonchli ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, olingan R^2 va F-statistika qiymatlari modelning umumiy ahamiyatliligini va tushuntiruvchi o‘zgaruvchining ta’sir kuchini jiddiy ravishda negizlashtirib berdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari mamlakat iqtisodiy o‘sishi va turistik oqim o‘rtasidagi kuchli va ijobiy bog‘liqlik mavjudligini namoyon qildi. YaIMning o‘sishi infratuzilmani yaxshilash, yangi turistik ob’yektlar barpo etish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali turizm sektoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlandi. Bu esa makroiqtisodiy barqarorlik va tarmoqlararo uyg‘un rivojlanishning turizm sohasi uchun qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Tahlil natijalari asosida turizmni iqtisodiyotning strategik drayveri sifatida rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va investisiya muhitini yanada yaxshilash mamlakatning xalqaro turistik jozibadorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Maqolada keltirilgan ilmiy xulosalar amaliyotda samarali strategik rejalashtirish va davlat siyosatini takomillashtirish uchun yuqori darajada foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chang, C. L., Khamkaew, T., & McAleer, M. (2012). IV estimation of a panel threshold model of tourism specialization and economic development. Tourism Economics, 18(1), 5-41.

2. Sharma, N., & Punjab, J. (2018). Tourism led growth hypothesis: Empirical evidence from India. African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure, 7(2), 1-11.

3. El Menyari, Y. (2021). Effect of tourism FDI and international tourism to the economic growth in Morocco: Evidence from ARDL bound testing approach. Journal of Policy Research in Tourism, Leisure and Events, 13(2), 222-242.

4. Nonthapot, S. (2013). Tourism and economic growth of Thailand testing: New evidence from ARDL and rolling window approaches. International Journal of Applied business and economic research, 11(2), 251-260.

5. Liu, S., Islam, H., Ghosh, T., & Afrin, K. H. (2025). Exploring the nexus between economic growth and tourism demand: the role of sustainable development goals. Humanities and Social Sciences Communications, 12(1), 1-14.

6. Erejepova, J. L., Sherjonov, S., Egamov, S., Matkarimov, F., & Murodov, S. (2024). Investigating the Relationship Between Tourism, Economic Growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 574, p. 04007). EDP Sciences.

7. Erejepova, J. L., Sherjonov, S., Egamov, S., Matkarimov, F., & Murodov, S. (2024). Investigating the Relationship Between Tourism,

[40] Муаллиф ишланмаси
[41] Муаллиф ишланмаси

Economic Growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 574, p. 04007). EDP Sciences.

8. Nakimu, R. K., Mayanja, J. B., & Nanyiti, A. (2025). A moderation analysis of the effect of international tourism on economic growth in Sub-Saharan Africa. Cogent Economics & Finance, 13(1), 2559043.

9. Pulido-Fernández, J. I., & Cárdenas-García, P. J. (2021). Analyzing the bidirectional relationship between tourism growth and economic development. Journal of Travel Research, 60(3), 583-602.; Dogru, T., & Bulut, U. (2018). Is tourism an engine for economic recovery? Theory and empirical evidence. Tourism Management, 67, 425-434. Fan, F., & Ha, V. T. (2025). Tourism-led growth or economy-driven tourism growth in Southeast Asian countries. Humanities and Social Sciences Communications, 12(1), 1-17.

10. Pulido-Fernández, J. I., & Cárdenas-García, P. J. (2021). Analyzing the bidirectional relationship between tourism growth and economic development. Journal of Travel Research, 60(3), 583-602.; Dogru, T., & Bulut, U. (2018). Is tourism an engine for economic recovery? Theory and empirical evidence. Tourism Management, 67, 425-434. Fan, F., & Ha, V. T. (2025). Tourism-led growth or economy-driven tourism growth in Southeast Asian countries. Humanities and Social Sciences Communications, 12(1), 1-17.

11. Chirilă, V., Butnaru, G. I., & Chirilă, C. (2020). Spillover index approach in investigating the linkage between international tourism and economic growth in central and eastern European countries. Sustainability, 12(18), 7604.; Antonakakis, N., Dragouni, M., & Filis, G. (2015). How strong is the linkage between tourism and economic growth in Europe?. Economic Modelling, 44, 142-155.

12. Ma, X. B., Zhang, J. H., & Zhou, L. Y. (2023). Spatial and temporal identification and mechanism analysis of the allometric relationship between regional economy and tourism scale in Yangtze River Delta. Geographical Research, 42(11), 2984-3002.

13. Munévar, W.G.D. (2023). Tourism and economic growth through panel data cointegration for Latin American countries.

14. Benkraiem, R., Lahiani, A., Miloudi, A., & Shahbaz, M. (2021). A new look at the tourism development and economic growth nexus: International evidence. Tourism Economics, 27(8), 1707-1735.

15. Isik, C., Dogru, T., & Turk, E. S. (2018). A nexus of linear and non-linear relationships between tourism demand, renewable energy consumption, and economic growth: Theory and evidence. International Journal of Tourism Research, 20(1), 38-49.

16. Khan, A., Bibi, S., Lorenzo, A., Lyu, J., & Babar, Z. U. (2020). Tourism and development in developing economies: A policy implication perspective. Sustainability, 12(4), 1618.; Manzoor, F., Wei, L., Asif, M., Haq, M. Z. U., & Rehman, H. U. (2019). The contribution of sustainable tourism to economic growth and employment in Pakistan. International journal of environmental research and public health, 16(19), 3785.

17. Khan, A., Bibi, S., Ardito, L., Lyu, J., Hayat, H., & Arif, A. M. (2020). Revisiting the dynamics of tourism, economic growth, and environmental pollutants in the emerging economies—sustainable tourism policy implications. Sustainability, 12(6), 2533.; Ahmad, N. A., Zamzamir, Z., & Othman, N. H. (2025). Impact of Tourism and Economic Growth on Air Pollution in Developing Countries. Institutions and Economies, 107-129.; Teng, Y., Cox, A., & Chatziantoniou, I. (2021). Environmental degradation, economic growth and tourism development in Chinese regions. Environmental Science and Pollution Research, 28(26), 33781-33793.

18. Baena, V., & Cerviño, J. (2024, October). The Role of Sustainability in Shaping International Tourism: A Comprehensive Case Study of Spain. In International Conference on Tourism, Technology and Systems (pp. 351-359). Singapore: Springer Nature Singapore.; Li, J., Yang, Y., & Ye, Y. (2025). Rural Tourism, Economic Growth, and Environmental Sustainability: Empirical Evidence Based on County-Level Data in China. Sustainability, 17(20), 9215.

19. Pulido-Fernández, J. I., & Cárdenas-García, P. J. (2021). Analyzing the bidirectional relationship between tourism growth and economic development. Journal of Travel Research, 60(3), 583-602.; Benkraiem, R., Lahiani, A., Miloudi, A., & Shahbaz, M. (2021). A new look at the tourism development and economic growth nexus: International evidence. Tourism Economics, 27(8), 1707-1735.

20. Baena, V., & Cerviño, J. (2024, October). The Role of Sustainability in Shaping International Tourism: A Comprehensive Case Study of Spain. In International Conference on Tourism, Technology and Systems (pp. 351-359). Singapore: Springer Nature Singapore.

21. Khan, A., Bibi, S., Lorenzo, A., Lyu, J., & Babar, Z. U. (2020). Tourism and development in developing economies: A policy implication perspective. Sustainability, 12(4), 1618.; Khan, A., Bibi, S., Ardito, L., Lyu, J., Hayat, H., & Arif, A. M. (2020). Revisiting the dynamics of tourism, economic growth, and environmental pollutants in the emerging economies—sustainable tourism policy implications. Sustainability, 12(6), 2533.; Purnomo, E. P., & Khairunnisa, T. (2024). Green Economy: Increasing Economic Growth to Support Sustainable Tourism in Super Priority Destinations. International Journal of Sustainable Development & Planning, 19(10).

22. Erejepova, J. L., Sherjonov, S., Egamov, S., Matkarimov, F., & Murodov, S. (2024). Investigating the Relationship Between Tourism, Economic Growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 574, p. 04007). EDP Sciences.

23. Pulido-Fernández, J. I., & Cárdenas-García, P. J. (2021). Analyzing the bidirectional relationship between tourism growth and economic development. Journal of Travel Research, 60(3), 583-602.

24. Munévar, W. G. D. (2023). Tourism and economic growth through panel data cointegration for Latin American countries.

25. Dogru, T., & Bulut, U. (2018). Is tourism an engine for economic recovery? Theory and empirical evidence. Tourism Management, 67, 425-434.

26. Benkraiem, R., Lahiani, A., Miloudi, A., & Shahbaz, M. (2021). A new look at the tourism development and economic growth nexus: International evidence. Tourism Economics, 27(8), 1707-1735.

27. Fan, F., & Ha, V. T. (2025). Tourism-led growth or economy-driven tourism growth in Southeast Asian countries. Humanities and Social Sciences Communications, 12(1), 1-17.

28. Ma, X. B., Zhang, J. H., & Zhou, L. Y. (2023). Spatial and temporal identification and mechanism analysis of the allometric relationship between regional economy and tourism scale in Yangtze River Delta. Geographical Research, 42(11), 2984-3002.

29. Manzoor, F., Wei, L., Asif, M., Haq, M. Z. U., & Rehman, H. U. (2019). The contribution of sustainable tourism to economic growth and employment in Pakistan. International journal of environmental research and public health, 16(19), 3785.

30. Astanakulov, O., BALBA, M. E., Khushvakt, K., & Muslimakhon, S. (2025). IoT Innovations for Transforming the Future of Tourism Industry: Towards Smart Tourism Systems. Journal of Intelligent Systems & Internet of Things, 14(2).

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

O‘ZBEK MENTALITETIDA ISTAK/XOHISH IFODALARINING LINGVOKULTUROLOGIK O‘RNI

Feruzjon Sharipov
Ingliz tili o‘qitish metodikasi №1 kafedrasi o‘qituvchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 29
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1315

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Istak, xohish, mentalitet, lingvokulturologiya, pragmatika, milliy qadriyatlar, badiiy nutq, diskurs.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek mentalitetida istak va xohish ifodalarining lingvokulturologik asoslari o‘rganiladi. Istak/xohish kategoriyasi nafaqat grammatik hodisa, balki xalqning axloqiy qadriyatlari, diniy e’tiqodi va ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq madaniy ko‘rsatkich sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek tilidagi istakni ifodalovchi birliklar — -sa edi, istamoq, xohlamoq, tilamoq, orzu qilmoq kabi shakllarning semantik-pragmatik imkoniyatlari ochib beriladi. Badiiy adabiyotdan olingan misollar orqali istak ifodalarining empatik, axloqiy baholovchi va kollektivlikni aks ettiruvchi funksiyalari aniqlanadi. Maqola istak konseptining o‘zbek madaniyatidagi ramziy ma’nolarini tizimli yondashuv asosida ochib beradi. Ushbu maqolada o‘zbek tilida istak va xohish kategoriyalarining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda istakning grammatik shakllari, pragmatik funksiyalari va madaniy kodlar bilan bog‘liqligi ilmiy manbalar hamda badiiy matnlar asosida o‘rganiladi. O‘zbek nutq madaniyatida istakning bevosita ifodalanishidan ko‘ra bilvosita, yumshoq va etiketga mos shakllarda berilishi kollektivizm, kamtarlik, murosa va diniy-taqdiriy qarashlar bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. “Xudo xohlasa”, “nasib bo‘lsa”, “kelib ketsangiz yaxshi bo‘lardi” kabi birliklar istakning pragmatik yumshatish va ijtimoiy masofani tartibga solish vositasi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tili materiallari bilan qiyosiy tahlil istakning ingliz madaniyatida ko‘proq individual iroda va shaxsiy ambitsiya ifodasi sifatida ochiq bayon etilishini aniqlaydi. O‘zbek va ingliz badiiy adabiyotlaridagi misollar esa istakning milliy mentalitetga xos badiiy talqinini yoritadi. Tadqiqot natijalari istak/xohish ifodalari o‘zbek madaniyatida nafaqat grammatik birlik, balki madaniy-ma’naviy qadriyatlarni uzatuvchi konseptual kod sifatida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Kirish. Istak va xohishning til orqali ifodalanishi inson tafakkurining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har qanday madaniyatda til nafaqat axborot uzatuvchi vosita, balki xalqning ma’naviy-ruhiy dunyosini, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir. O‘zbek mentalitetida istak va xohish faqat shaxsiy ehtiyoj yoki ichki hissiy holat ifodasi bo‘lib qolmasdan, balki kollektiv ong, axloqiy normalar va ijtimoiy odatlar bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek jamiyatida til orqali bildirilgan istaklar ko‘pincha samimiy tilak, duo, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, kamtarlik ifodasi bilan uyg‘unlashadi. *“Xudo xohlasa”*, *“nasib bo‘lsa”*, *“ko‘nglimdan o‘tsin”* kabi nutqiy birliklar inson o‘z orzu-intilishlarini mutlaq shaxsiy iroda bilan bog‘lab qo‘ymasdan, balki taqdir, iymon va jamoaviy qadriyatlarga tayanishini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zbek mentalitetining diniy-axloqiy asoslari bilan bevosita bog‘liqdir.

Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan istakning til orqali ifodalanishi muayyan madaniy kodlarga asoslanadi. O‘zbek tilida istakni bildiruvchi grammatik shakllar (*-sa edi*, *-ishni istamoq*, *tilamoq*, *niyat qilmoq*) o‘zida voqelik va subyektivlik o‘rtasidagi masofani mujassamlashtiradi. Ular inson niyatining noaniqligi, umid bilan qo‘rquvning uyg‘unligini ifodalaydi.

Shuningdek, istak kategoriyasi pragmatik funksiyaga ega bo‘lib, nutqda muloyimlik strategiyalarini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi: *“Yordam bersangiz yaxshi bo‘lardi”*, *“Agar imkon bo‘lsa”* kabi ifodalar bevosita buyruqdan farqli ravishda ijtimoiy etiketni saqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Lingvokulturologik tadqiqotlarda til va madaniyatning o‘zaro aloqasi masalasi ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. V.I. Karasik tilni madaniy kodning tashuvchisi sifatida talqin etib, undagi konseptlar milliy mentalitet bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi [1]. Uning ishlarida istak singari emotsional-semantik kategoriyalar xalq psixologiyasini aks ettirish vositasi sifatida baholanadi.

A.Wierzbicka universal insoniy emotsiyalarni tillardagi milliy-madaniy ifodalari orqali tahlil qilib, istak kategoriyasining har bir til va madaniyatda o‘ziga xos tomoni mavjudligini ko‘rsatadi[2]. U “desire” konseptining inglizcha modelini tavsiflar ekan, slavyan va turkiy tillarda istak ifodasi ko‘proq ijtimoiy etik me’yorlarga bog‘langani haqida fikr bildiradi.

O‘zbek tilshunosligida pragmatik tadqiqotlar doirasida istak formulasining nutq faoliyatidagi muloyimlik strategiyalarida tutgan o‘rni muhim masala sifatida qayd etiladi. R.Yuldashev muloyimlik nutq maxsus vositalari, jumladan, istak orqali ifodalanuvchi iltimos shakllari o‘zbek tilida yuqori darajada normallashganini ta’kidlaydi[3].

M.Qo‘ldoshevning ishlari o‘zbek frazeologik birliklarida istak konseptining aks etishi bilan bog‘liq bo‘lib, til va mentalitet munosabatlarini nutq misollarida ochib beradi[4]. Tadqiqotchi duolik iboralar, tilak so‘zlarining madaniy manbalarini diniy va etnografik qadriyatlar bilan bog‘laydi.

Xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha tadqiqotlarda istak obrazining folklordagi ramziy talqinlariga alohida e’tibor beriladi. N.Karimov istakni ertak va maqollar diskursida “erishish – taqdir – sabr” semantik zanjirida ochib beradi[5].

Zamonaviy lingvokulturologiyada konseptual tahlil metodlari istakning semantik maydonini izohlashda samarali qo‘llanilmoqda. Karasik va boshqa olimlar taklif qilgan konseptual yondashuv o‘zbek tilidagi orzu, niyat, tilak, umid birliklarini yagona konsept tizimi sifatida ifodalash imkonini beradi[6].

O‘zbek adabiyotida istak va xohish ifodalari qahramonlarning ichki kechinmalari, axloqiy intilishlari va ruhiy iztiroblarini ochib beruvchi muhim badiiy vosita hisoblanadi. Masalan, Abdulla Qahhor hikoyalarida *“Ko‘nglimdan o‘tadi…”*, *“Balki nasib qilsa…”* kabi iboralar personajlarning orzu va umidlarini ijtimoiy hayot bilan uyg‘un tarzda aks ettiradi.

O‘tkir Hoshimovning asarlarida istak ko‘pincha otalik, mehr-shafqat, halollik kabi qadriyatlar bilan bog‘lanadi: *“Farzandim odam bo‘lsin”* kabi tilak konstruksiyasi jamoaviy axloqiy idealga yo‘naltirilgan xohishni ifodalaydi.

Erkin Vohidov she’riyatida istak vatanparvarlik ruhi bilan uyg‘unlashadi: yorug‘ kelajak haqidagi orzular obrazli tasvir orqali kuchayadi.

[1] Karasik V.I. Лингвистический круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002. — 384 с.
[2] Wierzbicka A. Emotions across languages and cultures. — Cambridge: CUP, 1999. — 349 p.
[3] Yuldashev R. O‘zbek tili pragmatikasi. — Toshkent: Fan, 2018. — 215 b.
[4] Qo‘ldoshev M. O‘zbek frazeologiyasining lingvokulturologik asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2016. — 180 b.
[5] Karimov N. O‘zbek xalq ertaklarining semantik poetikasi. — Toshkent: Fan, 2015. — 220 b.
[6] Karasik V.I. Лингвистический круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002. — 384 с.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda o‘zbek mentalitetida istak/xohish ifodalarining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, Karasik, Wierzbicka, Yuldashev, Qo‘ldoshev kabi olimlarning ishlari asosida mavzuga doir nazariy manbalar kontseptual tahlil qilindi. Keyinchalik o‘zbek tilidagi istakni ifodalovchi grammatik va leksik birliklar (-sa edi, tilamoq, xohlamoq, niyat qilmoq, duo-tilak formulalari) semantik-pragmatik tahlil asosida o‘rganildi. Badiiy adabiyot (A. Qahhor, O‘. Hoshimov, E. Vohidov) va xalq og‘zaki ijodidan olingan kontekstual misollar diskurs tahlili yordamida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, ingliz tili materiallari bilan qiyosiy-pragmatik tahlil amalga oshirilib, ikki madaniy muhitdagi istak ifodalarining kommunikativ farqlari aniqlab borildi. Tadqiqotda lingvokulturologik yondashuv, kontekstual tahlil, qiyosiy-pragmatik tahlil va konseptual tahlil metodlari uyg‘un qo‘llanib, olingan natijalar umumlashtirildi.

Natija. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida istak va xohish ifodalari ko‘pincha bevosita buyruq shaklida emas, balki pragmatik yumshatish va madaniy filtr orqali bayon etiladi. Kundalik nutqda istakni ochiq buyruq sifatida bildirish noloyiq xulq hisoblanadi; shu sababli istak konstruktsiyalari muloyimlik, hurmat va ijtimoiy masofani saqlash tamoyillari asosida shakllanadi. Masalan, oddiy talabni bildiruvchi *“Kel!”* buyruq fe’li o‘rniga o‘zbek nutqida ko‘proq *“Kela olasizmi?”*, *“Bir kelib ketsangiz yaxshi bo‘lardi,”* yoki *“Agar imkon topilsa…”* kabi yumshatilgan istak formulalari qo‘llanadi. Bu jarayon o‘zbek mentalitetida shaxsaro muloqotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan qochish, murosa va hurmatni ustuvor qo‘yish qadriyatining til vositasida aks etishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, istak iboralari ko‘pincha diniy-amaliy konseptlar bilan birga ishlatiladi: *“Xudo xohlasa,”*, *“Nasib bo‘lsa,”*, *“Allohdan umid qilamiz”* kabi birliklar inson xohishini mutlaq shaxsiy iroda sifatida emas, balki ilohiy iroda bilan bog‘liq holda ifodalashga xizmat qiladi. Bu hol o‘zbek madaniyatida taqdirga bo‘ysunish va kamtarlik muhim axloqiy me’yor ekanini ko‘rsatadi.

Badiiy adabiyotda ham ushbu mental tamoyillar keng aks etadi. Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramonlar istagini bevosita emas, balki ehtiyotkor, ichki kechinmaga boy shaklda ifodalaydi: *“Ko‘nglimdan faqat bitta tilak o‘tardi – bolalarim o‘qiganini ko‘rsam,”* — bunda istak shaxsiy manfaat emas, balki oila va farzand kamoliga yo‘naltirilgan axloqiy ideal sifatida namoyon bo‘ladi. O‘tkir Hoshimov asarlarida *“Odam bo‘lsin, yaxshi yashasin”* kabi istak birliklari jamoaviy farovonlikni asosiy maqsad sifatida aks ettiradi. Demak, o‘zbek badiiy diskursida istaklar individual ego emas, balki jamoat qadriyati bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi.

Qiyoslash uchun ingliz adabiyotida istak ifodasi ko‘proq individualistik xarakterga ega. Masalan, Charlz Dikkensning “Great Expectations” romanida bosh qahramon Pipning *“I wanted to be a gentleman”* (“Men gentlemen bo‘lishni xohlardim”) kabi istaklari shaxsiy ijtimoiy yuksalish va individual muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan. Bu yerda istak ijtimoiy majburiyat bilan emas, balki shaxsiy ambitsiya bilan kuchli bog‘langan.

Muhokama. Shekspir asarlarida ham istaklar ochiq tasvirlanadi: *“All my heart desires are centered on power”* — bunday ifodalar ochiq, maksimal emotsional ravishda berilib, individual ehtiros markazga chiqadi. Ingliz mentalitetida istakning to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilinishi muloqotda tabiiy hol hisoblanadi.

Shunday qilib, qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki:

- O‘zbek nutqida istak muloyimlik, taqdirga bo‘ysunish va jamoaviy qadriyatlarga bog‘langan holda yumshoq shaklda ifodalanadi;
- Ingliz diskursida esa istak shaxsiy iroda, o‘zini namoyon qilish va individual ambitsiyani ochiq bildirish vositasi sifatida ishlatiladi.

Bu qarama-qarshilik lingvokulturologik jihatdan o‘zbek mentalitetida kollektivizm, kamsuqumlik va axloqiy o‘zini tiyish ustuvor ekanini, ingliz kommunikativ madaniyatida esa individuallik va o‘zini ochiq ifodalash muhimligini tasdiqlaydi.

Shu bulan birga, o‘zbek mentalitetida istak/xohish ifodalarining faollashuvi tilning faqat kommunikativ emas, balki ijtimoiy muvozanatni boshqaruvchi mexanizm sifatida ishlashini ko‘rsatadi. Nutq jarayonida shaxs o‘z xohishini bildirar ekan, muloqotdagi mavqe farqlarini, suhbatdosh yoshini, ijtimoiy holatini yoki qarindoshlik darajasini hisobga oladi. Shu sababli istak ifodalari ko‘pincha bilvosita iltimos konstruktsiyalari, shart mayli, duo-tilak formulalari orqali ifodalanadi:

- *“Borsangiz yaxshi bo‘lardi”*,
- *“Ko‘rib ketsangiz xursand bo‘lardik”*,
- *“Nasib qilsa, ertaga yetib borarmiz”*.

Bu birliklar orqali nutq egasi o‘z istagini buyruq darajasiga ko‘tarmasdan, suhbatdoshni tanlovga ega subyekt sifatida saqlaydi. Aynan shu xususiyat o‘zbek kommunikativ mentalitetining asosiy belgisi sanaladi — suhbatdoshni majburlamaslik va uning shaxsiy irodasiga hurmat bilan yondashish.

Ingliz mentaliteti bilan qiyoslanganida esa butunlay boshqa kommunikativ mazmun yuzaga chiqadi. Ingliz nutqida istak bildiruvchi formulalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ochiq va shaxsiy iroda markazida shakllanadi:

- *I want you to come.*
- *I need you to help me.*
- *I wish to achieve success.*

Bu konstruktsiyalar ingliz kommunikativ uslubida normal bo‘lib, u buyruqbozlik yoki tajovuz sifatida qabul qilinmaydi. Chunki ingliz madaniyatida shaxsning mustaqilligini ochiq namoyon etishi ijobiy sifat deb talqin qilinadi. Demak, ingliz istagini bildirish “spoken individualism” — nutqiy individuallik modeli asosida shakllanadi.

O‘zbek nutqida esa “spoken collectivism” — nutqiy jamoaviylik hukm suradi. Istak albatta kollektiv manfaat yoki axloqiy motiv bilan o‘raladi:

- *“Bolam baxtli bo‘lsin deb tilayman.”*
- *“Yurtimiz tinch bo‘lsin.”*
- *“Farzandlarimiz bilimli bo‘lishini istaymiz.”*

Bu jumlalarda istak egoistik emas, balki ijtimoiy mas’uliyat va umumiy manfaat konseptlari bilan uyg‘unlashadi.

Badiiy adabiyotdagi qiyosiy tahlil ham xuddi shunday tasdiqlanadi:

O‘zbek badiiy adabiyotida	**Ingliz badiiy adabiyotida**
O‘tkir Hoshimov: *“O‘g‘lim odam bo‘lsin, yurtga foydasi tegsin deb tilayman.”*	Dickens: *“I wanted to rise above my origins.”*
Qahhor: *“Faqat barchamiz tinch yashasak deyman.”*	Shakespeare: *“All my ambitions burn within me.”*

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki:

- O‘zbek adabiyotida istak ko‘pincha axloqiy, jamoaviy, fidokorona motivatsiya asosida;
- Ingliz adabiyotida esa individual g‘ayrat, o‘zini namoyon qilish, shaxsiy muvaffaqiyat asosida quriladi.

Shuningdek, istak/xohish ifodalari faqat grammatik konstruksiya emas, balki bevosita mentalitetning lingvistik aksidir. O‘zbek tilida istak jamoaviy axloqni amalga oshirish vositasi bo‘lsa, ingliz tilida shaxsiy iroda namoyonidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida istak/xohish ifodalari ko‘pincha pragmatik va madaniy filtr orqali shakllanadi. Nutq jarayonida istakni yumshoq ifodalash ijtimoiy muvozanatni saqlashning muhim vositasidir.

Istak iboralari orqali shaxs o‘z fikrini majbur qilishdan tiyiladi va muloyim muomala qadriyatlarini namoyon etadi.

Istakning badiiy matndagi faolligi esa jamiyatning ideal qadriyatlarini aks ettiradi.

Xulosa. Maqola natijalari o‘zbek mentalitetida istak/xohish ifodalarining til orqali madaniy qadriyatlar, axloqiy normalar hamda jamoaviy ongni shakllantirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Istak konstruksiyalari nafaqat lingvistik birliklar sifatida, balki madaniyatni uzatuvchi semantik kodlar sifatida faol ishlaydi. Ular nutqni faqat emotsional boyitibgina qolmay, balki ijtimoiy munosabatlarda muvozanat va hurmatni saqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karasik V.I. Лингвистический круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002. — 384 с.
2. Wierzbicka A. Emotions across languages and cultures. — Cambridge: CUP, 1999. — 349 p.
3. Yuldashev R. O‘zbek tili pragmatikasi. — Toshkent: Fan, 2018. — 215 b.
4. Qo‘ldoshev M. O‘zbek frazeologiyasining lingvokulturologik asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2016. — 180 b.
5. Karimov N. O‘zbek xalq ertaklarining semantik poetikasi. — Toshkent: Fan, 2015. — 220 b.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING BOLALAR ERTAK O‘QISH USLUBINI O‘ZGARTIRISHIGA TA’SIRI

Nasirova Gulnora Madaminovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 30
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1316

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

texnologiya, raqamli o‘qish, bolalar, hikoya o‘qish, elektron kitoblar, savodxonlik rivoji, multimodal o‘qish, qiziqish

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalarning bolalar hikoya o‘qish madaniyatiga ta’siri, o‘quv jarayonidagi multimodal vositalarning roli va ular orqali shakllanayotgan yangi o‘qish tajribasi tahlil qilinadi. Raqamli o‘qish shakllari — elektron kitoblar, audiokitoblar, mobil ilovalar, interaktiv platformalar — bolalarning tasavvuri, kognitiv jarayonlari, motivatsiyasi va matn bilan o‘zaro munosabatini qanday o‘zgartirayotgani ilmiy manbalar asosida yoritiladi. 2000-yildan 2024-yilgacha chop etilgan mashhur bolalar asarlari (“Harry Potter”, “Diary of a Wimpy Kid”, “Percy Jackson”, “The Ickabog”, “Amari and the Night Brothers”, “Skandar and the Unicorn Thief”) misolida multimodal taqdimotning o‘qishga qiziqishni oshirishi, ijtimoiy-emotsional idrokni kuchaytirishi va o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb qilishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, raqamli formatlarning ayrim cheklovlari — diqqatning chalg‘ishi, chuqur o‘qishning susayishi va vizual yuklamaning ortishi — ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. O‘zbek bolalar adabiyotining raqamli talqinlari bo‘yicha misollar (ertaklarning audioversiyalari, mobil ilovalar, interaktiv hikoyalar) esa milliy tajribadagi yangi tendensiyalarni yoritadi. Maqola xulosasida bosma va raqamli vositalar o‘rtasida muvozanat saqlash, pedagogik nazoratni kuchaytirish va yoshga mos raqamli o‘qish strategiyalarini qo‘llash bolalar savodxonligini samarali rivojlantirishda muhim omil ekanligi ta’kidlanadi.

Kirish. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi bolalar o‘rtasida o‘qish madaniyati va hikoya bilan shug‘ullanish jarayonini tubdan o‘zgartirdi. An’anaviy bosma kitoblar uzoq vaqt davomida bolalar savodxonligini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib kelgan bo‘lsa, hozirda interaktiv elektron kitoblar, audiokitoblar, mobil ilovalar va onlayn o‘quv platformalari bolalarning hikoya o‘qishga bo‘lgan yondashuvini yangilamoqda. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat o‘qish jarayonining texnik jihatiga, balki bolalarning tasavvuri, idrok mexanizmi, motivatsiyasi, kognitiv faolligi va matn bilan o‘zaro aloqasining sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli o‘qish shakllari multimodal xususiyatga ega bo‘lib, bunda matn, ovoz, animatsiya, interaktiv tugmalar va vizual effektlar birgalikda qo‘llaniladi. Bu esa bolalarga hikoya davomida yanada chuqurroq hissiy tajriba berish imkonini yaratadi[1].

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bolalarning hikoya o‘qish va ular bilan o‘zaro aloqaga kirishish jarayonini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Planshetlar, smartfonlar va interaktiv elektron kitoblar kabi qurilmalar audio, animatsiya hamda interaktiv tugmalarni o‘z ichiga olib, o‘qish jarayonini yanada boyitadi va yosh kitobxonlarning qiziqishini oshiradi. Bunday raqamli formatlar bolalarga o‘qish tezligini moslashtirish, darhol izoh olish va voqealar rivojini tasavvur qilish imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan o‘qishni ta’minlaydi. Tadqiqotlar texnologiya ertangi savodxonlikni qo‘llab-quvvatlashi, sust o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va tushunishni yengillashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Bolalar hikoya o‘qish jarayoniga raqamli texnologiyalarning ta’siri so‘nggi yigirma yil ichida keng ilmiy muhokama qilinayotgan mavzulardan biriga aylandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektron kitoblar, audiokitoblar, interaktiv platformalar va mobil ilovalar bolalarning o‘qishga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli o‘qishning qulayligi, multimodal taqdimoti va interfaol elementlari bolalarning o‘qishga qiziqishini oshirishi haqidagi ilmiy qarashlar keng tarqalgan. Masalan, bir qator tadqiqotlar raqamli vositalar matnni idrok qilishni yengillashtirishi, so‘z ma’nolarini tez topish, fon musiqasi va animatsiyalar yordamida murakkab sahnalarni tushunishni osonlashtirishini ta’kidlaydi [2] . Bu yondashuv ayniqsa o‘qishga qiziqishi past yoki mustaqil o‘qishda qiynaladigan bolalar uchun samarali deb qaraladi.

Shu bilan birga, adabiyotlarda raqamli o‘qishning salbiy jihatlari ham qayd etiladi. Ba’zi tadqiqotchilar fikricha, multimodal stimullar haddan ziyod ko‘p bo‘lganda bolalar matndan chalg‘ishi, chuqur o‘qish va izchil tahlil jarayonlari zaiflashishi mumkin[3]. Shuningdek, interaktiv qo‘shimchalar bolaning mustaqil tasavvur qilish jarayonini qisqartirishi, matnni ongda qayta ishlash darajasini pasaytirishi ehtimoli qayd etilgan. Shunga qaramay, ilmiy manbalarning aksariyati raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanilganda ularning pedagogik ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

2000-yildan keyingi bolalar adabiyotida multimodal o‘qish tajribasi eng muhim tendensiyalardan biri sifatida shakllangan. Mashhur seriyalar “Harry Potter”, “Diary of a Wimpy Kid”, “Percy Jackson” kabi asarlarning elektron, audio va interaktiv versiyalari bolalarning o‘qishga qiziqishini oshirish hamda hikoya olamiga chuqurroq sho‘ng‘ish imkonini yaratishi ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan[4]. 2020-yildan keyin pandemiya sharoitida elektron resurslar, audiokitoblar va onlayn platformalarning keskin ommalashishi bolalar adabiyotiga yangi multimodal tajribalar olib kirdi. Tadqiqotchilar aynan shu davrni “yangi raqamli o‘qish bosqichi” sifatida baholashadi, chunki bolalar bitta matnni bir vaqtning o‘zida bosma, elektron va audio shakllarda o‘qish (“dual-format literacy”) odatini tez o‘zlashtira boshlagan.

O‘zbek bolalar adabiyotiga oid adabiyotlar ham raqamli o‘qishning yangi shakllariga e’tibor qaratmoqda. Ertaklarning audioversiyalari, mobil o‘yinlar va multimediya platformalarining keng tarqalishi milliy adabiyotning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanayotganini ko‘rsatadi[5]. Tadqiqotlar ona tilidagi audiokitoblarning fonologik idrok va so‘z boyligini rivojlantirishdagi samarali o‘rnini qayd etadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda bolalar hikoya o‘qish jarayoniga raqamli texnologiyalarning ta’sirini o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, 2000–2024-yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar, pedagogik tadqiqotlar va raqamli adabiyotga oid manbalar nazariy tahlil qilinib, mavzuning konseptual asoslari belgilandi. Keyinchalik bosma, elektron va audio formatlardagi matnlarni idrok etish jarayonlari taqqoslash va kuzatish orqali o‘rganildi; bolalarning diqqat, tasavvur, qiziqish va matnni qayta hikoya qilish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Mashhur bolalar asarlarining raqamli va bosma talqinlari kontent tahlili yordamida solishtirilib, multimodal

[1] Neumann J. Digital Storytelling and Early Reading Development. – Berlin: Springer, 2019. – p. 35.
[2] Collins R. Children’s Digital Reading Practices. – London: Routledge, 2018. – 210 p.
[3] Smith E.A., Johnson L. Digital Reading and Child Literacy in the Post-Pandemic Era. – New York: Academic Press, 2022. – 210 p.
[4] Johnson L., Smith E.A. Digital Reading and Child Literacy in the Post-Pandemic Era. – New York: Academic Press, 2022. – 210 p.
[5] O‘zbek bolalar ertaklari. Multimedia to‘plami. – Toshkent: Bolalar nashriyoti, 2021. – 120 b.

elementlarning (animatsiya, tovush, interaktivlik) pedagogik funksiyalari baholandi. Olingan nazariy va empirik ma'lumotlar triangulyatsiya usuli orqali uyg'unlashtirilib, xulosalar ishonchliligi mustahkamlandi.

Tadqiqot natijalari. So'nggi yillarda ko'plab ta'lim tizimlarida elektron o'qish vositalari keng joriy etilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirsa, boshqa tomondan, ularning diqqat barqarorligi, mustaqil o'qish strategiyalari va matnni tahlil qilish ko'nikmalarini qay darajada rivojlantirishi haqidagi ilmiy bahslarni kuchaytirmoqda. Ba'zi tadqiqotlar raqamli vositalar bilan o'qish osonroq, tejamkor va qulay ekanini ta'kidlaydi, chunki bolalar o'z tezligi bilan o'qishlari, darhol so'z ma'nosini bilishlari va vizual effektlar orqali murakkab sahnalarni tasavvur qilishlari mumkin[6]. Boshqa ilmiy qarashlarga ko'ra, raqamli o'qish bolalarda chuqur o'qish, matnni izchil kuzatish va tahliliy fikrlash kabi jarayonlarni zaiflashtirishi ehtimoli mavjud[7].

Shunga qaramay, bugungi kunda raqamli o'qish vositalarining ilg'or pedagogik imkoniyatlarini inkor etib bo'lmaydi. Masalan, interaktiv kitoblar bolaning yoshiga mos darajada qiyinlikni sozlash, o'quv jarayonini gamifikatsiya qilish va ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Shu bois, raqamli hikoya o'qish texnologiyalarining afzallik va cheklovlarini chuqur o'rganish zamonaviy pedagogika va bola psixologiyasi uchun muhim omil bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada texnologiyalarning bolalar hikoya o'qish odatlariga ta'siri, kognitiv jarayonlarni qay darajada o'zgartirishi, o'qish motivatsiyasi va idrok xususiyatlariga ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi hamda adabiy asarlardan misollar orqali muhokama qilinadi.

So'nggi yigirma yil ichida bolalar adabiyoti va uni o'qish shakllari sezilarli darajada o'zgardi. 2000-yildan keyingi davrda chop etilgan ko'plab mashhur asarlar nafaqat bosma ko'rinishda, balki elektron kitob, audiokitob, mobil ilova va interaktiv platformalar formatida ham keng tarqaldi. Bu holat bolalarning hikoya bilan tanishuvi va matnni idrok etish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Masalan, "Harry Potter" turkumining keyingi qismlari, "Diary of a Wimpy Kid", "Percy Jackson and the Olympians", "How to Train Your Dragon" kabi asarlar elektron kitob va audiokitob formatlarida bir vaqtda taqdim etilib, o'quvchilarga qulay raqamli muhitda o'qish va tinglash imkonini yaratdi[8]. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu turdagi multimodal taqdimotlar bolalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, ayniqsa, odatda kam o'qiydigan yoki matnni mustaqil o'qishda qiynaladigan bolalar uchun qo'shimcha rag'bat vazifasini bajaradi[9].

"Diary of a Wimpy Kid" (J. Kinney) kabi zamonaviy bolalar kitoblari dastlab onlayn shaklda, keyin bosma ko'rinishda ommalashgani, raqamli va bosma madaniyatning qanday uzviy bog'lanib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu turkum keyinchalik mobil o'yinlar, veb-komikslar, ekranizatsiyalar bilan kengaytirildi. Natijada bola bir xil hikoya olamini turli vositalar orqali "bosqichma-bosqich" o'zlashtiradi: avval rasm va qisqa matnli onlayn sahifalarda, so'ng to'liq kitobda, keyinchalik film yoki o'yin shaklida.

5. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist, 34*(10), 906-911.
6. Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., & Wenderoth, M. P. (2014). Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics. *Proceedings of the National Academy of Sciences, 111*(23), 8410-8415.
7. Hedden, H. (2016). *The accidental taxonomist* (2nd ed.). Information Today.
8. Lave, J., & Wenger, E. (1991). *Situated learning: Legitimate peripheral participation*. Cambridge University Press.
9. Le Deist, F. D., & Winterton, J. (2005). What is competence? *Human Resource Development International, 8*(1), 27-46.
10. McKenney, S., & Reeves, T. C. (2012). *Conducting educational design research*. Routledge.
11. Mulder, M. (2017). *Competence-based vocational and professional education: Bridging the worlds of work and education*. Springer.
12. Nation, I. S. P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge University Press.
13. Schön, D. A. (1983). *The reflective practitioner: How professionals think in action*. Basic Books.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

DINIY ADABIYOTLARDA EKOLOGIK QADRIYATLAR VA ULARNING EKOLOGIK MADANIYATGA TA’SIRI

L.M.Abdunazarov
Qo‘qon universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
https: orcid.org/0009-0006-0747
Lutfullo-abdunazarov@mail.ru
Tel: +998903051799

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 32
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1318

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Qur’oni karim, hadislar, tabiat, diniy adabiyotlar, ekologik inqiroz, ekologik madaniyat, Islom dini, diniy qarashlar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida diniy manbalardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati keng yoritiladi. Ayniqsa, Islom ta’limotining asosiy manbalari bo‘lgan Qur’oni karim oyatlari hamda Hadisi shariflarda tabiatni asrash, yer bilan ehtiyotkor munosabatda bo‘lish, resurslarni isrof qilmaslik, ekologik muvozanatni buzmaslik kabi ko‘rsatmalar ilmiy tahlil asosida ochib beriladi.

Maqola diniy-merosiy qadriyatlarning ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi o‘rni va imkoniyatlarini ochib berar ekan, ta’lim jarayonida, ayniqsa, yoshlar orasida ekologik ongni shakllantirishda diniy-axloqiy yondashuvning samaradorligini isbotlab beradi. Natijalar diniy ta’lim, pedagogika, ekologiya va ma’naviy-ma’rifiy faoliyat sohalarida qo‘llash uchun ilmiy-amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kirish. Bugungi kunda ekologik ta’lim-tarbiya berish masalalariga jahon miqyosida katta e’tibor bilan qaralmoqda. Chunki global ekologik inqirozning kuchayib borishi, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa muammolar ekoharakatni faol kuchga aylanishini taqozo etmoqda. Bu borada yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganlaridek: “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”[1].

Tabiat – bu Alloh taoloning yaratgan mo‘jizalaridan biri hisoblanadi. Qur’oni Karimda yer, osmon, suv, daraxtlar, qushlar va boshqa tabiiy hodisalar Allohning oyatlari, ya’ni uning alomatlari sifatida zikr etilgan. Bu holat musulmonlarni tabiatga nisbatan chuqur hurmat va mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishga undaydi. Islom dini insonni yer yuzidagi mavjudotlarga nisbatan mas’ul va adolatli bo‘lishga chaqiradi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) hayotlarida daraxt ekish, hayvonlarga rahm-shafqat ko‘rsatish, suvni tejash, tuproq va havoni ifloslantirmaslik kabi ekologik xatti-harakatlarni amalda namoyon qilganlar. Hadislarda keltirilishicha, bir inson bir daraxt ekib, undan odam yoki hayvon foydalansa, bu amal sadaqa sifatida qadrlanishi ta’kidlangan. Tabiatni toza saqlash, suv va boshqa resurslarni isrof qilmaslik, chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish Islom axloqining ajralmas qismidir. Tabiat bilan muomala qilish — bu nafaqat ekologik masala, balki iymon bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, sabr, rahm-shafqat va adolat tamoyillariga asoslangan ma’naviy burchdir[2]. Din yoshlarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim tarbiya vositasidir. Bizning xalqimiz Islom dini, diniy qarashlarga katta hurmat va e’tibor bilan yondoshadi. Ana shu yondoshuvdan yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda unimli foydalanmog‘imiz kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ekologik axloqiy qarashlar va madaniyatni shakllantirishda dinimizning muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni Karim, hadislardan foydalanmog‘imiz zarur. Bugungi kunda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasiga turlicha yondoshuv va qarashlar mavjud. Tarixda ulamolarimizdan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, al-Moturudiy, Abu Nasr Forobiy, G‘azzoliy, Husayn Voiz Koshifiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiylarning asarlarida Qur’oni karim va Hadisi shariflardan foydalangan holda komil inson tarbiyasiga qo‘yiladigan talablar bayon qilingan. Tabiat, borliqni asrashga undash, tabiiy omillardan tejamkorlik bilan foydalanish masalalari nafaqat ekolog yoki pedagoglarni, balki din peshvolarining ham diqqat markazida turganligi bizni quvontiradi. Keyingi vaqtlarda ommaviy-axborot vositalari, internet saytlari orqali tabiatni asrash masalalariga nisbatan mavjud diniy qarashlarni o‘ziga singdirgan maqolalarni e’lon qilinayotgani odamni quvontiradi. Albatta, texnologiya sohasidagi taraqqiyot, yangi energiya manbalarining kashf etilishi, yangi ma’danlar va kimyoviy moddalarning paydo bo‘lishi, oqibatini o‘ylamay, tabiatdagi jarayonlarga aralashuv kabi holatlarning barchasi atrof-muhitni muhofaza qilish borasida nihoyatda tashvishli vaziyatni vujudga keltirdi.

Tabiiyki, mazkur muammo butun olamdagi yuz millionlab musulmonlarni ham, Islom ulamolarini ham tashvishga solmoqda va ular bu muammolarni hal qilishda Qur’oni karim oyatlariga hamda Islom ta’limotlariga murojaat qilishmoqda[3].

Ushbu tadqiqot ekologik axloq, ekologik madaniyat va ularning diniy manbalardagi asoslarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

Tadqiqotning nazariy asosini Qur’oni Karim oyatlari, sahih hadislar, shuningdek, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Imom G‘azzoliy, Husayn Voiz Koshifiy, Mahmud az-Zamaxshariy va Jaloliddin Rumiylarning asarlarida bayon etilgan ekologik axloqiy tamoyillar tashkil etadi. Ushbu manbalar mazmuni diniy-axloqiy qarashlar orqali ekologik madaniyatning shakllanishini ochib berish maqsadida tizimli tarzda tahlil qilindi.

Islom ilmiy merosida tabiatni asrash, tejamkorlik, borliqni qadrlash haqidagi qarashlar o‘tmish va hozirgi davr talablari bilan qiyoslab o‘rganildi. Ulamolar asarlarida ilgari surilgan tamoyillar bugungi ekologik muammolar tarixiy-qiyosiy yondashuv fonida qayta talqin qilindi. Ommaviy axborot vositalari, internet saytlari hamda zamonaviy diniy-ma’rifiy maqolalarda ekologiya masalasining yoritilishi kontent-tahlil metodi orqali o‘rganildi. Ayniqsa, diniy qarashlar asosida tabiatni muhofaza qilishga chaqiruvchi materiallar mavzuga aloqadorlik darajasiga ko‘ra saralandi va (diniy va ekologik matnlar tahlili) tahlil qilindi.

Ekologik muammolarning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi omillar — texnologik taraqqiyot, yangi energiya manbalari, kimyoviy moddalar, antropogen aralashuvlar — diniy-axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq holda kompleks o‘rganildi. Ekologik xavfsizlik va diniy axloq o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik tizimli tahlil asosida yoritildi. Tadqiqot davomida olingan xulosalar umumlashtirilib, ekologik madaniyatni shakllantirishda islomiy ta’limotlarning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.

Natijalar. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish talablari barcha fan yo‘nalishlari,

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild. -Toshkent: O‘zbekiston, 2017.–B.570.
[2] Islom dini va atrof-muhit: Diniy ta’limot asosida tabiatni asrash mas’uliyati. – Juyborikalon// https://juyborikalon.uz/uz/news/1577
[3] Tojiddinov Abdussomad Abulbosit o‘g‘li. Islomda tabiatga munosabathttps: //islom.uz/maqola/2933

jumladan, ekologik ta'lim va tarbiyani takomilashtirishning hududiy-geografik, etnografik-mental va ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim oluvchilarning hududlaridagi hududiy-geografik, etnografik-mental xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekologiya bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda o'z hissasini qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsad qilib olindi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish, yosh avlodni tabiat oldidagi burchi, undan qarzdorlik hissini shakllantirishda diiy-axloqiy tarbiya katta ahamiyatga ega.

Muhokama. Demak, ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy yo'nalishini yuksak axloqli shaxsni shakllantirish tashkil etadi. Tabiatga nisbatan yuksak axloqiy munosabatni shakllantirish, faqat mukammal madaniyatli shaxsni, uning axloqiy ongini, xulq-atvorini va faoliyatini tarbiyalash orqaligina mumkin. Axloqiy madaniyat insonning tabiiy tug'ma xususiyati emas, u tarbiyalanadi, odatda uning rivojlanganlik darajasi hammada bir xil bo'lmaydi.

Shaxs ekologik axloqiy madaniyati, uning tabiatni muhofaza qilish faoliyati davomida shakllanadi, bu xususiyat jamoada, ijtimoiy guruhda, oilada, o'rtoqlar davrasida vujudga kelib, o'ziga xos mikromuhitni tashkil etadi, unda obyektivlik va subyektivlik, mohiyat va mohiyatli bo'lmagan, zaruriy va tasodifiy omillar birligi namoyon bo'ladi. Axloqiy madaniyat ekologik madaniyatni tobora mukammallashib borishini ta'minlaydi[4].

Axloqiy madaniyat esa dinni yaxshi bilish-diniy tarbiyasiz mukammal bo'lmaydi.

Bugungi kunda G'arb olimlari ekologiya fanining poydevorini qo'ygan, bu soha bo'yicha muhim ko'rsatmalarni bergan kishi Muhammad sollallohu alayhi vasallam bo'lganliklarini e'tirof qilmoqdalar. Bu zoti bobarakotning ko'plab hadislarida tabiatni asrashga, uni iflos qilmaslikka doir ko'rsatmalar, buyruqlar va tavsiyalarni ko'ramiz. Bugungi kunda G'arb olimlari ekologiya fanining poydevorini qo'ygan, bu soha bo'yicha muhim ko'rsatmalarni bergan kishi Muhammad sollallohu alayhi vasallam bo'lganliklarini e'tirof qilmoqdalar. Bu zoti bobarakotning ko'plab hadislarida tabiatni asrashga, uni iflos qilmaslikka doir ko'rsatmalar, buyruqlar va tavsiyalarni ko'ramiz. Darhaqiqat, Nabiy sollallohu alayihi vasallam bizga yo'llarni, ko'chalarni ozoda tutish, yo'ldan aziyat beruvchi narsalarni olib tashlashga buyurib, bu ish sadaqaning bir turi ekanligini ta'kidlaganlar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda shunday deganlar: "Yo'ldan aziyat beruvchi narsaning olib tashlashing ham sadaqadir"[5].

Tadqiqotchi Fransiska de Shatel o'zining "Muhammad alayhissalom tabiatni muhofaza qilish bo'yicha yetakchidir" nomli kitobida shunday deydi: "Muhammad sollallohu alayhi vasallam yerdan va suvdan to'g'ri foydalanishga barchani chorlab kelgan kuchli da'vatchilardan biri edilar. Shuningdek, hayvonlar, o'simliklar va qushlar bilan chiroyli muomala qilishga ham barchani chaqirgan kishidirlar. Hatto, ba'zi hadislaridagi fikrlar atrof-muhit masalalari bo'yicha zamonaviy munozaralarga o'xshaydi"[6]

Bizga ma'lumki, islom dini ezgulikka asoslangan bo'lib, insonlarni halollikka, poklikka, tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lishga da'vat etadi. Hadislarda Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhivasallam) aytadilar: "Pok bo'linglar, zero Islom pok dindir va faqat pok kishilar jannatga kirur"[7]. Islomdini odamlarni atrof-muhitni asrashga, hayvonot va o'simlik dunyosiga zarar yetkazmaslikka, ne'matlardan o'z ehtiyoji uchun foydalanganda isrof etmaslikka, Alloh yaratgan tabiatdagi muvozanatni va jipslikni buzmasdan ulardan to'g'ri foydalanishga, ona zaminga mehr-muhabbatli bo'lishga va tabiatdan oqilona foydalanishga chaqiradi[8].

Imom Nasaiy Ash-Shurayda roziyallohu anhudan qilgan rivoyatda:

"Men Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning – kimki chumchuqni sababsiz o'ldirsa, qiyomat kuni Allohga "Ey Robbim, falonchi meni manfaat uchun emas, o'ynab o'ldirdi", deb shikoyat qiladi, deganlarini eshitdim", deyilgan.

Islomdagi hayvonlarga mehribonlik va yaxshi munosabat faqat ulardan insonlarga yetadigan manfaat bilan bog'liq emas, balki musulmonlar barcha hayvonot olamiga, hatto inson ulardan bu dunyoda hech qanday manfaat kutmasa ham, yaxshi munosabatda bo'lishga buyurilgan[9].

Abu Said Sa'd ibn Sinon al-Xudriy raziyallohu anhudan rivoyat: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: "(Ziyoni tegmaganga) zarar bermoq ham, (ziyoni tekkanga g'ayrishar'iy) zarar yetkazmoq ham yo'qdir!" (Ibn Moja, Doriqutniy va boshqalar rivoyati). Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: "Musulmonlar uch narsada: o't-o'lan, suv va olovda bir-birlariga sherikdirlar. (Abu Dovud rivoyatlari)[10]. Yuqoridagi hadislar asosida ulamolar suv, o't-o'lan, tuz va olov xususida fatvo berganlar:

Suv. Abu Hanifa va Shofeiy fikrlariga ko'ra suv egasi oquvchi yoki qaynab chiquvchi (ya'ni buloq) suvining ortiqchasini - garchi o'z yeriga tegishli bo'lsa ham - man qila olmaydi. Biroq u ekinni sug'orish uchun suvini tekinga berishga majbur emas. Imom Ahmad nazdida esa ortiqcha suvni ichish uchun ham, mol yoki ekinni sug'orish uchun ham tekinga berishi shart. Suvni bermay qo'yish o't-o'lanning yo'q bo'lishiga olib borishi mumkin.

Imom Molik aytadilar: Suv egasi, ya'ni uning oqar joyi yoki qaynab chiqadigan bulog'ining sohibi faqat qiynalib qolgan kishigagina ortiqcha suvini tekinga berishga majbur. Hech kimning mulki bo'lmagan ortiqcha suv esa hammaga berilishi shart.

O't-o'lan. Shofeiy aytadilar: Faqat qarovsiz yerning o't-o'lanigina hech kimdan man qilinmaydi. Qolgan yerlarning ortiqcha o't-o'lani berilmaydi.

Abdulloh ibn Abbosdan (r.a) rivoyat kilinadi : Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam: "Seni ikki hislat – faxrlanish va isrofgarchilik xatoga boshlamasa, xohlaganingni yeb, xohlaganingni ichaver, deganlar" (Imom Buxoriy rivoyati). Faxri koinot aytganlaridek: "Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilik va faxrga o'tmanglar"; "Kim hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi". Yana bir hadisda: "Isrofgar jannatga kirmaydi", deyilgan[11].

Islom ta'limotida tabiat va atrof-muhitni asrash masalasi muhim axloqiy va ijtimoiy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Qur'oni Karim oyatlarida ekologik muvozanat, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, buzilishning oldini olish va insonning Yer yuzidagi mas'uliyati ko'p marotaba ta'kidlanadi. Ushbu g'oyalar zamonaviy ekologik etikaga yaqin bo'lib, inson faoliyatining barqaror rivojlanishi uchun muhim konseptual asos hisoblanadi.

Yerning muvozanatini buzmaslik tamoyili: Qur'onda atrof-muhitni asrashning asosiy tamoyili sifatida tabiatdagi "isloh" va "fasod" tushunchalari yoritiladi. Alloh taolo: "Yer isloh qilinganidan keyin unda buzg'unchilik qilmanglar" [12] (A'rof, 7:56) deya insonning faoliyati tabiatga zarar yetkazmasligi lozimligini ta'kidlaydi. Bu oyat ekologik tizimlar tabiatan mukammal muvozanatda yaratilganini, ularning buzilishi esa inson omiliga bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, Ar-Rum surasida: "Quruqlik va dengizda buzuqlik odamlarning o'z qo'llari bilan qilgan ishlaridan zohir bo'ldi" [13] (Rum, 30:41) deya ekologik izdan chiqishning antropogen omillar natijasi ekanligi aytiladi. Ushbu oyat hozirgi global ekologik muammolar – atmosferaning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, tuproq degradatsiyasi kabi jarayonlar inson faoliyati mahsuli ekanini islom manbalari oldindan anglatganini ko'rsatadi.

Muqaddas kitobimiz Qur'oni karimning ikki yuz ellik oyatida tabiat, uni asrab avaylash mavzulari zikr etilgani Islomning bu masalaga qanchalik katta e'tibor qaratishini ko'rsatib turibdi. Har birimizga ma'lumki Alloh taolo olamni ajoyib aniqlik bilan va o'zaro bog'liq holatda yaratgan. Bu haqida Qur'oni karimni "Qamar" surasi 49-oyatida shunday marhamat qilgan:

"Albatta, biz har bir narsani o'lchov bilan yaratdik"[14].

Demak, dunyodagi har bir narsa: suv ham, yer ham, tog' ham, hayvonotu nabotot ham Alloh taolo tamonidan o'lchov bilan va bir-

[4] O'rinboeva M.S.Tabiatga ekologik munosabatlarning ma'naviy-axloqiy tamoyillari va mezonlari.// "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2 May 2020 www.openscience.uz

[5] Abduddoim Kahelning maqolasidan Nozimjon Iminjonov tarjimasi. Tabiatni asrashga oid 10 ta ilohiy ko'rsatmalar. https://www.muslim.uz/uz/e/post/27148-tabiatni-asrashga-oid-10-ta-ilohiy-ko-rsatmalar? page=3&per-page=1

[6] O'sha joyda

[7] M.No'monov. Islomda tabiatga munosabat. –T.: Movarounnahr, 2011.

[8] Djurakulov X. Yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishda islom dinida ilgari surilgan g'oyalardan oqilona foydalanish zarurati. https://www.bukhari.uz/?p=22559

[9] Tojiddinov Abdussomad Abulbosit o'g'li. Islomda tabiatga munosabathttps://islom.uz/maqola/2933

[10] Qirq hadis. Imom Navaviy. https://islam.okis.ru/kirk-hadis.html

[11] Qirq hadis. Imom Navaviy. https://islam.okis.ru/kirk-hadis.html

[12] Qur'oni karim. O'zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi.. A'rof surasi, 7:56

[13] Qur'oni karim. O'zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. Rum, 30:41

[14] Qur'oni karim. O'zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. -B. 389

biriga bog‘liq qilib yaratilgan. Agar bu bog‘lanish bir oz bo‘lsa ham buzilsa, insoniyat uchun qator jiddiy muammolar kelib chiqadi. Shuning uchun har bir inson dunyoni, tabiatni asrab-avaylashga qattiq harakat qilmog‘i lozimdir. Yer yuzidagi barcha narsalar inson uchun yaratilgan, ularga oqilona yondashgan holda, to‘g‘ri va yaxshi munosabatda bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Zero, Alloh taolo “Baqara” surasining “U yer yuzidagi barcha narsani sizlar uchun yaratgan” deb boshlanadigan 29-oyatida inson uchun, uning tasarrufi va foydasi uchun yaratgan narsalarga, jumladan, yer osti boyliklari va konlarga ishora qiladi[15]. Inson o‘z uyiga qanday e’tibor bersa, pok saqlasa, atrofga ham huddi shunday munosabatda bo‘lishi shart. Chunki butun yer yuzini Alloh taolo insonlar uchun maskan qilib berdiki, buni “Az-zariyat” surasi 48-oyatida bunday bildirib qo‘ygan[16]:

“Va yerni to‘shab qo‘ydik. Biz qandoq ham yaxshi tayyorlaguvchidirmiz”.

Go‘dak uchun beshik qanday qarorgoh bo‘lsa, yer ham inson uchun shunday qarorgohdir[17].

Bu sura o‘zining ilk oyati “Az-zariyat” nomi bilan atalgan bo‘lib, bu kalima “Surib ketguvchi shamollarga qasam” degan ma’noni anglatadi. Sura nomining o‘ziyoq tabiat va undagi xodisalarga Islom dini berfarq qarmaganligini bildiradi. Yuqoridagi suraning 1-2-3-4-5 oyatlarida : (Bulutlarni) surib ketguvchi (shamol)larga; yuk (yomg‘ir) tashiguvchi (bulut)larga; (suv yuzida) yengil suzib borguvchi (kema)larga va (Allohning amri bilan barcha) ish(lar)ni taqsimlaguvchi (farishta)larga qasamki, sizlarga va’da qilinayotgan narsa (qayta tirilish) shak-shubhasiz, haqqi-rostdir!-deyilgan[18]. Garchi bu o‘rinda so‘z farishtalar va qayta tirilish haqida borayotgan bo‘lsada, shamol, bulut, suv kabi tabiat unsurlarini o‘rtaga qo‘yib qasam ichilayotgani ushbu unsurlarni naqadar qimmatli va muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Qur’oni Karimda ekinlar, hayvonot va tabiiy resurslarni muhofaza qilish tamoyili ilgari suriladi. Al-Baqara surasida tabiatga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xatti-harakatlar keskin qoralangan: “U (buzg‘unchi) ketganidan so‘ng yer yuzida buzg‘unchilik qilishga, ekinlarni va nasllarni halok qilishga intiladi. Alloh buzg‘unchilikni yoqtirmaydi” [19] (Baqara, 2:205). Bu oyat zamonaviy ekologik talafotlar – o‘rmonlarning kesilishi, hayvonlar genofondining yo‘qolishi va qishloq xo‘jaligi yerlarining talon-taroj qilinishiga bevosita daxldor diniy-huquqiy asosdir. Islomda tabiat inson manfaatiga emas, balki Allohning omonati sifatida qaraladi.

Qur’onda insonning ekologik mas’uliyati (xalifa konsepsiyasi) belgilab berilgan. Unda insonning tabiat oldidagi mas’uliyati quyidagicha ta’kidlanadi:

“U sizlarni Yerda xalifa qildi” [20] (An’am, 6:165) “Xalifa” tushunchasi bevosita hukmronlikni emas, balki mas’uliyatli boshqaruvni anglatadi. Bu qarash ekologik boshqaruvning zamonaviy tamoyillari – resurslardan oqilona foydalanish, barqaror ekologik siyosat yuritish va tabiiy zaxiralarni kelajak avlodlarga yetkazish konsepsiyasiga mos keladi.

Ekologik muvozanat va “mezon” konsepsiyasi. Ar-Rahmon surasida Alloh tabiatdagi muvozanatni “mezon” tushunchasi orqali izohlaydi: “(Alloh) osmonni ko‘tardi va mezonni o‘rnatdi... Mezonga tajovuz qilmanglar”[21] (Rahmon, 55:7–9)[5]

Bu oyatlar tabiatdagi fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarning aniq qonuniyatlarga bo‘ysunishini bildiradi. “Mezonga tajovuz qilmaslik” — ekologik muvozanatni buzmaslik, resurslardan haddan ortiq foydalanmaslik va tabiatga zarar yetkazmaslikdir.

Resurslardan oqilona foydalanish kosepsiyasi: Qur’onda insonning iste’mol etish faoliyati ham ekologik mezon bilan bog‘lanadi: “Allohning rizqidan yenglar va ichinglar, lekin yer yuzida buzg‘unchilik qilmanglar” [22] (Baqara, 2:60) Isrof, ortiqcha iste’mol va tabiatga beparvolikning barcha ko‘rinishlari man qilinadi. Bu oyat “barqaror iste’mol” (sustainable consumption) tamoyiliga mos keladi.

Yoshlarga tabiatni asrash qanchalar muximligini diniy adabiyotlardan misollar keltirib tushuntirish bilan birga aksincha bo‘lsa, qanday jazo olishimizni ham tushintirib o‘tish lozimdir. “Zariyat” surasining 6 oyati Payg‘ambarlar, farishtalar, oxiratga ishonmaganlarni qanday taqdir kutayotganiniga bag‘ishlangan bo‘lib, unda aytiladiki - Va albatta (Qiyomat Kunida hisob-kitob qilinganidan keyin) jazo-mukofot voqe’ bo‘lguvchidir [23]. Ushbu oyatni ekologik muammolar haqida gapirilganda ham eslab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarga tabiat ne’matlarini isrof qilish va unga ziyon yetkazgani uchun insonlar nafaqat vijdoni yoki qonun oldida, balki qiyomat kunida ham javob berishlarini uqtirish ularda atrof-muhit, borliqqa nisbatan xushyorlik bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa. Qur’oni Karimda atrof-muhitni asrashga oid g‘oyalar chuqur ekologik mazmunga ega bo‘lib, insonning Yer yuzidagi faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashish zarurligini ko‘rsatadi. Qur’onda tabiatning buzilishiga qarshi qat’iy ogohlantirishlar, resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar mavjud. Ushbu diniy-nazariy asoslar zamonaviy ekologik etikada muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Diniy adabiyotlar boladagi ekologik tarbiyani shakllantirish uchun muhim vosita bo‘la oladi. Darslarda shunday adabiyotlardan foydalanilganida o‘quvchi-yoshlar atrofdagi olam, tabiatdagi narsalar, uning boyliklari haqida ma’lumotlarni egallash bilan birgalikda, tabiatni, uning boyliklarini ardoqlashni, asrashni o‘rganadilar. Tabiatni asrash burchimiz ekanligini har birimiz yaxshi bilamiz, ammo unga hamisha ham amal qilmaymiz. Ekologik madaniyat diniy qarashlar orqali singdirilganda yoshlarda ma’sulyat hissi ortadi. Uning tabiatga nisbatan munosabati Yaratgan tamonidan nazorat qilinayotganini his qiladi. Natijada tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish doimiy odatga aylanadi. Islom dini xalqimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai-nazardan ekologik tarbiyada ham diniy qarashlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild. -Toshkent: O‘zbekiston, 2017.–B.592.
2. Islom dini va atrof-muhit: Diniy ta’limot asosida tabiatni asrash mas’uliyati. – Juyborikalon// https://juyborikalon.uz/uz/news/1577
3. Tojiddinov Abdussomad Abulbosit o‘g‘li. Islomda tabiatga munosabathttps://islom.uz/maqola/2933
4. O‘rinboeva M.S.Tabiatga ekologik munosabatlarning ma’naviy-axloqiy tamoyillari va mezonlari.// "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2 May 2020 www.openscience.uz
5. Abduddoim Kahelning maqolasidan Nozimjon Iminjonov tarjimasi. Tabiatni asrashga oid 10 ta ilohiy ko‘rsatmalar. https://www.muslim.uz/uz/e/post/27148-tabiatni-asrashga-oid-10-ta-ilohiy-ko-rsatmalar?page=3&per-page=1
6. M.No‘monov. Islomda tabiatga munosabat. –T.: Movarounnahr, 2011.
7. Djurakulov X. Yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishda islom dinida ilgari surilgan g‘oyalardan oqilona foydalanish zarurati. https://www.bukhari.uz/?p=22559
8. Qirq hadis. Imom Navaviy. https://islam.okis.ru/kirk-hadis.html
9. Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, SHarq yulduzi.
10. Qoraev M. Tabiatga munosabat. old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/ 27513-tabiatga-munosabat
11. Sayyid Mubashshir Tarоziy. Sof tabiat dini / Tarj. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – T.: Hilol-nashr, 2019.
12. Isrof dinimizda kattik koralangan!. - O‘MI Surxondaryo viloyat vakilligi surxonmuslim.uz/?p=1683
13. Imom al-Buhoriy. Ilmu ma’rifat nuri. (saylanma hadislar). «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Toshkent— 1998 – yil.
14. Sayyid Mubashshir Tarоziy Sof tabiat dini / Tarj. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – T.: Hilol-nashr, 2019.

[15] Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. 48-49 betlar
[16] Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. 380- bet.
[17] Qirq hadis. Imom Navaviy. https://islam.okis.ru/kirk-hadis.html
[18] Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. 378-bet
[19] Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. Baqara, 2:205
[20] Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. An’am, 6:165
[21] Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. Rahmon, 55:7–9
[22] Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi. Baqara, 2:60
[23] Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasi. Toshkent: 1992 yil, Sharq yulduzi.378-bet

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

TALABALARDA ILMIY IZLANISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Rustamova Shoxista Omonjonovna
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 33
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1319

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Talaba, ilmiy izlanish madaniyati, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, ta’lim jarayoni, mustaqil ilmiy faoliyat.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tahlil qiladi. Maqolada ilmiy izlanish faoliyati kontsepsiyasi, talabalar faoliyatini tashkil etishning samarali usullari va texnologik yondashuvlarning roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirishda interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi, ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning metodologik asoslari va natijalari o‘rganilgan. Ushbu maqolada talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik texnologiyalar va ularning amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida ilmiy izlanish madaniyati talabalarning tanqidiy fikrlashi, mustaqil izlanish olib borishi, ijodiy yechimlar ishlab chiqishi va ilmiy etikaga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqot interfaol pedagogik metodlar (guruhli loyihalar, debatlar, ilmiy muhokamalar) hamda innovatsion texnologiyalar (raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar)ning talabalarda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini o‘rganishga qaratilgan. Metodologik yondashuv doirasida nazariy tahlil, kuzatish, so‘rovnomalar, intervyular va pedagogik texnologiyalar integratsiyasidan foydalanildi. Tadqiqot natijalari interfaol va innovatsion metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi talabalarning tanqidiy tahlil, mustaqil ilmiy faoliyat va ijodiy yondashuvini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Mualliflar Bai va Blackwell hamda Zhang yondashuvlari tahlili asosida pedagogik va texnologik integratsiya ilmiy izlanish madaniyatini kompleks rivojlantirishning eng samarali modeli ekanligi asoslab beriladi.

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimi sharoitida talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirish masalasi oliy ta’limning eng dolzarb va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ilmiy izlanish madaniyati nafaqat talabalarning akademik bilimlarini mustahkamlash, balki ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy va analitik tahlil, ijodiy yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish jarayoni pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va metodologik vositalarning uyg‘un integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Ilmiy izlanish madaniyati tushunchasi dastlab XIX–XX asrlarda shakllangan bo‘lsa-da, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda uning tarkibiy elementlari sifatida ilmiy metodlarni qo‘llash ko‘nikmalari, tanqidiy va tahliliy fikrlash, kreativ yechimlar ishlab chiqish, axborot manbalarini samarali izlash va ularni sintez qilish ko‘rsatkichlari ajralib turadi[1]. Bai va Blackwell talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirishda interfaol pedagogik yondashuvlarning samaradorligini, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi rolini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Zhang ilmiy izlanish madaniyatining shakllanishida innovatsion texnologiyalar va raqamli resurslardan foydalanishning ahamiyatini o‘rganib, ularning talabalarning ijodiy va analitik salohiyatini oshirishdagi ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirish pedagogik jarayoni ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi. Birinchisi – talabalarga nazariy bilimlarni yetkazish va ilmiy fikrlash asoslarini o‘rgatish orqali ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish; ikkinchisi mustaqil ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini amaliyot orqali rivojlantirish [2]. Bu yondashuvlar bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida ishlaydi va ularning samaradorligi talabalarning ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishi, tashabbuskorligi va ijodiy potentsialining oshishi bilan baholanadi. Pedagogik texnologiyalar talabalarning ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish jarayonida muhim vosita sifatida qaraladi. Interfaol metodlar, jumladan, ilmiy muammolarni muhokama qilish, guruhli loyihalar, debatlar va vebinarlar talabalarning tanqidiy fikrlashini va ilmiy tahlil ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar, xususan, raqamli platformalar, ilmiy ma’lumotlar bazalari va virtual laboratoriyalar talabalarga o‘z ilmiy tadqiqotlarini mustaqil ravishda olib borish imkonini beradi va ilmiy faoliyatni zamonaviy standartlarga moslashtiradi [3]. Ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish jarayonida motivatsion omillar katta rol o‘ynaydi. Talabalar o‘zlarining izlanish faoliyati natijalarini amaliyotga tatbiq etish, ilmiy jurnallarda maqolalar nashr etish yoki konferentsiyalarda taqdim qilish imkoniyatiga ega bo‘lganda, ular ilmiy faoliyatga yanada qiziqadi va izlanishga sodiq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda qo‘llash, talabalarni ilmiy izlanishga jalb qilish va ularni ilmiy faoliyatga tayyorlashning samarali mexanizmlarini yaratish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Shuningdek, talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishning muhim jihatlaridan biri – ularning shaxsiy va professional rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishidir. Ilmiy izlanish madaniyati nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishni, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llashni, ilmiy etikani hurmat qilishni va ijodiy faoliyatda uzluksiz ishtirok etishni ham ta’minlaydi [4]. Shu sababli, pedagogik jarayon talabalarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish va mustaqil ilmiy faoliyatga tayyorlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun bir qator prinsiplar mavjud. Shu jumladan, integrativlik (ilmiy bilimlarni turli fanlar bilan bog‘lash), amaliy yo‘naltirish (nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan mustahkamlash), motivatsion yondashuv (talabalarni ilmiy faoliyatga rag‘batlantirish) va uzluksizlik (ilmiy izlanish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish) prinsiplari eng samarali hisoblanadi. Ushbu prinsiplar asosida ishlab chiqilgan metodik komplekslar talabalarning ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim muhitida talabalar o‘rtasida ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish nafaqat oliy ta’limning sifatini oshirish, balki yoshlarning shaxsiy va professional kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi[5]. Ilmiy izlanish madaniyati talabalarni tanqidiy fikrlashga, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga, axborot manbalarini tahlil qilishga va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga o‘rgatadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik

[1] Xoliqov I. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy harbiy ta‟ lim yo „nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar: harbiy ta‟ lim yo „nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.

[2] Abdurazakova Z. Ta’lim transformatsiyasi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4.2. – C. 277-279.

[3] Lola, Z., & Shohbozbek, E. (2025). Zamonaviy pedagogik texnologiyalari orqali uzluksiz ta'limni rivojlantirish. Global Science Review, 4(3), 328-335.

[4] Haytbaeva S. Talabalarda tadqiqotchilik ko ‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o ‘rni //Nordic_Press. – 2024. – T. 3. – №. 0003.

[5] Shohbozbek E. et al. Bo’lajak pedagoglarning tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning konsepsual asoslari //Global Science Review. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 328-338.

texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va integratsiya qilish oliy ta’limning muhim vazifasi hisoblanadi. Umuman olganda, talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari nafaqat pedagogik jarayonning sifatini oshirish, balki talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu maqolada ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik texnologiyalar va ularning amaliy samarasini tizimli tahlil qilish maqsad qilingan.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirish sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar samaradorligini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Bai va Blackwell o‘z tadqiqotlarida talabalarda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol pedagogik texnologiyalarning rolini keng tahlil qilgan. Ularning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, guruhli loyihalar, debatlar, seminarlar va ilmiy muammolarni muhokama qilish orqali talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish ko‘nikmalari sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, Bai va Blackwell pedagogik yondashuvlarni faqat nazariy asosga bog‘lashning yetarli emasligini, ularni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv talabalarni nafaqat bilim bilan ta’minlaydi, balki ularni mustaqil ilmiy faoliyatga tayyorlaydi, shuningdek, ularning ijodiy salohiyatini rag‘batlantiradi. Zhang esa ilmiy izlanish madaniyatining shakllanishida innovatsion texnologiyalarning samaradorligini o‘rganib, raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar va ilmiy ma’lumotlar bazalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ta’kidlaydi. Zhangning fikricha, zamonaviy texnologiyalar talabalarning ilmiy faoliyatga qiziqishini oshiradi, ularni tezkor tahlil va sintez qilishga o‘rgatadi, shuningdek, murakkab ilmiy muammolarni hal qilish jarayonini soddalashtiradi [6] . Shu nuqtai nazardan, Zhangning tadqiqotlari interfaol va innovatsion pedagogik yondashuvlarning bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida ishlashini ko‘rsatadi va talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishda ularning uyg‘un qo‘llanilishining ahamiyatini ochib beradi. Ikkala olimning tadqiqotlarini tahlil qilganda, talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar bir-birini to‘ldiruvchi vosita sifatida ishlatilishi zarurligi aniq ko‘rinadi. Bai va Blackwellning amaliy yondashuvga urg‘u beruvchi tavsiyalari bilan Zhangning texnologik yondashuvni rag‘batlantiruvchi natijalari birlashtirilganda, pedagogik jarayonda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishning kompleks va uzviy modeli paydo bo‘ladi. Shu tarzda, talabalarning tanqidiy fikrlash, mustaqil ilmiy faoliyat va ijodiy yondashuvlari bir vaqtning o‘zida rivojlantiriladi[7]. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishda nafaqat metodik va texnologik jihatlar, balki talabalarni motivatsion qo‘llab-quvvatlash va ularning ilmiy faoliyatga qiziqishini rag‘batlantirish muhim rol o‘ynaydi. Bai va Blackwell, shuningdek, Zhangning tadqiqotlari birlashtirilganda, pedagogik jarayonda interfaol va innovatsion yondashuvlarning talabalarning izlanish ko‘nikmalarini tizimli va uzviy rivojlantirishda samarali ekanligi aniq tasdiqlanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirish jarayonini o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi, bunda nazariy tahlil, empirik tadqiqot va amaliy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosiy o‘rin tutadi. Tadqiqotning nazariy qismi talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishga oid mavjud nazariy konsepsiyalar, pedagogik prinsiplar va ilg‘or ilmiy tadqiqotlar tahlilini o‘z ichiga oladi, bu esa ilmiy izlanish madaniyatining strukturasini aniqlash va metodologik asoslarini belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, empirik tadqiqot metodlari sifatida kuzatish, so‘rovnomalar va intervyular ishlatildi, ular talabalarning ilmiy izlanish faoliyati, ularning motivatsiyasi va metodologik ko‘nikmalarini baholashda asosiy vosita sifatida xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida interfaol pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodlari muhim ahamiyat kasb etdi, jumladan, guruhli loyihalar, ilmiy muammolarni muhokama qilish, debatlar, seminarlar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarning tanqidiy fikrlash va ilmiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar, xususan, raqamli ilmiy platformalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish orqali talabalarning mustaqil ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish va ularni zamonaviy ilmiy tadqiqot jarayonlariga moslashtirishga erishildi. Metodologik yondashuv doirasida talabalarning ilmiy izlanish madaniyatini baholash uchun sifat va miqdoriy indikatorlar birgalikda qo‘llanildi. Sifat ko‘rsatkichlari talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish, ijodiy yondashuv va ilmiy etikaga rioya qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oldi, miqdoriy ko‘rsatkichlar esa talabalarning ilmiy tadqiqotga sarflagan vaqti, bajarilgan ilmiy loyihalar soni va nashr etilgan ilmiy ishlar soni bilan ifodalandi. Bu metodologik integratsiya tadqiqot natijalarining ishonchliligi va aniqligini ta’minladi. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasida talabalar faoliyatini tizimli kuzatish va baholash jarayonida triangulyatsiya prinsipi qo‘llanildi, bu esa ma’lumotlarning turli manbalaridan olingan natijalarni solishtirish va tahlil qilish orqali xulosalarning obyektivligini oshirdi. Shu bilan birga, metodologik yondashuv talabalarning ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirish jarayonida interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Empirik kuzatuvlar va so‘rovnomalar natijalari talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarining yaxshilanishini tasdiqladi. Guruhli loyihalar va ilmiy muammolarni muhokama qilish orqali talabalar o‘z bilimlarini amaliy faoliyat bilan mustahkamlashga erishdi, bu esa ularning ilmiy izlanish jarayonida qat’iy va tizimli yondashuvni shakllantirish imkonini berdi. Shuningdek, raqamli platformalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish talabalarning mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirdi. Talabalar o‘z tadqiqotlarini ilmiy jurnallarda nashr etish yoki ilmiy konferentsiyalarda taqdim qilish orqali o‘z faoliyatini real ilmiy amaliyot bilan bog‘lash imkoniga ega bo‘ldi. Shu tarzda, interfaol va innovatsion pedagogik yondashuvlar bir-birini to‘ldirib, talabalarning ilmiy izlanish madaniyatini kompleks va uzviy shakllantirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalarning samaradorligi faqat ularni nazariy asosga bog‘lash bilan cheklanmaydi; ularning amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashuvi talabalarning ilmiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, talabalarning ijodiy salohiyati va analitik fikrlash qobiliyatlari mustahkamlanadi, bu esa ilmiy izlanish jarayonida ularning mustaqil va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muhokama. Talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlarni tahlil qilganda, Bai va Blackwell hamda Zhang tadqiqotlari o‘rtasida qiziqarli ilmiy polemika yuzaga keladi. Bai va Blackwell interfaol pedagogik metodlarning talabalarning ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita ekanligini ta’kidlaydi [8] . Ularning fikricha, guruhli loyihalar, ilmiy muammolarni muhokama qilish va seminarlar orqali talabalar mustaqil tahlil va ijodiy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, texnologik yondashuvlarning samaradorligi pedagogik metodlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Biroq, Zhang bu fikrga qarama-qarshi yondashadi va ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishda raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar va innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada rol o‘ynashini urg‘ulaydi. Zhangning fikricha, zamonaviy talabalar uchun texnologik vositalar nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki ularni mustaqil ilmiy faoliyatga rag‘batlantirish va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish imkoniyatini beradi [9] . Shu nuqtai nazardan, Zhang pedagogik jarayonda interfaol metodlarni qo‘llashni texnologik yondashuv bilan uyg‘unlashtirishni taklif qiladi. Ushbu ilmiy munozara shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning samaradorligi nafaqat metodik yondashuvlar, balki ularni zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirishga bog‘liqdir. Bai va Blackwellning amaliy yondashuvni ustuvor qiluvchi tavsiyalari Zhangning texnologik integratsiyani rag‘batlantiruvchi tadqiqotlari bilan uyg‘unlashganda, talabalarning ilmiy izlanish ko‘nikmalarini kompleks va uzviy rivojlantirish mumkin

[6] Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz: Surxon-nashr nashrmatbaa. – 2022.

[7] Ruzieva Z., Norboeva S. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida loyihaviy tadqiqtochilik ko ‘nikmalarini rivojlantirish //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 197-204.

[8] Shohbozbek, E. (2025). Pedagogika psixologiya bolalarning kommunikativ kompatensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. Global Science Review, 4(5), 430-439.

[9] Matkarimov J., Xakimova O., Imomaliyeva R. Ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga sun’iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 232-235.

bo‘ladi [10] . Shuningdek, ikki olimning tadqiqotlari talabalarning motivatsiyasini oshirish va ularni ilmiy faoliyatga jalb qilish mexanizmlarini bir-birini to‘ldiruvchi tarzda ishlab chiqishga imkon beradi. Bai va Blackwell pedagogik metodlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishning ijobiy natijalarini ko‘rsatgan bo‘lsa, Zhang innovatsion texnologiyalar orqali mustaqil ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirishning samaradorligini namoyish etadi. Shu tarzda, ikki yondashuvni integratsiya qilish orqali pedagogik jarayonda talabalar nafaqat bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ilmiy izlanish madaniyatini tizimli, uzviy va barqaror shakllantirishga erishiladi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlarini tizimli yoritdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar bir-birini to‘ldiruvchi tarzda qo‘llanilganda, talabalarning tanqidiy fikrlash, mustaqil ilmiy faoliyat va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Pedagogik jarayonda guruhli loyihalar, ilmiy muammolarni muhokama qilish, debatlar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarning ilmiy izlanish faoliyatini tizimli shakllantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga raqamli platformalar va virtual laboratoriyalar ularning mustaqil tadqiqotlarini rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xoliqov I. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy harbiy ta‟ lim yo „nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar: harbiy ta‟ lim yo „nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
2. Abdurazakova Z. Ta’lim transformatsiyasi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4.2. – C. 277-279.
3. Lola, Z., & Shohbozbek, E. (2025). Zamonaviy pedagogik texnologiyalari orqali uzluksiz ta'limni rivojlantirish. Global Science Review, 4(3), 328-335.
4. Haytbaeva S. Talabalarda tadqiqotchilik ko ‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o ‘rni //Nordic_Press. – 2024. – T. 3. – №. 0003.
5. Shohbozbek E. et al. Bo’lajak pedagoglarning tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning konsepsual asoslari //Global Science Review. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 328-338.
6. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz: Surxon-nashr nashrmatbaa. – 2022.
7. Ruzieva Z., Norboeva S. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida loyihaviy tadqiqtochilik ko ‘nikmalarini rivojlantirish //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 197-204.
8. Shohbozbek, E. (2025). Pedagogika psixologiya bolalarning kommunikativ kompatensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. Global Science Review, 4(5), 430-439.
9. Matkarimov J., Xakimova O., Imomaliyeva R. Ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga sun’iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 232-235.
10. Shohbozbek, E. (2025). Pedagogik metotologiya uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri. Global Science Review, 4(5), 774-782.

[10] Shohbozbek, E. (2025). Pedagogik metotologiya uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri. Global Science Review, 4(5), 774-782.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

INSON KAPITALI LOYIHALARINI BOSHQARISHDA DAVLAT SIYOSATINING O‘RNI

Sharipova Nodira Raxmonali qizi
Toshkent shahar Biznes va Tadbirkorlik oliy maktabining
loyiha boshqaruvi yo‘nalishi magistrature talabasi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 34
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1320

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Inson kapitali, davlat siyosati, loyihalarni boshqarish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat bozori, innovatsiyalar, moliyalashtirish, monitoring, baholash, raqamli boshqaruv, strategiya, davlat-xususiy sheriklik.

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada inson kapitali tushunchasi, uning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, davlat siyosatining mazkur jarayondagi strategik ahamiyati, inson kapitaliga oid loyihalarni boshqarish mexanizmlari, moliyalashtirish usullari, normativ-huquqiy asoslar, monitoring va baholash tizimlari hamda xalqaro tajribalar keng qamrovda yoritilgan. Tadqiqot inson kapitali rivojida davlatning ko‘p funksiyali roli, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, ustuvor yo‘nalishlar va siyosiy qarorlarning samaradorlikka ta’siri nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilingan. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida inson kapitalining davlat taraqqiyotidagi o‘rni va dolzarbligi tahlil qilingan bo‘lib, uning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarga ta’siri kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqotning kirish qismida inson kapitali rivoji zamonaviy jamiyatda barqaror taraqqiyotning asosiy omili sifatida talqin etilib, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari konseptual tahlil qilingan. Adabiyotlar sharhida inson kapitali fenomeni chet el va MDH tadqiqotchilari tomonidan sotsiologik, iqtisodiy, etnopsixologik va madaniy-paradigmatik nuqtai nazardan o‘rganilganligi, ushbu ilmiy qarashlarning metodologik asoslari ochib berilgan.

Kirish. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari dunyo hamjamiyati oldiga inson omiliga har qachongidan ham ko‘ra ko‘proq e’tibor qaratishni dolzarb muammolar qatoriga qo‘ymoqda. Inson kapitali rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki butun jamiyatning yangi sifatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, milliy va ijtimoiy etnik xususiyatlar asosida uning mohiyati, rivojlanib borish tendensiyalari hamda turmush barqarorligi masalalarini hal etish talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, inson kapitalini yuksaltirish, ta’lim va ilm-fanni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, aholini, ayniqsa yoshlarning salomatligini mustahkamlash, madaniy va ma’rifiy ongini yuksaltirishda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda ilgari surilgan intellektual, ta’lim, axloqiy, ijtimoiy kapital omillarini taraqqiyot strategiyalariga moslashtirish hamda inson kapitalining komponentlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda qonun ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish, adolatli va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash yo‘nalishlarida islohotlarni amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston strategiyasining maqsadi – yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to‘liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o‘sayotgan va inson kapitali yuqori bo‘lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta’minlashdir. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o‘sishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag‘rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo‘yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o‘zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz”[1].

Adabiyotlar tahlili. Inson kapitaliga oid masalalar va u bilan bog‘liq ijtimoiy muammolar soha mutaxassislari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, etnopsixologik, huquqiy hamda ma’naviy-siyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. XX asr fanining yorqin namoyondalari D.Tomson va X.Bekker “sotsial shartnoma” nazariyasi, Xose Ortega-Gasset, K.Mangeym, P.Burde, I.Gofman, I.Kon, T.Shanin hamda P.Nora[2] kabi olimlarning inson kapitalini sotsial fenomen sifatida rivojlanib borishini ijtimoiy etnik yondashuvlar tizimida, ijtimoiy-madaniy kontekstda tadqiq etganlari bunga misol bo‘la oladi. Shuningdek, inson kapitali XX asrning 60-yillaridan boshlab mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida iste’molga kiritildi. Qolaversa, Xalqaro Nobel mukofoti sohiblari – T.Shuls va G.Bekker, qolaversa D.Bellning bir qator asarlarida ushbu masalaga alohida e’tibor qaratila boshlandi[3].

MDH mamlakatlarida inson kapitali mavzusining iqtisodiy-demografik jihatlari E.Galayeva, A.Dobrinin, S.Dyatlov, E.Serenova va P.Karelyushnikov[4], ijtimoiy-madaniy tomonlari S.Abashin, V.Achkasov, Yu.Granin, L.Russkix, K.Tuayeva, N.Antonova, N.Jukova hamda T.Stefanenko [5] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida identiklikning jamiyatda o‘zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va ijtimoiy-madaniy meros bilan bevosita aloqador jihatlari o‘rganilgan.

O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va uning iqtisodiy fanlar tizimidagi ahamiyati bo‘yicha S.G‘ulomov, Q.Abdurahmonov, J.Ataniyazov, T.Jalilov, B.Usmonovlar [6] keng ko‘lamli tadqiqotlar olib bormoqdalar. Shuningdek, K.Shoniyozov, A.Ashirov, U.Abdullayev va N.Nazarovlar[7] ilmiy ishlarida kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy globallashuv sharoitida inson kapitali davlatlar raqobatbardoshligining asosiy omiliga aylanmoqda. Mehnat resurslarining bilim, ko‘nikma, malaka va

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, – 2021. – Б.264.
[2] Becker H. Discontinuous change and generational contracts. – London, 2000; Kohli M. Aging and justice. Research group on aging and life course. Research Report 74. – Berlin, 2005; Thomson D. Selfish generations. The ageing of the welfare state. – Wellington, 1989; Ортега-И-Гассет. Х. Восстание масс. – М.: АСТ Москва, 2008. – С. 249 347; Гофман И. Представление себя другим в повседневной жизни. – М.: Канон пресс, 2006; Бурдье П. Социология социального пространства. – М.: Алетейя, 2007. – С. 80-278; Шанин Т. История поколений и поколенческая история / Отцы и дети: поколенческий анализ современной России. – М., 2009. – С. 17-38; Ортега-и-Гасет Х., Маннгейм К. Очерки социологического знания. Теория познания – мировоззрение – историзм. – М., 1998. – С. 84-85.
[3] Schulz T. Capital Formation bi Edukathion // Journal of Politikal Economu. – 1960. – №1. – R. 25., Ўша муаллиф: Investment in Human Capital // American Economic Revien. – 1961. – №1.; Беккер Г.С. Человеческое поведение: Экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – С. 672.; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – М.: Academia, 1999. – С. 949.
[4] Галаева Е. В. Исследование человеческого капитала в зарубежной литературе: реферат книги Орда Нордхога «Человеческий капитал в организациях» // Общество и экономика. – 1997. – №7-8. – С. 244-255; Добрынин А. И., Дятлов С. А., Циренова Е.Д. Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования. – СПб.: Наука, 1999; Коулман Дж. Капитал социальный и человеческий // Общественные науки и современность. – 2001. – №3. – С. 122–139; Цапенко И. В., Миронова Д. Д. Человеческий капитал и инновационные факторы его развития // Инженерный вестник Дона (Ростов-на Дону). – 2012. – №2. – С. 153-163; Беленкова О. А. Роль социальных технологий в формировании инновационного потенциала человеческого капитала // Российский гуманитарный журнал. – 2017. – №3. – С. 271–282;
[5] Русских Л. Идентичность: культурная, этническая, национальная. // Вестник ЮУрГУ. Серия «Социально гуманитарные науки. – 2013. – С. 178-180, Туаева К. Философские основы национальной идентичности // Вестник университета МГУ. – 2014. – С. 287-292; Ачкасов В. Национальная идентичность как исторический нарратив. // Управленческое консультирование. – 2018. – №10. – С. 19-26;.
[6] Гулямов С., Очилов Н., Сайдаҳмедов О. Интеллектуал иқтисодиёт самарадорлик омиллари // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – 2015. – №6. – Б. 38-41; Абдурахмонов К.Х. Человеческое развитие. Учебник. – Ташкент: ФГБОУ ВО РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2014. – С. 320.; Атаниязов Ж.Х., Жалилов Т. Роль человеческого капитала в инновационном Развитии экономики // Халқаро молия ва ҳисоб. – 2019. – №2. – С. 1-9; Усмонов Б. Ш. ва бошқ. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли (илмий-оммабоп рисола). – Самарқанд: СамДУ, 2015. – Б. 83.
[7] Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 86.; Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. – Б. 275.; Абдуллаев У.С. Фарғона водийсидаэтнослараро жараёнлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 143-202; Назаров Н. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Монография. – Тошкент: Global Books, 2018. – Б. 256.

salomatlik darajasi iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilab beruvchi strategik resurs hisoblanadi. Shu bois ko'plab davlatlar inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha kompleks loyihalarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonda davlat siyosatining tizimli, uzoq muddatli va maqsadli yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada inson kapitali loyihalarini boshqarish jarayonida davlat siyosatining roli, asosiy yo'nalishlari hamda samaradorlik omillari tahlil qilinadi.

Natijalar. Inson kapitali, yani shaxsiy kapital, odamlarning bilim, malakali, tajribali va sotsial qobiliyatlari, salomatlik, iqtisodiy resurslarga ega bo'lishi va shaxsiy xarakteriga asoslangan umumiy qobiliyatlar to'plami sifatida tavsiflanadi. Inson kapitali, insonlar o'rtasidagi ta'lim, tajriba, salomatlik va iqtisodiy faoliyat kengaytmasidir. Bu esa, inson kapitalining o'rganilishi, o'zlashtirilishi va rivojlanishi uchun har bir insonning o'ziga mahsus va ulkan ahamiyatga ega bo'lgan usullar mavjudligini ko'rsatadi. Inson kapitalin rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri ta'lim va o'qitishdir[8].

O'z-o'zini o'rganish, malakasini oshirish, yangi bilim va ko'nikmalar olish, insonning kapitalini oshiradi. Buning uchun formal (maktab, o'quv markazi, universitetlar) va informal (kitoblar, onlayn o'qitish resurslari, seminarlar) ta'lim vositalari ishlatish mumkin. Amaliy tajriba, ish bilan bog'li kasb-hunar va ko'nikmalarni rivojlantirishnin muhim qismlarida biridir. Ish bilan bog'liq tajriba olish uchun xalqaro va mahalliy kompaniyalarda ishlash, mentorlik dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Salomatlik, inson kapitalini rivojlantirishning muhim bo'limidir. Sport mashg'ulotlari, salomatlik markazlaridan foydalanish, salomatlikni saqlash, insonning kapitalini oshirishga yordam beradi. Inson kapitalini rivojlantirishning asosiy sharti insonning o'z-o'zini rivojlantirishi, o'zini o'rganishi va o'zlashtirishi. Bu o'z-o'zini tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarni rivojlantirish, motivatsiya va o'zini rivojlantirish yo'llarini tanlashga asoslangan.

Sotsial kapital, insonning o'zaro aloqalari, tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi va jamiyatda o'z o'rnini olishga yordam beradi. Sotsial tarmoqlarda, jamoatgacha intilishlar, do'stlar va kollegalar bilan yaxshi aloqalar o'rnatish, tadbirlarida ishtirok etish, sotsial kapitalni oshirishga yordam beradi. Vaqtni boshqarish bilan inson, ish bilan bog'liq vazifalarini bajarish, o'quv-mashg'ulotlarga va shaxsiy rivojlantirishga vaqtni ajratish, o'z vaqtini samarali foydalanishni o'rganadi. Bu esa o'z vaqtini nima uchun va qanday foydali foydalanishni tushuntiradi. Fikrlash va tahlil qobiliyatlari kapitalning muhim qismlaridan biridir. Yangiliklarni kuzatib borish, maqolalarni o'qish va muhokama qilish, biror mavzuga oid ko'plab fikrlarni ta'qib qilish va o'z fikrlaringizni boshqalarga yetkazish orqali bu qobiliyatni oshirishingiz mumkin. Bu yo'llar inson kapitalini maksimallashtirishga yordam berishi mumkin.

O'zlashtirish loyihasini boshqarishda, tadbirkorlik va biznes yo'nalishlariga e'tibor berish juda muhimdir. Bu loyihalar orqali, insonlarni o'zlashtirish, xizmatlar va mahsulotlarni sotish, ishchi kadrlarni rivojlantirish va biznesni yanada rivojlantirish mumkin[9].

MUHOKAMA. Inson kapitalini maksimallashtirish uchun xodimlarga ta'lim va rivojlanish imkoniyatlari taqdim etilishi lozim. Bu loyihalar orqali xodimlarni yangi bilim va ko'nikmalarni o'rganishga imkon berish, ularning professional o'sishini ta'minlash va ularga kengaytirilgan mavqelarda ishlash imkoniyatini berish mumkin. Insonlarni o'zlashtirish loyihalarida ishonch va jamoatchilik muhim ahamiyatga ega. Xodimlarni qo'llab-quvvatlash va ularga ishonch berish, ularni qadr-qimmatini xurmat qilish va ularning ishga qiziqishini oshirishga intilish kerak. Inson kapitalini maksimallashtirish loyihalarini boshqarishda-boshqaruv va monitoring tizimlaridan foydalanish kerak. Boshqaruv tizimi, loyihalarni rejalashtirish, o'zlashtirish natijalarini baholash va o'zgarishlarni kuzatishga imkon beradi[10].

Inson kapitali bahosini maksimallashtirish loyihalarini boshqarishda davlat siyosati, bu loyihalarni rivojlantirish, ularga moliyaviy resurslarni ajratish, qonunlar va huquqiy muhitni yaratish, hamda o'zaro hamkorlikni ta'minlash kabi bir qator muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Davlat siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarga ega:

Davlat siyosati inson kapitali bahosini maksimallashtirish loyihalarini rivojlantirishda o'rnatishda ham muhim rol o'ynaydi. Davlatning inson kapitali bahosini maksimallashtirishga yo'naltirilgan siyosati, insonlarning ta'lim va rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishini ta'minlash, sog'lomlik va barqarorlikni ta'minlash, ish haqini himoya qilish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorligi o'stirish va huquqiy muhitni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Davlat siyosati inson kapitali bahosini maksimallashtirishga yo'naltirilgan holatlarda, moliyaviy resurslar to'g'risida qarorlar qabul qilishi, infrastrukturani rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, sanoat va xizmat sohasini kuchaytirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, davlat siyosati inson kapitalini oshirish uchun moliyaviy stimullash, sarmoyalash va tijoratni rivojlantirishning ham muhim bir qismini tashkil etishi mumkin.

Huquqiy muhitni rivojlantirish uchun qonunlarni o'zgartirish yoki yangilash, yuridik tizimni barqaror qilish va adolatli sud tizimini ta'minlash zarur bo'ladi. Bu qonunlar inson huquqlarini himoya qilish, yuridik tashkilotlar va sud organlarining mustahkamlanishi, huquqiy ta'lim tizimini rivojlantirish va boshqalar kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Sarmoya va soliq tizimining inson kapitali bahosini maksimallashtirishga muhim ahamiyati bor. Bu yo'lda davlat soliq tizimini yaxshilash, soliq daromadlarini qat'iy va adolatli hisoblash, investitsiyalar uchun muhim imtiyozlar va stimullar berish, sarmoya va biznes muhitini soddalashtirish, korruptsiyaga qarshi kurashish, sifatli korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash va boshqalar kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin.

Ta'lim va rivojlanish sohasidagi qonunlar inson kapitali bahosini maksimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu qonunlar talabalar va o'qituvchilarning huquqlarini himoya qilish, yuqori sifatli ta'lim tizimini yaratish, kasb-hunar kollejlari va universitetlarni rivojlantirish, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar uchun imkoniyatlar yaratish, ta'limning hamjamiyatda rivojlanishini ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi[11].

Inson kapitali bahosini maksimallashtirish uchun innovatsiyalar va texnologik rivojlanishning o'z-o'zini rag'batlantirishi zarur. Bu maqsadga yo'naltirilgan qonunlar va siyosiy tadbirlar, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, startap sohalarini rivojlantirish, intellektual mulkni himoya qilish, yangi texnologiyalar va ishbilarmonlik modellarini qabul qilish, innovatsiyalarni to'g'risida himoya va rag'batlantirish siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'ladi. Davlat siyosati inson kapitali bahosini maksimallashtirishda iqtisodiy taraqqiyotni ham rag'batlantirishi lozim. Bu maqsadga yo'naltirilgan qonunlar va siyosiy tadbirlar, biznes muhitini soddalashtirish, investitsiyalar uchun sharoitlarni yaxshilash, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yuksaltirish, innovatsiyalarni va rivojlanishni rag'batlantirish, ishga qo'yishni oshirish va ish bilan ta'minlash kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi[12].

Bozor mexanizmlari inson kapitalining barcha jihatlarini qamrab ololmaydi. Ta'lim, sog'liq, kasb-hunar o'qitish kabi sohalarda xususiy sektor investitsiya kiritishni kam deb biladi, chunki bu investitsiya qaytimi uzoq muddatga cho'ziladi. Shuning uchun davlat quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Tartibga solish;
2. Moliyalashtirish;
3. Nazorat qilish;
4. Ijtimoiy adolatni ta'minlash;
5. Strategik rejalashtirish.

Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

Ta'lim siyosati-sohani modernizatsiya qilish, o'qituvchilar salohiyatini oshirish;

Sog'liqni saqlash siyosati-profilaktika, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish;

Bandlik siyosati-zamonaviy kompetensiyalarga ega ishchi kuchini yaratish;

[8]Yunusova M. A (2024) Inson kapitalini rivojlanishini, moliyaviy ta'minlashining strategik yo'nalishlari va ularning usullari. World scientific research journal, 10(2), 120-122.

[9] Abduvohidov A. Kamilova S. (2023).Inson kapitalining raqmli rivojlanishini baholash. Iqtisodiy tarqqiyot va tahlil. 1(2), 5-14.

[10] Bo'rixadjayeva. M. S. (2023). Yangi o'zbekistonda iqtisodiy tafakkurni shakillantirishning usullari.World scientific research journal, 12(2), 134-138.

[11] Yahshiyev Sh. (2023) The oretical principles of financial security for the use of management of the economic system of Uzbekistan. Reserarch in devolepment: scientific and practical conferenses part-1 2023 1/3 (42-45).

[12] Azamaliyev Q. B (2021) Inson kapitalining davlat siyosatidagi ahamiyati. Научныйжурнал. Интернаука. 17(193), 72-74.

Innovatsion siyosat-ilm-fan, texnologiya va startaplarni qo‘llab-quvvatlash;

Demografik siyosat - yoshlar, ayollar va aholining zaif qatlamlarini qo‘llash.

Bu kabi qonunlar davlat siyosatida inson kapitali bahosini maksimallashtirishda huquqiy muhitni rivojlantirish va o‘zaro hamkorlikni ta’minlashga qaratilgan qonunlar va siyosiy tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Huquqiy muhitning yanada rivojlanishi, yuridik tizimning barqarorligi, intellektual mulkni himoya qilish, korruptsiyaga qarshi kurashish, maqbul va adolatli sud tizimini ta’minlash kabi masalalar, davlat siyosati asosidagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosalar. Xulosa qilib aytganda, inson kapitali va uni boshqarishning markaziy mexanizmi bo‘lgan kadrlar siyosati har qanday loyihaning muvaffaqiyatiga bevosita va hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Maqola tahlili shuni ko‘rsatadiki, loyiha menejmenti nafaqat texnologik, moliyaviy va vaqt chegaralari boshqaruvi, balki, birinchi navbatda, “jonli” resurs – inson omilini samarali boshqarish masalasidir. Inson kapitali — XXI asrning eng muhim strategik resursi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, bandlik va innovatsiyalarni qamrab olgan kompleks siyosat davlatning iqtisodiy yuksalishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Inson kapitaliga oid loyihalar samarali boshqarilmasa, har qanday islohotlar natijasiz qoladi. Shuning uchun loyiha boshqaruvi, moliyalashtirish, monitoring, strategik rejalashtirish va normativ-huquqiy mexanizmlar o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerak. Davlat siyosati inson kapitalining rivoji uchun asosiy drayver, uning samarali ishlashi esa mamlakatning global maydondagi o‘rnini belgilab beradi.

Inson kapitali loyihalarini samarali boshqarish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy farovonligini ta’minlaydi. Ushbu jarayonda davlat siyosati markaziy o‘rinda bo‘lib, u strategik rejalashtirish, moliyalashtirish, huquqiy asos yaratish, monitoring va baholash tizimlari orqali loyihalarning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Davlatning puxta ishlab chiqilgan, izchil va natijaga yo‘naltirilgan siyosati inson kapitalining sifatini oshirish, raqobatbardosh iqtisodiyot barpo etish va fuqarolarning farovon hayotini ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, – 2021. – Б.264.
2. Becker H. Discontinuous change and generational contracts. – London, 2000;
3. Kohli M. Aging and justice. Research group on aging and life course. Research Report 74. – Berlin, 2005;
4. Thomson D. Selfish generations. The ageing of the welfare state. – Wellington, 1989;
5. Ортега-И-Гассет. Х. Восстание масс. – М.: АСТ Москва, 2008. – С. 249 347;
6. Галаева Е. В. Исследование человеческого капитала в зарубежной литературе: реферат книги Орда Нордхога «Человеческий капитал в организациях» // Общество и экономика. – 1997. – №7-8. – С. 244-255;
7. Назаров Н. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Монография. – Тошкент: Global Books, 2018. – Б. 256.
8. Yunusova M. A (2024) Inson kapitalini rivojlanishini, moliyaviy ta’minlashining strategik yo’nalishlari va ularning usullari. World scientific research journal, 10(2), 120-122.
9. Abduvohidov A. Kamilova S. (2023).Inson kapitalining raqmli rivojlanishini baholash. Iqtisodiy tarqqiyot va tahlil. 1(2), 5-14.
10. Bo‘rixadjayeva. M. S. (2023). Yangi o’zbekistonda iqtisodiy tafakkurni shakillantirishning usullari.World scientific research journal, 12(2), 134-138.
11. Yahshiyev Sh. (2023) The oretical principles of financial security for the use of management of the economic system of Uzbekistan. Reserarch in devolepment: scientific and practical conferenses part-1 2023 1/3 (42-45).
12. Azamaliyev Q. B (2021) Inson kapitalining davlat siyosatidagi ahamiyati. Научныйжурнал. Интернаука. 17(193), 72-74.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

OLIY TA’LIMDA INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA FILOLOGLARDA TANQIDIY QAROR QABUL QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Jo‘rayeva Dilnoza Ro‘zimat qizi
Namangan davlat universiteti tadqiqodchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 35
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1321

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Filologiya, tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, interfaol metodlar, oliy ta’lim, pedagogik innovatsiyalar, muammoli o‘qitish, ilmiy kompetensiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida filologiya sohasidagi talabalarda tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning interfaol pedagogik yondashuvlari masalasini ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan o‘rganadi. Tadqiqot jarayonida interfaol metodlar, xususan, muammoli vaziyatlarda muhokama, guruh ishlari, rol o‘yinlari va diskussiya metodlarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Ushbu maqolada oliy ta’limda, xususan filologiya yo‘nalishida talabalarda tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida interfaol pedagogik metodlarning o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar epistemologik mustaqilligi, analitik fikr yuritishi va muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga qo‘yilayotgan talablar bilan izohlanadi. Maqolada interfaol metodlar — muammoli vaziyatlar, guruh muhokamalari, rolli o‘yinlar, debat va problemali topshiriqlarning filologik ta’limdagi didaktik va metodologik afzalliklari yoritiladi. Olingan natijalar interfaol metodlar filologiya talabalarining matnni chuqur tahlil qilish, muqobil talqinlar yaratish, mantiqiy xulosa chiqarish va akademik pozitsiyani shakllantirish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, interfaol pedagogik yondashuvlar tanqidiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishning samarali vositasi bo‘lib, ularni integratsiyalashgan holda qo‘llash filologik ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kirish. Oliy ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik jarayonlarning samaradorligini oshirishning asosiy mezonlaridan biri talabalarda tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Filologiya ta’limida bu jihat, ayniqsa, til, adabiyot va madaniyat bilan bog‘liq ilmiy-analitik faoliyatning sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash, bir tomondan, talabaning mavjud bilimlarni tahlil qilish, baholash va ular asosida mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi, boshqa tomondan, u ijodiy yondashuv, muammolarni hal qilish va nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’limda interfaol pedagogik metodlarning qo‘llanilishi filologiya talabalarining epistemologik va metodologik kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida qaraladi. Interfaol metodlar pedagogik jarayonga faollik va ijodiy izlanish elementlarini kiritadi, bu esa talabalarning mustaqil fikrlash va muammo yechish qobiliyatini kuchaytiradi. Mazkur metodlar spektriga muammoli vaziyatlar yaratish, rolli o‘yinlar, guruh muhokamalari, debatlar va problemali mashg‘ulotlar kiradi. Har bir metod o‘zining didaktik va metodologik xususiyatlariga ega bo‘lib, tanqidiy qaror qabul qilish jarayonida talabaning kognitiv, affektiv va ijtimoiy kompetensiyalarini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi[1]. Shu bilan birga, interfaol metodlar o‘qituvchining roli bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish jarayonida mentor va facilitator sifatida ishtirok etadi. Filologiya sohasida tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xosligi shundaki, talaba nafaqat til va adabiyot namunalarini tahlil qiladi, balki ularni kontekstual va madaniy nuqtai nazardan baholaydi, mazmuniy va stilistik xatolarni aniqlaydi, muqobil fikrlarni shakllantiradi va mantiqiy xulosalar chiqaradi. Shu sababli, interfaol metodlarning samaradorligi ko‘pincha talabaning kognitiv faolligi va guruhdagi o‘zaro ta’siriga bog‘liq bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar yordamida olib borilgan o‘qitish jarayoni talabalarda analitik va sintez qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi, bu esa tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtiradi[2]. Shuningdek, zamonaviy filologik ta’limda pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash orqali talabalarning ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil bilim olish va o‘z fikrini asoslash qobiliyati mustahkamlanadi. Interfaol metodlar talabaning individual va guruh ishlari orqali tanqidiy fikrlash jarayonida yetakchi rol o‘ynaydi, ularning akademik nutqini rivojlantiradi va ilmiy muloqot madaniyatini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlar va real hayotiy kontekstlarni qo‘llash talabaning epistemologik yondashuvini kengaytiradi, o‘quv jarayonini nazariy va amaliy bilimlar bilan uyg‘unlashtiradi [3]. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globalizatsiya va axborot texnologiyalari sharoitida talabalarning tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari mustahkam akademik bazaning asosiy ko‘rsatkichiga aylanmoqda. Filologiya ta’limida bu kompetensiyalar nafaqat akademik muvaffaqiyatni, balki ilmiy faoliyatning sifatini, zamonaviy kommunikativ va ijtimoiy muammolarni hal etish qobiliyatini ham belgilaydi. Shu bilan birga, interfaol pedagogik yondashuvlar o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini individual va guruh darajasida moslashtirish, talabalar ehtiyojlarini inobatga olish va ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish imkoniyatini yaratadi. Oliy ta’limda interfaol metodlarning samaradorligini oshirish, filologiya talabalari uchun tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni ilmiy izlanish, akademik muloqot va professional faoliyatga tayyorlashning muhim strategik yo‘nalishidir. Shu bilan birga, ushbu jarayon pedagogik nazariyalarni amaliy faoliyatga tatbiq etish, metodologik yondashuvlarni takomillashtirish va talabalarning epistemologik tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi [4]. Kirish bo‘limi davomida maqolaning maqsadi va vazifalari quyidagicha belgilanishi mumkin: birinchidan, filologiya ta’limida interfaol metodlarni qo‘llash orqali tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslarini o‘rganish; ikkinchidan, metodologik vositalar va interfaol strategiyalarni tahlil qilish; uchinchidan, pedagogik jarayonning samaradorligini baholash va talabalarning akademik va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili. Filologiya ta’limida interfaol metodlar yordamida tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mavzusi doirasida, chet el tadqiqotchilarining ishlari bu masalaning nazariy hamda amaliy jihatlarini ochib beradi. Birinchi muhim manba — The Experience of Teaching Philology in the Context of New Educational Technologies: the Value Approaches to the Study of Literary Texts asaridir[5]. Muallif bu tadqiqotida filologik fanlarni o‘qitishda interaktiv shakl va metodlarni joriy etish orqali nafaqat adabiyotiy matnlarni tushunish, balki ularni talabalarning shaxsiy dunyoqarashi va madaniy

[1] Djurayeva L. R. Talabalarda pedagogik ko ‘nikmalarni takomillashtirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning amaliy asoslari //Inter education & global study. – 2025. – №. 4. – С. 475-482.
[2] Xamidovna P. O. Talabalarda nutq madaniyati rivojlantirishda tanqidiy fikrlash kompeensiyasining ahamiyati //Журнал научных исследований и их решений. – 2025. – Т. 4. – №. 02. – С. 546-549.
[3] Kubeysinova N. Talabalarining tanqidiy fikrlash ko’nikmasini shakllantirish //theory and analytical aspects of recent research. – 2024. – Т. 3. – №. 26. – С. 164-170.
[4] Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz: Surxon-nashr nashrmatbaa. – 2022.
[5] Yoldasheva R. Talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 19. – С. 133-136.

hissiyotlari kontekstida tahlil qilish imkoniyatini yaratishni ko‘rsatadi. Polekhina ta’kidlaydiki, interfaol o‘qitish jarayonida talaba “ma’lumot qabul qiluvchidan” “ijodkor-tahlilchi” holatiga o‘tadi: u matnni passiv iste’mol qilmay, balki u bilan muloqotda bo‘ladi, muammoli vaziyatlarni hal etadi, o‘z pozitsiyasini shakllantiradi va asarga nazariy-tahliliy yondashuv bilan yondashadi. Bu esa filologiyada tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi mustahkam ilmiy manba — Developing Critical Thinking through Reading Comprehension bo‘lib, unda mualliflar til va adabiyot darslari, xususan, o‘qish tushunishi (reading comprehension) jarayonida tanqidiy fikrlash (critical thinking — CT) ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali strategiyalarini taklif etadi[6]. Ularning tahliliga ko‘ra, o‘qituvchi tomonidan mo‘ljallangan diskussiya, argumentatsiya, muqobil talqinlar muhokamasi va reflektiv mashg‘ulotlar orqali talabalar matn mazmunini chuqurroq tahlil qiladi, ularni solishtiradi, baholaydi — natijada epistemologik mustaqillik va tanqidiy nuqtai nazar shakllanadi. Poulíková va hamkasblari shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qish tushunish jarayonini eng mos platforma deb baholaydi, chunki o‘qish nafaqat lingvistik kompetensiya, balki psixolingvistik va kognitiv jarayonlarni ham faollashtiradi. Ushbu ikki yondashuv — biri interaktiv pedagogik texnologiyalar orqali filologik ta’limni qayta shakllantirish, ikkinchisi esa til va matn tushunish jarayonida tanqidiy fikrlashni sistematik rivojlantirish — bir-birini to‘ldiradi va integratsiyalashgan model yaratishga imkon beradi. Xususan: Polekhina interfaol metodlar vositasida talabalarning ijodiy va tahliliy salohiyatini oshirishga urg‘u bersa[7], Poulíková va boshqalar o‘qish tushunish jarayonini tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun nazariy jihatdan ishonchli arena sifatida ko‘radi. Shu tariqa, filologiya ta’limida interfaol metodlar va matn-analiz strategiyalarini uyg‘un qo‘llash orqali tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini kompleks tarzda rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Natijada, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki — interfaol pedagogik yondashuvlar va matn asosida tanqidiy tahlil metodlari filologiya talabalarida epistemologik mustahkamlik, matnni chuqur anglash, muqobil nuqtai nazarlarni shakllantirish, hamda mustaqil tahlil va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda keng potentsialga ega.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda filologiya talabalari orasida tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlarni qo‘llashning samaradorligini aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv ishlatildi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida eksperimental va empirik usullar birlashtirildi: muammoli vaziyatlar orqali o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, guruh muhokamalari, rolli o‘yinlar va problemali topshiriqlar yordamida talabalarning tanqidiy fikrlash faoliyati kuzatildi. Shu bilan birga, pedagogik eksperiment metodikasi talabalarning o‘qituvchi ko‘rsatmalariga mustaqil javob berish qobiliyatini, matnlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish darajasini o‘rganishga imkon berdi. Metodologik yondashuv sifatida, sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari uyg‘unlashtirildi: interfaol metodlar qo‘llanilganda talabalarning tahliliy savollarga javob berish faolligi, guruh diskussiyalaridagi ishtiroki, argumentatsiya va refleksiya darajasi baholandi. Shu bilan birga, kuzatuv va intervyular yordamida talabalar o‘rtasidagi epistemologik va mantiqiy fikrlash jarayoni, shuningdek, ularning qaror qabul qilish strategiyalari aniqlangan. Tadqiqotda ishlatilgan metodlar talabalarning bilimlarni amaliy qo‘llash, muammolarni mustaqil tahlil qilish, fikrlarni mantiqiy izohlash va nazariy asoslash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu tarzda, metodologik yondashuv interfaol pedagogik jarayonning murakkab va dinamik tabiatini hisobga olib, talabalarning tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini sistematik va uzviy tarzda rivojlantirish imkonini yaratdi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalarida filologiya talabalari bilan interfaol metodlarni qo‘llash orqali tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish natijalari tizimli tarzda o‘rganildi va tahlil qilindi. Kuzatuv, intervyu va pedagogik eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, muammoli vaziyatlar, guruh diskussiyalari, rolli o‘yinlar va problemali topshiriqlar yordamida olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarning epistemologik mustaqilligi, mantiqiy tahlil qobiliyati va mustaqil xulosalar chiqarish darajasini sezilarli darajada oshirdi. Shuningdek, interfaol metodlar talabalarning ijodiy yondashuvini rag‘batlantirib, ularning matnlarni kontekstual va analitik tarzda tushunish salohiyatini kuchaytirdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interfaol pedagogik strategiyalar yordamida talabalar nafaqat adabiyotiy va lingvistik bilimlarni qabul qiladi, balki ularni mustaqil ravishda baholash, tahlil qilish va o‘z pozitsiyasini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik eksperiment davomida aniqlangan ma’lumotlar talabalarning tanqidiy fikrlash darajasi va qaror qabul qilish qobiliyatining dastlabki va yakuniy indikatorlari o‘rtasida sezilarli farq mavjudligini tasdiqladi, bu esa interfaol metodlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Muhokama. Filologiya ta’limida tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasida ilmiy jamoatchilikda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, bu boradagi muhokama Polekhina (2016) va Poulíková va hamkasblari (2024) ishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Polekhina o‘z tadqiqotida interfaol metodlarning markaziy o‘rni va ularning talabalarning ijodiy va tahliliy salohiyatini oshirishdagi rolini ta’kidlaydi. Muallifga ko‘ra, filologiya ta’limida talabalarning passiv o‘rganish jarayonidan faollikka o‘tishi, muammoli vaziyatlar orqali o‘z fikrini shakllantirishi va matnni kontekstual tahlil qilishi interfaol metodlarning samaradorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, Polekhina interfaol metodlarning ijtimoiy va guruh ichidagi o‘zaro ta’sirni rag‘batlantirishi, talabalarni o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga va konstruktiv diskussiyada ishtirok etishga undashini ta’kidlaydi. Biroq, Poulíková va hamkasblari (2024) tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda matn tushunish jarayonini eng mos strategik platforma sifatida ko‘radi[8]. Ularning fikricha, o‘qish tushunish orqali talaba nafaqat lingvistik va mantiqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, balki turli nuqtai nazarlarni solishtiradi, argumentatsiya va refleksiya jarayonlarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, mualliflar interfaol metodlarning samaradorligi faqat o‘quv muhitining strukturasi va o‘qituvchining nazariy ko‘nikmalariga bog‘liqligini ta’kidlaydi, ya’ni metodning amaliy samarasini oshirish uchun o‘qituvchi kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu ikki yondashuv o‘rtasida ilmiy polemika mavjud: Polekhina interfaol metodlarni talabaning faoliyatini markaziylashtirish va guruh ichidagi ijtimoiy o‘zaro ta’sirni rag‘batlantirish vositasi sifatida ko‘rsa[9], Poulíková va hamkasblari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni matn tushunish jarayoni orqali sistematik va metodologik jihatdan amalga oshiriladigan jarayon sifatida baholaydi. Shu munosabat bilan, ikki yondashuvni uyg‘unlashtirish filologiya ta’limida tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning eng samarali strategiyasini yaratishga imkon beradi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar va matn tahlili integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda talabalarda epistemologik mustaqillik, tahliliy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari bir vaqtning o‘zida rivojlanadi. Polekhina va Poulíková yondashuvlarining ilmiy muloqoti pedagogik innovatsiyalarni nazariy jihatdan mustahkamlash, talabalarning epistemologik va metodologik kompetensiyalarini rivojlantirish[10], shuningdek, tanqidiy fikrlashni akademik va amaliy faoliyatga tatbiq etish mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ilmiy polemika talabalarning individual va guruh ishlari orqali tanqidiy qaror qabul qilish jarayonidagi faolligini oshirish va pedagogik jarayonni optimallashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’limda filologiya talabalari orasida tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning qo‘llanilishi muhim va samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, muammoli vaziyatlar, guruh diskussiyalari, rolli o‘yinlar va problemali topshiriqlar talabalarning epistemologik mustaqilligini, mantiqiy tahlil qobiliyatini, matnlarni chuqur anglash va o‘z pozitsiyasini shakllantirish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Polekhina yondashuvi interfaol metodlarni talabaning ijodiy va tahliliy salohiyatini oshirish vositasi sifatida, Poulíková va hamkasblari esa tanqidiy fikrlashni matn tushunish jarayoni orqali sistematik rivojlantirish vositasi sifatida baholaydi. Ushbu yondashuvlarning uyg‘unlashtirilishi filologiya ta’limida tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini kompleks tarzda rivojlantirish imkonini

[6] Urazimbetov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o ‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 8.
[7] Jumayev S. O ‘quvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini aniqlashda PISA topshiriqlari asosida diagnostika metodikasi //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 8.
[8] Ahmadjonova D. O ‘zbekiston maktablarida ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: yuqori sinflarda eksperimental tadqiqot dizayni //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 8.
[9] Abrami P.C. et al. Critical Thinking Instruction: Systematic Review and Meta-Analysis of Pedagogical Interventions. – New York: Springer, 2020. – 410 p
[10] Brookhart S.M. Assessing Higher-Order Thinking in the Classroom. – London: Routledge, 2022. – 289 p.

yaratadi. Metodologik jihatdan tadqiqot eksperimental va empirik usullarni birlashtirib, talabalarning interfaol metodlar orqali o‘z fikrini shakllantirish va mustaqil qarorlar qabul qilish jarayonidagi faolligini aniqlashga imkon berdi. Natijalar interfaol metodlarning guruh va individual ishlarda epistemologik, metodologik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqladi. Shu tariqa, maqola xulosasi shuni ko‘rsatadiki, interfaol pedagogik strategiyalar filologiya ta’limida tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib, talabalarning akademik va professional faoliyatga tayyorgarligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonni optimallashtirish va zamonaviy filologik ta’limni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Djurayeva L. R. Talabalarda pedagogik ko ‘nikmalarni takomillashtirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning amaliy asoslari //Inter education & global study. – 2025. – №. 4. – С. 475-482.
2. Xamidovna P. O. Talabalarda nutq madaniyati rivojlantirishda tanqidiy fikrlash kompeensiyasining ahamiyati //Журнал научных исследований и их решений. – 2025. – Т. 4. – №. 02. – С. 546-549.
3. Kubeysinova N. Talabalarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish //theory and analytical aspects of recent research. – 2024. – Т. 3. – №. 26. – С. 164-170.
4. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz: Surxon-nashr nashrmatbaa. – 2022.
5. Yoldasheva R. Talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 19. – С. 133-136.
6. Urazimbetov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o ‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 8.
7. Jumayev S. O ‘quvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini aniqlashda PISA topshiriqlari asosida diagnostika metodikasi //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 8.
8. Ahmadjonova D. O ‘zbekiston maktablarida ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: yuqori sinflarda eksperimental tadqiqot dizayni //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 8.
9. Abrami P.C. et al. Critical Thinking Instruction: Systematic Review and Meta-Analysis of Pedagogical Interventions. – New York: Springer, 2020. – 410 p
10. Brookhart S.M. Assessing Higher-Order Thinking in the Classroom. – London: Routledge, 2022. – 289 p.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

SMART-TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURISTIK INFRATUZILMA BOSHQARUVI

Akromova Muxlisa Saydimuxtor qizi
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 36
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1322

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

smart-turizm, smart-infratuzilma, IoT, raqamli boshqaruv, aqlli transport, onlayn bronlash tizimi, turizm iqtisodiyoti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada smart-texnologiyalarni turistik infratuzilma boshqaruvi jarayonlariga joriy etishning nazariy asoslari, mexanizmlari va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Raqamli bronlash, IoT monitoring tizimlari, aqlli transport, raqamli marketing, virtual va qo‘shimcha reallik texnologiyalari kabi innovatsion yechimlarning turizm xizmatlari sifatiga, turistlar oqimi dinamikasiga va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’siri empirik ma’lumotlar asosida baholangan. Korrelyatsion–regression tahlil natijalari smart-infratuzilmani joriy etish turizm xizmatlari hajmini oshirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va turistlar tajribasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Maqolada smart-turizm modelini O‘zbekiston sharoitida joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari ham yoritilgan. O‘zbekiston sharoitidagi amaliy imkoniyatlari tahlil etiladi. Smart-turizm konsepsiyasining shakllanishida sun’iy intellekt, IoT, Big Data, GIS, mobil ilovalar, VR/AR kabi texnologiyalarning servis jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt monitoringini ta’minlash va turistlarga shaxsga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘rsatishdagi roli ochib beriladi. Adabiyotlar tahlili UNWTO, OECD, WTTC hamda Yevropa Ittifoqining Smart Tourism Initiatives tajribalariga tayangan holda smart-destinatsiyalarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini yoritadi.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida turizm sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, smart-texnologiyalarni joriy etgan davlatlarda turizm xizmatlari sifati, turistlar oqimi va iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshgan. Smart-turizm konsepsiyasining shakllanishi servis jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish, turistlarning ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlarni tezkor taqdim etish imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, turistik infratuzilmada sun’iy intellekt (AI), IoT (Internet of Things), Big Data, GIS texnologiyalari, mobil ilovalar, virtual (VR) va qo‘shimcha reallik (AR) texnologiyalarining qo‘llanilishi sohaning raqobatbardoshligini tubdan oshirmoqda.

Zamonaviy shaharlar va turistik hududlar smart-texnologiyalar asosida boshqariladigan infratuzilma tizimini talab qilmoqda. Smart-mehmonxonalar, raqamli navigatsiya tizimlari, aqlli transport xizmatlari, onlayn bronlash platformalari, elektron to‘lov tizimlari, raqamli marketing va xavfsizlik monitoringi kabi elementlar turistlar uchun qulay, xavfsiz va shaxsga yo‘naltirilgan xizmat muhiti yaratadi. Bunday infratuzilmaviy yondashuv nafaqat turistlar tajribasini yaxshilaydi, balki hududiy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ham tezlashtiradi.

O‘zbekiston turizm sohasida smart-texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha faol islohotlarni amalga oshirmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, turizmning raqamli xizmatlarini kengaytirish, “smart-shaharlar” va “smart-turizm zonalari”ni yaratish bo‘yicha dasturlar infratuzilmani yangilash, boshqaruv samaradorligini oshirish va turistik xizmatlarning xalqaro standartlarga moslashuvini tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning hududlar bo‘yicha notekis rivojlanishi, ma’lumotlar boshqaruvining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi, kadrlar raqamli kompetensiyalarining kamligi hamon muhim masalalar sifatida qolmoqda.

Smart-texnologiyalar asosida turistik infratuzilmani boshqarishning dolzarbligi shundaki, u real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash, turistlar oqimini boshqarish, xavfsizlikni ta’minlash, xizmatlarni individuallashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada, turizm industriyasi innovatsion, ekologik barqaror va iqtisodiy samarador tizimga aylanadi[1].

Ushbu maqolada smart-texnologiyalarning turistik infratuzilma boshqaruvida qo‘llanilishining nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari, xalqaro tajribasi hamda O‘zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot smart-turizm modelining afzalliklarini, raqamli boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorligini hamda turizm xizmatlari sifatiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Smart-turizm va turistik infratuzilmani raqamli boshqarish bo‘yicha olib borilgan xalqaro tadqiqotlar turizm industriyasining rivojlanishida raqamli transformatsiyaning strategik ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi[2]. UNWTO, OECD va WTTC kabi nufuzli tashkilotlar smart-texnologiyalarni turizm boshqaruvi va iqtisodiy barqarorlikning asosiy drayveri sifatida talqin etadi. UNWTO (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, IoT, Big Data, mobil texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida yuritiladigan “Smart Destination” (Aqlli manzil) konsepsiyasi turizmni boshqarishda eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Smart-turizm nazariy asoslari dastlab Gretzel, Sigala, Werthner va Yoo (2015) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular smart-turizmni servislarning raqamlashtirilishi, real vaqt rejimidagi boshqaruv, ma’lumotlar almashinuvi va turistlar tajribasini optimallashtirishga qaratilgan integratsiyalashgan tizim sifatida izohlaydi[3]. Ularning tadqiqotlarida smart-texnologiyalar turizm tizimining barcha segmentlarida – transport, mehmonxona xo‘jaligi, navigatsiya, xavfsizlik, marketing, to‘lov tizimlari va ekologik monitoringda – qo‘llanilishi tufayli turistik jarayonlar samaradorligi ortishi qayd etiladi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan *Smart Tourism Destinations Initiative* (2020) smart-turizm infratuzilmasining to‘rtta asosiy komponentini belgilaydi: raqamli kirish imkoniyati, barqaror boshqaruv, xizmatlar integratsiyasi va innovatsion tajriba. Bu yondashuv turistik shaharlar va hududlarda boshqaruv tizimini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda xizmat sifatini oshirishga qaratilgan.

Osiyo mamlakatlarining tajribasi ham smart-turizm rivojida muhim o‘rin tutadi. Xususan, Janubiy Koreyaning Smart Tourism City modeli (Seul, Pusan) IoT sensorlari, raqamli xaritalar, aqlli transport tizimlari, onlayn bronlash platformalari, 5G texnologiyalari va avtomatlashtirilgan gidlik tizimlari asosida tashkil etilgan. Henderson (2018), Kim & Park (2020) tadqiqotlarida smart-shahar va smart-turizm modellarining o‘zaro integratsiyasi xizmatlar sifatini sezilarli oshirishini ta’kidlaydi[4].

MDH olimlari tomonidan smart-texnologiyalarning turizmga tatbiqi bo‘yicha izlanishlar ham faol olib borilmoqda. Masalan, A. Aleksandrova, V. Kvartalnov, N. Mironenko va D. Umnyashova tadqiqotlarida raqamli marketing, geoinformatsion tizimlar (GIS), elektron sayohat rejalashtirish platformalari, turistlar oqimini monitoring qilish texnologiyalari va aqlli servis xizmatlarining ahamiyati yoritiladi. Ularning fikricha, smart-infratuzilma turizm klasterlarining

[1] Henderson J.C. Smart technologies and tourism innovation in Asian megacities. – Singapore: McGraw-Hill, 2018. – 274 p.
[2] Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: Foundations and developments. Electronic Markets. – 2015. – Vol. 25(3). – P. 179–188.
[3] European Commission. Smart Tourism Destinations Report. – Brussels: EC Publications, 2020. – 48 p.
[4] Kim H., Park J. Smart tourism city development: IoT-based urban innovation. Journal of Destination Marketing & Management. – 2020. – Vol. 18. – P. 100–112.

samaradorligini oshirib, turistlar uchun yuqori interaktiv muhit yaratadi.

Shuningdek, O‘zbekistonda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Turizm sohasida raqamli xizmatlarni rivojlantirish konsepsiyasi” va “Smart-shaharlar dasturi” kabi hujjatlar turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun mustahkam normativ asos yaratmoqda. Mazkur dasturlar real vaqt monitoringi, aqlli transport tizimlari, elektron ma’lumotlar bazalari, turistlar uchun interaktiv platformalar va xavfsizlik tizimlarini integratsiyalashni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, smart-texnologiyalar asosida turistik infratuzilma boshqaruvi raqamli ekotizimga asoslangan, servislarning integratsiyalashgan, avtomatlashtirilgan va turistga yo‘naltirilgan innovatsion modeldir. Ushbu yondashuv turizm xizmatlari samaradorligini, raqobatbardoshlikni va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot smart-texnologiyalar joriy etilayotgan sharoitda turistik infratuzilmaning samaradorligini aniqlash va iqtisodiy natijalarini baholashga qaratilgan bo‘lib, asosiy metod sifatida korrelyatsion–regression tahlil qo‘llanildi. Mazkur metod turizm infratuzilmasining raqamlashtirilgan bo‘g‘inlari (aqlli transport, onlayn bronlash tizimlari, smart-mehmonxonalar, raqamli marketing, IoT monitoring tizimlari) bilan hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar (turistlar soni, xizmatlar hajmi, investitsiyalar oqimi, bandlik darajasi) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun tanlandi [5]. Tadqiqotda O‘zbekistonning turizmga ixtisoslashgan 8 ta hududi bo‘yicha 2017–2024 yillar davomida shakllangan statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Smart-texnologiyalar darajasini ifodalovchi to‘rtta ko‘rsatkich (raqamli bronlash ulushi, smart-transport yo‘nalishlari soni, IoT sensor tizimlari joriy etilgan obyektlar soni, smart-marketing samaradorlik indeksi) tanlanib, ular bilan turizm iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik Pearson korrelyatsiya koeffitsienti orqali baholandi.Shundan so‘ng turizm infratuzilmasining raqamli darajasi (X1–X4) va iqtisodiy natijalar (Y – turizm xizmatlari hajmi) o‘rtasidagi ta’sirni aniqlash uchun ko‘p omilli regression modeli quyidagi ko‘rinishda tuzildi:

$$Y = a + b_1X_1 + b_2X_2 + b_3X_3 + b_4X_4 + \varepsilon$$

Bu yerda:

- **X_1** – Onlayn bronlash tizimlaridan foydalanish darajasi (%)
- **X_2** – Smart-transport yo‘nalishlari soni
- **X_3** – IoT asosidagi xavfsizlik va monitoring tizimlari joriy etilgan turistik obyektlar soni
- **X_4** – Raqamli marketing indeksining o‘zgarishi
- **Y** – Hudud bo‘yicha turizm xizmatlari umumiy hajmi (mlrd so‘m)
- **b_1–b_4** – omillar ta’sir koeffitsientlari

Model iqtisodiy statistik dastur (SPSS, Stata yoki EViews) yordamida tekshirildi, determinatsiya koeffitsienti (R^2), t-statistika, F-sinov, rezidual tahlil kabi parametrlar asosida modelning ishonchliligi baholandi.Mazkur metod smart-texnologiyalarni joriy etish darajasi qanchalik oshishi turizm infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash, omillar ta’siri kuchini miqdoriy shaklda baholash hamda prognozlash imkonini berdi.

Natijalar. 2017–2024 yillar bo‘yicha 8 ta turistik hududning statistik ma’lumotlari korrelyatsion-regression tahlil asosida o‘rganildi. Smart-texnologiyalar ko‘rsatkichlari (X_1–X_4) bilan turizm xizmatlari hajmi (Y) o‘rtasida quyidagi natijalar aniqlandi:

Korrelyatsion tahlil natijalari

- Onlayn bronlash tizimlaridan foydalanish (X_1) → Y bilan R = 0.78
- Smart-transport yo‘nalishlari soni (X_2) → Y bilan R = 0.72
- IoT asosidagi monitoring tizimlari joriy etilgan obyektlar soni (X_3) → Y bilan R = 0.81
- Raqamli marketing indeksi (X_4) → Y bilan R = 0.69

Eng kuchli bog‘liqlik X_3 (IoT infratuzilma) va Y o‘rtasida kuzatildi, bu esa aqlli sensorlar, xavfsizlik monitoringi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari turizm iqtisodiy samaradorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Regression model natijalari

Qiymatlar quyidagicha aniqlandi:

$$Y = 12.4 + 0.85X_1 + 0.63X_2 + 1.12X_3 + 0.54X_4$$

Asosiy ko‘rsatkichlar:

- **R^2 = 0.87** (model 87% holatni tushuntiradi — juda yuqori daraja)
- **F-stat = 15.82; p < 0.01** (model umumiy holda ahamiyatli)
- Omillar bo‘yicha t-test:
  - X_1: t = 4.21 (ahamiyatli)
  - X_2: t = 2.98 (ahamiyatli)
  - X_3: t = 5.87 (**eng kuchli ta’sir**)
  - X_4: t = 2.44 (ahamiyatli)

IoT infratuzilmasi (X_3) va onlayn bronlash (X_1) turizm iqtisodiy samaradorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Smart-transport (X_2) va raqamli marketing (X_4) esa o‘rtacha darajada ijobiy ta’sirga ega.

Tahlil natijalarining umumiy ko‘rinishi

1-jadval.

Smart-texnologiyalar omillari va turizm iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi regressiya natijalari

Omil	Ko‘rsatkich	Koeffitsient (b)	t-stat	Ahamiyatlilik
X_1 – Onlayn bronlash ulushi	%	**0.85**	4.21	p < 0.01
X_2 – Smart-transport yo‘nalishlari	dona	**0.63**	2.98	p < 0.05
X_3 – IoT monitoringi	obyekt	**1.12**	5.87	p < 0.01
X_4 – Raqamli marketing indeksi	bal	**0.54**	2.44	p < 0.05
Konstant a	—	**12.4**	—	—
Model R^2	—	**0.87**	—	—

Muhokama. Statistik tahlillar smart-texnologiyalar turistik infratuzilma samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Eng ta’sirchan omillar – IoT tizimlari va onlayn bronlashdir. Smart-transport va raqamli marketing ham turizm iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ammo ta’siri nisbatan pastroq. Modelning R^2 = 0.87 bo‘lishi smart-texnologiyalar turizm iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

[5] Umnyashova D.A. Tsifrovoy marketing v industrii turizma. – Moskva: RUDN, 2021. – 190 s.



Rasm 1. Smart-texnologiyalar darajasi va turizm xizmatlari hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Smart-texnologiyalarni turistik infratuzilma boshqaruviga joriy etish hozirgi kunda turizm industriyasining raqobatbardoshligini oshirishda eng muhim strategik yo‘nalishlardan biri ekanini tadqiqot natijalari yaqqol ko‘rsatdi. Raqamli bronlash platformalari, IoT asosidagi xavfsizlik tizimlari, aqlli transport xizmatlari, raqamli marketing va big data tahlilining turizm xizmatlari hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi iqtisodiy tahlillar orqali isbotlandi. Regression tahlil natijalariga ko‘ra, ayniqsa IoT infratuzilmasining joriy etilishi turizm xizmatlari hajmining o‘sishiga eng yuqori darajada hissa qo‘shadi, bu esa aqlli boshqaruv tizimlarining turistik jarayonlarni tezkor, xavfsiz va samarali tashkil etishda hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Smart-texnologiyalar asosida boshqariladigan infratuzilma turistlar uchun qulaylik, xavfsizlik, shaxsga yo‘naltirilgan xizmat hamda real vaqt rejimida axborot bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, turizm xizmatlari sifati oshadi, turistlar oqimi ko‘payadi va hududning investitsion jozibadorligi ortadi. Bunday raqamli ekotizim sharoitida turizm subyektlari o‘rtasidagi kooperatsiya kuchayadi, servislar integratsiyalashadi va qo‘shimcha qiymat yaratish zanjiri yanada barqarorlashadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston turizmida smart-infratuzilmani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan resurslar, innovatsion imkoniyatlar va normativ-huquqiy baza mavjud bo‘lsa-da, raqamli infratuzilmaning hududlar bo‘yicha notekis shakllanishi, kadrlar raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi va ma’lumotlar boshqaruvining markazlashtirilmaganligi kabi muammolarni bartaraf etish lozim. Shu jihatdan davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, raqamli texnologiyalar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, smart-shahar va smart-destinatsiya konsepsiyalarini amaliyotga joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Umuman olganda, smart-texnologiyalar asosida turistik infratuzilmani boshqarish nafaqat turizm sohasining innovatsion rivojlanishiga, balki hududiy iqtisodiy o‘sish, xizmatlar diversifikatsiyasi, bandlik oshishi va investitsion faollik kuchayishiga xizmat qiluvchi zamonaviy model sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari smart-texnologiyalar turizm boshqaruvining kelajakdagi asosiy paradigmasiga aylanishini, turistik infratuzilmaning raqamli transformatsiyasi esa iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada kuchaytirishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C.** Smart tourism: Foundations and developments. *Electronic Markets*. – 2015. – Vol. 25(3). – P. 179–188.
2. **UNWTO.** Artificial Intelligence for Tourism: Challenges and Opportunities. – Madrid: World Tourism Organization, 2023. – 62 p.
3. **OECD.** Digital Transformation in Tourism. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 215 p.
4. **World Travel & Tourism Council (WTTC).** Travel & Tourism Economic Impact Report 2023. – London: WTTC Publications, 2023. – 54 p.
5. **European Commission.** Smart Tourism Destinations Report. – Brussels: EC Publications, 2020. – 48 p.
6. **Kim H., Park J.** Smart tourism city development: IoT-based urban innovation. *Journal of Destination Marketing & Management*. – 2020. – Vol. 18. – P. 100–112.
7. **Henderson J.C.** Smart technologies and tourism innovation in Asian megacities. – Singapore: McGraw-Hill, 2018. – 274 p.
8. **Werthner H., Koo C.** Big Data in tourism: Management and applications. *Tourism Management*. – 2017. – Vol. 63. – P. 351–362.
9. **Aleksandrova A.Yu.** Tsifrovaya transformatsiya v turizme. – Moskva: KNORUS, 2022. – 238 s.
10. **Kvartalnov V.A.** Turizm: teoriya i praktika. – Moskva: Finansy i Statistika, 2014. – 512 s.
11. **Umnyashova D.A.** Tsifrovoy marketing v industrii turizma. – Moskva: RUDN, 2021. – 190 s.
12. **Mironenko N.S., Zorin I.V.** Geografiya turizma. – Moskva: Finansy i Statistika, 2015. – 412 s.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA SHAXS HAYOTINI FAROVONLASHTIRISHGA BO‘LGAN MUNOSABAT

Mavlonov Ilxomjon Xolmirzayevich
Qo‘qon universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) v.b dotsent
kokand_university1977@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0005-5802-0172
tel: +998999921844

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 37
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1323

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

xavfsizlik, millatlararo totuvlik, din, bag‘rikenglik, oila, fuqaro, huquq, adolat, erkinlik, ozodlik.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida shaxs hayotini farovonlashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy dasturlar kontekstida shaxs farovonligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada yangi iqtisodiy imkoniyatlar, ta’lim sohalaridagi islohotlar shaxslar hayotiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada aholi hayot sifatini oshirishda innovatsion va madaniy tadbirlar roli ham yoritilgan. Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirishdir. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida shaxs hayotini farovonlashtirishga bo‘lgan munosabat milliy yuksalish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli aholiga g‘amxo‘rlik qilish obyektiv ravishda kishilik borlig‘ining ma’nan va jisman mavjudligini saqlab qolish vositalariga bo‘lgan azaliy ehtiyojlarini birinchi zaruriyatiga aylantiradi.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning zaruriyati va istiqbollari bugungi kunda global o‘zgarishlar davrida uzluksiz ta’lim tizimi bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shu sababli taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatda ta’lim-tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, ayniqsa, istiqbolli ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida o‘qitish va ularning malakasini oshirish borasidagi ishlar bugungi kunning dolzarb masalasidir. Buning uchun, avvalombor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur bo‘ladi.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xalqimizdan berkitilgan o‘zini boy tarixiga ega bo‘lgan milliy ma’naviyatimizni tiklash, uni xalqimizning kelajagini o‘ylab, yurtimizning ravnaqi yo‘lida rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, shuningdek, bu borada oldimizda turgan vazifalar belgilab olindi.

Yangi O‘zbekiston – mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo‘lining yuqori bosqichidir.[1] Unda amalga oshirilayotgan rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlardan biri “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” qilib belgilangan. Globallashuv sharoitida jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda fuqarolarning daxldorlik hissini oshirish, har bir shaxsda “jaholatga qarshi – ma’rifat” bilan javob bera olish madaniyatini shakllantirish omillarini takomillashtirishda ma’naviyatning g‘oyaviy asoslarini o‘rganish va tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda milliy g‘oya va o‘zlikni anglashning o‘zaro aloqadorligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish, hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Mazkur maqolani yozishdan maqsad biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”[2]. Buning uchun esa milliy yuksalish jarayonida “Buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlash”[3] asosiy vazifa qilib belgilanmoqda.

Maqolani yozishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 29- oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 26- martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 3- maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022- yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa chop etilgan ma’lumotlardan foydalanildi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida shaxs hayotini farovonlashtirishga bo‘lgan yondashuvlarni tizimli tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy yondashuvlarning uyg‘unligi asosiy metodologik prinsip sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiyot, sotsiologiya va ijtimoiy siyosat bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Shu orqali shaxs farovonligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar, ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar tahlil qilindi. Nazariy manbalarni o‘rganish shaxs farovonligini oshirishdagi dolzarb yondashuvlar va strategiyalarni aniqlashga imkon berdi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil va kontekstual yondashuvlar qo‘llanildi. Bu yondashuvlar yordamida shaxs farovonligini oshirishda turli hududlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Bugun mamlakatimiz demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo‘lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Barcha

[1] Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси”. – Тошкент: “O‘zbekiston”нашриёти, 2021.-Б.26.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023- йил учун Мурожаатномаси// https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil uchun murojaatnomasi toliq matn

[3] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент. Ўзбекистон. 2018.– Б 20.

sohalardagi kabi ta'lim tizimini isloh qilish masalalari ham doimo Prezidentimizning e'tibori markazida bo'lib kelmoqda. Tezkor zamon talabidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yangicha fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilishini kechiktirib bo'lmas vazifa etib belgiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tdilar: "Bugun kelgusi yil uchun reja va dasturlarimizni aniq belgilab olar ekanmiz, mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, eng muhim va ustuvor sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz, albatta Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining "Tiriklik hikmatini sog'liqda, deb bilgin", degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar to'g'ri ekanini hayotning o'zi bugun qayta-qayta isbotlamoqda. Shu bois, mavjud imkoniyat va salohiyatimiz, pandemiya davrida orttirgan tajribamiz hamda xorijdagi ilg'or yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Bunda, aholi ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining mahalliy hokimliklardan haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, ulardagi siyosiy partiyalar guruhlari rolini yanada kuchaytirish va vakolatlarini kengaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat beriladi. Aholimiz, fuqarolarning siyosiy-huquqiy saviyasini oshirib borish bilan hokimlarni to'g'ridan-to'g'ri saylash tizimiga o'tiladi. Hokimlarning tegishli vakillik hokimiyatini boshqarish vakolati bekor qilinadi. Shu munosabat bilan "Xalq deputatlari Kengashlari to'g'risida" va "Hokimning maqomi to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish zarur. Asosiy maqsadimiz – O'zbekistonning dunyodagi davlat boshqaruvi sifati yuqori bo'lgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilgan 30 ta davlati qatoriga kirishini ta'minlashdan iborat. Yangi O'zbekiston strategiyasi ijro etuvchi hokimiyatni tom ma'noda xalqqa xizmat qiluvchi organga aylantirishni nazarda tutadi.[4] Demak, barpo etayotgan jamiyatda nafaqat aholi huquqiy bilimlarining oshishi, uning ongi yuksalishiga, balki hokimiyatning barcha mustaqil tarmoqlari, nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy institutlari faoliyat samaradorligi ortishiga ham jiddiy e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy taraqqiyotga intilayotgan, siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish yo'lidan borayotgan har qanday jamiyat huquqiy madaniyati yuksak, ozod va erkin shaxsni tarbiyalashga intiladi. Zero, shundagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson huquqlarini ta'minlab, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash tamoyili jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanadi. Chunki demokratiyaning ijodkori, amalga oshiruvchisi, rivojlantiruvchisi shaxsdir. Demokratiya - faqat xalq hokimiyati bo'lib qolmay, u har bir inson, har bir jamoa va butun xalqning o'z mamlakati kelajagi, o'z taqdiri oldidagi mas'uliyati hamdir. Demokratiya va siyosiy hayotni erkinlashtirish zaruratini, ya'ni turli guruhlarning siyosiy o'zboshimchaligidan, hokimiyat idoralariga noo'rin talablar qo'yishidan, tazyiq o'tkazishidan farq qilishi lozim.

Muhokama. So'nggi paytlarda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari, demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratilmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashish bilan birga, davlat va jamiyat boshqaruvida munosib ishtirok etmoqda. Umuman olganda, milliy tiklanish konsepsiyaning zaruratida taklif etilgan davlat hokimiyatini tashkil etish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh etish mustaqillikka erishilgan kundan boshlab O'zbekistonda amalga oshirib kelinayotgan demokratik o'zgarishlarning va milliy davlatni barpo etish negizidagi juda muhim, bazaviy prinsip - bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanish prinsipining mantiqiy davomi bo'lib, mazkur prinsip taraqqiyotning yangi bosqichida islohotlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olishga qaratilgan.

Davlatchilik rivoji va uning taraqqiyot mezonlari millatning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi. Zero, faqat o'zligini anglagan, mushtarak maqsadlarda yakdil, muddaolari uyg'un, or-nomuslari ustun, yagona maslakdagi madaniyatga ega xalqlarning rivojlanish tarixi barqaror va istiqbolli bo'lishi kishilik jamiyati tajribalarida o'zining isbotini topgan. Bugungi kunda mamlakatning strategik siyosati milliy davlatchiligimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-madaniy merosini yangicha tafakkur asosida anglash va uni bevosita jamiyat boshqaruviga tadbiq qilish bilan jahon hamjamiyati integratsiyasiga kirishish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish va bu sohada islohotlar samarasini yanada oshirish bo'yicha ba'zi tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ham rad qilib bo'lmaydi, albatta. Avvalo, makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, inflyatsiyani pasaytirish va barqaror narxlarni ta'minlash, byudjet taqchilligini maqbullashtirish, to'lov va joriy balanslari maqbulligini ta'minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.[5] Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Strategik tafakkurga ega, uzoqni ko'ruvchi siyosatchilar, tom ma'nodagi xalqning haqiqiy xizmatkorlari jamiyatda sodir bo'ladigan muommolarni oldindan ilg'ab, ularning samarali va istiqbolli yechimlarini topa bilganlar. Ayniqsa, millat uchun murakkab va mas'uliyatli sharoitlarda jamiyat rivojini belgilab berishga qodir shaxslarning vujudga kelishi ham davrning taqozosi bilan bog'lanadi.

Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aniq va to'g'ri mo'ljalli strategiya jamiyat orzularini real hayotiy natijalarga aylantirish mumkin ekanligini isbotladi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi. Davlat rahbari va hukumat tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g'oyaga aylanmoqda. Shu ma'noda, xalqlar va milliy davlatchilik tarixining murakkab evrilishlar asosida kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini o'rganish bugungi kun istiqbol maqsadlarimizni oydinlashtirish, asoslash, yangi marralar va vazifalarni belgilash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Milliy yuksalish va rivojlanish – bu bir sifatdan ikkinchi bir sifatga yoki bir holatdan boshqa bir holatga o'tishda tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar hamda harakatlar turi. Falsafaning hukmron tasavvurlariga ko'ra materiya va ongning yaxlit holatda rivojlanishi spiralsimon cheksizdir. Zero, uning orqaga qaytishi va turg'unligi e'tirof etilsada, uning tamoyillari oddiylikdan murakkab shakllar tomon o'sib boradi. Ya'ni u rivojlanish ob'ektning o'zida mavjud bo'lgan harakatlarga asoslanadi.[6] Biz buni jamiyat rivojiga daxldor bo'lgan "innovatsiya"lar, "konsepsiya"lar kabilar bilan ifodalaymiz.

Bundan tashqari, har qanday rivojlanish jarayoni ijtimoiy o'zgarishdan boshlanadi. O'zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, siyosiy sohalar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni har bir sohaning miqdoriy, mazmunli, strukturaviy holatining almashinuvi natijasida sifat ko'rsatkichlar vujudga keladi. Lekin har qanday o'zgarishlar rivojlanishni ta'minlamaydi. O'zgarishlar ijtimoiy-ommaviy yaxlitlikda rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, rivojlanish jamiyat tizimining murakkablashib, takomillashuvi jarayonida tashqi sharoitlarga samarali moslashuvchanligida, voqelik ko'lamining kengayishida, biron bir sohadagi son o'sishida va uni amalda ta'minlashning strukturaviy qurilmalarning vujudga kelishida namoyon bo'ladi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Shuning uchun tabiiy rivojlanish jarayonlarini bosib o'tish barcha xalqlarga xos, ammo o'tish yo'llarini tanlash, amalga oshirish va ta'minlash jamiyatning milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Ya'ni bu maqsadlar davlatning strategik yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi.

Jamiyatni yangilash va inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish borasida olib borilayotgan islohotlar natijadorligini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lgan milliy g'oya va mafkuraviy-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishga qo'yilayotgan talablar isbotlab turibdi.[85] Shu bois, milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari konsepsiyasining hayotimizga to'laqonli joriy etilayotgani mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishning ham dolzarbligini ko'rsatmoqda. Milliy yuksalishning strategik maqsadlari jamiyatning asosiy tamoyillari va ilmiy kategoriyalari har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari asosida takomillashtiriladi hamda muvofiqlashtiriladi.

[4] Мирзиёев Ш.М." Янги Ўзбекистон стратегияси". – Тошкент: "O'zbekiston"нашриёти, 2021.-Б.100

[5] Мирзиёев Ш.М." Янги Ўзбекистон стратегияси". – Тошкент: "O'zbekiston"нашриёти, 2021.-Б.130-132

[6] "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси". Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.2016. –Б 187.

Ammo har qanday strategiya – strategiyalash ob'ektidan qat'i nazar, umumiy tabiatga ega degan nazariyaga asoslansak, strategiyaning yaxlit tizimi milliy, mintaqaviy, sohaviy va korporativ strategiyalarni integratsiyalashuv jarayonlaridan hosil bo'lib boradi.[85]

Har bir davr o'ziga xos siyosiy vaziyati bilan ijtimoiy hayot rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Shu davrning taraqqiyoti o'z navbatida yangi ta'limot va yondashuv tamoyillarini yuzaga keltiradi. Ushbu vaziyatni anglash, shunga mos yo'l-yo'riq tanlash strategik tamoyillarning talablaridan hisoblanadi. Yuksalishning o'z qonuniyatlari mavjud bo'lgani kabi, favqulodda ijtimoiy o'zgarishlar ham rivojlanishning mohiyatiga zid keladi. Boshqacha qilib aytganda, inqilobiy ta'sirni jamiyatning o'zi inkor qiladi. Tadrijiy ta'limot ijtimoiy qonuniyatlarning jamiyat imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgani, uyg'un siyosiy islohotlar belgilangani bilan samarali natijalar beradi. Iqtisodiy islohotlarning bozor munosabatlariga yo'naltirilishi, infratuzilmalarning joriy etilishi, ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish bilan jamiyatda inson manfaatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya kabi demokratik qadriyatlar ta'minlanadi. Shu tariqa yangi jamiyat asoslariga daxldor ijtimoiy omillar biri ikkinchisini to'ldirishga xizmat qiladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta'limotlarga to'liq mos keladi. Ular respublikamizning bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davrida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda namoyon bo'ladi. Strategik taraqqiyotga asoslangan keng ko'lamli islohotlar davri bilan bevosita aloqador bo'lib, mamlakatda demokratiyaning zamonaviy prinsiplarini ishlab chiqish, xalqchilligini ta'minlashga qaratilgan mamlakatni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan. Harakatlar strategiyasida ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlar doirasida bosqichma-bosqich maqsadli, manzilli ishlar amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Bugun O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'lida yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizda fuqarolarga o'z iqtidorini ko'rsata olish va orzularini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan tizim shakllandi. Amaliyotga tadbiq etilgan qonun ustuvorligi tamoyili fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik xususiyatlarini jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotining kompleks dasturini ilgari surdi. Bu hujjat "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" deb nomlandi. Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aniq va to'g'ri mo'ljalli - strategiya jamiyat orzularini real hayotiy natijalarga aylantirish mumkin bo'lgani kabi ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasiga ham mamlakatni har tomonlama rivojlantirishga oid istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi konseptual g'oyalar asos bo'ldi.[85] Mazkur "Harakatlar strategiyasi"da davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish bo'yicha 5 ta ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Davlat va jamiyat rivojlanishining harakatlar strategiyasi va milliy yuksalishni umummilliy harakatga aylantirish zaruratidan kelib chiqqan holdagi hamohangligi muhim ahamiyatga ega.

Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishni umummilliy harakatga aylantirish zarurati yana shu bilan belgilanadiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta'limotlarga to'liq mos keladi. Ayni paytda bu muhim strategiya davlatimiz va jamiyatimizni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab bermoqda. Asosiy qomusimiz negizida yaratilgan "Harakatlar strategiyasi" bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o'rin egallamoqda deb, ulkan o'zgarishlarga dahldor yangi g'oyalarni ilgari suradi.[85] Harakatlar strategiyasining yetaklovchi lakomotiv kuchi – bu davlat va uning organlari faoliyati maqsadi. Islohotlarning garovi va kafolati esa layoqatli hokimiyatning faoliyati bilan bog'liq hodisa hisoblanadi.

"Iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularni maqsadli tarbiyalash borasidagi ishlarni kuchaytirish kerak. Ilmni, tarbiyani to'g'ri qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o'zlari rivojlantiradi", - degan edi Shavkat Mirziyoyev. Uning fikricha: "Iqtisodiy strategiyamizning muhim bandi 2030-yilga qadar munosib haq to'lanadigan 10 millionta yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni bartaraf etish, ishsizlik darajasini 2030-yilda 5,2 foizga, inflyatsiyani esa 15,2 foizdan 4,3 foizga pasaytirishga erishamiz. Kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak. Shu maqsadda mahallalarda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlariga, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga subsidiyalar beriladi".[7]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, siyosiy taraqqiyot hodisasining mohiyati, asoslari, formalarini o'rganish, tadqiq qilish masalasi insoniyat tarixida doimo muhim o'rinni egallab kelgan. Bugungi kunda ham mazkur fenomen jamiyat hayotini yaxshilash, barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash, odamlarning erkin va farovon kun kechirishga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarish omili va insoniyatning umr kechirishi uchun yanada samaraliroq tizimlarni yaratishning yo'li sifatida ahamiyatini saqlab turibdi. Shu bois ham siyosiy taraqqiyotga sabab bo'luvchi asoslar, omillar haqidagi nazariy qarashlar ham shu paytga qadar evolyutsion tarzda rivojlanib kelmoqda. Ijtimoiy fanlarda siyosiy taraqqiyotning turlari haqida fikr yuritilganda dastavval uni ikki katta turga ajratib ko'rsatish ustuvorlik qiladi. Bu o'rinda gap taraqqiyotning evolyutsion va inqilobiy usullari haqida bormoqda. Siyosiy taraqqiyotning evolyutsion turi o'z ichiga siyosiy taraqqiyotning bir qancha shakllarini qamrab oladi va ijobiy mohiyatga egadir. Taraqqiyotning inqilobiy turi ko'p hollarda salbiy oqibatlarga olib kelishi hamda u tufayli jamiyatda kuchli siyosiy inqirozlar, regress holatlari ro'y berishini tajribalar isbotlagan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida jahonning ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda, ayni paytda, jamiyatimizning milliy negizlariga tayanib siyosiy taraqqiyotning evolyutsion yo'li tanlab olindi va bunday siyosiy taraqqiyot zaminini zamonaviy demokratiya g'oyalari tashkil etdi. Natijada mazkur g'oya asosida milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishni umummilliy harakatga aylantirish zarurati O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning o'ziga xos ilmiy va amaliy asoslari shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, birinchidan, milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishni umummilliy harakatga aylantirish zarurati harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni hayotga tadbiq etishdan iborat. Bu borada ilgari surilgan vazifalar va ularning bajarilish yo'llari, usullari, vositalari juda puxta, izchil, aniq va ilmiy-amaliy jihatdan ravshan tarzda bayon etilishi lozim. Natijada milliy yuksalish dunyo jamoatchilik tomonidan tan olinadi.

Ikkinchidan, milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishni umummilliy harakatga aylantirish zarurati yana shu bilan belgilanadiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta'limotlarga to'liq mos keladi. Bu esa muhim strategik maqsadlarni jamiyat rivojlanishining mutlaqo yangi bosqichini boshlab beradi.

Uchinchidan. davlat va jamiyat yuksalishi uchun asos bo'lgan milliy yuksalish g'oyasi bugungi Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovatsion rivojlanish sari dadil qadamlarni tashlashda beqiyos o'ringa ega. Milliy taraqqiyot strategiyasining yetaklovchi lakomotiv kuchi - bu davlat va uning organlari faoliyati maqsadi hisoblanadi. Strategik milliy yuksalish islohotlarning garovi va kafolati jamiyat yuksalishi hodisasi hisoblanib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М."Янги Ўзбекистон стратегияси". – Тошкент: "O'zbekiston"нашриёти, 2021.

2. Мирзиёев Ш.М."Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сар"и. Тошкент. Ўзбекистон. 2020.

[7] Мирзиёев Ш.М." Янги Ўзбекистон стратегияси". – Тошкент: "O'zbekiston"нашриёти, 2021.-Б.145

3. Нерсесянц В.С».Философия права». Москва.Норма-Инфра,1999.
4. Ғарб фалсафаси».Тошкент. Шарқ,2004.
5. Маматов Х.Т. “Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари”. Тошкент. 2009.
6. Мирзиёев Ш.М.” Янги Ўзбекистон стратегияси”. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021
7. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.2016.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

FILOLOG TALABALAR TERMINOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK JIHATLARI

Hojiyeva Minovvarxon Akramovna
Qo‘qon davlat universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)
+99891204 95 57
munavvar_qdpi@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 38
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1324

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, lingvistik koppetentlik, terminologik kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’lim.

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi oliy ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri – kasbiy hamda terminologik kompetentlikka ega mutaxassisni shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Bo‘lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashda terminologik kompetentlikning o‘rni va ahamiyati, unda kompetensiya, uning mazmun-mohiyati, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik jarayonda kasbiy kompetentlikning o‘rni, terminologik kompetentlik kabi terminlarining qo‘llanishi xususida batafsil ma’lumot berilgan. Lingvistik kompetensiya tilning asosiy va oraliq sathlari, birliklariga doir yetarli darajada bilimga ega bo‘lish hamda nutq faoliyat turlariga xos malakalar, talabalarda to‘g‘ri talaffuz va imlo savodxonligini egallash, so‘zning ma’no qirralarini anglash, nutqda o‘rinli, to‘g‘ri qo‘llash, kasbiy faoliyatiga oid adabiyotlarni o‘qib tushunish, fikrini og‘zaki va yozma ifodalash orqali nutqiy ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishga imkon yaratishi to‘g‘risidagi chet el hamda mahalliy olimlarning, tadqiqotchilarning fikrlari tahlil qilingan. Lingvistik kompetensiyaning yadrosini terminologik kompetensiya tashkil etishi, ayniqsa, bo‘lajak filolog mutaxassislarda kasbiy kompetensiyaning asosi bo‘lgan terminologik kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirish masalasiga alohida e’ribor qaratilgan.

Kirish. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini jiddiy isloh qilish, ta’lim sifati va samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqish, bo‘lajak mutaxassislarni, jumladan, filolog mutaxassislarni kasbiy kompetensiyasi, uning tarkibini tashkil etuvchi lingvistik hamda terminologik kompetensiyani yuqori bosqichga ko‘tarish, filolog talabalarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning zamonaviy usullarini joriy qilish asosiy vazifa hisoblanadi. Bugungi ta’lim siyosatining mazmun-mohiyati ham “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topish” [1] lariga, “o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitishning yangi, zamonaviy metodikasini yaratish orqali til ta’limi samaradorligini oshirishga” [2] qaratilgan, jumladan, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari oldiga o‘z sohasini sevadigan, qadrlaydigan, bilim, malaka va ko‘nikmalari hamda kasbiy layoqati yetuk kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Filolog mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasining asosi, mag‘zi lingvistik kompetensiya hisoblanadi. Shu boisdan filolog-talabalar lingvistik kompetentlikka ega bo‘lmasdan yetuk mutaxassis bo‘la olmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. *Lingvistik kompetensiya* tilning asosiy va oraliq sathlari va birliklariga doir yetarli darajada bilimga ega bo‘lish va nutq faoliyat turlariga xos malakalar (*tinglab-tushunish, gapirish, o‘qish va yozish*)ni puxta egallashni nazarda tutadi[3].

N.Uluqov lingvistik kompetensiyaga: “... soddaroq qilib, mutaxassis til bilimining mukammalligi va yetukligi”[4] deya ta’rif beradi va lingvistik kompetentlik bir necha xil ko‘rinishda yuzaga chiqishini qayd etadi:

1) o‘z fikrini ona tilida ravon, tushunarli, aniq va lo‘nda ifodalay olish;
2) adabiy tilda so‘zlash;
3) imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarsiz yoza olish;
4) davlat tilida ish hujjatlarini yurita olish;
5) xorijiy tillarni bilish[5].

Lingvistik kompetensiya – talabalarning ona tilida o‘z fikrini to‘g‘ri, hamma uchun tushunarli, aniq bayon etishi, o‘zbek adabiy tili nutq me’yorlariga amal qilgan holda so‘zlash, imloviy savodxonlikka ega bo‘lish, mutaxassisligiga oid terminlarni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay olish hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya – talabalarda tilshunoslikka, ya’ni fonetika, leksikologiya, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga doir bilimlarni rivojlantirish hamda takomillashtirishdan iborat. Demak, tilning asosiy va oraliq sathlari: fonetika, leksika, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, uslubiyat bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi lingvistik kompetensiyaning asosini tashkil etadi.

Lingvistik kompetensiyaning shakllantirish talabalarda to‘g‘ri talaffuz va imlo savodxonligini egallash, so‘zning ma’no qirralarini anglash va nutqda o‘rinli hamda to‘g‘ri qo‘llash, kasbiy faoliyatiga oid adabiyotlarni o‘qib tushunish, fikrini og‘zaki va yozma ifodalash orqali nutqiy ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

A.Nurmonov va G.Ziyodullayevalar lingvistik kompetensiya o‘quvchilarning orfografik, punktuatsion qoidalardan vaziyatlarda o‘rinli foydalana olish malakasi va ko‘nikmasini o‘z ichiga olishini qayd etganlar: “... lingvistik kompetensiya deganda til sistemasi haqidagi bilimlarga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilim va ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llash tajribasiga ega bo‘lgan o‘quvchining integral shaxsiy xislatlari tushuniladi. Boshqacha aytganda, lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalanishi haqida o‘quvchilarning bilim, malakasi va ko‘nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda foydalanish mahorati anglashiladi”[6]. Bu, talqinlar albatta, talabalarning lingvistik kompetensiyasiga ham xosdir.

Natijalar. Lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi, eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o‘rtasida munosabatdan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o‘zbek tilining funksiyasi, ona tili fanining bo‘limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma’no va vazifalari, so‘z turkumlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, gap bo‘laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko‘ra turlari, ularning uslubiy belgilari, imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi. Atrof muhitni anglash, bo‘layotgan voqea-hodisalarni sergaklik bilan kuzatib, ulardan kerakli xulosalarni chiqarish, har bir hodisaga ijodiy yondashgan holda, o‘zining

[1] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.146.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020-yil, 20-oktabr.
[3] Чет тил эгаллашнинг умумевропа компетенциялари: ўрганиш, ўкитиш, баҳолаш. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Республика таълим маркази, 2020. – Б.9.
[4] Улуқов Н. Линвистик компетентликни шакллантириш омиллари // Тил ва адабиёт таълими, 2018. – №6. – Б. 16.
[5] Улуқов Н. Ўша мақола, 16-б.
[6] Нурмонов А., Зиёдуллаева Г. Ўқувчиларнинг тил компетентлигини шакллантириш ва ривожлантириш муаммолари// Маърифат, 2014, 18 июль. – Б. 9.

mustaqil fikrini emin-erkin ayta olish lingvistik kompetensiyaning mazmun-mundarijasini belgilaydi[7].

Har bir talaba, qaysi sohani egallamasin, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishi uchun, albatta, o‘z ona tilini mukammal o‘rganmog‘i, ona tilining qonun-qoidalarini puxta o‘zlashtirmog‘i va amaliyotda qo‘llamog‘i zarur bo‘ladi.

Lingvistik kompetentlikning alohida jihati shundaki, fikrni og‘zaki va yozma shaklda yetarli darajada ifodalash uchun o‘z ona tilining fonetikasi va orfoepiyasi (tovush tizimi, urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash), leksikasi (so‘zlarni sinonimi, antonimi, omonimi bilan o‘rganish, so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini, frazeologizmlarini anglash), so‘zning tarkibi (asos va qo‘shimchalarni farqlash, har bir turkumga xos grammatik shakllarni va ularning vazifalarini), sintaksisi (fikrni tasdiq yoki inkor qilish shakllari, ifoda maqsadiga ko‘ra darak, so‘roq, buyruq gaplar)ni o‘rganmasdan turib, ya’ni lingvistik kompetensiyasisiz tilni egallash aslo mumkin emas. Chet tillarni o‘rganish uchun ham, avvalo, o‘z ona tilini puxta o‘zlashtirish talab qilinadi.

Bo‘lajak o‘qituvchi mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi, sohasiga oid terminlarni mukammal egallashi zarur. Shu bois ham lingvistik kompetensiyaning yadrosini terminologik kompetensiya tashkil etadi. Ayniqsa, bo‘lajak filolog mutaxassislarda kasbiy kompetensiyaning asosi bo‘lgan terminologik kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Filologik, lingvistik kompetentlikning uzviy qismi sifatida terminologik kompetentlikka ega bo‘lgan talaba kelajakda o‘z o‘rniga ega, bilimli mutaxassis bo‘lib yetishadi.

Terminologik kompetentlik – bo‘lajak mutaxassisning o‘rganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash, mutaxassislikka oid terminlarning ma’no-mohiyatini, muqobillari, variantlari, sinonimlari hamda tarixiy-etimologik manbalarini mukammal bilish, ularni tushunish, o‘z o‘rnida to‘g‘ri, aniq, o‘rinli qo‘llay bilish ko‘nikma hamda malakalariga ega bo‘lishi.

Mutaxassisning terminologik kompetentligi tushunchasi, uning nazariy-amaliy masalalari bo‘yicha rus olimlarining izlanishlarida ham yoritilgan.

Terminologik kompetentlikni bir qator rus olimlari axborot kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar, chunki terminlarni bilish va ularni yetkazish aloqa vositasi sanaladi, deb qaraydilar (O.G.Griban[8], O.M.Tolstix[9])

S.X.Visheguro[10], L.B.Tkacheva[11]lar “Terminologik kompetentlik kasbiy faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lib, fanga oid terminlarni ishlab chiqish, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashning zaruriy shartidir” deydi.

K.A.Rokityanskaya, E.Y.Mizyurova[12]: “Terminologik kompetensiya – mutaxassisning terminlarni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati. Kasbiy muloqot jarayoni, kasbiy muammolarni hal qilinishi hamda zamonaviy mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining eng muhim komponenti bu terminlarni bilish jarayonidir” – deb ta’kidlaydi.

Muhokama. Demak, terminologik kompetentlik mutaxassisning sohaga oid terminlarni to‘laqonli bilishi va ularni tushunishi, aniq terminologik bilim, ko‘nikma malakalariga ega bo‘lishi, terminlardan og‘zaki va yozma nutqda hamda faoliyatda qo‘llay olishlik, bilimlarga, terminologik kompetentlikka ega bo‘lgan yuqori darajadagi kasbiy mahorat tushuniladi.

Yosh mutaxassislarning raqobatbardosh, yetuk kadr bo‘lib yetishishida sohaga oid terminlarning ma’no-mohiyatini tushunishi, anglashi, ularni o‘z o‘rnida qo‘llashi, terminlarning atama, istiloh va so‘zlardan farqlay olishi muhim hisoblanadi.

Terminologik kompetentlik bo‘lajak pedagoglar kasbiy kompetentligining uzviy qismi sanaladi. Shu jihatdan bu kompetensiyani shakllantirishga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq.

Terminologik kompetensiyasiz mutaxassislik fanlarini egallash mumkin emas. Agar talaba o‘rganilayotgan til tizimi haqida tasavvurga ega bo‘lsa, sohaga oid terminlarning ma’nosini, qo‘llanishini puxta bilsa va amalda undan foydalana olsa, terminologik kompetensiyaga ega desa bo‘ladi.

Talabaning terminologik kompetentligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. Termin va terminologiya sohalari haqida mukammal bilimga ega bo‘lishi lozim.
2. Mutaxassisligiga doir terminlarning ma’nosi va izohini bilishi shart.
3. Terminlarning tarixiy-etimologik manbalarini bilishi kerak.
4. Terminlarning variantlari va o‘zbekcha muqobillarini ham bilishi joiz.
5. Terminlarni ma’noviy jihatdan izohlash, dalil va misollar bilan dalillash, asoslash qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.
6. Terminologik lug‘atlardan foydalana olish malakasi va ko‘nikmasiga ega bo‘lmog‘i shart.
7. Kasbiy faoliyatda terminlardan faol foydalana olishi ham kerak.
8. Sohaviy terminlar yuzasidan bilim berish borasida ham metodik tajribani egalashi lozim.

Terminologik kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirishda davlat ta’lim standarti, o‘quv reja, namunaviy fan dasturi kabi o‘quv me’yoriy hujjatlarda belgilangan talab va vazifalarni alohida o‘rni bor.

Universitetlarning 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bosqichi talabalarining kasbiy faoliyatiga qo‘yilgan quyidagi malaka talablarida terminologik kompetensiyaga yo‘naltirilgan jihatlar ham yorqin ko‘rinadi:

– o‘zbek tili va tarixi, ta’limoti va nazariyalari, yirik namoyandalari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohalardagi turli maktablari, olimlarning konsepsiya va turli yondashuvlarini bilish;

– o‘zbek tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, qadimgi turkiy til, o‘zbek tili tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi va jahon adabiyotiga oid bilimlarni egallash, til fanlari, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg‘ay olish, ilmiy faoliyatda qo‘llay bilish va o‘quvchilarga yetkaza olish[13];

Shuningdek, bu fan dasturlarida ham kuzatiladi. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabalariga “Tilshunoslikka kirish” fanini o‘qitish uchun 30 soat ma’ruza, 44 soat seminar, 76 soat mustaqil ta’lim soatlari ajratilgan.

Kursni tugatgan talabalar: tilning ijtimoiy tabiati, til va jamiyat munosabati, til va tafakkur munosabati, lison va nutq munosabati, asosiy lisoniy munosabatlar, til birliklari va nutq birliklarining o‘zaro mutanosibligi, tilning semiotik tabiati, tilning belgilar tizimi sifatidagi ta’rifi, til sathlari, lisoniy paradigma asoslari, lisoniy tasnif asoslari, tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi, dunyo tillari va tillar tasnifi, tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligi, tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan bog‘liqligi, qadimgi asrlar tilshunosligi, o‘rta asrlar tilshunosligi, Yevropa uyg‘onish davri tilshunosligi haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

– tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar kesimida paydo bo‘lgan yangi chegaradosh fanlarni, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nazariyalari va metodlarini, sotsiolingvistik nazariyalar va metodlarini, struktur tilshunoslik nazariyalari va metodlarini bilish hamda ulardan foydalanish;

– tillarning tipologik tasnifini faktik material asosida yoritish, til tiplari, til tiplarining asosiy belgilarini farqlash, morfologik tasnifni agglutinativ va flektiv tillar misolida tahlil qilish, morfologik shakllarning xilma-xilligi, tillarning morfologik tipologiyasini tahlil qilish, geneologik

[7] Собиров А. Узлуксиз таълимда тил компетенцияси // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2016. – Б.87.

[8] Грибан О.Н. Сущность и структура информационной компетентности студентов педагогического вуза // Понятийный аппарат педагогики и образования: сб. науч. тр. / отв. ред. Е. В. Ткаченко, М. А. Галагузова. Вып. 7. – Екатеринбург: СВ- 96, 2012. – С. 336-344.

[9] Толстых О.М. Развитие профессионального уровня информационной компетентности будущего учителя иностранного языка в процессе подготовки в области информатики и ИКТ: дис. … канд. пед. наук: 13.00.02. – Омск, 2006. – 181 с.

[10] Вышегуров С.Х. Терминологическая компетенция как требование профессионального образования // Профессиональное образование в современном мире. – 2012. – №4(7). – С. 89-97.

[11] Ткачева Л. Б. Терминологические знания и профессиональная компетентность – основа инновационных технологий / Инфраструктура инновационной деятельности: сборник тезисов докладов и сообщений научно-практической конференции / отв. за вып. И. И. Иванов. – Омск: Департамент городской экономической политики Администрации города Омска, 2008. – С.49-52

[12] Рокитянская К.А., Мизюрова Э.Ю. Формирование иноязычной терминологической компетенции обучающихся неязыковых специальностей // Педагогический журнал. 2022. № 1А. – С. 11-17.

[13] Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги 5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) бакалавриат таълим йўналишининг малака талабалари. – Тошкент, 2017. – Б. 7.

tasnifni til oilalari va til guruhlari asosida izohlash, agglutinativ tillar, flektiv tillar, qardosh tillar va qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi munosabatni yoritish, lisoniy va nutqiy birliklarning o‘zaro munosabatini tahlil qilish, tilni umumiy, nutqni xususiy hodisa sifatida izohlash, til-tafakkur-nutq munosabatini mustaqil asoslash, tilshunoslikning nazariy masalalari haqida mustaqil fikr yurita olish, diaxron tadqiqot metodlaridan foydalanish, sinxron tadqiqot metodlarini qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish kerak.

Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi talabalariga 1-semestrda “O‘zbek folklori” fani o‘qitiladi. Mazkur fanni o‘qitishdan maqsad – filolog talabalarga o‘zbek xalq og‘zaki ijod namunalari xalq ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutishini, unda o‘zbek xalqining ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o‘zining badiiy ifodasini topganligi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari va ularning janrlar tarkibi, o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlar berishdan iborat.

Fan o‘qitish natijasida talabalarda folklor janrlari, xalq og‘zaki ijodi genezisi va tarixiy taraqqiyoti, janrlarning xususiyatlarini aniqlash, janrlararo munosabat mezonlarini belgilash, yozma adabiyot va folklor munosabatiga doir shakllanadigan kompetensiyalarni shakllantirish ko‘zda tutiladi[14].

Fanga o‘quv rejada 90 soat auditoriya mashg‘ulotlari, 90 soat mustaqil ta’lim uchun vaqt ajratilgan. O‘quv fani dasturining ma’ruza mashg‘uloti qismida mavzularga oid terminlar haqida ma’lumotlar berish, terminlarning tasnifi va ma’nosini tushuntirish belgilab qo‘yilganligini ta’kidlash lozim. Ma’ruza mashg‘ulotlarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga oid terminlarning kelib chiqishi, tarixiy-etimologik manbalari, variantlari va qo‘llanishi haqida ma’lumot beriladi. O‘qituvchining sa’y-harakati bilan bu amaliy va seminar mashg‘ulotlarida yanada mustahkamlanadi.

Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishlarining 1-, 4-kurslarida o‘qitiladigan “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanini o‘qitilish asosida talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish rejalashtirilgan:

adabiyotshunoslik nazariyasining tarix, falsafa, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligini, adabiyotshunoslik ilmi va adabiy jarayondagi nazariy masalalarni, badiiy asarning shakl va mazmuniga oid nazariy qarashlarni, lirikaning poetik mohiyatini, badiiy asar tili, poetik nutq va uslubiy individuallik masalalarni bilishi va ulardan foydalana olishi lozim. Shuningdek, nazariy bilim olgan bakalavr talaba adabiy manbalarga nazariy baho bera olish, badiiy asarni filologik nuqtayi nazardan talqin va tahlil etish, badiiy adabiyot va san’atning mazmun-mohiyati bo‘yicha adabiy suhbatlar o‘tkazish, mavjud adabiy manbalar asosida ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalar chiqara olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak[15].

Albatta, bu vazifalari bajarish talabalarga adabiyotshunoslikka doir *adabiyot nazariyasi, adabiy jarayon, badiiy asar tili, lirika, poetik nutq // she’riy nutq, proza // nasr, adabiy tur, epik tur, lirik tur, liro epik tur, dramatik tur, adabiy tanqid, badiiylik, obrazlilik, badiiy timsol // badiiy obraz, personaj, xarakter* kabi terminlarni o‘rgatishni taqozo etadi.

Barcha fanlarda yuqoridagi kabi malaka talablarini e’tibor olgan holda, talabalarda terminologik kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratish zarur, chunki har qanday malakaviy talab muayyan ilmiy termin bilan uzviy bog‘liq.

Xulosa. Filolog mutaxassislarni terminologik kompetentligini rivojlantirishda intellekt kartalardan foydalanish samarali bo‘lib, bunda bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablarini to‘liq o‘rganib chiqiladi, fanlararo integratsiyani ta’minlashga e’tibor qaratiladi, o‘qitishning didaktik ta’minotini takomillashtiriladi. Bu, albatta, o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.146.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020-yil, 20-oktabr.
3. Чет тил эгаллашнинг умумевропа компетенциялари: ўрганиш, ўқитиш, баҳолаш. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Республика таълим маркази, 2020. – Б.9.
4. Улуқов Н. Линвистик компетентликни шакллантириш омиллари // Тил ва адабиёт таълими, 2018. − №6. – Б. 16.
5. Нурмонов А., Зиёдуллаева Г. Ўқувчиларнинг тил компетентлигини шакллантириш ва ривожлантириш муаммолари// Маърифат, 2014, 18 июль. – Б. 9.
6. Собиров А. Узлуксиз таълимда тил компетенцияси // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2016. – Б.87.
7. Грибан О.Н. Сущность и структура информационной компетентности студентов педагогического вуза // Понятийный аппарат педагогики и образования: сб. науч. тр. / отв. ред. Е. В. Ткаченко, М. А. Галагузова. Вып. 7. – Екатеринбург: СВ- 96, 2012. – С. 336-344.
8. Толстых О.М. Развитие профессионального уровня информационной компетентности будущего учителя иностранного языка в процессе подготовки в области информатики и ИКТ: дис. … канд. пед. наук: 13.00.02. – Омск, 2006. – 181 с.
9. Вышегуров С.Х. Терминологическая компетенция как требование профессионального образования // Профессиональное образование в современном мире. – 2012. – №4(7). – С. 89-97.
10. Ткачева Л. Б. Терминологические знания и профессиональная компетентность – основа инновационных технологий / Инфраструктура инновационной деятельности: сборник тезисов докладов и сообщений научно-практической конференции / отв. за вып. И. И. Иванов. – Омск: Департамент городской экономической политики Администрации города Омска, 2008. – С.49-52.
11. Рокитянская К.А., Мизюрова Э.Ю. Формирование иноязычной терминологической компетенции обучающихся неязыковых специальностей // Педагогический журнал. 2022. № 1А. – С. 11-17.
12. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги 5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) бакалавриат таълим йўналишининг малака талабалари. – Тошкент, 2017. – Б. 7.
13. O‘zbek folklori. Fan dasturi. A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. –Toshkent, 2020. – Б.5.
14. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Fan dasturi. A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. – Toshkent, 2020. – Б.14.

[14] O‘zbek folklori. Fan dasturi. A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. –Toshkent, 2020. – Б.5.

[15]Adabiyotshunoslik nazariyasi. Fan dasturi. A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. –Toshkent, 2020. – Б.14.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

BUXGALTERIYA HISOBI VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna,
Qo‘qon universiteti, “Xalqaro turizm va iqtisodiyot”
kafedrasi o‘qituvchisi, PhD,
e-mail: sevarikabdullayeva@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 39
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1325

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

buxgalteriya hisobi, iqtisodiy o‘sish, moliyaviy hisobot, moliyaviy shaffoflik, boshqaruv nazorat, boshqaruv qarorlari, investitsion jozibadorlik, moliyaviy barqarorlik.

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot doirasida biz buxgalteriya hisobi va barqaror iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqamiz. Zero, hozirgi iqtisodiy sharoitda buxgalteriya hisobi xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish vositasi bo‘libgina qolmay, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim vositasiga aylandi. Muallif maqolada buxgalteriya hisobi iqtisodiy o‘sishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rib chiqadi, bunda sifatli hisob va moliyaviy hisobot kapitalni samarali taqsimlash, shaffoflikni oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va davlat moliyaviy boshqaruvini yaxshilashga yordam beradigan mexanizmlarni tahlil qilinadi. Olingan ma’lumotlar asosida muallif siyosatchilar va mutaxassislar uchun institutsional muhitni mustahkamlash, o‘qitishga sarmoya kiritish va hisobot sifatini nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, standartlarni milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirish kabi amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti evolyutsiyasi jarayonida raqobat, iqtisodiy yuksalish, moliyaviy ma’lumotlar, shaffoflik, samarali rahbarlik va nazorat, shuningdek, investitsion jozibadorlik, moliyaviy barqarorlik va umuman barqaror iqtisodiy o‘sish kabi asosiy tushunchalarni tushunish sezilarli darajada o‘zgardi.

Bu o‘zgarishlarga esa bozor iqtisodiyoti ahamiyatining ortib borishi ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy rivojlangan davlatlarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash asosiy maqsadga aylanmoqda.

Barqaror iqtisodiy o‘sish ko‘plab elementlarni o‘z ichiga oladi va dolzarb muammolarni hal qilishni, shuningdek, har bir korxonalaraning samaradorligi va moslashuvchanligini doimiy ravishda kuzatib borishni talab qiladi. Bu model uzoq vaqt davomida shakllanib, zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘ldi va, ehtimol, dunyoning barcha mamlakatlarida kelajakdagi iqtisodiy tizimning asosi bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “2022-yil 28-yanvardagi farmoniga muvofiq 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish orqali kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta’minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to‘laqonli o‘tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsad qilingan”[1].

Mazkur farmonda yuqoridagi keltirilgan mulohazalarning yana bir bor dolzarbligi va ahamiyati belgilab beradi. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik erkinligi va ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shakllarining xilma-xilligi asosiy tamoyillar hisoblanadi. Xususiy mulk “barqaror iqtisodiy o‘sishning asosi bo‘lib, shartnoma majburiyatlariga rioya qilish va uchinchi shaxslarning aralashuvidan himoyalanishni o‘z ichiga oladi”[2].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlar faoliyatini samarali boshqarish va nazorat qilishni ta’minlashda buxgalteriya hisobi muhim o‘rin tutadi. U boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va natijadorligini baholash, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobi iqtisodiy erkinlikning asosi va fuqarolik jamiyatining muhim elementidir. Shu munosabat bilan, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va milliy buxgalteriya hisobi tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish uchun islohot quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1. Buxgalteriya hisobini barqaror iqtisodiy o‘sish talablariga muvofiqlashtirish. Bu an’anaviy davlat boshqaruvidan barcha ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga oluvchi zamonaviy tartibga solishga o‘tishni nazarda tutadi.

Asosiy maqsad biznes qarorlarini qo‘llab-quvvatlash, kapital bozorini rivojlantirish va raqobatni kuchaytirish hisoblanadi. Buning uchun qiydagi amaliy harakatlarni amalga oshirish talab etiladi:

– tartib-taomillarni soddalashtirish: kichik va o‘rta biznes uchun buxgalteriya hisobi qoidalarini soddalashtirish;

– ichki nazoratni kuchaytirish: korxonalar tomonidan moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligi va aktivlar xavfsizligini ta’minlash uchun samarali ichki nazorat tizimlarini joriy etish;

– boshqaruv hisoboti: moliyaviy ma’lumotlardan tashqari kompaniya strategiyasi, xavf-xatarlar va korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan boshqaruv hisobotini joriy etish.

2. Milliy buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS/IFRS) muvofiqlashtirish.

Ushbu yo‘nalish milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Maqsad xalqaro miqyosda oson taqqoslanadigan va tushuniladigan moliyaviy hisobotlarni yaratish, bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va O‘zbekiston kompaniyalarining global bozorga integratsiyalashuviga yordam beradi. Buning uchun qiydagi amaliy harakatlarni amalga oshirish talab etiladi:

– yirik va strategik jihatdan muhim korxonalar, ayniqsa moliya institutlari va ochiq aksiyadorlik jamiyatlari MHXS/IFRSga muvofiq hisobot tuzishlari shart bo‘ladi.

– buxgalterlar, auditorlar va moliyachilarni MHXS/IFRS tamoyillari bo‘yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarur.

– soliq, korporativ boshqaruv va audit sohasidagi qonunchilikni MHXS/IFRS talablariga muvofiqlashtirish talab etiladi.

3. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash

Yuqorida ko‘rib chiqilgan har ikki yo‘nalish pirovard natijada barqaror iqtisodiy o‘sishga olib keladi. Zero, ishonchli korporativ hisob davlatga sanoat va iqtisodiyotning holati haqida aniqroq ma’lumot beradi, bu esa samarali iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi. Shuningdek xalqaro standartlarga mos keladigan shaffof hisob tizimi mamlakatning investitsion imijini oshiradi va yangi kapitallarni jalb qiladi. Buxgalteriya hisobining aniqligi korxonalar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, bu esa biznes shartnomalarini tuzish va kreditlar olishni osonlashtiradi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. https://lex.uz/uz/docs/-5841063

[2] Khasanovna, A. S. (2025). Efficient Use Of The Company's Workforce As A Key Factor In Ensuring Economic Sustainability. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(4), 1557-1570.

Ushbu o‘zgarishlar buxgalteriya hisobiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, uning axborot makonidagi roli va natijalar mazmuni o‘zgarishiga olib keladi. Fikrimizcha, bu o‘zaro bog‘liqlik O‘zbekiston iqtisodiyotini keng ko‘lamda isloh qilish yo‘lidagi muhim strategik qadamdir. Buxgalteriya hisobi tizimini isloh qilish nafaqat texnik me’yorlarni o‘zgartirishni, balki butun iqtisodiy va ijtimoiy tizimni axborotning shaffofligi, qulayligi va ishonchliligi tamoyillari asosida o‘zgartirishni ham nazarda tutadi. Ushbu o‘zgarishlarning muvaffaqiyati qat’iy siyosiy qo‘llab-quvvatlash, malakali kadrlarning mavjudligi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga bog‘liq.

Buxgalteriya hisobi va barqaror iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari sohasidagi mutaxassislar o‘rtasida keng muhokama qilinmoqda hamda fan va amaliyotning rivojlanish istiqbollarini belgilab bermoqda. Hisoblar nazariyasi, uning zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beradigan axborot muhitini shakllantirishdagi roli, shuningdek, asosli qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda[3].

Davlat strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va iqtisodiy tizimni takomillashtirishdir. Globallashuv va iqtisodiy aloqalarning murakkablashuvi sharoitida alohida tashkilotlar darajasida ham, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasida ham asosli qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan ishonchli va dolzarb moliyaviy ma’lumotlarga ega bo‘lish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy tadqiqotlar sohasida iqtisodiy barqarorlik tushunchasiga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar mavjud. Biroq, shunga qaramay, buxgalteriya hisobi va barqaror iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha o‘rganilmagan. Shu munosabat bilan biz ushbu maqola doirasida iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarning barqaror daromadni ta’minlash, faoliyatning yuqori natijalariga erishish, shuningdek, korxonada ishlab chiqarish va moliya-xo‘jalik tizimining barqarorligiga tashqi va ichki omillarning ta’siri kabi asosiy jihatlar bo‘yicha qarashlarini ko‘rib chiqamiz.

Ushbu jihatlar an’anaviy ravishda iqtisodiy barqarorlik tushunchasining tarkibiy qismlari sifatida qaraladi, biroq biz ularni yangicha yo‘nalish buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan tadqiq etamiz, biri “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasi to‘xtalsak:

Yurtimizning bir guruh iqtisodchi olimlari “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasi to‘g‘risida fikr yuritganda quyidagicha ta’rif berishadi “Iqtisodiy barqarorlikni ikki guruhga qisqa va umumiy barqarorlikka bo‘lish mumkin. Qisqa barqarorlik iqtisodiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ma’lum yo‘nalishlarida yoki ma’lum bir iqtisodiy mintaqalarda yoki bozorlarda bo‘lishi mumkin. Umumiy barqarorlik iqtisodiy tarmoqlarda ularning o‘rtalarida, iqtisodiy mintaqalarda yoki barcha iste’mol bozorlarida shakllangan iqtisodiy muvozanatga umumiy barqarorlikni ta’minlasa bu muvozanat umumiy muvozanatni tashkil etadi. Umumlashtirib aytsak iste’mol bozorlarida tovarlarning qiymati ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish qiymatlariga mos keladi”[4]

Iqtisodchi olim E.R.Misxo‘jayev o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi, “iqtisodiy barqarorlik – bu sanoat korxonasining yaxlitligini, uning ichki tuzilma, ya’ni ishlab chiqarish – xo‘jalik, moliyaviy – iqtisodiy, tashkiliy – boshqaruv tuzilmasining tarkiblarini uzluksiz takomillashtirish yo‘li bilan moslashish mexanizmi asosida hamda tashqi bozor muhiti talablariga muvofiq holda har bir davrda qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlovchi yondashuvlar asosida faoliyat ko‘rsatish va rivojlanishni ta’minlovchi holatdir”[5] deb tariflaydi.

X.Asatullayev, B.Tursunov va A.Mamanazarov: “Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana xam jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini xar tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishning bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Bu muhim vazifalarni bajarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish darkor”[6].

Rus olimlari A.L. Gaponenko va A.P. Pankruxin “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi “iqtisodiy barqarorlik - bu hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim asosiy ko‘rsatkichlarining (parametrlarining) o‘zgarmasligi hamda ichki va tashqi (ijobiy yoki salbiy) ta’sirlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan chetlanishlarda ham belgilangan me’yorlarda saqlanib qolish qobiliyatidir”[7].

Ye. F.Borisov “iqtisodiy barqarorlik” haqida: “iqtisodiy barqarorligi — yetarli daromadlar va daromadlarning xarajatlarga muvofiqligi tufayli xo‘jalik faoliyati xodimlar, boshqa tashkilotlar, davlat oldidagi barcha majburiyatlarining normal sharoitlarda bajarilishini ta’minlaydigan korxonaning moliyaviy holati”[8]

A.S. Barkanov “iqtisodiy barqarorlik” haqida: “iqtisodiy barqarorligi — bu barqaror rivojlanishning innovatsion salohiyatining mavjudligi va undan tashqi ta’sirlar va beqarorlik omillarini bartaraf etish uchun samarali foydalanishdir”[9].

O.V.Zetkina “iqtisodiy barqarorligi — ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish va korxonani boshqarish samaradorligini oshirish orqali rentabelli ishlab chiqarish-tijorat faoliyatini ta’minlash, aktivlar tarkibini yaxshilash orqali barqaror moliyaviy holatni ta’minlash, shuningdek, dinamik rivojlanayotgan tashqi muhit sharoitida o‘zini o‘zi moliyalashtirishda korxona quvvatini barqaror rivojlantirish va jamoani ijtimoiy rivojlantirish”[10]

Yuqorida “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasi haqida keltirilgan ta’riflarning rangbarangligi va turli jihatlar orqali ta’riflanishi, ushbu tushunchaning naqadar kengligidan dalolat beradi [11] . Biz ushbu tadqiqotimiz mavzusi “buxgalteriya hisobi va barqaror iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik” doirasida ushbu tushuncha to‘g‘irisida quyidagicha xulosalarga keldik:

Buxgalteriya hisobi - bu alohida korxonalar darajasida ham, butun iqtisodiyot miqyosida ham iqtisodiy barqarorlikni tahlil qilish va baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan kuchli vositadir. U asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni kuzatib borish imkonini beradi, bu esa boshqaruv jarayonini yanada shaffof va samarali qiladi.

Buxgalteriya ma’lumotlari alohida korxonalar uchun ham, umuman davlat uchun ham barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda asosiy poydevordir. Ular resurslardan oqilona foydalanish va umumiy farovonlikni oshirishga qaratilgan oqilona qarorlar qabul qilish uchun asos yaratadi.

Buxgalteriya ma’lumotlari asosida korxonalar va davlat organlari barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishi va resurslarni samarali boshqarishi mumkin, bu esa tashkilot ichida ham, xalqaro maydonda ham barqarorlikni ta’minlaydi.

Korxonalarning iqtisodiy barqarorligi, likvidliligi va daromadliligini nazorat qilish jarayonida buxgalteriya hisobi markaziy o‘rinni egallaydi[12]. U nafaqat umumiy iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi, balki barqaror o‘sishning innovatsion salohiyatini baholash uchun kuchli vositadir. Buxgalteriya hisobi yangi g‘oya va texnologiyalarni joriy etish jarayonini, shuningdek, ularning iqtisodiy samaradorligini aks ettiradi.

Buxgalteriya hisobining asosiy vazifalaridan biri resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdir. Uning yordamida resurslarni tejash darajasi va uning barqaror rivojlanishning muhim jihati bo‘lgan iqtisodiy o‘sishga ta’sirini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi tizimi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy shartidir. U nafaqat moliyaviy holatni, balki alohida korxona va umuman mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga ta’sir qiluvchi barcha omillarni har tomonlama tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada biz buxgalteriya hisobi va barqaror iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq

[3] Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn]: darslik. T.Toshmamatov. — Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. - 376 bet.

[4] A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov, N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. I-qism. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, – Toshkent, “GRAND KONDOR PRINT” 2023. 476 bet.

[5] Мисхожев, Э. Р. (2011). Диагностика экономической устойчивости промышленного предприятия.

[6] X.Asatullayev, B.Tursunov, A.Mamanazarov. Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi. (Ma’ruzalar matni).– T.: 2019, 520 bet.

[7] Гапоненко, А. Л. (2002). Общий и специальный менеджмент: Учебник. Изд-во РАГС.

[8] Основы экономики: учебник и практикум для среднего профессионального образования / Е. Ф. Борисов. — 7-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2025. — 383 с.

[9] Барканов, А. С. (2005). Оценка экономической устойчивости строительного предприятия. Экономика строительства, (8), 35-43.

[10] Зеткина, О. В. (2004). Совершенствование управления экономической устойчивостью промышленного предприятия на основе интегрального показателя (Doctoral dissertation, [Яросл. гос. ун-т]).

[11] Абдуллаева, С. (2024). СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОНЯТИЮ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ, А ТАКЖЕ СИСТЕМА ЕЕ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ. Экономическое развитие и анализ, 2(12), 242-249.

[12] Qudbiyev, N. T. (2023). Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari: korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari.

tushunishga imkon beradigan bir qator tadqiqot usullarini qo‘llaymiz, xususan nazariy tahlil - biz ushbu mavzu bo‘yicha turli manbalarni, jumladan darsliklar, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarni sinchkovlik bilan o‘rganamiz. tizimli yondashuv - biz buxgalteriya hisobi tizimi va uning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz, uning tuzilishi va vazifalarini tahlil qilamiz, xulosa va takliflarni ishlab chiqish - tadqiqot natijalari muallifga barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining amaliy tavsiyalari va chora-tadbirlarini shakllantirish imkonini bergan.

Natijalar. Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aniqlangan ta’sir mexanizmlari mustaqil emas, balki bir-birini to‘ldiradi va kuchaytiradi. Masalan, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish investorlarning ishonchini oshirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida kapital qiymatining pasayishiga olib keladi. Mamlakatlarning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishini ushbu mexanizmlarning barchasiga kompleks ta’sir ko‘rsatadigan va iqtisodiyot samaradorligini oshirishga olib keladigan ijobiy institutsional turtki sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, buxgalteriya hisobi iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ko‘plab omillardan biridir. Uning ijobiy ta’siri qonun ustuvorligi va mulk huquqini himoya qilish kabi boshqa institutlar faoliyatidagi muammolar tufayli yo‘qolishi mumkin. Shu sababli bizningcha tadqiqot natijalari amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tartibga soluvchi organlar va hukumatlar uchun tavsiyalarni o‘z ichiga oladi:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlar va o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan davlatlar uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) to‘liq va izchil joriy etish jarayonini tezlashtirish tavsiya etiladi. Shuningdek, moliyaviy hisobotlarning sifati va shaffofligini ta’minlash uchun audit nazorati tizimini kuchaytirish zarur.

2. Xalqaro hamjamiyat uchun standartlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish va buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi salohiyatni rivojlantirishda texnik yordam ko‘rsatish tavsiya etiladi.

3. Biznes hamjamiyati uchun korporativ hisobotning majburiy talablardan tashqari ilg‘or usullarini joriy etish tavsiya etiladi. Xususan, faoliyatning ekologik va ijtimoiy jihatlarini aks ettiruvchi integratsiyalashgan hisobot elementlarini kiritish imkoniyatini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi va barqaror iqtisodiy rivojlanish o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri va chambarchas bog‘liqlik mavjud. Buxgalteriya hisobi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy elementi bo‘lgan ishonch uchun asos bo‘lgan moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligi, hisobdorligi va ishonchliligini ta’minlaydi. Samarali buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga investitsiyalar mamlakatning uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy kelajagiga strategik qo‘yilmalar hisoblanadi.

Muhokama. Buxgalteriya hisobi iqtisodiy jarayonlarda asosiy rol o‘ynaydigan asosiy axborot manbaidir[13]. Biroq, uning iqtisodiyotga qanday ta’sir qilishini tushunish uchun chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish kerak. Buxgalteriya hisobi korxonalarning pul ekvivalentida ifodalangan moliyaviy aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, ro‘yxatga olish va umumlashtirish tizimidan iborat. Uning iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining shaffofligini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, investorlarning ishonchini mustahkamlashga va kapital bozorlarining samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Aksariyat davlatlar o‘z iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga harakat qiladilar, bu esa ularning iqtisodiy strategiyasining asosiy vazifasidir. Chunki aholining turmush darajasi, fuqarolarning ish bilan bandligi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga bog‘liq.

Barqaror iqtisodiy o‘sish uchun resurslarni boshqarishning samarali usullari, shuningdek, shaffoflik va nazorat zarur. Iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri buxgalteriya hisobi — moliyaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ro‘yxatga olish va tahlil qilish tizimidir[14]. U boshqaruv qarorlarini qabul qilish, soliqlarni tartibga solish, korxonalarlarning investitsion jozibadorligi va ish samaradorligini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi iqtisodiy o‘sishga bir qator o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali ta’sir qiladi. U kapitaldan foydalanishni yaxshilash, resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga yordam beradi.

Biroq bu natijalar birdan bir maqsad emas. Huquqni qo‘llash, audit va mutaxassislarning professionalligi kabi institutlarning sifati, shuningdek, moliya bozori infratuzilmasi va standartlarning milliy xususiyatlarga moslashuvi buxgalteriya hisobini takomillashtirish o‘sishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘ladimi yoki shunchaki hisobotning “kosmetik” o‘zgarishi bo‘ladimi, shuni belgilaydi.

Institutlari yetarlicha rivojlanmagan mamlakatlarda ijrochilik amaliyotiga investitsiyalar kiritish, auditorlar sifatini nazorat qilish va mahalliy kasbiy standartlarni rivojlantirish, shuningdek, ularni xalqaro tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish ustuvor vazifalarga aylanmoqda.

Tadqiqot natijasida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda buxgalteriya hisobi muhim rol o‘ynaydigan to‘rtta asosiy yo‘nalish aniqlandi:

1. Axborot asimmetriyasi va kapital qiymatini pasaytirish.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda yagona standartlarga rioya qilish investorlar va kreditorlar uchun xatarlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Ishonchli va taqqoslanadigan ma’lumotlar investorlarning risk mukofotiga bo‘lgan talablarini pasaytiradi, bu esa, o‘z navbatida, jalb qilinadigan kapital qiymatining pasayishiga olib keladi. Past kapital qiymati yangi loyihalar, tadqiqotlar va ishlanmalarga sarmoya kiritish uchun eshiklarni ochadi, bu esa uzoq muddatli o‘sishning asosiy omilidir.

2. Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish

Buxgalteriya hisobi kompaniyalar mulkdorlari va direktorlar kengashlari uchun muhim nazorat vositasidir. U menejment faoliyatini kuzatish, samarasiz amaliyotlarni aniqlash, suiiste’molchiliklarning oldini olish va rahbariyatni strategik maqsadlarga erishishga undash imkonini beradi. Samarali korporativ boshqaruv alohida kompaniyalarning ham, umuman iqtisodiyotning ham raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

3. Qulay investitsiya muhitini yaratish

Zamonaviy dunyoda buxgalteriya hisobi va audit tizimi yaxshi rivojlangan mamlakatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan biznes yuritish uchun ishonchli va bashorat qilinadigan hamkorlar sifatida qabul qilinmoqda. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TXI) jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi, ular nafaqat kapital olib keladi, balki texnologiyalar va boshqaruv ko‘nikmalari almashinuvini rag‘batlantiradi, shuningdek, jahon bozorlariga chiqish imkonini beradi.

4. Makroiqtisodiy siyosat uchun asosni shakllantirish

Davlat organlari iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo‘yicha aniq va dolzarb moliyaviy ma’lumotlarga juda muhtoj. Ushbu ma’lumotlar barqarorlikni saqlash va barqaror o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni, shu jumladan soliq va pul-kredit siyosatini tahlil qilish, prognozlash va ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Noaniq ma’lumotlar inqirozli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri siyosat qarorlariga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot natijalari buxgalteriya hisobi tizimi barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadigan institutsional tuzilmaning muhim elementi ekanligi haqidagi farazni tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan asosiy institutdir. U nafaqat xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olishning texnik tizimi, balki samarali iqtisodiyot, investorlar uchun jozibadorlik, shaffoflik va boshqaruv sifati uchun asos yaratuvchi strategik vositadir. Buxgalteriya hisobi nafaqat korxonalaralar operatsiyalarini qayd etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadigan muhim institutdir. Sifatli moliyaviy hisobotlar barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi va bir nechta muhim mexanizmlarni amalga oshiradi:

1. Investitsion jozibadorlik. O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini yaxshilash kapitalni samarali taqsimlash va bitimlarni amalga oshirish xarajatlarini kamaytirish orqali mumkin.

2. Korporativ boshqaruv. Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlash shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash orqali amalga oshiriladi.

[13] Narzullayeva Ozoda Qahramon Qizi (2025). BUXGALTERIYA HISOBINING USULI VA ULARNING MAZMUNI. Journal of marketing, business and management, 3 (12), 361-366.

[14] Зокирова, Н. К., & Талипова, Н. Т. (2025). Факторы и механизмы устойчивого роста экономики. Российский внешнеэкономический вестник, (2), 94-106.

3. Moliyaviy barqarorlik. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun ta’sirchan makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, hisob va hisobotning ishonchli tizimini yaratish zarur.

4. Davlat moliyasini boshqarish. Davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishga hissa qo‘shish ham muhim.

Shu bilan birgaligda buxgalteriya hisobi tizimida shakllanadigan ma’lumotlar aniq va ishonchli bo‘lishi kerak, bu esa alohida korxonalar darajasida ham, butun iqtisodiyot miqyosida ham asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Unga ko‘ra, buxgalteriya hisobi kapital qiymatini pasaytirish, axborot asimmetriyasini kamaytirish, korporativ boshqaruvni mustahkamlash, investitsiya muhitini yaxshilash va davlatning makroiqtisodiy siyosatini shakllantirishga ko‘maklashuvchi muhim vositadir.

Bir tomondan, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiqligi iqtisodiyotning global jarayonlarga tezroq qo‘shilishiga yordam beradi, shuningdek, moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligi va taqqoslanishini ta’minlaydi. O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini jadallashtirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun bir qator muhim qadamlarni amalga oshirish zarur:

1. Institutsional bazani mustahkamlash. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishni davom ettirish, shuningdek, audit tizimini kuchaytirish va buxgalteriya hisobi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish zarur.

2. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish. Buxgalterlar, auditorlar va moliyachilarni xalqaro standartlarga muvofiq o‘qitish va malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

3. Amaliyotni takomillashtirish Kichik va o‘rta biznes uchun buxgalteriya hisobi qoidalarini soddalashtirish, samarali ichki nazorat tizimlarini joriy etish va korporativ boshqaruv hisobotlaridan faol foydalanish zarur.

4. Hisobotning kompleks usullarini joriy etish. Korxonalar faoliyatining nafaqat moliyaviy, balki ekologik va ijtimoiy sohalarini ham qamrab oluvchi usullarni ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi tizimini yangilash iqtisodiyotni yanada ochiqroq qilish, ko‘proq investitsiyalarni jalb qilish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga yordam beradigan asosiy elementlardan biridir. Buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishga qaratilgan yuqoridagi chora-tadbirlar O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va jadal rivojlanishiga, shuningdek, "Yangi O‘zbekiston" taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
2. Abdullayeva, S. (2025) “To’qimachilik mahsulotlarining bozor kon’yunkturasi tahlili”. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, vol. 2, no. 3, July 2025, pp. 985-90, https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp985-990.
3. Khasanovna, A. S. (2025). Efficient Use Of The Company's Workforce As A Key Factor In Ensuring Economic Sustainability. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(4), 1557-1570.
4. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn]: darslik. T.Toshmamatov. — Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. - 376 bet.
5. A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov, N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. I-qism. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, – Toshkent, “GRAND KONDOR PRINT” 2023. 476 bet.
6. Мисхожев, Э. Р. (2011). Диагностика экономической устойчивости промышленного предприятия.
7. X.Asatullayev, B.Tursunov, A.Mamanazarov. Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi. (Ma’ruzalar matni).– T.: 2019, 520 bet.
8. Гапоненко, А. Л. (2002). Общий и специальный менеджмент: Учебник. Изд-во РАГС.
9. Основы экономики: учебник и практикум для среднего профессионального образования / Е. Ф. Борисов. — 7-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2025. — 383 с.
10. Барканов, А. С. (2005). Оценка экономической устойчивости строительного предприятия. Экономика строительства, (8), 35-43.
11. Зеткина, О. В. (2004). Совершенствование управления экономической устойчивостью промышленного предприятия на основе интегрального показателя (Doctoral dissertation, [Яросл. гос. ун-т]).
12. Абдуллаева, С. (2024). СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОНЯТИЮ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ, А ТАКЖЕ СИСТЕМА ЕЕ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ. Экономическое развитие и анализ, 2(12), 242-249.
13. Qudbiyev, N. T. (2023). Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari: korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari.
14. Narzullayeva Ozoda Qahramon Qizi (2025). BUXGALTERIYA HISOBINING USULI VA ULARNING MAZMUNI. Journal of marketing, business and management, 3 (12), 361-366.
15. Зокирова, Н. К., & Талипова, Н. Т. (2025). Факторы и механизмы устойчивого роста экономики. Российский внешнеэкономический вестник, (2), 94-106.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2012–2024 YILLAR DAVOMIDA TURISTIK OQIM DINAMIKASI TAHLILI

Ruziyev Shohruzbek Ravshan o‘g‘li
PhD, dotsent, Alfraganus universiteti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 40
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1326

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Turizm oqimi, vaqt qatori tahlili, o‘sish sur’atlari, pandemiya ta’siri, turizm statistikasi, trend analizi, turistlar dinamikasi, O‘zbekiston turizmi, postpandemiya tiklanishi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida 2012–2024 yillar davomida turistik oqimning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari vaqt qatori tahlili asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda rasmiy statistik ma’lumotlar asosida turistik oqimning yillik dinamikasi, o‘zgarish sur’atlari, pandemiya davri ta’siri, shuningdek tiklanish bosqichlari chuqur tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, 2012–2016 yillarda turistik oqim nisbatan barqaror past sur’atda o‘sgan bo‘lsa, 2017–2019 yillarda liberallashtirilgan viza siyosati va turizm infratuzilmasidagi islohotlar natijasida keskin o‘sish kuzatilgan. 2020–2021 yillarda COVID-19 pandemiyasi tufayli sektor jiddiy qisqargan, biroq 2022 yildan boshlab tiklanish boshlangan va 2024 yilga kelib rekord darajaga yetgan. 2012–2024 yillar oralig‘ida o‘rtacha yillik tarkibiy o‘sish sur’ati (CAGR) 15,08 foizni tashkil etdi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston turizm sektorining postpandemiya davrida yuqori tiklanish salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi hamda soha rivoji bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tiborni tortmoqda. Global miqyosda turizm yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hamda madaniy almashinuvga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgan strategik sektor sifatida shakllandi. Xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, pandemiyagacha bo‘lgan davrda turizm dunyo bo‘yicha xizmatlar eksportining mutlaq yetakchi tarmog‘i bo‘lib, jahon iqtisodiyotining 10 foizidan ortig‘ini tashkil etgan. 2020 yilda pandemiya tufayli 65–70 foizlik pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2022 yildan boshlab global tiklanish jarayonlari faol davom etmoqda. Bu jarayonlar mintaqaviy turizm bozorlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatib, ko‘plab davlatlar pandemiyadan keyingi strategiyalarni qayta ko‘rib chiqishdi.

Markaziy Osiyo davlatlarida, xususan O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining iqtisodiy ahamiyati tezlik bilan ortib bormoqda. Mamlakatning geografik joylashuvi, boy tarixiy merosi, moddiy va nomoddiy madaniy qadriyatlari hamda tabiiy-rekreatsion resurslari uni xalqaro turizm bozorining muhim ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizmni ustuvor strategik yo‘nalish sifatida rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2017–2019 yillar davomida viza rejimining liberallashtirilishi, xalqaro aviaqatnovlarning ko‘payishi, “O‘zbekiston–2025” turizm strategiyasining ishlab chiqilishi, yangi turistik zonalar va klasterlarning tashkil etilishi turistik oqimni sezilarli darajada oshirdi. Ayni paytda, elektron vizalar tizimi, mehmonxona infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport-logistika tizimining yaxshilanishi ham turizm sektorining raqobatbardoshligini oshirdi.

ta’lim mohiyati, baholash, baho, kombinatsiyalangan tekshirish, yozma tekshirish, shkalalash, reyting, test, tarbiyaviy ahamiyat.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘quvchilar bilimini baholash jarayonining pedagogik zaruriyati, uning ta’lim sifati va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. O‘quvchilarni rivojlantirishda ularni rag‘batlantirish va baholash juda muhimdir. Maqolada baholash o‘quvchilarning rivojlanish darajasini, o‘rganish samaradorligini va muvaffaqiyatini aniqlashga yordam berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Baholash jarayonida o‘quvchilarning ilmiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy rivojlanishi kuzatiladi. Baholash natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilar o‘quvchilarga individual yondashuvlar, qo‘llab-quvvatlash usullari va dasturlar tuzishlari mumkin. Bunday baholash jarayonlari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni rivojlantirishga yo‘l ochadi va ularga o‘rganishda va amaliy ishlarda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun kerakli yo‘l yo‘riqlarini qilib borishlariga yordam beradi. Baholash mezonlarining aniq belgilanishi o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasiga, o‘zlashtirish dinamikasiga va mustaqil fikrlash ko‘nikmalariga ta’siri ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning bilimini baholash samarali tashkil etilganda, ta’lim jarayoni shaffofligi, o‘qituvchi faoliyati samaradorligi va o‘quv natijalari sifatining sezilarli darajada oshishini tasdiqlaydi.

Kirish. Ma’lumki, tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan O‘zbekistonning ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zaminida ilmli, barkamol yosh avlodlarni tarbiyalash, ularni o‘qitish jarayonida bilimlarini to‘g‘ri baholay olish, mavjud va rivojlanayotgan bilimlarini turli usul va vositalar orqali rag‘batlantirish hozirda dolzarb vazifalardan biri sifatida ta’lim tizimida ilgari surilmoqda. 2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli farmonida [1] maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur tasdiqlandi [2]. Bu dasturga binoan, o‘quvchilarning bilim saviyalarini rivojlantirish, ularni barkamol yosh avlodlar qilib tarbiyalash, shuningdek Vatanga muhabbatli, fidokor va jonkuyar shaxslar sifatida rivoj toptirishda ustozlarning o‘rni beqiyosligi va ular ham doimo bilim darajalarini yanada sayqallash uchun harakatdan to‘xtamasliklari, o‘z ustida tinmay ishlashlari zarurligi haqida fikrlar ham bildirilib o‘tildi. Albatta, ta’lim bu – juda ham katta va davomli jarayon hisoblanib, uni bir so‘z bilan ta’riflash juda ham mushkul ish. U o‘z ichiga ko‘plab hodisa va holatlarni, obyekt va subyektlarni jamlagan bo‘lib, ta’lim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi demakdir. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatsada, u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma’lumotga bo‘lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi pedagogik g‘oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta’limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o‘zgarib borgan sari, u ham rivoj topadi va murakkablashadi.

Ta’lim mohiyati – e’tibor bilan dars berish jarayonini, ya’ni pedagogning faoliyatini, umuman o‘quvchining bilish, o‘rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya’ni o‘quvchi faoliyatini ham bildiradi. Ta’lim jarayoni ta’lim beruvchi – o‘qituvchi va ta’lim olayotgan o‘quvchilar faoliyatining yig‘indisidan iborat bo‘lib, ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o‘sadi. Shuningdek, ta’lim avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislikni ta’minlaydi va kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta’lim orqali o‘tadi. Ta’lim esa o‘z navbatida eng avvalo oila, mahalla, maktab va boshqa ilm dargohlari orqali paydo bo‘ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Barchamizga ma’lumki, o‘qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma’lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o‘quv tarbiya muassasasi maktab hisoblanadi.

Maktabda darslar davomida o‘quvchilar o‘qituvchilar tomonidan baholanadi, rag‘batlantiriladi va xatolari ustida ishlanadi. Buning sababi esa, o‘quvchilarni o‘quv ko‘nikma va malakalarini qay darajada ekanligini aniqlash va ularni yanada sayqallash demakdir.

Adabiyotlar tahlili. O‘quvchilarning darsga tayyorgarlik holatiga ayni mos holda baholash bu – obyektiv baho hisoblanadi. Baho muammosining obyektivligi va shaffofligi - ta’lim nazariyasi va amaliyotida birdan-bir muammo hisoblanadi. Bahoning dasturiy me’yori, aniq, o‘quv predmeti nazarda tutilgan holda, o‘quvchilarning har bir o‘quv faoliyati uchun “algoritm” prinsipi bo‘yicha ko‘riladi. Bu muammo haqida V. I. Mixeev, A. G. Kovalev, V. V. Usanov, A.A.Kuznitsov, S.I.Goreslavskiy, V. M. Polonskiy, F.M.Axmedova va boshqa pedagog olimlar o‘z fikrlarini bildirishgan. Ta’limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug‘ilishini buyuk pedagog Y.A.Komenskiy ham ta’kidlab o‘tgan edi. U pedagoglarni o‘zlari ega bo‘lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta’lim oluvchilarga nisbatan nazoratning obyektiv bo‘lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi. Olimlarning ta’kidlashicha, demokratlashgan ta’lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo‘lmasligi lozim. Umuman, bahoning obyektivligi masalasi pedagogikada yakuniy belgi sifatida o‘quvchilarning darsdan so‘ngi natijalarini belgilab beradi hamda kelgusida ularni harakatga keltiradigan omil bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘quv jarayonini muvafaqiyatli olib borishida to‘g‘ri tanlanib qo‘yilgan baho o‘quvchilarni rivojlantirishi,

[1] 2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli farmoni tahririda - qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-soni

[2] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son). https://lex.uz/uz/docs/-5841063

aktivlashtirishi qolaversa fanga nisbatan qiziqish hosil bo‘lishiga olib kelinadi. O‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarni mashg‘ulot davomida aktiv holatda bo‘lishilari uchun, izlanishlari uchun baholashning vaqti ham muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Baholash atamasiga nazar solsak, baho (baho berish) (falsafada) – ijtimoiy hodisalar, inson faoliyati, tarbiya va xulqiga bo‘lgan munosabat, ularning ahamiyatini, muayyan ahloq me’yorlari va tamoyillariga mosligini ko‘rsatish (ma’qullash yoki qoralash, rozi bo‘lish yoki tanqid qilish)[4].

Baholash – olingan bilimlar bo‘yicha ma’lumotlarni tizimli yig‘ish, tahlil qilish va ulardan foydalanish demakdir. Baho o‘quvchilarning har birini nimalarni bilish, nimalarni tushunishi va nimalarga qodir ekanligi to‘g‘risida aniq ma’lumot beradi. Baholash samarali ta’lim olish va o‘qitishga xizmat qiladi, ularning natijalari jarayonning barcha ishtirokchilari (o‘quvchilar, ota-onalar,o‘qituvchilar) uchun qiymatli bo‘lib, o‘quv rejalarini va o‘qitish metodikasini yahshilash maqsadida foydalaniladi.

Baho esa o‘quvchilarning aniq o‘quv sohasidagi umumiy yutuqlarining qisqacha mazmunini ko‘rsatadi. Baho ob’yektiv, aniq, haqqoniy, ishonchli va shaffof bo‘lishi zarur.

Baholashning o‘ziga xos jihatlarini S. L. Rubinshteyn, B. G. Ananev, V. M. Polonskiy, A. Amonashvili, G. A. Shukina, N. A. Baturin kabi olimlar tahlil qilgan va baholash haqida o‘z qarashlarini bildirganlar. Ularning fikrlari o‘rganilganda, shu narsa ma’lum bo‘ladiki, psixologik-pedagogik adabiyotlarda bahoning mohiyati va ahamiyati degan iborada o‘quvchining o‘ziga xos xususiyati va uning o‘quv faoliyati tushuniladi.

Metodologiya. Baholash – o‘quvchilarning yutuqlari, kuchli va zaif tomonlarini hamda keyingi qadamlarni aniqlash orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishini yaxshilashga qaratilgan. U o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va yaxshilash uchun maxsus ishlab chiqilgan va hujjatlashirilgan vositadi[5]. Shuningdek, baholash – ta’lim jarayonidagi o‘sishni belgilab beradigan me’zon ham hosblanadi va u o‘z navbatida o‘quvchining muayyan standartlarga asoslangan fanlarni qay darajada bilishlik darajasi, shuningdek, o‘zining bilim va ko‘nikmalariga asoslanib, ma’lum bir mavzuni o‘zlashtirish darajasini ko‘rsatib beruvchi jarayondir.

O‘quvchi o‘quv faoliyatining bahosi yuqori darajada ta’minlanishi quyidagi shakllarda ifodalanishi mumkin[6]:

-kichik shaklda (imo-ishorada, ovozning turlicha o‘zgarishida, o‘zlashtirish haqida beriladigan tanbehda);

-talabalarning umumiy xatti-harakatida (xususiyatida);

-bahoda;

-fikrni bayon etishda (talaba bilan yakka suhbati, ota-onalar majlisida);

-ta’lim muassasasining ichki tartibi nazarda tutilganda.

Baholashdan asosiy maqsadlar:

o‘zlashtirilganlikning qay darajada amalga oshirilganligini aniqlash;

davlat ta’lim standartlari talablarining qay darajada bajarilganligini aniqlash;

o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim jarayonidagi xato va kamchiliklarini aniqlash;

ta’lim mazmuni va metodikasini rejalashtirish;

ta’lim berish;

so‘rash va bajartirib ko‘rish jarayonida o‘quvchining xato hamda kamchiliklarini tuzatish;

so‘rash va bajartirib ko‘rish jarayonida boshqalarga takrorlanish va saboq bo‘lishini ko‘zda tutish singari maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Baholash orqali o‘zlashtirilganlik to‘g‘risida ma’lumot olinadi, savol-javob jarayonida boshqa o‘quvchilarga takrorlanish bo‘ladi, bilim, ko‘nikma va malakalar egallanadi hamda mustahkamlanadi, mashg‘ulotning qaysi bo‘lagiga yaxshiroq e’tibor kerakligi ma’lum bo‘ladi, o‘qituvchi o‘z kamchiliklarini anglaydi, o‘quvchi o‘zining nimalarga qodir ekanligini biladi, davlat ta’lim standartlarining bajarilish darajasi aniqlanadi shuningdek ta’lim oluvchining o‘rtoqlari, ota-onasi uning faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.

Baholash usul va vositalari o‘quvchilarning ma’lumot darajasini aniqlash, ularning tushunish va fikrlashlarini oshirish, ularga motivatsiya berish va o‘quv jarayonini mustahkamlashtirish uchun ham zarurdir. Baholash usullarining samaralilaridan foydalanish esa o‘quvchilarning qanchalik ma’lumotga ega ekanligini, qanday yo‘nalishda yaxshi tushunishiga qarab ularning o‘zlashtirilgan bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni baholash usul va vositalari o‘qituvchilar uchun ham muhimdir, chunki bu ularga o‘quvchilarning rivojlanish darajasini ko‘rib chiqish, ularga zarur bo‘lgan yordam va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash uchun ham dasturil amal vazifasini o‘taydi.

Baho haqiqatdan ham o‘quvchini rag‘batlantiradi va xato kamchiliklari ustida ishlashi uchun ishora beradi. Chunki, baholash nafaqat o‘zlashtirilganlik saviyasini, balki o‘quvchilar ichida iqtidor, salohiyat va qobiliyatga ega bolalarni ham aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘quvchilarni muntazam ravishda turli olimpiada va xalqaro tanlovlarda qatnashib, ko‘pgina yutuqlarga erishishlari uchun zamin yaratibgina qolmay, kelajakda o‘z kasbining yetuk bilimdoni, har sohada kerakli kadrlar bo‘lishlari uchun asosiy vazifalarni bajaradi.

Pedagogik baho talaba shaxsiga, talaba va guruh talabalari o‘rtasida bo‘lgan o‘zaro munosabat va fikrning o‘zgarishiga bevosita ta’sir etadi. Baholash ta’siri natijasida talabalarda o‘z-o‘ziga baho berish, shuningdek, talabchanlik shakllanadi. Keyingi vaqtlarda o‘quvchilar faoliyatining muvaffaqiyatligini baholash muammosi bo‘yicha yaratilgan psixologik-pedagogik adabiyotlarda baho vazifalari quyidagicha ko‘rsatiladi: ijtimoiy, ta’limiy, hayajonli (emotsional), tarbiyaviy, axborotli, yo‘naltiruvchi, asosli va ibratli.

Pedagogik amaliyotda baholashning bir qancha usullaridan foydalaniladi. Og‘zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir.

Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi[7]. Og‘zaki tekshirish o‘quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham atashadi. Og‘zaki tekshirishda o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o‘quvchilarga savollar beradi. Biroq, o‘quvchilarning nutqini o‘stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo‘lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin. Ko‘pgina fanlarda og‘zaki tekshirish o‘quvchilarning javoblarini yozma mashqlarni tashkil etish asosida to‘ldirib boriladi. Ular o‘z javoblarini isbotlash uchun misol keltiradilar. Bu misollarni doskaga yozib, sintaktik va grammatik jihatdan tahlil qiladilar. Matematika, fizika va ximiyadan og‘zaki tekshirish qoidaga muvofiq misol va toptiriqlarni amaliy ko‘nikma va malakalar baholash maqsadidan kelib chiqib hal etiladi. Keng tarqalganligi va samarali ekanligiga qaramay o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda og‘zaki tekshirish ayrim kamchiliklarga ham ega. Shu bois o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun turli shakllardan foydalaniladi.

Og‘zaki ommaviy tekshirish o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash bo‘lib, ular guruhga qaratilgan savollarga javob beradilar. Bunday tekshirishda javoblar qisqa bo‘ladi. Mazkur so‘rash ko‘pchilik o‘quvchilarni nazorat qilishni ta’minlaydi va butun guruhni faollashtiradi, ammo o‘quvchilarning nutqini o‘stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so‘rashda ko‘zga tashlanmaydi. Ammo so‘rashning bu shaklida guruhdagi boshqa o‘quvchilarning to‘laqonli ishlashlariga erishish juda qiyin.

Kombinatsiyalangan (tezlashtirilgan) tekshirishda o‘qituvchi bir necha o‘quvchini bir vaqtda doskaga chaqiradi, biri og‘zaki javob beradi, 3-4 nafar o‘quvchi esa kartochkalar bo‘yicha yozma ishni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo‘lib, o‘qituvchidan yetarlicha tajriba va diqqatlarini guruhdagi hamma o‘quvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi.

Yozma tekshirish – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o‘qituvchi alohida mavzu yoki o‘quv dasturining ma’lum bo‘limini o‘tib bo‘lganidan so‘ng o‘quvchilarning

[3] https://studylib.net/doc/25873505/sociol-2021

[4] O‘zME. (2000) Birinchi jild. Toshkent, yil. https://uz.wikipedia.org/wiki/Baho

[5] https://invento.uz/public/upload/files/Admission/School%20Policies%20Uz/Assessment%20Policy%2022-23%20Uz.pdf.

[6] Hasanboyeva O., Tolipova G. (2018) **Umumiy pedagogika.** – Toshkent: O‘qituvchi,.

[7] Hamidov J., Xoliqov A. (2021) **Didaktika.** – Toshkent: Fan va texnologiya.

bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish topshiriq, ya'ni, insho yozish hamda turli nazorat va mustaqil ishlarni bajarishni uyda ham amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchining bajarilgan ish bilan tanishib chiqishi, uning sifatini tekshirishi uchun ko'p mehnat va vaqt sarflanadi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. O'quvchining butun dars davomidagi barcha faoliyatlarini nazorat qilish tekshirishning maxsus turi bo'lib, u o'quvchining darsdagi ishtiroki uchun ball qo'yish bilan yakunlanadi. Bu o'quvchini doimo harakat qilishga va faollikka undaydi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Uning turli uslublari sifat tavsiflarini miqdoriy o'zgarishlarga aylantirishga yordam beradi.

Reyting nazorati va test usullari ham zamonaviy baholashning muhim vositalari hisoblanadi[8]. Reyting nazorati asosida o'quvchilarning o'quv faoliyatini hisobga olishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda . Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abituriyentlarni oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Test – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

1)nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;

2) nazariy va amaliy bilim darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;

3) bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;

4) bilim natijalarining o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;

5) barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Baholar o'quvchining ma'lum vaqt oralig'ida qancha o'zlashtirganligining qisqa muddatli suratlari bo'lib, ular haqiqiy ish faoliyatini qisman aks ettirgan holda, o'quvchilarning individual rivojlanishi yetarlicha hisobga olinmasligi tanqid qilinadi. Xuddi shunday, uzoq vaqt davomida yomon baholar o'quvchilarda ular juda kam yoki hech narsa o'rganmaydilar degan taassurot qoldiradi, bu esa har bir bolaning yangi bilimlarni o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini ham xavf ostiga qo'yadi. O'rganish istagini allaqachon yo'qotgan va faqat o'z baholari uchun o'qigan bolalar eng yaxshi bahoga erishgandan keyin o'qishni davom ettirish uchun hech qanday sabab topa olmaydilar va bundan tashqari, yomon baholar talabalar uchun salbiy fikr-mulohazalarni bildiradi, chunki ular hech qanday konstruktiv yordam bermaydi, faqat mutlaq asosiy raqamlarni ko'rsatadi. Bundan tashqari, ko'pincha baholash tizimiga bog'liq bo'lgan fikrlash tarzi, yomon baholar kelajakka umidsizlikka olib kelishi, shuningdek, ota-onalar va bolalar o'rtasida hayajon, bosim, stress va tushkunlikka ham olib kelishi ta'kidlanadi. Talabalar ko'pincha o'zlarining kelajak hayoti uchun yoki mol-dunyoga qiziqish uchun emas, balki faqat baholar va tegishli maqom uchun o'rganishlari tanqid qilinadi, bu esa ilmni o'rganishga yordam beradi.

Natija. Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, o'quvchi o'zini har tomonlama isloh qilishni boshlaydi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'qituvchining bahosi o'quvchi ichki ravishda rozi bo'lgandagina foydali tarbiyaviy samaraga olib keladi. Yaxshi ishlayotgan maktab o'quvchilari uchun o'zlarining baholari bilan o'qituvchi tomonidan berilgan baholarning tasodifligi 46% hollarda bo'ladi. Va yomon ishlaydiganlar orasida – 11% hollarda. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchining o'z bahosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 50% hollarda uchraydi. O'quvchilar o'qituvchilar talablarini tushunsalar, baholashning tarbiyaviy samarasi ancha yuqori bo'lishi aniq .

Baholash doimo ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, sinfdoshlari bilan hamkorlik, shaxsiy psixalogiya, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishish mumkin bo'ladi, ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytishimiz mumkin. Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning maktabdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabatlariga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi va uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtov, ma'qullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini ham sekin asta shakllantirib boradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga ega bo'lib, bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirish orqali maktab jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi, tegishli xulosalar chiqariladi va yo'l yo'riqlar ko'rsatiladi.

Muhokama. Nemis faylasufi va publitsisti Richard Devid Prext o'zining "Anna, die Schule und der liebe Gott: Der Verrat des Bildungssystems an unseren Kindern" kitobida maktab baholari tizimini tubdan tanqid qiladi. U 1 dan 6 gacha bo'lgan raqamlar bolalarning shaxsiyatiga adolat qilmaydi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, na baholar mazmunli, na farqlanmaydi va shuning uchun ham foydali emas deb ta'kidlab o'tadi. Masalan, talabaning ishtiyoqi ortdimi, mavzuga qiziqishi ortdimi, muvaffaqiyatsizlikka qarshi kurashishni yaxshiroq o'rgandimi, yangi g'oyalar ishlab chiqdimi degan savollarga baho bilan javob berib bo'lmaydi. Buning o'rniga, o'quvchilarning o'rganish va rivojlanish yo'llarini tabaqalashtirilgan yozma baholashni taklif qiladi.Uning fikricha, baholash tizimi psixologik va pedagogik jihatdan ma'lumotga ega bo'lmagan davrdan kelib chiqqan va XXI asrga tegishli emas deb xulosalaydi. Ko'pgina davlatlar o'zlarining baholash tizimiga ega va bitta davlatdagi turli muassasalar o'zlarining baholash tizimlari bilan ham farq qilishi mumkindir. Nemis ta'lim innovatori Margret Rasfeld baholar va baholash tizimini foydasiz deb tanqid qiladi va uning fikricha: "Maktab muvaffaqiyatsizlikni hujjatlash uchun emas, balki muvaffaqiyatni tashkil qilish uchundir" deb aytib o'tadi[9].

O'quvchilar bilimini baholashning pedagogik zaruriyati juda muhimdir. Baholash jarayoni o'quvchilarga o'zlarining bilim darajasini tushunish va o'zlashtirishga yordam berish imkoniyatini beradi. Pedagoglar o'quvchilarning qanchalik ma'lumot egasi ekanligini tushunish uchun turli usul va dasturlarni ishlatishlari kerak. Baholash natijalariga asoslangan ravishda qo'llaniladigon maslahatlar va tavsiyalar ham juda muhimdir. Pedagogik zaruriyatlar bilan amalga oshirilgan baholashning o'quvchilarning o'zlashtirishiga, motivatsiyalarini oshirishiga va bilim darajasini yuqoriga ko'tarishga yordam berishi kerak. Baholash jarayoni ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda o'tkaziladi. Baholashni turiga qarab uning soni, ularning tuzilishi, baholash me'zonlari aynan baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bu maqsad uchun yaratilgan topshiriq boshqa bir maqsad uchun to'g'ri kelmasligi mumkin. Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan me'zonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlash, analiz qilish va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Baholash ta'lim jarayonining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sifatini hamda o'quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta'lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga dasturi amal vazifasini bajaradi. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va ta'lim jarayoniga taqdim etilib kelinmoqda. Baholashdan maqsad – kasbiy ko'nikma va malakalarni baholash, qator masalalarni hal etishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligi deb tushunamiz. Baholash me'zonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birdamlikda amalga oshiriladi va biz

[8] Nitko A., Brookhart S. (2016) **Educational Assessment of Students.** – Pearson

[9] https://uz.wikipedia.org/wiki/Baholash_tizimi_(GPA)

buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilsak ham bo‘ladi.

Bolaning kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishi, shaxs sifatida kamol topishida tanlagan yo‘li, kasb tanlashi, orzu-havaslarini qanday ro‘yobga chiqarishi birinchi navbatda, uning yoshlikda olgan ta’lim va tarbiyasiga bog‘liqdir. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta’limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o‘quv materialining o‘zlashtirilganligi to‘g‘risida ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham muayyan ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Baholash natijasida, ta’lim beruvchi uchun ta’lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmayotganligi, qaysi material yaxshi o‘zlashtirilganligi, qaysi biri hali yetarli darajada o‘zlashtirilmaganligi yoki umuman o‘zlashtirilmaganligi haqida o‘quvchilarni baholashdan so‘ng ma’lum bo‘ladi. Bu ta’lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo‘lib hizmat qiladi. Ta’lim beruvchi o‘z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi va o‘z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta’lim beruvchining o‘quv dasturidagi materiallarni ta’lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir. Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o‘zlashtirilishi aniq, ravshan ko‘zga ko‘rinadi. Bu ta’lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko‘rishi va o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazishi uchun asos bo‘lib xizmat qila oladi. Xuddi shuningdek, ta’lim oluvchiga ham ta’lim jarayonida qaysi o‘quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o‘zlashtirgani ayon bo‘ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta’lim oluvchi o‘z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to‘g‘ri baholashga qodir emas. Ba’zan unga go‘yo u o‘quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi ammo tekshirish chog‘ida esa materialni yaxshi bilmasligi, shuningdek u haqida yetarlicha tushunchasi yo‘qligi yoki yaxshi tushunmasligi ma’lum bo‘lib qoladi. Baholash natijasida, ta’lim oluvchilarning o‘rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo‘llay olish, tahlil qilish va o‘z bilimlariga tanqidiy baho berish, yangi bilimlarni analiz-sintez qilish darajalari ham aniqlanadi. Ta’lim oluvchi o‘z bilimlariga berilgan baho va tavsiflar asosida maktabdagi o‘qish va uydagi mustaqil vazifalarni bajarish uslubini takomillashtirish yoki umumman boshqa yo‘nalishga o‘zlashtirish, bilimlari, malaka va ko‘nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli farmoni tahririda - qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-soni
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son). https://lex.uz/uz/docs/-5841063
3. Hamidov J., Xoliqov A. (2021) Didaktika. – Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Hasanboyeva O., Tolipova G. (2018) Umumiy pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi,.
5. Nitko A., Brookhart S. (2016) Educational Assessment of Students. – Pearson
6. O‘zME. (2000) Birinchi jild. Toshkent, yil. https://uz.wikipedia.org/wiki/Baho
7. https://invento.uz/public/upload/files/Admission/School%20Policies%20Uz/Assessment%20Policy%2022-23%20Uz.pdf.
8. https://studylib.net/doc/25873505/sociol-2021
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Baholash_tizimi_(GPA)

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

INKLYUZIV TA’LIMNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Zakirova Luiza Taxirovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 43
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1330

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

inklyuziv ta’lim, maxsus ta’lim ehtiyoji, integratsiya, pedagogik yondashuv, korreksion yordam, huquqiy-me’yoriy asos, kompetensiya, insonparvarlik, bag‘rikenglik, ta’lim tizimi modernizatsiyasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirishning huquqiy, pedagogik va ijtimoiy asoslari tahlil etiladi. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri, Prezidentning PQ–4860-son qarori, shuningdek 2020–2025-yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar mazmuni yoritiladi. Maqolada alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarni umumta’lim muassasalariga integratsiya qilish, inklyuziv guruh va sinflar tashkil etish jarayonining nazariy va amaliy asoslari o‘rganilgan. Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik ahamiyati, pedagoglar zimmasiga yuklatilgan mas’uliyat hamda zamonaviy o‘qituvchining inklyuziv kompetensiyalari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv ta’limni joriy etishning dolzarb muammolari infratuzilmaning yetishmasligi, stereotiplar, malakali kadrlar kamligi va oilaviy-ijtimoiy to‘siqlar kabi masalalar yoritilib, mazkur tizimni samarali rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy takliflar bildiriladi. Maqola inklyuziv ta’limning insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslanishi, bolalarning ta’lim olish huquqi va jamiyatga teng qo‘shilishida beqiyos o‘rin tutishini asoslaydi.

Kirish. Mamlakatimizda qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, “Ta’lim hamma uchun” dasturi doirasida qabul qilingan qonun va qarorlar, jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririga kiritilgan o‘n beshinchi va yigirmanchi moddalari orqali alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarni umumta’lim tizimiga kiritish, ya’ni ular uchun maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflar tashkil etilishi qonunchilik asosida mustahkamlangan.

Inklyuziv ta’lim - umumta’lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo‘lgan ta’limni joriy qiladi. Alohida ehtiyoji bor bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiya olishi uchun qo‘shimcha moslamalarni tashkil qilib, bolalarni ta’lim olishiga qulay sharoit yaratadi.[1]

Adabiyotlar tahlili. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili ushbu sohaning tezkor rivojlanib borayotgan ilmiy-amaliy yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi. L.R.Mo‘minovaning inklyuziv ta’lim nazariyasi bo‘yicha ishlari (2018) ta’lim jarayonida insonparvarlik tamoyillarini ilgari surib, turli ehtiyojga ega bolalarning teng huquqli ishtirokini ta’minlash zarurligini asoslaydi[2]. D.S.Kaxarova tomonidan taklif etilgan inklyuziv ta’lim texnologiyalari (2014) esa pedagogik jarayonni moslashtirish, differensial o‘qitish va individual rivojlantiruvchi muhit yaratishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqqan[3].

Xalqaro adabiyotlarda (UNESCO, UNICEF, WHO) inklyuziv ta’lim ijtimoiy adolat va ta’limning demokratik tamoyillariga mos keluvchi global tendensiya sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda ta’limning estetik-madaniy, psixologik va sotsial o‘lchovlari orqali nogironligi yoki ehtiyoji bo‘lgan bolalarni jamiyat hayotiga to‘laqonli qo‘shishning samaradorligi ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4860 qarorida inklyuziv ta’limni rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslari aniq belgilab berilgan bo‘lib, uning konseptual yondashuvlari ilmiy-tadqiqot adabiyotlarida keltirilgan ilg‘or nazariyalar bilan uyg‘unlashadi[4]. Milliy adabiyotlarda inklyuziv muhitni yaratish jarayoni pedagoglar malakasining yetishmasligi, ota-onalarning xabardorlik darajasi pastligi va maktablarning texnik moslashuvi kabi masalalar bilan izohlanadi[5].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili inklyuziv ta’limni rivojlantirish ko‘p omilli jarayon ekanini va u bir vaqtning o‘zida huquqiy, psixologik, pedagogik, sotsial va tashkiliy yangilanishlarni talab qilishini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologiyasi inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doir huquqiy, pedagogik va psixologik jarayonlarni tizimli o‘rganishga asoslanadi. Tadqiqotda avvalo “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, PQ–4860-son qaror va inklyuziv ta’lim konsepsiyasi kabi me’yoriy hujjatlar normativ-huquqiy tahlil metodi orqali o‘rganildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari ilmiy-nazariy tahlil asosida ko‘rib chiqildi, bu esa inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari va pedagogik yondashuvlarini aniqlashga imkon berdi. Inklyuziv sinflarda uchraydigan muammolarni baholashda pedagogik kuzatuv, suhbat va diagnostika elementlari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy tajribalar taqqoslash metodi orqali solishtirilib, umumiy xulosalar chiqarildi. Barcha jarayonlar sistemali va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida tahlil qilinib, inklyuziv ta’limning o‘quvchi–o‘qituvchi–oila–jamiyat tizimidagi o‘rni aniqlab berildi.

Tadqiqot natijalari. Inklyuziv ta’lim – turli imkoniyatlarga ega bolalarning o‘qish huquqini ta’minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu ta’lim shakli dars berish metodikalarini moslashtirib, har bir o‘quvchining ehtiyojini hisobga olgan holda samarali o‘qitishni yo‘lga qo‘yishni maqsad qiladi. Agar bu yondashuv to‘g‘ri va samarali amalga oshirilsa, undan nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki barcha o‘quvchilar foyda ko‘radi. Inklyuziv maktablar har bir bolaning bilim olish huquqini himoya qiladi. Bu esa diskriminatsiyani kamaytiradi, o‘quvchilar o‘rtasida tenglikni ta’minlaydi va turli ehtiyojlarga ega shaxslar bilan muloqot qilish orqali bag‘rikenglik muhitini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son qarori va unga ilova qilingan “2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi[6]. Konsepsiyaning 20-moddasi (Inklyuziv ta’lim), 55-moddasi Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish hamda tarbiyalash va 56-moddasi (Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish va tarbiyalash)da alohida ko‘makka muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasiga qaratilganligi, inklyuziv ta’lim muhiti sharoitida kasbiy faoliyatni rivojlantirsh zaruriyatini taqazzo etadi.[7]

[1] L.R.Mo`minova. Inklyuziv ta`limnong nazariy va amaliy asoslari. T.: Compleks print. 2018. 8-bet
[2] L.R.Mo`minova. Inklyuziv ta`limnong nazariy va amaliy asoslari. T.: Compleks print. 2018. 8-bet
[3] Kaxarova D.S. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi. Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. – 192 b.
[4] “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori 2020-yil 13-oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 yil, 07/20/4860/1383-son)
[5] “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori 2020-yil 13-oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 yil, 07/20/4860/1383-son)
[6] “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori 2020-yil 13-oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 yil, 07/20/4860/1383-son)
[7] “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-

Inklyuziv ta’limning jamiyatdagi roli - yangi ijtimoiy me’yorlar, xulq-atvor va kommunikativ munosabatlarning shakllanishiga asos bo‘ladigan, ushbu ta’lim turi insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag‘rikenglik va oshkoralik tamoyillariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta’lim tizimining asosiy tamoyillari

Ta’lim tizimini samarali joriy etish har doim ma’lum bir qonun-qoidalar va tamoyillarga tayanadi. Inklyuziv ta’limni amalga oshirishda quyidagi asosiy prinsiplarga e’tibor beriladi:

1. Inklyuziv ta’limning qabul qilinishi va keng qo‘llanilishi.
2. Inklyuziv ta’limning barcha uchun erkin va ochiq bo‘lishi.
3. O‘quv jarayonida mustahkam aloqalarning mavjudligi.
4. Ta’lim tizimining markazlashtirilmagan shaklda tashkil etilishi.
5. Inklyuziv ta’limda kompleks, bir necha tomonlama yondashuvni qo‘llash.
6. Moslashuvchanlik tamoyili, ya’ni o‘quvchilar ehtiyojiga muvofiq tizimni sozlash.
7. Malaka va professionalizmning yuqori darajada bo‘lishi.
8. Jamiyat bilan yaqin hamkorlik va integratsiya.
9. Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, farqlari va ustunliklarini hisobga olish.
10. Refliksiv yondashuv va tizimning o‘zgarishlarga moslashuvi.

Inklyuziv ta’limning jamiyatdagi asosiy vazifalari:

- Jamiyatda hamjihatlik va murosani kuchaytirish, shuningdek, ijtimoiy qadriyatlar hamda axloqiy me’yorlarni shakllantirishda ishtirok etish;
- Hamma uchun teng bo‘lgan adolatli va sifatli ta’limga kirish imkonini ta’minlovchi tartiblarni yo‘lga qo‘yish;
- Shaxsning o‘zini ifoda etishi, hayoti davomida o‘z rolini topishi va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash;
- Har bir insonning ichki imkoniyatlari va iqtidorini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish;
- Jamiyatda madaniyat asoslarini rivojlantirish, ma’naviy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish hamda jamiyatga to‘laqonli qo‘shilish uchun imkoniyat yaratish;
- O‘quvchilarning ta’limdagi yutuqlariga erishishda ularni yagona jamoaga birlashtirish;
- Ilmiy, amaliy va shaxsiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali har tomonlama rivojlanishga yo‘l ochish.

Muhokama. Inklyuziv ta’limning jamiyatda eng muhim mohiyati bag‘rikenglikdan iborat.

Inklyuziv ta’lim — ta’lim olish huquqiga ega bo‘lgan barcha bolalarni, jumladan alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarni umumta’lim tizimiga keng qamrab olishi bilan birga, maxsus ehtiyojli bolalarga sifatli ta’lim berish imkoniyatini taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa bunday bolalarni uzluksiz umumiy ta’lim muhitiga integratsiyasini amalga oshirishni anglatadi. Bu jarayon quyidagicha o‘zining aniq huquqiy va ijtimoiy asoslariga ega bo‘lishini talab etiladi.



Inklyuziv ta’lim umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim ishtirokchilari bo‘lgan o‘quvchilar, direktorlar, ota-onalar va maxsus pedagoglarni bitta guruh bo‘lib, inklyuziyaning samarali bo‘lishi uchun hamkorlik qilishlarini talab qiladi.

Ko‘p hollarda alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ota-onalari o‘z farzandlarining ta’limga oid huquqlari va boshqa imkoniyatlari haqida to‘g‘ri fikrga ega bo‘lmaganliklari natijasida bunday bolalarga to‘g‘ri ta’lim berishni talab qila olmaydilar. Ota-onalar o‘z bolalaridagi nuqsonlar tufayli uyalish va o‘zini yo‘qotib qo‘yish kabi to‘siqlarni engishlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak. Barcha ota-onalar inklyuziv ta’limning mohiyati va mazmuni, shuningdek, bu tizim alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qanday keng imkoniyatlar yaratishi haqida to‘liq va tushunarli ma’lumotlarni berilishi zarur. Ota-onalarning o‘z farzandlariga ta’lim jarayonida yordam ko‘rsatish huquqi cheklanmasligi bilan birga, bu ko‘makni yanada rivojlantirish, kengaytirish lozim. Shu orqali ota-onalar nafaqat bolalarni o‘quv muassasalariga joylashtirish jarayonida, balki o‘quv dasturlarini belgilashda ham faol ishtirok etishlari, shuningdek ta’lim jarayonini uyda yoki boshqa muhitlarda davom ettirish bo‘yicha muhokamalarga jalb etilishi ta’minlanadi. Har qanday bola kamol topib sog‘lom o‘ssa, uning bilish faoliyati, sezgi qobiliyatlari mukammal rivojlanib borsa, bunday bolalar 6-7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinishga tayyor bo‘ladi. Lekin umumta’lim maktab o‘quvchilari orasida o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishda qiyinchilikni boshdan kechirayotgan bolalar uchrab turadi. Bolaning perinotal, natal va postnatal davrida rivojlanib borishi uchun muhim bo‘lgan ma’lum turdagi shartlarning buzilishi natijasida jismoniy, ruhiy va aqliy nuqsonlar kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday bolalarda eshitishda, ko‘rish qobiliyatida, nutqiy va aqliy faoliyatida nuqsonlar paydo bo‘ladi. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarni umumta’lim tizimiga jalb qilish va ularni to‘laqonli ta’lim tarbiya olish jarayoni pedagoglardan yuqori darajada mas’uliyat, bilim va pedagogik mahorat va yondashuvni talab etadi. Shu sababli, faqat oliy pedagogik ma’lumotga ega bo‘lgan, malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan va inklyuziv ta’lim sohasida

4860-sonli qarori 2020-yil 13-oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 yil, 07/20/4860/1383-son)

maxsus pedagogik kvalifikatsiyaga ega bo‘lgan mutaxassislargina inklyuziv sinflarda dars berish huquqiga ega bo‘lishlari lozim.

Inklyuziv sinf o‘qituvchisi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan umumiy vazifalardan tashqari quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratishi lozim:

Inklyuziv sinf o‘qituvchisi			
Ta’lim- tarbiya oluvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini to‘g‘rilash va me’yorga keltirish bo‘yicha korreksion ishlarni amalga oshirish	Bolalarda o‘z-o‘zini faollashtirishi va ta’lim samaradorligini oshirish uchun interfaol metodlarni qo‘llash	Kuzatuvchanlik, sinchkovlik, diqqat, xotira, e’tibor kabi kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish	Bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishi va qobiliyatlarini, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini, rivojlantirish

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi nuqsonli o‘quvchilarning inklyuziv ta’limini tashkil etishda o‘qituvchilar quyidagi jihatlarga e’tibor berishlari lozim.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish borasida bir qator qiyinchiliklar mavjud. Ushbu muammolar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Inklyuziv ta’limga oid davlat normativ-huquqiy hujjatlar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi yoki amalda to‘liq qo‘llanmasligi.
2. Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan jamiyatda mavjud bo‘lgan salbiy, o‘rinsiz, ijobiy bo‘lmagan qarashlar va stereotiplar.
3. Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyat hayotida “ko‘rinmas”ligi, ya’ni ularning ijtimoiy jarayonlardan chetda qolishlari.
4. Maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarning o‘zlarini to‘la ifoda eta olmasligi yoki ko‘zga tashlanmasligi.
5. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi, tejalishi bu esa inklyuziv ta’limni rivojlantirishga murakkab omil sifatida salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
6. Ta’lim muassasalarining imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirilmaganligi, moslashtirishidagi murakkabliklar va infratuzilma yetishmasligi.
7. Sinf va guruhlardagi bolalar sonining ko‘pligi, bu esa pedagoglar tomonidan individual yondashuv ko‘rsatishga vaqt yetishmasligi natijasidaa vaziyatni yanada qiyinlashishi.
8. Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tomondan kam ta’minlangan oilalardan chiqqan bolalar uchun ta’limga kirishda to‘siqlarning mavjudligi.
9. Jinsga asoslangan kamsitish va tengsizlik muomalalari.
10. Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramlik holatlari;
11. Favqulodda vaziyatlar, urushlar, nizolar va qochqinlik kabi holatlar ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;
12. Malakali kadrlarning yetishmasligi va pedagoglarning inklyuziv ta’lim sohasida yetarli tayyorgarlikka ega emasligi.

Xulosa. O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, PQ–4860-son qaror va inklyuziv ta’lim konsepsiyasida belgilangan vazifalar alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, ularni umumta’lim tizimiga to‘laqonli qo‘shish va jamiyatda diskriminatsiyani kamaytirishning huquqiy asoslarini mustahkamlab berdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim faqat bir toifadagi bolalar uchun emas, balki barcha o‘quvchilar uchun foydali bo‘lib, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, hamkorlik va ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi. Inklyuziv ta’lim natijadorligini ta’minlash esa ko‘p omilli jarayon bo‘lib, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, oila va maktab hamkorligi, infratuzilmaning moslashtirilganligi, jamiyatdagi ijobiy qarashlar va pedagogik yondashuvlarning moslashuvchanligiga bog‘liqdir. Shu bilan birga, malakali kadrlar yetishmasligi, stereotiplar, moddiy-resurs cheklovlari va ota-onalarning xabardorligi pastligi kabi muammolar inklyuziv ta’lim oldida turuvchi dolzarb vazifalar bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, pedagoglarning inklyuziv ta’lim sohasida maxsus tayyorgarligini kuchaytirish, innovatsion o‘qitish metodlarini joriy etish, ota-onalar bilan tizimli ishlash hamda ta’lim muassasalarining infratuzilmasini takomillashtirish inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umuman olganda, inklyuziv ta’limni rivojlantirish jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash, har bir bolaning ta’lim olish huquqini kafolatlash va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan demokratik ta’lim tizimini shakllantirishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mo‘minova L.R. Inklyuziv ta’limnong nazariy va amaliy asoslari. – T.: Compleks print, 2018. – 308 b.
2. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori 2020-yil 13-oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 yil, 07/20/4860/1383-son)
3. Kaxarova D.S. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi. Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. – 192 b.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Z.K.Kalendarova
Qo‘qon universiteti “Ta’lim” kafedrasi dotsent v.b.

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
11. Xodjayeva, D. Interfaol metodlar asosida boshlang‘ich sinflarda tasviriy ijodiyotni rivojlantirish. // Pedagogika jurnali. – 2021. – №2. – B. 45–52.
12. Axmedov, R. A. Raqamli texnologiyalar asosida tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
13. Yunusova, G. B. Boshlang‘ich ta’limda AKTning qo‘llanilishi va kreativ fikrlashni rivojlantirish omillari. – Toshkent: Fan, 2019.
14. Raximov, Sh. Sh. Pedagogik innovatsiyalar va ularning ta’lim sifati o‘sishidagi o‘rni. – Toshkent: TDPU, 2021.
15. Жукова, Е.В. Информационно-коммуникационные технологии в художественном образовании младших школьников. – Москва: Педагогика, 2018.

[16] Mayer, R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

[17] Xodjayeva, D. Interfaol metodlar asosida boshlang‘ich sinflarda tasviriy ijodiyotni rivojlantirish. // Pedagogika jurnali. – 2021. – №2. – B. 45–52.
Axmedov, R. A. Raqamli texnologiyalar asosida tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
Жукова, Е.В. Информационно-коммуникационные технологии в художественном образовании младших школьников. – Москва: Педагогика, 2018.

[18] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637.
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori. “Umumiy o‘rta ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari”. – 2021.

[19] Mayer, R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

[20] Жукова, Е.В. Информационно-коммуникационные технологии в художественном образовании младших школьников. – Москва: Педагогика, 2018.

[21] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 432 b.

[22] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

OTMLARDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATI JARAYONLARINI RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Toshkent xalqaro universiteti
info@tiu.uz

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil
Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 45
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1333

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Raqamli marketing, oliy ta’lim muassasalari, ijtimoiy tarmoqlar, SEO, kontent marketing, brend strategiyasi, maqsadli auditoriya, marketing avtomatlashtirish, CRM tizimlar, analitika, konversiya, talabalarni jalb qilish, xalqaro tajriba, raqamli transformatsiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida (OTM) raqamli marketing faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari va zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda nazariy tahlil, xalqaro amaliyotlarni qiyosiy o‘rganish hamda ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari optimizatsiyasi (SEO), kontent marketing va boshqa raqamli marketing vositalari samaradorligini baholash usullari tanlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing strategiyalarini to‘g‘ri qo‘llash OTMlarda talabalar sonini oshirish, brend taniqliligini kuchaytirish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro tajriba misolida AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Singapurdagi yetakchi universitetlarning raqamli marketing amaliyotlari tahlil qilinib, ularning ustunlik jihatlari ochib berilgan. OTMlarda raqamli marketingni rivojlantirishda asosiy e’tibor maqsadli auditoriyani aniqlash, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishga qaratilishi lozimligi asoslab berilgan.

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari davrida oliy ta’lim muassasalari oldida yangi talabalar jalb qilish, mavjud talabalarni ushlab qolish va universitetning obro‘-e’tiborini oshirish kabi muhim vazifalar turibdi. Raqamli marketing bugungi kunda OTMlar uchun nafaqat reklama vositasi, balki strategik boshqaruv instrumenti sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bo‘ylab universitetlar raqamli marketing vositalaridan keng foydalanib, o‘z brendlarini rivojlantirish, xalqaro miqyosda taniqlilikka erishish va talabalarni jalb qilish jarayonlarini optimallashtirmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida islohotlar jadal amalga oshirilayotgan bir paytda, OTMlarning raqamli marketing faoliyatini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli marketing orqali universitetlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorda ham o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bois, ushbu maqolada OTMlarda raqamli marketing faoliyat jarayonlarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari, xalqaro tajribalar va samarali strategiyalar tahlil qilinadi. Jumladan, Search Engine Optimization (SEO), Social Media Marketing (SMM), Content Marketing, Email Marketing va Marketing Automation kabi zamonaviy raqamli marketing vositalari hamda AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarning eng yaxshi amaliyotlari ko‘rib chiqamiz.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli marketing sohasida ko‘plab olimlar tomonidan chuqur tadqiqotlar olib borilgan. Kotler va Keller (2021) o‘z tadqiqotlarida zamonaviy marketing strategiyalarida raqamli vositalarning ahamiyatini ta’kidlab, raqamli marketingning an’anaviy marketing bilan integratsiyalashuvi muhimligini ilmiy asoslab berganlar[1]. Ularning fikricha, muvaffaqiyatli marketing strategiyasi an’anaviy va raqamli kanallarning uyg‘un kombinatsiyasiga asoslangan bo‘lishi kerak. Shuningdek, ular mijozlar sayohati (customer journey) konsepsiyasini raqamli muhitda qo‘llash zaruratini ko‘rsatib berganlar.

Chaffey va Ellis-Chadwick (2019) esa raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda RACE (Reach, Act, Convert, Engage) modelining samaradorligini ochib berishadi[2]. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli marketing strategiyasi aniq belgilangan maqsadlar, maqsadli auditoriya tahlili va uzluksiz monitoring asosida qurilishi kerak. Ular raqamli kanallar orqali mijozlarni jalb qilish va ushlab qolishda kontent marketingning alohida o‘rnini ta’kidlaganlar.

Ryan (2020) tomonidan ilgari surilgan qarashlarda raqamli marketing vositalari orasida ijtimoiy tarmoqlarning alohida o‘rni ta’kidlangan[3]. Unga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat reklama platformasi, balki mijozlar bilan ikki tomonlama muloqot vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etuvchi brendlar iste'molchilar ishonchini qozonishda sezilarli afzalliklarga ega.

Hanover Research (2022) “Digital Marketing Trends in Higher Education” nomli hisobotida oliy ta’lim muassasalarida raqamli marketingning o‘ziga xos jihatlarini chuqur o‘rganganlar[4]. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, OTMlarda raqamli marketing strategiyasi talabalarning qarori qabul qilish jarayonini (decision-making journey) to‘liq qamrab olishi kerak. Bu yondashuv raqamli marketing resurslaridan samarali foydalanish va konversiya ko‘rsatkichlarini oshirish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligiga asoslangan. Avvalo, OTMlarda raqamli marketingning zamonaviy modellari bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlar va xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli orqali AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Singapurdagi ilg‘or amaliyotlar o‘rganildi. Bundan tashqari, asosiy raqamli marketing ko‘rsatkichlari - Conversion Rate (CR), Cost Per Acquisition (CPA), Return on Investment (ROI), Engagement Rate va Web Traffic - indikator sifatida qo‘llanib, OTMlar marketing faoliyati samaradorligiga ta'siri baholandi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar analitikasi, SEO ko‘rsatkichlari tahlili va turli marketing kanallari samaradorligini solishtirish usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, Content Marketing va Marketing Automation tizimlarining afzalliklari amaliy misollar orqali asoslanlangan. Ushbu yondashuv natijalarning ishonchliligini ta'minlash va ilmiy xulosalarni puxta asoslashga imkon berdi.

Natijalar. Tadqiqot davomida, samarali raqamli marketingning asosiy mezonlari bo‘lgan maqsadli auditoriyaga yetib borish, konversiyani oshirish, brend taniqliligini kuchaytirish kabi asosiy marketing ko‘rsatkichlarini (Conversion Rate, Cost Per Acquisition, Engagement Rate, Web Traffic) ko‘rib o‘tamiz. Zamonaviy sharoitda OTMlar raqamli marketing faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish uchun quyidagi model va instrumentlardan foydalanmoqda.

1. Qidiruv tizimlarini optimallashtirish (Search Engine Optimization - SEO). SEO - bu veb-saytning qidiruv tizimlarida (Google, Yandex, Bing) yuqori pozitsiyalarga chiqishini ta'minlash bo‘yicha kompleks ishlar majmuasi. OTMlar uchun SEO talabalar va ularning ota-onalari qidiruv so‘rovlarida universitetni birinchi sahifalarda topishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. SEO on-page (sayt ichidagi) va off-page (sayt tashqarisidagi) optimizatsiya, texnik SEO va kontent optimizatsiyasini o‘z ichiga oladi. On-page SEO sahifa sarlavhalari, meta-tavsiflar, kalit so‘zlar va kontent sifatini optimallashtirish demakdir. Off-page SEO esa tashqi havolalar (backlinks) olish, ijtimoiy

[1] Kotler, P., & Keller, K. L. (2021). Marketing Management. 16th Edition. Pearson Education.
[2] Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. 7th Edition. Pearson.
[3] Ryan, D. (2020). Understanding Digital Marketing: Marketing Strategies for Engaging the Digital Generation. 5th Edition. Kogan Page.
[4] Hanover Research. (2022). Digital Marketing Trends in Higher Education. Hanover Research Report.

signallar va onlayn obro‘-e'tiborni boshqarishni anglatadi. Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri SEO strategiyasiga ega universitetlar organik trafik orqali 40-60% ko‘proq potentsial talabalar bilan aloqa o‘rnatishi mumkin. SEO natijalarini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlar - organik trafik hajmi, kalit so‘zlar pozitsiyasi va bounce rate (sahifani tark etish ko‘rsatkichi) hisoblanadi.

2. Ijtimoiy tarmoqlar marketingi (Social Media Marketing - SMM). Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yosh avlod bilan muloqot o‘rnatishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. OTMlar uchun Instagram, Facebook, YouTube, TikTok, LinkedIn va Telegram kabi platformalar talabalar bilan bevosita aloqa o‘rnatish, universitet hayotini ko‘rsatish va brend imidjini shakllantirish imkoniyatini beradi. SMM strategiyasining asosiy elementlari - kontent rejasi, posting jadvalini belgilash, auditoriya bilan muloqot va reklamalani boshqarish. Ijtimoiy tarmoqlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun har bir platformaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim. Masalan, Instagram vizual kontent uchun ideal bo‘lsa, LinkedIn professional aloqalar va karyera imkoniyatlari uchun samarali. Engagement rate (faollik darajasi) ijtimoiy tarmoqlar samaradorligini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, u likes, comments, shares va saves ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarda faol universitetlar talabalar orasida 35% yuqoriroq taniqlilikka ega.

3. Kontent marketing (Content Marketing). Bu qimmatli va foydali kontent yaratish orqali maqsadli auditoriyani jalb qilish strategiyasi. OTMlar uchun kontent marketing blog maqolalari, video kontentlar, infografikalar, vebinarlar, podkastlar va interaktiv kontentlarni o‘z ichiga oladi. Kontent marketingning asosiy tamoyili - potentsial talabalar uchun qimmatli ma'lumot taqdim etish orqali ishonch qozonish va universitetga qiziqishni oshirish. Samarali kontent marketing strategiyasi uchun: maqsadli auditoriyaning qiziqishlari va muammolarini aniqlash; turli formatdagi kontentlar yaratish; SEO optimizatsiyasi; kontent promosyonini tashkil etish; natijalarni tahlil qilish kabi bosqichlarni qamrab olish lozim. Blog maqolalari universitetning ekspertlik darajasini ko‘rsatish, video kontentlar esa kampus hayoti va o‘quv jarayonini vizuallashtirishda samarali. Tadqiqotlarga ko‘ra, muntazam va sifatli kontent chiqaradigan OTMlar veb-saytga trafik oqimini o‘rtacha 55% ga oshirishga erishadilar.

4. Email marketing va avtomatlashtirish. Email marketing potentsial talabalar bilan shaxsiylashtirilgan muloqot o‘rnatishning eng samarali usullaridan biri bo‘lib qolmoqda. Marketing avtomatlashtirish (Marketing Automation) esa email kampaniyalarini segmentatsiya, trigger-based xabarlar va personalizatsiya orqali optimallashtirish imkoniyatini beradi. OTMlar uchun email marketing quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi: potentsial talabalarni nurturing (parvarish qilish); qabul jarayoni haqida xabar berish; tadbirlar va ochiq eshiklar kunlari haqida ma'lumot tarqatish; bitiruvchilar bilan aloqani davom ettirish. Marketing automation tizimlarining afzalligi shundaki, ular har bir potentsial talabaning harakatlariga qarab avtomatik ravishda tegishli xabarlarni yuboradi. Masalan, agar talaba ma'lum fakultet sahifasiga tashrif buyursa, unga shu yo‘nalish haqida qo‘shimcha ma'lumot avtomatik yuboriladi. Email marketing samaradorligini baholash uchun Open Rate (ochilish ko‘rsatkichi), Click-Through Rate (bosish ko‘rsatkichi) va Conversion Rate kabi metrikalarda foydalaniladi. Samarali email marketing kampaniyalari 15-25% oralig‘ida open rate ko‘rsatkichiga ega bo‘lishi kerak.

5. Pullik reklama (PPC va Display Advertising). Pay-Per-Click (PPC) va display reklamalari OTMlar uchun tezkor natija olish va maqsadli auditoriyaga aniq yetib borish imkoniyatini beradi. Google Ads, Facebook Ads, Instagram Ads va YouTube Ads kabi platformalar orqali universitetlar potentsial talabalarni geografik joylashuv, yosh, qiziqishlar va xatti-harakatlar bo‘yicha segmentlashtirib reklama yuritishi mumkin. PPC reklamaning asosiy afzalligi - bu faqat haqiqiy qiziqish bildirgan foydalanuvchilar uchun to‘lov amalga oshirilishi. Cost Per Click (CPC) va Cost Per Acquisition (CPA) ko‘rsatkichlari reklama kampaniyalari samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Remarketing strategiyalari orqali universitetlar ilgari saytga tashrif buyurgan, lekin hali ariza topshirmagan potentsial talabalarni qayta jalb qilishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, to‘g‘ri sozlangan PPC kampaniyalar organik usullarga nisbatan 2-3 barobar tezroq natija beradi, lekin uzoq muddatda SEO va kontent marketing arzonroq va barqarorroq natijalar ta'minlaydi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda OTMlar raqamli marketing sohasida boy tajriba to‘plagan. Quyida AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Singapur misolida ayrim eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganamiz.

AQSh universitetlari, ayniqsa yirik tadqiqot universitetlari, raqamli marketingda ilg‘or texnologiyalar va strategiyalardan foydalanishga moyil. Masalan, ko‘pchilik universitetlar maxsus raqamli marketing bo‘limlariga ega bo‘lib, ular data-driven (ma'lumotlarga asoslangan) yondashuvni qo‘llaydilar. Harvard, Stanford va MIT kabi yetakchi universitetlar ijtimoiy tarmoqlarda millionlab obunachilariga ega va ular professional kontent ishlab chiqarish jamoalariga ega. AQShda CRM (Customer Relationship Management) tizimlari keng tarqalgan - bu tizimlar potentsial talabalar bilan barcha aloqalarni kuzatib borish va personalizatsiya qilish imkoniyatini beradi. Haqiqatan ham, AQSh universitetlarining 87% dan ortig‘i marketing automation tizimlaridan foydalanadi. Shuningdek, AQShda video marketing alohida ahamiyat kasb etadi - universitetlar YouTube kanallarida virtual turlar, talabalar hikoyalari va o‘quv jarayoni haqida professional sifatli videolar joylashtiradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, AQSh universitetlari raqamli marketing orqali keng auditoriyaga yetib borishga erishmoqda. Bundan tashqari, AQShda influencer marketing ham rivojlangan - universitetlar talaba va bitiruvchilarni brend ambassadorlari sifatida jalb qiladi.

Buyuk Britaniya universitetlari raqamli marketingda sifat va innovatsiyaga alohida e'tibor qaratadi. Ko‘p britaniya universitetlari xalqaro talabalarni jalb qilishda raqamli marketingning muhim rolini tan oladi va maxsus xalqaro marketing strategiyalarini ishlab chiqadi. Ayniqsa, Oxford, Cambridge va Imperial College kabi universitetlar global brend sifatida raqamli mavjudligini mustahkamlashga katta e'tibor beradi. Britaniyada UCAS (Universities and Colleges Admissions Service) platformasi orqali markazlashgan qabul tizimi mavjud bo‘lib, universitetlar ushbu platformada o‘z raqamli marketing faoliyatini optimallashtiradi. Britaniya universitetlarida personalizatsiya darajasi yuqori - har bir potentsial talabaga uning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kontent taqdim etiladi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada chatbotlar va AI-asosidagi yordamchilar keng qo‘llaniladi - bu vositalar potentsial talabalar savollariga 24/7 javob berish imkoniyatini ta'minlaydi. Umuman olganda, Britaniya universitetlarining raqamli marketing strategiyasi xalqaro miqyosda brend taniqliligini oshirish va sifatli talabalarni jalb qilishga yo‘naltirilgan.

Janubiy Koreya universitetlari raqamli marketingda ayrim o‘ziga xos jihatlarga ega. Birinchidan, Koreya universitetlari mahalliy ijtimoiy tarmoqlar (Naver, KakaoTalk) da faol ishtirok etadi, bu esa mahalliy auditoriyaga samarali yetib borish imkonini beradi. Xalqaro miqyosda esa YouTube, Instagram va Twitter platformalaridan keng foydalaniladi. Seoul National University, KAIST va Yonsei kabi yetakchi universitetlar raqamli marketing bo‘yicha maxsus strategiyalarga ega. Koreyada mobile-first yondashuv keng tarqalgan - barcha raqamli kontent va platformalar avvalo mobil qurilmalar uchun optimallashtiriladi. Ikkinchidan, Janubiy Koreyada K-pop va Hallyu (Koreya to‘lqini) madaniyati ta'sirida kreativ va vizual jihatdan jozibador kontent yaratishga alohida e'tibor beriladi. Universitetlar professional sifatli videolar, animatsiyalar va interaktiv kontentlar ishlab chiqaradi. Uchinchidan, Koreyada data analytics va AI vositalari orqali marketing kampaniyalari samaradorligini real vaqtda kuzatish va optimallashtirishga alohida e'tibor beriladi. Umuman, Janubiy Koreya tajribasining asosiy sabog‘i shundaki: raqamli marketingda kreativlik va texnologik innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish muhim.

Singapur - Osiyodagi yetakchi ta'lim markazlaridan biri bo‘lib, bu erdagi universitetlar raqamli marketingning zamonaviy usullarini jadal joriy etmoqda. NUS (National University of Singapore), NTU (Nanyang Technological University) va SMU (Singapore Management University) kabi universitetlar xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallaydi va ularning raqamli marketing strategiyalari ham shunga mos ravishda professional. Singapur universitetlarining raqamli marketing faoliyatida quyidagi o‘ziga xosliklar kuzatiladi: xalqaro talabalarni jalb qilishga yo‘naltirilgan kontent strategiyasi; ko‘p tilli kontent (ingliz, xitoy, malay tillarda); LinkedIn va professional tarmoqlarda faol ishtirok; alumni (bitiruvchilar) tarmog‘idan samarali foydalanish. Singapurda hukumat tomonidan ham raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlash dasturlari mavjud bo‘lib, bu universitetlarga zamonaviy raqamli marketing vositalarini joriy etishda yordam beradi. Shuningdek, Singapur universitetlari omnichannel yondashuvni qo‘llaydi - barcha raqamli kanallar (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, email, mobil ilovalar) yagona strategiya doirasida integratsiyalashgan. Singapurda raqamli marketing samaradorligini baholashda ROI (Return on Investment)

ko‘rsatkichiga alohida e'tibor beriladi. Quyida har bir ko‘rib chiqilgan mamlakatdagi OTMlar raqamli marketing amaliyotining o‘ziga xos jihatlari qisqacha taqqoslab o‘tamiz.

1-jadval. OTMlarda raqamli marketing bo‘yicha xorijiy davlatlarning o‘ziga xos amaliyotlari[5]

№	Davlat nomi	OTMlarda raqamli marketing bo‘yicha o‘ziga xos amaliyotlar
1	AQSh	- Data-driven marketing yondashuvi. Universitetlarning 87% dan ortig‘i marketing automation tizimlaridan foydalanadi. - CRM tizimlaridan keng foydalanish va potentsial talabalar bilan barcha aloqalarni personalizatsiya qilish amaliyoti keng tarqalgan. - Video marketing va influencer marketing strategiyalari orqali keng auditoriyaga yetib borish ommalashgan.
2	Buyuk Britaniya	- Universitetlar xalqaro talabalarni jalb qilishga yo‘naltirilgan maxsus marketing strategiyalariga ega, global brend sifatida mavjudligini mustahkamlashga katta e'tibor beriladi. - UCAS platformasi orqali markazlashtirilgan qabul tizimi mavjud, personalizatsiya darajasi yuqori. - Chatbotlar va AI-asosidagi yordamchilar keng qo‘llaniladi: potentsial talabalar savollariga 24/7 javob berish imkoniyati ta'minlangan.
3	Janubiy Koreya	- Mahalliy ijtimoiy tarmoqlar (Naver, KakaoTalk) va xalqaro platformalardan faol foydalanish, mobile-first yondashuv keng tarqalgan. - K-pop va Hallyu madaniyati ta'sirida kreativ va vizual jihatdan jozibador kontent yaratishga alohida e'tibor beriladi. - Data analytics va AI vositalari orqali marketing kampaniyalari samaradorligini real vaqtda kuzatish va optimallashtirish yo‘lga qo‘yilgan.
4	Singapur	- Xalqaro talabalarni jalb qilishga yo‘naltirilgan ko‘p tilli kontent strategiyasi (ingliz, xitoy, malay tillarida) mavjud. - Hukumat tomonidan raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlash dasturlari mavjud, alumni tarmog‘idan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. - Omnichannel yondashuv: barcha raqamli kanallar yagona strategiya doirasida integratsiyalashgan, ROI ko‘rsatkichiga alohida e'tibor beriladi.

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, AQShda data-driven marketing, CRM va video marketing orqali keng auditoriyaga yetib borishga yo‘naltirilgan. Buyuk Britaniyada xalqaro talabalarni jalb qilish, personalizatsiya va AI-asosidagi vositalardan foydalanish ustunlik qiladi. Janubiy Koreyada kreativlik, mobile-first yondashuv va mahalliy platformalardan samarali foydalanish kuzatiladi. Singapurda esa ko‘p tilli kontent, omnichannel yondashuv va ROI ga yo‘naltirilgan strategiya ustunlik qiladi.

Muhokama. Bizning fikrimizcha, OTMlarda raqamli marketingni samarali rivojlantirish uchun quyidagi asosiy mezon va maqsadlarga erishishga intilish kerak:

- Maqsadli auditoriyani aniq belgilash - bu OTM qaysi segmentdagi talabalarni jalb qilmoqchi ekanligini aniq tushunishni ta'minlaydi. Samarali raqamli marketingning birinchi sharti - maqsadli auditoriyaning demografik xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va onlayn xatti-harakatlarini chuqur o‘rganishdir. Bunga erishish uchun OTM potentsial talabalarning buyer persona (ideal mijoz profili) larini yaratadi, ularning qaror qabul qilish jarayonini tahlil qiladi hamda segmentatsiya asosida personalizatsiyalashgan kontent tayyorlaydi. Marketing mutaxassislari maqsadli auditoriyani to‘g‘ri aniqlash orqali reklama byudjetidan samarali foydalanish, konversiya ko‘rsatkichlarini oshirish va sifatli talabalarni jalb qilish kabi afzalliklarga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar.

- Raqamli marketing xavflarini boshqarish. Raqamli marketingdagi xavflar asosan brend reputatsiyasiga zarar yetkazilishi, marketing byudjetining samarasiz sarflanishi yoki noto‘g‘ri maqsadli auditoriyaga yetib borish kabi omillardir. Samarali boshqaruv bu tavakkalchiliklarni imkon qadar pasaytirishga qaratilgan. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda krizis kommunikatsiyasi rejasiga ega bo‘lish, reklama kampaniyalarini A/B testing orqali sinab ko‘rish va marketing analitikasi orqali doimiy monitoring olib borish muhimdir. Shuningdek, ma'lumotlar xavfsizligi va foydalanuvchilar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish (GDPR va boshqa qonunchilik talablariga rioya qilish) ham raqamli marketingda xavflarni kamaytirishning muhim jihatidir.

- Marketing investitsiyalaridan samarali foydalanish. Raqamli marketingni boshqarish nafaqat kontent yaratish va reklama yuritishni, balki marketing byudjetini samarali taqsimlashni ham o‘z ichiga oladi. Agar OTMda ma'lum bir paytda marketing resurslari ortiqcha bo‘lsa, ularni bekor qoldirmasdan strategik yo‘nalishlarga yo‘naltirish kerak. Samarali marketing boshqaruvi har qanday resurs ortiqchaligini oqilona joylashtirishni nazarda tutadi. Masalan, kam samarali kanallardagi byudjetni yuqori ROI ko‘rsatuvchi kanallarga qayta yo‘naltirish yoki yangi marketing texnologiyalariga investitsiya qilish mumkin. Muhimi, bu investitsiya qarorlari asosli ma'lumotlarga tayanishi va asosiy marketing maqsadlariga xizmat qilishi lozim.

Conversion Rate (CR) - konversiya ko‘rsatkichi, bu potentsial talabalarning qancha foizi haqiqiy talabaga aylanganini ko‘rsatadi. Agar CR yuqori va yildan-yilga o‘sib borsa, demak OTM o‘z raqamli marketing faoliyati orqali barqaror ravishda sifatli natijalar yaratamoqda, bu esa uning strategiyasi samarali ekanini bildiradi. Aksincha, CR past yoki o‘zgaruvchan bo‘lsa, OTM qaysidir joyda marketing kanallarini noto‘g‘ri tanlayotgani yoki kontent sifati yetarli emasligini ko‘rsatishi mumkin. Cost Per Acquisition (CPA) - bitta yangi talabani jalb qilish uchun sarflangan o‘rtacha xarajat. Bu ko‘rsatkich marketing samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. CPA past bo‘lsa, marketing byudjeti samarali sarflanayotganini bildiradi. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko‘ra, 2023 yilda oliy ta'lim sohasida o‘rtacha CPA 50-150 dollar oralig‘ida bo‘lgan, lekin bu ko‘rsatkich mamlakatlar va universitetlarga qarab katta farq qiladi.

Xulosa va takliflar. OTMlar raqamli marketing faoliyatini samarali boshqara olishligi ularning barqaror rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan zamonaviy yo‘nalishlar - SEO, SMM, kontent marketing, email marketing va marketing avtomatlashtirish - OTMlarga o‘z marketing faoliyatini xolis va tezkor baholab borish, raqamli kanallarni optimal yo‘naltirish imkonini beradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatmoqdaki, har bir mamlakat o‘zining afzallik jihatlari mavjud bo‘lsa-da, barcha uchun umumiy ahamiyatli jihat - bu ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va doimiy monitoring.

Raqamli marketingni boshqarishda maqsadli auditoriyani aniq belgilash, tavakkalchiliklarni uzoqni ko‘rib kamaytirish va marketing byudjetini to‘g‘ri investitsiyalarga yo‘naltirish orqali OTM o‘z marketing faoliyatini sog‘lom ushlab turadi. Zamonaviy sharoitda raqobatdoshlikni ta'minlash uchun OTMlar nafaqat an'anaviy marketing usullariga, balki raqamli vositalarga ham katta e'tibor qaratishlari kerak - chunki aynan raqamli marketing ularga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Shu bois, OTMlarning marketing bo‘limlari va rahbariyati uchun bugungi kun talabi - raqamli marketingni dinamik, xolis va global tahlil qilish, tegishli ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilib borish va xalqaro tajribaning eng yaxshi usullarini o‘z faoliyatiga tatbiq etishdir. Samarali raqamli marketing boshqaruviga erisha olgan OTMlar o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlariga marketing poydevori hozirlaydilar va turli iqtisodiy sharoitlarda ham muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kotler, P., Keller, K. L. (2021). Marketing Management. - 16-nashr. Pearson Education.

2. Chaffey, D., Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. - 7-nashr. Pearson.

3. Ryan, D. (2020). Understanding Digital Marketing: Marketing Strategies for Engaging the Digital Generation. - 5-nashr. Kogan Page.

4. Hanover Research. (2022). Digital Marketing Trends in Higher Education. - Hanover Research Report.

[5]Muallif tomonidan tayyorlandi

5. Kingsnorth, S. (2022). Digital Marketing Strategy: An Integrated Approach to Online Marketing. - 3rd Edition. Kogan Page.

6. Statista. (2024). Digital Marketing Spending in Higher Education Worldwide. - Statista Report.

7. World Bank. (2023). Digital Transformation in Higher Education. - World Bank Publications.

8. Rahmonov, A. B. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida marketing strategiyalari. - Toshkent: Iqtisodiyot.

9. Karimov, S. X. (2022). Raqamli marketing asoslari va amaliyoti. - Toshkent: Fan va texnologiya.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

O‘ZBEKISTON TURIZM SANOATIDAGI MUVAFFAQIYATNI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARINI ISHLAB CHIQISH MEXANIZMLARI

Esonboyev Baxodir Bakir o‘g‘li
O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik akademiyasi,
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: bakhodiresonboyev2909@gmail.com
ORCID: 0009-0001-8988-9808

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil
Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 46
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1334

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Turizm sanoati, muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari, turizm statistikasi, baholash mexanizmlari, strategik rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, barqaror turizm.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmog‘iga aylanib borayotgan turizm sanoatining samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan an’anaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunga qadar soha muvaffaqiyati asosan miqdoriy ko‘rsatkichlar ya’ni turistlar oqimi bilan o‘lchanib kelmoqda, biroq iqtisodiy sifat va barqaror rivojlanish darajasini aks ettiruvchi kompleks indikatorlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bundan kelib chiqib, turizm industriyasining muvaffaqiyatini baholashda “Ko‘p o‘lchamli baholash mexanizmi” taklif etiladi. Mazkur mexanizm o‘z ichiga iqtisodiy multiplikator samarasi, hududiy infratuzilmaning yuklanish indeksi, xizmatlar eksportining diversifikatsiyasi hamda raqamli transformatsiyaning turizm mahsuloti tannarxiga ta’sirini baholashni oladi. Ushbu tadqiqot natijalari turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholashda davlat siyosatini shakllantirish va investitsiya dasturlarini rejalashtirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida turizm industriyasi nafaqat xizmat ko‘rsatish sohasining tarkibiy qismi, balki milliy iqtisodiyotlarning barqarorligini ta’minlovchi, eksport salohiyatini yuqori darajada diversifikatsiya qiluvchi va hududiy mutanosiblikni yuzaga keltiruvchi strategik drayverga aylandi. [1] O‘zbekiston Respublikasining so‘nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar kun tartibida turizm sohasini iqtisodiyotning “lokomotivi” sifatida rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan bo‘lib, bu borada viza rejimining liberallashtirilishi, turistik infratuzilmaning modernizatsiyalashuvi va xalqaro brendning shakllantirilishi bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. [2] Biroq, sohada kuzatilayotgan miqdoriy o‘sish sur’atlari, xususan, sayyohlar oqimining keskin ortishi har doim ham iqtisodiy sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi bilan hamohang kechmayotganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy-metodologik izlanishlar olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunga qadar turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholashda asosan ekstensiv ko‘rsatkichlar – kelayotgan xorijiy sayyohlar soni va ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi kabi an’anaviy yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Vaholanki, zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari turizm muvaffaqiyatini faqatgina statistik oqim bilan emas, balki “har bir sayyohning o‘rtacha xarajati”, “bir kechalik yashashdan tushgan sof daromad” (RevPAR), “turizm multiplikatori samarasi” hamda “destinatsiyalarning ekologik va infratuzilmaviy yuklanish darajasi” kabi murakkab indikatorlar orqali o‘lchashni taqozo etmoqda. O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkichlarni tizimli hisoblash va ularni davlat investitsiya siyosati bilan integratsiya qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, ko‘p hollarda sohadagi real holatni baholashda nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa turizm industriyasining muvaffaqiyatini baholashda faqat miqdoriy emas, balki qiymatga yo‘naltirilgan va barqaror rivojlanish prinsiplariga asoslangan ko‘p o‘lchamli mexanizmlarni ishlab chiqishning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida turizm sanoati samaradorligini baholashning xalqaro standartlari tahlil qilinib, milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, raqamlashtirish darajasi va infratuzilmaviy salohiyatini hisobga oluvchi integrallashgan indikatorlar tizimini yaratish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonning turizm sektori va uning tarkibiy infratuzilmasi olingan bo‘lib, asosiy maqsad – sohadagi yutuqlarni aniq iqtisodiy modellar asosida baholash va davlat strategik qarorlarini shakllantirish uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Turizm industriyasining iqtisodiy samaradorligini baholash va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ta’sirini tahlil qilish masalalari zamonaviy iqtisodiyot fanining murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xalqaro miqyosda turizm iqtisodiyotining nazariy-metodologik asoslari Maykl Porter, Duglas Frextling [3], Rixard Butler va Norbert Vanhove kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, M. Porter o‘zining raqobatbardoshlik nazariyasida turizm destinatsiyalarining muvaffaqiyatini faqat tabiiy resurslar bilan emas, balki innovatsion infratuzilmaviy klasterlarning o‘zaro integratsiyalashuvi bilan bog‘laydi. [4] Uning fikricha, turizm klasterlari ixtisoslashgan xizmatlar sifatini oshirish orqali tarmoqning yalpi samaradorligini ta’minlaydi. Taniqli iqtisodchi D. Frextling turizmning iqtisodiy ta’sirini o‘lchashda faqatgina to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushumlarga tayanmaslikni, balki "Turizm sun’iy yo‘ldosh hisoblari" (TSA) tizimi orqali bilvosita va induksiyalangan samaralarni (multiplikativ effekt) hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Bu yondashuv turizmga kiritilgan investitsiyaning turdosh tarmoqlar (transport, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati) rivojiga qo‘shayotgan hissasini baholash imkonini beradi. Shuningdek, R. Butler destinatsiyaning hayotiy sikli modelida muvaffaqiyat ko‘rsatkichlarini vaqt omili va ekologik sig‘im bilan aloqadorlikda ko‘rib chiqadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan N. To‘xliyev va T. Abdullaeva O‘zbekiston sharoitida turizm xizmatlari bozorini shakllantirishning institutsional asoslari va marketing strategiyalarini tadqiq etishgan. [5] Ularning ishlarida turizm salohiyatini baholashda hududiy o‘ziga xosliklar va tarixiy-madaniy meros obyektlarining iqtisodiy aylanmadagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotchi I.S. Tuxfatullin turizm boshqaruvini takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ilgari surgan bo‘lsa, B. Safarov turizm sohasini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish metodologiyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.[6]

Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm infratuzilmasining raqobatbardoshligini va muvaffaqiyatini baholashda “Ko‘p o‘lchamli baholash mexanizmi”dan foydalanish, xususan, raqamli transformatsiya indeksini iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan integratsiyalash masalalari hali yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish mazkur maqolaning asosiy tadqiqot obyektini belgilaydi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmoni.
[2] O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi Qonuni (yangi tahriri).
[3] Frechtling, D.C. (2012). The Economic Impact of Tourism: Overview and Concepts. Routledge.
[4] Porter, M.E. (1998). On Competition. Harvard Business Review Book.
[5] Tuxliyev N., Abdullayeva T. (2020). Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. Toshkent.
[6] Safarov B.S. (2022). Turizm sohasini ekonometrik modellashtirishning nazariy va uslubiy asoslari. Monografiya.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholash uchun tizimli tahlil va qiyosiy-mantiqiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida an’anaviy statistik ma’lumotlarni sifat ko‘rsatkichlari bilan sintez qilishga qaratilgan “Ko‘p o‘lchamli baholash mexanizmi” tanlab olindi. Ushbu mexanizm sohani baholashda uchta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi.

Birinchi yo‘nalishda ekonometrik tahlil va multiplikativ samaradorlik metodidan foydalanildi. Bunda turizm sanoatining faqatgina bevosita daromadlari masalan, mehmonxona tushumlari emas, balki uning turdosh tarmoqlarga – transport, umumiy ovqatlanish, milliy hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish sohalariga ko‘rsatadigan bilvosita ta’siri tahlil qilindi. Bu metod turizmga yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiyotdagi “zanjir reaksiyasi”ni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi metodologik bosqichda barqaror rivojlanish va infratuzilmaviy sig‘im (Carrying Capacity) tahlili qo‘llanildi.[7] Mazkur metod yordamida turistik maskanlarning jismoniy infratuzilmasi ya’ni yo‘llar, mehmonxonalar, axborot markazlari kelayotgan turistlar oqimiga qanchalik javob bera olishi o‘rganildi. Bu yerda muvaffaqiyat ko‘rsatkichi sifatida obyektlarning soni emas, balki ularning sifat darajasi va turistlarning mamnunlik koeffitsiyenti asosiy mezon qilib olindi.

Uchinchi yo‘nalishda raqamli transformatsiyani baholash metodikasi ishlab chiqildi. Bunda turizm sanoatining muvaffaqiyati sohaning raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasi bilan o‘lchanadi. Metodologiya doirasida onlayn xizmatlarning ommabopligi, elektron to‘lov tizimlarining qamrovi va turistik ma’lumotlarning raqamli ochiqligi kabi indikatorlar tizimlashtirildi.

Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Turizm qo‘mitasining rasmiy hisobotlari, shuningdek, xalqaro reyting agentliklarining dinamik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Ma’lumotlarni qayta ishlashda mantiqiy guruhlash va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi, bu esa olingan natijalarning xolisligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi. Mazkur metodologik yondashuv turizm sohasidagi o‘sishni nafaqat raqamlarda, balki iqtisodiy sifat o‘zgarishlarida ko‘rish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. O‘zbekiston turizm sanoatidagi muvaffaqiyat ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish natijasida sohada miqdoriy o‘sishdan sifat bosqichiga o‘tish tendensiyasi aniqlandi. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi nafaqat sayyohlar oqimi hisobiga, balki xizmatlar ko‘lamining kengayishi va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi evaziga barqaror o‘sib bormoqda.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholashning an’anaviy va innovatsion – ko‘p o‘lchamli ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovutlar quyidagi jadvalda tizimlashtirildi:

1-jadval. O‘zbekiston turizm sanoati muvaffaqiyatini baholash indikatorlarining qiyosiy tahlili (2019-2024 yy. tendensiyalari asosida)[8]

Baholash yo‘nalishlari	An’anaviy ko‘rsatkichlar	Innovatsion ko‘p o‘lchamli	Ijobiy natija/Samara
Iqtisodiy ta’sir	Kelgan sayyohlar soni (mln kishi)	Bir sayyohning o‘rtacha xarajati va multiplikativ	Turdosh tarmoqlarda daromadning 2,3 barobar
Infratuzilma	Mehmonxonalar va yotoq o‘rinlari soni	Infratuzilmaning yuklanish indeksi va xizmat sifati	Mavsumiy darajasining pasayishi xa xizmatlar
Texnologik daraja	Turistik agentliklar soni	Raqamli transformatsiya indeksi (onlayn bronlash, e-booking)	Tranzaksiya xarajatlarining 30% gacha qisqarishi
Barqarorlik	Umumiy turistik tushum hajmi	Har bir xodimga to‘g‘ri keladigan samaradorlik (KPI)	Sohada yangi yuqori malakali ish o‘rinlari yaratilishi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatib turibdiki, infratuzilmaning raqamli tayyorgarlik darajasi oshishi turistik mahsulotlarning jozibadorligini 18-20% ga oshirgan. Shuningdek, turizm klasterlari doirasida multiplikativ samara koeffitsiyenti o‘rtacha 1,8 ga teng ekanligi aniqlandi, bu esa turizmga kiritilgan har bir so‘m investitsiya boshqa tarmoqlarda qo‘shimcha daromad yaratayotganini anglatadi. Ushbu natijalar turizm siyosatini rejalashtirishda faqat oqimga emas, balki iqtisodiy samaradorlik va raqamli integratsiyaga urg‘u berish zarurligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston turizm sanoatida miqdoriy ko‘rsatkichlardan sifat ko‘rsatkichlariga o‘tish jarayoni iqtisodiy barqarorlikning asosiy shartidir. Tadqiqotda taklif etilgan “Ko‘p o‘lchamli baholash mexanizmi” orqali olingan natijalar bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalarni muhokama qilishga imkon beradi.

Birinchidan, iqtisodiy multiplikator samarasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, turizm industriyasi faqatgina valyuta tushumi manbai emas, balki hududiy iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchdir. O‘zbekistonda turizm klasterlarining shakllanishi masalan, Samarqand va Buxoro turistik zonalarida transport, hunarmandchilik va oziq-ovqat sanoatida bandlik darajasini bevosita oshirmoqda. Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, multiplikativ samara koeffitsiyenti hali jahonning yetakchi turistik mamlakatlaridagi (Turkiya yoki Ispaniyada bu ko‘rsatkich ikki baravargacha yetadi) darajaga yetmagan. Bu nomutanosiblik mahalliy mahsulotlar va xizmatlarning turizm zanjiridagi ulushi hali ham to‘liq emasligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, infratuzilmaviy yuklanish indeksi bo‘yicha olingan natijalar turistik markazlarda “tadbirkorlik konsentratsiyasi” muammosini ochib berdi. Muvaffaqiyatni faqat mehmonxonalar soni bilan o‘lchash, infratuzilmaning (yo‘l, suv, energiya ta’minoti) mavsumiy o‘sishlarga bardosh bera olish qobiliyatini hisobga olmaydi. Muhokama jarayonida aniqlandiki, hududiy infratuzilmani innovatsion boshqarish orqali turizm mavsumiyligini kamaytirish va “past mavsum” davrida ham barqaror daromadni ta’minlash imkoniyatlari mavjud. Bu, ayniqsa, ekoturizm va agroturizm kabi yangi yo‘nalishlarni an’anaviy infratuzilmaga integratsiya qilishni talab etadi.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya masalasini muhokama qilar ekanmiz, raqamli texnologiyalar faqatgina “qulaylik” vositasi emas, balki turizm mahsuloti tannarxini tushiruvchi iqtisodiy omil ekanligi ma’lum bo‘ldi. Raqamli platformalar orqali vositachilar xarajatlarining qisqarishi natijasida turistik mahsulot raqobatbardoshligi oshadi. O‘zbekistonda “Smart Tourism” elementlarining joriy etilishi, xususan, onlayn navigatsiya va integratsiyalashgan to‘lov tizimlari turistlarning mamnunlik darajasini 20-25% ga oshirayotgani kuzatildi.[9]

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muvaffaqiyatni baholashda “har bir turistga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat” ko‘rsatkichi eng muhim strategik indikator bo‘lishi kerak. Faqat sayyohlar sonini oshirishga intilish resurslarning tezroq yemirilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, O‘zbekiston turizm sanoati uchun “yuqori qiymatli va kam ta'sirli” modelini qo‘llash va uning muvaffaqiyatini aynan shu prizmadan baholash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholash mexanizmlarini tadqiq etish natijasida olingan nazariy va amaliy xulosalar shuni ko‘rsatadiki, soha rivojini faqatgina miqdoriy o‘sish sur’atlari bilan baholash iqtisodiy jihatdan yetarli emas. Tadqiqot doirasida ilgari surilgan “Ko‘p o‘lchamli baholash mexanizmi” turizmning milliy iqtisodiyotga ta’sirini yanada chuqurroq va xolisona tahlil qilish imkonini beradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Iqtisodiy sifat ustuvorligi: Turizmning muvaffaqiyati kelgan sayyohlar soni bilan emas, balki ularning iqtisodiyotda qoldirgan sof foydasi va multiplikativ samarasi bilan o‘lchanishi lozim. Tahlillar O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkichni oshirish uchun turistik xizmatlar zanjirida mahalliy mahsulotlar ulushini ko‘paytirish zarurligini ko‘rsatdi.

2. Infratuzilmaviy barqarorlik: Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda “yuklanish indeksi”ni hisobga olish, resurslarning (tabiiy, madaniy, texnik) yemirilishini oldini oladi va xizmat ko‘rsatish sifatining pasaymasligini ta’minlaydi.

3. Raqamli integratsiya: Raqamli transformatsiya turizm mahsulotining raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omildir. Raqamli indikatorlarning baholash tizimiga kiritilishi sohaning shaffofligini va investitsion jozibadorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi: Milliy statistik tizimni takomillashtirish: Turizm sohasida

[7] Vanhove, N. (2017). The Economics of Tourism Destinations: Theory and Practice. Elsevier.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari (2019-2024 yy. hisobotlari).

[9] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari (2019-2024 yy. hisobotlari).

“Turizm sun’iy yo‘ldosh hisoblari” (TSA) tizimini to‘liq joriy etish va baholash metodikasiga “har bir turistning o‘rtacha xarajati” indikatorini asosiy KPI sifatida kiritish, sanoatni raqamlashtirishni rag‘batlantirish: Turistik korxonalarning raqamli tayyorgarlik darajasini oshirish uchun imtiyozli kreditlash va texnologik grantlar tizimini yo‘lga qo‘yish, hududiy muvozanatni saqlash: Turistik oqimni faqat an’anaviy markazlarga (Samarqand, Buxoro, Xiva) emas, balki yuqori multiplikativ salohiyatga ega bo‘lgan ekoturistik va agroturistik hududlarga yo‘naltirish orqali “infratuzilmaviy bosimni kamaytirish”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi Qonuni (yangi tahriri).

3. UNWTO (2024). World Tourism Barometer and Statistical Annex, Volume 22.

4. World Economic Forum (2024). Travel & Tourism Development Index 2024: Restoring Momentum.

5. Porter, M.E. (1998). On Competition. Harvard Business Review Book.

6. Frechtling, D.C. (2012). The Economic Impact of Tourism: Overview and Concepts. Routledge.

7. Butler, R.W. (2006). The Tourism Area Life Cycle: Applications and Modifications. Channel View Publications.

